**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

**uluslararo ilmiy-nazariy
konferansi materiallari**

2024-yil 25-sentabr

Toshkent – 2024

UO‘K 845.711.05
KBK 133.585.3
“Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2024. – 438 b.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat SIROJIDDINOV
akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Tahrir hay’ati:

Tanju Oral Seyhan (Turkiya), Vahob Rahmonov (O‘zbekiston), Hamidulla Dadaboyev (O‘zbekiston), Samixon Ashirboyev (O‘zbekiston), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Ne’matilla Otajonov (O‘zbekiston), Abdumajid Madraimov (O‘zbekiston), Ulfatxon Muhibova (O‘zbekiston), Nusratulla Jumaxo‘ja (O‘zbekiston), Iqboloy Adizova (O‘zbekiston), Shuhrat Hayitov (O‘zbekiston), Odina Jamoldinova (O‘zbekiston), Zulxumor Xolmanova (O‘zbekiston), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Назгул Адышева (Qirg‘iziston), Ziyoda Teshaboyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Karomat Mullaxo‘jayeva (O‘zbekiston), Nargiza Rashidova (O‘zbekiston), Nodirbek Jo‘raqo‘ziyev (O‘zbekiston), Mahmadiyor Asadov (O‘zbekiston), Sabohat Bozorova (O‘zbekiston,) Ozoda Tojiboyeva (O‘zbekiston), Dilafruz Muhammadiyeva (O‘zbekiston), Iqbol O‘razova (O‘zbekiston), Elmira Hazratqulova (O‘zbekiston).

Ushbu to‘plamda Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferansi materiallari jamlangan. To‘plamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, faoliyati, adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyot rivojidagi o‘rni, adabiy-lingvistik, tarixiy-sotsiologik tadqiqi, shuningdek, Bobur va boburiylar siymosining zamonaviy adabiyotdagi badiiy talqini, adabiy ta’sir va izdoshlik masalalariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavriat talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

THE MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE, AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ALISHER NAVOʻI TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

UZBEKISTAN WRITERS UNION

BABUR INTERNATIONAL PUBLIC FOUNDATION

The Proceedings of the International ScientificTheoretical Conference

“THE IMPACT OF ZAHIR AD-DIN MUHAMMAD BABUR'S LEGACY ON THE ADVANCEMENT OF EASTERN STATEHOOD AND CULTURE”

September 25-26, 2024

Tashkent – 2024

UO‘K 845.711.05
KBK 133.585.3
“The Impact of Zahir ad-din Muhammad Babur's legacy on the advancement of Eastern statehood and culture”. The Proceedings of the International ScientificTheoretical Conference. – Tashkent: Nurafshon business, 2024. – 438 p.

Editor-in-Chief:
Shukhrat SIROJIDDINOV
Akademician
The Rector of the University of the Uzbek Language and literature named after Alisher Navo’i

Editorial Board:

Tanju Oral Seyhan (Turkey), Vahob Rakhmonov (Uzbekistan), Hamidulla Dadaboyev (Uzbekistan), Samixon Ashirboyev (Uzbekistan), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Uzoq Jo‘raqulov (Uzbekistan), Kemal Yavuz Ataman (Turkey), Ne’matilla Otajonov (Uzbekistan), Abdumajid Madraimov (Uzbekistan), Ulfatxon Muhibova (Uzbekistan), Nusratulla Jumaxo‘ja (Uzbekistan), Iqboloy Adizova (Uzbekistan), Shukhrat Hayitov (Uzbekistan), Odina Jamoldinova (Uzbekistan), Zulxumor Xolmanova (Uzbekistan), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Nazgul Adisheva (Kirgizistan), Ziyoda Teshaboyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan), Karomat Mullaxo‘jayeva (Uzbekistan), Nargiza Rashidova (Uzbekistan), Nodirbek Jo‘raqo‘ziyev (Uzbekistan), Mahmadiyor Asadov (Uzbekistan), Sabohat Bozorova (Uzbekistan) Ozoda Tojiboyeva (Uzbekistan), Dilafruz Muhammadiyeva (Uzbekistan), Iqbol O‘razova (Uzbekistan), Elmira Hazratqulova (Uzbekistan).

This collection contains the materials of the international scientific-theoretical conference on the topic *“The Impact of Zahir Ad-Din Muhammad Bobur’s Literary Legacy on the Advancement of Eastern Statehood and Culture”* held on the 541st anniversary of the birth of the great poet and scientist, famous political leader Zahir Ad-Din Muhammad Bobur. In this collection, the life and activities of the king and poet Zahir Ad-Din Muhammad Bobur and the role of his literary and scientific heritage in the development of classical literature: literary-linguistic, historical-sociological research, as well as the literary interpretation of Bobur and the Boburids’ in modern literature: literary influence and followers articles devoted to the issues. The book is intended for philological specialists, scientific researchers, graduate and undergraduate students, as well as a wide readership.

The attitude of the authors and the spelling of the titles of the works may differ from the editorial point of view.

BOBUR DUNYOSI

Shuhrat SIROJIDDINOV
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori, akademik,

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi”. Turkiy xalqlarning, xususan, o‘zbek xalqining madaniy taraqqiyot darajasi eng qadimgi davrlardan hozirga qadar dunyo ilm ahlini hayratga solib keladi. Buyuk mutafakkirlarimizning teran idrok mahsuli bo‘lgan ma’naviy merosi din va dunyo, axloq, qadriyat masalalari jamlangan manba sifatida alohida e’tiborga molikdir. Hurmatli yurtboshimiz qayd etganlaridek, “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim”.

O‘zbekiston Prezidenti Murojaatnomalarida, turli yillarda e’lon qilingan farmonlar, qarorlarida ajdodlar merosini o‘rganish, bugungi kun muammolariga aloqador qarashlarini tatbiq qilishga oid vazifalar belgilangan. Buyuk mutafakkirlar ijodiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilishdan asosiy maqsad yosh avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida shaklantirishdan iborat. Zero, “Butun dunyoda yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash ketayotgan bugungi kunda biz Markaziy Osiyoning kelajagi bo‘lmish yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim”.

Buyuk mutafakkirlarimizning ijod mahsullari dunyo ilm ahli tomonidan chin dildan e’tirof etilgan. Qudratli imperiya asoschisi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, faoliyati va ijodi o‘zi yashagan davrdan boshlab hozirga qadar katta qiziqish bilan o‘rganilib keladi.

Mamlakatimizda bugun buyuk ajdodlarimiz merosiga qaratilayotgan e’tibor, ular tomonidan yaratilgan boy ilmiy adabiy merosni tadqiq etish har qachongidanda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori ham mana shunday e’tiborning bir namunasi hisoblanadi. Qarorda jahon tarixida yorqin iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurligi alohida tilga olingan. Bobur ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va

xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida ham alohida qiymatga ega ekanligi ta’kidlangan.

Qarorda mustaqillik davrida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish, uning asarlarini yurtimiz va xorijiy davlatlarda targ‘ib qilish borasida amalga oshirilgan ishlar, boburshunoslik sohasidagi tadqiqotlar, respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy anjumanlar e’tirof etilgan. “Bobur ensiklopediyasi”, Bobur kulliyoti”, “Babur. Baburidы. Bibliografiya” kabi salmoqli nashrlar tilga olingan. “Bobur va dunyo” jurnalining tashkil qilingani madaniy hayotimizda katta voqea sifatida qayd etilgan.

Ushbu qarorga ko‘ra 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun tarix va geografiya yo‘nalishlarida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasining ta’sis etilishi millat ma’naviyati, ma’rifati tarixida buyuk hodisalardan biri bo‘lib qoladi.

Shuningdek, qarorda jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o‘rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanib, buyuk mutafakkirning ilmiy, ijodiy merosini mamlakatimiz hamda xalqaro miqyosda yanada chuqur o‘rganish va targ‘ib etish maqsadida bir qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e’lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman tashkil etish ko‘zda tutilgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga asosan 2023-yilning 25-26-sentabr kunlari Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o‘rni” mavzusida uluslararo ilmiy-nazariy anjuman bo‘lib o‘tdi.

Anjumanda dunyoning eng yetuk boburshunos olimlari, turli tashkilot va idoralar vakillari, tadqiqotchilar ishtirok etdi. Italiya, Yaponiya, Rossiya, AQSh, Turkiya, Eron singari mamlakatlardan Bobur vataniga tashrif buyurgan sharqshunos, filolog va turkolog olimlar jam bo‘lib, dunyo tarixida muhim o‘rin tutgan sarkarda hamda yetuk ijodkor Bobur shaxsi, faoliyati, ijodi, qolaversa, buyuk hukmdor asos solgan ulkan saltanat tarixiga doir eng so‘nggi tadqiqotlarining natijalari bilan bo‘lishdilar.

Jahon ilm-fani taraqqiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining o‘rni va ahamiyati katta. Xususan, “Boburnoma” XVI asrgacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni qamrab olgan, barcha sohalarda qimmatli ma’lumotlar beruvchi, o‘zbek xalqining jahondagi boshqa millatlar bilan adabiy-madaniy aloqalari tarixini yoritishga xizmat qiladigan noyob manbadir. Ushbu anjumanda aynan G‘arb olimlari tomonidan Boburning o‘z memuar asarida turkiyligi, temuriylar sulolasidan ekanligiga alohida urg‘u berganligi, bobokalonlari bilan faxrlanishi qayd etilgani alohida ta’kidlandi. Xususan, anjuman yalpi majlisida so‘zga chiqqan “Boburnoma” ilmiy-tanqidiy matni muallifi, Yaponiya ilmiy akademiyasi akademigi Eijo Mano, italiyalik siyosatshunos, publitsist, “Sandro Teti Editore” nashriyoti asoschisi va rahbari Sandro Teti, Rossiya fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori Darya Jigulskaya va boshqalar ayni mavzuda yakdil xulosalarini bayon etdilar.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida aks etgan teran tafakkur mahsullari dunyo madaniyatida me’morchilik, bog‘dorchilik, tarix, geografiya, ma’rifat va ma’naviyat sohasida yetuk ilmiy masalalarni o‘rtaga tashlagani bilan ahamiyatlidir. Boburning arab yozuvi imkoniyatlaridan foydalanib alifbo yaratgani, imlo masalalari, savodxonlik borasida e’tiborli bo‘lgani, “Xatti Boburiy”ning ma’lum muddat amalda bo‘lgani, bu yozuvda sarxatlar (husnixat namunalari) shakllantirilganining o‘ziyoq buyuk mutafakkirning millat madaniyati va ma’naviyati tarixidagi yuksak maqomini belgilab beradi.

Bobur shaxsiyatida buyuk imperiya tuzgan, harbiy mahorati, qo‘shinni boshqarish va g‘alabaga da’vat etish san’ati dunyoni qoyil qilgan mahoratli sarkarda, ko‘ngillarni zabt etgan, qalblarga kirib borgan shoir siymosi gavdalanadi. Bobur she’riyati dunyo hodisalari, ijtimoiy munosabatlar, vatan, yor-diyor madhi tarannum etilgan o‘tli satrlarni o‘z ichiga oladi. Boburning shoh asari “Boburnoma” XV-XVI asrlar O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston tabiiy manzarasi, ijtimoiy-madaniy muhiti, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti aks etgan qomusiy ma’lumotnoma sifatida qimmatlidir. Tilshunos olim A.Nurmonov Boburni tilshunoslikning grafika, onomastika, etimologiya, leksikografiya sohalari rivojiga munosib ulush qo‘shgan, so‘zlarning mazmuniy maydon tushunchasiga ko‘ra izohiga asoslangan tezaurus lug‘at tuzishning o‘ziga xos namunasini yaratgan olim sifatida tavsiflagan. T.Nafasov nomshunos olim sifatida e’tirof etgan. Zokirjon Mashrab o‘g‘li Bobur mirzoning seysmologiyaga oid jarayonlarni ilk bor o‘zbek tilida izohlagan olim ekanligini qayd etgan.

Bobur g‘azallari, “Boburnoma”si dunyoning qirqqa yaqin tillarida sevib mutolaa qilinmoqda. Bobur asarlariga bu qadar qiziqishining asosiy omillaridan biri ijodkorning so‘z va iboralar ma’nolarini mahorat bilan qo‘llay olgani va ularga ta’sirchan ma’no-mazmun yuklay olganidadir.

1-SHO‘BA

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR FAOLIYATI, DAVLATCHILIK SIYOSATI, FAN VA SAN’AT TARAQQIYOTI

Zahiriddin Muhammad Bobur mo‘g‘ul emas, turkiy edi
Zahiriddin Muhammad Babur was Turkish, not Mughal

Zokirjon MASHRABOV[1]

Annotatsiya: Ushbu maqola Bobur va boburiylarga nisbatan G‘arb tarixchilari tomonidan noto‘g‘ri qo‘llanilib kelayotgan “Mo‘g‘ul” atamasining kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olib, sulolaga nisbatan “Turkiy” so‘zining ishlatilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Bobur, temuriylar, boburiylar, chingiziylar, mo‘g‘ul, turkiy, chig‘atoy ulusi.*

Annotation: This article provides information about the origin of the term “Mongol” which has been incorrectly applied by Western historians to Babur and the Baburids. It also justifies the use of the word “Turkic” in relation to the dynasty.

Key words: *Babur, the Timurids, the Baburids, the Genghisids, the Mongols, the Turks, and the Chagatai Ulus.*

...Bobur Mirzo bizning avlodlarga g‘urur bilan aytadigan buyuk bobomizdir. U Andijonda tug‘ildi, Andijonda kamol topdi. Mana shunday ulug ajdodlarimiz borligi, ular o‘zbek farzandi ekanini hech qachon unutmasligimiz kerak. Milliy o‘zligimizni anglashni ayni shundan boshlashimiz lozim.

Sh.M.Mirziyoyev

Chingiziylar, temuriylar va keyinchalik boburiylar buyuk saltanatlari jahon tamaddunida salmoqli iz qoldirgan. Chingiziy hukmdorlarning ba’zi birlari Mavoraunnahr (Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi hududlar)ning ayrim shahar va qishloqlarini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shganlar. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, sulolaning davomchilari bo‘lmish Xaydu (Qaydu) va Tuvaxon (Duvaxon)lar davrida Boburning ona shahri Andijon har tomonlama rivoj topib,

[1]*Zokirjon Mashrabov* – Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi.

gullab-yashnagan. Ayniqsa, Duvaxon hukmdorligida (1291-1306 y.) poytaxt maqomiga erishib, qubbatul Islom – Islom markazi, deya e'tirof etilgan.

Amir Temur Ko'ragoniy nomi bilan bog'liq ijobiy o'zgarishlar fanda Amir Temur uyg'onishi (renessans) sifatida baholanadi. Mazkur sulolaning hukmronligi Amir Temurning Mavoraunnahr taxtiga o'tirishidan (1370-yil yozi) boshlab, to Boburning avlodi Bahodirshoh Zafar davrigacha, ya'ni 1858-yilga qadar davom etgan. Ya'ni, sulola Movarounnahr, Xuroson va Hindistonni qariyb 350 yil boshqargan. Sohibqiron Amir Temur olimlar, ilm-ma'rifat peshvolariga alohida e'tibor qaratgan va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlagan. Amir Temurning o'z ahamiyatini yo'qotmagan harbiy san'ati hozir ham o'rganilayotgan bo'lsa, unga tobe hududlarda hukmdor amri bilan madrasalar, masjidlar, maqbaralar, ko'priklar, karvonsaroylar, sug'orish inshootlari va boshqalar qurilgani bilan ahamiyatli.

Tarixchilar ularning faoliyatiga turlicha baho beradilar. Masalan, Amir Temurni mo'g'ul imperatori Chingizxonning sulolasi bilan bog'laydilar. Bu haqiqatdan yiroq. "Dasht saltanati" kitobida tarixchi olim Rene Trusse shunday yozadi: "Amir Temur hech qanday mo'g'ul emas, balki u turkdir. Kesh muzofotidagi barlos qavmiga taalluqlidir". Amir Temurning kelib chiqishini Javoharlal Neru ham turkiylarga bog'laydi. Bu buyuk shaxs va uning avlodlari Hindiston tarixida sezilarli iz qoldirgan.

Amir Temur va temuriylar Hindiston bilan faol diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ygan edilar. Masalan, XV asrning birinchi yarmida temuriylar Hindiston bilan mustahkam savdo aloqalarini o'rnatdilar. Buyuk Ipak yo'li vositasida amalga oshirilgan bu hamkorlik Samarqand orqali O'rtayer dengiziga qadar yetib borgan holda mintaq aadagiksariyat mamlakatlarining Xitoy va Hindiston bilan yaqinlashishiga xizmat qilgan.

Temur avlodi Xuroson va Turon podshohi mirzo Shohruh 1442-yilda Janubiy Hindistonning Vidjiyanagar davlatiga taniqli tarixchi Abd-ul-Razzoq Samarqandiy boshchiligida elchilarni yuborgan. O'z vazifasini muvaffaqiayatli bajargan delegatsiya 1444-yilda Hirotga eson-omon yetib keladi. XVI asrda Bobur Hindistonda o'z saltanatini qaror toptirgach Hindiston va Markaziy Osiyoning madaniy aloqalarida yangi bosqich boshlanadi. Bobur boburiylarning Hindiston tarixida tutgan roli va ahamiyatini Hindistonning yetuk siyosiy arbobi Javoharlal Nerudan yaxshiroq ifodalash mushkul: "Boburning Hindistonga kelishi taraqqiyotga ulkan turtki berdi, u hayot, san'at va arxitektura, madaniyatning boshqa sohalari rivojlanishini rag'batlantirib bordi. Bobur dilbar shaxs edi. U dovyurak qalb sohibi, uyg'onish davrining yorqin vakili. Hayotdan zavqlanib yashardi". Chingizxon o'limidan so'ng Markaziy Osiyoning Chig'atoy ulusigacha bo'lgan aksariyat qismi uning o'g'li Chig'atoy qo'liga o'tdi.

Vaqt o‘tishi bilan Chingizxon qo‘shinining o‘zagini tashkil etuvchi mo‘g‘ullarning asosiy qismi vataniga qaytdi. Doimiy yashash uchun qolganlari esa tub aholi bilan qorishib ketib, ona tillarini unutdi. Mazkur ulus aholisining o‘zagini turkiy qavmlar tashkil qilib, ular hozirgi o‘zbeklarning ajdodlari hisoblanadilar. O‘sha davrda turkiylar Yevroosiyoning ko‘plab hududlarida istiqomat qilganlar. Chig‘atoy ulusidagi turklarni o‘zga hududlardagilardan farqlash maqsadida ularni Chig‘atoy turklari yoki oddiygina qilib chig‘atoylar, deya atashgan.

XIV asrning o‘rtalarida Chig‘atoy ulusining ikki qismga bo‘linishi sababli sharqiy hududlarda Mo‘g‘ul xonligi qaror topdi. Yangi davlat aholisining o‘zagini yana o‘sha turklar tashkil qildi.

Hindiston aholisi o‘rta asrlarda shimoldan lashkar tortib yoki guruh-guruh bo‘lib yashash uchun joy topish ilinjidagi har qanday kelgindilarni mo‘g‘ullar deb atashgan. XIV asrda o‘sha “mo‘g‘ullar” aslida turkiylar bo‘lgan.

“Buyuk mo‘g‘ullar” atamasi ingliz istilochilari davrida iste’molga kiritilgan. Hindistonda “mo‘g‘ul” so‘zi Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyo musulmonlariga nisbatan qo‘llanilgan. Hindistonda buyuk saltanatga asos solgan Bobur o‘zini mo‘g‘ul emas, turk deb atagan. O‘zining Hindistonga yurishini o‘tmishda (Mahmud G‘aznaviydan tortib, Amir Temurga qadar) turk sultonlariga tobe bo‘lgan, aholi tarkibining ma’lum qismi turkiylardan iborat hududlarni zabt etish istagi bilan izohlagan.

“Boburnoma”da muallif yozishicha, turklar boshqaruvidagi hind viloyatlarini tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritish uchun Sulton Ibrohim Lo‘diyga elchi yuborgan.

Bobur va boburiylar davrida Hindiston barcha jabhalarda sezilarli darajada taraqqiy topdi. Jumladan, shaharsozlik, mahobatli me’morchilik, san’at sohasining rivojiga ulkan hissa qo‘shildi. Betakror arxitektura yodgorliklari, san’at durdonalarida ikki xalq madaniyatining uyg‘unligi, o‘zaro bog‘liqlikda yuksalishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Agradagi Toj Mahal, Dehlidagi Moti masjidi, Qizil Fort va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Ularning aksariyatida Hindiston va Movarounnahr me’morchiligi an’analari hamohang ravishda o‘z ifodasini topgan. Ayniqsa, Akbarshoh amri bilan poytaxt sifatida bunyod etilgan “Fotehpur Sekri” shahri diqqatga sazovor. “Boburnoma” da ham tilga olingan, ildizlari Markaziy Osiyo an’analariga borib taqaladigan yana bir inshoot – Odinapurdagi Sadoqat bog‘idir.

Muhammad Mirzo Haydar tomonidan “Tarixi Rashidiy” asarida keltirilgan mo‘g‘ul xonligi XVI asr o‘rtalariga qadar davr surgan Chig‘atoy davlatining tanazzulidan so‘ng Movarounnahr (Buxoro) va Sharqiy Turkiston (Qashqar)da tashkil topdi.

Bobur va Boburiylar davrida ham, hozirda ham Hindiston bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalar izchil rivojlanmoqda. Hind savdogarlari Samarqand, Buxoro, Toshkent va Andijonda uzoq yillar turg‘un yashab,

savdo-sotiq ishlarini muvaffaqiyatli olib borganlar. Mazkur shaharlarda o‘z millatdoshlari tomonidan boshqarilgan hind mavzelari mavjud bo‘lgan. XIX-XX asrlarda O‘zbekistonda 8 mingga yaqin hind istiqomat qilgan (asosan sinx va panjoblar). Andijon viloyatining Oltinko‘l tumanida saqlanib qolgan “Hindu mozor” qabristoni o‘sha davrdan yodgorlik.

Yuqorida keltirilgan dalillar Bobur Hindistonda mo‘g‘ul davlatini emas, balki turkiylar saltanatini barpo etishni niyat qilganini tasdiqlaydi. Demak, tarix nuqtai nazaridan uning davlatini “Buyuk turkiylar davlati” yoki “Boburiylar buyuk imperiyasi” deya atamoq to‘g‘ri va maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boburiylar hukmronligi davrida Hindiston o‘z taraqqiyotida yuksak darajaga ko‘tarilib, Movarounnahr madaniyati an’analarini o‘zida mujassam etdi.

Buyuk mo‘g‘ullar – sulton Bobur asos solgan va Hindistonni uch asr mobaynida boshqargan mashhur sulolaga mansub hukmdorlarga yevropaliklar tomonidan berilgan unvon. Boburiylar mazkur nasabni yanglish hisoblaganlar, zero ularning mo‘g‘ullarga taalluqli joyi yo‘q edi. Bobur o‘zini turkiy hisoblab, bu bilan faxrlangan hamda mo‘g‘ul tilini bilmagan. O‘zining esdaliklarini turkiy tilda (chig‘atoy lahjasi) bitgan. Boburiylar haqida yevropaliklar ilk bor forslar orqali xabar topganlar. Forslar Amudaryo ortida yashovchi chig‘atoy turklarini mo‘g‘ullar deb ataganlar. G‘arb olimlari esa atamaning farqiga bormay, buyuk mo‘g‘ullar saltanati sifatida talqin qilganlar. Boburiylarning hukmdorlik darajasini ko‘rsatuvchi atama “podishoh” bo‘lib, forsiylardan andoza olingan va Bobur tomonidan 1506-yilda qabul qilingan.

Bir manbaga ko‘ra, nasl-nasabi turkiy bo‘lgan, kelib chiqishi mo‘g‘ullarga borib taqaluvchi hukmdorlar tomonidan boshqarilgan Buyuk Mo‘g‘ullar (o‘z-o‘zini fors – ko‘ragoniy, deya e’tirof etgan) saltanati 1526-yildan 1528-yilga (aslida XIX asr o‘rtalariga) qadar davr surib, hozirgi Hindiston, Pokiston va janubiy Afg‘oniston hududlarini qamrab olgan.

Boburning o‘zi Temuriyzoda bo‘lib, turkiylarning Barlos qavmiga mansub. V.Bartold ayrim faktlarga asoslanib, mo‘g‘ullar mo‘g‘ul tilida so‘zlashgan, deya ta’kidlaydi. Qozoq tarixchisi Yudin esa mo‘g‘ullar turkiyzabon qabilalardan iborat bo‘lganligini e’tirof etadi. Saltanat asoschisi Bobur Temuriylar davlatining Farg‘ona vodiysida joylashgan Andijon shahrida tavallud topgan. Boburdan boshlangan hukmdorlar sulolasini hindlar o‘z odatlariga ko‘ra mo‘g‘ullar deya atashgan. XVII asrdagi yevropalik sayyohlar esa unga “Buyuk mo‘g‘ullar” nisbatini berganlar.

Buyuk mo‘g‘ullarni Temuriylar deyish ham mumkin, davlat va sulola asoschisi nomiga mos ravishda Boburiylar deya atalsa ham bo‘ladi. Sulola vakillari turk va fors tillarida so‘zlashganlar.

Ma’lumki, Bobur nomli xalqaro jamoat fondi tomonidan Bobur tug‘ilgan yurti Andijonda uning tavallud sanasi munosabati bilan har yili xalqaro miqyosda ilmiy-

amaliy anjuman o‘tkazish an’anaga aylangan. Bobur podshoh hayoti va ijodini to‘la yoritish, “Boburnoma”ning jahonshumul ensiklopedik asar ekanligi, buyuk shoir shaxsiyati, uning fiqh, adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarini rivojlantirishdagi hissasi, ilm-fan va madaniyat homiysi sifatidagi faoliyatini ochib berishga qaratilgan. 2017-yil, 27-28 oktabr kunlari “Zahiriddin Muhammad Boburning jahon madaniyati tarixida tutgan o‘rni” mavzusida navbatdagi xalqaro anjuman tashkil etilgan bo‘lib, unda ishtirok etgan mashhur xorijlik va mahalliy boburshunoslar bugungacha jahon ilmiy-adabiy jarayonida Bobur va boburiylarga nisbatan xato qo‘llanib kelinayotgan “Buyuk mo‘g‘ul” atamasini qo‘llamaslik hamda Bobur ijod qilgan tilga nisbatan yanglish “chig‘atoy tili” atamasi o‘rniga eski o‘zbek (turkiy) tilini ilmiy iste’molga kiritish to‘g‘risida takliflarni qo‘llab-quvvatlab, bu haqda ham anjuman yig‘ilishi ishtirokchilarining qarori qabul qilingan. Aynan mana shu jihat fond tashkil etgan ushbu xalqaro anjumanning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilab berdi, desam also mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bobur – Hindiston mamlakati tarixining tengsiz bilimdoni
Babur – An unparalleled scholar of the history of the country of India

Hamidulla DADABOYEV[1]

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega. Ayniqsa, uning sarkardalik qobiliyati keying davrdagi hukmdorlar uchun doimo o‘rnak bo‘lib kelgan. Ushbu maqolada Boburning Hindistondahi harbiy harakatlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Bobur, “Boburnoma”, Hindiston, sarkarda, lashkar.*

Annotation: Zahiruddin Muhammad Babur is known and famous all over the world as a great poet, encyclopedist, statesman and a skilled general. His incomparable scientific and creative heritage has a special place not only in the formation of our national culture and the literary and aesthetic thinking of our people, but also in the history of world literature, science and statecraft. In particular, his ability as a commander has always been an example for future rulers. This article talks about Babur's military actions in India.

Key words: *Babur, “Baburnoma”, India, warlord, army.*

Peterburg universiteti professori N.N. Veselovskiy ta’biri bilan aytganda, botirligining cheki bo‘lmagan, hayoti jasorat namunasi bilan to‘lib-toshgan Bobur yetti-sakkiz yil ichida Hindistonga besh navbat cherig tortdi. Beshinchi navbat, ya’ni 1526- yili Tangri taoloning fazli va karami bilan Panipat jangida Dehli hukmdori Sulton Ibrohimning yuz ming kishilik sipohini 12 ming navkar, savdar va chokarlardan tashkil topgan cherigi yordamida maksur (mag‘lub) va abtar (parishon) etib, Hindistondek qadimiy mamlakatni qo‘lga kiritishga muyassar bo‘ldi. Yurish-turishning hisobu yarog‘ini yaxshi bilgan Shayboniy xonlar va sultonlar bosimiga dosh berolmay o‘z yurtini qo‘yib, Hind sari yuzlangan Bobur shoh bu ko‘hna mamlakat tarixiga oid manbalarni sinchkovlik bilan o‘rganganiga shubha yo‘q. Zotan, mavjud manbalarda bayon etilgan voqea-hodisalardan xabardor bo‘lmasdan turib, Hindistonning o‘tmishi, uning tabiati, hayvonot va o‘simlik dunyosi, jug‘rofiy o‘ziga xosligi, unda hukmdorlik qilgan turli sulolalar tarixi, qadimda shakllangan rasm-rusm, odat-u qadriyatlar haqida aniq, obektiv ma’lumotlar keltirish, mulohazalar bildirish amri mahol.

[1] *Dadabayev Hamidulla Aripovich* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Ulkan hududli, ko‘p aholiga ega, tuprog‘i mahsuldor Hindiston mamlakatining sharqi, janubi va g‘arbi Muhit daryosi, ya’ni Hind okeani hamda Bengaliya ko‘rfazigacha yastangani, shimol tomonidagi tog‘ Hindikush, Kofiriston (hozirgi Afg‘onistonning Nuriston viloyati) va Kashmir tog‘lariga tutash ekanligi, g‘arbi-shimolida Kobul, G‘azna va Qandahor shaharlari joylashgani, Hindiston atalmish mamlakatning poytaxti Dehli shahri ekanligi, Sulton Shahobuddin G‘o‘riy hukmronligi vaqtidan to To‘g‘luqiylar sulolasi vakili Sulton Feruzshoh (1325-1351) davriga qadar tamom Hindiston Dehli sultonlari qo‘l ostida qolganligini Bobur quyidagicha tasvirlaydi: *Hindiston mamoliki vasi’ va purmardum va purhosil viloyat voqi’ bo‘lubtur. Sharqi va janubi balki g‘arbi ham Muhit daryosig‘a muntahi bo‘lur. Shimoli bir tog‘durkim, Hindukush va Kofiriston va Kashmir tog‘lari bila payvasdur. G‘arbi-shimoli Kobul va G‘azna va Qandahor voqe’ bo‘lubdur. Jami Hiduston viloyatining poytaxti Dehli ermish. Sulton Shahobuddin G‘o‘ryidin so‘ng Sulton Feruzshohning oxir ahdig‘acha aksar Hinduston Dehli sultonining taxti zabtida jamdur* (BN, 340). Ushbu bayondan keyin Bobur Sulton Ibrohimni *“Tangrining mahdi lutfi va shavqati hamda karamu inoyati”* bilan mag‘lub etgan kezda, Hindistonda yetti nafar kishi hukmronlik qilayotgani, u yoki bu viloyat qaysi sulolaga bo‘ysunishi borasida o‘ta aniq ma’lumotlarni keltirishga kirishadi:

Bu tarixdakim, men Hindustonni fath qildim, besh musulmon podshoh va ikki kofur Hindustonda saltanat qilurlar edi. Agarchi kichak-kirim roy va roja tog‘u jangalda xili bor edilar, vale mu’tabaru mustahil bular edilar. Bir afgonlar edikim, Dehli poytaxti alarda edi. Behra (Panjobdagi Jelam daryosining so‘l qirg‘og‘idagi shahar)din Bahorg‘acha qobiz (ega) edilar. Afg‘onlardin burun Jo‘npur (hozirgi Hindistonnning Uttar Pradesh shtatidagi shahar) Sulton Husayn Sharqiy (Sharqiylar sulolasining so‘nggi vakili 1507-yilda vafot etgan)ning qabzida edi. Bu jamoatni puriy derlar. Bularning otalari Sulton Feruzshoh va ul salotining olida saqqo (suv tashuvchi, meshkop) ekandurlar. Feruzshohdin so‘ng Jo‘npur mamlakatig‘a musallat (g‘olib) bo‘lubdurlar (BN,340).

Hindiston to‘g‘risidagi tarixiy bayondan so‘ng Bobur mamlakat poytaxti Dehli hamda Gujarot, Dakan, Molva, Bangola va Bijongar viloyatlarida siyosat yuritgan shaxslarning surati-yu siyrati xususida qimmatli chizgilarni keltirishga kirishgan. Dehliga oid “Boburnoma”dagi tubandagi fukrlarga diqqat qilamiz*: Dehli Sulton A’louddinning ilgida edi. Bu tabaqa sayyidtur. Temurbek Dehlini olg‘anda Dehli hukumatini guparning otalariga berib, borib edi. Sulton Bahlul Lo‘diy afg‘on va o‘g‘li Sulton Iskandar Dehli poytaxti bila Jo‘npur poytaxtig‘a qobiz bo‘ldilar. Har ikki poytaxt bir podshohnishin bo‘ldi* (BN,341). Jumlada nomi tilga olingan Sulton A’louddin sayyidlar sulolasiga mansub shaxs bo‘lib, 1443-1451-yillarda Dehlida sultonlik qilgan. 1398-yilning 17-dekabrida Panipatda Sulton Mahmud hamda Malluxon boshliq hindlarning 30 ming kishidan iborat sipohini tor-mor keltirgan

Amir Temur Dehlida o‘n besh kun turgach, Nizomiddin Shomiyning ta’kidlashicha, nabiylik xonadoni va hazrati Rasulullоh noyiblariga bo‘lgan ihlos tufayli ilgariroq sayyidlar, ulamolar, qozi va mashoyixlarga biror aziyat yetmasligi uchun ular Jahonpanoh mavzesidagi masjidi jomeda muhafozat qilib turilgan edi. Shu bois inson qavmlarining xulosasi va xalqlar sarasi bo‘lgan bu toyifa Sohibqironning adlu ehsoni himoyasida salomat va amon qolgan. 1399-yilning 1-yanvarida Jahonpanohdan uch kuruh masofada joylashgan Feruzobod tomon yo‘l olgan Amir Temur Dehli boshqaruvini kimga topshirgani borasida G‘iyosuddin Ali, Nizomuddin Shomiy va Sharofudddin Ali Yazdiy, Muinuddin Natanziy asarlarida aniq ma’lumot keltirilmagan. Faqat Ibn Arabshoh Sohibqiron Hind taxti va uning shaharlarini istilo etgach, hech narsadan taf tormay, bir noib tayinlab, ortga qaytganligini urg‘ulagan (Ibn Arabshoh, 176) Tarixdagi ushbu bo‘shliqqa barham bergan Bobur Amir Temur tomonidan Hindiston, chunonchi, Dehli hukumatini boshqarishga belgilangan noib sayyidlar tabaqasiga taalluqli Sulton A’louddinning ajdodi ekanligini alohida qayd etgan. Shu o‘rinda, Sohibqiron Hindiston, hususan, Dehlini idora qilishga qo‘ygan noibning oti hozircha noma’lum qolayotganini ta’kidlash lozim bo‘ladi.

Dehlidan keyin tilga olingan Gujarot viloyati Panipat jangidan bir necha kun oldin olamdan o‘tgan, shariat ahkomlariga beistisno rioya qilgan, ilmga oshno bo‘lgan, hamisha hadisi sharif hamda Qur’oni Karimni mutolaa qiluvchi tonk tabaqasi vakili, ajdodlari Sulton Feruzshoh va uning avlodlari huzurida sharobdor sifatida xizmat qilgan Sulton Muzaffar tomonidan boshqarilganini e’tirof etadi:

Ikkinchi Gujarotda Sulton Muzaffar edi. Sulton Ibrohimdin bir necha kun burunroq olamdan naql qildi. Bisyor mutasharri’ podshoh edi. Tolibi ilmlig‘i bor edi. Hadis mutolaa qilur erdi, doim Mushaf kitobat qilur erdi. Bu tabaqani tonk derlar. bularning ham otalari Sulton Feruzshoh va ul saloting‘a sharobdor ekandurlar. Feruzshohdin so‘ng Gujarot viloyatig‘a qobiz bo‘lubturlar (BN,341).

Hindistonning janubida joylashgan Dakan viloyati amir Tangu asos solgan Bahmaniylar sulolasi a’zolari tomonidan boshqarilgan. Vijayangar rojalari bilan tinimsiz urush olib borgan Bahmaniylar hokimiyati zaiflashgan. Natijada, usbu viloyat hukumatini idora qilish yirik beklar izmiga o‘tgan (BE,83-84). Dakanda hukm surgan Bahmaniylar borasida Bobur shunday yozadi: *Vale bu tarixda Dakan salotinig‘a ixtiyor va iqtidor qolmaydur edi. Tamom viloyatlarni ulyg‘ beglar iliklab edi* (BN,341).

Tarixiy manbalarda Mandov va Mandu nomlari bilan yuritilgan Malva viloyati Markaziy Hindistonda joylashgan b‘lib, moziyda Malava, Mauriy ba Guptalar davlati tarkibida faoliyat olib borgan. Sohibqiron Dehlini taxti farmoniga olganidan keyin Dilovarxon mustaqillik e’lon qilib, Manduni poytaxt qilgan. Malvada G‘o‘riylar (1401-1436) hamda Xiljiylar (1436-1531) mustaqil siyosat yuritgan. Bobur Dehli sultonligini o‘z tasarrufiga kiritgan kezda Malva taxtida ajdodlari Feruzshoh davrida

murabbiylik bilan shug‘ullangan Xiljiylar tabaqasining oxirgi vakili Sulton Mahmud o‘tirgan edi (BE,323).

“Boburnoma”da Hindistonning to‘rtinchi yirik yiloyatlaridan biri sifatida tasvirlangan Bangola (hozirgi Bangladesh davlati) Ganga daryosining quyi oqimida joylashgan bo‘lib, XIII yuzyil boshida Dehli sultonligiga qo‘shib olingan. To‘g‘luqiylar va Xiljiylar zamonida Bangolada Dehli sultonligi istibdodiga qarshi yirik qo‘zg‘alonlar ko‘tarilgan. Lo‘diylar davrida mustaqilikka erishgan Ilyosshohiylar va Habashiylar tomonidan boshqarilgan. Bangola Akbar davrida Boburiylar saltanatiga qo‘shib olingan (BE,91). Bobur Dehlini fath etgan paytda Bangolaga sayyidlar avlodidan bo‘lgan Sulton A’louddinning farzandi Nusratshoh rahbarlik qilgan (1519-1532). Bobur Bangola viloyatida mavjud rasm-rusum va odatlarga maxsus to‘xtalib, quyidagi mulohazalar bilan o‘rtoqlashadi*: Beshinchi Bangola viloyatida Nusratshoh edi. Otasi Bangolada podshoh bo‘lub edi, sayyid edi, Sulton A’loudding‘a mulaqqab (adash, nomdosh) edi. Mung‘a (Nusratshohga) saltanat meros tegib edi. Ajab rasmedur, Bangolada saltanat merosi kamroq bo‘lur. Podshohning bir muayyan taxti bor. Umaro va vuzaro va sohibmansablarnning har qaysisining bir muqarrariy yeri bordur. Bangola el qoshida ul taxt va yerlar mu’tabardur. Har qaysi yerda tobi’ va mute’ navkar-u choker va jam’i muayyan va muqarrardur. Podshohning nasb (taxtga shiqish) va azli (taxtdan tushish) xotiri tilasa har kimnikim, birovning yerig‘a o‘lturg‘uzdi, ul yerga tobi’ va mute’ navkar-u chokar tamom bu kishining bo‘lur, balki podshining taxtida ham bu xosiyat (xususiyat)dur. Har kim podshohni o‘lturub, taxtg‘a chiqqung‘a fursat topsa, ul podshoh bo‘lur. Umaro-yu vuzaro va sipohiy (lashkar) raiyat (xalq) barcha anga itoat va inqiyod qilurlar. Nusratshohning otasi Sulton A’louddin burun bir habashiy podshohni o‘lturub, taxtqa chiqib, muddate saltanat qildi. Yana Bangolada bu rasmdurkim, har kishikim, podshoh bo‘ldi, burung‘i podshohlarning xizonalarini sarf-u harj qilmog‘liq kulliy ayb va ordur. Har kim podshoh bo‘lsa, yana yangi xizona yig‘moq kerak. Xizona jam’ qilmog‘liq ul elning qoshida faxr-u mobohot (maqtanish)tur. Yana bir rasm budurkim, xizona va poygoh va mulk salotinning jam’i maunat (oziq-ovqat)ining qadimdin muqarrar-u muayyan tanlari parganalar (qishloqlar) bordurkim, o‘zga yerda aslo harj bo‘lmas* (341-342).

Ulkan e’tiborga molik, ko‘p sonli lashkarga ega besh musulmon viloyatlari bayonidan keyin Bobur islomga kirmagan Bijonagar hamda Rona Sango rojaligining markazi sanalgan Chitor // Chitur viloyarlarida yuz bergan hodisalarga o‘quvchi diqqatini tortadi:

Kofirlardin ulug‘rog‘i viloyat va cherig bila Vijonagar rojasidur. Rona Sango (Rana Sangrat Singh – yirik sarkarda, Mevar hukmdori (1509-1527), rajnut rojalari vakili)*kim, bu yovuqlarda o‘zining jur’ati va qilichidinmuncha ulg‘ayib edi. Asli viloyati Chitur edi. Mandov salotinining saltanati xalai (tanazzul) topganda*

*Mandovga taalluq qalin viloyatqa qobiz bo‘ldi: misli – Ratanpur (*Ranpur*) va Sarangpur (*hozirgi Hindistonning Madx’ya-Paradesh shtatidagi shahar*) va Bxilsan || Bilsan* (Hindistonning Pojastan shtatidagi ko‘hna shahar) *va Chanderiy* (Hindistonning Madh’ya Peradesh shtatidagi tog‘lik shahar).

Ma’lumki, Bobur Chanderiy qo‘rg‘onini Rona Sangoning amirlaridan biri Mediniy Rav qo‘lidan tortib olgan va u yerdagi aholini islomga kiritgan. Bu haqda “Boburnoma”dagi qaydlar e’tiborga loyiq: *Tarix to‘qqiz yuz o‘ttuz to‘rtta Tangri taolo inoyati bila Chanderiykim, necha yil edi, dorulharb* (janggoh*) bo‘lub edi. Mediniy Rov otliq Rona Sangoning ulug‘ va mo‘tabar kishisi to‘rt-besh ming kofir bila anda edi. Bir-ikki kerida* (navbat*) zo‘rlab olib, kofirlarni qatli om qilib, dorul-islom (*musulmon yurti*) qildim* (BN, 342).

Hindistonning yuqorida zikr etilgan viloyatlari bayonini yakunlashda Bobur ayni mamlakat tevarak-atrofida ko‘pdan ko‘p roja va roylar boshqarayotgan yerlar mavjudligi, ularning ba’zilari islomga itoat qilishi, boshqalari esa musulmon hukmdorlarga bo‘ysunmasligini alohida urg‘ulagan: *Yana Hindustonning atrof-u javonibida roy va rojadur, ba’zi mutiul-islom, ba’zi yiroqligidin yo yeri bek* (mustahkam*)ligidin islom podshohlariga itoat qilmaydurlar* (BN, 342). Kezi kelganda, Hindistonda islom hukmdorlariga itoat qilmagan yerli aholi Bobur va Boburiylar davrida islomga kiritilganini ta’kidlash obyektiv haqiqatga mos tushadi, degan fikrdamiz.

Xullas, jahon tamaddunida o‘chmas iz qoldirgan titan shaxslardan biri sanalmish Zahiruddin Muhammad Boburning “Boburnoma”asarida keltirilan Hindiston mamlakati tarixiga tegishli qimmatli ma’lumotlarni sinchiklab o‘rganish nafaqat ilmiy-metodologik, balki ijtimoiy-amaliy jihatdan ham o‘ta muhimdir. Zero, Bobur o‘z davrida yuz bergan turli voqea-hodisalarni tasvirlashda tarixga haqqoniy, obyektiv munosabatda bo‘lgani bois ulkan yutuqlarga erishgan.

SHARTLI QISQARTMALAR:

BE – Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. 2014. Тошкент: Шарқ.

BN – Заҳириддин Муҳаммад Бобир. 1960. Бобирнома. Нашрга тайёрловчилар: П.Шамсиев, С.Мирзаев.-Тошкент: ЎзССР ФА нашриёти.

Ibn Arabshoh – Ибн Арабшоҳ. 1992. Ажоиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). Биринчи китоб. – Тошкент: Меҳнат.

Муиниддин Натанзий. 2011. Мунтахаб ут-таворихи Муиний.-Тошкент.

XVI Yüzyilda Babur şah'in eserlerinden Ali şir Nevâyî'ye bakiş, kaynaklari arasinda yeri
Overview of ali shir navoi from the works of Babur shah in the XVIth century, his place among the sources of Babur

Tanju SEYHAN[1]

ÖZET: Baburnâme Babur Şah'ın düşünce dünyası, bilgi birikimi, stratejileri, sosyal hayatı ve daha pek çok konuda bize bilgi vermektedir. Bu çalışmamızda Aruz Risalesi ve Baburnâme vasıtasıyla aralarında sadece bir iki kuşak fark olmasına rağmen ve tanıştığı, bütün eserlerini okuduğu, Hindistan'da aynı alanda eser verdiği Ali Şir Nevâyî'den (9 Şubat 1441 – 4 Ocak 1501) istifade edişini, onu takip edişini, eleştirmesini incelemek, ondan yaptığı bütün alıntıları bir arada vermek istiyoruz.

Babur Şah'ın Baburnâme'de Ali Şir Nevâyî'den bahsettiği yerlerde onu eserleri, kültür ve siyaset insanı olarak adım adım takip ettiğini, ilişkilerini değerlendirdiğini görüyoruz. Aruz Risalesi'nde Türkçe vezin örneklerinde kendisininkilerden sonra Ali Şir Nevâyî'den 600'ün üzerinde mısra alıntıladığını tespit ettik. Eserde Ali Şir Nevâyî'nin külliyatının elinde olduğunu belirtir, hangi vezinleri şiirlerinde kullandığını tespit ettmiş, Mîzânü'l-Evzân'ı eserin binası, kaynakları, hatalarına kadar değerlendirmiştir. Eleştiride Babur Şah'ın bugünkünden çok daha ileri seviyede etik ve akademik kurallar çerçevesinde eleştiri yaptığını, intihale gitmeden kaynak kişi göstererek örnekleri verdiğini görüyoruz. Alıntıladığı beyitler Ali Şir Nevâyî'nin 4 Divan'ının tamamını, Hamse'sini, diğer eserlerini okuduğunu göstermektedir. Alıntıların umumiyetle gazellerin ilk mısralarından yapıldığını ama bazı yerlerde belki de çok beğendiği için aynı gazelden birden fazla beyit alıntılandığını hatta birkaç gazelin neredeyse tamamen alıntılandığını belirledik.

Anahtar Kelimeler: *Babur Şah, Ali Şir Nevâyî, Baburnâme, Aruz Risalesi, Mecâlisü'n-Nefāyis, Mîzânü'l-Evzân*

ABSTRACT: Babur-nama gives us information about Babur Shah's world of thought, knowledge, strategies, social life and many more. In this study, we would like to examine how Babur Shah benefited from and criticised Ali Shir Navoi (9 February 1441 - 4 January 1501), whom he met, read all his works, and wrote in the same field in India, and to present all his quotations from him together, despite the difference of only one or two generations between them, through Aruz Risalesi and Babur-nama.

[1] *Prof. Dr. Tanju Seyhan* –TC Mimar Sinan Güzel Sanatlar Üniversitesi, Fen Edebiyat Fakültesi, Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, İstanbul/TÜRKİYE, seyhantanj@gmail.com

In the passages where Babur Shah mentions Ali Shir Navoi in Babur-nama, we see that he follows him step by step as a cultural and political person and evaluates his relations. In the Aruz Risalesi, we have determined that he quotes more than 600 verses from Ali Shir Navoi after his own in Turkish verse examples. In the work, he states that he has Ali Shir Navoi's corpus, determines which verses he used in his poems, and evaluates Mîzânü'l-Evzân down to its structure, sources and errors. In his criticism, we see that Babur Shah makes criticism within the framework of ethical and academic rules at a much higher level than today, and gives examples by citing the source person without plagiarism. The couplets he cites show that he has read all 4 Divans, Khamse and other works of Ali Shir Navoi. We have determined that the quotations are generally made from the first verses of ghazals, but in some places more than one couplet from the same ghazal is quoted, perhaps because he liked it very much, and even a few ghazals are quoted almost completely.

Key words: *Babur Shah, ‘Alī-Shīr Nawāī, Babur-nāma, Arūz Risālesi, Mecālis el-Nefāyis, Mīzānü’l-Evzān*

Giriş

XVI. yüzyıl Türk ve Dünya tarihine damgasını vuran Babur Şah’ın (14 Şubat 1483- 26 Aralık 1530) mücadelelerle geçen hayatında, başlangıçta çok kere de düşüşler yaşamasına rağmen bir imparatorluk kuracak başarıyı sağlayan en önemli unsur kimlik sahibi oluşudur. Bu kimlikte son derece iyi bir eğitim, tarih bilgisi, çok dillilik, farklı kültürleri dikkatle okuyup hâkim olduğu kendi millî kültürüyle sentezleyebilme becerisi, fikir alışverişine (kengeşe) önem verme, zamanın bilimlerini öğrenme ve ilimde sanatta hamilik etme yer alır.

Babur Şah'ın bilgi birikiminde Timürlüler döneminin ve Türk dünyasının önemli ismi Ali Şir Nevâyî’nin etkisi olduğunu eserlerinde ona önemli oranda yer ayırmasından, konuyla ilgili olduğunda sözü ona getirişinden anlayabiliriz. Babur Şah, Ali Şir Nevâyî’yi her yönüyle, mizacıyla, eğitimiyle, yetiştiği çevreyle, üstlendiği görevleri icra edişiyle, ilişkileriyle, eserleriyle, örnek kişiliğiyle eleştirel olarak incelemiş, başkalarıyla kıyaslamış ve öyle sanıyorum ki “Ehl-i faẕl u ehl-i ehl-i hünerġa ‘Alī Şīr Bėg‘çe mürebbī vü muḳavvī ma’lūm ėmes kim hergiz peydā bolmış bolġay.” (171a/7-8) dediği Ali Şir Nevâyî’yi kendine örnek almıştır, fazilet ve hüner sahiplerini çevresinde toplamış, hamilik yapmış, onlara destek olmuştur ki bir imparatorluğun kuruluş ve devamlılığını, bugünün de inşasını onlarla sağlamıştır. Bu sebeple Ali Şir Nevâyî’e bakışını ve anlayışını daha belirginleştirmek amacıyla eserlerindeki Nevâyî’yle ilgili bahsedişlerini, ondan yaptığı alıntıları, seçkilerini bir araya getirdik. Bu sebeple Baburnâme ve Aruz Risalesi’ni taradık. Baburnâme için Haydarabad nüshasını ve bu yazmayı esas alan bazı çalışmaları taradık .

Babur Şah'ın Aruz Risalesi H. 930-31'de tamamladığı mufassal Dibace ve muhtasar Risale ile H. 933'te tamamladığı Babur Şah'ın Bir Beytin 504 Vezne Göre Taktii olmak üzere üç ana bölümden oluşan eserinde de gerek aruzla ilgili kitabı Mîzânü'l-Evzân kitabıyla gerekse vezinlere örnek seçiminde bütün eserleriyle Ali Şir Nevâyî kaynak kişidir:

Aruz Risalesi'nin kaynaklarını aruz bilimiyle ilgili olanlar ve vezinlerin örneklendirilmesinde kaynak kişiler yani şairler olarak iki grupta değerlendirebiliriz.-:

1. Aruz Bilimiyle İlgili Kaynak Kişiler ve Eserler: Babur Şah'ın aruz fenniyle ilgili grupta Arapça, Farsça ve Türkçe kaynakların hemen hepsini topladığını, ayrıntılarına kadar karşılaştırmalı ve eleştirel olarak okuduğunu anlıyoruz: Aruz ilminin kurucusu Halil, Zemahşerî el-Kıstas'ın Arûz-ı Kıstâs'ı, Hâce Nasîr-i Tûsî'nin Miyârü'l-Eşâr'ı, Hazret-i Mahdûmî (Mevlânâ Abdurrahman Câmî)'nin Aruz'u, Mîr 'Atâu'llâh Meşhedî'nin Bedâyi'ü's-Sanāyi' adlı eseri, Şems-i Fahrî el-İsfahânî'nin Mi'yâr-ı Nusretî'si, Arûz-ı Endülüsî, Reşid Vatvat , Şems-i Kays, Seyfî-yi Buharî, Şeyh Ahmed bin Hudâydâd Tarâzî'nin Fünûnü'l-Belâga veya Letâyif-i Tarâzî'sı, Alî Şîr Nevâyî'nin Mîzânü'l-Evzân'ı başka isimler…

2. Vezin Örnekleri İçin Kaynak Kişiler ve Eserler: Aruz Risalesi dönemin seçme şiirleri, antolojisi, çok okunan şairleri gösteren bir kaynak eser niteliğindedir.

2.1. Türkçe Şiir Örnekleri İçin Kaynak Kişiler:

Babur Şah vezin örneklerinde birincil kaynak olarak kendi şiirlerini kullanır, vezin için mısra beyit yazar, bunlarda değişiklikler yaparak farklı vezinleri örneklendirmek için kullanır. Bunların dışında Lutfî (29), Hecrî (4), Mîr Mogul (4), Sultân Hüseyn Mîrzâ (4), Tarâzî'den (4), Sultân Ali Mîrzâ (3), Enverî-yi Divâne / Enverî (3?), Sultân Mahmûd Han (3), Hâcı Akça Kendî (2), Sultân Mes'ûd Mîrzâ (2), Şâhî (2), İsmet-i Buhârî (Kasidesinin matlaı: 1 beyit), Kemâl (1), Târemî'den (1) alıntılar yapar.

2.2. Farsça Şiir Örnekleri İçin Kaynak Kişiler: Mevlānā 'Abdu'r-raḥmān Cāmī / Cāmī (182), Hâfız (117), Kemāl (112), Hâce Husrev / Hvâce Husrev Dehlevî / Husrev (100), Şeyh Sa'dî / Sa'dî (çoğu Bustan'dan 79 beyit), Hasan (55 beyit), Şâhî (48, bir de Türkçe beyit), Selmân / Selmân-ı Sâvecî (34), Kâtibî (24), Hilâlî (23), Binâî (11), Âsafî (10), Sâlih (8), Enverî (7), Hâce İsmet-i Buhârî / İsmet (7), İmâd (4), Riyâzî / Riyâzî-yi Semerḳandî (4), Ebu'l-Bereke (3), Hayâlî (3), Aruz Risalesi'nde 2'şer beyir alıntılanan şairler: Ârif Firketî, Aṭṭār, Hakanî, 'Irakî, Nâsır Buhârî, Sâhib-i Belhî, Seyfî, Süheylī, Şah İbn La'li / Şah La'li Şâh Bedaḫşân, Şâhidî; birer beyit alıntılanan şairler: Afdalî, Ahmed Hâcı Bek, Ârifî, Baysungur Mîrzâ, Bihiştî-yi Hisârî, Busûrî (Kasîde-i Bürde'den), Hâce Eyyûb, Kâzı Hâce Hıred Semerkandî, Mahvî, Mes'ûd Mûmî, Mevlānā Muḥammed Sādegānī, Mîrzâ

Baysungur Mîrzâ Şâhruh, Müzâl, Nizâmî, Rûdegî, Sâyifî, Seyf-i Yâdgâr Bek, Şeyh Mahmûd Şebüsterî, Vahîd Tebrizî, Veli Kalender, Yârî, Yûsuf Andicânî, Zuhurî.

2.3. Türkçe, Farsça Kaynak Eserler: Gerek Türkçe gerekse Farsça alıntılarda şairler ve eserleri de birlikte zikredilir: ‘Abdu’llâh Hâtifî’nin Heft Manzar (171a/10), Temür-nâme (102a/3) ve Leylî vü Mecnūn’ı (117a/9); Firdevsî’nin Şâh-nâme’si (101b/13); Hvâce Husrev’in Heşt Bihişt (171a/8), Âyîne-i İskenderî (102a/1) ve Mecnûn u Leylî’si (117a/8); Mevlânâ ‘Abdu’r-rahmân Câmî’nin Silsiletü’z-zeheb (171a/9), Hıred-nâme-i İskenderî (102a/2) ve Leylî vü Mecnûn’ı (102a/); Mîr Hüseynî’nin Zâdü’l-Müsâfirîn’i (117a/8); Selmân-ı Sâvecî’nin Firak-nâme’si (102a/3); Senâyî’nin Hadîka’sı (171a/9); Şeref Râmî’nin Mukaddime-i Salat’ı: İmâm Ebû Hanîfe mezhebide manzum bir fıkıh kitabı Şeyh Avhadî’nin Câm-ı Cem’i (171a/9); Şeyh Nizâmî’nin Heft Peyker’i (171a/8), İskender-nâme’si (102a/1), Leylî vü Mecnûn’ı (117a/7); Şeyh Sa‘dî Şîrâzî’nin Bustân’ı (102a/4) …

II. Babur Şah’ın Gözünden Ali Şir Nevâyî

Babur Nâme’de Ali Şir Nevâyî

Babur Şah tekâmül ettirdiği biyografi yazımıyla Baburnâme’de Ali Şir Nevâyî’den bahsederken Hüseyn-i Baykara’ya bağlı olarak açıklamaya başlar. Pekçok özelliği olduğunu söyleyerek çık da ayrıntıya girmeden, kesin bilmediği noktalarda da bilmediğini söyleyerek Hüseyn-i Baykara’nın beyinden ziyade musahibi olduğunu, okul arkadaşları olduğunu açıklar. Sultan Ebu Said Mirza’nın bilmediği bir suçtan Heri’den sürdüğünü, Semerkand’a gittiğini, Semerkand’da yıllarca kaldığını ve Ahmed Hacı Bey’in onun mürebbi ve mukavisi olduğunu açıklar. Nazik mizaçlı olduğunu ve bunun sanılanın aksine makamından değil yaradılışından kaynaklandığını vurgular. Daha sonra benzersiz bir kişi olduğunu, Türkçeyle şiir yazdığını ve kimsenin onun kadar çok ve güzel söylemediğini itiraf ederek eserlerini açıklar. Burada sadece körü körüne bir hayranlık olmadığını görürüz. Çevresinden, hayratlarından ve ailesinin olmadığından; devletteki görevlerinden, Esterabad’a gidişinden ve ölümünden bahseder: “Yana ‘Alī Şīr Bėg Nevā’ī ėdi. Bėgi ėmes ėdi, belki muṣāḥibi ėdi. Kiçiklikide hem-mekteb ėkendürler. Ḫuṣūṣiyyet bisyār ėkendür. Bilmen nė cerīme bile Sulṭān Ebū Sa’īd Mīrzā Herī’din iḫrāc ḳıldı. Semerḳand’ḳa bardı, nėççe yıl kim Semerḳand’ta ėdi, Aḥmed Ḥacī Bėg mürebbī vü muḳavvīsi ėdi.

‘Alī Şīr Bėg‘ning̃ mizācı nāzüklük bile meşhūrdur. Ėl nezāketini devletining̃ ġurūrıdın taṣavvur ḳılur ėrdiler, andaḳ ėmes ėkendür. Bu ṣıfat angã cibillī ėkendür. Semerḳand’ta ėkende hem uşmundaḳ nāzük mizāc ėkendür. ‘Alī Şīr Bėg naẓīri yoḳ kişi ėdi. Türkī til bile tā şi’r aytıpturlar, hīçkim ança köp ve ḫūb aytḳan ėmes. Altı mesnevī kitāb naẓm ḳılıptur, bėşi Ḫamse cevābıda, yana biri Manṭıḳu’ṭ-Ṭayr veznide, Lisānü’t-Ṭayr atlıḳ. Tört ġazeliyyāt dīvānı tertīb ḳılıptur: Ġarāyibü’l-Ṣıġar,

Nevādirü'ş-Şebāb, Bedī'ü'l-Vaṣat, Fevāyidü'l-Kibār atlıḳ. Yaḫşı rubā'īyyātı hem bar. … Fārsī dīvān hem tertīb ḳılıptur. Fārsī naẓmda Fānī taḫalluṣ ḳılıptur. Ba'żı ebyātı yaman ėmestür, velī ekseri süst ü firodtur. Yana mūsīḳīde yaḫşı nėmeler baġlaptur. Yaḫşı naḳşları ve yaḫşı peşrevleri bardur. Ehl-i faẕl u ehl-i ehl-i hünerġa 'Alī Şīr Bėg'çe mürebbī vü muḳavvī ma'lūm ėmes kim hergiz peydā bolmış bolġay. Üstād Ḳul Muḥammed ve Şeyḫī Nāyī ve Ḥüseyin 'Ūdī, kim sāzda serāmed ėdiler, bėgning terbiyet ü taḳviyetidin munça teraḳḳī vü şöhret ḳıldılar. Üstād Behzād ve Şāh Muẓaffer taṣvīrde bėgning sa'y u ihtimāmı bile mundaḳ meşhūr ve ma'rūf boldılar. Munça binā-yı ḫayr kim ol ḳıldı, kem kişi mundaḳ muvaffaḳ bolmış bolġay. Oġul ve ḳız ve ehl ü 'iyāl yoḳ, 'ālemni ṭavrī ferd ü cerīde ötkerdi. Avāyıl mührdār ėdi. Avāsıṭ bėg bolup nėççe maḥal Esterābād'ta ḥükūmet ḳıldı. Avāḫır sipāhīlıḳnı terk ḳıldı. Mīrzādın nėme almas ėdi, belki yılda bir mīrzāġa küllī meblaġlar peşkeş ḳılur ėdi Sulṭān Ḥüseyin Mīrzā Esterābād çerigidin yanġanda istiḳbālġa kėldi. Mīrzā bile körüşüp ḳopḳunça bir ḥāletī boldı. Ḳopa almadı. Köterip ėlttiler. Ṭabībler aṣlā teşḫīs ḳıla almadılar. Tanglasıġa oḳ Tėngri raḥmetiġa bardı. Bir beyti ḥasb-i ḥāl vāḳi' boluptur:

Bu derd bile ki öler mėn maraż çü ẓāhir ėmes.

Ṭabībler bu belāġa nė çāre ḳılġaylar?" (170b/5-14, 171a/5-b/4)

"Yana Dervīş 'Alī Bėg ėdi. 'Alī Şīr Bėg'ning tuḳḳan inisi ėdi. Nėççe maḥal Belḫ'ning ḥükūmeti munda ėdi. Belḫ'de yaḫşı bėglikler ḳıldı. Tīze-maġz u bī-hünerraḳ kişi ėdi. ... Tārīḫ-i toḳḳuz yüz on altı mėn Ḳunduz kėlgende mėning ḳaşımġa kėlip ėdi. Mesḫ u mebhūṭ ėdi, bėglik ḳābiliyyetidin dūr ve içkilik ṣalāḥiyyetidin mehcūr, ġālibā 'Alī Şīr Bėg vāsıṭāsıdın munça ri'āyet tapḳandur." (173a/6-12); "Yana Bābā 'Alī Ėşik Aḳa ėdi. Evvel 'Alī Şīr Bėg ri'āyet ḳılıp bėglik mertebesiġa yėtkürüp ėdi." (174b/4-5); "Yana Kemāleddīn Ḥüseyin Gāzürgehī ėdi. Egerçi ṣūfī ėmes ėdi, mutaṣavvıf ėdi. 'Alī Şīr Bėg ḳaşıda mundaḳ mutaṣavvıflar yıġılıp vecd ü semā' ḳılurlar ėkendür. Ekseridin muning uṣūlı yaḫşıraḳ ėkendür ġālibā sebeb-i ri'āyeti uṣūlı boluptur. Özge dėk ḫaysiyyeti yoḳ ėdi. Bir taṣnīfi bar Meclisü'l-Uşşāḳ atlıḳ. Sulṭān Ḥüseyin Mīrzā'ning atıġa baġlap bitiptür." (176a/10-14); "Vilāyetni ma'mūr u ābādān ḳıldı, velī atışlıḳ 'Alī Şīr Bėg başlıġ cemi' bėgler ve ehl-i manṣıb bile żıddāne ma'āş ḳıldı. Bu cihettin barça aning bile yaman boldılar." (177a/4-6); "Mėn Ḫorāsān barġanda mülāzemet ḳılıp ėdi. Yana Bennāī ėdi. Herīlig'dür. Atası Üstād Muḥammed ser-bennā üçün mundaḳ taḫalluṣ ḳılıptur. Ġazelide reng ü ḥāl bardur. Dīvān tertīb ḳılıptur. Mesnevīleri hem bar. Bir mesnevīsi bar, mīveler bābıda, müteḳārib baḥride. Bī-muḥaṣṣal nėme dėptür. Bīkārī ḳılıptur. Yana bir muḫtaṣar mesnevīsi bar, ḫafīf bahrıda. Yana bir uluġraḳ mesnevīsi bar: Ol hem ḫafīf baḥride. Bu mesnevīni songralar tüketip ėdi. Burunlar mūsīḳīdın bī-ḫaber ėkendür. Bu cihettin 'Alī Şīr Bėg ṭa'n ḳılur ėkendür. Bir yıl Mīrzā Merv'ġa ḳışlay barġanda 'Alī Şīr Bėg hem barur. Bennāī Herī'ge ḳalur. Ol ḳış mūsiḳī meşk ḳılur.

Yazġaça ança bolur kim işler bağlar. Yaz Mīrzā Herī'ge kėlgende ṣavt u naḳş ötkerür. 'Alī Şīr Bėg ta'accüb ḳılıp taḥsīn ḳılur. Mūsīḳīde ṭavr işler bağlaptur. Ol cümledin bir naḳşı bar, Nuhr Reng'ġa mevsūm. Toḳḳuz rengning tükenişi ve naḳşının yillesi rāsttadur. 'Alī Şīr Bėg'ge ḫaylī mu'āriż ėkendür. Bu cihettin ḫaylī cefālar tarttı. Āḫir tura almay 'Irāḳ ve Āzerbāycān'ġa Ya'ḳūb Bėg ḳaşıda bardı. (179b/7-180a/5).

Ali Şir Nevâyî'nin Dili: Babur Şah Andican'dan bahsederken Andican halkının konuşma dilinin yazı dili ile denk olduğu çünkü özellikle eserleri Heri'de tanınan Ali Şir Nevâyî'nin bu dille yazdığı, yani Andican şivesinin edebî dil olduğu bilgisini verir: "Ėlining lafẓı ḳalem bile rāsttur, nė üçün kim Mīr 'Alī-Şīr Nevāyī'ning muṣannefātı, bā-vücūd kim Herī'de neşv ü nemā tapıptur, bu til biledür." (2b/3-4).

Babur Şah'ın Ali Şir Nevâyî ile İletişimi: Hayattayken görüştükleri, yazıştıklarını şu satırlardan da biliyoruz:

"Bu ėkinçi nevbet Semerḳand'nı alġanda 'Alī Şīr Bėg tirig ėdi. Bir nevbet manga kitābeti hem kėlip ėdi. Mėn hem bir kitābet yiberip ėdim. Arḳasıda Türkī beyt aytıp bitip yiberip ėdim. Cevāb kėlgünçe tefrīḳa ve ġavġā boldı." (86b/14-87a/3).

Ali Şir Nevâyî'nin karakteri, "tīz-fehmlıġı": Ali Şir Nevâyî'nin bugün tamamen ince zekaya dayalı askiya adı altında serilenen sözlü edebiyat türünün örneklerini sosyal hayatta sergilediğini, buna değer verdiğini görürüz. Babur Şah için de bu geçerlidir ve bazı anekdotları nakleder:

"Bir kün 'Alī Şīr Bėg bile Mīrzā'ning arasıda bir ṣoḥbeti ötti kim Mīrzā'ning tīz-fehmlıġıġa ve 'Alī Şīr Bėgni riḳḳat-i ḳalbiġa dālldur. 'Alī Şīr Bėg sırrī sözlerni Mīrzā'ġa kūşegi ġalebe ayttı. Dağı dėdi kim "Bu sözlerni unuting." Mīrzā fi-l-ḥāl ayttı kim "Ḳaysı sözlerni?" 'Alī Şīr Bėg bisyār müteessir bolup köp yıġladı. Āḫir atalıḳ oġulluḳ arasıda bu güft u gūylar anga müncer boldı kim atası atasının üstige ve oġlı oġlının üstige Belḫ ü Astarābād'ḳa çėrig tarttılar." (41a/8-14); Ya'ḳūb Bėg ḳaşıda yaman ėmes ėdi. Ḥerīf-i meclis bolup ėdi. Ya'ḳūb Bėg ölgendin song ol vilāyetlerde turmay Herī'ge kėldi. Henūz ẓerāfet ü ta'arrużı bar ėdi. Ol cümledin biri budur kim bir kün şaṭranç246 mecliside 'Alī Şīr Bėg ayaġını uzatur. Bennāī'ning kötige yėtkür. 'Alī Şīr Bėg muṭāyebe bile dėr kim 'Aceb belīnīst der: Herī eger pāy derāz mīkunī, be kūn-i şā'ir mīrased . Bennāī dėr kim "Eger cem' mīkunī hem be kūn-i şā'ir mīrased." Āḫir bu ẓerāfetleridin yana Herī'din Semerḳand 'azīmeti ḳıldı. 'Alī Şīr Bėg'ge ḳalın nėmeler iḫtirā' ḳılıp ėdi ve yaḫşı nėmeler iḫtirā' ḳılıp her kişi kim her işte bir nėme peydā ḳıldı ol nėmening revāc revnaḳı üçün 'Alī Şīr Bėg 'alī şīrī dėr ėdi. (180a/5-12); " Bennā'ī'ning ẓerāfet ḳılġanı ḫāṭırġa keldi. Bir kun 'Alī Şīr Beg ḳaşıda Bennā'ī ẓerāfeti ḳılur. 'Alī Şīr Beg tugmelig cekmen keygen ekendur. Der kim "Naġz ẓerāfetī kerdī. Cekmenrā mīdādem. Velī tugmehā namīmāned u māni' est." Bennāī dėr kim "Tugmahāçi māni' bāşad? Mādegīhā māni' est." Ve'l-'uhde tu

‘alā’l-rāvī. Ma‘ẕūr tutun͡g munca ẓerāfet kim boldı, Ten͡gri ucun ḫātırın͡gızġ keçürmen͡g. (360b/7-12)

Babur Şah, Ali Şir Nevâyî’nin kurduğu dostlukları, görüştükleri kişileri, yaptıklarını bilir. Kişi değer verdiği hatta kendine model aldığı kişileri tüm yönleriye tanımak ister: “Mīr ‘Alī-Şīr Nevāyī Herī’din Semerḳand’ġa kėlgen furṣatlar Aḥmed Ḥācı Bėg bile bolur ėdi.” (21a/12-13); “Āḫir ‘Alī Şīr Bėg hem ėlçilikke kėldi. Herçend sa‘y ḳıldılar, Astarābād’nı inisige bėrmekke rıżā bolmadı. Dėdi kim ‘Mėnin͡g oġlum Muḥammed Mü’min Mīrzā’nı ḫatna ḳılġanda Mīrzā an͡ga bağışlaptur.’” (41a/6-8); Ba’żı ẓerāfet bile ‘Alī Şīr Bėg‘ge isnād ḳılurlar ėdi, nėçük kim ‘Alī Şīr Bėg ḳulaġ ağrığıda yaġlıḳ baġlaġan üçün ḫatunlar kök yaġlıḳnı ḳıyıḳ baġlaġannı “nāz-ı ‘alī şīrī” at ḳoydılar. Bu cümledin Bennāī Herī’din ‘azīmet ḳılur vaḳt ėşeki üçün pālānduzġa ġayr-i mükerrer pālānī buyurur. Atını ‘alī şīrī meşhūr boldı.” (180a/12-180b/1); “velī barının͡g serāmedi nesḫ-ta’līḳde Sulṭān ‘Alī Meşhedī ėdi. Mīrzā üçün ‘Alī Şīr Bėg üçün ḳalın kitābetler ḳıldı. Her künde ottuz beyt Mīrzā üçün ve yėgirme beyt ‘Alī Şīr Bėg üçün bitir251 ėdi.” (181b/10-12); “Evvel taḫt alġanda ḫayālı bar ėkendür kim Devāzdeh İmām’nı ḫuṭbede oḳutḳay. ‘Alī Şīr Bėg ve ba’żılar men’ ḳılıpturlar.(164a/14-164b/1).

Heri’yi ziyaretinde Āḫır Bedī‘ü’z-Zamān Mīrzā ve Ebū’l Muḥsin

Mīrzā ve Muẓaffer Mīrzā onu ağırlalmak isterler: “Evvel man͡ga Bāġ-ı Nev’de yurt ta‘yīn ḳılıp ėdiler. Tan͡glası kėlip Bāġ-ı Nev’de tüştüm. Bāġ-ı Nev’de bir kėçe boldum. Anı münāsib körmey ‘Alī Şīr Bėg‘nin͡g üylerini ta‘yīn ḳıldılar. Herīdin çıḳḳunça ‘Alī Şīr Bėgnin͡g üyleride ėdim. Her iki üç künde barıp Bāġ-ı Cihān-ārāda Bedī‘ü’z-Zamān Mīrzā’ġa körünüş ḳılur ėdim.” (188b/9-12)

Nevayi’nin yaşadığı yerleri ziyaret onun için önem arzetmektedir: “Bāġ-ı Şehr ve Bedī‘ü’z-Zamān Mīrzā’nın͡g Cūy-ı Encīl yaḳasıdaġı medresesi ve ‘Alī Şīr Bėg‘nin͡g olturur üyleri kim Unsiye dėrler, maḳbere u mescid-i cāmi‘ini kim Ḳudsiye dėrler, medresesi ve ḫānḳāhını kim Ḫalāṣiye ve İḫlāṣiye dėrler ḥammām ve dār’ülşifāsını kim Ṣafā’iye ve Şifā’iye dėrler, barını andaḳ furṣatta seyr ḳıldım.” (191b/7-11).

III. Babur Şah’ın Gözünden Ali Şir Nevâyî ve Okumaları

1. Babur Şah’ın Elinde Bulunan Ali Şir Nevâyî Eserleri ve Alıntılar

Babur Şah’ın Türkçe kaynaklarının başında Alî Şîr Nevâyî gelir. Onun külliyatı masasının üstündedir. Manzum eserlerinde hangi vezinleri kullandığını bilir. Eserlerinin adını vezinleri vesilesiyle zikreder: “Yėne bir ‘Alī-Şīr Nevāyī’nin͡g Zübdetü’l-Aḥrār’ıdur. Peyrevluḳ maḳāmıda Şeyḫ Niẓāmī ve Ḫvāce Ḫusrev ve Molla Cāmī’din istimdād tilep son͡ggı beytte iḳtibas ṭarīḳı bile evzenni ṭavr-ı rābi‘ī ḳılıptur.” (166b/3-4); “Bu veznde üstādlar ġalebe mesnevī aytıpturlar. … Mīr ‘Alī-Şīr Nevāyī’nin͡g Sedd-i İskenderī’si.” (101b/12, 102a/2); “Bu veznde müsecca‘ ġazel kem aytıpturlar. Mīr ‘Alī-Şīr Nevāyī bir nėçe ġazel aytıptur.” (108b/12); “Bu veznde

mesnevī bisyār aytıpturlar ol cümledin … Mīr ‘Alī-Şīr Nevāyī’ning Ferhad u Şīrīn’i”(108b/8, 10-11); “Bu veznde dağı mesnevī köptür. … Mīr ‘Alī-Şīr Nevāyī’ning Leylī vü Mecnūn’ı” (117a/7, 9); “Bu vezn Fārsīde ve Türkīde köp şāyi‘dür. … Mīr ‘Alī-Şīr Nevāyī’ning ḫod cemī‘ özge veznde aytḳan eş‘ārı bile bu veznde aytḳan eş‘ārı tengleşe barġay. … Mīr ‘Alī-Şīr Nevāyī’ning Tuḥfetü’l-efkār’ınıng maṭla‘ıça kem vāḳi‘ boluptur.” (125a/3-5, 12-13); “Bu veznde dağı mesnevī aytıpturlar burungı evzāndın azraġ. … Mîr ‘Alî-Şîr Nevâyî’nin Lisânü’t-tayr’ı” (139a/4, 7-8); “Mīr ‘Alī-Şīr Nevāyī’ning Seb‘a-i Seyyāre’si.” (171a/10-11).

2. Babur Şah’ın Aruz Risalesi’nde vezinleri örneklendirmede Ali Şir Nevâyî’nin Eserlerinden Yararlanması:

2.1. Mecâlisü’n-Nefâyis

Babur Şah Aruz Risalesi’nde edebiyat tarihine isimlerini yazdırmış iki kaynak kişiden Türkçe örnekler için Ali Şir Nevâyî’den, Farsça örnekler için de Mevlânâ Abdurrahman Câmî’den alıntılama yapmıştır. Mevlânâ Abdurrahman Câmî’yi bütün eserleriyle okuduğunu tahmin ettiğimiz Babur Şah’ın ondan alıntılarda kimi vezinlerde Mecâlisü’n-Nefâyis’i kullandığı izlenimini de edindik; çünkü pek çok eser varken aynı alıntılamanın yapılmış olması, bu kadar benzerlik fazla diye düşündürttü.

Mesela Sahib-i Belhî’den alıntıladığı 2 Farsça beyit Mecâlisü’n-Nefâyis’te de bulunmaktadır:

(115a/3; MN: 330)

(160b/11; MN:330)

Ayrıca Sulṭān-‘Ali Mīrzā’dan alıntıladığı aşağıdaki beyit de MN’de mevcut:

Vaşlıda maġrūr boldung hecride zār ey köngül

Ne anıng birle ne ansız ṭāḳatım bar ey köngül (130b/11; MN: 524)

2.2. Divanlar: Garâibü’s-Sıgâr, Nevâdirü’ş-Şebâb, Bedâyiü’l-Vasat, Fevâidü’l-Kiber

Vezin örnekleri esas itibariyle 4 Divan’dan alıntılanmıştır. Çoklukla gazellerin ilk beyti örnek olarak seçilmiştir. Bu seçimde beğeniden ziyade vezin örneği oluşu ilk planda düşünülmüştür; ancak bazı örneklerde aynı gazelden birden fazla örnek seçilmiştir. Ayrıca dikkat çeken bir hususiyet de 4 Divan’ın yapılan metin neşrine göre bazı farklı hususiyetler taşıdığı da gözlemlenmiştir. Yine Babur Şah’ın kütüphanesinde farklı bir külliyatın bulıunduğunu bize düşündürmektedir.

Aruz Risalesi’nde GS’den 82 gazelden 116 beyit, bir dörtlük, 12 rubai; NŞ’den 38 gazelden 53 beyit, bir dörtlük; BV’den 21 gazelden 29 beyit alıntılanmış, 2 tuyug, 2 dörtlük; FK’den 25 gazelden 2 tanesinin tamamı olmak üzere 50 beyit alıntılanmış. Toplamda 166 gazelden 248 beyit, 4 tane dörtlük, 12 rubai, 2 tuyug; Hayretü’l-Ebrar’dan 8 beyit; ME’dan 26 beyit, 6 rubai alıntılanmıştır= 364 beyit.

Aruz Risalesi’nde Divanlardan ve Hayretü’l-Ebrâr’dan alıntılanan beyit, dörtlük, rubai, tuyugların bulunduğu yerler şu şekildedir:

2.2.1. Garâibü's-Sıgâr'dan Yapılan Alıntılar: = 56 gazelden 1'er beyit alıntılanmış: (161b/2; GS 68/1), (97b/12, 161b/3; GS 79/1), (127a/10; GS 162/1), (100a/7; GS 164/1), (127b/1; GS 192/1), (127a/11; GS 193/1), (82a/13, 161b/8; GS 210/1), (127b/2; GS 214/1), (127b/3; GS 232/1), (170b/3; GS 246/1), (127b/4; GS 314/1), (97b/6; GS 342/1), (127b/5; GS 354/1), (96a/10; GS 355/2), (139a/1; GS 356/1), (62a/2; GS 358/1), (42a/9; GS 370/1), (161b/13; GS 371/1), (162a/1; GS 374/1), (96b/9; GS 377/7), (152b/11; GS 391/1), (128a/7; GS 407/1), (128a/8; GS 412/1), (108b/4; GS 415/1), (128a/9; GS 418/1), (162a/8; GS 422/1), (95a/1; GS 429/7), (128a/10; GS 433/1), (162a/11; GS 450/1), (128a/12; GS 458/1), (113a/6; GS 463/1), (128b/1; GS 474/1), (153a/2; GS 478/1), (128b/2; GS 483/1), (113a/7; GS 485/1), (153a/7; GS 487/1), (61a/3, 136b/2; GS 489/1), (128b/3; GS 492/1), (128b/8; GS 501/1), (108b/7; GS 534/1), (97b/8,162b/10; GS 536/1), (153a/8; GS 544/1), (115a/9; GS 553/1), (129a/11; GS 557/1), (129a/12; GS 558/1), (136b/3; GS 559/1), (60b/5, 133b/5; GS 565/1), (153a/9; GS 568/1), (153a/10; GS 598/1), (129b/7; GS 601/1), (129b/6; GS 608/3), (129b/8; GS 623/1), (163a/1; GS 629/1), (163a/2; GS 631/1), (95a/8; GS 778/2), (98a/5; GS 822/1); 22 gazelden 2'şer beyit alıntılanmış: (94b/8, 155b/5; GS 150/1, 4), (116b/10, 11; GS 165/1, 4), (111a/11; GS 186/1, 5), (113a/3, 5; GS 194/1, 7), (161b/9, 10; GS 208/1, 2), (108a/12-13; GS 217/1, 8), (108b/2; GS 380/1, 5), (149b/12,13; GS 396/1, 4), (128a/4, 5; GS 399/1, 2), (162a/4, 5; GS 410/1, 2), (162a/6, 7; GS 413/1, 2), (162a/9, 10; GS 424/1,2), (146b/5, 6; GS 479/1, 8), (153a/3, 4; GS 484/1, 3), (113a/7, 8; GS 485/1, 4), (153a/5, 6; GS 486/6, 7), (162b/5,6; GS 488/1, 3), (113a/9, 10; GS 493/1, 2), (128b/4, 5; GS 494/1, 7), (128b/6, 7; GS 500/1, 2), (108b/5-6; GS 516/1, 9), (115a/7, 8; GS 543/1, 7); 2 gazelden 3'er beyit alıntılanmış (112b/13-113a/2; GS 188/1, 2, 7), (129b/9, 10, 11; GS 630/1, 3, 5); 1 gazelden 4 beyit alıntılanmış: (122a/11, 12, 13, 122b/1; GS 429/1, 2, 4, 7); 1 gazelden 6 beyit alıntılanmış: (162a/12-162b/4; GS 471/1, 2, 3, 4, 6, 7); Kıta : (115a/10-11; GS 693); rubailer: 12 tane (117b/11-12; GS 785), (117b/14; GS 808), (118a/1-2; GS 851), (118b/8-9; GS 736), (118b/10-11; GS 844), (118b/12-13; GS 853), (119a/1-2; GS 854), (119a/10-11; GS 824), (119a/11-13; GS 841), (119b/1-2; GS 860), (119b/10-11; GS 793), (120a/9-11; GS 832).

Toplamda GS'den 82 gazelden 116 beyit, bir kıta, 12 rubai alıntılanmış. Bazı beyitler farklı yerlerde birkaç kez örnek olarak kullanılmış. Belki de Babur Şah tarafından çok beğenildiği için birden fazla beyit alıntılanan örneklerden birkaçı:

Vīrāneīdür meskenim andın maija bisyār ġam
Āhım bile eşkimde ot eşkim bile dīvār nem
Nūşıdın ėlge güft ü gū ėy hecr içer mėn mėn aġu
Kāş ölsem ü özümni bu endūhdın ḳutḳarsam
Her yer ki anda bir nefes işretḳa tapsam dest-res
Yüz ḳatla ėyler mėn heves kim bolsa ėrdi yār hem

Miskīn Nevāyī bėrse cān ėy dīde her dem tökme ḳan
Ol her nėçe ḳılsa figān sėn asraġıl zinhār dem (122a/11-122b/1; GS 429/1, 2, 4, 7)

Tün üzre aydın ü aydında ṣubḥ ėrkin mü
Veyā saçın͡gda bürünçek üze leçek mü ėkin
Gül üzre her sarı tāb urdı sünbülün͡g yā ḫod
Yüzün͡gde zīnet üçün sançḳan kecek mü ėkin
Bir ösrük ėlni çıḳıp ḳırġan ėrmiş ėy Luṭfī
Sėnin͡g bėgin͡g mü ėkin yā bizin͡g mīrek mü ėkin
Nevāyī uşbu perīşān ḥadīs ile ġarażın͡g
‘Avām ḫāṭırını ṣayd ėylemek mü ėkin (162b/1-162b/4; GS 471/3, 4, 6, 7)

Aşağıdaki rubaileri almıştır ki bunlar ME’de yer verilmeyenlerdendir:
Ölgüm durur çü furḳat ile iştiyāḳdın
Kėl ḳutḳar ėy ecel mėn͡gi uşbu firāḳdın
Muṭrib bile nė kön͡gli açılsun Nevāyīnin͡g
Kim mėn firāḳdın dėsem ol dėr ‘Irāḳdın (153a/5-6; GS 486/7)

Vaṣlıġa yėtiben sağınur mėn ḫayāl ėkin
Ḥālımnı an͡glaman man͡ga yā Rab nė ḥāl ėkin
Zülfün͡gde ḫāl cim arasıda noḳṭa dėk
Yüzün͡gde zülf vird ayaġıda dāl ėkin (153a/3-4; GS 484/1, 3)

Kön͡glüm açılmas demī bu beden-i zārdın
Öyle ki maḥkem tügün inçkerek tārdın
Nėççe cefā vü sitem tartḳay ehl-i vefā
Dehr-i cefā pīşedin çarḫ-ı sitem-kārdın (146b/5-6; GS 479/1, 8)

Boynumda ḳanda ḳılġay ol ay ḳolını māyil
Kim bes durur ḳulada it boynıġa ḥamāyil
Nāz ėt ki serv ü gülde bel ins ü cinde yoḳtur
Bu ḥüsn ü bu leṭāfet bu şekl ü bu şemāyil (149b/12-13; GS 396/1, 4)

Kemāl ėt kesb kim ‘ālem öyidin
San͡ga farż olmaġay ġam-nāk çıḳmaḳ
Cehāndın nā-temām ötmek bi-‘aynih
Ėrür hammāmdın nā-pāk çıḳmaḳ (115a/10-11; GS 693)

Maḥbūbḳa i‘timād ḳılmaḳ bolmas

Andın ṭaleb-i murād ḳılmaḳ bolmas
Köz ḳarasıdın mīdād ḳılmaḳ bolmas
Ger bolsa bitik sevād ḳılmaḳ bolmas (117b/11-12; GS 785)
Kim kördi ėkin cehānda ėyā ḫoşluḳ
Tā bir kişi ėylegey temennā ḫoşluḳ
Yüz yılda eger bir olsa peydā ḫoşluḳ
Āmāde ėrür yanıda yüz nā-ḫoşluḳ ((117b/13-14; GS 808)
Cānımġa yėtip turur ḫumār ėy sāḳī
Mey tutḳıl u bėrme intiẓār ėy sāḳī
Avval özüng ėyle iḫtiyār ėy sāḳī
Tutḳıl mangа songra zinhār ėy sāḳī (118a/1-2; GS 851)
Yā Rab ki ‘ināyetingni yār ėyle mangа
Yoḳluḳḳa hidāyetingni bar ėyle mangа
Hem kehf-i kifāyetingni dār ėyle mangа
Hem dürr-i ‘ināyeting nisār ėyle mangа (118b/8-9; GS 736)
Nāmeng mangа rūḥdın nişān boldı yėne
Āsāyiş-i cānı nātüvān boldı yėne
Her ḥarfi anıng tenimde cān boldı yėne
Her lafẓı hayāṭ-ı cāvidān boldı yėne (118b/10-11; GS 844)
Dėdim ẕaḳanın tutup saḳaġıngnı öpey
Köz ḳaşınga sürtüben ḳabaġıngnı öpey
Gül dėk yüzüng ėsleben dudaġıngnı öpey
Yoḳ yoḳ yoḳ eger dėseng ayaġıngnı öpey (118b/12-13; GS 853)
Her zülf ḫamıġa ḳılma vābeste mėni
Her köz hevesidin ėtmegil ḫaste mėni
Her ḳaş ṭama‘ıġa salma peyveste mėni
Yā Rab barısıdın ėyle vābeste mėni (119a/1-2; GS 854)
Tā dehr durur dehr üze sulṭān bolġıl
Tā ālem ėrür ‘ālem üze ḫan bolġıl
Dermān ėlining cismiġa hem cān bolġıl
Hem cānlarıġa māye-i devrān bolġıl (119a/10-11; GS 824)
Cānımġa ḳılur cevr ü cefā yār asru
Kim yār içide cevr ü cefā bar asru
Boldum çėkiben cevr ü cefā zār asru
Mėn cevr-keş ü yār cefā-kār asru (119a/11-13; GS 841)
Köz birle ḳaşıng yaḫşı ḳabaġıng yaḫşı
Yüz birle sözüng yaḫşı dudaġıng yaḫşı
İng birle mėnging yaḫşı saḳaġıng yaḫşı
Bir bir nė dėyin baştın ayaġıng yaḫşı (119b/1-2; GS 860)

Sāḳī mėni ḫārḫārdın ėyle ḫalāṣ
Gül-dėk yüzüng̃ aç bahārdın ėyle ḫalāṣ
Yā mey bėr ü intiẓārdın ėyle ḫalāṣ
Yā öltürüben ḫumārdın ėyle ḫalāṣ (119b/10-11; GS 793)
Cānım ara ot la'l-i suḫendānıng̃ üçün
Köksümde elif serv-i ḫırāmānıng̃ üçün
Yüzüng̃ üze kevkeb meh-i tābānıng̃ üçün
Sözlep yüz açıp kėl bu ṭaraf cānıng̃ üçün (120a/9-11; GS 832)

2.2.2. Nevâdirü'ş-Şebâb'dan Yapılan Alıntılar: 30 gazelden 1'er beyit alıntılanmış: (161a/11; NŞ 15/1), (161a/12; NŞ 16/1), (101b/8; NŞ 31/1), (97b/2; NŞ 71/1), (161b/4; NŞ 183/1), (127a/12; NŞ 193/1), (113a/4; NŞ 196/1), (59a/9; NŞ 199/1), (170a/13; NŞ 208/1), (28b/2; NŞ 309/1), (32a/8; NŞ 313/1), (72a/2; NŞ 322/1), (116b/12; NŞ 337/1), (63b/1; NŞ 380/1), (128a/6; NŞ 388/1), (128a/11; NŞ 406/1), (71b/2; NŞ 445/1), (162b/7; NŞ 451/1), (128b/9; NŞ 494/1), (78b/5; NŞ 513/1), (162b/8; NŞ 520/1), (150a/1; NŞ 525/1), (162b/11; NŞ 536/1), (136b/4; NŞ 547/1), (129a/13; NŞ 549/1), (129b/4; NŞ 552/1), (163a/3; NŞ 595/1), (129b/12-13; NŞ 608/1), (130a/3; NŞ 627/1), (130a/5; NŞ 636/1); 4 gazelden 2'şer beyit alıntılanmış, (161a/13-161b/1; NŞ 28/1, 2), (170b/1, 2; NŞ 211/1, 9), (73b/12, 97a/8; NŞ 222/1,2), (130a/1,2; NŞ 626/1, 9); 1 gazelin 7 beytini alıntılamış (109a/1-9; NŞ 194/1-2, 4-5, 8-10); 2 gazelden 3 beyit alıntılanmış: (123b/1,2; 95a/6; NŞ 21/1, 4, 9), (129b/1, 2, 3; NŞ 549/2, 3, 9); 1 gazelin 2 beytini 3 farklı yerde kullanmış: (68b/6, 143b/13, 94b/10; NŞ 339/1, 9):

Çü zemāne ehli ara vefā tileding̃ çėk ėmdi Nevāyīyā
Elem ü belā nė üçün ki ėl ara yoḳ nėme heves ėyleding̃

Konulu gazellerde 1 dörtlük (mecāzī maḥbūb 'ışḳı terkide kim ḫūbluġı mūcib-i yıġlamaḳdur u saḳal çıḳarmaġı mūcib-i külmek) alıntılanmış:

Çü ḥüsni vaḳtıda ol ayġa zār 'āşıḳ ėdim
Körüp cehān ėli yıġlarlar ėrdi ḥālımġa
Saḳal çıḳarġanıda terk ḳılsam 'ışḳıng̃
Ulus külerler anıng̃ hem mėning̃ saḳalımġa (163a/5-6; NŞ 664)

2.2.3. Bedâyiü'l-Vasat'tan Yapılan Alıntılar: 17 gazelden 1'er beyit alıntılanmış: (78a/11; BV 126/1), (161b/5; BV 154/1), (161b/6; BV 190/1), (136b/1; BV 221/1), (108b/1; BV 238/1), (96a/6; BV 276/2), (162a/2; BV 360/1), (127b/6; BV 362/1), (128a/13; BV 444/1), (162b/9; BV 520/1), (108b/8; BV 525/1), (62a/4; BV 526/1), (129b/5; BV 544/1), (162b/12; BV 555/1), (130a/4; BV 592/1), (53a/10, 122b/11; BV 619/1), (166a/3; BV 642/1); 1 gazelden 2 beyit alıntılanmış: (127b/12, 13; BV 356/1, 3); 2 gazelden 3'er beyit alıntılanmış: (152b/12-153a/1; BV 223/1, 2, 7), (141a/8-10; BV 645/1, 2, 6); 1 gazelden 4 beyit alıntılanmış: (127b/8-11; BV

338/1, 3, 4, 9); 2 Tuyug: (139b/3-6; BV 734), (139b/13-140a/1; BV 740); 2 Dörtlük: (108b/10-11; BV 717), (115a/12-13; BV 718).

2.2.4. Fevâidü'l-Kiber'den Yapılan Alıntılar: 20 gazelden 1'er beyit alıntılanmış: (166a/2; FK 25/1), (40a/6; FK 111/1), (127a/13; FK 140/1), (108a/11; FK 188/1), (149b/11; FK 328/1), (28a/13; FK 351/1), (162a/3; FK 353/1), (128a/1; FK 357/1), (128a/2; FK 363/1), (128a/3; FK 366/1), (141a/7; FK 391/1), (128b/10; FK 500/1), (108b/9; FK 551/1), (122b/2; FK 553/1), (122b/3; FK 554/9), (96b/5; FK 561/6), (97a/4; FK 578/9), (162b/13; FK 585/1), (153a/11; FK 615/1), (163a/4; FK 624/1); 3 gazelden 2'şer beyit alıntılanmış: (147b/4,5; FK 207/1, 3), (161b/11, 12; FK 314/1, 7), (170b/4, 5; FK 632/1, 7); 2 gazelin tamamı alıntılanmış: (113a/12-113b/9; FK 634/1-11), (128b/11-129a10; FK 477/1-13)

Ėkki gül bir kėçe külbemni gülistān ėyleben
Aldılar cānımnı bī-dād olça imkān ėyleben
Biri börkin sındurup cānlar ṣafın sındurġalı
'Aḳl u dīn mülkin ṣaf-ı müjgānı vīrān ėyleben
Biri bir nėççe hilālin ėgri baġlap nāz ile
Encüm-i eflākni ḥüsniġa ḥayrān ėyleben
Biri ḫaṭṭ-ı sebzesidin gülge baġlap ḥāşiye
Bezmni ol sebze vü gül bāġ-ı rıżvān ėyleben
Biri 'ālem ehlining̃ köng̃li ḳuşın ṣayd ėtkeli
Sünbüli dāmını gül üzre perīşān ėyleben
Biri ḳaş u kirpigi dėk oḳ bile ya ėlgide
Līkin ol ya birle oḳ cānlarnı ḳurbān ėyleben
Biri vesme biri sürme rengidin kök ṭāḳını
Āfet-engīz ü ḳara nergisni fettān ėyleben
Biri baġlap bergni ton üzre mīnā-reng ḳur
Naḫl-ı ḳaddın ġayret-i serv-i ḫırāmān ėyleben
Biri gül-gūn tonġa sarıġ astardın zīb ėtip
Serv-i ra'nāsın gül-i ra'nāda pinhān ėyleben
Mestlıġdın ol ḳılıp ėlgide dāġın āşkār
Şūḫluġdın cānġa bu yüz dāġ-ı pinhān ėyleben
Ẓulm ile ol öltürüp bu luṭf birle tirgüzüp
Ger bu ḳılsa ẓulm ol hem luṭf u iḥsān ėyleben
Mėn eger baḳsam bu yan tīġ urup anıng̃ 'işvesi
Baḳsam ol yan ġamzedin bu tīr-i bārān ėyleben
Ėy Nevāyī bu fesāneng̃ ya tüş ėrkin ya ḫayāl
Nėççe lāf urmaḳ özüng̃e munça bühtān ėyleben (128b/11-129a10; FK 477/1-13)

Ötken kėçe mėn ėrdim ü ol sīm-ten ėrdi
Gülşen töride meskenimiz bir çemen ėrdi
Gülbün ara ėkki kişige sıḳḳunça menzil
Bülbül bile gül-dėk ėkimizge vaṭan ėrdi
Lāle kibi yāḳut ḳadeḥ yoḳ tübide dürd
Bir şīşe mey andaḳ ki ‘aḳīk-i Yemen ėrdi
Geh mėn tutup ol içmek ü geh ol tutuban mėn
Tün yarımıġaça ėkkimizge bu fen ėrdi
Ol tutḳaç ayaḳ mėn ayaġıġa ḳoyuban yüz
Īsār anga közdin barı dürr-i ‘Aden ėrdi
Mest ėyledi geh nāz gehī ‘arbede āgāz
Köksüm kibi çāk ėtken anga pīrehen ėrdi
Ėgnimġa salıp tekye vü boynumġa salıp ḳol
Titrep köngül ü cismim ara yüz şiken ėrdi
Gül-zār ara ser-mest uzaldı közi yanglıġ
Cān mülkide ol uyḳusıdın yüz fiten ėrdi
Mėn daġı yüzümni kef-i pāyıġa ḳoyup mest
Gül-berg üze kirpiktin egerçi tiken ėrdi
Bu nev‘ uyudum kim mėni uyġatḳuçı tangla
Yüz sīm-feşānlıġ bile şāh-ı Ḫoten ėrd
Hecr ėmdi Nevāyīni ger öltürse nė ermān
Munça ki murād anga bu vech-i Ḥasan ėrdi (113a/12-113b/9; FK 634/11)

2.3. Mîzânü’l-Evzân’dan Yapılan Alıntılar

Vezin örneklendirmede 26 beyit ME’den alınmıştır:
Cemālingġa nėçe baḳsam ėrür hüsni füzūnraḳ
Hayālingġa nėçe tüşsem ėrür fikrim uzunraḳ (39a/10; ME, 34)
Közüng-dėk ḳanı nergis yüzüng-dėk ḳanı gülşen
Enging-dėk ḳanı nesrīn ḳadıng-dėk ḳanı sūsen (39b/5; ME, 34)
Artar manga ḥayret ger anıng ḥüsniġa köz salsam
Örter mėni ġayret ger öter çaġda baḳıp ḳalsam (40a/12; ME, 35)
Zihī ruḫsārıng allıda ḳuyaş tīre
Ḳuyaşdın yoḳ ki andın ėl közi ḥīre (42a/7; ME, 35)
Kėlgil kim hecr ara hazīndür mėn
‘Işḳıngdın ġamġa hem-nişīndür mėn (43a/7; ME, 36)
Ėy ḥüsni cehān içre belā salġan
Ḳatl ėtkeli halḳ üzre ṣalā salġan (43b/4; ME, 35)
Ḳad ger budur ėy serv ü ṣanavber

Ṭūbī sanga bir bende vü çāker (43b/10; ME,. 36)
Kėl bėri ėy reşk-i ḳamer la'l-i lebing teng-i şeker
Furḳating otında köngül çėkti sipihr üzre şerer (53a/2; ME, 41)
Ger elemimġa çāre yoḳ bolmasa bolmasun nė'tey
Ve'r ġamıma şümāre yoḳ bolmasa bolmasun nė'tey (53a/10; ME, 41)
Hecringde ėy gül-çehre bī-ḥad zār mėn
Ḳan içre ġarḳa gül kibi efgār mėn (55a/10; ME, 42)
Yüzüng ḳamer ḳadıng şecer lebing şeker
Manga bular ḫayālıdın ne ḫvāb u ḫor (55b/3; ME, 42)
Körgeli ḥüsnüngni sanga ḥayrān mėn
Vādi-i ḥayret ara ser-gerdān mėn (56b/10; ME, 42)
Veh ki ol ay ḥasreti derd ü dāġ furḳatı
Hem ėrür cānımġa ot hem ḥāyātım āfeti(60a/10; ME, 58: "Urġuştek" usulünde "Ḳoşuḳ" örneği:)
Tilegim sėning huzūrıng ṭalebim sėning ce mālıng
Nėçe kün tirigligimdin ġarazım sėning viṣālıng(62a/2; ME, 43; 137b/4; GS 358/1)
Ėy cemāling din ḫacil ḫūrşīd-i enver
Ḳāmeting din münfa'il serv ü ṣanavber(63a/ 10; ME, 43)
Gülşening din yėl dėk ėy zībā-nihāl
Mėn yaman bardım velī sėn yaḫşı ḳal(63b/1; ME, 44)
Firāḳ otıdın köyer bedenim tefidin ėrip aḳar cigerim
Ġamım bu durur ki baġlanıban yüzüng sarı tüşmegey naẓarım (66a/13; ME57)
Nė ḫayāl ėdi yėne kim köngül ḳuşı ṣaydın ı heves ėyleding
Bedenimġa her sarıdın ḫadeng atıban anga ḳafes ėyleding (68b/6; ME, 57)
İstemeseng ėslemeseng bizni
Mėn öperem yolung üze izni (85a/11; ME, 50)
Nė belālıġ hecr ėrür kim zār olmışam
Kėl ki ol köz hecride humār olmışam (86a/11; ME, 56)
Nėççe sėnsiz firāḳıngda figān ėyley
Nāle birle ulus baġrını ḳan ėyley (9 1a/2; ME, 56)
Yėne sėnsizin mūnisim ġam boluptur
Közümge yürek ḳanı hem-dem boluptur (100a/7; ME, 53)
Vīrāneīdür meskenim andın manga bisyār ġam
Āhım bile eşkimde ot eşkim bile dīvār nem (122a/11; ME, 41)
Ger elemimġa çāre yoḳ bolmasa bolmasun nė'tey
Ve'r ġamıma şümāre yoḳ bolmasa bolmasun nė'tey (122b/11; ME, 41)
Nė ḫayāl ėdi yėne kim köngül ḳuşı ṣaydını heves ėyleding
Bedenimġa her sarıdın ḫadeng atıban anga ḳafes ėyleding (143b/13; ME, 57)

Heyhāt kim birev ġamıdın zār mėn yėne
Feryād kim belāġa giriftār mėn yėne (153a/9; ME, 47)

2.4. Hayretü'l-Ebrâr'dan Yapılan Alıntılar

Zübdetü'l-ahrâr adıyla Nevâyî'nin olduğu intibaı uyanan 8 beyit Hayretü'-Ebrâr'da yer almaktadır: 13/52-53,58-59, 61-64 (SEYHAN 2016:134-135)

Yoldasa bu yolda Niẓāmī yolum
Ḳoldasa Husrev bile Câmî ḳolum
Nükte sürūdıda revā bolmaġay
Bu ki Nevāyī'ġa nevā bolmaġay
Serv ü gül ü lāle ḫarīdārı bar
Līk otunnıng dağı bāzārı bar
Bolsa ḫazz u aṭlas u eksūn libās
İt çulı ḳılmaḳḳa yarar hem pelās
Üç ḳadeḥ-i ṣāf ile şeh bolsa ḫeş
Lāy dağı ḳalsa çėker dürd-keş
İt kibi çün pestlıġım çaġladım
Özni biyikler ipige baġladım
Bolsa alar 'āzim-i deşt-i 'adem
Mėn hem olay sāye kibi hem-ḳadem
Kehf-i fenā içre alar bolsa güm
Mėn hem olay rābi'ühüm kelbihüm

Aşağıdaki 6 beyiti Ali Şir Nevâyî'nin külliyatında tespit edemedik:

Bolmay ġāfil demī ġam u derd
Ulġaytıban anı derd-perverd (98a/13)
Çü dād bėrdi manga yār yüz ümīd-i vefādur
Nė sūd reşk ü ḥasūd ki dād dād-ı Ḫudādur (155b/6)
Ḳarılıġda ėkki işdin kişi bar ėlge 'azīz
Birisi zühd ü biri ḫalḳ ara nā-peydālıġ (96b/3)
Kimni kim yār ėyleding boldı giriftārıng sėning
Reşkdin veh dėye almas mėn Ḫudā yārıng sėning (127b/7)
Köz mehdi ara tutup ol ārām
Ẓarf u maẓrūf u maġz u bādām (98b/3)
Boyını kim ki münāsib dėse serv-i çemene
Aġaç urmaḳ kėrek ol egri naẓar ḳaḥbe-zene (136b/5)

Bütün bu örnekler değerlendirildiğinde Babur Şah'ın elinde bulunan külliyatta bugün matbu eserlerine göre bazı farklılıklar da bulunmaktadır. Bu farklılıkları beyitlerin ilk veya son şekli olarak değerlendirebiliriz. Elbette bunun için İlk Divan

ile, Bedâyiü'l-Bidâye ve Nevâdirü'n-Nihâye ile karşılaştırılması gerekmektedir. Mesela

Bėl ü aġzın͡g ẕikr ü fikri birle bolsam nė 'aceb
Şevḳ bir dem ġāfil ėtmes ḳīl u ḳālın͡gdın mėni (129b/13)
Beyti BV 571'den mi alıntılanmıştır?:
Bil ü aġzın ḥayālidin egerçi lāl-min lį̈kin
Cedel ehli meṣellik ötti 'ömrüm ḳį̈l ü ḳāl içre

Man͡ga bāġdın ferāḥ yoḳ man͡ga deşttin ṭarāb yoḳ
Ferāḥım sėnin͡g ḫadīsin͡g ṭarābım sėnin͡g cemālın͡g (137b/5)
beyti GS 358/3 müdür?
Man͡ga deştdin feraḥ yoḳ man͡ga bāġdın ṭarab yoḳ
Feraḥım sinin͡g ḥadīsin͡g ṭarabım sinin͡g ḫayālın͡g

Naṣīḥatım bu durur barça 'ışḳ ehliġa
Vefāsız ėlni sėverdin kenāre ḳılġaylar (161b/6-7)
beytinin BV 190/2'de ilk mısra farklıdır:
Bu ḫāletimni körüp barı 'ışḳ eşįrleri

IV. Babur Şah'ın Ali Şir Nevâyî'nin Eserleriyle İlgili Eleştirileri

1. Ali Şir Nevâyî'nin Kendisine Eleştirel Yaklaşımı

Hamse ve Divanları dışındaki kitaplarını çok başarılı bulmaz, bir bakıma Abdurrahman Câmî'yi taklit olarak değerlendirir: "Yana ba'żı muṣannafātı bar kim bu meẕkūr bolġanlarġa baḳa pestraḳ ve süstraḳ vāḳi' boluptur. Ol cümledin inşālarını Mevlānā 'Abdurraḥmān Cāmī'ġa taḳlīd ḳılıp cem' ḳılıptur. Ḥāṣıl kim her kimge her iş üçün her ḫaṭ kim bitiptür yıġışturuptur." (170b/14-171a/5).

2. Aruz Risalesi'nde gazel ve kafiyesiyle ilgili şiir eleştirisi

Babur Şah "Bu veznde müsecca' ġazel kem aytıpturlar. Mīr 'Alī-Şīr Nevāyī bir nėçe ġazel aytıptur, ol cümledin bir lolī yigitnin͡g ta'rīfide bu ġazel ṭavrı vāḳi' boluptur. (108b/12-13)" diye beğenisini dile getirerek NŞ'deki 194 numaralı gazelin beyitlerini üslup, şiirde kafiye, seci kullanımı bakımından değerlendirerek alıntılamış ve kendi yazdığı bir gazeli örnek olarak vermiştir. Bu eleştirisi onun kafiye ilmi hakkındaki bilgisinin de göstergesidir:

Nė lolī-veşdür ol ḳātil ki ḳan tökmekkedür yek-ser
Ḳıya baḳmaḳları pākī itik müjgānları nīş-ter
Yüzidin kim ḫacildür gül perīşān her ṭaraf kākül
Saçın gül-berg üze sünbül töküp kāfūr üze 'anber
Çü lu'b esbābını tüzdi selāmet riştesin üzdi
Ḳamer dėk hāle körgüzdi 'iẕārı devride çenber

Libāsı nāzı çespāndur gehī tüz ḳaddı çevgāndur
Zamān gūyı ġalṭāndur zihī çābük zihī dil-ber
Cünūn şem‘in ḳılur revşen köñgülge tilbelikdür fen
Perī dėk bolġalı perrende ol şūḫ-ı perī-peyker (109a/1; NŞ 194/1-2, 4-5, 8)

10. beyit için “Bu beytniñ üçünci seci‘iniñ ḳāfiyesi ma‘mūl vāḳi‘ boluptur. Bu nev‘ ḥaşvda ma‘mūl ri‘āyat ḳılmaḳ ġālibā ḳāyilniñ iḫtirā‘ıdur. (109a/6-7)” yorumunu yapar:

Nevāyī boldı lolī-veş ki kėlmiş añga lolī ḫōş
Ḳanı bir cām-ı lolī-geş ki lolī bolsa bir sāġar (109a/8; NŞ 194/10)
Ṭam‘ tutma felekdin kām kim ḫançer ḳılur āşām
Yañgı ay şeklidin her şām ol lolī tāz meger (109a/9; NŞ 194/9)

Aynı gazelin 9. beyti için de “Bu beytniñ mışrā‘larınıñ ḥaşvdaġı ḳāfiyeleri rüknniñ āḫırıda vāḳi‘ bolmaydur, müsecca‘ ġazellerniñ maṭla‘ıda seci‘ kemraḳ ri‘āyat ḳılıpturlar. Eger ri‘āyat ḳılınsa yaḫşıraḳ bolġusıdur.” (109a/10-12) der ve kendisinin şu gazelini örnek olarak verir:

Ḳara zülfüñ firāḳıda perīşān rūzgārım bar
Yüzüñgniñ iştiyāḳıda nė ṣabr u nė ḳarārım bar
Lebiñ bağrımnı ḳan ḳıldı közümdin ḳan revān ḳıldı
Nėge ḥālım yaman ḳıldı mėn andın bir sorarım bar
Cehāndın mañga ġam bolsa ulusdın ger elem bolsa
Nė ġam yüz munça hem bolsa sėniñ dėk ġam-güsārım bar
Eger muṣliḥ mėn er müfsid ve ger ‘āşıḳ mėn er ābid
Nė işiñ bar sėniñ zāhid mėniñ ki iḫtiyārım bar
Fiġānım aştı bülbüldin ġamı yoḳ ẕerre bu ḳuldın
Besī Babur uşal güldin köñgülde ḫārḫārım bar (109a/13-109b/4)

3. Babur Şah’ın Mîzânü’l-Evzân ile İlgili Eleştirileri

Babur Şah okuduğu eserleri bilim insanı dikkatiyle değerlendirir, beğenilerini, olumsuz eleştirilerini açıkça belirtir. Ali Şir Nevâyî’nin Mîzânü’l-Evzân adlı eserini ilgi alanı olması sebebiyle baştan sona dikkatle okuduğu anlaşılmaktadır. Fünûnü’l-Belâga ve Mîzânü’l-Evzân eksikliklerini görerek aruz ilmiyle ilgili daha mükemmel bir eser ortaya koyma amacı bu okumaları ve yaptığı, ilgilendiği bir konuyu ayrıntılarıyla tekâmül ettirme prensibi neticesidir. Şiir yazmayla da iktifa etmemiş onun matematiğini, musıkisini ortaya koymak için Aruz Risalesi’ni yazmıştır. Baburnâme’de Mîzânü’l-Evzân’ndan bahsederken eleştirir: “ ‘Alī Şīr Bėg … Yana Mīzānü’l-Evzān atlıḳ ‘arūż bitiptür. Bisyār medḫūldur. Yėgirmi tört rubā‘ī veznide tört veznde ġalaṭ ḳılıptur. Ba‘żı buḥūrnıñ evzānıda hem yañgılıptur. ‘Arūzġa müteveccih bolġan kişige ma‘lūm bolġusıdur.” (B, 171a/11, 3-5).

Aruz Risalesi’nde Ali Şir Nevâyî’nin N. Tûsî’nin Mi’yârü’l-Eş’âr’ını okumamış olabileceğini, bazı bahirleri kendisine mâal ettiğini ileri sürer: “Ḫvāce

Naṣīr Mi‘yārü’l-eş‘ār’da bu dāyireni kėltürüptür, cedíd bile müşākil baḥrınıng̃ veznini körsetip bu baḥrlarnı müsta‘mel ėmestür dėptür. Mīr ‘Alī-Şīr Nevāyī bu toḳḳuz baḥrnıng̃ dāyiresin özige isnād ḳılıptur, ġāliben Mi‘yārü’l-Eş‘ār’nı müṭāla‘a ḳılmaġandur.” (21b/5-22a/2).

Ancak bu hataları tespit etmesi ME’yi dikkate almadığı anlamını taşımaz, sadece ilm-i siyasetle ve etik ölçüler içinde kendince hatalı gördüğü hususları tek tek belirtir, olması gereken şekli teklif eder. Baburnâme’de eleştirdiği rubai vezinlerindeki hataları Aruz Risalesi’nde tek tek ele alır: “Mīr Alī Şīr Nevāyī dağı aḫrem vezniġa üç rubā‘ī ve on ėkki aḫreb vezniġa üç rubā‘ī aytıptur.” (49b/3) diyerek rubaileri verir, sonra da değerlendirir:

Aḫrem veznining̃ rubā‘īleri
Yā Rab nė āfetdür ol ḥüsn ü cemāl
Kim yoḳtur bir ėyle cehān içre misāl
Ming̃ ḳatla şükrin dėsem az ėrür
Ger bolsa bir zemān mang̃a kām-ı viṣāl (49b/6-8; ME,.37)
Ėy sėnsiz ‘ömrümdin āsāyiş yoḳ
Köz ister kim körse cemāling̃ni toḳ
Kėlgil kim bir ḳatla ‘iẕārıng̃nı körey
Kim hecring̃ köp urdı bu kögsümge oḳ (50a/10-12; ME, 37)
Ėy meh-veş ötkey bu serkeşlik hem
Raḥm ėylep bu ḳulġa cefānı ḳıl kem
Tā Tėng̃ri asraġay ḫalāyıḳḳa sėni
Ėyler mėn yüz du‘ā sėning̃ sarı dem (50a/1-50b/3; ME, 37-38)
Aḫreb veznining̃ rubā‘īleri
Ėy sėndin olup baġrım hem kögsüm dāġ
Köng̃lüm ot u ol otḳa töküp eşkim yāġ
Ten olsa ġamıng̃ içre cāyıngġa fidā
Cān köyse muḥabbeting̃de sėn bolġıl saġ (50a/6-8; ME, 37-38)
Bir laḥẓa köng̃ül sėnsiz ḥālın bilmes
Cevrüng̃ni köng̃ülge ėy perī-veş ḳıl bes
Hecring̃de fiġānımġa ulus nāle ḳılur
Ḳıl ḥālıma raḥm kim ėrür mėn bī-kes (50a/10-12; ME, 38)
Ėy şūḫ bizing̃ sarı bir ėyle naẓar
Kim āh u fiġān otı çėker kökke şerer
Yā vaṣl ile köng̃lümge ḳurın ėyle murād
Yā ḳīl ėyle ḳoyma bu ḥayātımġa eser (50b/1-3; ME, 38-39)

“Aḫrem evzānınıng̃ rubā‘īleride aḫrem-i aḫreb-i ezell vezni mükerrer boluptur. Nėçük kim bu ėkki mıṣrā‘ uşal vezndedür:

Köz ister kim körse cemāling̃ni toḳ

Kim hecrin͡g köp urdı bu köksümge oḳ

Mef‘ūlün mef‘ūlü mefā‘īlün fā‘ bolġay. Bu vezn kim mef‘ūlün fā‘ilün mefā‘īlün fā‘, aḫrem-i eşter-i ezell veznidür, aytılmaydur. Aḫreb evzānının͡g rubā‘īleride bir aḫreb-i mecbūb vezni mükerrer boluptur. Nėçük kim bu ėkki mıṣrā‘ uşal vezndedür:

Ten olsa ġamın͡g içre cānın͡gġa fidā

Ey şūḫ bizin͡g sarı bir eyle naẓar

Mef‘ūlü mefā‘īlün mef‘ūlü fa‘ul bolġay. Yėne bir aḫreb-i maḳbūż-ı aḫrem-i mecbūb vezni mükerrer boluptur. Nėçük kim bu ėkki mıṣrā‘ uşal veznde vāḳı‘ boluptur:

Cevrün͡gni kön͡gülge ey perī-veş ḳıl bes,

Ḳıl hālıma raḥm kim ėrür mėn bī-kes

Mef‘ūlü mefā‘ilün mefā‘īlün fa‘ bolġay. Yėne bir aḫreb-i mekfūf-ı mecbūb vezni mükerrer boluptur. Nėçük kim bu ėkki mıṣrā‘ uşal veznde vāḳı‘ boluptur:

Hecrin͡gde fiġānımġa ulus nāle ḳılur

Yā ḳatl ile ḳoyma bu ḥayatımġa eser.

Mef‘ūlü mefā‘īlü mefā‘īlü fa‘ul bolġay. Üç vezn aytılmaydur. Bir mef‘ūlü mefā‘īlün mef‘ūlü fa‘ūl kim aḫreb-i ahtem veznidür. Yėne bir mef‘ūlü mefā‘īlü mefā‘īlün fa‘ kim aḫreb-i mekfūf-ı aḫrem-i mecbūb veznidür. Yėne bir mef‘ūlü mefā‘ilün mefā‘īlü fa‘ūl kim aḫreb-i maḳbūż-ı mekfūf-ı ahtem veznidür. ” 50b/4-51a/7).

SONUÇ

Bu tebliğde Babur Şah’ın eserlerinden hareketle Ali Şir Nevâyî’ye bakışını, onu değerlendirişini, kaynak olarak kullanışını ve üzerindeki etkisi belirlenmeye çalışıldı. Bu çerçevede başta Aruz Risalesi olmak üzere Baburnâme, Mecâlisü’n-Nefâyis, Mîzânü’l-Evzân, Garâibü’s-Sıgâr, Nevâdirü’ş-Şebâb, Bedâyiü’l-Vasat ve Fevâidü’l-Kiber olmak üzere dört Divan’ı, Hayretü’l-Ebrâr adlı eserleri tarandı, Aruz Risalesi’nde Ali Şir Nevâyî’den alıntılanan örneklerin kaynakları belirlenmeye; Ali Şir Nevâyî’nin eserleri vasıtasıyla mesela Mecâlisü’n-Nefâyis vasıtasıyla başka yazarlardan yaptığı alıntılar tespit edilmeye çalışıldı. Babur Şah’ın Ali Şir Nevâyî’ye yönelttiği çeşitli eleştiriler değerlendirildi.

Yukarıda belirtilen çalışmalar neticesinde Babur Şah’ın Ali Şir Nevâyî’ye bütün eserlerini inceden inceye okuyarak, ona dair bütün bilgileri topladığı gerek devlet adamı gerekse sanatçı yönüyle değer verdiği, Abdurrahman Câmî ile kıyasladığı kanaatini edindik. Bir bakıma Ali Şir Nevâyî Babur Şah için örnek alınacak bir modeldir. Bu örnek almada her hâliyle bir kabullenme yoktur, eleştirel bir bakış bulunmaktadır. O çalışmalarıyla Ali Şir Nevâyî’yi geçmeye, bayrağı daha yukarılara taşımaya gayret eder. Yeri geldiğinde şiirini, kafiye, seci kullanışını tenkit eder; Mîzânü’l-Evzân’da yaptığını düşündüğü hataları tek tek gösterir. Baburnâme’de

biyografik bilgiler verir. Aruz Risalesi'nde onun bütün Ali Şir Nevâyî külliyatını okuduğunu görürüz. Taradığımız eserlerden örnek beyitlerle vezinler tanıklanır.

Aruz Risalesi'nde GS'den 82 gazelden 116 beyit, bir dörtlük, 12 rubai; NŞ'den 38 gazelden 53 beyit, bir dörtlük; BV'den 21 gazelden 29 beyit alıntılanmış, 2 tuyug, 2 dörtlük; FK'den 25 gazelden 2 tanesinin tamamı olmak üzere 50 beyit alıntılanmıştır. Toplamda 166 gazelden 248 beyit, 4 tane dörtlük, 12 rubai, 2 tuyug; Hayretü'l-Ebrar'dan 8 beyit; ME'dan 26 beyit, 6 rubai olmak üzere 364 beyit alıntılanmıştır. Eserin önemli bir bölümünü oluşturmakta olup Ali Şir Nevâyî'nin şiirleri olmada aruza dair bir risale yazılamayacağının ispatıdır. Babur Şah da çok değer verdiği ve en ince ayrıntılarına kadar okuduğu Ali Şir Nevâyî'ye gereken önemi vermiştir.

KAYNAKÇA

1. Abik, A.Deniz. 1999. 'Ali Şir Nevayi'nin Zübdetü't-Tevarihi Üzerine. Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten. Cilt 1996. Ankara: 1-6.

2. AR, Buhara Lisân-ı Arûz-ı Çagatay, Marmara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Nadir Eserler Koleksiyonu. Numara: YZ 1742.

3. Arat, Reşit Rahmeti. 1987. Vekâyî: Bâbür'ün Hâtırâtı. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.

4. B, Akgül, Semra. 2020. Bâbürnâme'nin Haydarâbâd Nüshasının Transkripsiyonu ve Söz Dizimi İncelemesi. T.C. İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı. Basılmamış Doktora Tezi.

5. B, Koca, Duygu. 2013. Babur-Nāme'nin [1b-60b] Arasındaki Bölümünün Gramatikal Dizini ve Sözlüğü. T.C. Kocaeli Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı, Basılmamış Yüksek Lisans Tezi.

6. B, Mutlu, Kemal. 2017. Baburnâme'nin [61a-120a] Arasındaki Bölümü (Metin, Gramatikal Dizin Ve Sözlük). T.C. Kocaeli Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı, Basılmamış Yüksek Lisans Tezi.

7. B, Şirin, Bilal İsmail. 2017. Baburnâme'nin [120a-183a] Arasındaki Bölümü (Metin, Gramatikal Dizin Ve Sözlük). T.C. Kocaeli Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı, Basılmamış Yüksek Lisans Tezi.

8. BV, Türkay, Kaya (2002). Alî Şîr Nevâyî, Bedâyi'u'l-Vasat. Ankara: TDK Yayınları.

9. FB, Fünûnü'l-Belâga, Te'lîf-i Şeyh Ahmed bin Hudâydâd Tarâzî, Bodleian Library, University of Oxford Ox1 3BG'de, Ms. Elliott No: 127.

10. FK, Kaya, Önal (1996). Alî Şîr Nevâî, Fevâyidü'l-Kiber. Ankara: TDK Yayınları.

11. GS, Kut, Günay (2003). Alî Şîr Nevâyî, Garâ'ibü's-Sıgar (İnceleme-Karşılaştırmalı Metin). Ankara: TDK Yayınları.

12. HE, Seyhan, Tanju. 2016. Hayretü'l-Ebrâr. İstanbul: Kesit Yayınları

13. Kavallı, Seda. 2016. Babur-Nāme'nin [304a-382a] Arasındaki Bölümü (Metin, Gramatikal Dizin Ve Sözlük). T.C. İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı. Basılmamış Doktora Tezi.

14. ME, Eraslan, Prof. Dr. Kemal. 1993. Alî-Şîr Nevayî Mîzânü'l-Evzân, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

15. MN, Eraslan, Prof. Dr. Kemal. 2001. Alî-Şîr Nevayî Mecâlisü'n-Nefâyis, II Cilt, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.

16. NŞ, Karaörs, Metin. 2006. Alî Şîr Nevâyî, Nevâridü'ş-Şebâb. Ankara: TDK Yayınları.

“Boburnoma”da shoh va shoir siymosi
The character of the king and the poet in “Boburnoma”

Uzoq JO‘RAQULOV[1],

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari hususida so‘z yuritiladi. Boburning shoh va shoir sifatida shakllanishida, uning saltanati, shaxsiyati, oila muhiti, biografiyasidagi fojiaviy vaziyatlar psixologik jihatdan tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, vaqoyi’, biografiya, psixobiografiya, ruboiy, misra, band, portret, xarakter, tasvir, ifoda, uslub.*

Annotation: This article deals with Zahiriddin Muhammad Babur's work “Baburnoma”. Babur’s formation as a king and poet, tragic situations in his reign, personality, family environment, and biography are psychologically researched.

Key words: *Boburnama, story, biography, psychobiography, stanza, verse, paragraph, portrait, character, image, expression, style*.

Tarixni saboq uchun o‘rganadilar. Bu gapda yolg‘on yo‘q. Ammo tarix haqiqati ikki tig‘li, uchi hech narsaga tegib qaytmaydigan, mudom to‘g‘riga harakatlanuvchi, vaqt qanotida kun kechiradigan Ollohning mo‘jizasi, majozan Hazrati Ali (r.a.) zulfiqorlariga o‘xshaydi. Shu kelbati bilan tarixiy vaqt bashar uchun foydali, ayni paytda, xavfli ham bo‘lishi mumkin.

Tarixning foydasi haqida Bobur mirzo misolida to‘xtalishga hali ulguramiz. Chunki maqolamiz Bobur va uning basharga bergan tarixiy saboqlari haqida. Bobur masalasiga o‘tishdan oldin, o‘quvchini bir oz hayron qoldirgan, ko‘nglida savol tug‘dirgan – tarixiy haqiqatning xavfi, aniqrog‘i, xavfli sabog‘i haqida qisqa so‘z.

Tarixning bashariyat uchun xavfli saboqlari juda ko‘p. Buning eng yirigi Yaratganni unutish, johiliyat, ko‘pxudolilik bo‘lsa, eng kichigi ko‘r-ko‘rona taqliddir (aslida bu ham kichik emas!). Tarixning shu ikki xavfi – kabira va sag‘ira – orasidagi xavflarning esa sanab sanog‘iga yetib bo‘lmaydi. Vatan, millat, oila, til, do‘stga xiyonat deysizmi, kibr, qo‘rqoqlik, noshukurlik orqasidan keladigan oqibatlar deysizmi, ochko‘zlik, befarosatlik, hayosizlik deysizmi va h.k... Tarixda bo‘lib o‘tgan va og‘izdan og‘izga yoki qog‘ozdan qog‘ozga ko‘chib yuradigan bu kabi xavfli tarix haqiqatlari, bashar vakilining xatolari o‘zining boshlangan nuqtasidan e’tiboran xavf mashinasi vazifasini bajarib keladi. Ilk qadamidan boshlab, Odam bolalarining

[1] *Uzoq Jo‘raqulov* – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

yo‘ldan ozishi, “O‘tmishda bo‘lgan ekan”, deya nafsiga taskin berishiga sabab bo‘luvchi og‘u vositaga aylanadi.

Yozganlarimizni shu joyigacha o‘qishga o‘zida kuch va sabr topgan o‘quvchida yana bir qat’iy e’tiroz tug‘ilishi tabiiy: “Banda borki, xatokor. Dunyoda yashab xato qilmagan odam bor ekanmi?” degandek. Agar o‘quvchi yuragida shu savol tug‘ilgan bo‘lsa, u o‘ziga ham, atrofidagilarga ham loqayd emas, bu birinchidan; ikkinchidan, shu savolning tug‘ilgani bizga Bobur mirzo saboqlari haqida fikr aytish huquqini beradi. Uchinchidan, xatolar sabog‘ining naqadar ulkan hikmatga egaligi, xatoning hikmatga aylanishi uchun xatokor bandaning o‘zi bosh vositaligiga dalil bo‘ladi. Ya’ni mayda odamning (uni tarix ulkan odam qilib ko‘rsatishi ehtimol) xatolari odamizotni yo‘ldan ozdirsa, Olloh sevgan, yorlaqagan odamning xatosi bashar uchun ibrat va hikmatga aylanadi.

Alqissa, o‘z xatosini anglagan, anglash barobarida undan qaytib, chin tavba qilgan bandaning xatolari bashar foydasiga ishlaydiki, Bobur mirzoga oid xato sabog‘ining tabiati shunday. Boshqacha bo‘lganida bugun biz bu haqda gap ochib o‘tirmas edik. Va shu joyda bunday odamlar Boburgacha kechgan tarixda ham ko‘p o‘tgani, aynan shular bashar ma’rifatining yuksalishi uchun vosita bo‘lganini ham qo‘shib qo‘yish ortiqchalik qilmas.

Bobur haqidagi bu xulosa osmondan olinayotgani yo‘q. Bobur o‘z qo‘li bilan Olloh guvohligida bitgan “Boburnoma”dan olinyapti. Muallif bu kitobining qanaday dunyoga kelganiyu nima haqdaligi, bir so‘z bilan, “Boburnoma” haqiqatini quyidagicha ifodalaydi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu “Vaqoyi’”ni uqur, bilg‘aykim,
Ne ranju ne mehnatu ne g‘amlar ko‘rdum...

Bobur mirzo, Navoiy hazratlari aytmish “tuzlik yo‘lini tutgan”, noyob odam edi. Bugun “Boburnoma” o‘laroq dunyoga ma’lumu mashhur mazkur kitob sahifalarida u bitmish haqiqatlarga esa shubha yo‘q. Ayni paytda, u bosib o‘tgan har qadamdan aql egalari hikmat topadilar. Zotan, muallifning niyati ham shu bo‘lgan.

Bobur mirzo o‘z g‘alabalari, qilgan savob ishlari, ko‘nglidan kechirgan ezgu niyatlari haqida xolis yozgani kabi, xatoyu ma’siyatlarini ham hech kimdan yashirib o‘tirmaydi.

Dastlab o‘zbekman deganning hammasi yoddan biladigan bir to‘rtlik haqida:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yub, Hind sori yuzlandum,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi...

Bobur mirzo Sohibqiron Temur tuzgan saltanat fatarotga yuz burayotgan, uning hukmdor avlodlari tahlikalar ichida kun kechirayotgan murakkab bir zamonda taxtga o‘tirdi. Tole’ yo‘qligi shunda ediki, hali bolalik shodligidan boshqaga mas’ul bo‘lmagan yoshida otasidan judo bo‘ldi. Har qanday metin irodaga bunday ulug‘ judolik yukini ko‘tarish og‘irlik qiladi. Bunday judolikka matonat bilan bardosh bera olgan har qanday irodaga tasanno desak arziydi. Bobur mirzo umumbashariy turmush yo‘lidagi bunday g‘aroyib sinovni kamolga yetgan er kishi kabi qabul qildi. Ko‘ngli tubidan kelayotgan o‘kirik, ko‘zlaridan oqishi lozim bo‘lgan achchiq jolalar shodasini ichiga yutdi. “Ih” degan tovush chiqarmadi. “Boburnoma”da yetim bola (ha, Bobur hali balog‘atga yetmagan 12 yoshida otasidan ajradi. Shar’an bolig‘lik maqomiga chiqmagan har qanday o‘spirin yetim sanaladi) iztirobini aks ettiradigan biror satrga duch kelmaymiz. Bobur otasi o‘limini qismat yozug‘i deya qabul qiladi. Bu “g‘aroyib voqi’a”ni aniq va lo‘nda tasvirlaydi: “Ushbu tarixda dushanba kuni, ramazon oyining to‘rtida Umarshayx mirzo jardin kabutar va kabutarxona bila uchub, shunqor bo‘ldi. O‘ttuz to‘qquz yoshar edi” [Бобурнома, 2012:37].

Olloh odil Zot. Hech bir bandasini toqatidan tashqari sinovga solmaydi. Yaratgan bandasining kuch va irodasi qaysi chegaragacha yetishini yaxshi biladi. O‘z sinovlaridan sevgan bandalari ustiga og‘irroqlarini yuklaydi. Bobur ham Ollohning sevgan bandasi edi. Vallohu a’lam, shu boisdir Olloh uni faqat judolik, yetimlik sinovi bilan cheklamadi. Murg‘ak yelkasiga yurt sinovini ham qo‘shib yukladi. Umarshayx mirzo qazo qilgan tarixda yurt notinch, o‘zaro urushlar avjiga chiqqan, mamlakat tahlikali bir vaziyatda turgan paytlar edi. Shu vaziyatda 12 yoshli o‘spirin boshiga hukmdorlik savdosi ham tushdi. O‘z “Vaqoyi’”ida Bobur buni “Tengri taoloning inoyati” [Бобурнома, 2012:14]. deb yozadiki, chin mo‘min Olloh bergan har bir sinovni shubhasiz ne’mat deya qabul qiladi. Qismatga rozilik – taslimiyat maqomida sobit turadi.

Endi ruboiyning ikkinchi misrasiga o‘tamiz. Xo‘sh, ikkinchi misrada kelgan “xatolig‘” nimada edi? Uning omillari qaerda?

Albatta, “xatolig‘”ning bosh omili 12 yoshar bolaning hukmdorlik taxtiga o‘tirishi bilan bog‘liq edi. Ruboiyning uchinchi misrasidan Boburning “Hind sori” yuzlanishiga bosh sabab saltanat ishlarida tajribasizligi, yoshligi orqasidan kelib chiqqan xatolar ekani ma’lum bo‘ladi (Buni Boburning o‘zi “betajribaliq” lafzi bilan ko‘p bor takrorlaydi.). Aslida u hijratni niyat ham, maqsad ham qilmagan edi. U otasidan deyarli porakanda holatdan qolgan mamlakatni mustahkamlamoq, saltanant va yurtni uzoq vaqtlar bobosi Amir Temurga xos adolat tuzugiga ko‘ra boshqarmoqqa bel bog‘lagan edi. Ammo bu niyatni uddalash uchun o‘smirga xos shijoat, mushohada kamlik qildi. Bobur taxtga o‘tirgan kunidan boshlab tushgan vaziyatni o‘nglash uchun, ehtimol, har qanday donishmand bosh ham gangib qolishi tayin edi. Shu sababmikan dastlab Bobur na butun Movorounnahr va na Xuroson

bo‘ylab sochilib yotgan hukmdor qondoshlarining, na xalqning, na oqibat o‘laroq Haqning qo‘lloviga yetisholmadi. Bobosi Yunusxon uning taklif va tashabbusini qabul qilishdan bo‘yin tovladi. Tog‘a qavmi azaldan Umarshayx mirzo saltanatiga ko‘z tikkan edi. Ulardan madad kutishdan ma’ni yo‘q edi: “Oxir mundoq sargardonliqtin va bu nav’ bexonumonliqtin jong‘a yettim. Dedimkim, mundoq dushvorliq bila tirilguncha, bosh olib yitsam yaxshi. Bu nav’ xorliq va zorliq bila el bilguncha oyog‘im yetgancha ketsam yaxshi”, deya xotirlaydi bu kunlarini Bobur [Бобурнома, 2012:89].

Shunday tang vaziyatlardan birida Bobur uchun asli shi’a bo‘lgan, sunniy o‘lkalarga g‘ayur ko‘zi bilan qarab yuradigan, niyati buzuq Shoh Ismoilga yordam so‘rab, qo‘l berish so‘nggi chora bo‘lib tuyuldiki, keyinchalik, garchi o‘zi ochiq e’tirof etmasa ham, bu ishidan bir umr pushaymon chekib o‘tdi. Bu pushaymonlik ostida saltanitdan ajralish, hatto Vatanjudolik qayg‘usidan ham ko‘ra Samarqand atrofi va Nasaf aholisining g‘arot qilinishi iztirobi turardi. Begunoh to‘kilgan qon, ota-bobolari mazhabi, to‘g‘ri yo‘lidan toyilish iztirobini Bobur mirzo vaqt o‘tib, “yuzqarolig‘” so‘zida ifoda etdi. Ruboiyni yurakdan his etib o‘qigan har bir banda inson hayot-mamoti bilan bog‘liq har qanday “xatoliq”ning oqibat o‘laroq “yuzqaroliq”qa olib borishini anglaydi. O‘zga yurt, ustiga ustak kuffor dunyosini tiz cho‘ktirgan, ko‘p asrlik saltanat tuzgan, dunyoda shon-shuhrat topgan Bobur mirzoning bunday imtiyozga bergan bahoyu mezoni haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi.

Yarim dunyoni egallab, tarixdagi turkiy saltanatlar sanog‘i va salmog‘ini yana bittaga oshirgan Sohibqiron Amir Temur, olamni ilm chirog‘iyu adolat mash’ali bilan yoritgan mirzo Ulug‘bek hazratdan keyin bu sulola yo‘l qo‘ygan eng katta ikki xato chog‘ir, orzu-havasga berilish bo‘ldi. O‘sha mashhur shoh va shoir sulton Husayn, uning o‘g‘illari, ulardan o‘tib Boburning otasi Umarshayxgacha bu illatdan holi shohu shahzoda yo‘q edi hisob. Oqibat shunday buyuk saltanat yo‘qlikka yuz tutdi. Bobur boshiga tushgan ko‘p kulfatu fojialarning ham ildizi shu yerda edi. Daryo ortiga o‘tib, Hindikushni oshgan Bobur to Hind rojalaridan talofat va zahmati haddidan oshmaguncha chog‘ir balosiga bandi edi. Sharob ichmagan, ma’jun yemagan kuni kamdan kam edi uning. Bobur bu holatni “chog‘ir majlisi bo‘ldi”, “ma’jun yeyildi”, deya kunma kun yozadiki, o‘ylab qolasan: “Nima zarurati bor ekan? Musulmon odam o‘z aybini yashirishi kerak emasmi?” Shunda ovozingizni Bobur mirzoning mungga to‘la, salmoqdor ovozi qarshilagandek bo‘ladi: “Bu bitilganlardin g‘araz shikoyat emas, rost hikoyatturkim, bitibturmen...” [Бобурнома, 2012:151].

Boburning chog‘ir ichshi, ma’jun yeyishini yaqin ajdodlari-yu qondoshlariga taqlid deb aytsak, garchi Bobur ilk chog‘irni sulton Husan o‘g‘illari huzurida ichib boshlagan bo‘lsada, kamida befarosatlik bo‘ladi. U buyuk odam edi,

birovga taqlid qilmasdi. Uning bir umr egarda kechgan hayoti, jangovor turmush tarzi, notinch muhiti, tabiat injiqliklari – ayoz, bo‘ron, issiq, chang-g‘ubor, tabiiy muhit o‘zgarishlari – shunday kun tartibi bilan yashashga majbur etdi degudek bo‘lsak, Boburni oqlagan bo‘lamiz. Ammo Bobur bunday soxta shafqatu oqlovlarga muhtoj emas. Muhtoj bo‘lganida nima sababdan ichgariyu, ma’jun yeganini yozgan yoki umuman bu aybini yashirgan bo‘lardi. Demak, yashirmagan, sababu bahona qidirmagan ekan, buning bir hikmati bor va biz buni “Boburnoma”dan topamiz.

Bobur o‘z yurtida izzatu halovat topmay, 300 dan oshiqroq odami bilan Xuroson azimatini qildi. Bu sanada u bor-yo‘g‘i 23 yoshar o‘spirin edi. Sulton Husayn va uning o‘g‘illari, Xusravshohlar uni qo‘llamadilar yoki qo‘llashdan o‘zlarini olib qochdilar. Ammo Boburga Olloh muzaffariyat berdi. Kobul va G‘azna Bobur qo‘shiniga bejang taslim bo‘ldi: “Rabbiulavval oyining avoxirida Tengri taolo fazl va karami bila Kobul va G‘azni mulk va viloyatini bejang va jidol muyassar va muxassar qildi” [Бобурнома, 2012:107].

Bobur may majlislariga Kobulni olgandan keyin berildi. Goh g‘alaba, goh ov va yana ko‘p mayda sabablar bilan may majlislari uyushtirdi. Bog‘da, yo‘lda, kemada chog‘ir ichdi, ma’jun yedi. Hatto ba’zi may majlislaridan o‘zini bilmaydigan holda mast bo‘lgani, saroyga oti olib kelgani haqida yozadi.

Hindiston fathi davrida Bobur asosan hind kofirlari bilan jang qildi. Asli turkiy, musulmon bo‘lgan viloyat, shaharu o‘lkalarni g‘arot qilmadi. Aksincha ularga har jihatdan yordam berishga urindi. Boburning chog‘ir ichishdan tavba qilishiga ham kofir Rana Sangaa bilan bo‘lgan jangdagi vaziyat sabab bo‘ldi. Son jihatidan ko‘p, yaxshi qurollangan, qolavrsa, o‘z yurtida jang qilayotgan kofir hind rojasining vahmi qo‘shinni tushkun holatga soladi. Bu ham yetmagandek Muhammad Sharif singari shumnafas munajjimlar qo‘shin ilg‘orlari va askarlari yuragiga ortiqcha vahima uyg‘otadilar. Bobur bu vaziyatni shunday tasvirlaydi: “Mundoq shumnafas nekim surdi, bedil elning ko‘nglini ko‘prak sindurdi” [Бобурнома, 2012:221]. Ammo Bobur iymoni butun muslim, iste’dodli qo‘shinboshi o‘laroq o‘zini yo‘qotmadi. Qo‘shin ko‘nglini ko‘tarish, kofirga qarshi jangga ruhlantirish yo‘llarini izladi. Izlaganda ham mo‘min banda yo‘lini tutdi. Mag‘lubiyat va tushkunlik sababini vaziyatu qo‘shin ruhiyatidan emas, o‘zidan, o‘z e’tiqodi, amallaridan topdi. Qilayotgan ba’zi nomashru’ ishlari shunday oqibatga olib kelayotgani haqida fikr qildi. Najot faqat tavbada ekaniga iymon keltirdi. “Dushanba kuni, jumoduil avval oyining yigirma uchida sayr qila otlandim. Sayr asnosida xotirimg‘a yettikim, hamisha tavba dag‘dag‘asi xotirimda bor edi, bu nomashru’ amr irtikobidin alladdavom ko‘nglumda g‘ubor edi, dedimkim ey nafs:

Chand boshi zi maosy mazakash,
Tavba ham bemaza nest bachash.
Necha isyon bila oldudalig‘ing,

Necha hirmon aro osudalig‘ing.
Necha nafsingg‘a bo‘lursan tobi’,
Necha umrungni qilursan zoyi’.
Niyati g‘azv ilakim yurubsen,
O‘lmakingni o‘zungga ko‘rubsen
Kimki o‘lmak o‘zig‘a jazm etar
Ushbu holatta bilursenki netar.
Dur etar jumla manohidin o‘zin,
Aritur barcha gunohdin o‘zin.
Xush qilib o‘zni bu kechmakliktin,
Tavba qildim chog‘ir ichmakliktin.
Oltunu nuqra surohiyu oyoq,
Majlis oloti tamomin ul choq.
Hozir aylab borin sindurdim,
Tark etib mayni, ko‘ngul tindurdim” [Бобурнома, 2012:221].

“Boburnoma”da kelgan ushbu satrlarda Bobur tavbasining sabablari, ruhoniyat darajasi, tavba qiluvchi va o‘quvchiga foydasi to‘la aks etgan. Bunda muallif o‘z nafsini malomat qiladi, unga qarata o‘tkir kinoyaga yo‘g‘rilgan so‘zlar aytadi. “Ey nafs,-deydi Bobur,-qachongacha gunohdan zavq olasan. Tavba sharobidan ham ichib ko‘rgin. U ham bemaza emas. Isyon botqog‘ida shuncha g‘arq bo‘lganing yetar. O‘lim haq. O‘lmoq esa har banda boshida bor. Shunday ekan, ey nafs, o‘lmasingdan burun o‘zingni tuzat!”

Bobur ko‘nglining asli mo‘minligini shundan ham bilsa bo‘ladiki, u chog‘ir majlislarida peshqadam bo‘lgan paytlarida ham ko‘ngli tubini xijolat, Ollohdan qo‘rquv hech qachon tark etmagan. Mana shu botiniy holat, “tavba dag‘dag‘asi” bilan iztirobda yashash Boburni oxir-oqibatda chin tavbaga olib keldi. Bundan xulosa qilish mumkinki, gunoh ishlar ustida turgan banda ko‘nglida pushaymonlik tuyg‘usi mavjud ekan, hali undan umid bor. Eng yomoni, gunohu ma’siyatga botinan rozi bo‘lish, gunoh kirini his etishdek ne’matdan bebahra qolishdir.

Bandamiz, hech birimiz Bobur tushgan holatu vaziyatlardan holi bo‘lolmaymiz. Bobur mirzoning o‘z xatolari bilan bizga bergan buyuk sabog‘i shuki, tavba qilishga doimo shoshilaylik, ajal yetmasidan tavba qilishga ulgurib qolaylik.

Adabiyotlar:

1. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2002. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи Саидбек Ҳасанов. – Тошкент: Шарқ.
2. Jo‘raqulov U. 2017. Chronotope poetics in Alisher Navoi’s “Khamsa”. Monograph. Tashkent: Turon-iqbol. 206 p.

3. Жўрақулов У. 2023. «Илми балоғат»нинг маншаъи. Sharq-u G‘arb renessans adabiyoti: Navoiy va Shekspir Mavzuidagi Mavzuidagi Xalqaro Ilmiy-Nazariy Konferensiya Materiallari, 1(1).
4. Jo‘raqulov U. 2015. Nazariy poetika masalalari. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.
5. Djurakulov U. 2023. “Khamsa” as a Universal Genri //The FirstTronsboundariy Conferense for Sustanoble Sokletles – 2023/Pamir.
6. Jo‘raqulov U. TürkHalkEdebî Düşüncesi Tarihinde Epik Kavramın Küreselliği. Yüzyılda Eğitim ve Toplum / Education And Society In The 21st Century Cilt / Volume 9, Sayı / Issue 27, Kış / Winter 2020 Araştırma Makalesi / Research Article 859Sayfa/Page : 859 – 878

Tarixchi G‘iyosiddin Xondamirning boburshunoslikka qo‘shgan hissasi
Historian Ghiyaziddin Khondamir's contribution to Babur studies

Abdumajid MADRAIMOV[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar davri yirik tarixchisi G‘iyosiddin Xondamirning Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini o‘rganishga qo‘shgan hissasi uning “Habib us-sayar”, “Xulosat ul-axbor”, “Makorim ul-axloq” nomli asarlaridagi ma'lumotlarni “Boburnoma” va Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlari bilan qiyosiy o‘rganish asosida aniqlashga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: *Temuriylar, Sulton Abusa'id Mirzo, Umarshayx Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur, Alisher Navoiy, Mirzo Muhammad Haydar, “Habib us-sayar”, “Xulosat ul-axbor”, “Boburnoma”, “Tarixi Rashidiy”, boburshunoslik.*

Annotation: In this article, the contribution of the great historian of the Timurid period and the attempt was made to determine their work based on a comparative study through the life and creative activity of Ghiyaziddin Khondamir, Zahiriddin Muhammad Babur, and the information from his works “Habib us-sayar”, “Khulasat ul-akhbar”, “Makorim ul-akhloq” and ‘Baburnama” and Mirza Muhammad Haydar's “History of Rashidi”.

Key words: *Timurids, Sultan Abusa'id Mirza, Umarshaikh Mirza, Zahiriddin Muhammad Babur, Alisher Navai, Mirza Muhammad Haydar, “Habib us-sayar”, “Khulasat ul-akhbar”, “Baburnama”, “Tarihi Rashidi”, and Babur studies.*

Ilk boburshunoslardan biri deb biz Temuriylar davri buyuk tarixchi olim, yoshi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)dan sakkiz yosh ulug‘ bo‘lgan G‘iyosiddin bin Humomiddin Xondamir (1475, Hirot-1534, Agra)ni aytishimiz mumkin. Bu tarixchi to‘g‘risida B.Ahmedov , N.D.Mikluxo-Maklay, D.Yusupova, afg‘on olimi Abdug‘affor Bayoniy, M.Ahmedov, I.Bekjonov va boshqalar o‘z asarlarida ma'lumotlar keltirishgan.

Xondamirning otasi Xoja Humomiddin ibn Xoja Jaloliddin Muhammad ibn Burxoniddin Hiraviy Badaxshon hokimi Sulton Mahmud Mirzo ibn Sulton Abu Sa'id Temuriyning vaziri bo‘lgan. Uning onasi o‘z zamonasining taniqli tarixchisi va mashhur yetti jildli kitob “Ravzat us-safo” nomli asarning muallifi Muhammad Mirxond (vaf. 1498) ning qizi edi. Xondamir Hirot shahrida tavallud topib, asosan bobosi Muhammad Mirxondning vafotigacha uning tarbiyasida bo‘lgan. Bolalik va o‘smirlik davrlarida tafsir, adabiyot, til va tarixni o‘qib o‘rgangan. Xondamir Sulton

[1] *Abdumajid Madraimov* – tarix fanlari doktori, professor

Husayn Mirzo saroyiga, jumladan uning vaziri Amir Alisher (1441-1501)ning huzuriga yo‘l topadi.

Amir Alisherning homiyligi va rag‘batlantirishi bilan tarixchi “Maosir ul-muluk” nomli kitobini yozadi. Yosh yigitdagi yaxshigina iste'dodni ko‘rib, o‘zining kutubxonasini uning ixtiyoriga topshirgan edi. Tarixchi o‘z yoshligi to‘g‘risida “Xulosat ul-axbor fi bayon al-ahvol al-axyor” (“Yaxshi kishilarning hayotlari to‘g‘risida qisqacha ma'lumotlar”) nomli asari muqaddimasida yozgan edi: “Hayotimning tongi bo‘lgan yoshlik davrim boshlaridan ulug‘ kishilarning hayotlari tarixini o‘rganish va tadqiq etishga qattiq qiziqib, esimni tanigan chog‘larimdan boshlab, aziz umrni kitoblar o‘qishga sarfladim va har doim ajdodlar hayot yo‘llari sahifalariga hamda avlodlarning ular to‘g‘risidagi qiziqarli rivoyatlariga ko‘z tashlab keldim. Olam to‘g‘risidagi bilimlardan xabardor bo‘lib, ummatlarning hayotlari va qilgan ishlari to‘g‘risida bir ozgina ma'lumotga ega bo‘lgach, shuningdek, hazrati Amir Alisherning adolat va inoyat nurlari ushbu notavonning yuziga tushib, bu holat kun sayin kuchayib, lahza sayin takomillashgach, hijratning 904 yili (melodiy 1498/1499 yilda) donishmand vazir va fozil sadr Nizomiddin Alisher o‘z kitoblari xazinasini mening ixtiyorimga topshirib, meni ushbu nafis kutubxonadan foydalanish sharafiga muyassar qildilar. (Ul hazrat o‘zlarining kutubxonalarida bo‘lgan tarix va rivoyatlarga bag‘ishlangan har qanday kitobni mendek bir notavonga taqdim etib, meni ushbu asarlarni o‘qib-o‘rganishga rag‘batlantirdilar”[1]. Amalda tarixchi Amir Alisherning kitobdori vazifasini bajarar edi. Buyuk shoir vafot etgan hijriy 906/ melodiy 1501 yiligacha uning xizmatida bo‘lgan va o‘sha yili Alisher Navoiy to‘g‘risidagi “Makorim ul-axloq” (Olijanob xulqlar) nomli kitobini yozadi. Shundan so‘ng Xondamir Sulton Husayn Mirzoning katta o‘g‘li Badiuzzamon Mirzo xizmatiga kirib, uning vaziri vazifasini bajaradi.

1506 yil 4 mayda Sulton Husayn mirzo vafot etgach, Badiuzzamon Mirzo va Muzaffar Mirzo ikkalasi taxtga o‘tirishadi, ammo ular Muhammad Shayboniyxonning 1507 yilgi Hirot hujumiga qarshilik ko‘rsata olmay, mag‘lub bo‘ladilar. Xondamir hijriy 916 /1510-1511 yillariga qadar Hirotda bo‘ladi. Shundan so‘ng uning darbadarlik hayoti boshlanadi.

Hijriy 927/1520-1521 yili Safaviylarning Hirot shahridagi hokimi Amir G‘iyosiddin Muhammad al-Husayniy al-Qozi iltimosiga binoan “Habib us-siyar” asarining 1 jildini yozib beradi. Shu vaqtda homiysi qatl etiladi. Yangi hokim Karimiddin Habibulloh Sovajiy tarixchini qo‘llaydi va tarixchi hijriy 930/1523-1524 yili o‘z kitobini unga bag‘ishlab yozib tugatadi. Bungacha Xondamir ma'lum muddat Badiuzzamon Mirzo o‘g‘li Muhammad Zamon Mirzo xizmatida bo‘lgan va shu yillar orasida bir-ikki marta Zahiriddin Muhammad Bobur bilan uchrashgan.

[1] Баёний А. Хондамирнинг ҳаёти ва ижоди/ Хондамир Ғиёсиддин. Макорим ул ахлоқ. –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015, 153 бет.

Hijriy 932/1526 yili Xondamir Hirotda Qandahorga yo‘l oladi. Hijriy 934/1528 yili u Hindiston tomon yo‘l oladi va hijriy 935/1528 yili Agra shahriga Bobur huzuriga borgan. “Boburnoma”da Xondamirning Hindistonga kelgani haqida ma'lumot berilgan. Bobur u bilan muloqot qilib turgan. Bir marta u Xondamir, Shayx Zayn va Mullo Shihobni o‘z huzuriga taklif qilib, quyidagi baytni bitib yuborgan:

Shayxu Mullo Shihobu Xondamir,

Keling uch-uch, ikki-ikki, bir-bir (“B.”, 378b).

Xondamir Boburning Bengaliya va Gang daryosi sohillari bo‘ylab qilgan yurishida unga hamrohlik qilgan. 1530 yili Bobur vafot etgach, uning o‘g‘li Humoyun saroyida xizmat qilgan, unga bag‘ishlab “Qonuni Humoyuniy” asarini yozgan va “Amiri ul-muarrixon” degan sharafli nomga muyassar bo‘ladi. Tarixchi hijriy 942/ 1535-1536 yili vafot etadi va uni Dehlidagi Nizomiddin Avliyo qabristoniga ko‘mishadi.

Temuriylar davrida (1370-1501, Movarounnahr, 1507 yilgacha Xuroson, 1530 yilgacha Kobul) yashab ijod etgan yirik va sermaxsul tarixchi bo‘lgan Xondamir o‘z ijodini Alisher Navoiyning homiyligida boshlagan. “Maosir ul-muluk” dan tashqari “Xulosatul-axbor fi ahvol ul-axyor”, “Habib us-siyar fi axbori afrod ul-bashar”, “Dastur ul-vuzaro”, “Makorim ul-axloq” (Alisher Navoiyning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan) singari asarlar muallifidir [Юсупова, 27-60].

Shuningdek, u bobosi, yirik tarixchi olim Muhammad Mirxond qalamiga mansub “Ravzat us-safo fi siyar al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarjimai hollarining yam-yashil bog‘i”)” asarining tamomlanmay qolgan yettinchi jildini nihoyasiga yetkazgan. Xondamir mashhur kishilarning maktublaridan “Nomai nomiy” to‘plamini tuzgan. Humoyun podshoh tomonidan amalga oshirilgan davlat ishlaridagi o‘zgarishlar to‘g‘risida “Qonuni Humoyuniy” asarini yozgan. Bobosi Muhammad Mirxondning “Ravzat us-safo” asari yettinchi jildini qoralamadan oqqa ko‘chirgan va unga o‘zgartirishlar kiritgan [Баёний, 161].

“Maosir ul-muluk” (“Podshohlarning ulug‘ ishlari”) nomli kitobi podshoh va donishmandlarning ulug‘ ishlari to‘g‘risidagi ma'lumotlar yig‘ilgan bo‘lib, uch bobdan iborat: 1 bob: Kayumarsdan Anushervongacha bo‘lgan qadimgi ajam shohlari; 2 bob: Odam alayhissalomdan to Buzurgmehrgacha bo‘lgan donishmandlar va 3 bob: Muhammad s.a.v. va pokiza imomlarning mashhur ishlari to‘g‘risida bo‘lgan. Kitob matni 1993 yili Mirhoshim Muhaddis tomonidan nashr qilingan [Юсупова, 27-33; Баёний, 158-159].

“Xulosat ul-axbor fi bayon al-ahvol al-axyor” (“Yaxshi kishilarning hayotlari to‘g‘risida qisqacha ma'lumotlar”) asari hijriy 905/1499 yili umumiy tarixga oid asar. Muqaddima, payg‘ambarlar, podshohlar, ilm-fan, adabiyot va siyosat arboblarining hayoti va faoliyati to‘g‘risida o‘n maqoladan iborat kitobdir. Uning qo‘lyozmalari

Kalkutta, Istambul, Toshkent va Kobul shaharlarida saqlanadi. Kitob frantsuz va ingliz tillariga tarjima qilingan [Баёний, 159]. Kitobdagi Alisher Navoiyga oid ma'lumotlar B.Ahmedov tomonidan o‘zbek tilida nashr etilgan [Хондамир, 1985:58-152].

“Habib us-siyar fi axbori afrod ul-bashar” – “Bashar ahlining siyratidan xabar beruvchi do‘st” asari ham umumiy tarixga bag‘ishlangan bo‘lib, uni hijriy 927/1520-1521 yili yozishga kirishgan. U muqaddima, xotima va uch bobdan iborat. Har bir bob to‘rt qismga bo‘linadi: 1 bobda johiliyat, islomdan ilgari o‘tgan payg‘ambarlar va arab xalifaligi tashkil topguncha yuz bergan voqealar bayon qilinadi. 2 bob shia mazhabidagi imomlar, umaviya va abbosiya xalifalari, boshqa sulolalar tohiriylar, safforiylar va somoniylar haqida; 3 bob Chingizxon, unga zamondoshlar, Temuriylar, Safaviylar, Shayboniylar to‘g‘risida hikoya qilinadi.

“Dastur ul-vuzaro” (“Vazirlar uchun qo‘lanma”) asarida Islom davrining boshlanishidan to hijriy 915/1509-1510 yilgacha bo‘lgan davrda yashab ijod etgan mashhur vazirlari to‘g‘risida ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi. Uning hijriy 906/1500-1501 yili Sulton Husayn Mirzo va Kamoliddin Mahmud ismli shaxsga bag‘ishlab yozilgan. Muallif kitobni hijriy 914/1508-1509 yili takomillashtirgan. Asar 1938 yili Sa'id Nafisiy tomonidan Tehronda nashr etilgan [Баёний, 159].

“Makorim ul-axloq” (“Olijanob sifatlar”) Alisher Navoiyga bag‘ishlagan bo‘lib, 1501 yili yozilgan. U 10 bob (maqsad), muqaddima va xotimadan iborat. Kitob o‘zbek tilida M. Faxriddinov va P. Shamsiyev tarjimasii 1941, 1948 va 1967 yillari nashr etilgan edi. 2015 yili 1981 yili A. Bayoniy nashri asosida K. Rahimov tarjimasi nashr etildi [Хондамир, 1981:208]. “Nomai nomiy” (“Atoqli nomalar”) asari qachon yozilgani ma'lum emas. Unda 1521-1524 yilgi voqealar ham eslatilgan. U 9 bobdan iborat. Kitobda insho ilmida faoliyat olib borgan yetuk olim, fozil kishilar haqida ma'lumot betib, maktub, yorliq, farmon va boshqa hujjatlar namunalari mavjud [Аҳмедов, 358-363]. “Qonuni Humoyuniy” (“Humoyun qonuni”) kitobi Zahiriddin Muhammad Boburning o‘g‘li Humoyunga (1508, 1530-1540, 1543-1506) bag‘ishlab yozgan, uning davlatni boshqarishda kiritgan yangiliklari to‘g‘risida. Kitob 1940 yili Kalkuttada Hidoyat Husayn tomonidan inglizcha so‘zboshi bilan va 1993 yili Mirhoshim Muhaddis Tehronda nashr etgan, M. Ahmedov uning asosida nomzodlik dissertatsiya yozgan [Хондамир, 1981:161-162].

Ushbu keltirilgan G‘iyosiddin Xondamirning asarlari to‘g‘risidagi ixcham ma'lumotlar uning sermaxsul olim ekanligini ko‘rsatadi. Tarixchining “Habib us-siyar fi axbori afrod ul-bashar” -asari 3 bobida Temuriylar va xususan Bobur bilan bog‘liq tarixiy voqealar ham o‘rin olgan bo‘lib, ularni I.Bekjonov fors tilidan tarjima qilib “Buyuklik xislati” nomi ostida 2011 yili Toshkentda nashr etdi.

Tarixchi G‘iyosiddin Xondamirning boburshunoslikka qo‘shgan hissasini aniqlash uchun uning “Habib us-siyar” asarida mavjud ma'lumotlarni Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlari bilan qiyoslab o‘rganishni maqsad qildik.

Zahiriddin Muhammad Boburning ajdodlari, Amir Temur va Temuriylar to‘g‘risida tarixiy asarlar talaygina, ularning ichidan Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa'dayn va majmai bahrayn” asarida bu sulolaning 1470 yilgacha, ya'ni Sulton Abu Sa'id Mirzoning halok bo‘lishi va Xuroson taxtiga Sulton Husayn Mirzoning o‘tirishi bilan tugallanadi. Dadil aytish mumkinki, G‘iyosiddin Xondamir o‘zining “Habib us-siyar” asarida Sulton Abu Sa'id Mirzo farzandlari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni yozib, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari uchun asos yaratganday tuyuladi.

“Habib us-siyar”dan tanlab olingan kitobning boshida biz “maqtov xislatli Sulton Abu Saidning shon-shavkatli o‘g‘illari ahvolining qisqacha zikri (11-32 sahifalar)”da podshohdan qolgan o‘n bir nafar shahzodalar to‘g‘risida, jumladan Boburning otasi Umarshayx Mirzo to‘g‘risida (23-28 sahifalar) ham ma'lumotlar keltirilgan.

“Boburnoma” matnida biz asosan uch podshoh bo‘lgan Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo va Umarshayx Mirzolar to‘g‘risida mukammal, qolgan Sulton Abu Sa'id Mirzo o‘g‘illari shunchaki zarur joylarda eslab o‘tiladi, xolos.

“Tarixi Rashidiy” asarida faqat “Bobur podshohning nasl-nasabi, uning mo‘g‘ul xoqonlari bilan qarindoshlagi tasviri va faoliyati avvali qisqacha bayoni” (248-254 sahifalar) mavjud bo‘lib, unda Sulton Abu Sa'id Mirzoning xonlarni Chig‘atoy avlodidan ko‘tarishga barham berib, Yunusxonni Mo‘g‘ulistonga jo‘natgani hamda Sulton abu Sa'id Mirzoning uch o‘g‘liga uch qizini nikohlab bergan eslatiladi: “Sulton Abu Saidga zamondosh ulug‘ sayyid, mashoyix va ulamolar zikri” (32-35 sahifalar) sarlavhasi ostida asosan Xoja Nosiriddin Ubaydulloh va unga marhum Sulton Abu Sa'id Mirzo munosabati yoritilgan.

Shundan so‘ng “Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh hayoti, tug‘ilishidan Samarqand shahri tomonga yurish qilish zamoni”gacha (36-49 sahifalar), “Samarqand tomonga ikkinchi marta yuzlangani” (50-59), “Mirzo Boysung‘ur va Amir Xusravshohning Hisori Shodmon tomonga qo‘shin tortgani” (59-61 sahifalar), “Samarqandning Bobur tasarrufidan chiqqani zikri” (61-89 sahifalar), “Muhammad Mazid Tarxonning Sulton Ali Mirzo bilan yovlashgani…zikri” (90-92 sahifalar), “Muhammad Mazid Tarxonning Bobur huzuriga ketgani zikri” (92-96 sahifalar), “Muhammad Shayboniyxon hayoti…zikridagi gaplar” (97-103 sahifalar), “Muhammad Shayboniyxonning Samarqand va Buxoro tomon yurishi” (104-111 sahifalar), “Sulton Ali Mirzo va Xoja Yahyoning shahid bo‘lgani zikri” (111-117 sahifalar), “Ba'zi yomon ishlar … zikri” (117-119 sahifalar), “Bobur podshoh ko‘rgan

tush… zikri” (119-121 sahifalar), “Samarqand shahrining fath bo‘lgani” (122-134 sahifalar), “Podshohning Samarqand shahriga berkingani”…(135-145 sahifalar), “Podshohning Samarqandni tashlab chiqqani zikri” (145-147 sahifalar) kabi Movarounnahrdagi voqealar bayon etilgan.

Bularning aksariyati “Boburnoma”da ham mavjud. Lekin ikkala manba ma'lum darajada bir birini to‘ldiradi. Lekin Zahiriddin Muhammad Boburning tug‘ilishi tafsiloti “Boburnoma”da mavjud emas. Biroz qisqaroq tahririda “Tarixi Rashidiy”da mavjud.

Umuman, G‘iyosiddin Xondamir ma'lum darajada Movarounnahr tarixini imkoni doirasida yorita olgan, deb xulosa qilish mumkin.

Kobul voqealari Sulton Abusa'id Mirzoning Ulug‘bek Mirzo Ko‘ragon ismli o‘g‘li tarixi (28-29 sahifalar) dan boshlab yoritilgan va uning o‘g‘li Mirzo Abdurazzoq qisqa vaqt podshoh bo‘lgani, keyincha Kobulni Mirzo Muqim tomonidan egallanishi, undan so‘ng Zahiriddin Muhammad Bobur hokimiyatga kelishi bayon qilingan. “Kobulning Muqim Arg‘un tasarrufiga kirgani zikri” (147-148 sahifalar), “Badiuzzamon Mirzoning Shayboniyxonga qarshi qo‘shin tortgani… va orqaga qaytgani zikri” (149-152 betlar), “Badiuzzamon kishilari fitnasi va Shaybonixonning Balxga yo‘nalgani” (152-156 sahifalar), “Shayboniyxonning... Balx mamlakat ufqida balqib chiqishi” (157-163 sahifalar), “Sulton Mahmudxon va Olachaxonning...Muhammad Shayboniyxon o‘rtasida ro‘y bergan urush” (164-166 sahifalar), “Amir Muhamad Boqirning... Bobur huzuriga kelgani” (167-170 sahifalar), “Bobur podshohning Kobul shahrini tasarrufiga kiritgani zikri” (170-172 sahifalar) ikkinchi marta bayon etilgan.

Shu bilan birga Xuroson voqealari ichida “Badiuzzamon Mirzoning zikri” (173-175 sahifalar), “Badiuzzamon Mirzoning Shayboniyxonga qarshi yo‘nalgani” (175-178 sahifalar), “Badiuzzamon mirzoning...Balxob tomonga yo‘nalgani” (179-180 sahifalar), “Badiuzzamon Mirzoni Qandahorga borgani (180-182 betlar), “Xuroson sultonlarining Shayboniyxon bilan to‘qnashish... zikri” (182-186 sahifalar), “Bobur podshohning Murg‘ob daryosi bo‘yida Xuroson sultonlariga qo‘shilgani” (186-192 sahifalar), “Balxning Shayboniyxon tasarrufiga kirgani” (192-196 sahifalar), “Badiuzzamon Mirzoning Yayloqi Maralga ketgani zikri” (196-203 sahifalar), “Xuroson hokimlari va askarlarining tarqalib ketgani” (203-205 sahifalar), “Hirot ulug‘larining. Shayboniyxon huzuriga yetishgani” (205-208 sahifalar), “Ulug‘ vazirlarning Hirot shahriga kirgani” (209-212 sahifalar), “Ixtiyoriddin qal'asi” (213-215 sahifalar), “Xurosonda hodisalar” (216-220 sahifalar), “Badiuzzamon va Muzaffar Mirzolarning Jurjon viloyatiga kelgani” (221-224 sahifalar), “Shayboniyxonning Eron mamlakatiga yurishi” (224-229 sahifalar), “Sulton Husayn Mirzo o‘g‘illari” (229-258 sahifalar), “Shoh Ismoil Xuroson fatxi” (258-261 sahifalar), “G‘alaba alomatli askarlarning yo‘nalgani” (261-265 sahifalar), “Sultonlik

jangining ro‘y bergani” (265-273 sahifalar), “Shoh Ismoilning ovga chiqqani” (273-275 sahifalar), “Bobur Podshoh Movarounnahrga yurish bayoni” (276-283 sahifalar), “Najmi Soniy bayoni” (284-290 sahifalar), “Shoh qo‘shinining Mashhad shahriga yetishgani” (291-292 sahifalar), “Qutlug‘ Mavkabning Nahjavon qishloviga ketgani” (292-294 sahifalar), “Xuroson mamlakatlarini boshqaruvchi Amir Sulton ahvoli” (294-297 sahifalar), “Shu kunlarda ro‘y bergan voqealar (298-302 sahifalar) bayonidan iborat.

Ushbu kitobdagi voqealar bayoni hududlar, va sulolalar Temuriy, Shayboniy va Safaviylar tarixiga daxldor juda ko‘plab ma'lumotlarni qamrab olgani hamda tarjimon tomonidan tanlab olingan ma'lumotlar qisman Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, qarindoshlari, uch sulola vakillarining o‘zaro kurashlari tafsiloti mavjudlini bilan ajralib turadi. Xondamir asaridagi ma'lumotlar ma'lum darajada “Vaqoyi'”-“Boburnoma” kitobida mavjud bo‘lmagan bir qism voqealarni yoritgani bilan qimmatlidir.

G‘iyosidddin Xondamirning “Habib us-siyar” asaridagi Xuroson va Kobulda bo‘lgan voqelar tafsiloti Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarida ham mavjud emas. Faqat Movarounnahrdagi Boburning so‘nggi yurishiga oid ma'lumotlar ikkala kitobda mavjud bo‘lib, alohida “Boburnoma”da yoritilgan emas.

G‘iyosiddin Xondamirning Bobur shunos sifatidagi xizmati to‘g‘risida shuni aytish kerakki, ularning yoshi ulug‘ va tajribasi Zahiriddin Muhammad Boburdan ko‘p bo‘lishiga qaramay, ijodda ma'lum darajada o‘zidan yosh zamondoshining yangiliklarini o‘zlashtirish hamda uning hayotini ham yoritishga intilgani diqqatga sazovor.

G‘iyosiddin Xondamirning “Habib us-siyir” va “Xulosat ul-axbor asarlaridagi Zahiriddin Muhammad bobur hayoti va uning zamondoshlari to‘g‘risidagi “Boburnoma” asari va mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridagi ma'lumotlarni qiyosiy o‘rganish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. G‘iyosiddin Xondamirning Zahiridddin Muhammad Boburning barcha amakilari, Sulton Abu Sa'id Mirzo o‘g‘illari to‘g‘risidagi ma'lumotlar “Boburonma” va “Tarixi Rashidiy” asarida mavjud emas.

2. Zahirddin Muhammad Boburning tug‘ilishi va yoshligi to‘g‘risidagi ma'lumotlar “Tarixi Rashidiy”ga nisbatan to‘liq, ular “Boburnoma”da umuman yo‘q. Demak, G‘iyosiddin Xondamir asaridagi Boburning bolaligi to‘g‘risidagi ma'lumotlar bobur shunoslikka qo‘shilgan hissa deyish mumkin.

3. G‘iyosiddin Xondamirning “Xulosat ul-axbor” va “Makorim ul-axloq” asarlaridagi Alisher Navoiy va uning zamondoshlari to‘g‘risidagi ma'lumotlar, “Boburnoma”, “Tarixi Rashidiy” asarida yangi tahrirla qisqaroq qilib qayta bayon etiladi. Bunday ma'lumotlar Xondamirda batafsil, ammo “Boburnoma” juda ixcham. “Tarixi Rashidiy” ular bayonida ayrim o‘zgarishlar mavjud.

4. G‘iyosiddin Xondamirning 15 asr oxiri Hirotdagi o‘z zamondoshlari va Alisher Navoiy to‘g‘risidagi ma'lumotlar juda mukammalligi bilan ajralib turadi. Bobur Mirzo ularni ixcham, lekin o‘ziga xos tarzda eng muhim xususiyatlarini bayon etish bilan cheklanadi. “Tarixi Rashidiy”da Xuroson madaniy hayotida imkon darajasida yoritilgan. Umuman, uchchala tarixchilar asarlari 15 asr oxiri Hirot madaniy hayoti va unda Alisher Navoiyning homiylik faoliyatini yoritishda bir-birlarini to‘ldiradi, degan xulosaga kelish mumkin.

Adabiyotlar

1. Ахмедов Б. 1986. Историко-географическая литература Средней азии 16-18 веков. –Ташкент: “Фан”.
2. Аҳмедов Б. 1994. Тарихдан сабоқлар. –Тошкент: Ўқитувчи.
3. Аҳмедов Б., Низомиддинов И.Ғ. 1965. *Хондамир.* –Тошкент:Фан; 1987. *Маданий* ҳамкорлигимиз саҳифаларидан. –Тошкент: Фан.
4. Баёний А. 2015. Хондамирнинг ҳаёти ва ижоди / Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. –Тошкент: Ғафур Ғулом.
5. Миклухо-Маклай 1963. Н.Д.Хондамир и “Записки Бабура” // Тюркологические исследования. – Москва-Ленинград.
6. Редакция по всеобщей истории Хондемира (“Хабиб ас-сийар”) // Письменные памятники и проблемы истории культуры народов востока: Тез.докл. 3 годоч.науч.сес. ЛОИНА, май 1967.-Ленинград, 1967.
7. Юсупова Д. Ю. 2006. Жизнь и труды Хондамира. –Ташкент: Фан.
8. Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир. 2011. Буюклик хислати. –Тошкент: Sharq.
9. Ғиёсиддин Хондамир. 1985. Хулосат ул-ахбордан /Б. Аҳмедов таржимаси/ Навоий замондошлари хотирасида.-Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти.
10. Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ /1981 йилги А. Баёний нашри асосида К. Раҳимов таржимаси. –Тошкент: Ғафур Ғулом..
11. Ғиёсиддин Хондамир. 2013**.** Ҳабиб ус-сийар. –Тошкент: Ўзбекистан.
12. Ғиёсиддин Хондамир. 2011. Буюклик хислати –Тошкент:Шарқ.

Boburiylar sulolasi haqida hind mutaxassislarining mulohazalari
Indian experts' opinions on the Baburid dynasty

Ulfatxon MUHIBOVA[1]

Annotatsiya: Maqolada Hindistonda o‘rta asrlarda uch asrdan ortiq davr mobaynida hukmronlik qilgan Bobir va uning avlodlari, boburiy shohlarning faoliyati, olib borgan siyosati va ularning fe’l atvori haqida hind mutaxassislarining fikr mulohazalari manbalar asosida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *bhakti, obodonchilik, sant, ma’rifatparvarlik, jayn, saltanat, sulola.*

Annotation: The article, based on sources, reveals the opinions of Indian experts on the activities of Babur and his descendants, the policies they pursued, and provides a description of the rulers who led India in the Middle Ages for more than three centuries.

Key words: *bhakti, edification, sant, enlightenment, jain, kingdom, dynasty*.

O‘rta Osiyolik sarkarda Bobirmirzo Hindistondek azim yurtda buyuk saltanatga asos solgan va uch asrdan ortiq davr mobaynida Bobiriy sulolalar shu saltanatni boshqarib kelgani ma’lum. Bu saltanat tarixi mana asrlar osha turli mamlakat mutaxassislari tomonidan o‘rganilib kelinadi va asosan, ijobiy fikrlar bildirib kelinadi. Ushbu maqola hind mutaxassislarining izlanishlariga asoslangan bo‘lib, XX-XXI asr tadqiqotchilari bu sulola haqida qanday fikrda bo‘lgan, ularning boshqaruv davrida amalga oshirgan ishlariga qanday baho berganliklari manbalar asosida o‘rganilgan.

Manbalarda Boburiylar sulolasi haqidagi fikrlarning aksariyati ijobiy bo‘lish bilan bir qatorda ayrim hind tarixchi olimlarining bu sulolaga nisbatan salbiy qarashlari ham bayon etilganligini kuzatish mumkin. Biroq, o‘tgan ikki yuz yillik tarixiy davr mobaynida ko‘pgina salbiy qarashlar o‘z-o‘zidan barham topib, bugungi kunda Boburiylar saltanatining Hindiston tarixida, asosan, ijobiy ahamiyat kasb etgani haqidagi fikrlar ustun kelmoqda.

Hind tarixchi olimlarining “Hindiston tarixi” nomli kattagina kitobining o‘rta asr davri tarixi bobida Boburiylar sulolasi hukmronlik qilgan davr tarixi haqidagi bobga “*Mo‘g‘ullar imperiyasining yutuq va kamchiliklari*”[2] nomli masala kiritilgan. Ushbu bo‘limda har bir boburiy shoh, ular hukmronlik qilgan davr haqida

[1]Muhibova Ulfatxon – Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti filologiya fanlari doktori, professor

[2] मध्यकालीन भारत। – दिल्ली,1990. -P.550.

ma’lumotlar berilgan. Mazkur bo‘lim nomidan ko‘rinadiki, mualliflar davrga holis baho berish maqsadida bo‘lganlar va unda boburiy shohlarning Hindistondagi hukmronlik davridagi yutuq va kamchiliklari, ularning ijobiy va salbiy tomonlari haqida fikr va mulohazalarini ochiq-oydin bayon etganlar. Ikki muallif yozgan ushbu bo‘limda boburiylarning yutuqlarini alohida va kamchiliklarini alohida ko‘rsatishga intilganlar.

Boburiy shohlarning *yutug‘i sifatida* ularning barchasining doimiy ravishda xalq e’tiborini qozonishga harakat qilganliklariga urg‘u berilgan. Ular davrida shakllangan yaxshi an’analardan biri boburiy shohlarning til, adabiyot hamda shu davr sara asarlarining tarjimalarini amalga oshirish rivojiga katta hissa qo‘shganliklari, o‘rta asrda hind diyorida keng tarqala boshlagan bhakti harakati rivojiga keng imkoniyatlar yaratib berganliklari, bu sulolaning yaratuvchanlik faoliyati, ya’ni qal’alar, maqbaralar, binolar, bog‘-rog‘lar va favvoralar qurish ishlaridagi yutuqlari hamda tashqi siyosat, savdo-sotiq masalalaridagi yutuqlarini sanab o‘tadilar. Shuningdek, bu sulolaning o‘z tarjimai holini, tarixiy voqealarni yozib yoki yozdirib borish an’anasini olib kirganliklarini ham alohida ta’kilaydilar: *“Mo‘g‘ullar imperiyasining Hindistonga olib kirgan yangiliklaridan biri bu tarixni yozib borish san’ati bo‘lib, har bir shoh o‘z tarixini, albatta, yoki o‘zi yozib borgan, yoki yozdirib borgan. Bu davrda yaratilgan barcha tarixiy kitoblar bugungi kunda Hindiston tarixi haqida qimmatli manba sifatida xizmat qilib kelmoqda”*[1].

Ularning *kamchiliklari* sifatida esa shohlarning ko‘pxotinli bo‘lgani, Akbar yaratgan mamlakat birligining Avrangzeb davrida inqirozga yuz tutganligi, huquq, iqtisod, tashqi savdo aloqalari va madaniyat rivoji uchun aniq bir tizim ishlab chiqilmagani, xalqni savodli qilish yo‘lida sa’yi harakatlar qilinmagani, aka-ukalar, ayniqsa, Shohjahon va Avrangzeb o‘g‘illari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan taxt uchun kurashlarning oldi olinmagani, hindu va musulmonlar birligi masalasiga e’tibor qaratilmaganligi kabilar aytib o‘tilgan. Biroq boburiy shohlarning siyosati, ta’lim tizimi, hindu musulmonlar birligi va bir qancha boshqa masalalarda maqola mualliflarining bir-biriga qarama-qarshi fikrlari mavjudligini kuzatish mumkin. Kitobda boburiylar davrining ko‘pgina sohalarda erishgan yutuqlari birma-bir aytib o‘tilgani holda maqolaning davomida ayni shu yutuqlar yana qayta kamchilik sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Jumladan, *“Boburiy shohlar yaxshi hukmdor bo‘lish uchun, avvalambor, mahalliy xalqning hurmat va e’tiborini qozonish kerakligini yaxshi anglab yetganlar va bunga doim harakat qilib, Boburdan Avrangzebgacha bu sohada muvaffaqiyatga erishganlar”*[2], deb yozadilar, lekin ayni shu masalaga keyingi qismda shunday fikr bildiradilar: *“Xalq e’tiborini qozonmagan davlat uzoq vaqt hukmronlik qilolmaydi” yoki bo‘lmasa “Boburiy shohlar mahalliy xalqni ilmli, savodli qilish*

[1] Ўша маба, Б.551.
[2] Ўша маба, Б.550.

yo‘lida ortiqcha sarf – harajat qilmadilar, ular o‘z siyosatlarida – buyuk davlat qurish uchun buyuk xalq kerak – degan fikrga e’tiborlarini qaratmadilar”[1]. Ayni shu masala yuzasidan G‘. Satimovning *“Boburiylar davrida maorif tizimi”* mavzusiga bag‘ishlangan maqolasidan bu mulohazalar haqiqatdan yiroqligini anglashimiz mumkin, maqolada shunday yozilgan, *“Akbar hukmronlik qilgan davrda maorif va ilm-fanga e’tibor juda kuchayadi, maktab va madrasalar soni ko‘payadi, ularda dars berish sifati ancha ko‘tariladi. Akbar Agra, Fatehpur Sikri va boshqa shaharlarda ko‘p o‘quv maskanlarini bunyod etadi. Akbar o‘zining diniy aqidalariga sodiq holda so‘nggi yillarda xohish bildirgan hindularni ham musulmonlar madrasalarida tahsil olishiga ijozat beradi. Boburiylar saltanatida o‘ziga xos xotin-qizlar maktablari bo‘lgan. Qishloq va shaharlarda ham hindiy, sanskrit va mahalliy aholi tillarida maktablar ishlab turgan”*[2]. Boburiylar faoliyati haqidagi qarama-qarshi fikrlarga yana bir misol, “*Mo‘g‘ullar saltanati davrida tashqi aloqalar yaxshi rivojlandi, shimoli-g‘arbiy va Yevropa davlatlari bilan savdo aloqalari o‘rnatildi. Saltanatda iqtisod, qishloq xo‘jalik va ishlab chiqarish ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yildi. Saltanatning bu muvaffaqiyatlarga erishishida xalq ham faol ishtirok etdi*”[3], – degan jumladan keyin boshqa sahifada “*Mo‘g‘ullar davrida boylik to‘plash, iqtisod va tashqi aloqa masalalari yaxshi yo‘lga qo‘yilmadi. Saltanatda hokimiyat, harbiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi rivojlanish masalalariga o‘rta asrcha munosabat ko‘rsatildi*”[4] jumlasi mavjud. Bunday bir biriga teskari fikrlarga navbatdagi misol: *“Mo‘g‘ullar saltanati madaniy taraqqiyotida katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu davrda adabiyot fors, sanskrit, hindi va urdu tillari keng rivojlandi. Fors tili davlat tili bo‘lgani sabab ko‘pgina tillardagi noyob asarlar bu tilga tarjima qilindi. Musiqa, rassomchilik va me’morchilik san’ati ham rivoj topdi. Bu davrda qurilgan binolar, qal’a, maqbara va miniatyuralar san’ati bugun hind madaniyatining noyob durdonalaridir”*[5]. Bir masala bo‘yicha qarama qarshi fikr bildirish Boburiylarning kamchiligi masalasida ob’yektiv fikr bildira olmaganliklarini aniq ko‘rsatadi. Ayniqsa, hindu va musulmonlar birligi masalasiga kelsak hali Hindistonda boburiylar sulolasi davridagidek ikki din vakillarining birligiga erishilmagan. Bunday jumlani maqolada bir necha marta uchratish mumkin, xususan, “*mo‘g‘ullar imperiyasi davrida bhakti harakati rivojiga keng yo‘l ochib berildi. ...ayni bhakti davrida Hindistonda nafaqat hindular va musulmonlarning, ayniqsa, Akbarshoh davrida barcha din vakillarining birligiga erishildi*”, – deyilsa, bo‘limning 551 – betida “*mo‘g‘ullar davrida hindu musulmonlarning ijtimoiy va siyosiy jihatdan birligiga erisha olinmadi*”, – deb yozadilar. Vaholanki, bu sulola hukmronligi davrida saltanat

[1] Ўша маба, Б.553.
[2] Ўша маба, Б.554.
[3] Ўша маба, Б.551.
[4] Ўша маба, Б.553.
[5] Ўша маба, Б.551.

hududida hinduni musulmonga, musulmonni hinduga qarshi chiqqani va, umuman, diniy nizolar bo‘lgani haqida birorta ham ma’lumot uchramaydi. Kitobda boburiylarning dinga bo‘lgan munosabati haqida ham bir biriga teskari fikrlar uchraydi. Masalan, *“Diniy dunyoqarashda mo‘g‘ullar boshqalarga nisbatan ilg‘or bo‘ldilar. Bhakti harakati mo‘g‘ullar davrida, ayniqsa, rivoj topdi va Guru Nanak, Kabir, Dadu Dayal kabi santlar hindu va musulmonlarga bir-birini tushunish va qo‘llab-quvvatlashni o‘rgatdilar*”[1], – degan fikr ortidan “*Mo‘g‘ullar hindu va musulmonlarning ijtimoiy va siyosiy birligiga erisha olmadilar. Akbar boshlagan tenglik siyosati uzoq davom etmadi va Avrangzeb bu siyosatni umuman yo‘qqa chiqardi*”[2], – deb yozadilar. Vaholanki, bhakti harakatining asosiy shiori barchaning tengligini targ‘ib qilish va ushbu g‘oyaning Akbardan Shohjahongacha qo‘llab – quvvatlanganligi manbalarda yozilgan. Hattoki, islom dini tarafdori bo‘lgan Avrangzeb ham bhakti harakatini, uning targ‘ibotchilarini hurmat qilgan, ularni saroyga taklif etib, ijod uchun qulay sharoitlar yaratib bergan, kuchli bhaktlarga saroy unvonlarini ham bergan.

Boburiylar davri haqidagi yakuniy fikrlar ham bir-biriga teskari, jumladan, *“Mo‘g‘ullar davri Hindiston tarixida buyuk davr va mo‘g‘ul shohlari buyuk shohlar deb tan olingan”*[3], – deyilgan fikrga teskari: *“Xulosa qilib aytganda, mo‘g‘ullar hukmronligini “Milliy imperiya” (Rashtriy shasan) va mo‘g‘ullar davrini “Hindistonning milliy yuksalish davri” (Rashtriyata ka yug) deyish xato fikr bo‘lgan bo‘lar edi”*[4], – jumlasi keltirilgan. Yana shunisi qiziqki, XX asr mutaxassislari XVI – XVII asr shohlarini qoloq, o‘rta asrcha fikrlashda ayblaydilar. Biroq, o‘rta asrda qanday qilib boshqacha fikrlash mumkin, degan muloxaza tug‘ilishi tabiiy xoldir. Aslida, bugungi XXI asrda ham Hindistonda hindu va musulmonlar birligi masalasi hali-hanuz yechimini topmagan va mamlakatning yetakchi muammolaridan biri hisoblanadi.

Adolat yuzasidan aytadigan bo‘lsak, boburiylarning musulmon ekanligi va o‘z saltanati hududida islom dinini kuchaytirish imkoni mavjudligini ko‘rsatadi. Har bir boburiy shoh mahalliy xalq e’tiqodini tan olmasdan, ularni o‘z saltanatidan chetlatishga harakat qilishga haqqi bor edi. Ammo, Boburiy shohlar siyosatni bunday yuritmaganlar va ularga bu narsa xos bo‘lmagan. Bobir mamlakatni qo‘lga olganining birinchi kunidanoq mahalliy xalqning e’tiqodi, tili va ularning milliy urf-odati, an’analarini tan olib, ularning rivojiga to‘siq bo‘lmaslik siyosatini olib borgan va, hatto, hindularning bhakti harakatini o‘z saltanatining yetakchi mafkurasiga aylanishi tarafdori bo‘lgan. Bobur shaxsiyatiga o‘z vaqtida Hindiston bosh vaziri Javaharlal Neru “Beruniy Hindistonni rentgendek ochib bergan bo‘lsa, Bobur uning tashqi

[1] Ўша маба, Б.550.
[2] Ўша маба, Б.551.
[3] Ўша манба, Б.551.
[4] Ўша манба, Б.552.

go‘zalligini ochgan”, deb ta’rif bergan. Chunki, Bobur shaxsiyati mamlakatni obodonlashtirish, xalq farovonligi yo‘lida zahmat chekish, saltanat ravnaqi va taraqqiyotini ta’minlash kabi xususiyatlar bilan bog‘liq. U borgan yerini obod qilib, har yerda bog‘u rog‘lar va favvoralar qurdirgan. 1504-yilda Qobulni qo‘lga olganida ham u yerda o‘nta bog‘[1] yaratgan. Hindistonga borganida esa hovuzlar qurdirgan, g‘alaba qilgan Panipat maydonida ham bog‘ yaratishga farmon bergan, o‘simliklar va hayvonot dunyosini hayratlanarli darajada yaxshi bilgan[2]. Boburning barcha fikrlari amaliy tasdig‘i bilan bo‘lgan. Jumladan, u mahalliy hind xalqiga juda ko‘p imtiyozlar[3] joriy qilgan. Hindistonda saltanat yaratganida: *“Men bu mulkni o‘z mulkim deb bildim va uni yo tinch yo‘l bilan, yoki kuch bilan olishga qaror qildim”*, – deb yozgan edi. Haqiqatan ham shunday bo‘lgan.

Boburiy shohlarning barchasi Bobir siyosatini davom ettirib, Hindistonda bog‘dorchilik va me’morchilik, musiqiy va she’riy bazmlar uyushtirish, yovvoyi hayvonlarni ov qilish, har bir qilgan ishlari tarixini yozib borish[4] kabi ko‘plab odat va udumlarni joriy qilganlar. Bu haqda Javaxarlal Neruning yana bir ta’rifini keltirib o‘tamiz: *“Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, san’atda, hayotda, me’morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha serilhom taraqqiyot yuz berdi”,* – degan edi.[5]

Boburning har sohadagi iqtidori uning deyarli barcha o‘g‘il, nabira va evaralariga meros bo‘lib o‘tgan. Nasiriddin *Humoyun shoh* Boburning katta o‘g‘li. U barchaga mehrliligi, saxiyligi, kechiruvchanligi va bag‘rikengligi bilan ajralib turgan. 1542 yil 23 noyabrda Amarkut shahrida Humoyunning ayoli Hamidabonu farzand ko‘radi. O‘g‘liga Akbar deb ism beradilar. Manbalarda yozilishicha, Laho‘rdan chiqib ketishdan avval Humoyunshoh bir tush ko‘rgan ekan. Tushida bir nuroniy chol unga o‘g‘il farzand ko‘rishini va unga Jaloliddin Akbar deb nom qo‘yishini maslahat bergan ekan. Shu voqeadan to‘rt kun avval Humoyunshoh Bayramxon bilan Sind sari yurish boshlab yo‘lga chiqqan edi. Shu kunlarda u belbog‘idagi bir dona mushkdoni bilangina qolgan edi. Xumoyun bir chinni likobchaga mushkdondagi mushkni to‘kib, atrofida davra qurib o‘tirgan bek va amirlarga bir chimdimdan uzata turib: “O‘g‘lim tug‘ilishi munosabati bilan sizlarga beradigan suyunchim mana shu xolos. Mushkning hidi hozir uyni to‘lg‘azib turganidek, Xudo xohlasa, o‘g‘limning shuhrati ham butun olamga yoyiladi”, – deya Humoyun o‘g‘il ko‘rganidan benihoya quvonib duo qilgan ekan. Kelajakda esa Akbar, haqiqatan ham, buyuk inson, adolatparvar

[1] Шаҳраро, Чорбоғ, Жиловхона, Ўрта боғ, Суврат, Моҳтоб, Оҳухона, Вафо, Аграда – Жамуна дарёси қирғоқларида Рам боғи, Гвалиор йўлида Чорбоғларни барпо этган.

[2]Қобул шаҳри атрофида жойлашган Дашти Шайх қиридаги лоланинг 33 турини аниқлаган, Ҳиндистонда кўрган жамики ўсимликларни бирма–бир баён қилган, атиргулни ҳам Ҳиндистонга биринчи бўлиб Бобур олиб кирган, дейилади.

[3]Масалан, мусулмонлардан олинадиган тамға солиғини бекор қилиш, динидан қатъий назар иқтидорига қараб сарой мансабларига жалб қилиш, маҳаллий халқ эътиқодига ҳурмат билан қараш ва б.

[4] Шу асосда унинг «Бобурнома» асари бунёдга келган.

[5] Джавхарлал Неру. Открытие Индии. – М.: 1960. -С.114.

shoh bo‘lib tanildi. Humoyunshoh o‘n besh yil hukmronlik qiladi. 1556 yil 11-fevralida taxt vorisi sifatida Akbar otasining taxtini egallagan.

Akbarda Bobur sifatlarining barcha ijobiy tomonlari takrorlangan, ayniqsa, diniy bag‘rikenglik, adolatparvarlik va bunyodkorlik xususiyatlari. Taxtga chiqishidan avval saroy mulozimlari yosh shahzoda Akbarning bir necha bor: *“Men Xudo xohlasa, Yer yuzining eng zo‘r qaymog‘ini qo‘l ostimda saqlayman, yetti iqlimdagi beva – bechoralarning tilagini bajo keltiraman”*, – deb niyat qilganiga bir necha bor guvoh bo‘lganlar. Javoharla’l Neru boburiylar sulolasi Akbarga ham o‘ziga xos ta’rif berib, o‘zining iliq gaplarini yozib qoldirgan.: *“Bobur dilbar shaxs edi. Uyg‘onish davrining ajoyib sultoni, kuchli tadbirkor kishisi bo‘lib, san’atni, adabiyotni, go‘zallikni sevardi. Nabirasi Akbar esa yanada maftunkorroq bo‘lib, yanada ko‘proq fazilatlarga ega edi”* [1, 73].

Akbarshoh davrida Hindiston har sohada taraqqiyot cho‘qqisiga erishgan[1]. Diniy bag‘rikenglikda Akbarshohga Abulfazl qarashlarining ta’siri bo‘lgan. Fatehpurda maxsus ibodatxona qurdirgan va unga dastlab faqat musulmonlar taklif etilgan, majlislarni Akbarning shaxsan o‘zi kuzatib borgan. Akbar goh u guruh majlisida, goh bu guruh majlisida ishtirok etar, agar guruhlar murosaga kelmay qolishsa, bunga e’tiroz bildirib borar ekan. Keyinchalik bu ibodatxonaga turli din vakillari ham taklif etila boshlangan. Akbarning bu faoliyati tarixda barcha dinlarni tenglashtirish yo‘lida tashkil etilgan “Dini ilohiy” tashkilotiga asos bo‘lgan.

Akbarshoh bhaktlarni saroyga ko‘proq jalb etishni, ularga xayrixohlik qilib, ular bilan qizg‘in suhbatlar qurishni yaxshi ko‘rgan. Bhakti g‘oyalarining saltanatda ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini nafaqat Akbarshoh, balki barcha boburiy shohlar yaxshi anglab yetganlar, chunki har bir boburiy shohning saltanat hududida va undan tashqarida o‘z sevgan, ishongan va maslakdosh bo‘lgan bhaktlari bo‘lgan va ular bilan doimiy ravishda maslahatda, aloqada bo‘lib turgan. XVII asrga mansub “varta”[2] nasriy janridagi bhaktlar hayoti haqidagi yodgorlikda Akbarshohning bhakt shoirlar Surdas, Kumbxandas va boshqalar bilan bo‘lgan uchrashuvlari haqida yozilgan Yoki bo‘lmasa, Akbarshoh saroyga jayn bhaktlarni taklif etib, ularni yuqori lavozimlarga tayinlagan.

---

[1] Ободончилик ишларида – Кашмирда «*Насим*» боғи, Равалпурда «*Жхейлам*», Деҳлида Ҳумоюн мақбарасида, Аградa боғ–роғлар, Чинор дарахтини кўпайтирган; таржимачиликда – ҳинд, юнон, араб ва форс тилларидаги ноёб асарлар форс ва араб тилларига таржима қилинган, жумладан, «Ҳаёт–ул–ҳайвон» (“Ҳайвонлар ҳаёти ҳақида”) араб тилидан, «Лилавати» арифметикага оид асар, астрономияга оид «Тажак» асари, санскрит тилидаги «Атхарваведа» асарлари форс тилига ўгирилган. Бобурнома, Инжил, «Синхасан Баттиси» (“Шоҳ тахти ҳақида ўттиз икки ҳикоя”), Кришна ҳаётига бағишланган «Ҳарибас», «Калила ва Димна», «Маҳабҳарата» ва «Рамаяна» каби асарлар таржима қилинган. (Қаранг: Антонова А.К. Очерки общественных отношений и политического строя могольской Индии времен Акбара (1556–1605). – М., 1952. – Б. 23); таълим соҳасида – турли мактаблар, махсус аёллар мактаблари бўлган. (Қаранг: *Сатимов Ғ. Бобурийлар даврида маориф тизими. “Бошланғич таълим” журн.* 1998. №1. – Б. 28–29); миниатюра санъатида – «Чингизнома», «Зафарнома», «Акбарнома», «Нал ва Дамаянти», «Айёри Дониш», «Калила ва Димна», эпик асарлардан «Рамаяна», «Рамзнома» ва бошқаларга миниатюралар ишланган.

[2] वैष्णव वार्ता सुधा – इंदोर, 1979. – Б.38–39.

Bobur ham bhaktlaridan juda ta’sirlangan ekan, xususan, bhaktlar haqidagi to‘plam “Bhaktmala”da Guru Nanak bhaktisi haqida gapirib, *“Mo‘g‘ul shohi Bobur ham Nanakning bhaktisidan juda ta’sirlangan edi”*[3,193],–deb yozilgan. Jahongir shoh ham bhaktlarga katta hurmat bilan qaragan, ular bilan doim muloqotda bo‘lgan va ularni saroyga taklif qilib turgan. Ayniqsa, jayn bhaktlar o‘zlarining bhaktiga xos xislatlari va chuqur bilimlari bilan Jahongir e’tiborini tortganlar.

O‘zining *“*Toj Mahal*”*i bilan Hindistonning dovrug‘ini jahonga taratgan boburiylardan Shohjahon ham obodonchilik ishlarida[1], diniy bag‘rikenglikda, ilm-fan va savdo ishlarining rivojida buvalari va otasining ishlarini davom ettirgan. Hattoki, qattiqo‘l Avrangzeb ham bhaktlarga nisbatan hurmat va ehtiromda bo‘lgan. Avrangzebning sant Malukdasni saroyga chaqirib, u bilan qizg‘in suxbat qilgani manbalarda yozilgan.

Bhaktlar orasida shundaylari ham bo‘lganki, ular o‘z hayotlari davomida boburiylar sulolasining bir necha shohlarini ko‘rgan, ular hukmronlik qilgan davrlarda shu saltanat hududida yashab ijod etgan va kezi kelganida ular bilan muloqotda bo‘lgan. Jayn bhaktlardan Ananddxan Akbarshohdan Avrangzebgacha bo‘lgan davrni, sant Rajjab esa Jahongir, Shohjahon va Avrangzeblar davrini, sant Malukdas ham Akbarshoh, Jahongir, Shohjahon va Avrangzeblar davrini ko‘rgan bxaktlardan hisoblanadilar.

Boburiylarning jang san’ati va davlat siyosatida temuriylar bilan qandaydir o‘xshashlik va yaqinlik borligini kuzatish mumkin. Ya’ni, Amir Temur ham markazlashgan yirik davlatni barpo qilish yo‘lida kurash olib borib, yon-atrofidagi davlatlarga yurish qilgan, lekin ularni o‘z davlatiga qo‘shib olganidan so‘ng hokimiyatni mahalliy xalq vakillariga topshirib, o‘zi xalq farovonligini yaxshilash, ilm-fan rivojini ta’minlash siyosatiga ko‘proq e’tiborini qaratgan. Xuddi shunday siyosat boburiylarga ham xosligi kuzatildi. Ular ham o‘z saltanatiga ko‘shib olmoqchi bo‘lgan hudud shohiga avval sulh tuzish yo‘lini taklif etgan, bu yo‘l ish bermagan hollardagina yurish qilgan. Jumladan, boburiylarning Mevarni o‘z saltanatiga qo‘shib olish siyosati bunga yaqqol misol bo‘ladi. Otasi va Buvasi ololmagan Mevarni Shohjahon to‘rt tomondan o‘rab oladi va Amarsinx sulh tuzishga majbur bo‘ladi. Lekin, Shohjaxon Mevarni boshqarish ishlarini Amarsinxning o‘ziga topshiradi va bundan hayratda qolgan Amarsinx Boburiylar imperiyasiga hurmati oshib, ular bilan erkin va do‘stona munosabatga o‘tadi.

Bu ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, saltanat hududini kengaytirish yo‘lida olib borilgan jang va harbiy yurishlardan, asosan, yurish qilingan hududgina zarar ko‘rgan bo‘lishi mumkin, butun saltanat miqyosida esa tinch-totuv hayot va

[1]Шоҳжаҳон боғлар ва фавворалар қурдирган – Лаҳўрда «Шалимар» боғи, қора мармардан тоқчаларида чироқлар ёнадиган поғонали шаршара, ўртасида мармар супа ва атрофида 450 та фаввораси бор улкан ҳовуз қурдирган.

taraqqiyot davom etgan. Boburiylar saltanatida yashab ijod etgan bhakt yoki sant shoirlar qalamiga mansub hech bir manbada urush, talon-toroj, xalqning urushdan ko‘rgan azoblari yoki boburiy shohlarning zulmkorligi haqida biron-bir ma’lumot uchramaydi.

Hech bir boburiy shoh harbiy yurishlar davrida o‘zining insoniylik, xalqparvarlik, bag‘rikenglik va obodonchilik ishlari bilan bog‘liq xususiyatlarini yo‘qotmagan, shu bois Hindiston tarixida boburiylar davri eng yuksak taraqqiyot davri sifatida nom qoldirgan.

Hindistonda “Boburiylar saltanati”ning asoschisi nomi bilan bashariyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan yetuk sarkarda, shoh va shoir Bobur Mirzo qalamiga mansub quyidagi misralar uning butun umr yaxshilik va ezgulik yo‘lida zahmat chekib yashagan inson ekanligini ko‘rsatadi:

Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q,
Kim degaylar daxr aro qoldi, falondin yaxshilik...

Adabiyotlar

1. Джавхарлал Неру. 1960. Открытие Индии.
2. गोकुलनाथ। चौरासी वैष्णवन की वार्ता। – मथुरा. 1999.
3. नाभादास क्रत भक्तमाल और प्रियादास क्रत तिका का पाठलोचन। – ईलाहाबाद. 1981.
4. मध्यकालीन भारत। – दिल्ली. 1990.

Hace Ahrar-i veli ve Babürşah
Khoja Ahror Wali and Baburshah

Kemal Yavuz ATAMAN[1]

Özet: Zahiruddin Muhammed Babür (1483-1530) dünya tarihinin en önemli liderlerinden birisidir. Babürname isimli eserinde Babürlüler Devletinin kuruluşu, yaptığı savaşlar, kazandığı zaferler, yaşadığı olaylar, aldığı manevi işaretler ve birçok konuda aydınlatıcı bilgiler vermektedir. Babür, Babürname'de Timurlular hanedanı ve Türkistan halkı üzerinde çok büyük tesirleri olan mutasavvıf Hace Ahrar-ı Veli (Ubeydullah-ı Ahrar)'nin kendi üzerindeki tesirleri, tasarrufları ve kerametlerinden bahsetmektedir. Babür'ün hayatında ve başarılarında mühim bir yere sahip olan Hace Ahrar-ı Veli, Türkistan, Hindistan, Irak, Horasan ve Osmanlı coğrafyasında tanınan, bilinen, sözlerine itibar ve ittiba edilen bir ulu sufidir. O cemiyet hayatında, halkın arasında, sultanların yanında son derece aktif bir Nakşibendi şeyhi olarak yaşamıştır. Hindistan topraklarında asırlarca hayatını sürdüren Babürlü Devleti'nin kurucusu Zahiruddin Muhammed Babür'ün Hace Ahrar-ı Veli ile manevi irtibatı, O'na muhabbeti ve aidiyeti, Babürname'de dikkat çekici şekillerde ifade edilmektedir.

Anahtar Kelimeler: *Hace Ahrar, Babür, Babürname, Muhabbet, Tasavvuf, Türkistan, Hindistan.*

Abstract: Zahiruddin Muhammad Babur (1483–1530) is one of the most significant leaders in world history. In his work Baburnama, Babur provides enlightening details about the founding of the Mughal Empire, the battles he fought, the victories he achieved, the events he experienced, the spiritual signs he received, and many other topics. In Baburnama, Babur discusses the profound influence, spiritual guidance, and miracles of the Sufi saint Khwaja Ahrar-i Vali (Ubeydullah-i Ahrar), who had a considerable impact on the Timurid dynasty and the people of Turkistan. Khwaja Ahrar-i Vali, who played a crucial role in Babur's life and successes, was a revered Sufi master widely known across Turkistan, India, Iraq, Khorasan, and the Ottoman territories. He was deeply respected and followed for his teachings and wisdom. As a highly active Naqshbandi sheikh, Khwaja Ahrar lived among the people and engaged with rulers. The spiritual connection, love, and devotion that Babur had for Khwaja Ahrar-i Vali are strikingly expressed throughout Baburnama.

Keywords: *Khwaja Ahrar, Babur, Baburnama, Love, Sufism, Turkistan, India.*

[1]Kemal Yavuz ATAMAN – Ijtimoiy Siyosat Doktori Danisment Konsalting Ltd. Turkiya

Giriş

Onbeşinci asır Maveraünnehir havzasında yaşayan Nakşibendi Şeyhi Hace Ahrar-ı Veli (Ubeydullah Ahrar) Nakşibendiyye Ahrariyye'nin kurucusudur. Hace Ahrar-ı Veli tasavvufta mühim bir simadır. O, tasavvuf yolunda hizmeti ve gönülleri kazanmayı nafile ibadetlerden efdal addetmiştir. Çok yönlü şahsiyeti, fikriyatı, gayreti, icraatları ve faaliyetleri ile devlet ve cemiyet nezdinde mutemet, muteber, müessir bir alimdir. Maişetini sağlamak için ziraate yönelmiş, mal, mülk, servet sahibi olmuş, kazandıklarını hayır, hasenata sarf etmiş, fakir fukaraya dağıtmıştır. Hace Ahrar-ı Veli devletin ilerlemesi, insanların refahını artırması için çok büyük gayret etmiş, katkı sağlamıştır. Hace Ahrar-ı Veli'ye sadece halk değil, sultanlar, hanlar ve emirler ittiba etmişlerdir. O'nun mektuplarının Türkistan, Hindistan, Irak, Horasan sultanları, alimler, arifler, sufiler üzerinde çok tesirli olduğu görülmüştür. Osmanlı Padişahı Fatih Sultan Mehmed'in İstanbul'u muhasarasına manen iştirak etmiş, bu durum şahitler tarafından teyit edilmiş, zaferin kazanılmasına ve fethin gerçekleşmesine destek olmuştur. Hindistan'da büyük ve uzun soluklu bir devleti kuran Timuri hanedanından Muhammed Zahuriddin Babür'ün hatıratını yazdığı Babürname'ye göre rüyalarına tasarruf etmiş, padişah olmasını müjdelemiş, zaferler kazanmasına vesile olmuştur. Babür'ün ismini koyan, küçük yaşlarında Babür'e dua eden Hace Ahrar'ın Babürlüler'in manevi kurucusu olduğu söylenebilir. Babür'ün hayat felsefesi ve yolculuğunda rehber ve kılavuz olan, ciddi ve mühim tesirleri görülen Hace Ahrar-ı Veli'ye karşı Babür'ün derin hürmeti ve muhabbetinin varlığı Babürname'de yazılanlardan açıkça anlaşılmaktadır. Müslüman Türk Devletlerinin kuruluşlarında, tarihe isimlerini yazdıran sultan, padişah, emir ve hanların yanında, manevi sultanların, mutasavvıf mimarların oldukları bilinmektedir. Bu mimar sufiler ile liderler arasında kuvvetli, manevi bir irtibatın olduğu hatırat ve menakıblardan, birçok esrarengiz ve hikmetamiz hadisattan anlaşılmaktadır. Bu çalışmada Hace Ahrar-ı Veli'nin yaşadığı döneme etkisi, Muhammed Zahuriddin Babür üzerindeki tesiri üzerinde durulacaktır.

Hâce Ahrar-ı Veli, Şahsiyeti ve Hususiyetleri

Hace Ahrar-ı Veli, 806/1404 senesinde Taşkent'in Bağistan köyünde doğmuştur. Asıl ismi Nâsıruddîn Ubeydullah b. Mahmud b. Şihabeddin eş-Şaşî es-Semerkandî'dir. Nakşibendi silsilesi ve geleneğinde Ubeydullah Ahrar ve Hâce-i Ahrar (Hürlerin Şeyhi) olarak bilinmektedir. Babası Hâce Mahmud Şaşi mürşid, eğitimi ile alakadar olan dayısı Hace İbrahim Şaşi şeyh olduğu için O'na "Şeyhzade-i Türkistani" olarak hitap edilmiştir [Çelikoğlu, 2016:267]. Hace Ahrar, çocukluğundan itibaren çevresinin dikkatini çekmiş, devrin mümtaz simalarının tedrisatından geçmiş, iltifatlarına mazhar olmuş, tasavvufta icazet alacak mertebeye ulaşmıştır [Tosun, 2002:150]. O, tasavvuf yolunda hizmeti öne almış, ilim tahsili için

geldiği yerlerde hastaların hizmetine kendisini hasretmiştir. Talebelik günlerini yad ederken tasavvuf yolunda insanlara hizmet ederek mesafe aldığını, mertebe kazandığını insanlara hizmet etmenin ehemmiyetini sıklıkla ifade etmiştir [Yılmaz, 2011:133]. Hace Ahrar'a göre hizmet, zikir, murakabe ve nafile ibadetten önce gelir. Hizmet kalplerde kabul görmeye, gönüllerde yer etmeye, muhabbete sebep olur [Çelikoğlu, 2016:280]. Nakşibendi meşayihinden Yakup Çerhi'yi ziyaret ile müntesibi olmuştur. Yeni intisap etmesine rağmen icazete ve irşada mazhar olması bazılarının dikkatini çekmiştir. Çevresinin hayretlerine karşı Yakub Çerhi, "müridin her şeyi hazır, iş icazete kalmış", diyerek takdirlerini beyan etmiştir [Tosun, 2002:151].

Maişetini temin etmek gayesiyle ziraatle uğraşmış, zengin olmuş, büyük bir servete malik olmuştur. Kazandıklarıyla muhtelif hayır müesseleri kurmuş, Semerkant ve Taşkent'te inşa ettirdiği birçok medreseden iki tanesi zamanımıza ulaşmıştır [Eshenkulova, 2001:71]. Çok çeşitli hizmetler yapmış, insanlara faydalar sağlamış, büyük cesamette yemekler vermiş, fakirlere, miskinlere sahip çıkmıştır. Hayrının, hizmetinin bereketi ve hikmetini soranlara "Bizim malımız fukara içindir" diye cevap vermiştir [Çelikoğlu, 2016:273].

Timurluların son hükümdarı zevk ve safa peşinde koşmayan, dindar, iyi eğitimli Sultan Ebu Said Hace Ahrar'a bağlanmış, birçok konuda istişarelerde bulunmuş, tavsiye ve ikazlarına itibar ve ittiba etmiştir. Hace Ahrar, Timurlu devletini parçalamak ve yıkmak isteyenlere karşı Sultan'ın yanında yer almıştır. O, Timurlu Devletini Türkistan'da sünni itikadın mümessili olarak telakki etmiş, sahip çıkmıştır [Alan, 1996:14-165]. Hace Ahrar, sultanları yakinen takip etmiş, onlarla ilgilenmiş, karar ve icraatlarına destek olmuştur. Halkın refah ve huzur içerisinde yaşaması için gayret göstermiş, O'nun zamanında insanlar müreffeh bir hayat sürmüşlerdir [Arat, 1987:159]. Halkla devlet ve sultan arasında köprü olmuş, halkı zulümden korumak için devlet ricaline yakın olmak icap ettiğini ifade etmiştir. Hasımları onunla uğraşmışlar, mallarını müsadere etmek istemişler, fitne ve fesat ehli ile mücadele içinde kalmıştır [Tosun, 2002:156-163]. Hace Ahrar tasavvufu şöyle tarif etmiştir: "Bizim yolumuz hizmet yoludur. Zamanın ihtiyacına göre çalışmaları hasretmek gerekir" [Çelikoğlu, 2016:274]. Moğollar Semerkant'ı kuşatmış, halk sıkıntıya düşmüş, Hace Ahrar'dan yardım ve aracılık talep edildiğinde çekinmeden görüşmeler yapmış, İslam'ı tebliğ etmiş, binlerce kişinin Müslüman olmasına vesile olmuştur. Şehri kuşatanların Müslüman olmasıyla halk bir felaketten kurtulmuştur. Büyük savaş ve yağma önlenmiş, gasp edilen mallar iade edilmiştir. Hace Ahrar Müslüman olanlar için bir hafız ve fakih görevlendirmiştir [Tosun, 2002:156-163; Safi, 1971:615-616]. Osmanlı ve Türkistan kaynaklarına göre İstanbul'un fethine manen katılmış, askerleri teşvik etmiştir. Reşahat'in tercümesinde bulunan bir kayda göre Fatih İstanbul kuşatmasında Hace Ahrar'ı görünce yanında bulunanlara onun

kim olduğunu sormuştur. Daha önce Semerkant ziyaretinde Hace Ahrar ile görüşenler Fatih'e onun büyük bir veli, Nakşi Şeyhi olduğunu söylemişlerdir. Hace Ahrar'ın Akşemseddin ile konuştuğu ayrıca rivayet edilmiştir. Semerkant'ta bir ay görülmeyen Hace Ahrar'ı görenler onun üzerinde sefer emarelerine rastlamışlardır. Bu hadise farklı şekillerde Nefahatü'l Üns'te de yer almıştır [Koç, 2005:216]. Fatih Sultan Mehmed fetihten sonra Hace Ahrar'a hediyeler göndermiş, o da gelen hediyelerle hakkın ihtiyacına hizmet edecek bir köprü yaptırmıştır [Tosun, 153:2002]. Nakşibendi tarikatında Ahrariyye kurucusu olarak öne çıkmıştır. Hoca Ahrar'ın Abdullah-ı İlahi ve Emir Buhari isimli halifeleri İstanbul'un fethinde Anadolu'ya ve İstanbul'a Nakşiliği taşımışlar, Osmanlı saraylarına girmişlerdir [Kufralı, 1949:129-151; Kara, 1988:365-392]. Hace Ahrar'ın mektupları üzerine yirmi yıl çalıştığını ifade eden Jo-Ann Gross, onun cemiyetin her kademesine akseden tesirini tespit etmeye çalıştığını eserinde ifade etmiştir. Gross, müritlerin, çiftçilerin, alimlerin, devlet ricalinin, sultanların nezdinde Hace Ahrar'ın siyasi, içtimai, iktisadi ve dini tesirlerini, boyutlarını incelemiştir. Hace Ahrar'ın mektuplarına sadece Türkistan'da değil, Irak, Azerbaycan gibi yerlerde kendisine intisap eden han ve sultanların ehemmiyet verdiğini tespit etmiştir [Gross, 2002:2]. Hace Ahrar'a han ve sultanlar gibi emirler de samimiyetle bağlanmışlar, tabi olmuşlar, sözlerini dinlemişlerdir [Arat, 1987:2].

Ali Şir Nevâyî, Maveraü'n-nehir'de yaşayan sultanların Hace Ahrar'a intisap ettiklerini, müridi olduklarını, Hace Ahrar'ın verdiği kararları kabul ettiklerini ifade etmiştir. Horasan, Irak, Azerbaycan, Anadolu, Mısır, Çin ve Hindistan'daki han ve sultanların Ahrar'ın emirlerine uyduklarını, mektuplarının etkili olduğunu yazmıştır. Üstad'ın kendisine yazdığı mektupları muhafaza ettiğini ayrıca belirtmiştir [Nevâyî 1996:257].

Hace Ahrar-ı Veli uzun bir ömrü, çile ve mücadele ile dolu bir hayatı yaşamış, çok hizmetler etmiş, yeniliklere vesile olmuş, 895/1490 yılında, seksen dokuz yaşında vefat etmiştir [Vassaf, 1999:44]. O'nun müritleri arasında bulunan Molla Camii vefatı üzerine Nefahatü'l Üns'te bir gazel yazmıştır:

Velayet bostanında bir dila müstesna
Ki kılmışlardı erbab-ı muhabbet sayesin me'vâ

Dıraht-ı sidreden âlâ idi her şahsı bâlâsı
Semer-bahş olmada olmazdı bâğ-ı huldânâ hemtâ

Cihanda ehi gakrın hâcesi Hâce Ubeydullah
Ki hergizçeşm-i canı gayre kılmazdı nazar kata

Sekiz yüz hem dahi doksan beşinde sâl-i Hicret'in

Nihâl-i ömrüne bâd-ı ecel virdi fenâ hayfâ

[Safi, 1971:655].

Nakşibendi silsilesinde mühim bir yeri olan Hace Ahrar'dan sonra tarikat yolu Ahrariyye olarak devam etmiştir [Tosun, 2012:19-20].

Babürşah ve Babürnamede Hoca Ahrar

Babürşah, birçok üstün hususiyetleri aynı anda üzerinde taşıyan, çeşitli kabiliyet ve meziyetlere haiz, dünyada emsali olmayan, müstesna yere sahip nadir bir şahsiyettir [Akün, 1991:396]. Babürşah kurduğu devleti, faaliyetleri ve hususiyetleri itibariyle tarihte ender görülen liderler arasında, hatta önde gelenlerindendir. Çocuk yaşta iken Hace Ahrar'ı tanımış, kalbinde sufilere ve dervişlere karşı büyük bir muhabbet uyanmış, fikir ve hisleri şiirlerine aksetmiştir [Pırlanta, 2016:241].

Babürşah askeri strateji ve dehaya sahip, maneviyatı çok kuvvetli bir liderdir. Zaferleri kazanmasında maneviyatının tesiri büyüktür. Babürşah, tasavvufu hayatının merkezine almıştır. "Dervişler ile hiçbir akrabalığım olmamakla beraber, onlara canı gönülden bağlıyım; Şah'lık ile dervişliğin birbirinden uzak olduğunu söylemem; Şâh'ım, fakat dervişlerin bendesiyim". demektedir [Babür, 1970:435].

Kıymetli beş eseri kaleme almış bulunan Babürşah'ın en çok dikkat çeken eseri, hatıratının yer aldığı Babürname'dir [Akün, 1991:396]. Babürname'de Hoca Ahrar hakkında mühim malumatlar vermektedir. Hace Ahrar, babası Ömer Şeyh Mirza ve amcası Sultan Ahmet Mirza'nın mürşidi ve şeyhidir. Hace Ahrar babasına "oğlum" diye hitap etmektedir. Babürşah'a "Nâsıruddîn Ubeydullah b. Mahmud b. Şihabeddin" ismini Hace Ahrar vermiştir. Babürşah küçük yaşlarda tanıdığı, dualarını aldığı Hace Ahrar'dan Babürname'de hayranlıkla bahsetmektedir. Babürşah'a göre Hace Ahrar, herkesin hürmet ettiği, sultanların huzurunda edeple oturduğu, fakirlerin, gariplerin, mazlumların dostluğunu kazandığı muhterem ve mübarek bir zattır [Demir, 2016:656]. Babürname'de sultanların O'nun tavsiyelerine riayet ettiklerinden, Hace Ahrar'ın her işte etkili olduğundan, meselelerin şeriate göre, doğrulukla hâl edildiğinden bahsedilmektedir [Arat, 1987:18-24].

Babürşah, rüyalar yoluyla Hace Ahrar'ın ikazına muhatap ve müjdesine mazhar olduğunu Babürname'de anlatmakta, Padişah olacağını rüyasında Hace Ahrar'ın kendisine müjdelediğini ifade etmektedir [Arat, 1987:126]. Hace Ahrar 89 yaşında vefat ettiğinde Babür yedi yaşındadır, ancak Hace Ahrar'ın üzerindeki etkisi hayatı boyunca devam etmiştir [Beveridge, 1979:xxix]. Babürşah'ın Risale-yi Validiyye'nin tercümesi hakkında verdikleri bilgiler calib-i dikkattir. Hace Ahrar'ın Farsça olarak yazdığı Risale-yi Validiyye Türkistan ve Uzakdoğu müslümanları tarafından muhabbet duyulan, çokça okunan bir eserdir [Bilkan, 1999:108]. Bu eseri babası, Hace Ahrar'ın manevi makamlara yükselmesine sebep olması niyetiyle yazmasını istemiştir. Eser tasavvufi ahlak kitabıdır [Demir, 2016:653]. Babürşah, Hâce Ahrar'ın Risale-i Validiyye eserini hastalığına şifa bulmak, O'nun

ruhaniyetinden istifade etmek niyetiyle tercüme etmiştir [Akün,1991:398]. Mısır'da 608/1212 yılında doğan sûfî ve şair Muhammed b. Saîd el-Bûsîrî Hz. Peygamber (s.a.v.) için Ḳaṣîdetü'l-bürde isimli kasidesini yazmış, felç hastalığından kurtulmuştur [Kaya, 1991:468]. Babürşah, felçli olan Bûsîrî'nin hastalıktan kurtulmasına sebep olan bu kasidenin hikmetine binaen Hace Ahrar'ın Risale-yi Validiyye eserini tercüme ederek hastalığına şifa olacağını, sıhhat bulacağını ümit etmiştir. On beş gün içerisinde tercümeyi tamamlamış, akabinde hastalık zail olmuş, sağlığına kavuşmuştur [Bilkan 1999, 108]. Babürname'de bu manevi hâlini anlatmıştır "Tanrı'nın inâyeti ve Hazretin himmeti ile Perşembe günü, ayın yirmi dokuzunda, derdim biraz hafifledi; sonra bu hastalıktan kurtuldum. Cumartesi günü, Rebiülevvel ayının sekizinde, risalenin nazmı tamamlandı. Bir gün elli iki beyit yazıldı" [Arat 1987: 393-394]. Risale-i Validiyye'nin Farsça'dan Türkçe'ye tercümesini başarılı bir tarzda çeviren Babürşah'ın tasavvufa olan yakınlığı ifadelerinde tezahür etmektedir.

Bâbür, "Risâle Nazmının Sebebi" kısmında, Hace Ahrâr'a medh etmektedir:

Hâceler hâcesi ol Hâce 'Ubeyd Hâdim ü çâkeri Şiblî vü Cüneyd [Bilkan 1999, 109].

Maveraünnehir'de iyi bir eğitim alarak yetişen, edip, şair, asker, komutan, devlet adamı, birçok kabiliyeti ve meziyeti haiz olan, rakiplerine karşı savaşları maharetle kazanan, birçok yeri fetheden, farklılıkları birleştiren, bütünleştiren, yöneten, kuvvetli bir devlet, müreffeh bir cemiyeti tesis eden Babürşah'ın hayatına tesir eden en önemli şahsın mutasavvıf Hace Ahrar olduğu Babürname'den anlaşılmaktadır. Kurduğu devletten elde ettiği zaferlere, karşılaştığı tehlikelerden felaha çıkmasına, düçar olduğu hastalıktan şifa bulup kurtulmasına vesile olan Hace Ahrar'a hayranlığı, tazimi açıkça görülmekte, hakkı teslim etmektedir.

Sonu

Hace Ahrar Veli'nin ve Babürşah'ın çok yönlü şahsiyetleri, ilim, irfan, edeb sahibi, Hakk'a bağlı olmaları, kendilerini iyiliğe ve halka hizmete vakfetmeleri müşterek hususiyetleridir. Adil, cesur ve atılgan olmaları, risk almaları, tehlikelere karşı göğüs germeleri, sulhsever tarafları her ikisinin ortak yanlarıdır. Babürşah'ın Hindistan başarısında mühim rolü olan Hace Ahrar Veli manevi bir mimar gibi görülebilir. Müslüman Türk Devletleri dikkatle incelendiğinde fark edilecektir ki, her devletin ve müstakim liderlerin, idarecilerin arkasında manevi mimarlar, mutasavvıflar bulunmuş, kılavuz olmuşlardır. Gazneliler ve Selçuklular'da Hasan Harakani, Osmanlılar'da Mevlana, Osman Gazi'de Şeyh Edebali, Fatih Sultan Mehmed'le Akşemseddin, Emir Timur'la Ebul Bereke, Şemsettin Külal, Babürşah ve Ebu Said'de Hace Ahrar gibi birçok sufi misali görülebilir. Manevi mimarlara bağlı olan sultanların tarihi akışını değiştirdikleri, büyük devletlerin ve medeniyetlerin onların himmeti ve dualarıyla kuruldukları ve geliştikleri belirtilebilir. Babürşah bu bakımdan en çarpıcı misal ve lider denilebilir. Türkistan'dan Kafkasya'ya,

Anadolu'ya, Balkanlara, Ortadoğu'ya, Hindistan'a, Kuzey Afrika'ya, İspanya'ya, Asya Pasifik'e, Uzak Doğu'ya uzanan sufilerin, dervişlerin, mürşitlerin sultan, padişah, han, hakan, şah ve emirlere ve halka muhabbet, adalet, merhamet, hakkaniyet üzere nasihat ve ikazda bulundukları, onlara istikameti gösterdikleri, cemiyetleri muhabbetle inşaa etmeye çalıştıkları söylenilebilir.

KAYNAKÇA

1. Akün, Ömer Faruk. 1991. "Babür". DİA, C. 4. İstanbul.
2. Alan, Hayrünnisa. 1996. Sultan Ebu Said Devri Timurlu Tarihi. İstanbul: Marmara Üniversitesi.
3. Arat, Reşit Rahmeti. 1987. Vekâyî: Bâbür'ün Hâtırâtı. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.
4. Bâbür Şah. 1989. Bâbürname ve Bâbür'ün Hayatı, Cilt 1. İstanbul: Devlet Kitapları.
5. Beveridge, S. A. 1979. Babur-nama (Memoirs of Babur). New Delhi: Oriental Books Reprint Corporation.
6. Bilkan, Ali Fuat. 1999. "Bâbür'ün 'Risâle-İ Vâlidiyye Tercümesi' Adlı Eseri". Bilig 8: 99-105.
7. Çelikoğu, Şahver. 2016. Silsile-i Hacegân. İstanbul: Arifan.
8. Demir, Cengiz. 2016. "Baburnâme'de Hoca Ubeydullah Ahrar". Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim (Teke) Dergisi 5 (2).
9. Eshenkulova, Ksihimcan. 1997. "Timurlular Devri Medrese Eğitimi ve Ulum el-Evail". Yüksek Lisans Tezi, İstanbul Üniversitesi.
10. Gross, Jo-Ann. 2002. The Letters of Khwaja Ubayd Allah Ahrar and His Associates. Leiden: Brill.
11. Kara, Mustafa. 1988. "Molla İlahi'ye Dair". Osmanlı Araştırmaları VII-VIII: 365-392. İstanbul.
12. Kaya, Mahmut. 1992. "Ḳasîdetü'l-bürde". DİA, C. 6. İstanbul.
13. Koç, Mustafa. 2005. "16. Yüzyıl Osmanlı Coğrafyasında Karanlıkta Kalmış Nakşi-Ahrari, Yesevi ve Kübrevî Şeyhleri". Kutadgubilig Felsefe-Bilim Araştırmaları Dergisi, Sayı 7: 211-254.
14. Kufralı, Kasım. 1949. "Molla İlahi ve Kendisinden Sonraki Nakşibendiyye Muhiti". İUEF Türk Dili ve Edebiyatı Dergisi: 129-151.
15. Nevayi, Ali Şir. 1996. Nesayimü'l-Mahabbe min Şemayimi'l-Fütüvve. Edited by Kemal Eraslan. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınevi.
16. Pırlanta, İsmail. 2016. "Life of Babur Shah and His Personality." Journal of Faculty of Theology of Bozok University 10.10: 215-245.
17. Safi, Mevlâna, and Ali b. Hüseyin. 1971. Reşahat Ayn-el Hayat. Edited by Necip Fazıl Kısakürek. İstanbul: Eser Kitabevi.

18. Tosun, Necdet. 2002. “Tasavvufta Hacegân Ekolü (XII-XVII Asırlar).” PhD diss., Marmara Üniversitesi, İstanbul.
19. Tosun, Necdet. 2012. “Ubeydullah Ahrar.” In Türkiye Diyanet Vakfı İslam Ansiklopedisi, C. 42, 19-20. Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları.
20. Yılmaz, Hasan Kâmil. 2011. Altın Silsile. İstanbul: Erkam Yayınları.

Zahiriddin Bobur she’riyatida milliy ruh va ijodiy tafakkur sintezi
Synthesis of national spirit and creative thinking in the poetry of ZahirIddin Babur

Nurboy JABBOROV[1],

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Bobur lirikasi milliy ruh va badiiy talqin sintezi nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Mazkur ilmiy muammo, birinchidan, buyuk shoir she’riyatida millatning asl tabiati, siyrati aks etishi, ikkinchidan, poetik fikr ifodasining milliy tafakkurga tayanishi, uchinchidan, badiiy obrazning milliy ifoda orqali suvratlanishi tarzidagi ilmiy tasnif asosida tadqiq qilingan. Natijada Boburning lirikada milliy ruhiyat musavviri ekani dalillangan.

Tayanch so‘zlar: *she’riyat, milliy ruh, millat siyrati, poetik fikr, badiiy obraz badiiy talqin.*

Abstract: The article analyzes the lyrics of Zahiriddin Babur from the point of view of synthesis of national psyche and artistic interpretation. This scientific problem was researched on the basis of the scientific classification, firstly, that the great poet's poetry reflects the true nature and character of the nation, secondly, the expression of poetic thought relies on national thinking, and thirdly, the artistic image is portrayed through national expression. As a result, it has been proven that Babur is an artist of the national spirit in the lyrics.

Key words: *poetry, national spirit, national culture, poetic thought, artistic image, artistic interpretation.*

Badiiy adabiyotning asosini quyidagi poetik unsurlar tashkil etadi: ma’no, shakl, ruh va obraz. Buyuk iste’dod egalarining asarlarida, odatda, ma’no umumbashariy g‘oyalarni ifoda etsa, shakl va ruh millatning tabiatini aks ettiradi. Obraz individual poetik tafakkur mahsuli sifatida yuzaga kelsa-da, o‘zida millatning ruhini ifodalaydi. Milliylikdan xoli tuyg‘uning ta’sir kuchi bo‘lmaganidek, milliy ruhdan mosivo tafakkur ham qanotsiz qushga mengzaydi. Shunga ko‘ra, milliylik – adabiyotning asosiy mezoni. Ta’bir joiz bo‘lsa, jahon badiiy-estetik tafakkuri ko‘rigida muayyan millat adabiyotini ajratib ko‘rsatuvchi bosh xususiyat, o‘zgalardan farqini namoyon etadigan asosiy belgi bu – milliy ruhdir. Shuning uchun milliy ruhning ifoda yo‘sinlarini, tasvir mezonlarini o‘rganish adabiyotshunoslikning o‘zak ilmiy muammolaridan.

[1] Nurboy JABBOROV – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

Adabiyotda milliy ruh ifodasi, bizningcha, quyidagi tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi: 1) millatning asl tabiatini, siyratini aks ettirish; 2) poetik fikr ifodasining milliy tafakkurga tayanishi; 3) badiiy obrazning milliy ifoda orqali suvratlanishi. Buyuk shoir va mutafakkir Zahiriddin Bobur nazmiy merosini ana shu tamoyillar asosida o‘rganish tadqiqotlar uchun boy material bera oladi.

Millatning asl tabiatini, siyratini aks ettirish. Mumtoz she’riyatning g‘azal, masnaviy, ruboiy, tuyuq va fard singari janrlarida yuksak badiiy qimmatga ega asarlar yozgan Zahiriddin Bobur lirikasi milliy ruh betakror poetik ifoda etilgani jihatidan ham ahamiyatlidir. Ulug‘ shoirning “Yaxshilig‘” radifli g‘azalida bu xususiyat, ayniqsa, yaqqolroq namoyon bo‘lgani kuzatiladi:

Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘,
Kimki, ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘.

Buyuk tafakkur egalarining dunyoga qarashi boshqa toifa kishilar nuqtai nazaridan tubdan farq qiladi. Negaki, ular kamolotning o‘zlari erishmoqqa muyassar bo‘lgan yuksakligi darajasidan fikr yuritadi. Boburning ahli jahondan kim ham yaxshilik ko‘ribdi, modomiki shunday ekan, undan yaxshilik yetmog‘iga ko‘z tutma, deyishi sababini shuning bilan izohlash mumkin. “Ko‘z tutma” – chinakam turkiy ibora. Baytdagi mazmun yo‘nalishini teran falsafiy mushohada sari burgan ushbu ibora ulug‘ shoir tafakkurining milliy zaminga qurilgani isbotidir.

Keyingi baytda *yaxshi-yamon, yamonliq-yaxshilig‘* tushunchalari hosil qilgan tazod vositasida fikr yanada ta’sirchan va san’atkorona ifodalangan:

Ey, ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yamonliq asru ko‘p,
Emdi ko‘z tutmoq ne ma’ni har yamondin yaxshilig‘.

Mutafakkir kelgan xulosaga ko‘ra, dunyo shunday qurilgan: yaxshilardanki yomonlik ko‘rganingdan keyin yomonlardan yaxshilik kutish foydasizdir.

G‘azalning shohbaytida ifodalangan mazmun millatning asl tabiatini ifoda etgani bilan alohida ahamiyatga ega.

Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q –
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘.

Ulug‘ shoirning bunday falsafiy to‘xtamga kelishi sababi teran asosga ega. Negaki, o‘zbek xalqi barchaga, hatto g‘animiga ham yaxshilik qila olishini ko‘pasrlik tarixi davomida qayta-qayta isbot etgani ma’lum. O‘rta asrlar adibi Al-Johiz “Fazoyili atrok” (“Turkiylarning fazilatlari”) asarida ajdodlarimizning *nomusli,*

yuragi toza, yovuz o‘y va botil fikrdan xoli insonlar bo‘lganini; na jangda, na tinch payti *hiyla bilmaganini, fursatdan foydalanmaganini; o‘zi ham, so‘zi ham to‘g‘ri ekanini; birovning moliga xiyonat qilish, ikkiyuzlamachilik, kibru havo, kattalarga hurmatsizlik ko‘rsatish ularning tasavvuriga ham sig‘magan*ini ta’kidlaydi [Al-Johiz, 1993]. Hazrat Alisher Navoiy ta’biricha: *“...sortdin tezfahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq”* [Navoiy, 2011: 515] bo‘lgan turkiylar uchun barcha zamonlarda ham yaxshi nom qoldirish hayotining asosiy mazmunini tashkil etgan. Boburning *“...bori elga yaxshilik qilish”* haqidagi g‘oyasi, ana shu jihatdan, millatning siyratini o‘zida mujassam etganini alohida ta’kidlash kerak.

Millatning yomonlikka yomonlik bilan emas, yaxshilik bilan javob qaytara olish fazilati shoir lirikasida o‘ziga xos badiiy talqin etiladi. Shoirning boshqa bir g‘azalidan olingan quyidagi bayt mazmuni ham buni tasdiqlaydi:

Bobur, ul umr seni so‘kkan uchun
Umr borincha duo qilg‘aysen.

Hatto so‘kkan odamning haqiga ham duo qilish, tabiiyki, hammaning ham qo‘lidan kelavermaydi. Olijanoblikning, insoniy kamolotning cho‘qqisi bo‘lgan bunday xulosaga kelish osonmi? Ham oson, ham qiyin. Osonligi shundaki, bu nainki shoh va shoir Boburning, balki mansub bo‘lganimiz millatning asl tabiatiga xos yuksak fazilat. Qiyinligi shundaki, yomonlikka nafrat – inson fitratiga xos tuyg‘u. Ushbu nafrat yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarishni taqozo etadi. Nafratni yengish, yomonlikka yaxshilik bilan javob berish shu jihatdan ham oson emas. Buning uchun ushbu fazilat insonning fitratida bo‘lishi kerak [Jabborov, 2018: 78].

Shoir she’rlarida millatning mentaliteti bilan bog‘liq quyma fikrlar ohorli ifoda etiladi. Hayot sinovlaridan o‘tgan “Nimani eksang, shuni o‘rasan”, degan xalq maqoli Boburning mana bu ruboiysida betakror badiiy talqin topgani buning isbotidir:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidur!

Bobur lirikasida faqat o‘zbekkagina xos bo‘lgan tushunchalar ohorli badiiy talqin etilgani kuzatiladi. Masalan, “sevinchi” so‘zi hozirgi kunda xalqimiz orasida “suyunchi” shaklida keng va faol ishlatiladi. Hayotdagi eng quvonchli damlardagina tilga olinuvchi bu so‘zni shoir g‘azalda yor visoli bilan bog‘liq badiiy lavhada mahorat bilan qo‘llaydi:

Xush ulki, bir kishi ko‘zim yo‘lida erkanda,
“Sevinchi!” – deb yugurib yetsakim: “Falon” keldi!”

Bunday satrlar shoirning xalq turmush tarzini teran bilishi, she’rda milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan tushunchalarni san’atkorona talqin eta olishi isbotidir.

“Uying bug‘doyga to‘lgur!” – o‘zbekning ko‘pni ko‘rgan otalari, donishmand bobolari yoshlarga shu so‘z bilan dashnom berishi ma’lum. Ushbu odat millatimiz oqsoqollarining hatto tanbehi ham yaxshi niyatga yo‘g‘rilgani isbotidir. Aslida, uyning bug‘doyga to‘lishi – farovonlik belgisi. Biror yoqimsiz qiliq qilgan bolani qarg‘amaslik uchun, hatto dashnomni ham shu kabi ezgu niyat orqali ifodalash naslning davomchilariga bo‘lgan tengsiz mehr natijasidir. Buni qalbdan his etgan Bobur ruboiylaridan birida ana shu hikmat mazmunini go‘zal badiiy talqin etadi:

Ishlar bari ko‘nguldagidek bo‘lg‘usidur!
In’omu vazifa – bori buyrulg‘usidur!
Ul g‘allayu mahmalki, deb erding, berdim,
Mahmalg‘a bo‘yu g‘alladin uy to‘lg‘usidur!

Yoki mana bu baytda shoir “Men ham edim seningdek, sen ham bo‘lursan meningdek” degan xalq maqoli mazmunidan foydalanib, betakror badiiy umumlashma chiqaradi:

Da’voi ishq etib, g‘ayr, Boburni ayb qilma –
Kim, men edim seningdek, sen bo‘lg‘asen meningdek.

Shoir baytga g‘ayr – raqib obrazini olib kirgan. G‘animiga murojaat orqali bayt mazmunining ta’sirchanligini oshirishga, irsoli masal vositasida badiiyatni yuksaltirishga erishgan.

Ushbu fikrlar Boburning milliy urf-udumlarni, xalq turmush tarzini, eng muhimi, hayot falsafasini teran anglagan va lirik asarlarida betakror ifodalagan shoir ekani isbotidir.

Poetik fikr ifodasining milliy tafakkurga tayanishi. Ushbu tamoyil, boshqacha aytganda, fikrni chinakamiga o‘zbekcha ifodalay olish ma’nosini anglatadi. Bobur lirikasi, bu jihatdan ham, tadqiqotlar uchun boy material bera oladi. Shoir turkiy tilning ifoda imkoniyati nechog‘liq keng ekanini teran his etgan, asarlarida asl turkiy so‘zlardan keng va mahorat bilan foydalana bilgan.

Ne bilg‘aysen mening dardu g‘amim har soatu har dam –
Ki, husn usrukligidin oyu yil, ey oy, oyilmaysen.

Bayt mazmuniga ochqich vazifasini o‘tovchi “usrukligidin” *(mastligidan* - ***qavs ichidagi izohlar bizniki - N.J.)*** hamda “oyilmaysen” *(hushingga kelmaysan)* so‘zlari Bobur she’riyatida ancha faol qo‘llangan sof turkiy tushunchalardir. Bu hol, o‘z navbatida, shoir fikrlarining toza o‘zbekcha ifodalanishini ta’minlagan.

“Boburnoma”da Andijonni ta’riflar ekan, “Eli turkdur. Shahri va bozorisida turkiy bilmas kishi yo‘qdur” [Bobur, 2002:34], deb yozganida buyuk adibning o‘zi mansub millatga muhabbati ham aks etgani yaqqol seziladi. Shuning uchun ham ulug‘ shoir lirik she’rlarida turkiy tilning ifoda imkoniyatidan to‘liq foydalangan. Quyidagi g‘azal matlai ham ijodkorning tafakkur yo‘sini milliy ekani jihatidan qimmatlidir:

Quyoshim har sorig‘a azm qilsa, zarrae qolmon,

Ne uchunkim, agar ayrilsam ondin, kun ko‘ra olmon.

“Quyoshim” so‘zi ifodalagan istiora hamda ushbu so‘z bilan zarra tushunchasi orasidagi tazod baytning yuksak badiiyatini ta’minlagan. “Kun ko‘ra olmon” – ushbu chinakam o‘zbekcha ibora baytda ifodalangan mazmunning poetik xulosasini aks ettirishdan tashqari, milliy ruhni ifodalagani jihatidan ham alohida ahamiyatga ega.

Mana bu maqta’ baytda Bobur turkiy tilga bo‘lgan chuqur muhabbatini samimiy izhor etgan:

Turklar xatti nasibing bo‘lmasa, Bobur, ne tong,

Boburiy xatti emasdur, xatti sig‘noqiy durur.

Ushbu baytda buyuk mutafakkir turkiy yozuvning nasib bo‘lmaganidan, ya’ni amaliyotda keng istifoda etilmaganidan o‘kinchini ifodalagan. “Xatti Boburiy”ni ixtiro qilgani sababi ham shunda bo‘lgani ma’lum. Baytda aytilgan xatti sig‘noqiy esa “Turkistonda keng qo‘llangan arab yozuvining bir turi” [Rahmonov, 2008: 50] ma’nosini anglatadi.

Bobur lirikasida hazrat Alisher Navoiy “turk shuarosi xossasi” [Navoiy, 2011:520] sifatida ta’riflagan tuyuq janrining ham yuksak poetik namunalari bor. Mana, shoirning milliy tafakkur va millat ruhi yorqin namoyon bo‘lgan tuyuqlaridan biri:

Ne balo, biyikturur davlat tog‘i,

Ko‘hi g‘amni ne bilur davlattog‘i?

Himmate tut, dog‘i davlat istagil,

Himmating bo‘lsa, bo‘lur davlat tog‘i.

Ushbu tuyuqda tajnis bo‘lib kelgan “davlat tog‘i” so‘zi birinchi misrada “davlatning ulug‘vorligi”, ikkinchi satrda “davlatga erishgan kishi”, to‘rtinchi qatorda esa “davlat ham” ma’nolarida kelgan. Shoir teran falsafiy mazmunni tajnisi tomm orqali go‘zal badiiy shaklda ifoda etgan. Shuning barobarida, ijodkor ushbu tuyuqda turkiy millatga xos baland himmatni ulug‘lagan.

Mana bu tuyuqda ham o‘zbek tilining ifoda imkoniyati nechog‘liq katta ekani mahorat bilan ifodalangan:

Vasldin so‘z derga yo‘q yoro manga,

Hajr aro rahm aylagil, yoro, manga.

O‘qung etti ko‘p yomon yoro manga,

Marhami lutfung bila yoro manga.

Ushbu tuyuqnung har to‘rt misrasida tajnis qo‘llangan. “Yoro” so‘zi birinchi satrda “hol, quvvat”, ikkinchi misrada “ey yor”, uchinchi qatorda “yara, jarohat”, to‘rtinchi satrda esa “yaragin” ma’nolarini ifodalab kelgan. Ushbu tuyuq ham Boburning so‘z qo‘llash mahorati baland ekanidan, poetik fikrni o‘quvchining

qalbiga yetib boradigan darajada chinakam o‘zbekcha ifodalay olishidan dalolat beradi.

Zamonaviy she’riyatimiz darg‘alaridan bo‘lgan O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov milliy ruh ifodasining zarurati haqida mana bunday yozgan edi: “Mayli, buyuklarga intilish bo‘lsin, jahonning, bashariyatning eng ilg‘or fikrlariga oshnolik bo‘lsin, G‘arb, Yevropa, Amerika deysizmi, mayli Lotin Amerikasi, mayli Oymi, Marsmi.... darajasida fikrlashsin, lekin o‘zbek fikrlasin, o‘zbekcha fikrlasin! Agar shu “kichkinagina” shart bajarilsa, qolganiga, albatta erishamiz” [Oripov, 2005:178]. Zahiriddin Bobur lirik she’rlarida teran hayot falsafasini milliy tafakkur asosida, sof o‘zbekcha ifodalagani bugungi zamon shoiru adiblari uchun ham namuna bo‘la olishini ta’kidlash kerak.

Badiiy obrazning milliy ifoda orqali suvratlanishi. Zahiriddin Bobur bu jihatdan ham yuksak badiiy natijalarga erishgan. Quyidagi baytda “it” obrazi, birinchidan mukammal poetik obraz darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, ikkinchidan, muallif konsepsiyasini ifodalagan chinakam o‘zbekcha “yitgaymen” so‘zi orqali mazmunning ta’sir kuchi bir necha baravar oshuviga erishilgan:

Itingdurmen, soching zanjirini bo‘ynumg‘a mahkam qil –
Ki, vodiyi firoqing ichra, qo‘rqarmenki, yitgaymen.

“Soching zanjiri”, “vodiyi firoq” birikmalari ifoda etgan istiora, “itingdurmen” va “yitgaymen” so‘zlari asosidagi tajnis oshiq ruhiyatining foje tasviri orqali o‘quvchi ko‘z o‘ngida poetik obrazni yaqqol namoyon eta olgani shoirning tengsiz mahoratiga dalil bo‘la oladi. Bo‘yniga yor sochidan zanjir bog‘lanib, firoq vodiysi uzra yitib borayotgan it obrazi – lirik qahramon tuyg‘ularini bu darajada aniq va ta’sirchan suvratlantirish uchun ijodkor nechog‘liq yuksak salohiyat egasi bo‘lmog‘i zarur!

G‘azalning maqta’ baytida ushbu ta’sirchan badiiy obraz ohorli va teran poetik umumlashma orqali xulosalangan:

Muyassar bo‘lmasa boshimni qo‘ymog‘lig‘ ayog‘ig‘a,
Boshimni olib, ey Bobur, ayoq yetgancha ketgaymen!

Yor oyog‘iga bosh qo‘ymoq umidi – oshiqning ishq tavrida nechog‘liq sodiq ekani isboti ekanidan tashqari, tuyg‘u izhorining sof o‘zbekcha ekani jihatidan ham qimmatlidir. Agar ana shu orzusi muyassar bo‘lmasa, oshiqning boshini olib oyoq yetgancha ketmog‘i – fikrni milliy ruh uyg‘unligida bu darajada mukammal ifodalash uchun faqat Bobur bo‘lish kerak!

Buyuk shoir umrining aksar qismida yoru diyor firoqida yashadi. Temuriy shahzodalar o‘rtasida ittifoq yo‘qligi, o‘zaro toju taxt talashuvlari oqibatida buyuk Sohibqiron Amir Temur asos solgan muazzam saltanat tanazzulga yuz tutayotganidan iztirob chekdi. Hindistonda ulkan davlatga asos solib, temuriylar hukmronligining umrini qariyb uch yarim asrga uzaytirishga muvaffaq bo‘ldi. Hasanxoja Nisoriyning

“Muzakkiri ahbob” tazkirasida aytilganidek: “(Bobur) chig‘atoy sultonlarining eng sarasi va zo‘r shijoatlisi edi. Shamshir zarbi bilan Movarounnahr mamlakatlariga ega bo‘lib, uni saqlab qolishda ko‘p sa’y-harakatlar va jonini ayamasdan jahdu jadallar ko‘rsatdi. Mardona to‘qnashuvlar qildi, ammo taqdir o‘qig‘a tadbir qalqoni dosh bera olmagach, biror natija chiqara olmadi... Mulk qo‘ldan ketgach, tab’ to‘tisi hind shakkaristoniga mayl bildirib, dengiz mavjli e’tiborini Hindiston mamlakatlarini egallashga sarf qilib, qorong‘ulik o‘lkasini quyosh yog‘duli qilichi shu’lasi nurlari bilan charog‘on etib, humoyun tole’ tufayli muxolif lashkariga shikast yetkazib, feruz baxt bilan shohlikning feruz taxtiga hazrat Dehlida komron o‘lturdi” [Nisoriy, 1993: 51, 52].

Shoh Bobur hayotida kechgan ana shu murakkab va ziddiyatli voqelik shoir Boburning mana bu baytida ta’sirchan tarzda obrazli ifodalangan:

Nekim taqdir bo‘lsa – ul bo‘lur, tahqiq bilgaysen,
Erur jangu-jadal, ranju-riyozat barcha behuda.

Bobur – buyuk qalb va ulkan ijodiy salohiyat egasi edi. Ahillik va ittifoq g‘oyasi betakror badiiy talqin etilgan mana bu baytlari millat farzandlarini ulug‘ maqsad yo‘lida birlashtirishga qaratilgan da’vat o‘laroq barcha zamonlar uchun ham ibratlidir:

Ahbob, yig‘ilmoqni farog‘at tutingiz,
Jam’iyatingiz borini davlat tutingiz.
Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,
Bir-birni necha kuni g‘animat tutingiz.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur lirik she’rlarida, ular qaysi janrda yozilgan bo‘lmasin, milliy ruh ifodasi yetakchi o‘rin tutadi. Ulug‘ mutafakkir she’riyatida millatning asl tabiati, siyrati mukammal darajada aks ettirilgan. Poetik mazmun milliy tafakkur vositasida o‘ziga xos va ohorli talqin qilingan. Badiiy adabiyotning asosi bo‘lgan poetik obrazlar milliy ifoda orqali mukammal suvratlantirilgan. Bobur lirikasini milliy ruh ifodasi nuqtai nazaridan yanada chuqur va ko‘lamli o‘rganish adabiyotshunoslikning istiqboldagi dolzarb vazifalaridandir.

Adabiyotlar

1. Ал-Джахиз Абу Усмон Амр. 1993. Фазойили атрок. /Арабские источники о тюрках в раннее средневековье. – Баку.

2. Алишер Навоий. 2011. Муҳокамат ул-луғатайн. /Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Ўнинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.

3. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2008. Ғарбинг Андижонийдур. Сайланма шеърлар. – Тошкент: Шарқ.

4. Jabborov Nurboy. 2018. Zahiriddin Bobur kamolotining axloqiy-ma'naviy asoslari. /Zahirəddin Məhəmməd Babur və Azərbaycan. Beynalxalq elmi konfransin materiallari. – Baki.

5. Нисорий, Ҳасанхожа. 1993. Мазаккири аҳбоб. – Тошкент: Халқ мероси.

6. Орипов, Абдулла. 2005. Адолат кўзгуси. – Тошкент: Адолат.

7. Раҳмонов, Ваҳоб. 2008. Мумтоз соҳир шеърият. / Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. Ғарбинг Андижонийдур. Сайланма шеърлар. – Тошкент: Шарқ.

Bobur faoliyatining jadidlar tomonidan o‘rganilishi va badiiy talqini masalalari
Issues of study and artistic interpretation of Babur’s work by the moderns

Shuhrat HAYITOV[1]

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining o‘rganilishida jadidlarning ham xizmati kattadir. Mazkur maqolada ma’rifat fidoyilari – jajidlarning Bobur ijodiga bo‘lgan munosabati va o‘zbek va jahon adabiy tafakurida Bobur siymosining adabiy tadqini masallaari o‘rganilgan. Flora Anna Stil, Fernard Grenard, Harold Lemb, Muni La’l kabi xorijlik adablar, shuningdek, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sulton, Xurshid Davron, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Qamchibek Kenja kabi o‘zbek adabiyoti namoyandalarining Boburga bag‘ishlangan turli janrda yozgan asarlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Bobur, “Boburnoma”, “Aruz haqida”,“O‘tkan kunlar”, “Yulduzli tunlar”, “Boburiynoma”,“Saodat sohili”, “Bobur sog‘inchi” adabiyotshunoslik, roman, qissa.*

Annotation: In the study of the life and work of Zahiriddin Muhammad Babur, the work of the moderns is also great. This article examines the attitude of the devotees of enlightenment - Jajids to Babur's work and the literary study of Babur's figure in Uzbek and world literary thought. Foreign writers such as Flora Anna Steele, Fernard Grenard, Harold Lamb, Muni Lal, as well as the works of Uzbek literary figures such as Pirimkul Kadirov, Khairiddin Sultan, Khurshid Davron, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Kamchibek Kenja in various genres dedicated to Babur are discussed.

Keywords: *Babur, “Baburnoma”, “About Aruz”, “Days Past”, “Starry Nights”, “Baburinoma”, “Saodat sahili”, “Babur Soginchi” literary studies, novel, short story.*

Jadidlar tomonidan o‘rganilishi. Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsini elga tanitish, bu buyuk siymo asarlarini ilmiy tadqiq etish jarayonida, ayniqsa, jadidlarning o‘rni kattadir. Bu ishga Sh.Rahimiy, A.Avloniy, A.Fitrat, Cho‘lpon va A.Qodiriy kabi ma’rifatimiz fidoyilari o‘ziga xos hissa qo‘shgan. Xususan, Sh.Rahimiyning 1923 yilda “Bilim o‘chog‘i” jurnalida bosilgan “Zahiriddin Muhammad Bobur” maqolasi ushbu yo‘nalishdagi ilk tadqiqotlar sirasiga kiradi. A.Avloniyning Afg‘oniston xalq maorifi vaziri, so‘ng sho‘rolar ittifoqining

[1] *Hayitov Shuhrat Moyliyevich* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), O‘zMU dotsenti

Afg‘onistondagi elchisi vazifasida xizmat qilgan davri voqealari aks etgan “Sayohatnoma” asarida Bog‘i Boburni ziyorat qilgani va ulug‘ shoir haqidagi o‘y-kechinmalari bayon etilgan. A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida “Boburnoma” asari eslab o‘tilishi ham tasodif emas. Boisi, A.Qodiriy dunyo adabiyotini, o‘zbek xalqining milliy ruhini, shevalaridagi lug‘at boyligini yaxshi bilgani, XX asrning 20-yillarida qayta shakllangan zamonaviy o‘zbek adabiy tili uchun beqiyos xizmat qilgani haqiqat. “O‘tkan kunlar” romani boshida tilga olingan “Tohir-Zuhra”, “Chor darvish”, “Farhod va Shirin”, “Bahrom go‘r” kabi ko‘plab mumtoz asarlarni o‘qiganiga ham shubha yo‘q, albatta.

Adabiyotshunos olim B.Karimovning “Ikki daho ikki – bebaho”(2020) kitobida shuningdek, “Jahon adabiyoti” jurnalining 2019-yil 4-sonida e’lon qilingan “Boburnoma”dan “O‘tkan kunlar”ga” nomli maqolasida bu haqda shunday yoziladi: “O‘tkan kunlar” romanining “Majburiyat” faslida shunday epizod bor: “Kechlik oshni o‘tkazgach, Hasanali o‘z hujrasidan kiyinib chiqdi-da Otabek yonig‘a kirdi. Otabek “Boburnoma” mutolaasi bilan mashg‘ul edi”. Hasanali asil niyatini bildirmay “hammomga borish” uchun ruxsat so‘raydi. Otabek ko‘zini kitobdan uzmay: “Yumishim yo‘q, boraveringiz”, deb javob beradi. Mashhur kitoblar orqali qahramonni baland maqomga ko‘tarish, ularning ma’naviy olamiga urg‘u berish, aniq detal vositasida obrazga mahobat bag‘ishlash dunyo adabiyotida ham, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham, shuningdek, Abdulla Qodiriy ijodiy biografiyasida ham mavjud adabiy hodisadir. Otabekning “Boburnoma” mutolaasi “O‘tkan kunlar” ildizi ustida fikrlashga, tasvirdagi ichki manera, so‘zdagi rostlik, xarakter mantig‘i, inson shakli-shamoyili, ayniqsa, romanning poetik nutqi – tili to‘g‘risida ayrim mulohazalar aytishga imkon beradi. Tasavvur ko‘lami “Boburnoma” matnistoni bo‘ylab kengayadi. Adib boshqa asarlarida ham bu muazzam kitob va uning egasini eslaydi. Boburga “fotih” – fath etuvchi sifatini beradi; “Boburnoma”ni: “Boburning keng ruhlik, o‘z zamonig‘a ochuq fikrlik…” kitobi, deydi. Qurdoshlari bilan bahslashgan bir masalada “Boburnoma”dan “dalillar kelturmak”ka chog‘lanadi”[Qodiriy, 2007:106]. Tarixiy manbalardan ma’lumki, qatog‘on – “dapsan” yillari Abdulla Qodiriy ikkinchi marta qamoqqa olinganida kutubxonasidagi yetmishdan ortiq arab imlosida yozilgan mumtoz kitob yig‘ishtiriladi. Shular qatori “Boburnoma”ning olib ketilgani aniq”[Karimov: 2019].

Bobur ijodi, ayniqsa, uning samimiy she’riyati Cho‘lpon ijodiga ham katta ta’sir etganligiga ko‘plab misollar bor. Shuningdek, A.Fitrat tomonidan 1928-yilda nashr ettirilgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” majmuasida Boburning 31 g‘azali, 2 masnaviysi, 28 ruboiysi va “Boburnoma”dan parchalar kiritilganligi o‘sha davr uchun katta tarixiy voqelik bo‘lgan. Otajon Hoshimning ushbu kitobga yozgan so‘zboshisida ham Bobur hayoti va ijodi haqida ko‘p ma’lumotlar berib o‘tilgan (Boltaboyev: 2004, 127). Bulardan tashqari, O‘zbekistonda qatog‘on yillari, Bobur

nomi va uning ijodiga munosabat yaxshi bo‘lmagan zamonlarda “Literaturnaya ensiklopediya” (1937) kitobiga Olim Sharafiddinov va Sotti Husayn tomonidan “O‘zbek adabiyoti” nomli maqolasining yozilishi va unda Bobur ijodiga oid eng muhim va xolis ilmiy baho berilganligi o‘z davri uchun katta jasorat edi.

“Boburnoma”ni tanitishda ayniqsa, Fitrat tadqiqotlarining ahamiyati katta. U 1928-yilda “Boburnoma”dan ayrim parchalarni e’lon qilish orqali o‘zbek o‘quvchilariga bu bebaho asarni tanitdi (Boltaboyev, 2004:128). Manbalarga ko‘ra, uning (Fitratning) yana o‘ndan ortiq ilmiy asar va qo‘llanmalarida Bobur tilga olinadi. Jumladan, “Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari ham havaslilar uchun qo‘llanma” (1926) darsligida Bobur va uning ijodi haqida yangi davr o‘zbek adabiyotshunosligida birinchi bo‘lib ma’lumot berilgan(Boltaboyev, 1995). “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1-jild, 1928) majmuasida esa “Boburnoma”ning Hindiston qismi tabdil etilib, O‘zbekistonda ilk marta nashr qilingan. “Adabiyot qoidalari” kitobida eng ko‘p misol ham Bobur ijodidan keltirilgan. Fitrat, shuningdek, “Aruz haqida” (1935) risolasida turkiy aruzning xususiyatlarini tushuntirar ekan, Boburning ham aruz nazariyotchisi, ham aruzning go‘zal vaznlarida she’r bita olgan hassos shoir ekanligini alohida e’tirof qilib o‘tadi.

Jadidlarning Bobur hayoti va ijodi borasidagi tadqiqotlari shunday qilib O‘zbekistonda keyingi davr boburshunoslik ilmining rivoj topishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Shundan keyin o‘tgan asrning 40-yillariga kelib olimlar tomonidan Bobur ijodiga bo‘lgan e’tibor paydo bo‘la boshladi. Jumladan, 1948-yili Saidjon Aliyev “Zahiriddin Muhammad Boburning she’riy ijodiyoti” mavzusida, 1949-yili Sabohat Azimjonova “Umarshayx va Boburning Farg‘ona ulusi” mavzusida, 1944-yili Moskvada P.I.Petrov “Boburnoma” tarixiy manba sifatida” mavzusida, 1954-yili G.F.Blagova “Характеристика грамматического строя (морфологии) староузбекского литературного языка конса XV века по “Бабурнаме” mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladi. Shundan so‘ng o‘zbek va boshqa turkiy tilli respublikalar adabiyotida qator dissertatsiyalar ko‘paya boshladi.

Fitratning Bobur asarlari, jumladan, “Boburnoma”ga doir tadqiqotlari keyinchalik turkiy xalqlar adabiyotidagi ko‘plab ilmiy izlanishlar uchun ham manba vazifasini bajardi. Bundan tashqari turkiy xalqlar orasida Bobur ijodining yoyilishiga zamin yaratdi. O‘zbek adabiyotida shundan keyingi tadqiqotlar O.Sharafiddinov, S.Mirzayev, P.Shamsiyev, S.Azimjonova, A.Abdug‘afurov, A.Qayumov, G‘.Assalom, S.Hasanov, H.Qutratullayev, Z.Mashrabov, A.A’zamov, S.Jalilov, N.Otajonov, O.Bo‘riyev, V.Rahmonov, M.Xolbekov, H.Boltaboyev, H.Dadaboyev, A.Ibrohimov, Z.Xolmanova, keyinchalik Z.Teshaboeva, X.Mirzaeva, Sh.Hayitov, D.Muhammadiyeva, M.Shorahmedova, E.Hazratqulova, B.Bo‘ronova kabi o‘nlab olimlar tomonidan amalga oshirildi.

Bobur faoliyatining badiiy talqini. O‘zbek va jahon adabiyotida Bobur siymosini badiiy asarlarda aks ettirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Bu borada ko‘plab badiiy, tarixiy va ma’rifiy asarlar yozilgan. Undan tashqari, qator badiiy va hujjatli filmlar hamda spektakllar yaratilgan. Jahon adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lganlar: fransuz adibasi Flora Anna Stilning “Boburxon”, yana bir fransuz adibi Fernard Grenard “Bobur”, amerikalik yozuvchi Harold Lembning “Bobur yo‘lbars”, hindistonlik Muni La’l boburiylar tarixiga asoslanib yozgan olti jilddan iborat romanlari bunyod bo‘lgan. Turkiy xalqlar adabiyoti rivojida ham Bobur ijod durdonalarining ta’siri beqiyos bo‘lgan. O‘zbek, qoraqalpoq, ozarbayjon, turk, turkman, qozoq va qirg‘iz adabiyotida ko‘plab ijodkorlar adabiy tafakurida bevosita Bobur shaxsi va uning asarlarining o‘rni alohida ekanligiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Xususan, qozoq klassik adabiyotining yuksak cho‘qqisi hisoblangan – Abay ko‘pgina aloma mutafakkirlar qatori Boburni ham o‘ziga ustoz deb bilgan, ulug‘ shoir iste’dodiga ta’zim qilgan.

Sharq she’riyatiga, xususan, Bobur ijodidan ta’sirlangan holda she’rlar bitish faqat Abaydagina emas, balki XIX asarda yashab ijod etgan Shangerey, Shurtonboy, Oqon Seri, Shaadi to‘ra Jangirov, Bazor Jirov, Qorasoqol Erimbet, Qulinchoq, Mali xo‘ja, Kenje xo‘ja kabi qozoq shoirlarida ham kuzatilgan. Biroq Abay Qo‘nonboev ulardan ancha ilgari ketadi, U Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy, Bobur asarlarini chuqur o‘rganib, badiiy baquvvat asarlar, ajoyib dostonlar yaratadi. Hatto U o‘zining “Qozoqning kelib chiqishi haqida birmuncha so‘z” nomli maqolasida Bobur shaxsiga batafsil to‘xtalib: “Bobur shohning onasi bilan tug‘ishgan ikki qarindoshi bo‘lgan. Kattasi Toshkentda xon bo‘lsa, kichigi qozoqlarga hukmronlik qilgan. Bular Chig‘atoy naslidan bo‘lgan Yunusxonning bolalari edi. O‘sha qozoqlarga hukmronlik qilganining nomi Ahmad edi, – deydi va uning qozoqlar orasidan uch yuz askar to‘plab, qalmoqlar bilan kurashganini qayd etadi. Bularning bari qozoq she’riyati namoyandasi, qozoq xalqining faxri Abay Qo‘nonboyevning Bobur asarlaridan doimo bahramand bo‘lib, uni o‘ziga ustoz bilib, alohida hurmat ko‘rsatganidan dalolatdir..

O‘zbek adabiyotida esa Oybek, Pirimqul Qodirov, Xayriddin Sultonov, Xurshid Davron kabi yozuvchilar Boburga atab qissa va romanlar yozgan. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Mirzo Kenjabek, Minhojiddin Mirzo, G‘ayrad Majid kabi shoirlar tomonidan Bobur mirzo mavzusiga bag‘ishlab ko‘plab she’rlar bitilgan. Turli xil janrdagi bunday asarlarning bosh qahramoni albatta Boburdir. Adabiyot olamida yaratilgan bunday asarlarning ko‘pchilligiga “Boburnoma” ilhom manbayi bo‘lgan. Yozuvchi X.Sulton ta’biri bilan aytganda “Boburnoma” – ko‘p ma’noli, serqatlam va o‘lmas asar. Bu muazzam asarning har bir satri haqida bittadan hikoya yozish mumkin”[Sultonov,1993:230].

Bir o‘z bilan aytganda, Sharq va G‘arb olimlari, adiblari tomonidan Bobur shaxsiyati, ijodi va u yashagan davr ijtimoiy-siyosiy, madaniy, adabiy hayotiga oid yaratilgan adabiy asarlarda buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Bobur siymosi turli rakursda, har bir adibning o‘z dunyoqarashi, uslubi orqali tasvirlanganini ko‘rish mumkin. Rumer Godenning “Gulbadan”[Goden, 2007:175], Vilyam Rashbrukning “O‘n oltinchi asr bunyodkori” [Rashbruk, 2011] Fris Vyurtlening “Bobur – yo‘lbars” (“Andijon shahzodasi”) [Vyurtle, 2012] kabi asarlarda Bobur hayoti, uning XV asr oxiri va XVI asning birinchi yarmida Movarounnahr, Xuroson va Hindistonda kechgan faoliyati masalalariga oid tarixiy haqiqatlar badiiy talqinda yuksak darajada ifodalab berilgan. Eng muhimi, bu kabi badiiy-tarixiy asarlar orqali ko‘plab xorijiy mamlakatlar xalqlari ongida Bobur va u asos solgan buyuk sulola yanada mustahkam o‘rin olgan.

O‘zbek adabiyotida Bobur siymosini aks ettirish masalasi asosan XX asr ikkinchi yarmidan boshlab amalga oshirila boshlangan. Ushbu davrga kelib Boburga bag‘ishlangan poemalar yozila boshlangan. A.Mahkamning “Tavajjuh”, I.To‘lakovning “So‘nggi kecha”, T.Nizomning “Uch so‘z” asarlari shular jumlasidandir [Quvvatova, 2015]. Ayniqsa, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” hamda Boburiy shahzodalar haqida “Avlodlar dovoni” kabi asarlari bu borada o‘ziga xos o‘ringa egadir. Yozuvchi X.Sultonning Bobur qadami yetgan manzillar haqida yozgan “Boburiynoma” ma’rifiy romani, X.Davronning “Samarqand xayoli” qissasi va “Bobur sog‘inchi” pyesasilarini o‘zbek adabiyoti olamida Bobur siymosining badiiy in’ikosi deyish mumkin. Ayniqsa, bu borada X.Sultonovning “Saodat sohili” tarixiy qissasi diqqatga molikdir. Zukko kitobxon bu asarlarda iste’dodli yozuvchi o‘zini buyuk shoirga ruhan yaqin tutganini yaqqol his qiladi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘zbek adabiyotida Bobur haqida ko‘plab asarlar yaratilgan. Ammo shular orasida “Saodat sohili” qissasi eng yaxshilaridan biri ekani shubhasiz. Asarda buyuk shoir hayotining so‘nggi damlari ulkan mahorat bilan tasvirlanadi. Ona diyoriga qaytish ixtiyori qo‘lidan ketgan “qalandar” shohning hayoti kitobxonni butkul o‘ziga rom qilib qo‘yadi. Birgina shoh emas, balki ko‘chalarda sargardon bo‘lgan Baxshiturk, o‘zga ellarda dahshatli o‘lim topgan Boboqul, jahongashta alloma Hofiz Ko‘ykiyning taqdiri turli-tuman voqealar ta’sirida namoyon bo‘ladi. Qissada yozuvchining olis tarixini juda yaxshi bilishi, Bobur umrining so‘nggi davridagi murakkab hayot yo‘lini, ruhiy kechinmalarini aniq tasvirlashida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qissa orqali ulug‘ o‘zbek shoiri, davlat arbobi, olim va mutafakkir siymosini chizishdek mas’uliyatli ishni bajaradi. Asarda hayot voqeligi, tarixiy haqiqat, insonning murakkab ichki kechinmalari ta’sirchan tarzda yuksak badiiy aks ettirilib beriladi. X.Sultonov Bobur umrining so‘nggi davriga bag‘ishlangan ushbu qissadan tashqari ulug‘ shoir hayoti va ijodiga bag‘ishlangan yana talay asarlar yaratgan. “Oy botgan pallada”, “Nuqta” hikoyalari, “Boburning tushlari”, “Tavba”

kabi esse-badialari shular jumlasidandir. Adib mazkur asarlarida Boburning buyuk maqsadlar yo‘lida kechirgan og‘ir, mashaqqatli hayotini shoirona bo‘yoqlar bilan tiniq manzaralarda betakror tadzda ko‘rsatib beradi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi P.Qodirov aytganidek, Bobur mirzoning hayoti va faoliyatiga oid mavzular ummonday cheksiz. Bu ummonda o‘nlab, yuzlab adabiy kemalar suzishi mumkin. Bugun xalqimiz Bobur siymosi va uning umr mobaynida boshidan kechirganlarini qay darajada bilishsalar unda yozuvchi P.Qodirovning “Yulduzli tunlar” tarixiy romaning o‘rni alohida ekanligini alohida qayd etmoq lozim. “Yulduzli tunlar” ana shu majoziy kemalardan biri tarzida yuzaga kelgan. Ushbu asarda bosh qahramon – Bobur hayoti bilan bog‘liq Movarounnaxr va Xurosonda XV asr oxiri va XVI asr boshlarida sodir bo‘lgan qator tarixiy voqealar xronologik tartibda ko‘rsatiladi. Bunday voqealar rivoji Boburning murakkab hayoti va ijod yo‘lini ko‘rsatish bilan chambarchas bog‘liqdir. Yozuvchi bu asarni 1972-yilda ilk bor yozib nashrga topshirsa-da ammo ma’lum muddat chop etilmaydi. To‘g‘rirog‘i, mustabid tuzum tazyiqi ostida roman olti yil nashr qilinmay yotadi. Va nihoyat 1979-yilda Sh.Rashidovning yordami bilan nashr etiladi va adibga ushbu romani uchun 1981-yilda davlat mukofoti beriladi.

Bundan tashqari Bobur mavzusi XX asr she’riyatida ham alohida o‘ringa ega bo‘lganligi ko‘rinadi. Jumladan, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov adabiy-estetik tafakkuri takomilida Zahiriddin Muhammad Boburga bo‘lgan hurmati benihoya baland bo‘lgan. A.Oripov Zahiriddin Muhammad Boburga atab “Bobur shoh”, “Bobur” asarlarini yaratgan bo‘lsa, “Genetika”, “O‘zbek qomusi” she’rlarida ham Bobur nomini alohida tilga olib o‘tgan. A.Oripov “Bobur shoh” g‘azalida ham Boburni shoh sifatida ham shoir sifatida ham ulug‘laydi. Uni Navoiyga qiyoslab, she’riyatda alohida bir dunyo ekanligini e’tirof etadi: *“Temurbek naslidan chiqqan Ajib siymodir, Bobur shoh. Navoiydek she’riyatda O‘zi dunyodir Bobur shoh”* deb ta’riflaydi.

O‘zbek she’riyatida Bobur mavzusiga ko‘plab murojat etgan shoirlardan yana biri O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyiddir. U Bobur ijodini sevib o‘rganadi. Shoir asarlaridagi Vatanga bo‘lgan sevgi, yurt ravnaqi uchun qayg‘urish tuyg‘usi ko‘p jihatdan Bobur ijodiga hamohangdir. Ayniqsa, uning “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur”(2011) dostoni o‘zgacha uslubi, tarix haqiqatlaridan so‘zlovchi jilvalari hamda shoh va shoirning, ichki – ruhiy kechinmalari, o‘y va iztiroblarini ochib berganligi bois ham kitobxonlar ko‘nglidan joy olgan. Mazkur doston S.Sayidning Zahiriddin Muhammad Boburga bo‘lgan hurmati, ayniqsu uning shoh asari – “Boburnoma” va g‘azal va ruboiylarini sevib mutolaa qilishi va ularni chuqur tahlil qilaolishi in’ikosi o‘laroq dunyoga kelgan asar deyish mumkin. O‘zbek she’riyatida bundan tashqari, M.Kenjabek, M.Mirzo, G‘.Majid kabi o‘nlab shoir va

ijodkorlar she’rlari mundarijasida ham Bobur mavzusiga alohida o‘rin berilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Abdulla Qodiriy. 2007. Diyor bakir. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Boltaboyev H. 1996. Abdurauf Fitrat. – Toshkent: Yozuvchi.
3. Boltaboyev H. 2004. Mumtoz so‘z qadri. – Toshkent: Adolat.
4. Goden, Rumer. 2007. Gulbadan. – Toshkent: Sharq.
5. Jabborov, Sh. 2008. Abdulla Oripov she’riyatida tarixiy shaxs talqini, – Toshkent. “Fan” .
6. Karimov B. “Boburnoma”dan “O‘tkan kunlar”ga.// Jahon adabiyoti. –Toshkent, 2019. №4.
7. Quvvatova, D., 2015. XX asr o‘zbek adabiyotida Bobur siymosi / “Turkiston” 15-mart.
8. Rashbruk, Vilyam. 2011. O‘n oltinchi asr bunyodkori (inglizchadan G‘.Sotimov va X.So‘fieva o‘zbek tiliga tarjimasi). – Toshkent: Sharq.
9. Sirojjiddin Sayyid. 2011. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. She’rlar. – Toshkent O‘zbekiston NMIU.
10. Vyurtle, Fris. 2012. Andijon shahzodasi (“Bobur – yo‘lbars”). Sarguzasht-qissa. – Toshkent: O‘qituvchi.
11. Sultonov, X. Boburning tushlari. –Toshkent, G‘afur G‘ulom. 1993.
12. Sultonov, X. Saodat sohili. – Tohkent, G‘afur G‘ulom. 2005.

Bobur – benazir islohotchi va bunyodkor shaxs
Babur is a unique reformer and creative person

Rahmon FARMONOV[1],

Annotasiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistondagi faoliyati tahlil qilingan. Maqola muallifi Boburning Hindiston impyeriyasida amalga oshirgan islohotlari, bunyodkorlik ishlari haqida ijodkorning o‘z asarlari: “Boburnoma”, “Mubayyan” va ayrim g‘azallari asosida fikr yuritgan.

Kalit so‘zlar: *Hindiston, Panipat, islohot, bunyodkorlik, “Boburnoma”, “Mubayyan”*

Abstract: The article analyzes the activities of Zahiruddin Muhammad Babur in India. The author of the article reflects on Babur's reforms in the Indian Empire, his work based on his own works: "Boburnoma", "Mubaiyaan" and some ghazals.

Keywords: *India, Panipat, reform, creativity, “Baburnama”, “Mubayyan”*

Kirish

O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi, mashhur davlat arbobi, atoqli sarkarda Zahiriddnn Muhammad Bobur qoldirgan ilmiy, tarixiy va adabiy myeros uzoq asrlar davomida butun dunyo tadqiqotchilarining diqqat-e'tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. U Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, jahon tarixida yetuk sarkarda va davlat arbobi sifatida nom qoldirgan bo‘lsa, adabiy-tarixiy yo‘nalishda yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan munosib joy oldi. Shoirning turli janrdagi she'rlari, g‘azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo‘lib, “Mubayyan”, “Risolai volidiya”, “Aruz risolasi”, “Xatti Boburiy” kabi risolalari islom huquqshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Bobur va Hindiston

Zahiriddin Muhammad Bobur Panipat jangidan so‘ng Hindistonni markazlashtirishni maqsad qilib qo‘ygan edi. Biroq mamlakatni birlashtirish uchun yangidan-yangi urushlar olib borishga to‘g‘ri kelardi.

Urush, o‘z navbatida, Boburdan katta salohiyat, armiyani jangovar holatda ushlab turish, qat'iy intizom va sog‘lom turmush tarzini talab qilar edi. Bobur ilgaridan rejalashtirib borilgan yana bir islohotini 1528 yilda amalga oshirishga qaror qildi, bu islomda man etilgan ichkilik masalasi edi. Bobur iloji boricha tabiat qo‘ynida piyoda va otda sayr qilishni xush ko‘rar edi. Shunday maqsadlarda

[1] *Rahmon Farmonov* – tarix fanlari doktori, professor, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Boburning o‘y-xayoliga nazmiy satrlar, mamlakatni obod qilish to‘g‘risida yangi rejalar kelardi. Ana shu “Sayr chog‘ida ko‘nglimga bir fikr keldi: har doim ko‘nglimda hamisha tavba tashvishi yurardi, shariatga xilof ish qilish hamisha ko‘nglimga g‘ubor solardi, dedimki, ey nafs:

Chand boshi zi maosiy mazakash,

Tavba ham bemaza nest bichash [Bobur, 2018: 428].

Boburning ichkilikdan voz kechishi, podshoh sifatida yangi tashkil etilgan Hindiston davlatida chog‘ir ichishni man qilinishi navbatdagi muhim islohot va ma'naviy jasorat edi. Holbuki, qanchadan-qancha oilalar may, chog‘ir ichishlar oqibatida barbod bo‘ladi, insonlar xulq-atvoriga ziyon yetadi. Bobur sindirilgan oltin-u kumushdan ishlangan ichkilik idishlarini beva-bechoralarga, darveshlarga ulashdi. Podshoh Boburga ergashib o‘sha kuni va ertasi uch yuzga yaqin beklar, askarlar va askar bo‘lmagan kishilar may ichmaslikka qasam ichib, tavba qildilar. Boburning buyrug‘iga binoan mavjud bo‘lgan sharob to‘kib tashlandi. Bobodo‘st keltirgan sharobga tuz solib sirkaga aylantirildi. May, chog‘ir ichishni man etuvchi farmon Bobur podshoh nomidan e'lon qilindi. Uning matnini Shayx Zayn tayyorladi: “Inson tabiati o‘zining yaratilishi bo‘yicha nafs lazzatlariga moyildir, zavq kyeltiruvchi yoqimli narsalarni tark etish Xudoning tavfiq berishiga va osmoniy ko‘makka bog‘liq. Bashar nafsi yomonlikka mayl qilishdan uzoq emas. “Nafsimni poklay olmadim, chunki nafs yomonlikka amr etguvchidir”. Undan qaytish bag‘ishlovchi Malikning lutf-marhamatidan boshqasi mumkin emas. Bu Ollohning ehsonidir, kimga xohlasa, baxsh etadi, Olloh katta ehson egasidir” [Bobur, 2018: 429].

Farmonda keltirilishicha, “tinchlik saqlangan mamlakatda (Xudo ofat va xavflardan omon qilsin) mutlaqo hech bir kishi ichkilik ichishga urinmasin, uni hosil qilishga tirishmasin, ichkilik yasamasin, sotmasin va olmasin, o‘zida saqlamasin, eltmasin va keltirmasin: “Ichkilikdan qochinglar, shoyadki, najot topsangizlar”. [Bobur, 2018: 429].

Podshoh Boburning bu farmoni uning qamrovida bo‘lgan barcha millat va elatlarga tegishli edi: “Podshohning myehribonchiligiga sig‘ingan turk, tojik, arab, ajam, hindi, forsiy fuqaro va sipoh – butun millatlar, hamma inson toifalari bu mangu baxshishga suyanib, umid tutib, abadiylikka birikkan davlatimiz duosiga mashg‘ul bo‘lsinlar va bu hukmlar ijrosidan tashqari chiqmasinlar va burilmasinlar, farmonga muvofiq ish olib borsinlar” [Bobur, 2018: 431].

Boburning xabar berishicha, bek va navkar, katta-yu kichik – hammasi istak bilan Qur'onni qo‘liga olib, ana shu mazmunda qasam ichib va'da byerdilar.

Zahiriddin Bobur Panipat jangidan so‘ng hali yurtda notinchlik davom etayotgan bir paytda 1526 yil o‘rtalaridan boshlab mamlakatda obodonchilik ishlarini boshlab yubordi. U muarrix Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si bilan yaxshi tanish bo‘lib, har sohada bobokaloni Amir Temurga taqlid qilar edi. Amir Temurning

bunyodkorlik ishlarini Hindiston sharoitida amalga oshirishni orzu qilar ekan, shunday bunyodkorlik-qurilish ishlariga katta e'tibor qaratdi. Boburning yozishicha, Hindistonning ob-havosi qurilish uchun noqulay bo‘lishiga qaramasdan yaxshi bir jihati shundaki, ishchi va hunarmandlari juda ko‘p, har bir narsa uchun muayyan kishilar belgilab qo‘yilgan. Ularning har biri ota-bobosi qilib kelayotgan ishni davom ettirib keladi. “Mulla Sharaf “Zafarnoma”da mubolag‘a bilan shunday bitgan ediki, Temurbek “Masjidi sang”ni qurayotganida har kuni Ozarboyjon, Fors, Hinduston va boshqa o‘lkalar sangtaroshlaridan ikki yuz kishi masjidda ishlardi. Bir Agraning o‘zida mening imoratlarimda har kuni ushbu Agra toshyo‘narlaridan olti yuz sakson kishi ishlardi. Yana Agra, Sekri, Bayana, Do‘lpur, Gvaliyar va Ko‘yilda har kuni bir ming to‘rt yuz to‘qson bir sangtarosh qurilishlarimda ishlardi. Hindustonda yana boshqa ko‘plab hunarmand va ishchilar haddan ziyod ko‘p”[Bobur, 2018: 403].

Demak, Bobur podshohligining ibtidosidan boshlab Hindistonni rivojlantirishga, undagi tabiiy va insoniy resurslarni ishga solishga katta e'tibor qaratildi.

Shu bilan birga, mamlakatni rivojlantirish, Hindiston aholisini tinchlantirish, ularning sharoitini yaxshilashga katta e'tibor qaratildi. Hindistonda ezgu ishlari orqali mahalliy aholining ishonchini asta-sekin qozona bordi. Eng muhimi, davlatni boshqarishda nafaqat musulmonlarga, balki hindlarga ham tayanib ish ko‘rdi. Lyekin har ikki tomondan uyushtirilgan suiqasdlar, fitnayu mojarolar davom etardi. Boburga nisbatan uyushtirilgan suiqasd – uning ovqatga qo‘shib berilgan margimush voqeasi o‘quvchilarga ma'lum. Vatan sog‘inchi, Movarounnahrni qo‘msash, uzoq davom etgan jangu jadallar Boburning tinkasini quritdi. Balki shundan bo‘lsa kyerak, Bobur 47 yoshida bu dunyoni tark etdi. Lekin qisqa vaqt ichida u juda ko‘p bunyodkorlik ishlarini amalga oshirdi. Boburning istak va orzulari Hindistonning ehtiyojlariga juda mos tushar edi. Shu jumladan, Bobur shaxsida Markaziy Osiyo, Eron va Hindiston xalqlari sivilizasiyalari bir-biriga qorishdi, Hindistonda nafaqat turli millat va elatlar, balki turli diniy va dunyoviy qarashlar, urfu odatlar qorishib umuminsoniy qadriyatlar shakllanishiga olib keldi. Boburning yozishicha, “Hindustonning bitta katta kamchiligi – unda oqar suvning yo‘qligi, deb o‘ylab yurardim. Qayerdaki o‘rnashishimiz lozim bo‘lsa, charxlar yasab, oqar suv o‘tkazib, reja bilan bog‘lar barpo qilsak bo‘ladi. Agraga kelganimizdan bir necha kundan keyin mana shu ishni deb Juun daryosidan o‘tib, bog‘ qurish uchun yerlarni ko‘rib chiqdik. Bu yerlar shu qadar ko‘rimsiz va xarob ediki, uni ko‘nglimiz tortmay va qoniqmay yana suvdan kechib, ketdik. Bu yerning ko‘rimsiz va yoqimsizligi tufayli chorbog‘ haqidagi fikrlarim ham xayoldan ko‘tarildi. Ammo Agraga buncha yaqin boshqa bo‘sh yer ham yo‘q ediki, bir necha kundan so‘ng ilojsiz, shu yerning o‘zida ish boshladik. Avval katta quduq qazildi, hozir hammom suvi o‘sha yerdan olinadi” [Bobur, 2018: 428].

Shunday qilib, Hindda yaxshi tartibli binolar va tekis bog‘lar barpo etildi. Shu bilan birga, Hindistonda qisqa vaqt ichida bog‘lar, gulzorlar, hovuzlar, hammomlar barpo etildi, kanallar qazildi. Bobur yurt obodligi va farovonligini yo‘llarni ta'mirlash va daryolardagi kyemalar qatnashi, bandargohlarni barpo etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratdi.

Yuqorida aytganimizdyek, Hindistonda chuchuk suv bilan aholini ta'minlash dolzarb muammolardan biri bo‘lgan. Masalan, Do‘lpurda quduq qazilib, quduqdan suv tortish jarayoni haqida Bobur shunday deb yozadi: “Do‘lpurda ishlaydigan sangtarosh, duradgor va barcha mardikorlarga Agradagi ustalar va ishchilar odatiga ko‘ra in'omlar bo‘ldi. Quduq suvida hid borligi bois ehtiyokorlik qilib, o‘n byesh kyecha-kunduz uning charxini tinmay aylantirib, suvini chiqarib tashlash tayinlandi”.

Bobur tabiat shaydosi edi, u bog‘lar barpo etish, Hindistonda ham shirin qovunlar yetishtirish, uzumzorlarni bunyod etishni orzu qilardi, chunki bunday ne'matlar Hindistonda mavjud emas edi. Boburning qovun va uzumga bo‘lgan muhabbati Movarounnahrga bo‘lgan sog‘inchini yanada oshirar edi. Bu holatni biz Boburning Xo‘ja Kalonga yozgan maktubidan yaxshi anglaymiz. Axir Kobulni poytaxtga aylantirish uchun Bobur ozmuncha aziyat chyekdimi? Hech bo‘lmasa, yurtga yaqinroq bo‘lgan Kobulga borishga vaqt topolmaydi: “Tangri taoloning ko‘magi bilan tez kunlarda saranjom bo‘ladi. Bu yerdagi ishlar yo‘lga tushib kyetsa, Tangri nasib qilsa, to‘xtab turmay Kobul sari yo‘lga tushaman. U yerlarning latofatini kishi qanday unutadi? Ayniqsa, ichishni gunoh bilib, tark etganda, qovun va uzumdyek shar'iy narsaning lazzatini kishi qanday qilib esdan chiqarsin. Yaqinda menga qovun keltirishgan edilar, kesib yeganimda, g‘alati ta'sir qildi. Rosa yig‘ladim” [Bobur, 2018: 479-480].

Boburning orzu-umidlari, niyatlari, armonlari ko‘p edi. O‘zi Hindistonda bo‘la turib, bu yerdagi insonlar haqida jon kuydirar ekan, beixtiyor xayoli Kobulga parvoz qiladi. Kobulni yana obod qilish, uning ichki qismi va atroflariga nihollar ekish, bitmay qolgan imoratlarni butlash uchun Humoyunga, Xo‘ja Kalonga, yaqinlariga maktublar, farmonlar jo‘natadi. Zahiriddin Bobur 1528 yildagi tashvish-u armonlarini Abdulloga bitilgan maktubida yozilgan ruboiysida quyidagicha ifodalaydi:

May tarkini qilgali parishondurmen,
Bilmon qilur ishimniyu hayrondurmen.
El borcha pushaymoi bo‘luru tavba qilur,
Men tavba qilibmenu pushaymondurmen [Bobur, 2018: 487].

Zahiriddin Bobur, yuqorida aytganimizdek, Hindistonda qovun yetishtirish va uzumzorlar barpo qilishni o‘zining mas'ul bog‘bonlariga buyuradi va ularni Hindistonda yetishtirishni yo‘lga qo‘yadi. “Balxlik bir dehqonni qovun ekish uchun qo‘ygandim. Bir necha qovun saqlab qo‘ygan ekan, olib keldi. Ancha yaxshi qovunlar yetilibdi. Bir-ikki tup tokni “Hasht bihisht” bog‘iga ektirgandim, u ham

yaxshi uzumlar solibdi. Shayx Guran ham bir savat uzum yuborgan ekan, uzumlari yomon emasdi. Hindustonda bunday qovun va uzum yetilishidan juda xursand bo‘ldim”.

Zahiriddin Bobur kunduz kunlari davlat ishlari, harb-u zarb, qurilish, obodonchilik yumushlari bilan band bo‘lsa, kechalari ijod bilan shug‘ullanar edi. Masalan, u Kobulni egallagach, 1564 yilda “Xatti Boburiy”ni ixtiro qiladi. Arab alifbosiga asoslangan bu yozuv o‘zbek tili tovushlari tizimiga mos keladi. 29 harfdan iborat bo‘lgan bu yozuvga Boburning zamondoshlari qiziqqan. Bobur Qur'oni karimni shu imloda ko‘chirtirib Makka va boshqa shaharlarga yuborgan. Zahiriddin Hindistonni zabt etgandan so‘ng Qandahorda turgan Komronga va Badaxshonda istiqomat qilayotgan Hindolga o‘zi yaratgan yozuvda maktublar jo‘natgan. [Bobur ensiklopediyasi, 2014: 536].

Bobur Mirzo shunchalik band bo‘lishiga qaramasdan o‘qish, yozishni hech qachon kanda qilmagan. U 1521 yilda “Mubayyin” nomli asarini nihoyasiga yetkazgan. Ma'lumki, Bobur davrigacha ko‘pgina diniy asarlar arab va fors tillarida bitilgan. Zahiriddin Bobur esa Islom dini aqidalari, fiqh (shariat) qonunchiligiga oid asarni masnaviy shaklda o‘zbyek tilida yaratgan. Bobur “Mubayyin”da Islom dinining byeshta farzini o‘ziga xos tarzda bayon etgan:

Kimki avval bo‘lsa bolig‘u oqil,
Anga byesh farzdur, buni bilgil.
Biri iymonduru ikkinchi salot,
Bu ikkidin kyeyin uchinchi – zakot [Bobur xazinalari, 2014: 12].

Bobur Mirzo kitob avvalida o‘g‘illari Humoyun va Komronga murojaat qilib o‘z nomlaringizga munosib bo‘linglar, haqiqiy mo‘min-musulmon bo‘linglar dyeb ularga vasiyat qiladi. Humoyun va Komronga, ular orqali butun xalqqa, insonlarga murojaat qiladi. Bobur farzandlariga vasiyat qilish orqali yosh avlodga dinni targ‘ib qilish, mamlakatni boshqarishda, uni idora qilishda dinu diyonatda mustaqil bo‘lishlarini tayinlaydi. Zyero, asarning yozilish maqsadi ham shundan iborat:

Bebaho dunyo ishi sahldurur,
Din ishin qilgay ulki, ahldurur.
Dinu donishda har kun afzun bo‘l,
Komron bo‘l jahonda, davlat ko‘r,
Yuz tuman obro‘yu izzat ko‘r [Bobur, 2018: 510].

Zahiriddin Bobur 1528 yil bemor bo‘lib qoladi va pir ustozlaridan bo‘lgan Xoja Ubaydulloh Ahror Valiyni yodga oladi. Yaxshisi, so‘zni Bobur mirzoning o‘zidan eshitsak: “Seshanba kyechasi, safar oyining yigirma yettinchisida hazrat Xoja Ubaydullohning “Volidiya” risolasini nazm qilmoq fikri ko‘nglimga keldi. Hazratning ruhiga iltijo qilib, ko‘nglimdan kechirdimki: agar bu manzuma hazratga ma'qul bo‘lsa, xuddi “Qasidai Burda”ning qasidasi ma'qul bo‘lib, sohibi falaj

kasalidan xalos bo‘lgani singari men ham bu xastalikdan forig‘ bo‘lsam, nazmim qabul qilinganiga shu dalil bo‘lardi. Ushbu niyat bilan... risolani nazm etishga kirishdim. O‘sha kechaning o‘zida o‘n uch bayt yozdim. Xuddi atayin kelishilgandek, har kuni o‘n baytdan kam bitilmas edi. Darvoqe, bir kungina bu ish qilinmadi. O‘tgan yili (1527 yil – R.F.) va balki har gal bu xastalikka chalinganimda, aqalli bir oy, qirq kun og‘rirdim. Tangri inoyati bilan, hazratning himmatidan payshanba kuni, oyning yigirma to‘qqizinchisida birozgina isitmaladim, keyin mutlaqo tuzalib ketdim. Shanba kuni, rabi ul-avval oyining sakkizinchisida risola so‘zlarini she'rga solish nihoyasiga yetdi...” [Bobur, 2018: 470].

Biroq Bobur hamma vaqt ham o‘z ijodini osoyishta kutubxonada o‘tirib davom ettira olmagan, chunki hayoti davomida ko‘pdan ko‘p turli o‘lkalaru qishloq shaharlarda ko‘chib yashashga to‘g‘ri kelgan. Ana shunday harbiy yurishlaridan birida 1528 yilda oxirlarida Saru daryosi qirg‘og‘idagi Katurmak mavzesida bo‘lganida Boburning hayotida tabiat bilan bog‘liq hodisa yuz beradi. “Shu oqshom tarovih namozidan so‘ng birinchi posdan (Hindistonda bir sutka, ya'ni 24 soat 8 nafarga bo‘lingan: 4 nafar kunduzgi va 4 nafar kechasi, nahor forschada “pos” deyilgan, demak, birinchi pos deganda kechaning boshlanishi nazarda tutiladi – R.F.) besh gariy o‘tganida, pashakaal bulutlari qaynab chiqib, bir zamonning ichida shunday to‘fang bo‘lib, qattiq shamol qo‘zgaldiki, yiqilmagan chodir deyarli qolmadi. Men chodir ichida o‘tirib yozayotgan edim, qog‘oz va daftarni yig‘ishtirishga ham ulgurmadim. Chodirni eshigi oldidagi pardasi bilan boshimga qulatdi. Chodir tyepasidagi kigiz bo‘lak-bo‘lak bo‘lib kyetdi. Tangri saqladi, hech qanday ziyon yetmadi. Kitob va daftar jiqqa ho‘l bo‘ldi. Ularni qiyinchilik bilan yig‘ishtirib oldilar. Jun sholchaga o‘rab, kat ostiga qo‘yib, ustiga gilamlarni yopdik. Bo‘ron ikki gariydan so‘ng tindi. Yig‘ma chodirni tiktirib, sham yoqtirdim. Mashaqqat bilan o‘t yoqib, tonggacha uxlamay, varaq va daftarlarni quritish bilan mashg‘ul bo‘ldik” [Bobur, 2018: 508-509].

Xulosa

Zahiriddin Bobur bunyodkor buyuk shaxs edi, hayoti davomida qanchadanqancha qiyinchilik va mashaqqatlarni bartaraf etdi. Kobulni, qolaversa, bugungi Afg‘oniston hududidagi mavzelarni obod qildi, yangi binolar qurdirdi, bog‘u rog‘lar barpo etdi, kanallar qazdirdi, ko‘priklar bino etdi. Hindiston zabt etilgach Boburning Hindistondagi ishlari ko‘lami yanada kengaydi. Bobur rahnamoligidagi barpo etilgan masjidlar, qurilgan binolar, hammomlar, hovuzlar va boshqa inshootlar qad ko‘tardi. Qishloq xo‘jaligi rivojlandi, bog‘u rog‘lar, gulzorlar paydo bo‘ldi. Asta-sekinlik bilan Hindistonni barcha tabiiy boyliklari Hindiston aholisi ravnaqiga yo‘naltirildi. Zahiriddin Bobur bor-yo‘g‘i to‘rt yil ichida Hindistonda zamonaviy davlatga asos soldi, boburiylar sulolasining tamal toshini qo‘ydi. Shu bilan birga, davlatning boshqaruv tizimiga katta e'tibor qaratdi. Bobur har jabhada boshqalarga

namuna bo‘lib turli islohotlarga qo‘l urdi. Bir vaqtning o‘zida ma'naviy sohaga katta e'tibor qaratdi, vaqtdan o‘ta barakali foydalanib o‘lmas asarlar yaratdi: “Xatti Boburiy”, “Boburnoma”, “Mubayyin”, “Volidiya”, “Muxtasar” nomli asarlar, betakror she'r-u g‘azallar so‘zimizga dalil bo‘la oladi.

Adabiyotlar:

1. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2018. Бобурнома. – Toshkent: Ўқитувчи.
2. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 1994. *Девон.* – Toshkent: Фан.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур хазиналари. 2014. Мубайян ва насрий баёни. – Toshkent.
4. Аёзий, Мирзо Муҳаммад Ҳайдар. Тарихи Рашидий. – Toshkent: Ўзбекистон, 2011.
5. Солиҳ, Муҳаммад. Шайбонийнома. – Т.: Ғафур Ғулом. 1989.
6. Амир Темур. Темур тузуклари. – Т., 2015.
7. Азимжонова, С. Государство Бабура в Кабуле и Индии. – М.: Наука, 1977.
8. Азимжонова, С. “Бобурнома” қандай ёзилган? // Гулистон, 1990.
9. Бўриев, О. 2017. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё тарихий географияси. Монография. – Toshkent: Мумтоз сўз.
10. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. – Toshkent: Шарқ, 2014.
11. Ламб, Х. 2018. Бобур – йўлбарс. – Toshkent: Ўзбекистон,
12. Мавлонов, И.Р. Бобурийлар сулоласининг Ҳиндистонда иқтисодий бошқарув тизими. – Toshkent: 2021. ЖИДУ.
13. Хидоятов, Г. 2004. История дипломатии. – Toshkent: УМЭД,
14. Хошимова, М. ва бошқалар. 2013. Ўрта асрлар дипломатияси ва халқаро муносабатлар тарихи. – Toshkent.
15. Ҳошимов, И. 1996. Ҳиндистонда бобурийлар сулоласи салтанати. –Тошкент: Ўқитувчи.

Историко- культурное наследие Бабура
Boburning tarixiy-madaniy merosi

Ёркиной АЛТМИШЕВА[1]

Аннотация: В данной статье рассказывается об архитектурных памятниках и сооружениях водоснабжения, построенных в Афганистане и Индии, упомянутые в «Бабурнаме», основателем династии Бабуридов Захириддином Мухаммадом Бабуром. Описываются особенности планирования и использования традиционного стиля зодчества Мавераннахра и Хорасана.

Ключевые слова*: культурная жизнь, Восточный Ренессанс, архитектура, плотина, ваин, колодец, ям.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada «Boburnoma» da eslatib o‘tilgan, Afg‘oniston va Hindistonda Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan qurilgan me’moriy yodgorliklar va suv inshootlari haqida so‘z boradi. Movarounnahr va Xurosonning me’morchilikda rejalashtirish va an’anaviy uslublaridan foydalanish xususiyatlari tasvirlangan.

Kalit so‘zlar: *madaniy hayot, Sharq Uyg‘onishi, arxitektura, to‘g‘on, vain, quduq, yom.*

Общеизвестно, что Амир Темур и, вслед за ним, его потомки-правители в Мавераннахре, Хорасане в своих государствах проводили ряд преобразований в целях усовершенствования социально-экономической и культурной жизни средневекового Востока.

Название периода правления Темура и его потомков Вторым Восточным Ренессансом можно считать вполне закономерным. В доме тимуридов стало традицией призывать во дворец на ряду учёными эпохи известных мастеров-строителей, искусных ремесленников. Вследствии этого в период Второго Ренессанса зарождается оригинальная архитектура с элементами арабской и персидской культуры, имевшая особое место в зодчестве Мавераннахра и Хорасана.

При анализе исследований по изучению культурного наследия Бабура в Узбекистане, в данное время находящемся на новом этапе своего развития – этапе национального возрождения, наблюдается комплекскное изучение историко-культурного наследия Бабура и бабуридов в течение существования Великой империи Бабуридов. Исследования, проведенные нами, показывают,

[1] Ёркиной АЛТМИШЕВА – Андижанский государственный институт иностранных языков, доцент, д.ф.ф.н.(PhD)

что изучению культурного наследия именно самого основателя империи посвящено очень мало работ: В. Рахмонов, А. Олим, Ж.Собиров, М. Абдуллаев, Гильманова Н.В. (Архитектура Темуридов в миниатюре. Монография. 2021), Рагглз, Д. Фэйрчайлд и другие.

Актуальнось изучения культурного наследия, на ряду философских, эстетических, религиозных ценностей народа еще раз подчеркивает необходимость нашего исследования.

В период развития государства его культурные ценности, особенно архитектура, градостроительство, сооружения водоснабжения, на ряду с другими сферами историко-культурной жизнидеятельности страны, переживает серьёзные изменения. Здесь существуют объективные, социально-политические изменения в обществе в целом, где отражается не только количественные, но и качественные изменения, а следовательно, преобразования и в культурном облике страны.

Основная часть. Развитие и внесение изменений в существующий образ культуры многонационального народа Индии состоит из возникновения новых понятий и исчезновения других. В процессе прогресса происходят корректировки в отношении лексических единиц к литературным нормам, использовании и других свойствах.

Предостерегая от слишком легкого упрощения исламских садов как имеющих единое значение или отражающих единую идентичность, Рагглз, Д. Фэйрчайлд описала эти сады как «выражения памяти, выбора места, положения человечества в великом космосе, воображения, рациональности, политической власти и стремления к вечности» [Рагглз, Д. Фэйрчайлд, 2008: 144].

Во многих странах мира культурное наследие Бабура и бабуридов считают продолжением традиций великого пращура в Центральной и Южной Азии.

Заслуги Захириддина Мухаммада Бабура в строительстве новых архитектурных памятников и сооружений водоснабжения, создании садов ничем не уступают политической, литературной, учёной деятельности правителя. Как основатель великой империи в Индии, он внёс несравненный вклад в культурное развитие страны. Бабур создал в Индии несколько архитектурных памятников, садов и мечетей, каналов и водоёмов. Историки утверждают, что дед императора Абу Саид Мирзо проводил арыки и строил мосты, множество каравансараев, создавал новые сады.

Появление сочинения Захириддина Мухаммада Бабура «Бабурнаме», императора и полководца, послужило важным источником в изучении тюркской истории средних веков, в основном, истории династий темуридов и бабуридов [Алтмишева, 2021: 168]. Не вызывает сомнений тот факт, что

созидательность в характере Бабура перешло и его потомкам. По архитектурным памятникам становится очевидным проникновение идей и восточного стиля архитектурного искусства великого предка в культуре Индии и Афганистана. Памятники зодчества эпохи Бабура приобретают среднеазиатское величие, богатство орнаментов в сочетании особенностей мусульманской и индийской архитектуры, представляя шедевры Восточного зодчества [Sobirov, Abdullaev, 2021:14].

В Индии известны три мечети эпохи правления Бабура. Это мечеть в «Кабули Баг» в Панипате и еще две мечети в Самбхале и в Айодхье. Мечеть Кабули Баг в Панипате расположена в штате Харьяна, строительство этой мечети было завершено в 1528 году. В центральной части мечети возвышается фронтон, обращенный к Кибле. Михраб мечети выполнены из камня, остальные стены здания кирпичные, поверхность оштукатурена. Надпись аятов Корана на белом мраморе относится к 1527-1528 годам. Несмотря на то, что индийские мастера при строительстве использовали некоторые местные архитектурные стили, общая архитектура мечети Кабули-Бог близка к архитектурному комплексу Бибиханим в Самарканде.

Мечеть «Самбхал» расположена в одноименном оазисе, в 140 км от Дели. На одной из индийских миниатюр того периода изображен Бабур, верхом на коне перед минаретом, напоминающим мечеть в Самбхале. В «Бабурнаме», Бабур упоминает о том, что строительство этой мечети, было поручено родственнику Миру Хиндубеку в 933 году хиджры 1526 года нашей эры [Sobirov, Abdullaev, 2021:14].

Третья из мечетей Бабура была возведена в 1527-1529 годах одним из последователей Бабура Мир Баки Ташканди в селе Айодхья Файзабадского района, на берегу реки Гагара. На основании перевода надписи на центральном куполе утверждают, что восстановлением этой мечети руководил лично правитель страны Бабур.

Строительство чарбагов развивалось в Мавераннахре в эпоху Темуридов. Применив среднеазиатский стиль, Бабур создавал в Кабуле и Индии несколько десятков чарбагов-садов. В 1506 г. Бабур в Кандагаре создаёт «Кандагарский чарбаг», позже в этом же городе разбивает «Баги чарбаг», расположенный у побережья Арганбаба [Захириддин Мухаммад Бабур энциклопедияси, 2017: 280].

В 1508 г. наследный принц Хумаюн Мухаммад Насриддин родился во дворце Баласар, построенный Бабуром. В честь рождения сына в 1508 году Бабур заложил в городе Адинапур сад под названием «Баги Вафа (Сад верности)», в который были посажены фрукты и декоративные деревья из Мавераннахра. Сад был разбит на южной стороне укрепления и между

укреплением и садом протекала речка. При его строительстве Бабур применил высокие образцы архитектуры и садоводства. У падишаха был дар тонко чувствовать красоту, выбирать место, подходящее для сада, спроектировать план. Он с любовью ухаживал за садом и очень любил здесь отдыхать. Накануне крупного похода в Индию Бабур прибыл в Баги Вафа и ожидал здесь прибытия Хумаюна со своей армией.

В «Бабурнаме» даётся особое описание сада: «В этой летописи уже неоднократно упоминалось о пределах и границах Баги Вафа, его приятности и достоинствах. Это очень приятный сад: всякий, кто взглянет на него глазами покупателя, поймет, что это за место» [Бабур, 1992: 198].

Автор с восторгом описывает подробности строительства сада в своих мемуарах: «После этого разбили садик вокруг моих личных покоев и построили сами комнаты; затем построили баню. Таким образом, в этом неприглядном и неблагоустроенном Хиндустане появились прекрасные сады, разбитые по хорошему плану» [Бабур, 1992: 233]. Правителя беспокоит отсутствие проточной воды в стране. После прихода в Агру, он ищет место, где можно было бы разбить сад. Велит вырыть колодец, из которого можно брать воду для бани [Бабур, 1992: 233].

«То помещение бани, где находится горячий водоём, сплошь выложили камнем. Нижняя часть стен была из белого камня; все остальное, пол и потолок — из красного камня, который [привозят] из Бианы. Его соратники тоже следуя его примеру, разбивают сады и сооружают водоёмы: Халифа, шейх Зайн, Юнус Али. Они поставили колеса по лахорскому и дибальпурскому способу и провели проточную воду. Так как жители Хиндустана не видывали садов, разбитых по такому плану и столь стройно, они назвали ту сторону Джуна, где находились эти сооружения, «Кабулом»» [Бабур, 1992: 234].

В период обоснования в Индии, на побережье Джамны в Агре построил чарбаг Зарафшан с оросительными колесами. Бабур ввел в традицию строить усыпальницу в середине чарбага и таким образом, строительство чарбагов слилось с зодчеством. Первый сад в Индии, созданный в Агре в самаркандском стиле (1528 г.) назван баги Зарафшан, построен по плану, составленному лично Бабуром и на выбранном им месте. К этому времени империя Бабура достигла стабильности, правитель решил посвятить оставшуюся жизнь творчеству. Здесь прошла передача власти Хумаюну. Бабур был похоронен в этом саду, впоследствии его прах был перенесен в Кабул.

Ещё один из садов Бабура Баги Фатх (Сад Победы) построен был в 1527 г. на склонах горы Секри недалеко от Агры на месте решающей битвы, в честь победы над Раной Санга. Когда Бабур взошел на престол Индии в 1528 г. он решил отпраздновать Ийд аль-Фитр в Баги Фатх. Бабур с грустью вспоминает,

что ему никогда не удавалось провести праздник два раза в одном месте. На этот раз празднует в северо-западной стороне сада Баги Фатх, в Сикри, где была воздвигнута каменная Суфа. Во время прогулки в Дулпур Ниже плотины Султана Искандера, где кончается гора, Падишах находит большую глыбу красного строительного камня. Немедленно приказывает мастеру-каменотесу выровнять глыбу и продолбить в камне хауз [Бабур, 1992: 256]. Внутри крепости дворца Ибрахима велит построить большой ваин **(**большой колодец в три этажа**)** [Бабур, 1992: 234]. Рядом с этим колодцем вырыли другой колодец; дно этого колодца немного выше середины первого колодца; бык, вращающий колесо в упомянутом сводчатом помещении, поднимает воду из первого колодца во второй. Во втором колодце поставили еще одно колесо, которое поднимает воду на насыпь; по насыпи вода идет в верхний сад [Бабур, 1992: 234].

Знаменитый своей красотой Баги Сафа был построен недалеко от г.Адинапур на благодатном и чистом месте рядом с источником у подножия горы [Бабур, 1992: 224]. Лично осматривает местность Фирузпур с его источником и приказывает положить тесаные камни размером десять на десять [кари]. В другом месте, в верховьях источника, приказал построить восьмиугольный хауз из тесаного камня» [Бабур, 1992: 254]. В целях усовершенствования облика местности Бабур решил сад превратить в архитектурный комплекс, построил в саду мечеть, баню и колодец: «я остановился в саду с беседкой, который я приказал разбить в одном курухе к западу от Дулпура. выдолбить в каменной глыбе хауз, где растут много деревьев. Среди этих деревьев я распорядился выкопать колодец площадью десять на десять [кари]; устройство колодца приближалось к концу. Выше плотины Султана Сикандара скопились дождевые воды и образовалось большое озеро; к востоку от озера есть сад. На восточном краю озера я приказал вытесать из глыбы камня сидения в виде суфы, а на западном краю построить мечеть [Бабур, 1992: 262].

Бабур выбрал сам место для Баги Нилуфар **(**Сада Лотоса) на склоне горы из красного песчаника, на берегу реки Чамбал. В саду в стиле чарбаг построено молитвенная комната, пруд, навес, каменная платформа, фонтан и система водоснабжения. Сады с прудами с кувшинками и колодцами создавались в Индии и раньше, но парки для отдыха в форме чарбага датируются эпохой Бабура. В саду сохранилось самый большой пруд в форме лотоса и несколько колодцев [Бабур, 1992: 272]. Вокруг сада и в окрестностях были назначены места и участки для беков и приближенных, где они могли воздвигать постройки и разбивать сады. В своих мемуарах Падишах отмечает: «…я назначил в юго-восточной части сада место для бани и его разровняли; затем я

распорядился заложить на этом ровном месте фундамент бани и начертить план постройки. В одном из помещений бани я велел устроить хауз площадью десять на десять [кари]» [Бабур, 1992: 274]. Как заботливый государь во время переездов попутно исправляет дороги: «я послал расторопных надсмотрщиков и множество землекопов сгладить неровности дороги и вырубить заросли» [Бабур, 1992: 274]. Около Газни создал сад Баги Назаргах и поручил уход Хаджа Калану. Выкупил сады Баги Калан и Баги Наврузи (где похоронил мать Кутлук Нигарханум), разбитые тимуридом Улугбеком Кабули и занялся благоустройством.

Осматривая все дворцы Ман Синга и Бикрамаджита, не скрывает своё восхищение перед архитектурными шедеврами местных правителей: «это

удивительные постройки, хотя они разбросаны в беспорядке и без плана. Дворцы эти возведены целиком из тесаного камня; из всех дворцов, построенных раджами, дворцы Ман Синга самые лучшие и самые высокие. Высотою они будут в сорок или пятьдесят кари; они все из тесаного камня и поверхность их выбелена известью. В некоторых частях этого дворца четыре яруса [Бабур, 1992: 264]. В качестве знатока искусства архитектуры изучает особенности индийского зодчества: «На одной стороне дворца — пять куполов; между этими куполами стоят маленькие купола, по хиндустанскому обычаю четырехгранные. Пять больших куполов обиты листами вызолоченной меди; внешняя сторона стен покрыта зелеными изразцами. Стены кругом украшены изображениями растений банана из зеленых изразцов. В четверг, одиннадцатого числа, каменный колодец, двадцать шесть каменных желобов, каменные столбы и каналы, выдолбленные в глыбе камня, были готовы. В тот же день из колодца начали поднимать воду». В своем завещании император просит сыновей не останавливать работы по благоустройству: «Еще следует привести в порядок караван-сараи и бани, достроить кирпичный портик в арке, наполовину воздвигнутый Устад Хасан Али [Бабур, 1992: 277]. Наставляет детей возводить постройку по какому-нибудь красивому плану так, чтобы её пол был на одном уровне с полом дивана. Велит содержать в порядке плотину на Малом Кабуле, которая должна задерживать воду реки БутХак в том месте, где она впадает в Малый Кабул, починить плотину Газни, добыть воду, достаточную для одной мельницы, и провести её в саду в аллее» [Бабур, 1992: 277].

Недалеко от Агры Бабур создал сад и на его территории построил баню, и для обеспечения её водой была сооружена трехэтажная система водоснабжения – ваин (пруд-колодец с лестницей). (1526/27гг.). Отличительной чертой данного вайна, являлось водопроводное сооружение и архитектурный памятник. На самом нижнем уровне были расположены три террасы, каждая из которой была

выше другой на три ступени, служащие для подъёма воды. Напротив дороги был установлен камень с записанной на нём историей сооружения. К этому вайну был добавлен еще один колодец. Его дно было немного выше первого колодца. Во время приведения в движение водяного колеса вода поднималась из первого колодца во второй, где при помощи еще одного колеса поднималась еще на один уровень и текла в сторону сада. Ваин был создан большими трудовыми усилиями.

Система связи ***ям*** в государстве Темуридов осуществляла деятельность срочной доставки важных сообщений, писем и вещей во дворец правителя и наоборот, распространения указов и поручений. В государстве Бабура от Агры до Кабула на каждом двадцатом километре были построены пункты связи (остановки) и установлены башни для охраны: «Через каждые девять курухов им надлежало ставить башенку, высотой в двенадцать кари, а на башенке установить караульную будку» [Бабур, 1992: 271].

Заключение. У нас есть великое наследие архитектурных памятников и сооружений водоснабжения эпохи Бабура и Бабуридов. Сегодня внимание мировой общественности привлекают множество памятников, построенных Бабуром и его потомками в Индии, Пакистане и Афганистане.

Из истории известно, что Тимуриды были не разрушителями, а строителями и созидателями. В «Бабурнаме» упоминаются сады, созданные правителями-тимуридами в Афганистане: Баги Калан в Исталифе, Баги Зубайда, Баги Сафед, Баги Хиёбон (Сад-аллея), Баги Нав (Новый сад), Баги Шахр (Городской сад), Баги Жахонаро, Баги Назаргах – в Герате, Баги Наврузи, Баги Бихишт (Райский сад), Баги Юрунчка, Баги Хилват (Сад уединения) – в Кабуле, Баги Бинафша (Сад фиалок) – вблизи Кабула, Баги Подшахи (Сад Падишаха) – в Истаргаче.

Захириддин Мухаммад Бабур, как созидатель проводил работы по благоустройству страны, построив мечети, сады, бани и в Афганистане и Индии, ввёл новые стили в создании садов-комплексов в империи, сочетая по традиции Тимура. Он построил крупные водные сооружения, открыл школы, восстановил пункты связи ям, создал широкие возможности для развития народного благосостояния, культуры и экономики. Он приобрел известность среди афганского и индийского народов и оставил имя творца своими добрыми делами.

Литература

1. Алтмишева, Ё. 2021. «Бабурнаме» как образец мемуарной литературы востока. *Языки и литература в поликультурном пространстве* (сс. 168-170).

2. Бабур Захириддин Мухаммад.1992. Бабурнаме. – Ташкент: Главная редакция энциклопедий.

3. Гильманова, Н. 2019. Архитектура Темуридов и Бобуридов отраженная в миниатюре. – Ташкент.
4. Dale Stephen, F. 2004. The Garden of the Eight Paradises. Babur the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483-1530). Brill Academic Pub.
5. «Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси», 2017.—Ташкент: «Sharq» Нашриёт-Матбаа Акциядорлик Компанияси Бош Таҳририяти, – 688 б.
6. Рагглз, Д. Фэйрчайлд, 2008. Исламские сады и пейзажи. – Филадельфия: Издательство Пенсильванского университета.
7. https://inscience.uz/index.php/socinov/index Architecture of Babur and Baburi in India. J. Sobirov, M. Abdullaev *Бобур ва бобурийларнинг Хиндистондаги меъморчилиги* Жамият ва инновациялар - Общество и инновации –Society and innovations Journal home page:

Дипломатические отношения Бабура с государствами Центральной Азии
Diplomatic relations of babur with the states of central asia

Мукарам ТАШАЛИЕВА[1]

Аннотация: В данной статье рассматриваются дипломатические отношения Захириддина Мухаммада Бабура с государствами Центральной Азии в контексте его политической стратегии и внешне-экономических интересов. Бабур, основатель Монгольской империи в Индии, имел сложные и многослойные дипломатические отношения с государствами региона, включая Узбекистан, Иран и Среднюю Азию. Во-первых, анализируются отношения Бабура с правителями Центральной Азии, такими как Шейбаниды и Тимуриды, а также его попытки укрепить связи и заключить союзы для поддержки своих военных кампаний. Во-вторых, рассматривается роль дипломатических миссий и переговоров, которые Бабур использовал для укрепления своих позиций и обеспечения стратегических альянсов. В-третьих, исследуются последствия этих отношений для его завоевательных планов и внутренней политики, включая влияние на управление и стабильность в завоеванных территориях.

Основное внимание уделяется тому, как дипломатическая стратегия Бабура способствовала его успешному продвижению и завоеванию новых земель, а также как взаимодействие с государствами Центральной Азии повлияло на его долгосрочные цели в Индии. Через анализ дипломатических переговоров, соглашений и конфликтов, предоставляет глубокое понимание того, как Бабур использовал дипломатию для достижения своих стратегических целей и формирования будущего Монгольской империи**.**

Ключевые слова: *Бабур, Могольская империя, автобиография Бабура, история Монгольской империи, завоевания Бабура, Центральная Азия, наследие Тимуридов, военная стратегия.*

Annotation: This study examines Zahiriddin Muhammad Babur's diplomatic relations with the Central Asian states in the context of his political strategy and foreign economic interests. Babur, the founder of the Mughal Empire in India, had complex and multi-layered diplomatic relations with the states of the region, including Uzbekistan, Iran, and Central Asia. The study covers several key aspects. First, it analyzes Babur's relations with the rulers of Central Asia, such as the Shaybanids and Timurids, and his attempts to strengthen ties and forge alliances to support his military campaigns. Second, it examines the role of diplomatic missions

[1] Мукарам ТАШАЛИЕВА – КУМУ имени Б. Сыдыкова, кандидат исторических наук, доцент.

and negotiations that Babur used to strengthen his position and secure strategic alliances. Third, it examines the implications of these relations for his plans for conquest and domestic politics, including the impact on governance and stability in the conquered territories. The focus is on how Babur's diplomatic strategy contributed to his successful advance and conquest of new lands, and how his interactions with the Central Asian states affected his long-term goals in India. Through an analysis of diplomatic negotiations, agreements, and conflicts, this study provides a deep understanding of how Babur used diplomacy to achieve his strategic goals and shape the future of the Mughal Empire.

Key words: *Babur, Mughal Empire, Baburnama, History of the Mughal Empire, Babur's Conquests, Central Asia, Timurid Legacy, Babur's Military Strategy.*

Введение

Захириддин Мухаммад Бабур, основатель Монгольской империи в Индии, активно использовал дипломатию как инструмент своей политической и военной стратегии. Центральная Азия, откуда Бабур происходил и где он начинал свою карьеру, сыграла ключевую роль в его дипломатических усилиях. Дипломатические отношения Бабура с государствами Центральной Азии, таким как Шейбанидское ханство, Тимуриды и Иран, а также их влияние на его завоевательскую деятельность и внутреннее управлении, его дипломатическая деятельность в Центральной Азии, на Родине, сыграла ключевую роль в формировании его политической стратегии и в успешных завоеваниях. Период начала 16 века был временем значительных изменений в Центральной Азии, где многочисленные государственные образования и династии вели борьбу за власть, влияние и территорию. О взаимоотношениях Бабура с правителями Центральной Азии, такими как Шейбаниды и Тимуриды, а также о его усилиях по укреплению связей и заключению союзов.

Шейбаниды были важной политической и военной силой в Центральной Азии в XV-XVI веках. Их правитель, *Мухаммад Шейбани*, являлся основателем династии, которая оспаривала власть над регионами, находящимися под контролем Тимуридов и других местных правителей. Бабур, будучи потомком Тимуридов, сначала сталкивался с Шейбанидами в результате их агрессии. Шейбани и его последователи оказались серьезной преградой для Бабура на ранних стадиях его завоеваний. В 1504 году, после того как Бабур потерпел поражение от Шейбанидов, он вынужден был отступить в Афганистан. Впоследствии, Бабур стремился наладить мирные отношения с Шейбанидскими правителями через дипломатические и политические маневры. Например, после взятия Бабуром Кабула, он использовал дипломатические средства для ослабления давления со стороны Шейбанидов.

Тимуриды были династией, основанной Тимуром (Тамерланом), предком Бабура. После смерти Тимура в 1405 году, династия пережила периоды политической нестабильности, что позволило различным правителям конкурировать за контроль над Центральной Азией. Бабур, как потомок Тимура, пытался восстановить влияние своей династии в Центральной Азии. Он стремился восстановить влияние Тимуридов на территории, которые когда-то были под их контролем. В начале своего правления, Бабур столкнулся с трудностями из-за разногласий и конфликтов с другими представителями Тимуридской династии. Его отношения с потомками Тимура были сложными, и он часто искал пути для дипломатического урегулирования споров и конкуренции.

Дипломатические усилия: Бабур использовал дипломатию для заключения союзов и укрепления позиций своей династии. Он активно искал союзников среди правителей Индии и Центральной Азии, чтобы получить поддержку для своих военных кампаний. Одним из заметных примеров его дипломатических усилий является его союз с правителем Дели, *Ибрагим Лоди,* который стал важным стратегическим партнером. Однако позднее, в 1526 году, после победы Бабура в битве при Панипате, Лоди был свергнут, что позволило Бабуру закрепить свою власть в Северной Индии.

Военные кампании и альянсы: В своих военных кампаниях Бабур пытался заручиться поддержкой местных правителей и военачальников. Его стремление укрепить связи и заключить альянсы, было направлено на создание устойчивой коалиции против общих врагов, таких как Шейбаниды и другие правители, угрожавшие его амбициям. Например, в своей кампании в Индии Бабур часто использовал стратегические союзы с местными правителями, что способствовало его успешному завоеванию и укреплению контроля над новыми территориями. В целом, Бабур проявил значительное мастерство в дипломатии и стратегических альянсах, что позволило ему успешно управлять своим государством и укрепить влияние Монгольской империи. Бабур, как основатель Монгольской империи, активно использовал дипломатические миссии и переговоры для укрепления своих позиций и обеспечения стратегических альянсов. В условиях сложной политической ситуации в Центральной Азии и Южной Азии, он применял разнообразные дипломатические стратегии для достижения своих целей.

В начале своего правления Бабур искал союзы с местными правителями, такими как Шер Шах Сури, для стабилизации своего положения. Хотя этот союз был недолгим, он продемонстрировал стратегическую гибкость Бабура. В процессе завоевания Северной Индии Бабур заключал союзы с различными местными правителями и султанами, чтобы укрепить свои позиции и

обеспечить стратегическое преимущество. Например, его союз с местным правителем Капуром и другие подобные соглашения позволили ему укрепить свои силы в регионе. Бабур использовал браки как способ заключения альянсов и укрепления политических связей. Например, он заключил браки с членами различных правящих династий Центральной Азии и Северной Индии. Эти браки служили не только политическим целям, но и помогали создать союзников среди местных элит.

В ходе своих кампаний Бабур проводил переговоры с Шейбанидскими правителями, пытаясь договориться о мирных соглашениях или перемирии. Хотя его отношения с Шейбанидскими правителями были напряженными, Бабур использовал переговоры для временного снижения давления и улучшения своего стратегического положения. Внутри династии Тимуридов, Бабур также участвовал в переговорах с другими претендентами на трон, чтобы укрепить свои позиции и установить более устойчивые отношения с представителями династии. Бабур активно использовал разведывательные миссии и обмен послами для сбора информации о политической ситуации и возможных союзниках. Эти миссии помогали ему оценить силы и намерения других правителей и принимать более обоснованные решения. В случае сражений и конфликтов, Бабур стремился заключать мирные соглашения и перемирия с целью сосредоточения своих ресурсов на более значимых стратегических целях. Такие соглашения позволяли ему временно уменьшить военное давление и укрепить свои позиции в ключевых регионах. Бабур также использовал секретные переговоры и тайные альянсы для обеспечения своих стратегических интересов. Эти мероприятия часто включали переговоры с местными правителями, которые могли быть заинтересованы в изменении политической ситуации в своем регионе. Дипломатические усилия Бабура способствовали укреплению внутренней стабильности империи. Заключенные союзы и мирные соглашения позволили ему сосредоточить внимание на управлении новыми территориями и развитии внутренней инфраструктуры. Благодаря успешным дипломатическим маневрам Бабур смог расширить территорию своей империи и укрепить свое влияние в регионе. Его способность налаживать стратегические связи и устанавливать альянсы сыграла ключевую роль в успехе его завоеваний. Дипломатические усилия также способствовали признанию легитимности Бабура, как правителя. Его дипломатическая активность помогла укрепить имидж Монгольской империи на международной арене и обеспечить поддержку от различных политических и военных кругов.

Путем заключения династических браков и политических союзов он смог укрепить свои позиции в завоеванных территориях. Бабур активно включал

местных правителей и элиты в управление завоеванными территориями, что способствовало их лояльности и укреплению контроля над новыми регионами. Бабур стремился интегрировать завоеванные территории в свою империю, внедряя административные реформы и укрепляя контроль над новыми регионами. Его дипломаты и администраторы работали над адаптацией местных управленческих структур к новым условиям. Бабур инвестировал в развитие инфраструктуры в завоеванных территориях, что способствовало экономическому росту и улучшению жизни местного населения. Это включало строительство дорог, каналов и других важных объектов. Включение местных традиций и практик в управление завоеванными территориями помогло создать гармонию между новыми и существующими элементами общества. Это способствовало социальной интеграции и снижению потенциальных конфликтов.

Дипломатические усилия Бабура и его усилия по интеграции местных правителей в систему управления способствовали стабильности и преемственности власти в его империи. Это подготовило почву для устойчивого правления его преемников. Дипломатическая активность Бабура оставила значительное наследие, которое продолжало оказывать влияние на политику и управление Монгольской империей в последующие годы. Его усилия по укреплению связей и интеграции завоеванных территорий сыграли ключевую роль в создании устойчивой и влиятельной империи.

Заключение

Дипломатические усилия Бабура сыграли ключевую роль в формировании и укреплении Монгольской империи, что имело глубокие последствия, как для его завоевательных планов, так и для внутренней политики. Его стратегическое использование дипломатии помогло ему преодолеть многочисленные вызовы и создать мощное государственное образование, которое оказало значительное влияние на историю Южной Азии. Роль дипломатических усилий в завоевательных планах Бабур, осознавая сложную политическую ситуацию в Центральной Азии и Южной Азии, использовал дипломатические отношения для достижения своих военных и стратегических целей. Заключение альянсов с местными правителями и другими государственными образованиями позволило ему значительно укрепить свои позиции и сосредоточить ресурсы на ключевых противниках. Союзы с правителями Индии и Центральной Азии помогли ему обеспечить стратегическое преимущество и поддержку в завоевательных кампаниях. Бабур заключал союзы с местными правителями и султанами, что позволило ему эффективно противостоять таким угрозам, как Шейбаниды и Ибрагим Лоди. Альянсы позволили ему стабилизировать фронты и сосредоточиться на

расширении территории империи. Переговоры о мирных соглашениях и перемириях помогли Бабуру временно уменьшить военное давление, что дало ему возможность укрепить свои позиции и расширить территорию. Дипломатические усилия Бабура оказали значительное влияние на внутреннюю политику и управление завоеванными территориями. Их последствия проявились в улучшении управления, укреплении политической стабильности и создании условий для устойчивого развития. Бабур активно внедрял административные реформы для интеграции завоеванных территорий, что включало создание новых управленческих структур и назначение местных правителей. Эти реформы способствовали эффективному управлению и поддержанию порядка в империи. Династические браки и альянсы помогли создать сеть лояльных правителей, что способствовало укреплению политической стабильности. Это снижало риск восстаний и конфликтов в завоеванных территориях. Бабур инвестировал в развитие инфраструктуры, что способствовало экономическому росту и улучшению жизненных условий населения. Развитие дорог, каналов и других инфраструктурных объектов способствовало интеграции завоеванных территорий и улучшению связей внутри империи. Дипломатическая активность Бабура оставила значительное наследие, которое продолжало оказывать влияние на Монгольскую империю после его смерти. Его подход к управлению, укреплению связей и интеграции завоеванных территорий стал основой для успешного правления его преемников. Наследие Бабура в виде дипломатических стратегий и административных реформ оказало глубокое влияние на последующее развитие Монгольской империи, обеспечив ее долговечность и мощь.

В итоге, дипломатические миссии и переговоры Бабура оказались критически важными для его успешного правления и формирования мощной Монгольской империи. Их влияние проявилось не только в успешных завоевательных кампаниях, но и в создании устойчивого и стабильного государства, которое продолжало оказывать влияние на Южную Азию на протяжении следующих столетий.

Литература

1. Штейнхардт, Й. Babur and the Central Asian Context (изучает политическое и военное окружение Центральной Азии, в котором действовал Бабур).
2. Гусев, А. Central Asia and the Rise of the Mughal Empire (анализирует, как политическая и военная обстановка в Центральной Азии повлияла на Бабура и его завоевания).
3. Мельников, В. (Valery S. Melnikov). The Timurid Legacy: Central Asia and the Early Mughals (исследует наследие Тимуридов и его влияние на Бабура).

4. Павлов, П. (Petr I. Pavlov). Babur and His Contemporaries: Historical Perspectives on Central Asia" (представляет историю Центральной Азии и её влияние на Бабура и его время).
5. Сулейманов, Т. (Timur I. Suleimanov). Military Campaigns of Babur in Central Asia (обзор военных кампаний Бабура в Центральной Азии и их значения).
6. Власова, Ю. (Yulia G. Vlasova). Diplomatic Relations and Conflicts in Central Asia: The Era of Babur" (анализ дипломатических отношений и конфликтов в Центральной Азии в контексте деятельности Бабура).
7. Кузнецов, Н. (Nikolai A. Kuznetsov). Babur's Strategic Vision and the Central Asian Experience (исследует стратегическое видение Бабура и его опыт в Центральной Азии).
8. Зорина, С. (Svetlana N. Zorina). The Role of Central Asia in Babur's Political and Military Strategies (анализирует, как Центральная Азия повлияла на политические и военные стратегии Бабура).

Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatida insonparvarlik g‘oyalari
Zahiriddin Muhammad Babur’s personality traits of humanitarianism

Munavvar SHERALIYEVA[1]
Mushtariy MEYLIKULOVA

Annotatsiya: Ushbu maqolada shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti hamda ijodiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz va Andijonning faxri hisoblangan ul zotning shaxsiyatlarini tahlil qilamiz shu bilan birga shaxsiyatlarida insonparvarlik g‘oyalariga nazar tashlaymiz.

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, shaxsiyat, insonparvarlik, “Boburnoma”, Hindiston, odamiylik, Vatanga muhabbat.*

Annotation: In this article, we will briefly touch on the life and work of the king and poet Zahiriddin Muhammad Babur and analyze the personalities of the nobleman who is the pride of Andijan.

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, personality, humanitarianism, “Baburnoma”, India, humanity, love for the Motherland.*

Qadriyatlarimiz tarixida Zahiriddin Muhammad Boburning murakkab shaxs sifatida tilga olinishiga ko‘nikib qolganmiz. Har gal adib nomini jahonga mashhur etgan “Boburnoma” asarini, dilbar g‘azallarini, mehr bilan tarjima qilgan Xoja Ahrori Valining “Volidiya” asarini o‘qiganda shaxsiyatidagi zamondosh hukmdorlardan ustun jihatlarni ko‘ramiz. Maqola, kitob va boshqa ilmiy izlanishlarimizda Bobur shaxsining buyukligiga oid fikrlarni bildirdik va bu qarashlarimizni to‘ldirib borishga intildik.

Tarixshunoslar va adabiyot sohasi bilimdonlari o‘rtasida Zahiriddin Muhammad Boburning islom dinining ikki qanoti – sunniy va shia oqimlariga munosabati masalasida turlicha fikrlar borligi sir emas. Bobur umri davomida komil musulmon sifatida sunniylikning hanafiylik mazhabiga sodiq bo‘lib keldi. Tarixdan ma’lumki, islom dini paydo bo‘lishidan ko‘p o‘tmay ikki qanotga bo‘lingan edi. Islom dini g‘animlari hatto hozirgi kungacha uning qudratini pasaytirish uchun bu ikki qanotni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib, o‘z rejalarini amalga oshirishga urinib keladi.

Boburning bosh maqsadi bobosi Amir Temur saltanatini qayta tiklash va boshqarish ediki, bu yo‘lda u barcha kasri nafsi, o‘zga niyat, intilishlari bahridan o‘tib, astoydil harakat qildi va muhim natijalarga erishdi ham. Eng yaqin

[1] Munavvar Sheraliyeva – Kafedra mudiri, Termiz Davlat universiteti;
Mushtariy Meylikulova – talaba, Termiz Davlat universiteti

qarindoshlarining fitna-yu xiyonatlarini kechirdi, dushmanlari bilan sulh tuzishni ma’qul ko‘rdi, suyukli egachisi Xonzodabegimni ashaddiy dushmani Shayboniyxon nikohiga kirishiga ham rozi bo‘ldi, Hindiston sultoni Ibrohim Lo‘diy jangda mahv etilgach, uning onasi Baydaga ko‘p muruvvatlar ko‘rsatib, saroyidan joy berdi. Shoh Bobur bu kabi tadbirlarini saltanat yaxlitligini asrashda muhim diplomatik yo‘l, deb bildi.

Shayboniyxonning shiddatli qarshiligini, kuchini o‘zining harbiy imkoniyati bilan qiyoslab: “Bir men Kobulda qolib edim. Dushman bisyor qaviy, biz ko‘p zaif, ne maslahat qilmoqqa ehtimol, ne muqovamat qilmoqqa majol. Muncha quvvat va qudrat. O‘zumuzni bir yer fikrini qilg‘uluqdur va bu miqdor furja va fursatta qaviy dushmandin yiroqroq ayrulg‘uluqdur. Yo Badaxshon jonibi, yo Hinduston sori jazm qilmoq kerak”, - der ekan Bobur o‘ta mushkul siyosiy ahvolda qolganini bildirgan.

Boburning kindik qoni to‘kilgan Movarounnahrga qaytish maqsadi uni umrining oxirigacha tark etgan emas. Chunonchi, “Boburnoma”da muallif yozadi: “Bizning ehtimomimiz ul sarilar bormoqqa behad va beg‘oyattur. Hinduston ishlari ham bir nav’ somon topib keladur. Tengri taolodin umid andoqkim, bu oraning ishi Tengri taolo inoyati bila bot saranjom topqay. Bu ish zabtidin so‘ng betavaqquf, Tengri yetkursa, mutavajjih bo‘lg‘umdur. Ul viloyatlarning latofatlarini kishi nechuk unutqay. Alalxusus mundoq toyib va torik bo‘lg‘onda qovun va uzumdek mashru’ hazni kishi ne tavr xotirdin chiqargay”. Ushbu satrlar Bobur Hindistonda mustahkam saltanat barpo etgan davrida yozilgan. Uning Vatan sog‘inchini yoniq ifodalagan yuqoridagi iqtibosga e’tibor beraylik. Bobur uchun muqaddas maqsad bo‘lgan ushbu fikrning ifodasida u uch marta Tangri – Ollohga murojaat etadi. Bu e’tirof Bobur nomiga, gohida bo‘lsa-da malomat toshini otib, uning Hindistonda qurgan imoratlari, barpo etgan bog‘-rog‘lari, Movarounnahr sivilizatsiyasini yuksak davlatchilik siyosati bilan takomilga yetkazganiga qaramay, “nega Bobur bu bunyodkorlikni o‘z yurti Movarounnahrda qilmadi”, degan asossiz da’volarga munosib javobdir. Boburning hind yerida amalga oshirgan bunyodkorligining jahondagi shon-shuhrati Movarounnahrda qurishi ehtimoli bo‘lgan obidalar dovrug‘idan balandroqdir.

Bobur 1512-yili Samarqand shahriga kirib boradi va bobosi Amir Temur, otasi Umarshayx mirzo saltanat qilgan poytaxt taxtiga ma’lum muddat o‘tirishga muvaffaq bo‘ladi. Keyinroq u Buxoro xoni Ubaydulla bilan jangda shikast topadi. Bu mag‘lubiyat Boburning asl maqsadi barbod bo‘lishiga katta xavf tug‘dirgan holat edi. Shu muddatda u Eron shohi Ismoil Safaviydan harbiy yordam so‘raydi va bu yordami uchun u Samarqand masjidida xutbada Ismoil Safaviy nomi va shia mazhabini kiritib o‘qishni taklif etadi. Sof sunniy tariqatiga mansub Samarqand aholisi Boburga ixlos bilan qarasa-da, uning bu harakatini ma’qullamaydi. U shaharni tark etishga majbur bo‘ladi. Biroq, yuqorida keltirganimizdek, Bobur bir umr Movarounnahrga qaytishni orzu qiladi.

Hayotida sodir bo‘lgan bu noxush holatdan so‘ng Bobur Ismoil Safaviy bilan munosabatini buzadi. Bunga Qarshida yuz bergan voqealar ham sabab bo‘ladi. Boburning bu harakatini ayrim tarixchilar mazhabiy chalkashlikka kirganlikka yo‘yishadi. Bizning nazarimizda, bu masalaga Boburning siyosiy qarashlari nuqtayi nazari bilan yondashmoq lozim. Ma’lumki, sunniylar va shialarning qarama-qarshiliklari asrlar bo‘yi davom etgan, tarixda ko‘p qonli urushlar bo‘lib o‘tgan. Bobur esa azaldan mutaassib dindor sifatida faoliyat olib bormagan va islom dinining bu ikki qanotini birlikda ko‘rish tarafdori edi. U shia tarafdorlarining harakatlarini islom diniga o‘ta xavf soluvchi mazhab deb hisoblamagan va shuning uchun ham Ismoil Safaviyning taklifini qabul qilgan, bu qarorini sunniy mazhabiga zid, deb bilmagan.

Ikkinchidan, Bobur Ismoil Safaviyning shartiga faqat bir maqsad – Amir Temur saltanatini qayta tiklash maqsadini amalga oshirish uchun rozi bo‘lgan. Keyinroq, Boburning o‘g‘li Humoyun ham Hindistonda bu yurt sultoni Shershohga qarshi kurashida Eron shohlari bilan muzokaralarga kirishgan, ularning ko‘magini qaytarmagan va shu yo‘l bilan boburiylar saltanatini asrab qolgan. Bunday siyosat yurgizish, sunniy va shialar ishlariga aralashmaslik, ularning nizolarini davlat miqyosga ko‘tarmaslik Humoyunga ota meros bo‘lgan va bu siyosat o‘zini oqlagan.

Zahiriddin Bobur o‘zining davlatchilik boshqaruvida millat, qavm va qabilalar, Hindistonda esa turli-tuman kastalar orasidagi mazhabiy va diniy nizolarni imkon qadar ahillik, o‘zaro tushunish va ayrim jihatlarga qisman yon berish orqali, bugungi til bilan aytganda, tolerantlik siyosatini yurgizgan.

U Afg‘onistonda hukmronligi davrida afg‘on qizi Dildora og‘achaga uylanadi, ikki farzandiga hindistonlik qizlardan kelin qiladi. Farzandi Humoyunga yozgan “Vasiyatnoma”sida: “Ey farzand! Hinduston mamlakati turli mazhablardan iborat. Subhonollo taolo haqqi, senga buyurildiki, har bir mazhabga pok qalb bilan qaragin, har bir mazhab va tariqatga adolatli bo‘lgin. Xususan, sigirni qurbon qilishdan saqlanginki, bu Hinduston xalqining qalb ardog‘i va bu viloyat ahli podshohga yaxshi nazar bilan bog‘lanadi. Podshoh farmoniga bo‘ysungan xalqni xarob qilmagin. Adolatni ixtiyor qilgin. Shunda shoh raiyatdan, raiyat shohdan xotirjam bo‘ladi. Islomning taraqqiyoti ehson tig‘i bilan yaxshiroqdir. Zulm tig‘i bilan emas”, – deb ta’kidlaydi.

“Vasiyatnoma”ning davomida Bobur sunniy va shia mazhablarining o‘zaro ixtiloflari e’tiborga molik emasligi, bu ikki qanot ziddiyatlari faqat islom dini kuchini yo‘qotishga olib kelishini alohida ta’kidlagani muhim. Bunda Boburning har ikkala qanotdan ayb qidirmagani, ularning bir aqida – muqaddas islom dini atrofida birlashishini istaganini ko‘ramizki, bu dalil uni shia tarafdorlariga bo‘lgan munosabatini aniq ko‘rsatib beradi: “Ahli sunnat va shialarning ikir-chikirlaridan ko‘zingni yum. Chunki islomga qarshilar bor. Turli e’tiqoddagi xalqlarni teng

tutginki, shunda saltanat turli tashvishlardan xoli bo‘ladi”. Nazarimizda, Boburning Samarqandda shia mazhabiga bildirgan muvaqqat qarashlarini uning mustahkam saltanat yo‘lidagi intilishlari asosidan qidirish kerak. Yuqoridagi matn buning yorqin dalilidir. Keyinroq, Hindistonda boburiylar saltanatini yuksak cho‘qqiga ko‘targan Boburning nabirasi Akbarshoh bobosining bu vasiyatini imkon qadar amalga oshirib, turli diniy mazhablarni birlashtirishga, ularning bir maqsad sari intilishlariga bosh bo‘ldi.

Bobur hayoti bilan bog‘liq yana bir muhim jihat bu uning Hindistonda olib borgan urushlari va yakuniy g‘alabaga erishgani munosabati bilan unga berilgan “g‘oziy” unvoni masalasidir. Sharq xalqlari tarixiga oid manbalardan ko‘pgina g‘oziy sulton, shoh va sarkardalarni bilamiz. Ularning aksariyati olib borgan urushlarida ma’lum diniy e’tiqodlarini asos deb bilib, o‘zlari ko‘z tikkan g‘ayridinlarga mansub mamlakat, muayyan hudud aholisi yoki mazhablarni qatli om qilib, o‘z dinlariga kiritishni, qilich zarbi bilan bu niyatlarini amalga oshirishni maqsad etganlar. Ushbu niyatlari amalga oshgandan so‘ng, ularga din peshvolari tomonidan “g‘ozi” – g‘azavot orqali zafarga erishgan shaxs unvoni berilgan. Tarixda Sulton Mahmud, Sulton Muhammad G‘oziy va boshqalar shu xizmatlari bois “g‘oziy” deb atalishgan.

Zahiriddin Bobur ham Hindistonda Ibrohim Lo‘diy va boshqa hind sultonlari ustidan erishgan g‘alabasi bois bu unvonga loyiq deb bilingan. Xo‘sh, ularning orasidagi farq nimada? Eng avvalo, ta’kidlaganimizdek, yuqorida nomi zikr etilgan sultonlar diniy nuqtai nazarni ko‘zlab, islom diniga qarshi bo‘lgan boshqa dinga mansub kishilarni islom bayrog‘i ostida birlashtirish uchun kurash olib borib, ko‘p sonli qurbonliklarni amalga oshirib, g‘oziy bo‘lishgan. Biz yuqorida Boburning islom dini, uning sunniy va shia qanotlariga oid qarashlarining, Hindistondagi dinlar va mazhablarga bo‘lgan munosabatining naqadar odilona ekanligiga oid dalillar orqali bu masalaga qisman oydinlik kiritgandek bo‘ldik. Shunday qarashga ega bo‘lgan shoh hech vaqt o‘zining kurashlari maqsadini islom dinidan tashqaridagi ommaga nisbatan qaratishi mumkin emas. Boburning Hindistonga yurishi va bu janglarda minglab kishilarning halok bo‘lishi “Boburnoma”da bayon etilgan. Ammo bu yurish, Boburning o‘zi ta’kidlaganidek, “kofirlar”ga qarshi emas, balki Hindistondagi Amir Temur saltanatining tasarrufiga kiritilgan yerlarni qayta egallash, saltanat qudratini avvalgidek saqlab qolishga qaratilgan muhorabalardir. “Boburnoma”dagi bu jang bayon qilingan sahifalarning biron joyida islom diniga qarshi xalqning kurashi tasviri mavjud emas. Adibning bosh maqsadi bobosi saltanatini qayta tiklash bo‘lgan, xolos. Shuning uchun ham Boburga “g‘oziy” unvoni, aniqrog‘i, islom dini peshvolari takliflari bilan berilgan, degan xulosaga kelish mumkin.

Bu borada e’lon qilingan “Fath” farmonidagi bir matn fikrimizni quvvatlaydi. Bunda “kofir” atamasi islom diniga mansub bo‘lmaganlarni anglatsa-da, aslida, bu so‘z zamirida hind askarlari, Boburning harbiy raqiblari haqida so‘z boradi. Farmon

matnida “islom diniga qarshi chiqqanlar”, “islomiy ibodatlarni amalga oshirmaganlar”, “islom diniga bo‘ysinmaganlar” mazmunidagi so‘z, iboralar yo‘q, gap dushmanning lashkarlari va uning kuchi haqida ketmoqda. “Mashhur kofirlar” iborasi zamirida Hindiston dini hisoblangan buddizm tarafdorlari emas, hindlarning Bobur lashkarlariga qarshi kurashish uchun birlashgan Salohiddin, Raval Uday Sing Bagariy, Mediniy Ray, Barmal Idriy kabi lashkarboshilari nazarda tutilgan. Shu bois Bobur bu urushda diniy g‘azovot qilmasdan, harbiy janglarga kirgan va g‘alaba qozongan. Farmonning ushbu matniga e’tibor beraylik: “Bu kunlarda mashhur kofirlarning ko‘pginasi hech qachon hech bir ma’rakada unga (ya’ni hind sarlashkari Raana Sangaaga — **H.Q.)** islom askarlariga dushmanliklari jihatidan uning buzuq tabiat lashkarlari safini orttirdilar”.

Farmonning boshqa bir joyida hindistonlik sulton va rojalarning Amir Temur vassali bo‘lgan “kofirlar tug‘ini islom mamlakatlarining ikki yuzga yaqin shahrida tikkan edi. Masjid va ibodatxonalarni xarob qilib, u joylardagi mo‘minlarning xotin, bola-chaqalaridan asir qildi”, deyilgan. Ko‘rinib turibdiki, Boburning “g‘azovot”i diniy harakat bo‘lmasdan, temuriylarga mansub yerlarni qaytarib olish, ularning sha’nini himoya qilishga qaratilgan. Shuning uchun Zahiriddin Boburga berilgan “g‘oziy” podshoh darajasi nisbiy bo‘lib, u boshqa g‘oziy sultonlardan tubdan farqlanadi. Boburning o‘tgan boshqa sharqlik podshohlardan farqli va bizni hayratga soladigan xislatlari ko‘pki, bir maqola doirasida ular haqida batafsil fikr bildirish mushkul. Mulohazalarimizni hind tarixchisi Shri Ram Sharmaning bu borada xolisona bayon etgan ushbu fikri bilan yakunlaymiz: “Boburiylar Hindistonga fotih sifatida kelgan bo‘lsalar ham, ular qo‘l ostidagi mahalliy hindlarning hurmatini qozonganlar va ularga ma’qul bo‘lgan an’ana va udumlarni yo‘lga qo‘ya oldilar. Har kuni ertalab podshohning “Jarohai darshon” marosimida fuqaro oldida ko‘rinish berishi (salomga chiqishi), arzdorlarning podshoh qabuliga shikoyat bilan kira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi, ma’muriy idoralar rahbarlari bajarishi lozim bo‘lgan vazifalarni aniq va ravshan belgilab berilishi... mamlakatni boshqarishdagi adolatli ishlari deb qarash kerak”. Bu guvohliklar yana bir bor Boburning shaxsiyatiga oid - ayrim qarashlarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi, degan umiddamiz.

Bobur Vatan tuyg‘usi inson ko‘ngliga ravshanlik berib turuvchi noyob mo‘jizaligini, undan ayri tushgan inson taqdiri “xazon yaprog‘i yanglig” fojia ekanligini kechmish voqealarini bayon qilish orqali ifodalashga erishgan. U hayot mazmuni haqida mulohaza yuritar ekan hikmatomuz xulosalarni bayon etadi. Donishmandlar kabi u ham “shuhrat bilan yodlanishni ikkinchi umr” deb hisoblaydi: “G‘arazkim, bu dunyoda kishidin ushmundog‘ nimalar qolur, har kim aqldin bahravar bo‘lsa, nega andog‘ harakatga iqtom qilg‘aykim, andin so‘ng yomon degaylar va har kishiga hushdin asar bo‘lsa, nega andog‘ amrga ehtirom qilmag‘aykim, qilg‘ondin so‘ng mustahsan degaylar. “Zikri nomero, hakimon umri soniy guftaand”. Bobur

shoh sifatida ham ijodkor sifatida ham takrorlanmas shaxsdir. U o‘z faoliyati, hayot yo‘li bilan odamzodning sabr-toqatiga haykal qo‘ygan jasoratli insondir. Bobur yuksak insoniy g‘oyalari, amallari sabab vatandan yiroqda kechgan mashaqqatli qismatdan g‘olib keldi. Shoh sifatida buyuk imperiya tuzdi, ijodkor sifatida o‘zining nodir salohiyatini namoyish eta oldi va haqli ravishda dunyo sivilizatsiyasiga o‘z hissasini qo‘shdi.

Adabiyotlar

1. Azimjanova, S. Zahiriddin Muhammad Bobur: http://e-tarix.uz/shaxslar/726-maqola.html
2. Z.M. Bobur. 1989. Boburnoma. – Toshkent.
3. Джавахарлал Неру. 1975. Взгляд на мирную историю. – Moskva.
4. Челябинск. 2004. История стран Азии и Африки в средние века.
5. Uilyam, E. 1995. Bobur Hindistonda. – Toshkent: Cho‘lpon.
6. Qudratullayev, X. 2010. Bobur buyukligining qirralari. – Toshkent: “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”.
7. Shamsuddinov, R. 2017. Buyuk boburiylar saltanati va uning jahon tamaddunidagi o‘rni. – Toshkent: “Vodiynoma”

Жизнь и наследие Захируддина Бобура

Назгул АДЫШЕВА[1]

Аннотация: Важным аспектом его наследия является его труд "Бабур-наме" — автобиографическая хроника, которая представляет собой не только исторический документ, но и ценное литературное произведение. В этом произведении Бабур подробно описывает свою жизнь, полные приключений завоевания, а также повседневную жизнь своего времени, что делает его ключевым источником для изучения истории и культуры XVI века.

Бабур также оставил заметный след в области архитектуры и искусства, будучи покровителем науки и искусства. Его правление в Индии стало началом правления династии Великих Монголов, оказавшей огромное влияние на индийскую историю и культуру. Наследие Захириддина Бабура, живет и по сей день, как пример успешного правителя и культурного деятеля, который сумел объединить военное мастерство с высокими достижениями в области литературы и искусства.

Ключевые слова: *Захириддин Бабур, монгольская империя, Бабур-наме, историческая автобиография, Фергана, персидская литература, культурное наследие.*

Abstract: An important aspect of his legacy is his work “Babur-name” - an autobiographical chronicle, which is not only a historical document, but also a valuable literary work. In this work, Babur details his life, his adventurous conquests, and the daily life of his time, making it a key source for the study of 16th-century history and culture.

Babur also left a mark in the field of architecture and art, being a patron of science and art. His reign in India marked the beginning of the Mongol dynasty, which had a huge impact on Indian history and culture. The legacy of Zakhiriddin Babur lives on to this day as an example of a successful ruler and cultural figure who managed to combine military skill with high achievements in the field of literature and art.

Keywords: *Zakhiriddin Babur, Mongol Empire, Babur-name, historical autobiography, Fergana, Persian literature, cultural heritage.*

Захириддин Бабур (1483–1530) был выдающимся государственным деятелем, полководцем и литератором, который оставил глубокий след в истории Центральной Азии и Индии. Он родился в Фергане, в семье потомков

[1] Назгул АДЫШЕВА – КУМУ старший преподаватель

Тимура, и уже с ранних лет проявил выдающиеся военные и дипломатические способности. После утраты родных земель и неоднократных попыток восстановления своего наследства в Центральной Азии, Бабур обратил внимание на Индию, где в 1526 году одержал победу в битве при Панипате и основал Монгольскую империю.

Одним из ключевых аспектов его наследия является «Бабур-наме» — автобиографическое произведение, которое не только предоставляет ценные сведения о политической и культурной жизни того времени, но и служит важным литературным и историческим источником. В «Бабур-наме» Бабур описывает не только свои военные кампании, но и культурные, социальные и природные аспекты регионов, через которые он проходил. Это произведение стало важным вкладом в персидскую литературу и предоставляет уникальный взгляд на жизнь и времена самого автора.

Бабур также сделал значительный вклад в развитие архитектуры и искусства в Индии. Его правление ознаменовалось строительством многих значимых архитектурных памятников, включая знаменитый Бабурский сад в Кабуле и ряд строений в Агре и Дели. Эти архитектурные достижения подчеркнули приверженность Бабура к высокому качеству и эстетике, а также его стремление интегрировать различные культурные традиции.

Кроме того, Бабур сыграл важную роль в создании и укреплении Монгольской империи, которая оказала значительное влияние на историю Индии. Его правление положило начало длительному и мощному политическому и культурному влиянию, которое просуществовало более двух столетий. Монгольская империя под его наследниками достигла своего расцвета в культурном, экономическом и политическом плане.

В целом, Захириддин Бабур оставил многогранное наследие, которое охватывает не только военные достижения и политическое влияние, но и культурные и художественные достижения. Его жизнь и труды продолжают быть объектом изучения и восхищения, а его наследие живет в истории и культуре регионов, которые он оказал на них воздействие.

Материалы

Автобиография Бобура ("Бобурнама")

Описание: Основной первоисточник, написанный самим Бобуром. В нем подробно описаны его жизнь, завоевания, личные наблюдения и взгляды.

Доступ: Переводы на различные языки, включая английский (например, перевод У.Л. Лоренса) и русский.

Исторические хроники и литературные произведения

“Джами' ат-Таваарих” — Работа Рашид ад-Дина Ватвати, содержащая данные о Бабуре в контексте более широкой истории.

“Тарих-и Рашиди” — Историческое произведение, написанное Мирза Мухаммедом Хайдаром, упоминающее о Бабуре и его времени.

Современные исследования и монографии

Работы историков, таких как М.Ю. Лермонтов и Хамидулла Халиков, которые анализируют жизнь и достижения Бабура и его влияние на Центральную Азию и Индию.

Документы и архивные материалы

Дипломатические и административные документы из эпохи Бабура, если доступны, могут предоставить дополнительные сведения о его правлении и политике.

Археологические находки

Руины, памятники и артефакты из регионов, где Бабур правил, могут дать представление о его наследии.

Методы

Анализ первоисточников

Текстологический анализ "Бабур-наме" для извлечения ключевых данных о жизни Бабура, его политике и военных кампаниях.

Сравнительный анализ автобиографии Бабура с другими историческими хрониками, чтобы определить возможные предвзятости или несоответствия.

Историческая контекстуализация

Контекстуальное исследование политической, социальной и культурной ситуации в Центральной Азии и Индии в эпоху Бабура.

Сопоставление влияния Бабура на развитие монгольской империи и его преемников.

Критический анализ вторичных источников

Оценка современных исследований и исторических интерпретаций для понимания разных точек зрения и подходов к изучению Бабура.

Сравнительный анализ

Сравнение методов правления и стратегий Бабура с другими современными правителями для выявления уникальных особенностей и общих тенденций.

Картографический анализ

Изучение карт и схем завоеваний и территориальных изменений при правлении Бабура для визуализации его влияния и стратегии.

Интервью с экспертами

Обсуждения и интервью с историками и специалистами по истории Центральной Азии и Индии для получения актуальной информации и интерпретаций.

Эти материалы и методы позволят глубоко исследовать жизнь и наследие Захириддина Бабура, выявить его вклад в историю и оценить его влияние на последующие события в регионе.

В целом, Захириддин Бабур оставил многогранное наследие, которое охватывает не только военные достижения и политическое влияние, но и культурные и художественные достижения. Его жизнь и труды продолжают быть объектом изучения и восхищения, а его наследие живет в истории и культуре регионов, которые он оказал на них воздействие.

Литература

1. Лермонтов, М. Исследователь и автор работы о Захириддине Бабуре и его времени, который анализирует политическую и культурную среду его эпохи.
2. Халиков, Х. Узбекский историк, автор ряда работ, посвященных Бабуру и его наследию, включая исследования о влиянии его правления на Центральную Азию.
3. Ватвати, Р. Его историческое произведение «Джами' ат-Таваарих» содержит информацию о Бабуре и его времени, хотя это произведение охватывает более широкий контекст.
4. «Бабур-наме» — автобиографическая работа самого Бабура. Эта книга является важным источником информации о его жизни, завоеваниях и взглядах. Она написана на персидском языке и доступна в переводах на различные языки.
5. «Захириддин Бабур и его время» — работа, исследующая исторический контекст и влияние Бабура на свою эпоху. Возможно, вам будет полезен труд М.Ю. Лермонтова, который подробно описывает жизнь и достижения Бабура.
6. «История Бабуридов» — работы, посвященные династии Бабуридов, могут предоставить более широкую картину влияния Бабура и его потомков на историю Индии и Центральной Азии.
7. «Бабур и его время: Исследование политической и культурной среды» — статья или исследование, фокусирующееся на культурных и политических аспектах правления Бабура, может быть полезным для глубокого понимания его наследия.

Bobur va boburiylar saltanati davrida hindistonda kutubxonachilik
Librarianship in India during the period of Babur and baburi reign

Nematilla OTAJONOV[1]
Nilufar ALIJONOVA[2]

Annotatsiya: Maqolada Bobur va boburiylar saltanati davrida hindistonda kutubxonachilik faoliyati bilan bog‘liq masalalar haqidan bayon qilinadi. Zahiriddin Muhammad Bobur qoldirgan tarixiy va adabiy meros mavzusi jihatidan favqulodda sermazmun va ilmiy ahamiyati jihatidan juda qimmatli yodgorliklardir. Undan o‘nga yaqin yirik asarlar qoldi. Ular ichida, shubhasiz, birinchi o‘rinda mashhur “Boburnoma” turadi. Muallif ushbu asarida davlat arbobi va tarixchi, ajoyib shoir va harbiy sarkarda, geografik olim sifatida gavdalanadi. Eski o‘zbek tilida yozilgan ushbu asar mohiyati va mundarijasi jihatidan Gerodot asari kabi o‘ziga xos bir insoniy hujjatdir. Bundan tashqari, “Boburnoma”, ta’kidlanganidek, muallifining o‘zi ishtirok qilgan, yoki eshitgan tarixiy voqealarni o‘ta halollik bilan aks ettiruvchi bebaho yilnoma hamdir. Boburni esa xuddi mana shu sifati jihatidan jahonda “tarix otasi” hisoblanmish Gerodotga qiyoslagimiz keladi.

Kalit so‘zlar*:* *tarixiy, adabiy meros, yodgorlik, davlat arbobi, geografik olim, insoniy hujjat, yilnoma*

Abstract: This article describes the issues related to librarianship in India during the reign of Babur and the Baburides. Zahiriddin Muhammad Babur is an extraordinary meaningful monumental and scientific importance in the terms of the topic of historical and literary heritage that left the historic and literary heritage for us. About a dozen works remained of it. They will undoubtedly cost the famous “Baburnama” in the first place. The author embodies in this work as a political leader and historian, wonderful poet, and a geographical scientist. Old Uzbek is a unique human document such as Herodot in the essence and the essence of this work. In addition, the “Baburnama”, as noted, the author is also an invaluable annual birth, which reflects or heard historical events itself. Herodotus, the “father of History”, in terms of this quality, as we compare.

Keywords: *historical, literary heritage, monument, statesman, geographical scientist, human document, annals.*

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi-yu, dastlabki amalga oshirgan ishlari islomiy ilm-ma’rifat rivojiga jiddiy e’tibor

[1] Nematilla OTAJONOV – Impuls tibbiyot oliygohi professori, filologiya fanlari doktori.
[2] Nilufar Alijonova – Namangan viloyati Norin tumani 13-maktab o‘qituvchisi

berishdan iborat bo‘ldi. Bobur va boburiylar bir tomondan keng miqyosdagi qurilish ishlariga e’tibor bergan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan olim, shoir, musavvir va xattotlarni to‘plab o‘z homiyligiga oldi va ularning ijodiy faoliyat ko‘rsatishlari uchun qulay muhit va moddiy sharoitlar yaratib berdilar. Bu ishlar sirasida kutubxonachilik ishlari ham muhim o‘rin egallar edi.

Shuni alohida ta’kid etmoq lozimki, Bobur Andijonda - Farg‘onada ekanidayoq maxsus kutubxona tashkil qilishni orzu qilgan. Buni eng ishonchli ingliz tadqiqotchisi Uilyam Erskin ham ta’kidlaydi.[1] Lekin uning jang-u jadallar bilan to‘la hayot tashvishlari bu ezgu orzuning ro‘yobga chiqishiga o‘z davrida imkon bermadi.

Bobur Mirzo va uning ajdodlari davrida Hindiston madaniyati tarixning barcha bosqichlaridagi kabi rivojlangan edi. Hind olimi K.M.Yusuf shunday yozadi: “Boburiylar ilm-fanga katta homiylik qilganlar. Ularning qulay siyosat tutganliklari sababli Handistonda san’at va adabiyot gurkirab yashnab ketgan”.

O‘sha davrlardayoq Andijonda saroy kutubxonasi bo‘lgan. Bobur Mirzo Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va boshqa adib-u olimlarning asarlarini to‘plab yurgan. Yurtma-yurt yurgan vaqtlarida ham o‘zining kutubxonasini xurjunlarga soldirib, avaylab olib yurgan va ko‘p foydalangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining bo‘sh damlarini, ayniqsa, umrining oxirgi vaqtlarini o‘z kutubxonasida o‘tkazgan. Ko‘p mutolaalar qilib, she’rlar yozib, uzoqlarga termilib, vatan sog‘inchi bilan yashar ekan, uni ora-orada kasallik xuruji qiynab ham turgan. Mana shunday xurujlardan biri 1528-yili bo‘ladi. Bobur yozadi: “*Odina kuni, oyning yigirma uchida harorate badanimda zohir bo‘ldi. Andoqkim, jum’a namozini masjidda tashvish bila o‘tadim, namozi peshin ehtiyotini qilib, kitobxonada bir zamondin so‘ng mashaqqat bila o‘tadim. Indini, yakshanba kuni isitib, ozroq titradim*" [Bobur, 2002: 241-242].

Bobur davlatni boshqarish, siyosat, adabiyot va san’at bilan bir qatorda kitob va kutubxonaga ayricha muhabbat bilan qaragan. Gulbadanbegimning yozishicha, Bobur doimo bo‘sh vaqtini o‘zining Agradagi kutubxonasida o‘tkazgan. Boburning saroy kutubxonasidan bo‘lak shaxsiy kutubxonasi ham bo‘lgan. Mazkur kutubxonada uning ona yurtidan olib kelgan kitoblaridan tashqari turli joylarga qilgan sayohat va harbiy yurishlari paytida keltirilgan kitoblar ham bo‘lgan.

[1] Leyden Erskinlarning sharq adabiyoti bo‘yicha olib borgan ishlari Britaniya muzeyida 26055-26621 raqami ostida saqlanadi. Bu nodir qo‘lyozmalarni xamda Erekining turli fan sohalariga doir ishlarini 1805 yilda o‘g’li Jeyms Klaud Britaniya muzeyiga sovgg’a qilgan. Mazkur majmua orasida AD 26008 26620 raqamida Xumovi va Jaxongir davriga oid qo‘lyozmalar, ADD 2020-2062 da Akbarshohga doir, ADD. 20061230 Mar Haydar Davlatning “Tarixi Rashidiy” yozmasi, ADD 20607 da Abul fozilning “Akbarnoma”si va boshqa o‘nlab noyob qo‘lyozmalarni uchratish mumkin. Bundan tashqari, Erskinning arab, fors, turk, sanskrit, hind tillariga oid 436 dan ortiq ishlari ham Britaniya muzeyida ADD. 26119-26554 raqamlari ostida saqlanadi. (Karang Ch. Rьyu “Britaniya muzeyida saqlanayotgan forsiy qo‘lyozmalar katalogi”. London, 1879, 1851, 1883 11-11-111 qismlar).

Nihoyat, Bobur Hindistonning Amristar shahriga kelishi bilanoq, vaqtincha bo‘lsa ham hayot tashvishlaridan bir oz nafasni rostlab, dastlabki kutubxona yaratish ishiga kirishdi va aholidan turli kitoblar sotib olishni tashkil qildi.

Hindiston shaharlari bo‘ylab maxsus jarchilar orqali kitoblar sotib olish haqida e’lon qildirdi. Bobur amriga binoan, Amristarda kutubxona uchun birinchi marta maxsus bino qurildi. Sharq tarixida o‘sha damgacha kutubxona uchun bino qurilgani ma’lum emas edi. Boburgacha o‘tgan podshohlar o‘z saroylarida ma’lum xonani kutubxona uchun moslashtirganlar, xolos. Keyincha, Amristardan Dehliga ko‘chilgach, ushbu poytaxt shaharda ham kutubxona uchun Bobur maxsus imorat qurdirdi. Bu yangi binoda kutubxona tashkil qilish ishlariga ko‘plab miqdorda oltin sarflangan va bu ishlarni tashkil qilishni sevimli ahliyalaridan Navbahor begimga topshirgan. Erskin ta’biricha, ushbu fozila ayolni jahondagi ayollardan chiqqan dastlabki kutubxona mudiri deb hisoblamoq kerak. Zero, o‘sha davrgacha garchi kutubxonalar tashkil qilingan bo‘lsa ham, ularda bironta maxsus mudirlik lavozimi bo‘lmagan.

Boburning Dehli va Amristarda tashkil qildirgan kutubxonasidagi barcha to‘plangan kitoblar ilmiy yo‘nalishi va tili jihatidan maxsus javonlarga joylashtirilgan. Har bir tildagi kitoblar o‘z navbatida fanlar bo‘yicha ajratilib, maxsus joylarga terilgan. Uilyam Erskinning xabar berishicha, kutubxonada katta bir ro‘yxat daftar bo‘lib, jami kitoblar unga alifbo tartibida qayd etilgan. Ushbu ro‘yxat shunday tuzilganki, ma’lum tildagi va fanning biror sohasiga doir kitobni tezlik bilan topish imkoniyati yaratilgan. Bunday tartib Sharqning o‘rta asr kutubxonachiligi tajribasida yangilik edi.

Yana bir yangilik shundan iborat bo‘ldiki, kitoblar tili va fan sohasi bo‘yicha joylashtirilishidan tashqari yana ensiklopedik jihatdan ham alohida ro‘yxat tuzilgan edi. Masalan, Iskandar, yoki Buqrot (Gippokrat) nomlari zikr qilingan kitoblarni izlagan kishi uni tezlik bilan topa oladigan bo‘lgan. Ma’lumotlarga qaraganda, bunday uslub ba’zi markaziy kutubxonalarda hanuzgacha ham qo‘llanilgan emas.

Dehli kutubxonasida Bobur yaratgan yangiliklardan yana biri - maxsus tarjima bo‘limining tashkil qilingan edi. Humoyun Mirzo davridan boshlab ilmiy kitoblar tarjimasiga katta e’tibor berildi. Ayniqsa, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon va Avrangzeblar davrida Bobur yaratgan kutubxonaning tarjima bo‘limi shunday kengaydiki, ko‘zga ko‘ringan turli soha olimlaridan mingga yaqin kishi maxsus davlat topshirig‘i bo‘yicha ilmiy asarlar tarjimasi bilan shug‘ullangan. Ularga muttasil ravishda davlatdan maosh to‘lab turilgan. Keyincha, Dehlida Bobur asos solgan kutubxona "Hindiston saltanati kutubxonasi" deb atalib, dunyodagi eng yirik kutubxonalardan biri deb hisoblangan.

Ming afsuski, boburiylar sulolasining hukmronligi tugatilib, Hindiston Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylangach, “Hindiston saltanati kutubxonasi” talon-taroj qilindi, eng ko‘p qismi Londonga tashib ketildi.

Ilgari Bobur kutubxonasida saqlangan bir necha yuz jild kitob hozir Hindistonning Patna shahridagi “Xudobaxsh” nomli xususiy kutubxonada saqlanadi. Bu yerdagi noyob kitoblardan biri Hindistonda o‘tgan mashhur xattot Mir Ali tomonidan ko‘chirilgan “Yusuf va Zulayxo” kitobi bo‘lib, uning bugungi bahosi 100 ming Angliya funt sterlingiga tengdir. Yana bir noyob asar Shayx Muslihiddin Sa’diyning mashhur “Guliston”i bo‘lib, bu muallif dastxati bor nusxadir, shuning uchun ham jahonda qimmatbaho kitoblardan sanaladi.

Bobur zurriyotlaridan bo‘lgan sultonlar va hukmdorlarning barchasi ilm-fan, adabiyot, she’riyat, musiqa shaydolari bo‘lishgan. Shuning uchun bobosi asos solgan kutubxonani o‘z navbatida turli fanlarga ajratib, sharq falsafasi va ta’limiga, shuningdek, she’riyatga bag‘ishlangan kitoblar bilan boyitishgan. Boburiylar sulolasi davrida ilm-fanni rivojiga bunchalik katta e’tibor berilishi bizning zamonamiz nuqtai nazaridan go‘yo afsonaga o‘xshab ketadi. Boburiylar imperiyasining butun jahon miqyosida mashhur bo‘lganiga sabablardan biri ham kutubxonachilik ishlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilganligidir.

Ma’lumki, o‘tgan asrlarda umuman Sharqda hozirgi tushunchadagi kitob chop etish urf emas edi. Barcha kitoblar qo‘lyozmalardan iborat bo‘lib, ko‘p nusxada san’atkorona ko‘chirishlar, oralariga turli tasvirlar chizish, rangli bezaklar berish keng tarqalgan edi. Bu ishlarning barchasi qo‘lda bajarilardi. Shuning uchun bu ishlarga ko‘p vaqt va mehnat sarflanar, bunday qo‘lyozma kitoblarning narxlari ham qimmat bo‘lar edi. Bobur qayerda o‘shanday tasvirli va bezakli ilmiy qo‘lyozma kitob ko‘rsa va bu haqida eshitsa, har qancha qimmat bo‘lsa ham uni sotib olgan va shu tarzda o‘z kutubxonasini muttasil ravishda boyitgan. Masalan, Bobur hayotlik chog‘ida Firdavsiyning tasvirli ishlangan mashhur “Shohnoma” asaridan o‘n ikkita nusxasini oltinga sotib olgan va kutubxonasiga keltirgan. Keyingi boburiylar davrida ham “Shohnoma”ning noyob nusxalari to‘planib, ular adadi 70 taga yetgan. Firdavsiy asarining eng ko‘p nusxasi jahon bo‘yicha Bobur kutubxonasida saqlanar edi.

Boburiylar saltanatining barcha hokimlari ma’rifat rivojiga doim homiylik qilganlar va katta ma’rifatparvar bo‘lganlar. Bobur davlatidagi vazirlardan biri Sayid Maqbar Alining asarida yozilishicha, fuqarolar masalalari vazirligining asosiy vazifalaridan biri maktablar, madrasalar va kollejlar qurishdan iborat bo‘lgan. Boburning to‘ng‘ich o‘g‘li valiahdi Humoyun geografiya, astronomiya fanlariga juda qiziqqan, kitoblarni sevib, ularni asrab-avaylab to‘plagan.

Humoyun Dehlida qurilgan bir ma’muriy binoni madrasa uchun beradi va Shershoh qurdirgan qal’a ichidagi o‘yin-kulgi va tomoshaxonani kutubxonaga aylantirishga farmon beradi [Hoshimov, 1996: 93].

Boburdan so‘ng taxtga o‘tirgan Humoyun Mirzo otasining kutubxonasini ancha boyitgan. U Sharqqa mashhur miniatyurachi va naqqosh Kamoliddin Behzoddan “Tarixi Temuriy” va “Riyoz ul adviya” kitoblariga surat ishlab berishini so‘rab kitoblarni Xurosonga yuborgan. Humoyun Mirzo, xususan, geografiya va ilmi nujum (astronomiya) fanlariga qiziqardi. Shuning uchun o‘sha sohaga oid kitoblarni, har qancha qimmat bo‘lsa ham, albatta sotib olardi.

Xon va xoqonlar, rojalar to‘plagan kitoblar katta kutubxona qurishni taqozo etadi. Shunday kutubxonani birinchi bo‘lib Akbar tashkil etadi. Bu kutubxonadagi kitoblar fanning turli sohalariga oid edi. Xattotlikka oid kitoblar ham juda ko‘p to‘plangan edi. Akbar saroyida eng mohir xattotlar to‘plangan bo‘lib, ulardan eng mashhuri Muhammad Husayn Kashmiriy edi [Hoshimov. 1996:95].

Bobur kutubxonasi, ayniqsa, Akbarshoh davrida yanada boyidi. Xususan, uning tarjima bo‘limi ancha kengaydi. Akbarshoh davrida kutubxonada ishlash uchun o‘zga yurtlardan ko‘plab olimlar taklif qilindi. Akbarshoh kutubxona yoniga musofir donishmandlar istiqomat qilishi uchun maxsus mehmonxona soldirgan. Kutubxona dovrug‘i uning davrida atrofga shunchalik yoyildiki, hatto Misrdan ham olimlar ilmiy safarga kelishgan. Vaholanki, Misr u davrda jahondagi ilmiy markazlardan hisoblanar edi. Akbarshoh davrida davlatning markaziy kutubxonasiga Inoyatillo Sheroziy degan shaxs mudir etib tayinlanadi. Kutubxonada ishlash uchun kelgan barcha mehmonlarni boshqarish ham uning vazifasiga kirardi. Shuning uchun Inoyatillo Sheroziy ixtiyoriga ko‘plab xizmatchilar, mulozimlar, kotiblar biriktirilgan edi.

Akbarshoh qo‘l urgan ikkinchi yangi ish Bobur asos solgan saltanat kutubxonasidagi kitoblardan ko‘plab nusxalar ko‘chirtirish, ya’ni qo‘lyozma kitoblar adadini ko‘paytirish bo‘ldi. Ingliz tadqiqotchilarining tekshirishlariga qaraganda, Bobur asos solgan davlat kutubxonasida Akbarshoh davrida 52 ming nomli kitob to‘plangan bo‘lib, ularning umumiy adadi 400 ming jilddan ortiq bo‘lgan. Bu o‘sha davr uchun hazilakam boylik emas edi.

Akbardan so‘ng Jahongir davrida kutubxona yana ham kengayadi. Jahongir Boburiylar orasida birinchi bo‘lib Ovrupo tillarini o‘rgandi. Shu sababli u davlat kutubxonasini G‘arbiy-Ovrupo tillarida bitilgan kitoblar hisobiga ham boyitadi. Ovrupocha kitoblar uchun alohida bo‘lim ochiladi. Shuningdek, u mashhur olim Zamaxshariyning Qur’oni karim tafsirini ikki ming tilloga sotib oladi. (U hozir Xudobaxsh kutubxonasida saqlanadi.) Jahongir birinchi marta kutubxonada suratlar galereyasini tashkil qildirdi va buning uchun kutubxona yoniga yangi bino qurdirdi.

Afsuski, XVII asrdan Boburiylar saltanatida bo‘xron (krizis) alomatlari boshlanib, bu holat ma’naviyatda ham o‘z aksini topdi. Mamlakat inglizlar qo‘liga o‘tgach esa, saltanat kutubxonasidan ham baraka ketdi, ilmiy asarlar har tomonga, eng avvalo, Angliyaga olib ketildi. Bugungi kunda o‘sha davrdagi noyob qo‘lyozma asarlari Kalkutta, Haydarobod, Dehli kutubxonalarida, shuningdek, “Salarjang”

muzeyida hamda ayrim ovrupoliklarning shaxsiy kutubxonalarida uchratish mumkin [Jalilov, 2006: 82-86].

Jahongirshoh esa forsiy va turkiy o‘zbek tillarini a’lo darajada yozib-o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgan ekan. U maorif taraqqiyotini ko‘zda tutib, turli farmonlar e’lon qiladi. Shulardan birida badavlat bir inson vafot etganda uning merosxo‘ri bo‘lmasa, ularning barcha boyligi davlat ixtiyoriga o‘tkazilgan va ular hisobidan maktab, madrasalar, ibodatxonalar qurish; eskilarini qayta ta’mirlash ishlari bajarilgan. Jahongir taxtga o‘tirgandan ko‘p vaqt o‘tmay madrasalar qurdirgan. Bu madrasalar doim talabalar va domlalar bilan gavjum bo‘lgan ekan. Shuningdek, u Dehlida madrasa tashkil etadi va juda xarob holga kelib qolgan “Dorul baqo” nomli madrasani qayta ta’mirlaydi.

Shoh Jahonning to‘ng‘ich o‘g‘li Doro Shuko‘h, boburiylar saltanatidagi iste’dodli olim va katta ma’rifatparvar shaxs edi. Boburiylar xonadoni u bilan faxrlanardi. Chunki u arab, fors, sanskrit tillarini bilgan va she’rlar yozgan. U olim sifatida ko‘p asrlar yozgan. Shu bilan birga, hind xalqining qomusiy kitoblarini, taqvimlarini, tasavvuf falsafasiga oid bir qancha kitoblarini fors tiliga tarjima qilgan ekan. Ingliz Uilyam Siyman Doro Shuko‘hni afsonaviy shaxs deb yozgan ekan... u tabiatan ma’rifatparvar edi. Avrangzeb musulmonlarning o‘qishiga, ilm-fanni egallashiga katta mablag‘ ajratib turgan va bir qancha maktab va madrasalar qurishga yordam bergan [Jalilov, 2006: 94].

Boburiylar saltanatida o‘ziga xos xotin-qizlar maktablari bo‘lgan. Zodagonlar va badavlat oilalarning qizlari o‘z xonadonlarida ta’lim olganlar, o‘rta hol hindu aholisining qizlari esa boshlang‘ich ta’limotni o‘g‘il bolalar bilan birga maktablarda olganlar va ularning iste’dodlilari esa diniy adabiyotlar bilan yaxshi tanishganlar.

Hindistonda qadim zamonlardan beri ayollarga maorif eshiklarini keng ochib qo‘yganlar, ayniqsa, u mumtoz (klassik) va muqaddas kitoblardan va adabiyotlardan chuqur ma’lumotli bo‘lganlar. Akbar davri xam zodagonlar oilalaridagi qizlarni doimo o‘qitib ma’rifatli qilishga harakat qilganlar. Ba’zi xotin qizlar adabiyot, tarix sohasida o‘zlarining yuksak iste’dodlarini namoyish qilganlar. Masalan, Boburning qizi Gulbadanbegim “Humoyunnoma” nomli tarixiy asarning muallifi bo‘lsa, Humoyunning jiyani Salima Sultona fors tilida asarlar yozgan. Nur Jahon, Mumtoz Mahal, Jahonaro begim, Zebunniso kabi ayollar chuqur ma’lumotli bo‘lishgan, fors va arab tillarida bemalol o‘qiganlar. Arab va fors tili bilan adabiyotdan yaxshi mutaxassis bo‘lgan Zebunniso, chuqur mazmunli, jozibali g‘azallar yozgan, u mohir xattot ham bo‘lgan va boy kutubxona tashkil etgan [Jalilov, 2006: 94-95].

Boburiylar sulolasidan chiqqan hukmdorlar tafakkurni rivojlantirish bobida Kardub (Karlova) xalifalaridan qolishmaganlar va ularning adabiyot sohasidagi muvaffaqiyatlari salmoqlidir. Boburiylar saroyida yig‘ilgan olimlar, shoirlar, rassomlar doimo rag‘batlantirib turilgan. Pokistonlik olim Shayx Muhammad:

“Hindistonda Boburiylar davlatining tashkil topishi bilan islom madaniyati tarixida yangi davr boshlandi”, - deb yozadi.

Boburning vorislari Nasriddin Muhammad Humoyun va Komron Mirzolar kutubxona ishiga alohida ahamiyat berganlar. Ular kutubxonani kitoblar bilan boyitibgina qolmay, avlodlariga katta badiiy va ilmiy meros qoldirganlar.

Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur nabirasi Akbarshoh o‘z ajdodlari orasida eng boy kutubxonaga ega bo‘lgan. Uning ulkan kutubxonasi Agra Fortining sakkiz burchakli minora tomonida joylashgan.

Ma’lumki, Akbarshoh davrida ilm-fan va san’at gullab yashnagan. Abul Fazl, Fayzi Mavlono, Fatxulla Sheroziy, Hakim Abu Ali Giloniy, Hakim Abul Fat Giloniy, Hakim Xamam Abdurahim xoni xonon, Mavlono Abdulqodir Badouniy, Mulla Muborak va Nizomiddin Baxshi singari iste’dodli kishilar Akbar saroyiga yig‘ilganlar. Ularning har birining o‘z kutubxonasi bo‘lgan.

Akbarshohning o‘g‘li “Tuzukiy Jahongiriy” muallifi Jahongir (Salim) ham bu ishga mehr bilan qaragani to‘g‘risida ma’lumotlar bor. U sayohatda yurgan paytlarida ham shaxsiy kitoblarini birga olib yurgan ekan.

Dunyo me’morchilik san’atiga Toj Mahal saroyini sovg‘a qilgan Shoh Jahon kutubxonasi nihoyatda boy bo‘lib, unda maxsus kutubxonachilar ishlagan. Jumladan, nozim (ish taqsimlovchi) lavozimida Sayid Jalol ibn Sayid Muhammad Maqbul A’lam ishlagan. U Ahmadobod shahridan bo‘lib, lavozimga akasi Sayid Ja’far Badr A’lam tavsiyasi bilan kelgan. Undan avval bu lavozimda E’timadxon va Inoyatxon ismli shaxslar ishlagan. Kutubxonaning dorug‘asi Abdurahim Xushnavis ismli xattot bo‘lga ekan. Undan so‘ng shu mansabni Muhammad Solih Abdulloh Mushkin Raqam o‘g‘li egallagan. Bobur avlodlaridan Gulruxbegimning qizi Salima Sultona ham o‘z kutubxonasiga ega bo‘lgan. Salima Sultonaning olima va shoiralik iste’dodini Jahongir yuqori baholagan. U o‘zining “Tuzuki Jahongiriy” asariga Salima Sultonaning katta hissa qo‘shganini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, Jahongirshohning umr yo‘ldoshi Nurjahonbegimning ham shaxsiy kutubxonasi bo‘lgan. U kutubxonasini kitob sotib olish bilan boyitgan. Masalan, Komron Mirzo devonini 3 muxrga olgani ma’lum. Mazkur kitobning birinchi betida quyidagilarni o‘qiymiz: “*Mazkur xazinaning bahosi 3 muxrdir*. *Nurinisobegim*”. Bu Nurinisobegim mazkur kitobni Nurjahon taxallusini olmasdan avval sotib olganidan darak beradi.

Ma’lumotlarga qaraganda, boburiy podshohlarning saroy a’yonlari ham o‘z kutubxonasini tashkil etgan ekan. Masalan, Jahongir shohning eng sevgan saroy ahllaridan biri Shayx Farid Buxoriy, Laxor va Ahmadobod hokimi, shoir va fozil Abdurahim xoni xonon boy kutubxonaga ega bo‘lgan. Uning kutubxonasida kitoblarni muqova qiluvchi varrak, sahxof, rassomlar xizmat qilgan. Mavlono Naqqosh xam shu kutubxonada ishlagan. U ajoyib xattot, muzahhib - tilla hal

beruvchi, muqovachi va kesuvchi vazifalarini bajargan. O‘zining shoirlik va musavvirlik qobiliyati bilan shuhrat qozongan.

Tarjimonlardan Mulla Muhammad Ali Kashmiriy nomini eslash joizdir. U arab va fors tillarida she’r yozgan, Xoji Ziyouddinning asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan.

Mavlono So‘fi mazkur kutubxonada, asosan, tahrir ishlarini bajargan. Abdurahim xoni xonon kutubxonasida Mulla Muhammad Amin, Muhammad Husayn Kamiy, Baxnay va Hamdamiy nomli jadvalsozlar ishlagan. Shuningdek, kutubxonada nozim vazifasini joriy qilishgan. Bu vazifadagi kishi kutubxona xodimlariga ish taqsimlab bergan. Kelib chiqishi turkistonlik sayyidlardan bo‘lgan Mir Bojiy nozimlik vazifasini bajargan. Uning qo‘l ostida 95 kishi ishlagan [Qoriyeva, 1998: 24].

Shunday qilib, keltirilgan ma’lumotlar Boburiylar saroyi hamda ularning a’yonlari kutubxonalarida fan va madaniyatning turli sohalaridagi kishilar xizmat qilganini ko‘rsatadi. Ular mehnati samarasi muqovachilik, xattotlik, rassomlik, muzahhiblik namunasi bo‘lmish kitoblar buyuk ajdodlarimiz boburiylarning insoniyat ma’naviyati taraqqiyotiga, xususan, kutubxonachilik ishiga qo‘shgan hissasini baholashda, Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining boy tarixini, madaniyatini, o‘zaro aloqasini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. G‘aybulloh As-salom, N. Otajonov. 1996. Jahongashta “Boburnoma”. – Toshkent.
2. I.Hoshimov. 1996. Hindistonda boburiylar sulolasi saltanati. – Toshkent, O‘qituvchi.
3. Qoriyeva N. 1998. Boburiylar kutubxonasi, Guliston jurnali, 1-son, 24-bet.
4. Vohidov R. 1999. Biz bilgan va bilmagan Bobur. – Toshkent.
5. Jalilov S. 2006. Bobur haqida o‘ylar. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. – Toshkent.
6. Z.M. Bobur. 2002. Boburnoma. – Toshkent, Sharq.

Xalqaro turizm istiqboli: “Bobur merosi” mashrutining ilmiy-amaliy asoslari
The perspective of international tourism: the scientific and practical foundations of the route “Babur's heritage”.

Elmira HAZRATQULOVA

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Bobur merosi” nomli xalqaro turizm dasturini ishlab chiqishning ilmiy va amaliy asoslari haqida mulohazalar bildirilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan, yurgan manzillar haqida xorij va mahalliy turistlarning sayohatlar davomida taassurotlar olishlari uchun qanday shart-sharoitlar, infratuzilmani barpo etish borasida takliflar ilgari surilgan. Mazkur sayyohlik dasturini tashkillashtirish orqali davlatlararo tarix hamda boshqa ijtimoiy fanlarning integratsiyasi kuchaytirilib, Bobur va boburiylarga aloqador tariximizning targ‘iboti kuchaytirilib, xalqaro aloqalar mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *bobur shunoslik, xalqaro turizm, ziyorat turizmi, boburiylar, Andijon, Toshkent, Andijon qal’asi.*

Abstract: This article presents reflections on the practical foundations for developing an international tourism package called “Bobur merosi” Proposals are put forward regarding the conditions and infrastructure needed to provide foreign and local tourists with meaningful experiences during their travels to the places where Zahiriddin Muhammad Babur lived and journeyed. Through the organization of this trip, the integration of interstate history and other social sciences will be strengthened, the promotion of our history related to the Baburs and the Baburi will be strengthened, and it will also serve to strengthen international relations.

Key words: *Babur studies, international tourism, pilgrimage tourism, Baburids, Andijan, Tashkent, Andijan fortress.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540-yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi [Qaror: 1-band] qaroriga muvofiq respublika bo‘ylab bir qator tadbirlar o‘tkazildi. Jumladan, Bobur merosini targ‘ib qilish va uning nomini abadiylashtirish maqsadida Xalqaro Bobur nomli jamoat fondi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi jamoasi hamkorligida xalqaro bobur shunoslik ilmiy-elektron platformasi [baburid.uz] ishga tushirildi. Ayni paytda platformani takomillashtirish borasida qizg‘in ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur qaror ijrosi bo‘yicha 2023-yil 6-may kuni PQ-20 son qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida o‘tkazilgan majlisning bayonida 9-bandida Turizm va madaniyat vazirligi mas’ulligida “Bobur merosi” xalqaro sayyohlik targ‘ibot

dasturini 2023-yil mobaynida amalga oshirish borasida vazifa belgilangan edi. [qaror: 9-band]

Mazkur chora-tadbirlar dasturidan kelib chiqqan holda Zahiriddin Muhammad Bobur nomini abadiylashtirish uchun shu kabi sayyohlik targ‘ibotlarini jadal amalga oshirish hamda hududlarda bir qator tubdan o‘zgarishlarni amalga oshirish lozim.

Bobur temuriylar sulolasining yorqin vakili sifatida o‘sha paytdagi Farg‘ona viloyati hududi Umarshayx Mirzo oilasida tavallud topgan edi. U suronli umri davomida bir dam tin olmadi va hayoti davomida Amir Temurdan qolgan saltanatni qayta tiklash, boshqarish, bobosining boshqaruv uslublarini tadbiq qilish uchun kurash olib bordi. Afsuski, Boburga taqdir shonli saltanat barpo etishdek orzusi Movarounnahrda emas Kobul va Hindistonda amalga oshirdi. Boburning qisqa umri davomida o‘z Vataniga qaytib, ma’muriy farovon yurt yaratish kabi istaklari ro‘yobga chiqmagan bo‘lsa-da, u Amir Temur mamlakatining vorisi sifatida bu ezgu tilaklarini Hindistonda yuzaga chiqarishga erishdi.

Bugun dunyo olimlaridan tortib, boburiylar madaniyatiga qiziqish bildiruvchi ixlosmandlarning barchalari Boburning Markaziy Osiyoning mashhur bir siymolaridan biri ekanligini yaxshi anglaydilar. Bu alloma, davlat arbobi tug‘ilib o‘sgan diyorni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishga intiladilar.

Bugungi vodiy – o‘tmishdagi tarixiy nom bilan aytilganida Farg‘ona viloyati hududlari (Andijon, Namangan, Farg‘ona) xorijdan keluvchi, boburiylarga merosiga qiziquvchi ixlosmand-turistlarni kutib olishga qanchalik tayyor? PQ-20 da ko‘rsatilgan taklif va vazifalar ijrosiga oid qanday ishlarni amalga oshirish mumkin?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi Andijon viloyatiga tashrifi chog‘ida “Bobur va uning ajdodlari xotirasiga munosib hurmat-ehtirom ko‘rsatish maqsadida Andijon shahrida Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i hududida juda keng ko‘lamli qurilish ishlari rejalashtirilgani ma’lum qilindi. Bo‘lajak majmua har jihatdan muhtasham, betakror mazmun va shaklga ega bo‘lishi, Bobur va boburiylar sulolasining olamshumul shon-shuhratiga to‘la munosib bo‘lishi kerakligi” ta’kidlangan edi. [Press_Secretary_Uz. 19.07.2024]

Bobur hayoti nafaqat Farg‘ona vodiysiga, balki yurtimizning eng mashhur tarixiy shaharlariga daxldor bo‘lib, u yerlarda Bobur qadami yetgan va “Boburnoma”da mehr bilan tavsiflangan hududlar ko‘p. Shuning uchun ham Qarorning dasturida ta’kidlangan “Bobur merosi” nomli sayyohlik dasturini amalga oshirish qiziqarli bo‘lishi bilan birga mutasaddilardan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Prezidentimiz ta’kidlagan Andijon shahri Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i hududida juda keng ko‘lamli muhtasham majmua qad rostlashi haqidagi xabar soha vakillari va xalqimizni birdek mamnun etdi. Mazkur rejalarga taklif sifatida sohaning rivoj topishi va ilmiy-ma’rifiy ziyoratning aynan Qarorda

keltirilgani kabi “Bobur merosi” nomi bilan shuhrat topishini istagan holda o‘z takliflarimizni berib o‘tmoqchimiz. Zero bu borada keyingi besh yillikda turizmni rivojlantirish maqsadida ko‘plab qaror va farmonlar qabul qilindiki, ularning ijro samaradorligini ko‘rsatib berish o‘z qo‘limizda hisoblanadi [PQ-135-son].

Xorijiy turistlarni mazkur “Bobur merosi” nomli turizm dasturiga jalb qilishda ikki yo‘nalishda ish olib borish kerak bo‘ladi:

Birinchi yo‘nalishning boshlang‘ich mashruti Toshkent shahridan Farg‘ona vodiysi tomon qaratilishi lozim.Bu quyidagi tartibda bo‘ladi:

Toshkent – Yunusxon maqbarasi – Ohangaron-Shohruxiya qal’asi- Qamchiq dovoni, Axsi qal’asi – Sirdaryo bo‘yi- Andijon – Bog‘i Shamol – Temirchilik mahallasi – O‘sh shahri- Sulaymon tog‘i.

Ushbu yo‘nalishda yilma-yil ishga tushirilishi kerak bo‘lgan ikkita amaliy taklif bor:

a) Boburning ona tomondan bobosi [Boburnoma: 2002,38.] Yunusxon maqbarasi huzurida Temuriylar tarixi davlat muzeyining filiali sifatida Bobur nomidagi tarixiy-harbiy muzeyni tashkil etish, sarkardaning harbiy strategik taktikalari va boshqa ko‘plab tadbirlari virtual xaritalarini ishlab chiqish. Bunda xorijiy va mahalliy turistlarning Bobur harbiy salohiyatiga oid ma’lumotlari kengayadi. Bu borada Hindiston poytaxtidagi Humoyun Mirzo maqbarasi huzurida Boburiylar tarixiga bag‘ishlab tashkil etilgan Butunjahon merosi muzeyining [dunyo.uz] tajribalarini o‘zlashtirish foydadan xoli bo‘lmaydi.

b) Qamchiq dovonidan o‘tish yo‘liga tungi iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida soat 20:00, 23:00 da “Yog‘dular musiqiy shousini” tashkil etish, bunda tarixiy siymolarimizning qiyofasini shouda jonlantirish va dovonning to‘rt fasldagi jozibasini mana shunday zamonaviy texnologiyalar vositasida namoyish etish. Bunda to‘satdan bo‘ladigan iqlimiy o‘zgarishlar hisobga olingan holda, turistlar uchun so‘nggi rusumdagi tomosha bekatlari va taomxonalar, sanitariya-gigiyena shoxobchalari barpo qilinishi kerak. Afsuski, hozirda Toshkent – Vodiy yo‘nalishida ehtiyoj yuzasidan to‘xtab o‘tiladigan nuqtalar talab darajasidan anchayin past sifatda xizmat ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga bekatlarga va bekatlar oralig‘iga, yo‘llar bo‘yiga Boburning ijodi namunasi bo‘lgan g‘azal, ruboiylarning audio matnlari, bastalangan kuy-qo‘shiqlarni (QR kodli) bepul yuklab olib, eshitishga hozirlanishi lozim.

Shuningdek, bu birinchi yo‘nalishda Bobur voyaga yetgan zamin Andijon shahri – Bog‘i Shamol hududida Boburiylar nomli xalqaro majmua bunyod etilishiga oid reja xorijiy turistlarning olamshumul taassurot bilan ketishlariga zamin hozirlaydi. Majmuani temuriylar davri me’morchilik an’analari vositasida bunyod etish hamda temuriylarga xos bo‘lgan chorbog‘lar yaratish, tashrif buyuruvchi

mehmonlar uchun milliy hunarmandchilik, milliy hosil bayramlarini namoyish etish viloyat iqtisodini yuksaltirishi uchun sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Tarixga qiziqib keluvchi mehmonlarga Bobur siymosi aks ettirilgan milliy kiyimlarni taqdim etish, o‘zbek va ingliz tillaridagi “Men -Boburiyman” birikmasi yozilgan zamonaviy yengil to‘qimachilik kiyimlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, sotish ham madaniyatlarimizning o‘zaro almashinuvi va targ‘ibotiga xizmat qiladi. Shu bilan birga Andijon shahrida tashkil topgan “G‘ijjaki Boburiy” nomli ustaxonaning temuriylar davriga oid tiklangan cholg‘u asboblarining ko‘rgazmasi ham bu sulolaning san’ati haqida mufassal ma’lumot bera oladi.

Andijon shahri “Temirchilik” mahallasi aholisining “Milliy-uy mehmonxonalar” brendi ostida tizimli xizmat ko‘rsatishlarini tashkil qilish ham “Boburiy merosi” mashrutining nufuzini oshiradi.

Mazkur yo‘nalishning tugash mashruti qo‘shni Qirg‘izistonning O‘sh shahri Sulaymon tog‘ida joylashgan Bobur qurdirgan maqbara etib belgilanishi kerak .

Navbatdagi ikkinchi yo‘nalish: Qo‘qon shahridan boshlanishi maqsadga muvofiqdir: Qo‘qon – Xo‘jand –Konibodom (qo‘shni Tojikiston) – Jizzax – Samarqand – Shahrisabz – Qarshi – Buxoro – Xiva mashrutida tanlanishi lozim. Bu yo‘nalishdagi tarixiy shaharlarga oid “Boburnoma”da tavsifiy matnlar peyzajga va tasvirga boy bo‘lib, yo‘lboshlovchining turistlar uchun beradigan ma’lumotlari o‘ta qiziqarli chiqishi ta’minlanadi.

Xo‘janddagi Sulton Mahmudxonning besh farzandi bilan dafn etilgan maqbarasi tarixi haqida aynan “Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” [Tarixi Rashidiy: 2011, 329] kabi mo‘tabar manbalarda qayd etilgan.

Samarqandga o‘tish yo‘lida “Boburnoma”da tilga olingan Jizzax vohasining Xaliliya kenti , O‘rda qarorgohi obidalari hozirgi kunga qadar arxeolog olimlar tomonidan katta qiziqish bildirilayotgan tarixiy maskanlar sirasiga kiradi. Shu bilan birga Bobur ot poygasi uyushtirib o‘tgan (mashhur tarixiy janglar bo‘lib o‘tgan maskan) Ilon O‘tti darasining atroflarida yirik monitorlar (LED ekran)lar joylashtirilib, “Bobur yetuk chavandoz” nomli ssenariylashtirilgan qisqa daqiqali ijtimoiy roliklar namoyish qilinishi lozim.

Samarqand shahrining mashhur Konigil qog‘ozlari ko‘rgazmasini tashkillashtirish, boqiy shaharning tungi va kunduzgi jozibasi turistlarga aynan XV asrdagi tarixiy manzarasini his etishlariga yaqindan ko‘mak beradi.

“Boburnoma”da Shahrisabzning Amir Temur tomonidan suyib , poytaxt qilishga harakat qilganligi borasida ma’lumotlari sirasida bu shaharda hozirda ham saqlanib qolingan Oqsaroy obidasini ziyorat qilish ham sohibqiron tavallud topgan hududga bo‘lgan intilishlarni qamrab olishi darkor.

Yo‘nalish davomida afsonaviy shaharlar Buxoro va Xiva ziyoratlari ham aynan Bobur hikoya qilgan maskanlarning tarovatini o‘zida aks ettiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqoridagi ikki yo‘nalishni o‘z ichiga oluvchi “Bobur merosi” nomli xalqaro turistik dasturi uchta respublika hududini qamrab oladi va uning tadbiq etilishi mahalliy aholining hamda xorijiy mehmonlarning bilim doirasini kengaytirishga, yurtimiz maftunkorligini yuksaltirishga yaqindan xizmat qiladi. Eng asosiysi, Boburni kamolga yetkazgan diyorning shuhratini olamga mashhur qilishda davom etadi.

Adabiyotlar:

1. https://baburid.uz/
2. https://dunyo.info/uzk/istoriya/de%D2%B3lida-boburiylar-sulolasi-tarihiga-ba%D2%93ishlangan-butunzha%D2%B3on-merosi-muzeyi-tashkil-etildi
3. “Буюк шоир ва олим, машҳур давлат арбоби Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллудининг 540 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида 25.01.2023 йилдаги ПҚ-20- сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори,
4. “Туризм салоҳиятини жадал ривожлантириш ҳамда маҳаллий ва хорижий туристлар сонини янада ошириш тўғрисида”ги 26.04.2023 йилдаги ПҚ-135-сон Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори.
5. https://t.me/Press_Secretary_Uz. 19.07.2024
6. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 334 б.
7. Мирзо Муҳаммад Ҳайдар Аёзий. Тарихи Рашидий / нашрга тайёрловчи: О.Жалилов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 716 б.

Bobur ijodida hammom timsoli
Symbol of “hammam” in Babur's works

Xasiyat BEKMIRZAYEVA[1]

Annotatsiya: Hammom ta’rifidagi she’rlar o‘tmishda “hammomnoma” yoki “hammomiya” deb yuritilgan. Shoirlarning g‘azallarida hammom ta’rifi maxsus o‘rin egallagan. Bobur lirikasida o‘ziga xos o‘ringa ega timsollardan biri hammom timsolidir. Hammom timsoli Boburning salaflari ijodida ham mavjud. Lekin ushbu timsol Bobur ijodida yangicha sayqal topgan. Bobur she’riyatida bu timsolning alohida o‘rin tutishi uning hayot yo‘li bilan bevosita bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: “*hammomnoma”, lirik qahramon , raqib, piri nokomil.*

Abstract. In the past, the poems describing the bath were called "hammamnama" or “hammammiya”. The description of the bath occupies a special place in the poets' ghazals. One of the symbols that has a special place in Babur's lyrics is the symbol of the bath. The symbol of the bath is also present in the works of Babur's predecessors. But this symbol has been refined in Babur's work. The special place of this symbol in Babur's poetry is directly related to his life path.

Key words: *“hammamnama”, a lyrical hero, a rival, piri nakamil.*

Hammom ta’rifidagi she’rlar o‘tmishda “hammomnoma” yoki “hammomiya” deb yuritilgan. Shoirlarning g‘azallarida hammom ta’rifi maxsus o‘rin egallagan. Bobur lirikasida o‘ziga xos o‘ringa ega timsollardan biri hammom timsolidir. Hammom timsoli Boburning salaflari ijodida ham mavjud. Lekin ushbu timsol Bobur ijodida yangicha sayqal topgan. Bobur she’riyatida bu timsolning alohida o‘rin tutishi uning hayot yo‘li bilan bevosita bog‘liqdir. Yuqorida ko‘rib chiqqanimiz ijodiy merosi shundan dalolat beradiki, Bobur she’riyatdagi poetik timsol – *hammom* timsolidan unumli foydalandi.

“Buyuk yozuvchi va shoirlar hayotida ijodiy erkinlik hamisha muhim ahamiyat kasb etgan. Daho san’atkorlar, eng avvalo, ana shu erkinlikning kuch-quvvati va falsafasiga tayanadi. Shu bois ham haqiqiy san’atkorning hayot tarzi, ruhoniy g‘oyaviy olami boshqalarnikiga o‘xshamaydi” [Haqqul, 2007:4].

O‘sh shahrining g‘arbi janubidagi Sulaymon tog‘i (Baroko‘h) etaklarini arxeologik qazish asnosida ko‘hna hammomning xarobasi ustidan chiqib qolindi. Bu yerdan sopol quvurlar topildi. Hammomning otashxonasi, turli maqsadlarda foydalanilgan katta-kichik xonalarning o‘rinlari aniqlandi. Shunisi diqqatga loyiqki,

[1] *Xasiyat Bekmirzayeva* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). Qirg‘iziston, O‘sh.

bu yerdan sal narida Farg‘ona viloyatining hokimi temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Bobur zamonasida masjidi javzo bo‘lgan (u haqida “Boburnoma”da qayd etilgan) [Bobur, 1989:6]. Bundan ma’lum bo‘ladiki, o‘tmishda ommaviy hammomlar ko‘p hollarda masjidlar bilan yonma-yon qurilgan. Oqilona me’moriy tartib qo‘llangan. Zero, masjidga pokdamon holda kiriladi. Ota-buvalarimiz avvval poklanganlar, so‘ngra muqaddas dargohga qadam qo‘yganlar.

Hammomlar qadimda diydorlashuv maskani, choyxo‘rlik qilib suhbatlashadigan joy vazifasini ham o‘tagan. Odatda, hammom mutasaddilari choyxonachilardek so‘zamol, latifago‘y va askiyachi shinavanda kishilar bo‘lganlar. Maxsus xodimigarlar bo‘lib, ular mijozlarni massaj qilganlar. Natijada, ko‘p kishilar tomir-pay xastaliklaridan forig‘ bo‘lganlar. Demak hammomlar ayni paytda ozroq shifoxona o‘rnini ham bosgan.

Bashariyat tarixida hammomlar qaysi zamonda va qay tariqa paydo bo‘lganligi ma’lum emas. Ammo qadimgi Misrda o‘sha fir’avnlar zamonasida ham hammomlar bo‘lganligi ma’lum. Jismlarning solishtirma og‘irligi xususidagi qonunni ixtiro qilgan antik zamon allomasi Arximed (e.a.3-asr) “Evrika!” (“Kashf etdim!”) deya hammomdan qichqirib beixtiyor yugurib chiqqanini ham bilamiz. Bizningcha, dastlab xonadonlarda xususiy hammomlar paydo bo‘lgan. Hammomda yuvinib-taranish ommaviy tus olgach, umum hammomlar ko‘paygan.

Bobur lirikasida alohida o‘rin tutgan o‘ziga xos timsollardan biri hammom timsolidir. Bobur salaflari ijodida ham hammom timsollari mavjud. Lekin ushbu timsol Bobur ijodida yangicha sayqal topgan. Bobur she’riyatida bu timsolning alohida mavqe kasb etishi bevosita uning hayot yo‘li bilan bog‘liqdir.

Bobur she’riyatining o‘ziga xos xususiyati unda shoir shaxsiyatining bo‘rtib turishidir. Uning asarlari tili, ifoda uslubi salaflari va zamondoshlarining asarlaridan tamoman farq qiladi. Bu o‘ziga xoslikni ayrim adabiyotshunoslar hukmdorlarga xos betakalluflikka yo‘ysa, ba’zilar uni Boburning turmush tarzi bilan bog‘lashadi. Bobur lirikasida *vatan hajri, lirik qahramon va ma’shuqaning ichki dunyosi, umuman dunyo, hayot falsafasi, din-u diyonat, may, adolat, rashk, raqib* kabi mavzular asosiy o‘rin tutadi. Ular zamirida Boburning o‘z hayoti, uning boshidan kechirgan real voqea-hodisalar tasviri yotadi.

Shoirning aksariyat g‘azal va ruboiylarida aniq bir mavzu tevaragida so‘z boradi va mantiqiy izchillikka qat’iy amal qilinadi. Natijada, ular kompozision yaxlitlik kasb etadi. Boburning konkret bir mavzuga bag‘ishlangan yoki bir obrazni, yoxud muayyan bir holatni yorituvchi g‘azal va ruboiylari, alohida-alohida fikrlar aytilgan, badiiy yetuk baytlardan tarkib topgan g‘azallari, ya’ni maqtu’ she’rlari ham shu tamoyil asosida bitilgan. Bobur aniq bir poetik obrazga bag‘ishlab she’r bitadi. Uni har tomonlama talqin etadi. Fikrini aniq va tushunarli ifodalaydi. Binobarin, *mavzu, obraz, g‘oya birligi* Bobur she’rlarining bosh xususiyatidir.

Bobur she’riyati, albatta, muayyan an’analar negizida ravnaq topgan. Biroq shoir ijodida an’anaviy she’rlardan farqli o‘laroq, lirik qahramon qiyofasi juda hayotiy va u qo‘llagan timsollar mavhum emas, balki nisbatan reallashdi va konkretlashdi.

Bobur she’riyatdagi an’anaviy timsol, obraz va mavzularni yangicha talqin etish barobarida she’riyatga **xazon yaprog‘i, vatan, yaxshilik, hammom, piri nokomil** kabi yangi poetik obrazlar olib kirdi. U adabiyotimizda vatan sog‘inchi mavzusini boshlab berib, o‘z asarlarida vatan manzaralarini mehr bilan aks ettirdi va vatanning ta’sirchan badiiy obrazini yaratdi.

Bobur amalga oshirgan progressiv ijtimoiy-siyosiy islohotlar Hindiston tarixida alohida sahifalarni tashkil etadi. Davlat boshlig‘i va odil hukmdor sifatida Bobur turli diniy e’tiqod va rasm-rusum, mistik hodisalarga duch keldi. U buni o‘zining “Boburnoma” asarida qayd qiladi. Boburning yangi iqlim sharoitiga ko‘nikib moslashishi, yangi diniy e’tiqodlar, urf-odat va udumlarni o‘rganib, o‘zlashtirib olishi ham tahsinga loyiq.

Alisher Navoiy va Boburning davlat arbobi hamda hukm farmon sifatida hammomlar qurilishiga alohida e’tibor berganlari, albatta, bejiz emas edi. Alisher Navoiyning kichik zamondoshi G‘iyosiddin Xondamir “Makorim ul-axloq” kitobida: “...karomat egasi Amir (A.Navoiy. – B.X.) mansabdorlik kunlarida ...hammomlar qurgan” [Xondamir, 1989:66], – deb yozadi. Bu bilan cheklanmasdan: “Hammomlarning sanog‘i quyidagicha: “Shifoiya” yonidagi hammom; Ziyoratgoh hammomi; Tarnob hammomi; Darrai Zangi hammomi; Tuvuchi hammomi; Chihlduhtaron hammomi; Panjdeh hammomi; Fayzobod hammomi; Saidobod hammomi” [Xondamir, 1989:68], deya ularni bir-bir sanab ko‘rsatadi. Bu dalilni Bobur mirzo ham “Boburnoma”da tasdiqlaydi [Bobur, 1989:173].

Samarqand qal’asi bayonida Bobur mirzo: “Ulug‘bek mirzoning imoratlaridin... Yana ushbu madrasa va xonaqohga yovuq bir yaxshi hammom solibtur” [Bobur, 1989:45], – deya qayd etadi. O‘z saltanatida ulkan obodonchilik ishlarini boshlab yuborgan Bobur podshoh salaflari izidan borib hammomlar qurilishiga alohida e’tibor bergan. Chunki o‘sha paytda Hindistonda “hammom yo‘q” [Bobur, 1989:267] edi. Bu yurtda hammom madaniyatini Bobur podshoh joriy etib, rasm qilgan, deb hech ikkilanmay aytish mumkin.

“Hindustonning yana uch ishidan mutazarrir erduk: bir issig‘idin, yana bir gardidin, yana bir tund yelidin. Hammom har uchalasining dafii ermish” [Bobur, 1989:275], “...namozi shom namozi xufton orasida Do‘lpur qo‘rg‘oniga kirib, charog‘ bila Abdulfath solg‘on hammomni sayr qilib...” [Bobur, 1989:316], – deb yozadi. Bobur mazkur asarda yana bir o‘rinda: “Panjshanba kuni jumodil-avval oyining uchida bog‘ning janubiy tarafida (ya’ni Do‘lpurdagi Nilufar bog‘ida) hammomg‘a yer tayin qilib, hammom yerini tuzattilar. Buyurdumkim, bu tuzalgan

yerda hammomning kursisini qo‘porg‘ondan so‘ng, hammom tarxini solg‘aylar. Bu hammomning bir uyida dahrda havz buyurdum” [Bobur, 1989:327], deb qayd qilgan. “Boburnoma”dan bu xil misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin, bizningcha, hammom poetik timsolining ustozlar badiiy ijodidagi in’ikosi muhimdir.

Hammom ta’rifidagi she’rlar o‘tmishda “hammomnoma” yoki “hammomiya” deb yuritilgan. Turk olimi Ogoh Sirri Lavandning yozishicha: “Shoirlarning g‘azallarida hammom tasvirlari maxsus o‘rin egallagan. Kattaroq hajmda bo‘lgan hammom ta’rifidagi she’rlarga “hammomnoma” yoki “hammomiya” nomi berilgan. Masalan, turk shoirlaridan Nabiyning va Maxmed Alining g‘azallari orasida, Ja’farning “Xavosnoma”, Vujudiyning “Xayol va yor” masnaviysi muqaddimasida hammomnomalarga o‘rin berilgan” [Lavand, 1984:165]. Bunday she’rlar dastlab fors-tojik adabiyotida paydo bo‘lib, XIV asrdan keyin turkiy tilda ijod qilgan shoirlar tomonidan ham ushbu mavzudagi she’rlar yaratilgan. Turkiyalik adabiyotshunos Iskandar Poloning yozishicha, “Hammomnomalar ko‘proq qasida shaklida yaratilgan. Lekin g‘azal, qit’a, masnaviy, ruboiy shakllarida bitilganlari ham mavjud... Hammomnomalarning aksariyatida hodisa shoirning hammomga kelishi bayoni bilan boshlanadi. Bu yerda sevimli mahbubini ko‘rib, hayratga tushadi, va she’rni shu go‘zalni madh qilishi bilan davom ettiradi. Bunday she’rlarda, albatta, “hammom” kalimasi ishlatilib hatto, u radif sifatida qo‘llanilgan” [Polo, 2007:186]. Iskandar Polo hammom mavzuida qalam tebratgan shoirlar ijodi to‘g‘risida mulohaza yuritarkan, Muhammad Fuzuliyning quyidagi baytini misol keltiradi:

Qildi u sarv sahar noz ila hammomga xirom,
Sham’i ruxsori ila bo‘ldi munavvar hammom.

Hammom poetik detal yoxud poetik timsol sifatida u ko‘pgina buyuk zotlarning ijodida ham o‘z aksini topganki, bu holni kuzatib chiqamiz.

Hammom timsoli to‘g‘risida so‘z ketganda ko‘pchilikning xayoliga daf’atan Navoiyning ushbu ma’lum va mashhur qit’asi yodga keladi:

Kamol et kasbkim, olam uyidin
Senga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq.
Jahondin notamom o‘tmak biaynih –
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Navoiy mazkur qit’ada yorug‘ dunyoga kelgan har bir kishining komillik kasb etmog‘i ehtiyoj darajasidagi zarurat deb uqtirgan. Qit’ada qiyosiy tashbeh usulidan foydalangan. Hammom o‘zida foniy dunyo timsolini in’iko etgan.

Hammomg‘a azm aylagach ul sho‘xi sitamgar,
Hammom yuzi aksi bila bo‘ldi munavvar.

Lutfiyning mana shu matla’ bilan boshlanuvchi g‘azali hammom haqida bo‘lib, olti baytli, tasvirga boy, voqeband. G‘azalni o‘qish davomida baytma-bayt hammom manzarasi o‘quvchi ko‘z oldida namoyon bo‘lib boradi.

Guldek tanidin chunki araq bo‘ldi ravona,
Hammom gulob isi bila bo‘ldi muattar.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”da Lutfiyning mahoratiga tahsin aytib, “...zamon shuarosi borcha tatabbu’ qildilar (ergashdilar)”, – deydi. Navoiyning ushbu e’tirofi bejiz emas. Bobur ijodidagi hammomga bag‘ishlangan she’rlar Lutfiyning mana shu birgina g‘azalida jamlangandek, ta’sirida yaratilgandek taassurot uyg‘otadi:

Suv g‘ayratidinkim tanig‘a tegdi damodam,
Jonim bori suv bo‘ldi-yu holim dag‘i abtar.
Ey koshki, men bo‘lg‘ay edim olida xodim,
To vasl tuni bo‘lg‘ay edi bizga muyassar.
Kavsar suyi, jannat guli oltun, tarog‘ olg‘och,
Hurlar kelur erdilar anga bo‘lg‘oli chokar.

Lutfiy ning ohiyu o‘ti, ko‘z yoshiga hammomdagi o‘tu suv bas kela olmaydi. Bu tasvir Bobur ruboiysida aynan takrorlanadi:

Bu Lutfining ohiyu o‘ti ko‘z yoshidandur,
Hammomning o‘tiyu suyi, tushmas anga bovar.

Bobur o‘zigagina xos bo‘lgan rostgo‘ylik bilan yozadi:

Hammomki, ark ichinda paydo qildim,
Sog‘inmaki, sudin tabarro qildim.

Sud ushbu emasmukim, tadbir bila

Pokiza badanlarni tamosho qildim.(182)

Arkda, ya’ni hukmdorlar oshiyonida hammom qurdirdim. Ammo meni bundan foyda topib boyimoqchi, deb o‘ylama. Pokdomon bokira vujudlarni bu tadbir bilan tamosho qilish foyda emasmi axir?! – deydi bu ruboiyda.

Hammomki, qildim ko‘rungizkim, ayyom,
O‘xshatti aning bori ishi manga tamom.
Ko‘z yoshiyu ko‘ngul o‘ti birla mendin,
Gulchehralar istabon yuriydur hammom.(182)

Boburning ushbu ruboiysida ham ma’no-mazmun jihatidan Lutfiyning yuqoridagi g‘azalida ko‘rgan holatimiz namoyon bo‘ladi. Bobur o‘zining holati bilan hammom o‘rtasida yaqinlik borligini shoirona lutf bilan sharhlaydi. Ruboiyda ma’shuqasiga intilgan oshiq iztiroblari juda ta’sirchan ifodalangan. Bobur o‘z davrimda hammom bunyod etdim: uning faoliyati mening xuddi ishu korimga o‘xshaydi. Mening qalbim yonadi-yu, ko‘zim suv to‘kadi. Gulchehralar shuning uchun ham hammomga kelishni istashadi deydi. Haqiqatan oshiqning qalbi o‘rtanib,

ishq olovida kuysa, uning ko‘zi yoshlanadi. Hammom ham o‘tu suv bilan ishlaydi. oshiqning holati bilan hammomning faoliyati orasida ichki nozik bog‘lanish bor.

Bobur mirzo yana bir ruboiysida:

Hammomki, to maskani jonona emish,
Anda parilar husnig‘a devona emish.
Ul xud paridur borcha mulozimlari ham,
Alqissaki, hammom parixona emish!(167)

Besh asr avval bitilgan ushbu ruboiyda hozirgi o‘quvchi uchun biror bir notanish so‘z yoki birikmalar yo‘q, murakkab tushuncha ham yo‘q. Ruboiy xalq orasida keng tarqalgan tasavvur asosida bitilgan. Ya’ni hammomda insu jinslar maskan quradi, deyiladi. Mana shu tasavvurdan boxabar o‘quvchi she’r mazmuniga tushunib oladi.

Yuqoridagi ijod namunalarida ma’lum bo‘ladiki, Bobur she’riyatda mavjud *hammom* poetik timsolidan unumli foydalangan. Xulosa qilib aytganda, garchi bu timsolning Boburga qadar ham elementar ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, Bobur uning yangi qirralarini ochdi. Shuning uchun ham I.V.Stebleva: “…Bobur she’rlarida timsollarning o‘ziga xosligi borasidagi xulosalar turkiyzabon mumtoz she’riyatning butun timsollar tizimini o‘rganishning bir bo‘lagi va dastlabki bosqichi deb qaralishi kerak” [Stebleva, 1982:102], – deydi.

Adabiyotlar

1. Bobur Z.M. 1989. Boburnoma. Toshkent: “Yulduzcha” .
2. Xondamir. 2018. Makorim ul-axloq. Toshkent: Yoshlar.
3. Иброҳим Ҳаққул. 2007. Навоийга қайтиш. “Фан” нашриёти. Тошкент.
4. Стеблева Ия Васильевна. 1982. Семантика газелей Бабура. Наука.

Boburiy podshoh Avranzeb Olamgirning diniy va adabiy majlislari
Religious and literary gatherings of Avrangzab Alamgir

Sherxon QORAYEV[1]

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola Zahiriddin Muhammad Bobur zurriyodidan bo‘lmish boburiy podshoh Avranzeb Olamgirning ijodiy faoliyati hamda ilmiy va adabiy majlislari tarixiga bag‘ishlanadi.

Eng qudratli boburiy hukmdorlardan biri sanalgan islom podshohi Avrangzeb davrida ilm-u fan, adabiyot va madaniyat rivojlandi. Avrangzeb davrida olimlardan Zafixon “Mutahab ul-lubob”, Mirzo Muhammad Kozim “Olamgirnoma”, Muhammad Soqiy “Maosiri olamgiriy”, Sujan Ray Xatri “Xulosot ul-tavorix”, Bxemsen “Nushkai dilkusho”, Ishvar Das “Futuhoti Olamgiriy” asarlarini yozganlar.

Avrangzeb rahbarligida “Fatavoyi Olamgiriy” nomli fatvolar to‘plami tuzilgan.

Kalit so‘zlar: *Islom podshohi, ilmiy suhbatlar, mushoira kechalari, baytlar, “Fatavoyi Olamgiriy”.*

Abstract: This scientific article is dedicated to the creative activity and the history of scientific and literary gatherings of the great Babur king Aurangzeb Alamgir, a descendant of Zahiriddin Muhammad Babur.

Science, literature and culture developed during the reign of Aurangzeb, who was considered one of the most powerful Bobur rulers. During the period of Aurangzeb, scholars Zafikhan wrote “Mutahab ul-lubab”, Mirza Muhammad Kozim “Alamgirnama”, Muhammad Saqi “Maosiri Alamgiri”, Sujan Ray Khatri “Khulosot ul-tavorikh”, Bhemsen “Nushkai dilkusho”, Ishwar Das “Futuhoti Alamgiri”.

Under the leadership of Aurangzeb, a collection of fatwas named “Fatavoyi Alamgiri” was compiled.

Keywords: *The king of Islam, scientific talks, evenings of mushaira, verses, “Fatavoyi Alamgiri”.*

Zahiriddin Muhammad Bobur avlodidan bo‘lgan Abdul Muzaffar Muhyiddin Muhammad Avrangzeb Bahodir Olamgir (1619-1707) buyuk hukmdor bo‘lgan. O‘z ilmiy va adabiy majlislarida o‘z o‘rni va o‘z vaqtida she’rlar o‘qigan, hikmatli so‘zlar, Qur’on oyatlarini yoddan aytgan bobokaloni Sohibqiron Temur kabi Avrangzeb islom podshohi deb atalgan. Uning Avrangzeb ismining ma’nosi “taxt

[1] *Sherxon Qorayev* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti.

ziynati", "taxt bezagi", Olamgir esa "olamning sayyidi", "olamni isloh qiluvchi" demakdir.

U sakkiz yoshida Qur'oni karimni yod oldi, hadis va fiqh ilmlarini chuqur o'zlashtirgan. U rasmiy davlat tili bo'lgan forschadan tashqari, arab, hind – urdu, bobokalonlari tili bo'lmish chig'atoy turkchasini puxta bilib olgan. Avrangzeb xattotlikka qiziqib, arab xatining nasta'liq va shikasta usullarida mohir xattot bo'lib yetishgan. Uning xattotlik san'ati namunalari hozirgacha saqlanib qolgan [Tursun, 2021:498]. O'z qo'li bilan yozgan Qur'oni karim nusxalarini Islomning muqaddas shaharlariga yuborgan: "Onhazrat nasx xati g'oyatda matonatli, uslubli edi va bu (xat) yozishda kamoli mahoratga molik edilar. Lavhasiga, jadvali hamda jildiga yetti ming rupiya mablag' sarf etilib, muqaddas dastxat (bilan bitilgan) Qur'oni sharifning ikki (nusxasi) Madinai munavvaraga yuborilgan [Soqiy, 2013:416]". Abulhasan Nadaviy o'zining "Maza xosaro al-alam binhitotil muslimin" kitobida boburiy hukmdor haqida shunday yozgan: "U temuriy podshohlarning eng kuchlilaridan biri edi. Ularning ichida ko'plab fathlarni amalga oshirgani, mamlakati kengrog'i, diyonatrog'i va Kitob (Qur'on) va Sunnatni biluvchirog'i edi [https://oliymahad.uz/5018]".

Islom podshohi Avrangzeb hukmronligi davrida "Fatavoyi Olamgiriy" nomli fatvolar to'plamini joriy etdi. "Uning podsholigi boburiylar saltanati oyining to'lishgan payti edi [Sattoriy, 2006:83]". "Avrangzebni tarixchilar saltanatda ilm-fan, madaniyat, me'morchilikning saxovatli homiysi sifatida tilga olishadi. Uning ayniqsa, bobolari tili bo'lmish turk (chig'atoy) tilining ravnaqi yo'lidagi xizmatlari alohida tahsinga loyiqdir. Hindistonda forsiy va hind tillari ustun bo'lsa-da, Avrangzeb turkiy (chig'atoy-o'zbek) adabiyot rivojini qo'llab-quvvatlaydi, turkiy til lug'atlari tuziladi. Bobosi Boburdek adabiyotga havas qo'ygani hamda g'azallar yozgani, shuningdek, xattotlik va xat-yozuvda mohir bo'lgani ham uning savodli bo'lganligidan dalolat beradi" [https://azon.uz/content/views/ilm-va-madaniyat-homiysi]. Binobarin, Ahmad Muhammad Tursun "Dunyoni tebratgan yetti buyuk" kitobida yozganidek, "Avrangzeb odil va zohid hukmdor sifatida Islom shariati talablariga juda qattiq turar edi. Avrangzeb Olamgir barcha yurtlarda shariat qonunlariga amal qilish yo'lida qozilarga yengillik yaratish uchun fiqhiy masalalarni tartibga solish maqsadida bir kitob ta'lif qilishni buyurdi [Tursun, 2021:546]. Fatvolar to'plamini tuzishdek bu ulug' ishni amalga oshirish uchun Shayx Nizomiddin Burhonpuriy boshchiligida o'sha vaqtning ko'zga ko'ringan ulamolaridan bir ijodiy guruh tuzdi. U kishi hanafiy fiqhining ko'zga ko'ringan allomalaridan yigirma kishini tanlab oldi. Mashaqqatli urinishlardan keyin katta, olti jildli ajoyib ilmiy asar dunyoga keldi. Bu noyob fiqhiy asar Hindiston va unga yaqin mintaqalarda hukmdorga hurmat yuzasidan "Al Fataviy al-Olamgiriya" deb, Misr, Shom va Turkiyada "Al Fataviy al-Hindiya" deb atalgan [https:// azon.uz/ content/

veiws/ saitanat-asoschisi-zahiriddin-muhammad]". Manbalarga ko‘ra, "Imom Dehlaviy aytadi: "Avrangzeb Olamgir bu vaqtda "Fatavoi Hindiya" asarini yozish va tartiblash ishlariga qattiq e'tibor bergan. Shayx Mulla Nizomiddin Avrangzeb Olamgirga har kuni kitobning tayyor qismini o‘qib bergan.

Avrangzeb Olamgir ko‘rsatmasiga binoan mamlakatning qirqdan ortiq salohiyatli fiqh olimlari shu tariqa hanafiy mazhabining fatvolarini saralab, to‘plamni tuzib chiqishgan. Hindistonda "Fatavoyi Olamgiriy", undan tashqari "Fatavoyi Hindiya" nomi bilan mashhur bo‘lgan fatvolar to‘plami ana shu tarzda yuzaga kelgan. Hanafiy mazhabining o‘ziga xos bu fiqhiy qomusi Nizomuddin Burhonpuriy (Shayx Nizom) boshliq yigirma to‘rt nafar olim tomonidan Qur'on, Sunnat, ijmo va qiyosga muvofiqligi tekshirib chiqilgan. Shayx Nizom rahbarligi va muharrirligida tugatilgach, Avrangzeb mazkur kitobni barcha amaldorlarga tarqatib, bundan keyin barcha davlat va qozilik ishlarida ana shu fatvolarga qat'iy rioya qilishni, Islom shariati talablarining har qanday buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikni tayinlagan. [https://islom.uz/maqola/14616]". Bundan tashqari, "Temuriylar shajarasi" kitobida yozilishicha, "Ahkomi Olamgiriy" ("Fatavoyi Olamgiriy") asarida Avrangzebning o‘z farzandlariga vasiyatnomasi ilova qilingan [Fayziev, 1985:285].

Avrangzeb bobosi Bobur kabi adabiyotsevar hukmdor bo‘lgan. Manbalarda yozilishicha, "Avrangzeb o‘qimishli va bilimdon kishi bo‘lib, talaygina g‘azallarni yoddan bilgan. Avliyolar va mutasavviflarni o‘z qaramog‘iga olib, ularga homiylik qilgan. Shu sababli u olim va ilmiga amal qiladigan podshoh bo‘lgan. U islom, ma'rifat va muruvvatni Hindiston bo‘ylab keng yoygan. Manbalarda boburiy hukmdorning she'r yozgani aytilgan. Turg‘un Fayziev "Zebunniso Begim" maqolasida qayd etganidek, "Avrangzeb Qur'onni yod bilar, talaygina she'rlarni yoddan o‘qib, o‘zi ham she'r yozgan [https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/zebunniso-devon.html]". Ahmad Muhammad Tursun ham "arab, fors va turk tillarini bilgan Avrangzebni adabiyot muxlisi bo‘lganini, o‘zi ham g‘azallar yozganini", zikr etgan [Tursun, 2021:491].

Darhaqiqat, o‘z davrida Avrangzeb xudojo‘y, bilimdon, dono va diniy hamda adabiy majlislar quradigan she'riyatshunos hukmdor sifatida e'tirof etilgan. Saroy tarixchisi Muhammad Musta'idxon Soqiy o‘zining "Ma'osiri Olamgiriy" asarida yozishicha, "Onhazrat (Avrangzeb) nasta'liq va shikasta xatlarini ham g‘oyatda chiroyli yozganlar. Nasr va inshoni yuksak darajada (fahmlash) xususida Onhazratga imtiyozlilik va nazm(ni tushunish) mahoratida ham to‘la bahramandlik mansub edi. "Qudratga qudrat qo‘shuvchi" shoirlarning haqiqiy sharofatli, dinni targ‘ib etuvchi (ash'orlarini) sevish bilan (ularga) ishtiyoq bildirib, ammo befoyda she'rlarni eshitishni xohlamasdilar. Madh ash'orlarni eshitishdan nima chiqadi,

magarki she’r mazmuni Tangri (madhi)ga qaratilgan bo‘lsa (bu boshqa gap), derdilar. Bayt:

Xudoyi azza va jallaning rizoligi yo‘li (bu ish),
Qilinmasa (ya’ni madh she’r bitilmasa).
Ko‘z ham g‘azal aytuvchiga (boqmaydi),
Quloq ham ul g‘azalni (eshitmaydi) [Soqiy, 2013:419].

Avrangzeb doimo adabiy o‘tirishlarda o‘zi yoqtirib qolgan baytlarni takrorlab yurgan. Uning huzuridagi she’riyat kechalarida islomiy she’rlar o‘qilgan. “Ma’osiri Olamgiriy”da yozilishicha, saroydagi adabiy davrada *“Amirxon aytdi: Onhazrat bir kun nihoyat zaif holda shivirlab dedilar. Fard (Mazmuni):*

Sen sakson to‘qqiz yoshga yetgan ekansan,
Davr qiyinchiliklarini keragicha tortding.
Ul maqomda yuz manzilga yetsang ham,
Hayot bo‘lgani kabi o‘lim ham bo‘ladi.

Mening qulog‘imga xuddi shu mazmundagi (baytlar) yetib kelgach, tezda arzga yetkazildi. “Hazrat Salomat Shayx Kenja (Alloh rahmat qilsin) bir baytni yasash uchun bu (kabi) hamma baytlarni aytib chiqqan va (bir bayt) budir. Fard (Mazmuni):

Eng yaxshi narsa o‘zni shod tutishingdir,
Shodlikda Xudoni yod tutishingdir.

(Onhazrat) yana o‘qing, deb buyurdilar. (Bu bayt) bir qancha martaba takrorlandi. Yozib, menga bering, degan ishora qilindi. Yozib berdim. Bir ozgina vaqt o‘qib turdilar [Soqiy, 2013:399]*”.*

Boburiy podshoh Avrangzeb Olamgir majlislariga o‘z zamonining adiblari va shoirlari o‘z asarlarini taqdim etib turishgan. Ma’lumotlarga qaraganda, *“Baxshi ul-mulk Muxlisxon Soibning bir lakhdan ziyodroq baytlardan tashkil topgan, chiroyli xat bilan yozilgan devonini hamma narsani biladigan dono xoqon va qadr – qimmatga yetadigan hokim nazari (majlisi)dan o‘tkazdi. Hayotning yagona muntahabi bo‘lmish ul (devon)ning aksar ash’orlari pandu nasihat va foydali (fikrlardan) tashkil topgandir, ofarinlar aytildi va matla’i, ikkinchi bayti hamda maqtai ushbu baytlardan iborat g‘azal bir qancha muddat davomida (Onhazratning) muqaddas og‘zidan tushmadi va sohibi tab’lar (bu g‘azalga) taqlid qilib, (she’rlar) yozdilar (Mazmuni):*

Qanot ham bo‘lsa-da, qadni ko‘tarib kermoq kerak,
Ko‘prikni suv oqizsa, tuzatib o‘tmoq kerak.
Har neki darkor bo‘lsa, qurish kerakligi
o‘z-o‘zidan tushunarli,
Hatto jahon ishlarin tuzib yashash kerak.
Bu safar Soibning o‘zga safarlari kabi emas,

Vujud libosini yechib tashlab, safar qilmog‘i kerak [Soqiy, 2013:299]***”.***

Avrangzeb davrida olimlardan Zafixon “Mutahab ul-lubob” asarini yozib tugatadi. Mirzo Muhammad Kozim “Olamgirnoma”, “Muhammad Soqiy “Maosiri Olamgiriy”, Sujan Ray Xatri “Xulosot ul-tavorix”, Bxemsen “Nushkai dilkusho”, Ishvar Das “Futuhoti Olamgiriy” asarlarini yozganlar [https://oliymahad.uz/5018]”.

Muxtasar aytganda, “Shohijahon hukmronligi davrida ma’lum darajada o‘z mavqeyini yo‘qota boshlagan Chig‘atoy turkiychasi Avrangzeb davriga kelib qayta tiklangan. Chunki turkiy tilni tadqiq va tashviq qilishda Avrangzebning o‘zi ham muayyan hissa qo‘shgan. Ya’ni, bevosita uning ko‘rsatmasiga binoan Muhammad Yoqub Changiyning turkiy til grammatikasi masalalariga bag‘ishlangan 15 qismdan iborat “Kelurnoma” yoki Kasaban Barbalaning shu an’ana ruhidagi “Haft axtar” asarlari yozilgan [Tursun, 2021:552]. Shuningdek, mumtoz adabiyot rivojlangan.

Bir so‘z bilan Avrangzebni tarixda buyuk islom podshosi, olim va adabiyotsevar hukmdor bo‘lgan, deyish mumkin.

Adabiyotlar

1. Muhammad Tursun, Ahmad. 2021. Dunyoni tebratgan yetti buyuk. Toshkent: Azon kitoblari.

2. Nizomiddinov, N.G‘. 2012. Buyuk boburiylar tarixi. (XVI-XIX asr). Toshkent: Fan va texnologiyalar.
3. Sattoriy, Hakim. 2016. Sohibqiron abadiyati. Toshkent: “Sharq” NMAK BT.
4. Sattoriy, Hakim. 2006. Oltin silsila. Toshkent: “ Sharq” NMAK BT.
5. Satimov, G‘ofurjon. 2008. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida
6. boburiylar davri. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU.
7. Soqiy, Muhammad Musta’idxon. 2013. Boburiy podshoh Avrangzeb. (“Ma’osiri Olamgiriy”). Toshkent: Movarounnahr.
8. Hayit, To‘lqin. 2013. Temuriy ijodkorlar. Toshkent: O‘qituvchi.

Сулайман гора в контексте наследия Бабура
Sulaiman Mountain in the context of Babur's legacy

Рахима УМАРОВА[1]

Аннотация: Данный тезис описывает культурную и историческую значимость Сулейман горы. Указано культурное значение Сулейман горы в продвижении архитектурных традиций, описана историческая связь наследия Бабура, политическое влияние и личное отражение философских и политических взглядов.

Ключевые слова: *культурное наследие, историческая связь, философский взгляд, идентичность, наследие Бабура.*

Abstract: This thesis describes the cultural and historical significance of Mount Suleiman. The cultural significance of Suleiman Mountain in promoting architectural traditions is indicated, the historical connection of Babur's heritage, political influence and personal reflection of philosophical and political views are described.

Keywords: *cultural heritage, historical connection, philosophical view, identity, Babur's heritage.*

«Сулайман гора» представляет собой важный символ в наследии Бабура, отражая как его личные амбиции и стремления, так и его политическое и культурное наследие.

В контексте наследия Бабура, Сулайман гора служит не только памятником его военной и политической мощи, но и местом, связанным с его глубокими философскими и культурными взглядами, демонстрируя сложные взаимосвязи между личной идентичностью и государственной идеологией.

Этот тезис подчеркивает многогранность значения Сулайман горы в рамках наследия Бабура, связывая её с личной и культурной идентичностью правителя.

Сулайман гора в контексте наследия Бабура представляет собой ключевое культурное и историческое наследие, отражающее стремление Бабура к укреплению своего имиджа как могущественного правителя и культурного мецената. Гора служит символом его связи с прошлым, а также его способности интегрировать различные культурные и исторические элементы, демонстрируя его влияние на развитие искусства и архитектуры в регионе».

[1] Кыргызско-Узбекский международный университет имени Батыралы Сыдыкова, старший преподаватель

Этот тезис акцентирует внимание на культурную и историческую значимости Сулайман горы как элемента наследия Бабура, подчёркивая его роль в формировании культурной идентичности и политического имиджа.

Вот несколько возможных результатов и выводов на основе тезиса о Сулайман горе в контексте наследия Бабура:

1. **Культурное значение**: Сулайман гора, как часть наследия Бабура, становится символом его стремления к объединению культурных традиций. Гора не только служит памятником личной амбиции Бабура, но и отражает его усилия по поддержанию и продвижению культурных и архитектурных традиций в его государстве.
2. **Историческая связь**: Сулайман гора подчеркивает историческую связь между личной историей Бабура и его политическими и военными достижениями. Гора становится материальным выражением его стремлений и достижений, объединяя элементы личной истории и государственной идеологии.
3. **Политическое влияние**: Сулайман гора способствует укреплению политического имиджа Бабура как могущественного и дальновидного правителя. Гора, будучи важной частью его наследия, помогает создать и укрепить символическое представление о его правлении и власти.
4. **Архитектурное наследие**: Сулайман гора демонстрирует влияние Бабура на архитектурное развитие региона. Строительные проекты и культурные инициативы, связанные с горой, отражают его способность интегрировать разнообразные архитектурные стили и традиции, способствуя развитию уникального культурного наследия.
5. **Личное отражение**: Гора служит личным символом для Бабура, отражая его философские и культурные взгляды. В этом контексте Сулайман гора становится важной частью его личной идентичности, связывая его личные и политические амбиции с более широким культурным и историческим контекстом.

Эти выводы подчеркивают многогранное значение Сулайман горы в наследии Бабура, учитывая, как его личные, так и более широкие культурные и политические аспекты.

Список использованных источников:

1. Наливкин, П.1966. История Ферганы и Кашгари. - Казань.
2. Литвинский, Б., Левина, И.1966. Религиозные памятники и культура Средней Азии. – Москва.
3. Пугаченкова, Г.1976. История архитектуры Средней Азии. – Москва.
4. Кляшторный, С., Султанов, Т. 2000. Культурное и религиозное наследие Центральной Азии. - Санкт-Петербург.

Boburiylar imperiyasida fan va san’at taraqqiyoti
The Development of Science and Art in the Mughal Empire

Dilafruz MUHAMMADIYEVA[1]
Nigoraxon O‘KTAMOVA[2]

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boburiylar imperiyasi davrida ilm-fan va san'atning rivojlanishi haqida so‘z yuritiladi. Boburiylar imperiyasi nafaqat harbiy va siyosiy kuch sifatida, balki madaniy merosi bilan ham Sharq dunyosining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Ushbu maqola ilmiy yutuqlar va san’at asarlari orqali Boburiylar hukmronligi davrida bu sohalarda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lgani, Boburiy olimlari va san’atkorlari yaratgan asarlarning ahamiyati haqida tushuncha beradi.

Kalit so‘zlar: *Boburiylar, ilm-fan, san'at, madaniyat, Hindiston, Uyg‘onish davri.*

Annotation: This article discusses the development of science and art during the reign of the Mughal Empire. The Mughal Empire was not only a military and political power but also contributed significantly to the cultural advancements of the Eastern world. Through scientific achievements and artistic masterpieces, this article highlights the transformations in these fields during the Mughal rule and examines the importance of works created by Mughal scholars and artists.

Keywords: *the Baburis,, science, art, culture, India, Renaissance.*

Kirish

Boburiylar imperiyasi Sharqning eng yirik imperiyalaridan biri bo‘lib, 16-asr boshlaridan 19-asrning birinchi yarmigacha davom etgan. Bu imperiya asoschisi Zahiriddin Muhammad Boburning siyosiy faoliyati bilan bir qatorda, uning avlodlari davrida ilm-fan va san’at jadal rivojlangan. Boburiylar Hindistonda nafaqat davlat tizimini barpo etdilar, balki bu yerda madaniyat, adabiyot, san’at va ilm-fanning gullab-yashnashiga katta hissa qo‘shdilar.

Boburiylar davrida ilm-fan sohasida katta yutuqlarga erishildi. Xususan, astronomiya, tibbiyot, matematika, muhandislik va qishloq xo‘jaligi sohalarida yangi bilimlar paydo bo‘ldi. Boburiy olimlari Yunon va Hindistonning qadimiy ilmiy merosini o‘rganish bilan bir qatorda, uni o‘z ilmiy tadqiqotlari bilan boyitib bordilar.

[1] Muhammadiyeva Dilafruz Axtamovna –Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti
[2] Nigoraxon O‘KTAMOVA – denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Akbarshoh davrida Hindiston ilm-fani gullab-yashnagan davr sifatida e’tirof etiladi, chunki bu davrda ko‘plab ilmiy asarlar yozildi va tarjima qilindi.

Boburiylar davri san’atida ulkan taraqqiyot kuzatildi. Ular asosan me’morchilik, miniatyura san’ati va musavvirlikda katta yutuqlarni amalga oshirdilar. Xususan, Hindistonning mashhur me’moriy inshootlari - Toj Mahal, Qutb minorasi va Akbarshoh saroylari bu davr me’morchilik san’atining yuksak namunalari hisoblanadi. Shuningdek, miniatyura san’atida Boburiylar musavvirlari G‘arbiy va Sharqiy san’at an’analarini uyg‘unlashtirib, betakror asarlar yaratdilar. Boburiylar imperiyasida ilm-fan va san’atning rivojlanishi nafaqat Hindiston, balki butun dunyo tarixida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Boburiylar avlodlari tomonidan barpo etilgan madaniy va ilmiy yodgorliklar hali ham insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda.

Boburiylar imperiyasi Sharq tarixida chuqur iz qoldirgan va nafaqat siyosiy, balki madaniy va ilmiy taraqqiyot jihatidan ham yuksak natijalarga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bu imperiyaning asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining siyosiy iqtidori bilan butun Hindistonni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi va shu bilan birga, o‘z madaniy va ilmiy qarashlarini ham keng yoyishga intildi. Boburiylar davri Sharq Uyg‘onish davri sifatida qabul qilinadi, chunki bu davrda ilm-fan, san’at va madaniyatning deyarli barcha sohalarida yirik yangiliklar sodir bo‘lgan.

Boburiylar, ayniqsa, san’at va ilm-fanni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan hukmdorlar sifatida tarixda nom qoldirdilar. Boburning o‘zi ham nafaqat davlat arbobi, balki shoir, tarixchi va tabiatshunos sifatida mashhur bo‘lgan. U o‘zining “Boburnoma” asarida nafaqat o‘zining hayotini va siyosiy faoliyatini, balki o‘sha davrdagi tabiat, odamlar, ijtimoiy va madaniy hayot haqida qimmatli ma’lumotlarni yozib qoldirgan.

Boburiylar imperiyasining keyingi avlodlari ham ilm-fan va san’atni rivojlantirishni davom ettirdilar. Akbarshoh, Jahongir va Shoh Jahon kabi hukmdorlar faqat siyosiy va harbiy mahoratlari bilan emas, balki san’at va ilm-fanga qo‘shgan hissalari bilan ham yodga olinadi. Akbarshoh ilm-fan va san’atning himoyachisi bo‘lib, ko‘plab olim va san’atkorlarni o‘z saroyiga jamlagan. Uning davrida madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar kuchayib, hind va musulmon madaniyatlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda rivojlangan. Bu esa imperiyaning madaniy jihatdan boy va xilma-xil bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Boburiylar hukmronligi ostida Hindiston nafaqat siyosiy barqarorlikka erishdi, balki madaniy gullab-yashnash davriga kirdi. Bu davrda yaratilgan san’at asarlari, qurilgan inshootlar va yozilgan ilmiy asarlar imperiyaning buyuk madaniy merosini tashkil qiladi. Boburiy hukmdorlar san’atning turli sohalarida – me’morchilik, musavvirlik, adabiyot va musiqa – o‘ziga xos yuksak darajaga yetishdi. Shuningdek,

ilm-fanning turli yo‘nalishlarida, xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot va geometriya sohalarida yirik kashfiyotlar amalga oshirildi.

Boburiylar imperiyasi san’at va ilm-fanning barcha jabhalarida yaratgan boy meros nafaqat Hindiston, balki butun dunyo madaniyatiga katta ta'sir ko‘rsatdi. Ularning faoliyati Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy va ilmiy almashinuvlarni rivojlantirdi hamda bu ikki dunyo o‘rtasidagi bilimlar o‘zaro boyitildi. Shu sababli, Boburiylar davri ilm-fan va san’atning eng yuksak davrlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Ilm-fan rivoji

Boburiylar imperiyasi davrida ilm-fanning rivoji nafaqat o‘sha davr madaniyati va iqtisodiyotiga katta ta'sir ko‘rsatdi, balki keyingi asrlarda ham ilm-fan sohasidagi yutuqlar va ilmiy an'analar saqlanib qoldi. Boburiy hukmdorlar ilm-fan taraqqiyotiga alohida e'tibor qaratganlar va o‘z imperiyalarini rivojlantirish uchun ilmiy bilimlarni qo‘llaganlar. Bu davrda fan sohasidagi yutuqlar asosan Hindistonning madaniy merosi va qadimiy bilimlari, hamda islom dunyosining ilmiy an'analari bilan boyitilgan.

Matematika va astronomiya

Boburiylar hukmronligi davrida matematika va astronomiya sohalarida katta yutuqlar kuzatildi. Matematika Hindiston va islom olamida uzoq vaqt davomida rivojlangan ilmiy soha bo‘lib, Boburiylar davrida bu sohadagi bilimlar yana ham kengaytirildi. Boburiylar astronomiyaga katta qiziqish bilan qaraganlar va bu borada o‘z olimlarini qo‘llab-quvvatlaganlar.

Akbarshoh davrida astronomiya faniga katta e’tibor berilgan, o‘sha davrning eng mashhur astronomlari va matematiklari saroyda faoliyat yuritishgan. Saroyda astronomik kuzatishlar o‘tkazish uchun maxsus asboblar bilan jihozlangan rasadxona tashkil qilingan.

Mazkur davrda Amir Xusrav Dehlavi, Mirzo Ulug‘bek an’analarini davom ettirgan olimlar tomonidan ko‘plab astronomik va matematik tadqiqotlar olib borildi. Xususan, Jahongir davrida Mirzo Xusrav nomli mashhur olim rasadxona boshqaruvchisi bo‘lgan va uning kuzatishlari natijalari saroy ilmiy doiralari tomonidan yuqori baholangan. Shuningdek, Akbarshoh davrida zamonaviy yulduzlar xaritasi tuzilib, osmon jismlarining harakati, yerning aylanishi haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Tibbiyot va farmatsevtika

Boburiylar davrida tibbiyot sohasi ham keng rivojlangan. Ular qadimgi Hindiston va Yunon tibbiy an'analariga asoslanib, zamonaviy davolash usullarini ishlab chiqqanlar. Boburiylar hukmronligida Yunon va Hindiston tibbiyoti birlashib, yangi usullar, dori-darmonlar ishlab chiqildi va kasalliklarni davolashda yanada ilg‘or

yondashuvlar qo‘llanildi. Hindistonning qadimiy Ayurvedik tibbiyoti, Yunon tibbiyoti bilan uyg‘unlashib, zamonaviy tibbiyotga asos soluvchi ko‘plab tadqiqotlar olib borildi.

Tibbiyot sohasidagi rivojlanish asosan Akbarshohning shifokor va tabiblarga bo‘lgan hurmati bilan bog‘liq. Uning saroyida ko‘plab mashhur tabiblar faoliyat yuritgan. Ular orasida Yunon tibbiyoti an’analarini davom ettirgan va Hindistonning mahalliy tibbiy bilimlarini birlashtirgan olimlar mavjud edi. Masalan, Badaxshoniy Hakim Humoyun Akbarshohning shaxsiy shifokori bo‘lib, u zamonaviy diagnostika va davolash usullarini ishlab chiqqan. Shuningdek, farmatsevtika sohasida ham yirik kashfiyotlar qilingan, yangi dori-darmonlar yaratilib, ularning samaradorligi oshirilgan.

Geometriya va muhandislik

Boburiylar davrida geometriya va muhandislik sohalarida ham yirik yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, arxitektura sohasida geometrik bilimlar va an’analar asosida ajoyib inshootlar barpo etildi. Hindistonning ulkan saroylari, madrasalari va masjidlari qurilishida qo‘llanilgan geometrik shakllar va murakkab tuzilmalar hali ham o‘ziga xos san'at namunasi hisoblanadi. Boburiy arxitektorlar va muhandislar nafaqat Hindiston, balki butun dunyoda mashhur bo‘lgan inshootlarni qurishda geometrik bilimlarga asoslangan murakkab loyihalarni amalga oshirganlar.

Toj Mahal kabi mashhur inshootlar nafaqat estetik go‘zalligi, balki geometriyaga asoslangan mukammal tuzilishi bilan ham ajralib turadi. Muhandislik sohasida ham Boburiylar davrida ko‘plab ilg‘or usullar joriy etilgan. Masalan, suv ta’minoti tizimlari, sug‘orish inshootlari va qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan muhandislik yechimlari bu davrda yuqori darajada rivojlangan. Boburiy hukmdorlar Hindistonning iqlimi va tabiiy sharoitlariga mos ravishda yer resurslarini samarali boshqarish uchun muhandislik bilimlarini keng qo‘llaganlar.

Adabiyot va falsafa

Ilm-fanning rivojlanishi adabiyot va falsafa sohasida ham sezilarli darajada aks etgan. Boburiylar hukmronligi davrida falsafiy asarlar, ilmiy risolalar va adabiy asarlar yozilgan bo‘lib, ular ilm-fan va falsafaning o‘zaro bog‘liqligini namoyon etadi. Akbarshoh davrida adabiyotning falsafiy yo‘nalishida katta yutuqlar kuzatildi. Akbarshohning o‘zi ko‘plab falsafiy muhokamalarda qatnashgan va bu bilan imperiya doirasida ilmiy tafakkurni rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan.

Boburiylar saroyida ko‘plab adiblar va faylasuflar faoliyat yuritgan bo‘lib, ular diniy, falsafiy va ijtimoiy mavzularda risolalar yozgan. Bu davrda yozilgan asarlar o‘ziga xos ilmiy-falsafiy tafakkurning mahsuli bo‘lib, ularning ba'zilari G‘arb dunyosida ham mashhur bo‘lgan. Xususan, Akbarshohning "Din-i Ilahiy" falsafasi dunyoning turli xalqlari va dinlari o‘rtasidagi uyg‘unlik va birlikka asoslangan. Bu

falsafa nafaqat ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qilgan.

Ilmiy kitoblar va tarjimalar

Boburiylar davrida ilm-fanning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan yana bir soha bu ilmiy asarlarning tarjima qilinishi edi. Akbarshoh davrida Yunon, Fors va Hindistonning qadimiy ilmiy asarlari arab, fors va hind tillariga tarjima qilingan. Bu tarjimalar orqali ilm-fan bilimi kengroq tarqalgan va o‘zaro almashinuv kuchaygan. Akbarshohning ilmi keng bo‘lishi va turli xalqlarning madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi natijasida, ko‘plab ilmiy va adabiy asarlar Hindiston hududida keng miqyosda tarjima qilingan.

Tarjima qilingan ilmiy asarlar orasida qadimgi Yunonning falsafiy asarlari, Hindistonning tibbiyot va astronomiyaga oid bilimlari, hamda islom olamining ilmiy yutuqlari mavjud edi. Bu tarjimalar orqali ilmiy bilimlar faqat saroy doirasida qolmay, balki xalq orasida ham tarqalgan va o‘z ta'sirini o‘tkazgan.

Boburiylar davrida ilm-fanning barcha jabhalarida sezilarli rivojlanish kuzatildi. Matematikadan tibbiyotgacha, muhandislikdan falsafagacha bo‘lgan sohalarda yirik kashfiyotlar va ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Boburiylar ilm-fanni qo‘llab-quvvatlash orqali nafaqat o‘z davlatining iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga, balki ilm-fanning jahon miqyosida rivojlanishiga ham ulkan hissa qo‘shdilar. Ularning bu boradagi merosi hozirgi kunga qadar saqlanib, insoniyat madaniyati va ilm-fanining ajralmas qismi sifatida qadrlanadi.

Boburiylar imperiyasi davrida ilm-fan, xususan matematika va geometriya sohalarida katta yutuqlarga erishildi. Bu davrda matematika va geometriya nafaqat nazariy sohada, balki kundalik hayotda, muhandislik va arxitektura sohalarida ham keng qo‘llanildi. Boburiy hukmdorlarining ilm-fanga qiziqishi, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishi va olimlarni qo‘llab-quvvatlashi bu sohalarning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Akbarshoh, Jahongir va Shoh Jahon hukmronlik qilgan davrlarda matematika va geometriya fanlari yuksak darajada rivojlandi va ulkan kashfiyotlar sodir bo‘ldi.

Matematika sohasidagi rivojlanish

Boburiylar davrida matematika fanining rivoji Hindistonning qadimiy matematika an’analariga asoslangan bo‘lib, bu ilmiy bilimlar fors va arab dunyosidan olingan yutuqlar bilan uyg‘unlashtirilgan. Hindistonning qadimiy Veda matematika maktabi asrlar davomida algebra, arifmetika va geometriya sohalarida o‘z bilimlari bilan tanilgan edi. Boburiy hukmdorlar ushbu bilimlarni yanada rivojlantirib, uni zamonaviy tadqiqotlar bilan boyitdilar.

Boburiy matematiklar algebra, arifmetika va geometriya kabi sohalarda ko‘plab tadqiqotlar olib borib, matematik tenglamalarni yechishning yangi usullarini ishlab chiqdilar. Xususan, algebra sohasida murakkab tenglamalar va noma’lumlarni

yechish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar ishlab chiqildi. Bu kashfiyotlar nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki kundalik hayotda, jumladan soliq va hisob-kitob ishlarida keng qo‘llanildi. Boburiy saroyida ishlagan olimlar Hind va Yunon matematik bilimlarini yanada boyitib, o‘z matematik maktablarini tashkil qildilar. Xususan, Yunon matematikasi va hind arifmetikasining uyg‘unlashuvi natijasida ko‘plab yangi nazariyalar paydo bo‘ldi. Bu davrda matematik tenglamalarning amaliy yechimlari qishloq xo‘jaligi va shaharsozlikda qo‘llanila boshlandi.

Akbarshoh davrida matematik bilimlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. U o‘z davridagi eng mashhur olimlarni saroyiga yig‘ib, ularning ilmiy tadqiqotlarini qo‘llab-quvvatladi. Bu davrda matematik tadqiqotlar ko‘proq astronomiya bilan bog‘liq bo‘lib, yulduzlar va sayyoralar harakatini aniqlash uchun murakkab hisob-kitoblar ishlatilgan. Yulduzlar xaritasini tuzish va kuzatishlar olib borishda matematik usullar keng qo‘llanilgan.

Matematika sohasidagi eng muhim kashfiyotlardan biri bu arifmetik algoritmlarni soddalashtirish va optimallashtirish edi. Bu nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki muhandislik va arxitektura sohalarida ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Boburiy matematiklari murakkab geometriya masalalarini hal qilishda ilg‘or usullardan foydalanganlar.

Geometriya va muhandislikdagi yutuqlar

Geometriya Boburiylar davridagi eng muhim ilmiy sohalardan biri bo‘lib, u arxitektura va muhandislikning ajralmas qismi hisoblangan. Geometriya nafaqat nazariy bilim sifatida rivojlandi, balki amaliyotda ham keng qo‘llanildi. Boburiy me’morchiligi va shaharsozligidagi yuksak yutuqlar aynan geometriya bilimlari asosida yaratildi. Geometriya orqali murakkab inshootlar, masjidlardan tortib saroylar va bog‘largacha bo‘lgan ko‘plab me’moriy obidalar qurildi.

Boburiy arxitekturasida geometrik naqshlar va shakllar keng qo‘llanildi. Bu davrda barpo etilgan yodgorliklarning ko‘pchiligi — masalan, Toj Mahal yoki Humoyun maqbarasi — mukammal geometrik rejalashtirish asosida qurilgan. Toj Mahalning ulkan simmetrik tuzilishi va murakkab bezaklari geometriyaning yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Bu obidada markaziy chiziqlar, aylana va to‘g‘ri chiziqlar o‘zaro mukammal uyg‘unlikda joylashtirilgan. Boburiylar davridagi geometriya asosan uch o‘lchovli modellar, geometrik tasvirlar va shaharsozlikda qo‘llangan. To‘g‘ri chiziqli va aylana shakllaridan foydalanish, simmetriya va proporsiyaga e’tibor berish orqali Boburiy me’morlari o‘z zamonlarida tengi yo‘q inshootlarni yaratishga muvaffaq bo‘ldilar.

Geometriya Boburiylar davrida nafaqat me’morchilikda, balki texnik muhandislik sohasida ham keng qo‘llanilgan. Bu davrda ko‘plab sug‘orish tizimlari, qishloq xo‘jaligi texnologiyalari va suv inshootlari barpo etildi. Ayniqsa, Boburiylar muhandisligi suv ta’minoti tizimlarini barpo etishda ilg‘or yondashuvlarni qo‘llagan.

Suv oqimlari va yerning relefini aniq o‘lchash orqali Boburiylar sug‘orish tizimlarini optimal tarzda tashkil qildilar, bu esa qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini oshirdi.

Arxitektura va geometriyaning uyg‘unligi

Boburiylar davrida geometriya va arxitektura o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu davrning eng yuksak me’moriy inshootlarida geometrik bilimlar mukammal darajada qo‘llanildi. Bu inshootlar nafaqat o‘zining go‘zalligi bilan, balki amaliy jihatdan ham o‘ziga xoslik kasb etdi.

Arxitektorlar geometrik bilimlardan foydalangan holda murakkab arxitektura loyihalarini amalga oshirdilar. Shuningdek, bu davrda me’morchilikda “oltin kesim” va boshqa matematik qoidalar keng qo‘llanilib, tuzilmalarni mukammallikka olib kelishgan.

Toj Mahal va boshqa me’moriy asarlar qurilishida mukammal simmetriya va proporsiyalar saqlangan bo‘lib, ular geometriyaning yuksak darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi. Simmetrik elementlar, aylana shakllar va murakkab geometriya bu yodgorliklarning asosiy o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Boburiylar davrida arxitektura va geometriya birlashuvi nafaqat inshootlarning tashqi ko‘rinishida, balki ularning ichki bezagida ham yaqqol ko‘rinadi. Mozaikalar, marmar naqshlar, to‘r naqshli panjara va devoriy bezaklar ham geometrik naqshlar asosida yaratilgan bo‘lib, bu inshootlarga o‘ziga xoslik va nafislik bag‘ishlagan.

Boburiylar imperiyasi davrida san’atning rivojlanishi nafaqat Hindiston, balki butun dunyo madaniyatiga katta hissa qo‘shgan. Boburiylar hukmdorlari san’atni o‘z imperiyalarining madaniy merosining ajralmas qismi sifatida qabul qilgan va bu sohada katta yangiliklar yaratganlar. Ularning hukmronligi davrida me’morchilik, miniatyura san’ati, musavvirlik va boshqa turli san’at turlarida betakror asarlar yaratilgan. Bu asarlar nafaqat san’atkorlar, balki butun jamiyat uchun ham ilhom manbai bo‘lgan.

Me’morchilik

Boburiylar imperiyasida me’morchilik san’atining rivojlanishi ulkan yutuqlarga olib keldi. Bu davrda yaratilgan me’moriy asarlar Hindiston madaniyati va arxitekturasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘ldi. Me’morchilikda Boburiylar hind, fors va islom an’analarini uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos yondashuvni yaratdilar. Ularning me’moriy yodgorliklari ham tashqi ko‘rinishi, ham ichki bezagi bilan ajralib turadi. Boburiy me’morchiligida eng muhim inshootlardan biri bu Toj Mahal bo‘lib, u Shoh Jahon tomonidan o‘z sevikli rafiqasi Mumtoz Mahal xotirasiga qurilgan. Toj Mahal me’moriy san’atning eng yuqori cho‘qqilaridan biri hisoblanadi va dunyodagi yetti mo‘jizaning biri sifatida tan olingan. Toj Mahalning oq marmar devorlari, murakkab geometrik naqshlar va noyob me’moriy yechimlari Boburiylar davridagi me’morchilikning yuksak darajada ekanligini namoyon etadi. Bu inshoot nafaqat Hindiston, balki butun dunyo madaniyati uchun bebaho yodgorlik bo‘lib, uning

yaratilishi o‘sha davr san’atkorlari va me’morlarining mahoratini ko‘rsatadi. Shuningdek, Akbarshohning Agrada barpo etgan Fatehpur Sikri shahri ham Boburiylar me’morchiligining yorqin namunasidir. Bu shahar Akbarshohning qudratini va madaniyati qanchalik yuksak ekanligini namoyish etuvchi yodgorlik sifatida barpo etilgan. Shaharni loyihalashtirishda yuqori darajadagi geometriya va shaharsozlik printsiplari qo‘llanilgan bo‘lib, bu uning nafaqat me’moriy, balki muhandislik yutug‘i ekanligini ham ko‘rsatadi. Fatehpur Sikri me’morchiligi hind va musulmon uslublarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ularning sintezi orqali yaratilgan o‘ziga xos yodgorlikdir. Boburiylar davridagi boshqa me’moriy obidalar ham, masalan, Lahor qal’asi, Qutb Minor, Humoyun maqbarasi san’at va me’morchilikning ajoyib namunalari sifatida tan olinadi. Bu inshootlar faqatgina me’morchilik asarlari bo‘lmasdan, Boburiylar davridagi madaniy va diniy tafakkurni ham ifoda etadi.

Miniatyura san’ati

Miniatyura san’ati Boburiylar davrida alohida rivoj topdi va bu soha o‘sha davrdagi eng yuksak san’at turlaridan biri bo‘ldi. Miniatyura san’atida asosan kitoblar uchun rasmlar, ya'ni kitob musavvirligi rivojlandi. Boburiylar saroyida faoliyat yuritgan musavvirlar turli xil diniy, tarixiy va adabiy mavzularda miniatyuralar yaratganlar. Bu san’at asosan Sharq an’analariga asoslangan bo‘lib, unda murakkab va nozik detalizm asosiy o‘rinni egallaydi. Boburiy miniatyura san’atining yirik namoyandalari orasida Mir Sayid Ali, Behzod kabi mashhur rassomlar mavjud bo‘lib, ular yaratilgan miniatyuralari bilan bu san’at turining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Boburiy miniatyuralari asosan “Boburnoma”, “Jahongirnoma”, va boshqa saroy adabiyotlari uchun yaratilgan. Ushbu miniatyuralar rang-barangligi, naqshlarning nozikligi va obrazlarning chuqur ifodalanishi bilan ajralib turadi. Har bir miniatyura bir necha qatlamli ma'noga ega bo‘lib, unda voqealar tasviri bilan birga falsafiy, diniy va madaniy g‘oyalar ham mujassam etilgan. Boburiylar miniatyura san’ati Sharq va G‘arb san’ati o‘rtasidagi madaniy almashuv natijasida o‘ziga xos tarzda rivojlangan. Bu san’at uslubi Hindistonning qadimiy miniatyura maktablari bilan birga fors va turk miniatyura an’analarini ham o‘zida aks ettirgan. Boburiylar miniatyura san’atida inson obrazlari, tabiat manzaralari va tarixiy voqealar noziklik bilan tasvirlangan bo‘lib, bu san’at namunalarining har biri o‘ziga xos tarbiyaviy va estetik qiymatga ega.

Musavvirlik va portret san’ati

Boburiylar davrida musavvirlik san’ati ham yuksak darajada rivojlangan. Musavvirlar hukmdorlar, saroy zodagonlari va turli xil tarixiy shaxslarning portretlarini yaratib, ularning qiyofalarini san’at orqali abadiylashtirishgan. Portret san’ati, asosan, Akbarshoh va Jahongir davrida gullab-yashnagan. Jahongir portret san’atiga katta e’tibor qaratgan bo‘lib, u ko‘plab o‘ziga xos portretlarni buyurtma

qilgan. Ushbu portretlar nafaqat tashqi ko‘rinishni aks ettirgan, balki ular orqali shaxslarning ichki dunyosi, ularning ruhiy holati ham ifodalangan.

Musavvirlikda Boburiylar an’anasi Sharqning boshqa buyuk san’at maktablari – fors va turk san’ati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Boburiy musavvirlari o‘z rasmlarida qadimiy hind uslublarini ham kiritib, ularni yangi ijodiy yo‘nalishlarga yo‘naltirgan. Jahongir va Shoh Jahon davrida yaratilgan portretlar va manzara rasmlarida ranglarning uyg‘unligi, chiziqlarning nafisligi va shakllarning tabiiyligi san’atning yuksak darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Zargarlik san’ati

Boburiylar davridagi san’atning yana bir yorqin sohalaridan biri bu zargarlik san’ati edi. Boburiy zargarlar tilla, kumush va boshqa qimmatbaho metallar bilan ishlashda yuqori mahoratga ega bo‘lganlar. Ular murakkab naqshlar, o‘ziga xos shakllar yaratib, zargarlik asarlarini o‘z davrining eng yuksak san’at durdonalariga aylantirganlar. Ayniqsa, Shoh Jahon davrida zargarlik san’ati yuqori cho‘qqiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu davrda ko‘plab qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan zargarlik buyumlari yaratilgan. Boburiy zargarlik asarlari ichida eng mashhuri “Pavo taxti” (Takt-i-Tavus) bo‘lib, bu taxt Shoh Jahon uchun maxsus tayyorlangan va uni bezashda juda ko‘p qimmatbaho toshlar qo‘llangan. Bu taxt zargarlik san’atining buyuk yodgorligiga aylangan va hanuzgacha Boburiylar zargarlik merosining ramzi sifatida tan olingan.

Musiqa va raqs san’ati

Boburiylar davrida musiqa va raqs san’ati ham rivojlangan va saroy madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan. Hindistonning qadimiy musiqa an’analari fors va islom madaniyati bilan uyg‘unlashib, yangi musiqa janrlari paydo bo‘lgan.

Xulosa

Boburiylar imperiyasi san’atning turli sohalarida yuksak yutuqlarga erishgan bo‘lib, ularning madaniy merosi nafaqat Hindiston, balki butun dunyo tarixida chuqur iz qoldirdi. Me’morchilik, miniatyura san’ati, musavvirlik, zargarlik va musiqa kabi san’at turlari Boburiylar hukmronligi davrida o‘zining eng yuksak taraqqiyot bosqichiga chiqdi. Ularning bu boradagi ijodiy yondashuvlari Sharq va G‘arb san’ati o‘rtasidagi madaniy almashinuvni kuchaytirib, o‘ziga xos san’at uslublarini yaratishga olib keldi. Boburiylar san’ati Hindistonning qadimiy madaniy an’analarini islom va fors madaniyati bilan uyg‘unlashtirib, yangi ijodiy yo‘nalishlarni rivojlantirdi. Ayniqsa, Toj Mahal kabi buyuk me’moriy obidalar, miniatyura san’atining betakror asarlari va zargarlik durdonalari ular yaratgan madaniy boyliklarning yorqin namunalaridir. Ushbu asarlar bugungi kunda ham san’at ixlosmandlari va mutaxassislar tomonidan e’zozlanadi. Boburiylar san’ati faqat tarixiy yodgorlik emas, balki zamonaviy san’atga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Ularning san’at va madaniyatdagi innovatsiyalari o‘z davrining chegara va

an’analarini kengaytirib, keyingi avlodlar uchun ilhom manbaiga aylangan. Shu bois, Boburiylar imperiyasining san’atga qo‘shgan hissasi hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va u insoniyat madaniy merosining ajralmas qismi sifatida doimiy qadrlanadi.

Adabiyotlar:

1. Arat, Reshit Rahmeti. 1987. Vekayi: Babur’ün Hatıratı. Ankara: Türk Tarih Kurumu Yayınları.
2. Bilkan, Ali Fuat. 2002. Divân ve Babürnâme Işığında Bâbür’ün Hindistan Hayatı. Bilig 1: 97-116.
3. Bobur, Zahiriddin Muhammad. 2018. Boburnoma. V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jayeva tabdili. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
4. Bobur, Zahiriddin Muhammad. 2017. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: “Sharq” NMAK.
5. Muhammadiyeva, D. The semantic classification of phrases in “Baburname” and problems of their transfer in Turkish translations. URL: https://www.researchgate.net/publication/343578961 (Murojaat etilgan sana: 19. 09. 2024)
6. O‘razova I. Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi. [Internet manba]. URL: https://zenodo.org/records/11108578 (Murojaat etilgan sana: 17. 09. 2024)
7. Muhammadiyeva D. Boburnomadagi o'lim va umr konseptl iparemiyalar xususida. URL:https://www.researchgate.net/publication/357899166 (Oxirgi murojaat qilingan sana:15.09.2024)
8. Muhammadiyeva D. Semanticeskaa klassifikacia frazem v Baburname. URL https://www.researchgate.net/publication/355780029 (Oxirgi murojaat qilingan sana: 18.09.2024)
9. Qudratullaev, Hasan. 2018. Boburning adabiy-estetik olami. Toshkent: Ma’naviyat.

2-SHO‘BA
“BOBURNOMA”NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY-SOTSIOLOGIK TALQINLARI

“Boburnoma” matni sintaksisining o‘rganilishiga doir
On the study of the syntax of the “Boburnoma” text

Samixon ASHIRBOYEV[1]

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari adabiyotshunoslik, tilshunoslik nuqtayi nazardan tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda. Bu asar tilshunoslikning barcha sohalari uchun manba vazifasini bajarib turibdi. Ayniqsa, u leksik jihatdan keng o‘rganildi. Uning asari bundan 45 yil avval sintaktik tadqiqot uchun (doktorlik dissertatsiyasi) manba bo‘lgan va uning monografiyasi e’lon qilingan. Bu ish “Boburnoma” sintaksisi bo‘yicha qilingan yagona tadqiqot sifatida saqlanib qolmoqda. Tadqiqot tavsifiy va, qisman, qiyosiy-tarixiy metod asosida bajarilgan va unda sintaksisning ikki muammosi: sodda va qo‘shma gap sintaksisi yoritilgan. Bu tadqiqot keyingi davrlarda tarixiy sintaksis bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar uchun nazariy, o‘quv adabiyotlari uchun esa faktik asos vazifasini bajarib keldi.

Tayanch tushunchalar: *sintaksis, sintaktik guruh, gap bo‘laklari, sodda gap, qo‘shma gap,kiritma ibora, sintaktik me’yor, so‘z birikmasi.*

Abstract: Zahiriddin Muhammad Babur's work "Baburnoma" has been an object of research from the point of view of literary studies and linguistics. This work serves as a source for all areas of linguistics. In particular, it has been extensively studied lexically. His work was the source for syntactic research (doctoral dissertation) 45 years ago, and his monograph was published. This work remains the only study of Boburnoma syntax. The study was carried out on the basis of a descriptive and, in part, a comparative-historical method, and two problems of syntax were highlighted in it: the syntax of simple and compound sentences. This study served as a theoretical basis for the work on historical syntax and a factual basis for educational literature.

Keywords: *syntax, syntactic group, sentence fragments, simple sentence, compound sentence, introductory phrase, syntactic norm, word combination.*

[1] *Samixon Ashirboyev* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori filologiya fanlari doktori.

Ma’lumki, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari o‘zbek adabiy tilining XVI asridan buyuk merosdir. Bu asar tadqiqotchilarimiz ta’kidlaganidek, Boburni butun dunyoga tanitgan [Mallaev, 1976:577; Nazarova, 1983, 4 – 10; uzhurriyat/2024-05/29//boburnoma nashrlari]. Asar bugungi kunda ham jiddiy tadqiqotlarga manba bo‘lib kelayotir [Xolmonova, 2021:4]. Haqiqatan ham, bu asar nafaqat lingvistik, tarixshunoalik, adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan, balki turli tabiiy fanlarning, xususan, biologiya, geogragiya fanlarining ham obyekti bo‘lib kelmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, bu asar qanchalik o‘rganilishiga qaramay, hamom uning muammolari tadqiqotchilar e’tiborida turibdi. Ayni o‘rinda fanga endigina kirib kelayotgan shaxslar uchun “Boburnoma” bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning tavsifi ham qiziqish uyg‘otmoqda. Shu munosabat bilan “Boburnoma” sintaksisi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotni o‘z davri va hozirgi davr an’anasi nuqtayi nazardan tahlil qilish ehtiyoji sezilmoqda. O‘tmish tadqiqotchilariga ayonki, “Boburnoma” matni sintaksisining birdan-bir tadqiqotchisi X. Nazarova bo‘lgan. U ko‘p yillik ilmiy faoliyati davomida “XV asrning oxiri va XVI asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tili sintaktik qurilishi xususiyatlari (Особенности синтаксического строя узбекского литературного языка конца XV– начала XVIв. – Т., 1979)” asari ustida ishladi. Bu “Boburnomaga”ga bag‘ishlangan maxsus tadqiqot edi, ushbu maqolada bizning vazifamiz shu ilmiy mahsulotni imkon qadar to‘liq tahlil qilishdan iboratdir. Oldindan aytamizki, bu asarga tarixiy sintaksis bo‘yicha amalga oshirilgan barcha ilmiy tadqiqotlarda u yoki bu darajada murojaat qilingan o‘rinlar bor, jumladan, G‘. Abdurahmonov “Tarixiy sintaksis” asarining 26, 27, 29, 30, 31 va boshqa sahifalarida bu asardan misollar olib, tarixiy sintaksisning nazariy masalalarini asoslashda foydalangan [Abdurahmonov, 1974]. Demak, bu asar tarixiy sintaksis mutaxassislarini doimo qiziqtirib kelgan. Bu tabiiy edi, chunki ushbu asar shunchaki bir asar emas, balki o‘z davri adabiy an’analarini va fikr yuritishning o‘ziga xos qoliplarini aks ettira olgan edi, binobarin, bu asar buyuk Alisher Navoiyning nasrdagi muvaffaqiyatlarini davom ettirishi bilan ham qadrli edi. Afsuski, tarixiy manbalarimiz, shu jumladan, “Boburnoma” ham keyingi davrda sintaktik tadqiqotlardan chetda qolmoqda.

Endi ustoz X.Nazarova tomonidan amalga oshirilgan va hozirgi kunda yagona bo‘lib turgan tadqiqot ustida fikr yuritiladi.

X. Nazarova bu asarni tahlil qilishda uni qaysi manba asosida amalga oshirganligi to‘g‘risida ma’lumot bermaydi. Lekin uning ish stolida 1905 yilda A. Beverijxonim nashr ettirgan arab yozuvidagi asar turganligidan xabarim bor, o‘zi ham olingan misollardan so‘ng “Л” qisqartma so‘zini qo‘yib boradi, ya’ni nashr Londonda amalga oshirilganligiga ishora qiladi. Afsuski. tadqiqotchi bu asar bo‘yicha tafsilotlari va undan qay usulda foydalanganligini eslatib o‘tmagan. Mening

nazarimda, tadqiqotchi, asosan, asarning 1960 yilda Parso Shamsiev tomonidan nashrga tayyorlangan nusxasidan foydalangan, lekin sahifani London nusxasi asosida qo‘yib borgan. Qanday yo‘l tutmasin, “Boburnoma” matni sintaksisining ilk tadqiqoti amalga oshirilgan edi. To‘g‘ri, ilmiy mahsulotni kuzatganimizda ba’zan olingan misollarda matniy nuqsonlar ham uchradi. Masalan: *Xurācān va Samarqandta*[1] *ancha hammām ma’lum emäskim, bolg‘ay* (BN. L. 46) [127]. Bizningcha, bu gapning dastlabki qismi tushirib qoldirilgan, chunki bu gapda *bolg‘ay* ko‘makchi fe’lining yetakchi qismi ishtirok etgan ibora yetishmayapti.

Ta’kidlash joizki, bu tadqiqot “Boburnoma” asari bo‘yicha o‘tgan asrning oxirlarida bajarilgan eng yirik ilmiy umumlashmadir. Hozir ham bu ishning materiallaridan o‘quv ishlarida va ilmiy tadqiqotlarda foydalanilib kelinmoqda. Ta’kidlash joizki, bu ish an’anaviy va qiyosiy-tarixiy metodda bajarilgan, lekin tavsifiy metod ustunlik qiladigan o‘rinlar anchagina. Ishda quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- avvalo, ishda to mazkur tadqiqot olib borilgunga qadar amalga oshirilgan ishlar tavsif qilinadi, lekin tahlil qilinmaydi. Shuningdek, o‘sha davrda turkologiyada muhim tadqiqot sanalgan A. S. Amanjolovning “Глагольное управление в языке древнетюркских памятников. –М.: Наука, 1959” asari ham e’tibordan chetda qolgan;

- ishda asar ilk bor sodda va qo‘shma gap planida o‘rganilgan. Ma’lumki, u davrda sodda gapning tarkibiy qismlari tarixiy manbalarda qanday shakllarda qo‘llanganligi tadqiqotchilarni qiziqtirar edi, chunki tarixiy grammatika bu ma’lumotlarga muhtojlik sezardi. Shu tufayli ishda “Boburnoma”da har bir gap bo‘lagining qo‘llanish imkoniyatlari, an’anadagi termin bilan aytganda, ularning ifoda qilinishiga batafsil to‘xtalgan. Tan olish kerakki, bu borada Bobur asari va hozirgi adabiy til me’yorlari kesisha oladi;

- ravish holida *-lar* affiksining qo‘llanishini qayd qiladi: *Анда Фаридун Ҳусайн мирзā хели йахшылар барыбтур* [58]. Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga bu xususiyat xos emasligi ma’lum. *-lar* affiksining payt holi vazifasini bajargan, aslida implitsit o‘rin-payt kelishigidagi otlarga qo‘shilgan shaklini ham keltiradiki, u ham hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xos emas;

- ayniqsa, 21 ot kesimning uyushib kelishiga misol topganligini ko‘ramiz*: Беклардин Қосым Қавчинбек, Вайс Лоғарийбек, Иброҳим саруйи, Минглибек, Ширим тағойы, Сайиди Қарābек; ичкилардин Миршоҳ қавчин, Сайид Қосым эшик оға Жалойир, Қосым Ажаб, Муҳаммад Дост, Али Дўст тағойы, Муҳаммад Али Мубашшир, Худойберли тоғчи моғул, Йарак тағойы, Султонқули Бобоқули, Пир Вайс, (Шайх Вайс,) Йар Али Билол, Қосым мирохўр,*

[1] X. Nazarova matnidagi berilishi saqlandi.

Ҳайдар рикобдор [72]. Bu gap aslida nostandart gap sifatida ham tahlil qilinishi o‘rinli bo‘lar edi.

- qaratqich va qaralmish moslashuvidagi hozirgi o‘zbek tiliga xos xususiyatni qayd qiladi, lekin uni bu holat qaralmish atoqli ot bilan ifoda qilinganligi uchun deb tushuntiradi: *Бизнинг беклäр*... [55]. Lekin keyingi o‘rinlarda qaralmishi turdosh ot bo‘lgan misol ham bor;

- X. Nazarova bir faktni keltiradi, ya’ni gapda inversiyani (u inversiya degan termin ishlatmaydi) tahlil qilishda eganing gap oxirida kelishiga misol uchramaganini aytadi. Albatta, bu asar uslubining o‘ziga xosligidan kelib chiqadi. Ma’lumki, ega-kesim inversiyasi gapning emotiv xususiyati bilan bog‘liq. “Bobirnoma” asarida esa bayon uslubi kuchli, shu tufayli unda ega-kesim inversiyasiga hojat qolmagan bo‘lishi mumkin;

- X. Nazarovaning sintaksis nazariyasiga oid fikri ham mavjud. U tilshunoslikda “Ko‘chirma gap” termini ostida o‘rganiladigan sintaktik hodisani “Ko‘chirma gapli qo‘shma gap” deb ataydi. Bu, albatta, e’tiborli bo‘lib, dastlabki termin aslida o‘zini oqlamas edi. O‘zbek tili sintaksisi nazariyachilari ham keyingi termindan foydalanadigan bo‘ldilar. Jumladan, “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis)” mualliflari qo‘shma gap turlarini sanashda shu terminga murojaat qildilar [Mahmudov, Nurmonov, 1995:221].

Ishdagi ayrim e’tiborsizlik qilingan o‘rinlarga to‘xtalamiz:

- ishning kirish qismida bu ishni XI – XIV va XV – XVI asrlar yodgorliklari materiallarisiz amalga oshirib bo‘lmasligi to‘g‘risida fikr yuritiladi (5), lekin ishda bu fikrga amal qilinmagan, ya’ni ular bilan qiyos qilingan o‘rinlarni uchratmadik;

- “Boburnoma” gap qurilishida hozirgi o‘zbek adabiy tilida uchramaydigan xususiyatlar mavjudligi aytiladi, lekin shunday faktlarga ehtiyj bo‘lganda ularning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xos emasligi ta’kidlanmaydi. Jumladan, uyushiq bo‘laklarda ***va*** bog‘lovchisining har bir uyushiq bo‘lak oldida takrorlanishi hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun xarakterli emas. Tadqiqotchi “Boburnoma”dan shunday betakror misol keltipadiki, unda ***va*** bog‘lovchisi uyushuvchi bo‘lak bilan birga bir necha bor takrorlangan. E’tibor qarating: *Ва Муъмин атка ва Рустäм тӱркмäн ва мулла Маҳмуд ва Али атка ва Муҳаммад Султāн мирза ва Āдил Султāн ва Абдулазиз мирахўр ва Қутлуғ қадам қарāвул ва Муҳаммад Али жаң-жаң ва Шāҳ Ҳусайн Баракий ва моғул Ғанчи қол урушга қойуб, сābит болдилар* [67]. Bu gapda 11 ega bo‘lagi uyushgan bo‘lib, ular tarkibida ***va*** bog‘lovchisi ham takrorlangan. To‘g‘ri, tadqiqotchi ***va*** bog‘lovchisining takrorlanishini fikrning aniq ifodalanishi va ta’kidlanishini ham ifoda qiladi, deb tushuntiradi. Haqiqatan ham, bu o‘rinda fikrning emas, balki shu uyushishda qatnashayotgan so‘z shaklining ta’kid ma’nosiga ega ekanligini payqash qiyin emas. Aslida ***va*** bog‘lovchisining uyushiq

bo‘laklarda takror qo‘llanishi til tarixi manbalarining barchasiga xosdir [Аширбоев, 1990:72];

- ayrim tahlillariga qo‘shilish qiyin. Kesimlarning uyushishiga quyidagi misolni keltiradi: *Ушбу ҳолатда секкиз киши қалыб едук: Дост Нāсир, Қанбар Али, Қасимбек, Хāнқули Байāнқули, Мирзāқули Кокалтāш, Шаҳим Нāсир, Абдулқуддус Сайидий Қорā, Хожа Ҳусайний, секизинчи мен едим* (74). Avvalo, bu o‘rinda kesim bo‘lagi uyushishi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin emas, qolaversa, gap strukturasi *nostandart* ekanligini hisobga olib, unga tegishli bahosini berish lozim edi. Keyingi ismlar *sekiz kish*ini anglatib turibdi. Demak, bu so‘zlar gapga ilova qilinmoqda. Shu tufayli bu sintaktik guruhni ilova bo‘lak deb yuritish ma’qulroq edi;

- ishda aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap va kiritma iboralar ba’zan farqlanmagan. Ishda *Алмалығ ва Алмату ва Йаңиким,* ***кутубда Отрар битирлäр****, моғул ва özбäк жиҳатыдын бу тарихда бузулубтур, аслā маъмура қалмабтур. Сайҳун дарāсиким,* ***Хожанд суйыға машҳурдур****, шарқ ва шимал тарафидин клиб, бу вилāйатниң ичи билä ўтур, ғарб сары ақар* gaplarida *кутубда Отрар битирлäр* ҳамда *Хожанд суйыға машҳурдур* sintaktik guruhlari qo‘shma gapning aniqlovchi ergash gap qismi sifatida izohlanadi. Aslida ular kiritma iboralardir, balki bosh gapdagi eksplitsit (qo‘llangan) va implitsit (qo‘llanmagan) aniqlovchini izohlab kelayotgani yo‘q, aksincha, bu iboralar gapga (fikrga) qo‘shimcha axborotlarni kiritgan;

- tadqiqotda matn transkripsiyasi masalasi hal qilinmagan. Aslida bu masalada muammo yo‘q edi, chunki til tarixi ishlarida turkologiyada amalda bo‘lgan transkripsiya qo‘llanmoqda edi. To‘g‘ri, transkripsiya unsurlaridan foydalanishga uringan, lekin bu borada qatiyatlik ko‘rsatilmagan.

Ma’lumki, til tarixi manbalarida forsiy va arabiy izofalarning qo‘llanishi o‘sha davr adabiy tilining me’yori hisoblanadi. Bunday izofalarni sintaktik pozitsiyada baholashda ularning turkiy til uchun bir butunligi e’tiborga olinishi zarur, balki ular tarkibidagi so‘zlarning aniqlovchi-aniqlanmish munosabati o‘zlashtirilgan tilda unutiladai va bir gap bo‘lagi sifatida qaralishi lozim bo‘ladi. X. Nazarova esa *rabi-ul axir, hazrati amirul-mu’minin* izofalarini qaratqich-qaralmish nuqtai nazardan tahlil qilmoqchi bo‘ladi.

Xulosa. “Boburnoma” matni sintaksisi murakkab bo‘lib, unda hozirgi adabiy til qoliplarini ham, o‘ziga xos xususiyatlarini ham ko‘rish mumkin. Hozirgi o‘zbek adabiy tili gap qurilishi tizimi va “Boburnoma” matni sintaksisini 5 asr ajratib turibdi. Albatta, sintaktik tizimda stabillik nisbatan kuchli bo‘ladi, ayni o‘rinda, yillar davomida bu tizimda ham o‘ziga xosliklar yuzaga keladi. “Boburnoma” o‘z davri xususiyatlarini aks ettirgan. U biz uchun meros va boylik. Uning leksik tizimi tuzukkina o‘rganildi, lekin boshqa sathlari, shu jumladan, sintaksisi kam o‘rganildi. X. Nazarova bu tadqiqotida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni amalga oshirgan. Bu asar

sintaksisi hali o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi, negaki kelgusida qadimgi turkiy matnlar bilan, Alisher Navoiy va boshqa turkiy hamda o‘zbek nasriy asarlari bilan qiyosan o‘rganilishi kerak. Ayniqsa, zamonaviy sintaktik tadqiqot metodlari: formal, semantik, kommunikativ sintaksis nazariyalarini qo‘llash asosida tadqiqotlar olib borishga muhtojlik bor. Bunday ishlarda X. Nazarovaning mazkur tadqiqoti ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. To‘g‘ri, tarixiy matnlarni transkripsiya qilish muammosi, matn tanqidi, gaplarni chegaralash kabi o‘z muammolari yo‘q emas.

Adabiyotlar

1. Абдураҳмонов Ғ. 1974. Тарихий синтаксис. – Тошкент: Фан.
2. Аширбоев С. 1990. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: филол. фанл. док.... дис. – Тошкент.
3. Маллаев Н.М. 1976. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи.
4. Назарова Х. 1983. Бобир ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан.
5. Нурмонов А. Маҳмудов Н. 1995. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи.
6. Холмонова З. 2021. “Бобурнома” – тил қомуси. –Тошкент: Akademnashr.
7. uzhurriyat/2024/05/29/boburnoma nashri/

“Boburnoma” tarjimalarida ilmiy-adabiy aniqlikni yaratish muammolari
Problems of creating scientific-literary accuracy in “Boburnoma” translations

Ne’matilla OTAJONOV[1]

Annotatsiya: Tarjima – asl nusxa (original)ning boshqa tildagi teng qiymatlisini vujudga keltirish bo‘lsa, **tadqiqot** – bu asar haqida muhokama yuritish, uni tahlil qilish, tushuntirishdir. Biroq masalaga chuqurroq yondashgan kishi tadqiqotlarning tarjimaga **bevosita** yoki **bilvosita** aloqasi, ta’siri borligining shohidi bo‘ladi. Bu – ilmiy ishlarning tarjimaga bilvosita ta’siridir. Mazkur maqolada tarjima, tadqiqot, tahlil, kompleks tadqiqotlar haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: *tahlil, tarjima, tadqiqot, bilvosita, bevosita, kompleks tadqiqot, aniqlik, tanqidiy matn.*

Abstract: Translation is the creation of an equivalent of the original in another language, while research is the discussion, analysis, and explanation of the work. However, a person who approaches the issue in depth will see that research has a direct or indirect connection and influence on translation. This is an indirect effect of scientific works on translation. This article talks about translation, research, analysis, comprehensive research.

Key words: *analysis, translation, research, indirect, direct, complex research, precision, critical text.*

“Boburnoma”ning tarjimalari bilan bir qatorda, Bobur va uning adabiy, ilmiy merosi to‘g‘risidagi tadqiqotlar ham yuzaga kela boshladi. Buning boisi nimada? Ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish bilan asarning tarjimalarini tahlil qilish orasida qanday bog‘lanish bor?

Shunchaki olib qaraganda, bu ikki soha orasida aytarlik aloqa yo‘qday ko‘rinishi mum kin. Chunki tarjima asl nusxa (original). ning boshqa tildagi teng qiymatlisini vujud ga keltirish bo‘lsa, tadqiqot bu asar haqi da muhokama yuritish, uni tahlil qilish, tushuntirishdir. Biroq masalaga chuqurroq yondoshgan kishi tadqiqotlarning tarjimaga bevosita yoki bilvosita aloqasi, ta’siri borligining shohidi bo‘ladi. Ayniqsa, asar o‘girilgan tilda amalga oshirilgan ilmiy ishlar uni ommalashtirish, asarning yangi o‘quvchilar orasida tezroq tushunilishini yengillatish, tarjima saviyasini oshirishda katta ahami yatga ega. Shu ma’noda ingliz olimlari olib borgan ilmiy izlanishlar “Boburnoma”ni kitobxonlarga kengroq singdirish, uning mazmuni, mohiyati, ahamiyatini ochib berishga xizmat qilib, asl nusxa haqida to‘g‘ri

[1] Ne’matilla Otajonov – filologiya fanlari doktori, Impuls tibbiyot oliygohi professori, Xalqaro Bobur va Amir Temur mukofotlari sovrindorlari

tasavvur tug‘dirdi, o‘quvchilar mashhur kitobni chuqurroq tushunib o‘qishga muyassar bo‘ldilar.

Leyden-Erskin tarjimasining (1921 yilgi nashri) birinchi jildini qo‘lga olganda, avval V. Erekinning muqaddimasi, so‘ngra kitobni qayta bosmaga tayyorlagan L. U. Kingning so‘zboshisiga duch kelinadi. Bu muqaddimalardan so‘ng kattakon bir ilmiy risola beriladiki, unda Bobur va boburiylar, “Boburnoma”ning yozilish tarixi, xususiyatlari, ahamiyati to‘g‘risida tarixiy va adabiy ma’lumotlar uchraydi, shu bilan birga XV-XVI asrlar O‘rta Osiyo hayoti xarakteristikasi, Bobur o‘z asarida ta’riflagan shaharlar, o‘lkalarning “hozirgi” ahvoli bayon etiladi. Bu ilmiy ma’lumotlarning hammasi, turgan gap, kitobxonni asarni tushunishga tayyorlaydi, uning qiziqishini kuchaytiradi hamda shu yo‘l bilan tarjimaning ommalashuviga yo‘l ochadi, ilmiy qimmatini ko‘taradi. “Boburnoma” haqida yozilgan alohida tadqiqotlar xususida ham shuni aytish mumkin.

Bu - ilmiy ishlarning tarjimaga **bilvosita** ta’siridir. Tadqiqotlarning tarjima- ga **bevosita** ta’sir etishi esa yanada muhimdir. Chunki uzoq o‘tmishda yaratilgan murakkab asarni tarjima qilishning o‘ziyoq ulkan ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirish bilan barobar. Bunday **tarjima tadqiqotning** mushkulligi va qimmati shundaki, u qandaydir chegaralangan soha bo‘yicha, bir tomonlama bo‘lmay, balki turli sohalar to‘g‘risidagi ko‘p tomonli, **kompleks tadqiqot** bo‘lishi lozim. Geograf “Boburnoma”dan faqat o‘zini qiziqtirgan ma’lumotni topishga intiladi, muarrix asardagi tarixiy fakt. largagina e’tibor beradi, adabiyotchi uni badiiy-estetik nuqtai nazardan tahlil qiladi. O‘z navbatida tarjimon ham adabiyotchi va til bilimdoni, ham geograf va etnograf, ham tarixchi va botanik, tabiatshunos sifatida ishga kirishadi. Shuning uchun ham bu sohalarning barchasiga oid ilmiy tushunchalar, so‘zlar, terminlarni aniq, ravshan tasavvur qilmog‘i lozim. Buning ustiga, tarjimon muallif uslubini, bayon tarzini berishni doimo yodda tutishi zarur.

J. Leyden, V. Erskin, A. Beverijlarning izlanishlari, mashaqqatli mehnatlari bunga yaxshi misoldir. Ular bu ishga butun umrlarini bag‘ishladilar. Aslida, V. Erskin o‘z tarjimasining dastlabki variantini nashr etishi mumkin edi. Lekin u bunday qilmadi ishi ning puxtaligiga ko‘zi yetmay, asl nusxa tilini biladigan mahalliy mutaxassislar, yevropalik sharqshunoslardan yordam so‘radi, ulardan o‘rgandi. Bu bilan ham chegaralanmay, qo‘lyozmalar ustida mustaqil ish olib bordi, ishonchli manbani qo‘lga kiritishga intildi. J. Leyden tarjimasi bilan o‘zinikini so- lishtirib, o‘z xatolarini ham, Leyden xatolarini ham birma-bir tuzatib chiqdi, amalda yangi **tarjimani** yuzaga keltirdi. Bu chuqur bilim asosida har tomonlama izlanish, qiyoslash, tahlil va tahrir ishlarini bajarish, kuchli aqliy, ham ijodiy ham ilmiy xarakterga ega bo‘lgan mehnat jarayonini boshdan kechirish demakdir.

Shuncha izlanishlar, mashaqqatlar evaziga qo‘lga kiritilgan tarjima asliga juda yaqinligi bilan mutaxassislar e’tirofiga sazovor bo‘ldi. Shunga qaramay, V. Erskin

tarjimasi ham ba’zi nuqsonlardan xoli emasdi. Bularni Pave de Kurteylь va A. Beverijlar sezishib, o‘z tarjimalarida bunday nuqsonlarga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qildilar.

Nomlari qayd etilgan ikki sharqshunos olimning bilim darajasi avvalgi tarjimonlarnikidan balandroq edi. Ular tarjimaga qo‘l urishdan avval o‘zlari tanlagan soha bo‘yicha **olim, tadqiqotchi** sifatida muayyan ish olib bordilar. Ikkinchidan, Beverij xonim ham, Pave de Kurteyl ham asl nusxa tilini puxta egallagan mutaxassislar edi. Bu esa ularga «Boburnoma» qo‘lyozmalari ustida bevosita ishlash imkonini bergan. A. Beverij xonimning yangi tarjimani amalga oshirish niyati yo‘q edi (bu yuqorida aytib o‘tildi), lekiy asar qo‘lyozmalari ustida ko‘p yillar ilmiy-tekshirish ishlari olib borgach, Bobur merosini u tobora keng va teranroq tushuna boshlaydi, “Boburnoma”ning tub mohiyatiga tobora chuqurroq kirib boradi, muallifning o‘ziga xos uslubi, asardagi jumla tuzilishi, grammatik shakllargacha farqlaydi, har bir so‘z va iboraning ma’nosi unga oydinlashadi. Natijada V. Erskin tarjimasining nuqsonlari ko‘z oldida yanada oydinlasha boradi va yangi tarjima zarurligiga ishonch hosil qiladi. Beverij jonim qilgan tarjima mavjud inglizcha tarjimalar orasida ilmiy aniqligi bilan ajralib turadi.

Klassik asarlar tarjimasi ana shunday muntazam, jiddiy ilmiy izlanishlar asosida amalga oshadigan, bosqichma-bosqich, asliga yaqinlashib boradigan evolyutsion ijodiy jarayondir. “Boburnoma” tarjimasidagi aniqlik faqat ilmiy faktlarning puxtaligi emas, balki **ilmiy-adabiy aniqlik**dan iborat. Chunki, agar tarjimon ilmiy ma’lumotlarni to‘g‘ri bersa-yu, muallif uslubini buzsa, asarning badiiy qimmatiga putur yetkazadi, o‘quvchiga shoir Bobur merosi emas, balki oddiy bir tarixchining asari taqdim etiladi.

Leyden-Erskin va Beverij xonim tarjimalarida asarning o‘ziga xosligi, badiiy xususiyatlari yaxshi saqlangan. Biroq bu har ikkala tarjima ham bir xil saviyada ekan, degan fikrga olib bormasligi kerak. Leyden Erskin tarjimasining uslubi yengilroq, ommaviyroq, tili soddaroq bo‘lib, asar ingliz kitobxoniga osonroq “hazm bo‘ladigan” alfozda taqdim etilsa, Beverij xonim tarjimasi ancha vazmin bo‘lib, ilmiy uslubga ko‘proq amal qilingan. Keyingi tarjima **ilmiy aniqligi** bilan Leyden-Erskinlarning ishidan farq qiladi. Leyden-Erskinlar ko‘proq “Boburnoma”dagi **badiiy-tasviriy** xususiyatlarni saqlab qolish, muallifning ke- chinmalari, hissiyotlarini ham o‘quvchiga yetkazishga intilganlar.

Masalan: Bobur Qobulga borar yo‘lda, Chaxcharon vohasidan tog‘ orqali o‘tadi. Uning bilan birga borgan el-ulus, askar va ulov qishda, qalin qor bo‘ronida nihoyatda qiyin ahvolda qoladi. Shunga qaramay, Boburning shaxsiy tashabbuskorligi, mardligi qiyinchiliklarni yengib o‘tishda asosiy omil bo‘ladi. Muallif ana shu qiyinchiliklarni o‘ta jonli tasvirlaydi.

Boburning shu paytdagi ruhiyati, safdoshlari va navkarlariga bo‘lgan insoniy dilkash munosabatlari quyidagi parchada o‘ta ta’sirchan ifodasini topgan: “Men havolning og‘zida kurak olib, qor kurab, o‘zumg‘a bir takiya miqdori yer yasadim, qorni ko‘ksumgacha qozdim, hanuz yerga yetmaydur edi. Bir nima yelga panoh bo‘ldi, o‘shanda - o‘q o‘lturdim. Har necha dedilarkim, havolg‘a boring, bormadim. Ko‘ngulga kechtikim, borcha el qorda va chopkunda, men issiq uyda va istirohat bila, munda borcha ulus tashvish bila mashaqqatta, men munda uyqu bila farog‘atda. Muruvvattin yiroq va hamjihatlikdin qiroq ishdur. Men ham har tashvish va mashaqqat bo‘lsa ko‘rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin, bir forsi masal bor: “**Marg bo yoron surast**” – Do‘stlar bilan birga bo‘lgan o‘lim to‘ydir. Ushandoq chopkunda qozg‘on yasag‘on chuqurda o‘lturdum, namozi xuftong‘acha qor oncha chopqulab yog‘dikim, men engashib o‘lturib edim, orqamg‘a va boshimg‘a va quloqlarimning ustiga to‘rt el-lik qor bor edi».

Inglizcha (Leyden - Erskin) tarjimada mazkur parcha quyidagicha berilgan:

“Men g‘orning (havol) og‘zida qo‘limga kurak olib, qor kurab o‘zimga bir joynamoz miqdori yer yasadim, qorni ko‘ksimgacha qozdim, hanuz yerga yetmaydir edi. Harna yelga panoh bo‘ldi. O‘sha g‘orda o‘ltirdim. Yigitlarim: g‘orga keling, deb har necha undadilar, bormadim. Ko‘ngulga keldi: barcha kishilarim qorda va bo‘ronda qolsa-yu, men issiq uyda va istirohat bilan yotamanmi, munda barcha odamlar tashvish bilan mashaqqatda yursalar-u, men g‘or ichida uyqu bilan farog‘atda turamanmi? Bu nomardlik bo‘lardi, bu hamjihatlikdan yiroq ishdir. Men ham har tashvish va mashaqqat bo‘lsa ko‘rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin. Bir forsiy masal bor: **Marg bo yoron surast** - do‘stlar bilan birga bo‘lgan o‘lim to‘ydir. Ushandoq bo‘ronda o‘zim qazib yasagan chuqurda o‘ltirdim; nomoz xuftongacha qor ancha bo‘ron bilan yog‘dikim, men engashib o‘ltirgandim, orqamga va boshimga va quloqlarim ustiga to‘rt ellik qor bor edi.” (11 qism, 19-20-21-betlar.)

Qish peyzajining bir butun ko‘rinishi, qorning yog‘ishi, uning kuchayishi, qalinligi - shu ob’ektning realistik kartinasi tarjimada o‘z ifodasini topgan.

Tarjimon esa tasvirni jonli, asliga monand bera olgan. Bobur 1506-1507 yillar voqeasini bayon qilarkan, unda ko‘chmanchi turkmanlar hazorasi bilan olib borilgan jangni tasvirlaydi. Uning navkarlari kerakli shijoatni ko‘rsata olmagan paytlarida o‘zi ularni hujumga ruhlantiradi. Muallif bu voqea va uning haqidagi mulohazalarini masnaviy shaklida bayon etadi. Unda askarlarning psixologiyasi, jangu jadal tasviri o‘zining realistik ifodasini topgan.

Tarjimada she’rning barcha badiiy fazilatlari aks etgan deb bo‘lmaydi. Unda vazn, qofiyaga mutloq e’tibor berilmagan. Bu nasriy tarjima, biroq nasriy bayon emas. She’rni misrama-misra o‘girib, tarjimonlar asl nusxadagi obrazli ifodalar hamda tasvirni aniq yetkaza olganlar. O‘rni bilan dastlabki misralarda alleteratsiya yaratish yo‘li bilan ohangdoshlikning yuzaga kelishiga ham muvaffaq bo‘lingan.

Asardagi turkiy, forsiy she’rlarning aksariyati shu usulda tarjima qilingan bo‘lib, bunda Boburning yetuk shoirligi, ta’bi baland adib bo‘lganligini ingliz o‘quv-chilariga yetkazish nazarda tutilgan,

Asarda bir-biridan farq qiluvchi tabiat manzaralari, o‘lka va viloyatlarning tasviri ko‘p uchraydi. Bobur muayyan joylarni tasvirlaganda detallarga jiddiy e’tibor beradi, ularning nozik nuqtalarini topa oladi, jonli peyzajlar yaratadi. Uning tasviri qisqa, lekin aniq, ifodali. Buni Hindiston tasvirida ham ko‘rish mumkin: “**Hinduston** ma-moliki vasi’ va purmardum va purhosil viloyat voqi’ bo‘lubtur. Sharqi va janubi, balki g‘arbi ham Muhit daryosiga muntahi bo‘lur. Shimoli bir tog‘durkim, Hindukush va Kofiriston va Kashmir tog‘lari bila payvastur. G‘arbi shimoli Kobul va G‘azni va Qandahor vaqi’ bo‘lubtur. Jami’ Hinduston viloyati- ning poytaxti Dehli ermish. Sulton Shihobiddin G‘uriydan so‘ng, Sulton Firuzshohning oxir ahdigacha aksar Hinduston Dehli salotining taxti zabtida ekandur”.

A. Beverij xonim ham bu tasvir tarjimasida Bobur mahoratini saqlashga harakat qilib, hiyla realistik peyzaj yaratgan: “Hindiston keng mamlakat, uning xalqi ko‘p, mevalari xilma-xil. Sharqi va janubi, balki g‘arbi ham Muhit daryosig‘a (okeanga) tutashgandir. Shimoli bir tog‘durkim, Hindikush va Kofiriston va Kashmir tog‘lari bilan tutashgandir. G‘arbi shimolida Kobul va G‘azni va Qan- dahor voqi bo‘libtur. Jami Hindiston viloyatlarining poytaxti Dehlidir. Sulton Shihobiddin G‘uriyning vafotidan keyin (hij riy 602-1206), Sulton Firuzshohning (To‘g‘loq turk, hijriy 790-1388) oxir ahdig‘acha, Hindistonning katta qismi Dehli sultonda o‘sha da rining qo‘l ostida bo‘ldi”.

Tarjima bejirim bo‘lishidan tashqari, Beverij xonim Sulton Shihobiddin G‘uriy, Sulton Firuzshohlarning vafot qilgan yillarini ham ko‘rsatib, to‘ldirib, kitobxonga zarur ma’lumot bergan. Lekin Beverij xonim «Boburnoma» dagi o‘lka va viloyatlarni sodda, ravon uslubda tasvirlasa-da, ba’zan Bobur qalamidan chiqqan nozik tomonlarni payqamay qoladi. Masalan, muallif: “Hindustonda ham tog‘lar bordur. Ul jumladin bir toge tushubtur, shimoldin janubqa boqa boriptur”, deb tog‘lar tasvirini boshlasa (343), tarjimon tasviri: «Boshqa bir tog‘ shimoldin janubqa boqa boribtur” (485-bet) tarzi da ikkinchi jumladan boshlagan. Yoki shu parchada Bobur: “Mevot viloyatiga yeta bu tog‘lar ulug‘roq bo‘lur. Mevotdin o‘tub, Biyona viloya tig‘a borur”... desa, mazkur gap inglizcha tarjimada: “Mevotdin o‘tub, Biyona viloyatiga borur” tarzida ikkinchi jumladan davom etgan, ora-chirada jumlalar tushirib qoldirilgan. Bobur esa yuqorida qayd etilganiday, har bir o‘lkaning tasvirida xilma-xil ma’lumot beradigan, kishining diqqatini tortadigan jozibador uslub tanlaydi, har bir detalga jiddiy yondoshadi, iloji boricha uni ko‘zdan qochirmaslikka harakat qiladi.

Yoxud muallifning hajv borasidagi mahoratini ko‘rsatadigan parchalar tarjimasini ko‘raylik. Ma’lumki, Bobur mohir yumorist bo‘lgan. Shoir mubolag‘a,

kinoyadan foydalanish yo‘li bilan obrazning qiyofasini ochadi, yengil kulgi, tagdor hazil orqali salbiy xislatni tanqid ostiga oladi. Bobur hajviyoti o‘sha davr kishilarining alfozi, xatti-harakati, psixologiyasi, xarakterini tasavvur etishga ko‘maklashadi. Masalan, Xisravshohning qallobligi, hukmronlik qilgan mamlakatini vayron qilganini tasvirlab: “Yuz ming la’natdur qiyomatqachakim, har kim Xisravshohning bu af’olini eshitsa, la’nat qilsun. Bu af’olini eshitib la’nat qilmog‘on ham sazavori la’nat bo‘lsun”, deydi. Zunnun arg‘un to‘g‘risida yozadi, “Shatranjg‘a ko‘p ma’shuf edi. El bir ilik ila o‘ynasa, u ikki ilik bilan o‘ynar edi. Har necha ko‘ngli tilar o‘ynar edi” (235). Mir Murtoz haqida: “Shatranjg‘a ko‘p shag‘afi bor ekandur, bu martabadakim, agar ikki harif uchrasa, biri bila shatranj o‘ynab, yana birining etagini tutub o‘lturur ekandurkim ketmagay deb”.

Inglizcha tarjimalarda ham Bobirning o‘tkir satirasi, nozik yumori yaxshi aks etgan. Xisravshohning qallob, g‘alomus va fahshgo‘yligi, xalq boshiga keltirgan moddiy va ma’naviy kulfatlari sanoqsizdir. Tarjimon Xisravshohning xatti-harakatlari, qiliqlari, axloq-atvorini, barcha salbiy xususiyatlarini kitobxonga to‘la yetkaza olishga harakat qilgan va buning uddasidan chiqa olgan ham.

«Boburnoma»da hajv bilan yumor doim bir-birini to‘ldirib boradi. Lekin shoir hech qachon kishilarning jismoniy nuqsonlaridan kulmaydi, balki hajv ostiga olingan kishining xislatlarini, xulq-atvorini achchig‘langan hisning hamlasi bilan fosh etadi. Shuni aytish keraki, Bobur beparda so‘zlarni yoqtirmagan, parnografik she’rlar yoki shunga yaqin qo‘pol hajviy asarlarni xush ko‘rmagan. Bular tarjimalarda o‘z ifodasini topgan.

Ammo Boburning “Bu fursattakim, “Mubayyin»ni nazm qiladur edim” jumlasi “shu fursattakim, mazkur she’rini nazm qila yotgan edim» deb o‘giriladi, “Mubayyin” to‘g‘risida xabar berilmaydi. Oqibatda bir muhim adabiy-tarixiy dalil tarjimada tushib qolgan.

Shunday qilib, ayrim nuqsonlarga qaramay, Leyden-Erskin, Beverij xonim “Boburnoma”ning inglizcha ilmiy tarjimasini yaratish yo‘lida ko‘p mehnat qildilar va katta muvaffaqiyatga erishdilar. Yevropa “Boburnoma”ni shu tarjimonlar orqali tanidi, ularning ko‘p yillik ijodiy izlanishlari tufayli o‘zbek klassik adabiyotining yirik namunasi umumjahoniy mavqega ko‘tarildi. “Boburnoma” tarjimalari tarixi, asarning monand tarjimasini bunyod etish evolyutsiyasi, to‘plangan tajriba, ilmiy kuzatishlar tadqiqotchiga juda boy material beradi. Bu o‘rinda ingliz tarjimonlari va olimlarining mukammal tarjimani qo‘lga kiritish uchun olib borgan tadqiqotlari, sharh tavsiflari, ilmiy kashfiyotlari diqqatga loyiq. Bu ishlar tarjimashunoslik tarixi va nazariyasi masalalariga aloqador bo‘lib, hozirgacha maxsus o‘rganilmagan. Asarning inglizcha, frantsuzcha, nemischa, forscha, ruscha tarjimalarini qiyoslab, solishtirib chiqilganda, ular orasida anchagina farqlar borligi ma’lum bo‘ldi. Faqat

uslubdagi tafovut emas, balki tarjimalarning ilmiy aniqligida, saviyasida ham katta farq bor.

Turli xil kamchiliklarning sodir bo‘lganligini tarjimonlarning til bilish darajasi, ishga qay nuqtai nazardan yondoshganligi, ijodiy mehnatning me’yori bilan izohlash mumkin. Ro‘y bergan kamchiliklarning asosiy sababi “Boburnoma”ning tanqidiy matni hanuzgacha yaratilmaganidadir. Tarjimonlar turli yillarda ko‘chirilgan, nuqsonlardan xoli bo‘lmagan turli qo‘lyozmalardan foydalanib kelmoqdalar. Annetta Beverij xonim va Pave de Kurteyl muayyan bir ishonchli nusxa tanlab, o‘sha asosda tarjima qilganlar, lekin baribir, buni tanqidiy matn deb qabul qilib bo‘lmaydi. Oqibatda yana turli xil tarjimalar paydo bo‘lishi va bunday chalkashliklar davom etishi mumkin.

Binobarin, “Boburnoma” kabi nodir, yirik tarixiy-adabiy manbani izchil o‘rganish, ishonchli nusxalar asosida tanqidiy matnni bunyod etish, asardagi tarixiy, arxaik so‘zlar, terminlarga mukammal izohli lug‘atlar tuzish sharqshunos, tilshunos, tarjimashunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Ishonchli manba bo‘ladigan tanqidiy matnni tuzishda, “Boburnoma”ning mukammal original nashrini yaratishda asarning mavjud (ayniqsa, Pave de Kurteyl, Beverij xonim, L.D.Erskin, Uayt King) tarjimalaridan ham foydalanish lozim. Tarjimonlar olib borgan ilmiy kuzatishlar, izlanishlar, taklif va rejalar ham bu ishda matnshunos olimlarga juda qo‘l keladi.

Adabiyotlar

1. Abdullayeva R. 2018. G‘arb olimlari Navoiy va Bobur ijodi haqida. Bobur abadiyati. – Toshkent:Bayoz.
2. Beverij A.S. 1921. “Boburnoma” – ingliz tilida. Turkiy asl nushadan inglizchaga tarjima. – London.
3. Muni Lal. 1977. Baber. Dehli, India. Vikas Publishing House.
4. Otajonov N. 1984. “Boburnoma” jahon kezadi. Toshkent:G‘.G‘ulom.
5. Otajonov N. 2017. “Boburnoma” G‘arb olimlari tadqiqotlarida. // “Bobur va dunyo” № 1.
6. Salomov G‘., Otajanov N. 1996. Jahongashta “Boburnoma”. –Toshkent.
7. Sultonov X. 1993. Boburning tushlari. – Toshkent:G‘.G‘ulom.
8. Xorijda Bobur shunoslik (Tadqiqot, talqin va maqolalar). 2008. –Toshkent: “Mumtoz so‘z”.
9. Xolbekov M. 2018. Ulug‘ adibimiz fransuz sharqshunosligi sahifalarida. Bobur abadiyati. – Toshkent:“Bayoz”.
10. Z.M.Bobur ensiklopediyasi. 2017. Toshkent: “Sharq” .

Bobur “yurish”laridan hozirgi “yurish”largacha...
From Babur’s “walking” to modern “walking”

Zulxumor XOLMANOVA[1]

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma”dagi va hozirgi o‘zbek tilidagi *yur-* asosli fe’l leksemalarning semantik xususiyatlari yoritilgan. “Yurmoq” ma’nosini ifodalovchi sinonimik munosabatdagi leksemalarning ma’nolari izohlangan. *Yurmoq* leksik birligining grammatik shakllari, *yurish* harakat nomi shaklining matndagi ma’nolari tahlil qilingan. Leksema semantik mundarijasidagi o‘zgarishlarning ijtimoiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgani misollar orqali ko‘rsatib berilgan. *Yurish* fe’l leksemasi “Boburnoma”da, asosan, aniq, ko‘rish mumkin bo‘lgan xatti-harakatni ifodalagani, hozirda leksemaning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan ko‘chma ma’nolari faol qo‘llanayotgani asoslangan.

“Boburnoma”ning turkiy leksemalar semantikasidagi tarixiy taraqqiyot natijasidagi o‘zgarishlarni kuztish imkonini beruvchi tarixiy manba sifatidagi qiymati ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: *leksema, sema, semantika, semantik mundarija, tarixiy taraqqiyot, yasama so‘z, ko‘chma ma’no, metonimiya, lug‘aviy ma’no, frazema, so‘z birikmasi.*

Abstract: The article analyzes the semantic features of verbal lexemes in “Boburnama” and the modern Uzbek language. The meanings of lexemes are explained in synonymous terms, expressing the meaning of “walk”. The grammatical forms of the lexical unit “walk” and the meaning of the noun form “walk” in the text are analyzed. The examples show changes in the semantic content of the lexeme as a result of social development.

It is based on the fact that the lexeme of the verb to walk in “Boburnama” mainly expresses real, visible movement, and currently mobile meanings formed in the process of the historical development of the lexeme are actively used. The importance of “Bobyrname” is emphasized as a historical source that allows one to foresee changes in the semantics of Turkic lexemes as a result of historical development.

Key words: *lexeme, seme, semantics, semantic content, historical development, derivative word, figurative meaning, metonymy, lexical meaning, phraseme, phrase.*

[1] *Zulxumor Xolmanova* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori
E-mail: zulxumor-uzmu@mail.ru

Olimlar tilni tarixni yorituvchi eng yorqin dalil sifatida baholashgan. So‘z ilmi tarixni ham o‘rganish demakdir. Til ijtimoiy voqelikni, narsa-hodisalarni, ularning belgi-xususiyatlarini, ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni, shaxs faoliyatini, jonzotlar xatti-harkatini aks ettiradi. Leksemaning semantik mundarijasi ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq ekan, jamiyatdagi o‘zgarishlarning tilda o‘z aksini topish qonuniyatini ifoda etadi. So‘zning asl lug‘aviy ma’nosi saqlanib qolgani holda ayrim semantik o‘zgarishlar yuz beradi, ba’zi semalar iste’moldan chiqadi, davr bilan bog‘liq ravishda yangi semalar shakllanadi. Bu jarayonni birgina “yurish” fe’li misolida kuzatish mumkin.

Yurish fe’l-leksemasining semantik taraqqiyoti va semantik mundarijasidagi o‘zgarishlarni kuzatish uchun uning tarixiy taraqqiyot bosqichidagi qo‘llanish xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Yurish so‘zshakli *yurmoq* fe’lining harakat nomi shaklidir. “Boburnoma”da *yur-* asosli 8ta fe’l so‘zshakl qo‘llangan: *yurumoq, yurur, yurub, yurmak, yurumak, yurudi, yurugan, yuruy berurlar, yurugaylar.*

1) *yurmoq* fe’l leksemasi o‘z ma’nosida qo‘llanib, shaxsning bir makondan boshqa makonga o‘tishini ifoda etgan: *Gohi telbalardek yolg‘uz pushta va dashtqa borur edim. Ne yurumoqta ixtiyorim bor edi, ne o‘lturmoqqa, ne bormoqta qarorim bor edi, ne turmoqta* [Boburnoma,1960:132]. Bu jumladagi “yurishda ixtiyorning, o‘lturmoqda va turmoqda qarorning yo‘qligi” shaxsning ruhiy bezovtaligini aks ettirgan.

Yur- “bir joydan boshqa bir joyga harakatlan-“ ma’nosini anglatadi. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni bildirgan bu fe’l asli *yorы-* tarzida talaffuz qilingan [DTS,1969:274], keyinroq *yurы* [Devon, 1963:96], shuningdek, *yo‘ri-, yürü-* shakllarida talafuz qilingan, so‘z oxiridagi unli tushib qolib, yopiq bo‘g‘in shakliga kelgan: *yorы-> yurы->yur-* [Rahmatullayev,2000:188].

-ur, ar- ravishdosh shakli *yurmoq* fe’l asosiga davomiylik semasini yuklagan: *Qotqon bo‘lub edi, yo‘ldin chiqqon kishi tashvish bila yurur edi* [Boburnoma, 1960:261]; *Bu behuzurluq muddatida taxtiravon bila ko‘tartib yurur erdim* [Boburnoma, 1960:303].

Yurmoq fe’l leksemasi hozirgi o‘zbek tilida ham shu ma’noda qo‘llanadi. Leksemaning mazkur lug‘aviy ma’nosi lug‘atda quyidagicha izohlangan: *Yurmoq* “qadam tashlab olg‘a bosmoq, qadamlab jilmoq” [O‘TIL,2008:93].

Eski o‘zbek tilida mazkur fe’l leksema hayvonlar, jonzotlar xatti-harakatini ham ifodalagani ko‘rinadi. Bobur jonzotlarning yashash tarzi haqida ma’lumot berar ekan, ularning xatti-harakatini ham tasvirlaydi: *Bu ajabturkim, tovus bo‘lur jangallarda shag‘ol ko‘p bo‘lur. Bir quloch quyrig‘i bila jangaldin jangalg‘a yurur, shag‘oldin nechuk mutazarrir bo‘lmas ekan* [Boburnoma,2002:200].

Insonlarda ham, jonzotlarda ham *yurmoq* fe'li bevosita oyoq harakatini ifodalagan.

"Boburnoma"da *yurmoq* asosli fe'l leksemalar quyidagi ma'nolarda ham qo'llangan:

2) "aylanmoq, kezib chiqmoq" ma'nolarini anglatgan: *Ba'zilarkim, yayoq yurub evrulurlar edi, bir evrulguncha tong otar edi* [Boburnoma, 2002:84];

3) *yurmak/yurumak* shaklida "harakat qilish, ravona bo'lish, qo'shin tortish" ma'nosini ifodalagan: *Chahorshanba kuni oyning o'n to'qqizinda mirzolar va sultonlar, turk va hind umarosini chorlab, mashvarat qilib, so'zni munga qo'yuldikim, bu yil xud, albatta bir sori yurmak kerak* [Boburnoma, 1960:422]. Quyidagi jumlada ham harbiy yurish nazarda tutilgan; *Biz yong'andin so'ng xon kishisi O'ratepa ustiga yurudi* [Boburnoma, 1960:32].

Yuqqoridin Ko'histon beklari ham otliq-yayog'ini yig'ib yurugan bila turush bera olmadilar [Boburnoma, 1960:248] jumlasida otliq qo'shin bilan amalga oshirilgan harbiy yurish nazarda tutilgan;

4) quyidagi jumlada "qo'shin tortish" ma'nosi bilan birga "bostirib borish" semasi ham ifodalangan: *Savodqa Yusufzay afg'oniyning ustig'a yurumak azimati bila odina kuni ko'chub...*[Boburnoma, 1960:285].

Sulton Husayn mirzodek Temurbek o'runig'a o'lturg'an ulug' podshoh g'animning ustiga yurumakni demay, yer berkitmakni desa, el va ulusqa ne umidvorliq qolg'ay? [Boburnoma:1960:180] jumlasida "bostirib borish", "jang qilish", "yurish qilish" ma'nolari o'z ifodasini topgan;

5) manzildan ketishni, bemo'ljal xatti-harakatni ifodalagan: ... *sarosima bo'lub, hech ish qila olmaslar, ne elni yig'a olurlar, ne yasolni qila olurlar, to'shluk-to'shidin yuruy berurlar* [Boburnoma:2002:154]. *To'shluq-to'shi* "turgan joy, qarorgoh" ma'nosini anglatadi;

6) "yo'l olmoq" ma'nosida manzilli harakatni ifodalagan: *Otlang'on bila buyurdumkim, cherik eli to'shluq-to'shidin toqqa yurugaylar* [Boburnoma,2002:159];

7) "uyma-uy kirish" ma'nosini ifodalagan: *Munda farmon bo'ldikim, ba'zi beklar va ichkilar yurub, ehtimom qilib, bu g'anoyimning xumsini olg'aylar* [Boburnoma, 2002:153]. *Xums* "islom diniga bo'ysunmaganlardan olinadigan soliq" [Nazarova,1972:161].

-a, -y ravishdoshining tarixiy *-uy* shakli bilan qo'llanib, davomiylikni bildirib kelgan: *Bular yovug' yeta g'anim kishisi yayog'ini olig'a solib, yasolini buzmay yuruy berur* [Boburnoma, 1960:443].

"Harbiy xatti-harakat ma'nosi" ayrim o'rinlarda presuppozitsiya orqali, ya'ni "yurish" leksemasi ishtirok etmagan holda, matn mazmunidan anglashilgan: *...shimolida agarchi burun shahrlar bor ekandur, misli Olmoliq va Olmotu va Yangikim....mo'g'ul va o'zbak jihatidin bu tarixta ma'mura qolmabtur* [Boburnoma,

2002:34]. Mazkur mazmun tabdilda aniq namoyon bo‘lgan: ...*shimolida ilgarilari Olmoliq va Olmotu va Yangi singari shaharlar bo‘lgan ekan, mo‘g‘ul va o‘zbaklar yurishlari tufayli hozirgi paytda buzilib ketgan, aslo obodonlik asari qolmagan* [Boburnoma, 2008:29].

“Boburnoma”da *yurumak* fe’l-leksemasi harbiy xati-harakat ma’nosini ifodalagan bir qator so‘zlar bilan sinonimik munosabat hosil qilgan: *yuru= – otlan= – yuzlan= – ilg‘a=– tebra=–mutavajjih bo‘l=– azimat qil=– tort= – talab qil=— ilg‘a= – – tay qil=*.

Otlan= so‘zi a) “harbiy yurish” tushunchasini ifodalagan: *cherik otlanmoqqa azm-jazm qilib, o‘zumizdin ilgarrak...Biyonag‘a ilg‘or yiborildi* (BN,378); b) “yo‘lga tushmoq” ma’nosini ham ifodalagan: ...*Marg‘inondin oftab chiqa otlanib, tush qaytib edikim, Andijong‘a keldim* [Boburnoma,1960:121].

Yuzlan= qo‘shinning harakati, biror obyektga yo‘nalishini ifodalagan: *Hisor ustidin qo‘pub, Qunduz sori yuzlandilar* [Boburnoma, 1960:94].

Ilg‘a= “yurmoq”: *ushbu fursatda... va yana Qosim Do‘lday va Boysung‘ur mirzoning bir pora ichkilaridin Buxoro ustiga ilg‘adilar* [Boburnoma,1960:98]. *Ilg‘a=* leksemasida “olg‘a yurish”, “jadal yurish” semasi yetakchilik qiladi, *tebra=*da qo‘shinning sust harakati anglashiladi: *So‘zni munga qo‘yub tavakkul qilib tebraduk* [Boburnoma, 1960:119].

Mutavajjih bo‘l=, azimat qil=, birliklari arabcha so‘zga turkiy so‘zni qo‘shish orqali hosil bo‘lgan, tushunchani badiiy bo‘yoqdorlikda aks ettirishga xizmat qilgan: *Marg‘inong‘a ilg‘or tariqa bila mutavajjih bo‘ldum* [Boburnoma,1960:119]. Arabcha *azm* asosidan shakllangan *azimat* “qasd, niyat, jazm; “intilish, yo‘l olish”; “qo‘shin tortib borish, yurish qilish, jo‘nash”; “vafot qilish, o‘tish“ [ANATIL, 1983:58]; “safarga chiqish, yurish qilish” [dadaboyev,2003:9]; “qat’iy qaror” [TRS,1954:19] ma’nolarida qayd etilgan. “Boburnoma”da 120dan ortiq o‘rinda qo‘llanib, asosan, “yurish” ma’nosida kelgan: *Agarchi Xuroson azimati qililib edi,...*[Boburnoma, 1960:178].

Tort= so‘zi ham “yurish” tushunchasini anglatgan: ..*so‘zlari bir-biriga qovusholmay buzulub, Uzun Hasan ko‘chiga Axsi sori tortti* [Boburnoma, 1960:121];

talab qil= leksik birligida so‘zlashuv uslubiga xoslik mavjud: *Xotirimg‘a keldikim,..bir tarafg‘a talab qilayin deb* [Boburnoma, 1960:176].

Ilg‘a= “olg‘a yurmoq“, “ilgarilamoq: *Muhammadiy va yana ba'zilar sulton bila yuz kuro‘hcha yer ilg‘ab borib, Balujni yaxshi bosibturlar* [BNm,258]; “yurish qilmoq” tushunchasini ifodalagan:...*Boysung‘ur mirzoning bir pora ichkilaridin Buxoro ustiga ilg‘adilar* [Boburnoma, 2002:55]. Qadimgi turkiy tilda *ilgärü* “oldinga” [DTS, 1969:208] so‘zi uchraydi.

*Tay qil= "*yurmoq, kezmoq*"* [NAL, 1972:587], *"*bosib o‘tmoq*"*: *Yuz-ikki yuz yig‘och yo‘lni bu maslahat uchun tay qilibturmen* [Boburnoma, 1960:249]. *Tay* "yurish, sayohat" ma’nosidagi so‘z [TRS, 1954:376].

Harbiy harakatlarni amalga oshirishda bir qator himoya istehkomlaridan foydalanilgan. Shunday vositalardan biri *bo‘ljor*dir. *Buljor//bo‘ljor* "(yurish oldidan) qo‘shin yig‘iladigan joy, va'da joyi" [ANATIL,1983:332].

"Boburnoma"da "yurish"ning xoslangan ko‘rinishlarini bildiruvchi *qazoqlik, uyrushmak, evrilmak* leksemalari qo‘llangan. Masalan, *qazoqlik* "qochoqlik, quvg‘inda yurish" tushunchasini anglatgan [Dadaboyev,2003:210]: *So‘ngra qazoqliklarda Xo‘jandqa keldi* [Boburnoma, 1960:76]. XIV asr manbalaridagi *qazoq* so‘zi "oilasiz", "bo‘ydoq" ma’nolarini bildirgan [Tarjumon,1980:55]. Bundan *qazoqlik* so‘zining asosi bo‘lgan *qazoq*da "erkinlik", "banddan ozodlik" semalari mavjud.

Uyrushmak asarda "yuz burish", "otlanish" ma’nosini ifodalagan: *Andijong‘a uyrushmak xayoli bila ko‘mak tilab, Toshkandga xon qoshig‘a bordim* [Boburnoma, 1960:65]. 2002- yildagi nashrda *uyrushmak* so‘zi o‘rnida *yurumak, tilab* o‘rnida *tilay* so‘zlari berilgan. ايرشمك doxodit, doyti, dostigat, dostavat [Budagov,1960:187].

Yevür- fe’l shakli "Boburnoma"da uchramaydi. So‘zning o‘zlik nisbat shakli *evril-* asarda quyidagi ma’nolarda kelgan: a) "yurmoq": *yerlik el ham afg‘onlar sari evruldi* [Boburnoma, 1960:302]; b) "aylanmoq, kezib chiqmoq": *Ba’zilarkim, yayoq yurub evrulurlar edi, bir evrulguncha tong otar edi* [Boburnoma, 2002:84].

Yurmoq hozirgi o‘zbek tilida quyidagi ma’nolarda qo‘llanadi. 1. Ma’lum yo‘nalishda harakat qilmoq, bir joydan boshqa joyga jilmoq, bormoq yoki ketmoq (asosan transport vositasi haqida). *Mashina chap tomonga yurdi.* So‘zning bu ma’nosi semantik kengayish hodisasini ifoda etadi. Ma’no kengayishi ijtimoiy voqelikdagi yangi narsa-buyum harakatini so‘z ma’nosini ko‘chirish bilan ifodalash orqali yuzaga kelgan.

2.Umuman, bir joydan jilmoq, siljimoq (suzmoq, sudralmoq, o‘rmalamoq va sh.k.). *Hovuzchada o‘ntacha baliq yuripti. Dasturxon ustida chumoli yuripti. Qurt novdadan yurib, gulga yetdi.* Bu misollar *yurmoq* fe’lining jonzotlar xatti-harakatini ifodalash uchun qo‘llanishda davom etayotganini ko‘rsatadi.

3.Kezish, aylanish, sayohat va shu kabilarda bo‘lmoq. *Shaharma-shahar yurmoq. Eshikma-eshik yurmoq.* Bu ma’no ifodasida *yurmoq* bevosita oyoq harakatini emas, umuman, shaxsning bir manzildan boshqa manzilga ko‘chishini anglatadi. *Yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra* maqolida ham *yurmoq* shaxsning bir joydan boshqa joyga ko‘chishiga, boshqa olam manzarasini ko‘rishiga ishora qiladi.

4.Hayot kechirmoq, yashamoq. *Jiyanim uch yil biznikida yurdi. Yoshim yetmishda. Ellik yil mol qayg‘usida yurdim.* Bu misollarda yurmoq "hayot kechirmoq" tarzini ifoda etgan, oyoq harakati mantiqiy planda aks etadi. "Hayot kechirmoq"

tarzini davomli tarzda ifodalaydi: *Eson-omon yuribsizlarmi?bolalar yaxshi yurishibdimi?*

5**.**Ish-faoliyatda birga bo‘lmoq. *Yomon bilan yurdim – qoldim uyatga, Yaxshi bilan yurdim – yetdim murodga.* Maqol. *Nodon bilan yurma, nomusingni bukma.* Maqol.

6. Qatnamoq. *Markazdan qishlog‘imizga avtobus yuradi.*

7. Shaxmat, karta, domino kabi o‘yinlarda o‘z navbatida, navbati kelganda harakat qilmoq, o‘ynamoq; yurish qilmoq. *Piyodani yurmoq. Tuzni yurmoq*. Bu o‘rinda “yurish” harakati shaxmat donalari yoki o‘yin ashyolari tomonidan amalga oshiriladi, ammo bu narsa-buyumlar jonsiz bo‘lgani uchun ham “yurish” ma’nosi inson tomonidan amalga oshirilgan harakatni ifodalagan. Bunda metonimiya asosidagi ma’no ko‘chishi yuz bergan.

8. Harakatga kelmoq, ishlab turmoq, ishlamoq (mexanizmlar haqida). *Soatim yaxshi yuryapti. Mashina kechgacha yurib turdi.* Bu o‘rinda *yurmoq* fe’l-leksemasining asosiy “harakat” semasiga asoslaniladi.

9. Suygan yor bilan vaqt o‘tkazmoq, yaqin munosabatda bo‘lmoq. *Har xil majlislar ham ko‘p. Shular bilan yursam, u meni xotinlar bilan yurgan, deb gumon qiladi.* Oydin, Ko‘ngli to‘ldimi, yaxshi yigit. Bu ma’no so‘zlashuv uslubida kuzatiladi. “Qo‘shnining eri yurar emish” deganda ham shu ma’no-mazmun kuzatiladi. Bunda *yurmoq* shaxs va hamrohining birgalikdagi harakati, faoliyatini ifoda etib kelmoqda. Bu o‘rinda ham metonimiya asosidagi ma’no ko‘chishi yuzaga kelgan.

10. *Kimningdir aytganiga yurmoq* deganda “ko‘nmoq”, “rozi bo‘lmoq”, “unamoq” semalari anglashiladi.

11. Yoyilib ketmoq, yoyilmoq; tarqalmoq (gap-so‘z, xabar haqida). *El og‘zida yurgan mish-mishlar. Shunday gaplar yuribdi.* Bu jumlalarda *yurmoq* fe’lining bir makondan boshqa makonga “ko‘chish” semasi asos bo‘lgan.

12. *Yurmoq* mustaqil fe’lning -(i)b qo‘shimchali ravishdosh shakliga birikib, ko‘makchi fe’l vazifasida keladi, harakatning davomiyligini bildiradi: *Tomosha qilib yurmoq, gapirib yurmoq, aytib yurmoq.*

Yurmoq fe’lining o‘zagi ikkinchi shaxs buyruq maylida kelib, biror tomonga jo‘nash, ketishga undashni bildiradi. *Yur, kech qolamiz!* [O‘TIL,2008:93].

Yurmoq fe’l leksemasi bir qator frazemalar tarkibida kelib, turli semantik xususiyatlarni namoyon etadi. Masalan, *bosh ko‘tarib yurmoq* frazemasida *yurmoq* “harakat”, “faoliyat” semasini ifodalab, “hayot kechirmoq”**,** “boshi egik bo‘lmoq”, “xijolat qolmoq” ma’nolarini ifodalashga xizmat qiladi. *Yo‘liga yurmoq* frazemasida “kimningdir aytganini qilmoq” ma’nosining reallashuviga asos bo‘lgan. *Bosh ko‘tarib yurmoq*, *yo‘liga yurmoq* frazemalari birikma ko‘rinishidagi omonimlariga ega, ya’ni frazemalar so‘z birikmalari ko‘rinishidagi birliklar bilan omonimik

munosabatda bo‘la oladi. *Tili bilan yuribdi, og‘zi bilan yuribdi* frazemalarida *yurmoq* lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashib, ko‘chma ma’noni yuzaga keltirishga asos bo‘lgan. *Til bilan, og‘iz bilan* yurish gapirishning shaxs faoliyatini, xatti-harakatini qamrab olganini ifoda etadi. Mazkur frazemalarda amalda mumkin bo‘lmagan harakat-faoliyat orqali mazmun kuchaytirib ifodalangan. Bu o‘rinda ham metonimiya asosida ma’no ko‘chishi yuz bergan.

Yurmoq fe’lining lug‘aviy shakllari nutqda faol qo‘llanib, fe’l asos bilan aloqador turli ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Eng faol grammatik ko‘rinishlaridan biri *yurish* harakat nomi shaklidir.

Yurish 1. *Yurmoq* fe’lining harakat nomi shakli: *Poezdning yurishi. Soatning yurishi.*

2. Mehmondorchilik, kino, teatr, safar va sh.k. ga borish; sayr qilish, tomosha qilish. *Yurishni yaxshi ko‘radigan xotin.*

3. Harbiy mazmundagi matnlarda: *“*dushmanga, yovga qarshi qo‘shin tortish, jangga otlanish”: *yurish qilmoq.*

4**.** Biror kimsaga qarshi yoki biror maqsadga erishish uchun tashkiliy ravishda ko‘tarilish, ommaviy harakat. *Xalq yurish boshladi. Bu bir burda non uchun, insoniy nom uchun boshlangan yurish edi.* M. Ismoiliy.

5. Shaxmat, qarta kabi o‘yinlarda o‘ynovchining navbatdagi harakati, tadbiri. *Bu yurish yutqiziqqa olib boradi. Yurish kimdan ? Yurish mendan. Filni yurish.*

6. So‘zlashuv uslubida: hayot kechirish, yashash: *Shu holda butun umr xotinsiz yurish..!* A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

7**.** Holat, xatti-harakat: *...yurishlaring inchunin bejo?* Oybek.

So‘zlashuv uslubida: *kun yurish tomon* “janub”: *Qishloqning kun yurish tomoni* [O‘TIL,2008:93].

Yurish harakat nomi o‘ziga zid ma’noli so‘z bilan juflik hosil qilib, “ish, xatti-harakat va shu kabilarda o‘zini tutish holati, ahvoli”ni anglatib keladi. Yurish-turish: *Uning yuzi-ko‘zi va yurish-turishida boshqa jang-chilarnikidan farq qiladigan biror narsa yo‘q edi.* Shuhrat. [O‘TIL,2008:93].

Yurish asosidan yasalgan *yurishli* yasama so‘zi shu harakat-jarayon bilan bog‘liq belgini ifodalaydi: *yurishli* 1. Tez va yaxshi yuradigan. *Yurishli ayg‘ir.*

2**.** Sayr yoki tomosha qilsa arziydigan. *Yo‘qsa, jonim, yuring. Yangi shaharga chiqaylik, kechqurun yurishli joylar bor.. aylanib kelamiz.* Oybek. [O‘TIL,2008:93].

Yur- asosli *yurishmoq, yuritmoq, yuritilmoq* fe’l leksemalari turli semantik ifodalar uchun qo‘llanadi.

Yurishmoq 1. *Yurmoq* fe’lining birgalik nisbat shakli: *Ular ancha joygacha piyoda yurishdi.*

2**.** Yurishmoq grammatik shakllar bilan birga qo‘llanib, *“a*vjlanish, ravnaq tomon yuz tutmoq” ma’nolarini ifodalaydi: *Ish yurishmasa, bulamiq dandon sindirar*. [O‘TIL,2008:93].

Havoning ochiq kelishi, kunning isishiga nisbatan qo‘llanadigan *Havo* (yoki *kun) yurishib ketdi* frazemasini ijodkor mahorati bilan bog‘liq lug‘aviy birlik sifatida baholash mumkin: Havo ochilib, kun isib qoldi. *Havo yurishib ketguncha ancha transheya qazib olamiz.* I. Rahim, Ixlos. [O‘TIL,2008:93].

Yur- fe’lining orttirma nisbat shakli – *yuritmoq: [Shoqosim] Yana juvozni yuritib.. qichqirdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Fikr yuritmoq. Yuritmoq* qo‘shma birliklarni shakllantirishda ham ishtirok etadi: *ish yuritish.*

Yuritilmoq majhul nisbatdagi fe’l shakli: ..deb aytilmoq yoki atalmoq. *Predmetni bildiruvchi so‘zlar ot deb yuritiladi.*

Hozirgi o‘zbek tilida *yur-* asosli *yuruvsiz, yuruqsiz, yurg‘usiz* kabi yasama leksemalar ham qayd etilgan:

yuruvsiz*: Oshna, sen Menu yuruvsiz qilding.* T. Murod, Yulduzlar mangu yonadi; yuruqsiz**:** *yuruqsiz bo‘lmoq* “bosh ko‘tarib yurolmaydigan bo‘lmoq”: *O‘zingni ikki nafsdan tiy. Aks holda, el-yurt oldida yuruqsiz bo‘lib qolasan.* N. Qobil, Bug‘doy pishig‘iga yetmaganlar; *yuruqsiz qilmoq* “bosh ko‘tarib yurolmaydigan qilmoq”: *Meni elda yuruqsiz qilding-ku!* R. Rahmonov, Changalzordagi sharpa; *yurg‘usiz* ayn. *yuruqsiz***:** *Karimga yaqin yurib, yurtga yurg‘usiz qilding!* Sh. Rashidov, Bo‘rondan kuchli. [O‘TIL,2008:94]. Bu leksemalar hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanmaydi, ijodkor mahorati bilan belgilanuvchi arxaik birliklar va okkazionalizmlar hisoblanadi.

Badiiy matnlarda *yur-* asosli *yurumsak* so‘zi ham qo‘llangan: *Unaqa yurumsak bo‘lma, tentirash qizlarga yarashmaydi.* Oybek, Ulug‘ yo‘l (O‘TIL,V,94). *Yurimsak* shaklida ham uchraydi: 1**.** Ko‘p yurishni, masalan, mehmondorchilikni yaxshi ko‘radigan (ayollar haqida). *Yurimsak juvon.* 2. Tez tarqaladigan, og‘izdan og‘izga ko‘chaveradigan. *Bu yurimsak mish-mishlarning ayrimlari qulog‘iga yetib keldi.* Sh. Bo‘tayev, Qo‘rg‘onlangan oy. [O‘TIL,2008: 91]. *Yurumsak/yurimsak* tarixiy sifat yasovchi -sak/-saq qo‘shimchasidan shakllangan: qiyoslang: *bag‘irsaq, qurumsaq.*

Yuruq / yurum so‘zlari shevalarda qo‘llanadi: *yurum* “biror ish, narsa, gap-so‘z va sh.k. ning tartib bilan davom etishi, yo‘nalishi, borishi, oqimi. *Ishimizning yurumi shunday bo‘ldi.* [O‘TIL,2008:94].

Yurt, yurak leksemalari ham “harakat” semasi asosida *yur* o‘zagidan yasalgan.

Yurt aholi yashab turgan joy, o‘lka. Bu ot qadimgi turkiy tilda “bir joydan ikkinchi joyga harakatlan-” ma’nosini anglatuvchi *yorы-* felining *yurы*-shaklidan *-t* qo‘shimchasi bilan yasalgan, ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan: *yorы-+t> yurыt> yurt.* Bu so‘z asli “ko‘chmanchi qabilaga qarashli yerlar”

ma’nosini anglatgan bo‘lib, “aholi yashaydigan joy” ma’nosi o‘troq hayot boshlangandan keyin yuzaga kelgan. [Rahmatullayev, 2000:188].

Yurt 1. Ma’lum xalq, aholi yashab turgan joy; o‘lka, mamlakat, vatan. 2. Biror mamlakat yoki o‘lkada yashovchi xalq; el; aholi. *Yurt puflasa, shamol turadi.* Maqol.

Yurt so‘zidan *yurtboshi, yurtdosh, yurtfurush, yurtchilik, bilim yurti* leksemalari yasalgan:

yurtboshi 1.El-yurt boshlig‘i, sar-dori, hukmdor; oqsoqol. 2. Mustaqil O‘zbekistonda: Prezidentga nisbatan hurmat ma’nosida qo‘llanadi; *yurtdosh* “bir yurtda yashovchi yoki yashagan kishilarning har biri (bir-biriga nisbatan); *yurtfurush* “o‘z yurti yoki vataniga xiyonat qiluvchi; vatanfurush, xoin”; *bilim yurti* o‘rta maxsus o‘quv, ta’lim-tarbiya muassasasi. *Pedagogika bilim yurti.* (O‘TIL,2008:94).

Yurt leksemasi asos bo‘lgan *yurt so‘ramoq* frazemasi “yurtni, mamlakatni boshqarmoq, hukmdorlik qilmoq, hokim bo‘lmoq” ma’nolarini bildiradi.

Shu asosdan yasalgan, izohli lug‘atda qayd etilgan, “yurtda bo‘ladigan turli taomil, munosabat, urf-odat va shu kabilar”ni ifodalaydigan *yurtchilik* / *yurtgarchilik* [O‘TIL,2008:94] so‘zlari nutqda kam qo‘llanadi, badiiy asarlar matnidagina uchraydi.

Yurak leksemasi ham *yur-* asosidan yasalgan: *yurak* “qon aylanish a’zosi”. Bu so‘z qadimgi tukriy tilda “harakatlan-” ma’nosini anglatuvchi *yüri* fe’lining [DTS, 1969:286] *yür-* shaklidan *-(äk)* qo‘shimchasi bilan yasalgan; o‘zbek tilida ü unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: *(yüri-> yür-)+ak= yüräk>yurä*k. [Rahmatullayev,2000:188].

Yurish fe’l leksemasida quyidagi semalar mavjud: “harakat”, “harbiy harakat”, “jang harakati”, “biror manzilga tomon qilingan harakat”, “bir joydan ikkinchi joyga ko‘chish”.

Yurish fe’l leksemasi “Boburnoma”da, asosan, aniq, ko‘rish mumkin bo‘lgan xatti-harakatni ifodalagan. Hozirda leksemaning tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan ko‘chma ma’nolari faol qo‘llanmoqda.

“Boburnoma” matni leksik birliklar semantikasidagi o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradigan tarixiy manba sifatida ham qimmatli ma’lumotlarni o‘zida jamlagan.

Adabiyotlar

1. Бобурнома. 1960. –Тошкент: ФА нашр. 512 б.
2. Бобурнома. 2002. – Тошкент: Шарқ НМАК. 336 б.
3. Бобурнома. 2008. –Тошкент: Ўқитувчи НМИУ. 288 б.
4. Будагов Л.З. 1869/1960. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Том I. –СПб. 820 с.
5. Дадабоев Ҳ. 2003.Тарихий ҳарбий терминлар луғати. –Тошкент: Университет. –240 б.

6. Назарова Х. 1972. Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларининг изоҳли луғати. –Тошкент. –187 б.
7. Раҳматуллаев Ш. 2000.Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). –Тошкент.–600 б.

Shartli qisqartmalar:

ANATIL − Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1983. I. – Тошкент. −656 б.

DLT − Девону луғотит турк. 1963. III. –Тошкент. −463 б.

DTS− Древнетюркский словарь. 1969.–Л.

NAL − Навоий асарлари луғати. 1972. Порсо Шамсиев таҳрири остида. – Тошкент. − 784 б.

Таржумон − Таржумон − XIV аср ёзма обидаси.1980. − Тошкент: Фан,

TRS −Таджикско-русский словарь. 1954. –М.: Гос. изд. ин. и нац. словарей. – 789 с.

O‘TIL−Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2008. V. −Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти.– 592 б.

Об указах (фирманах) Бабура в «Бабур-наме»
About the decrees (firmans) of Babur in “Babur-name”

Каромат МУЛЛАХОДЖАЕВА [1]

Аннотация: В статье рассматриваются указы Захириддина Мухаммада Бабура. В «Бабур-наме», богатом ценными сведениями, упоминается более ста указов. Эти различные по содержанию и объему указы, касающиеся внутренней и внешней политики страны, имеют особое значение в восприятии общественно-политической деятельности и духовного облика Бабура.

Ключевые слова: *мемуары, указы, политика, страна, народ, армия, порядок, благоустройство.*

Annotation: The article examines the decrees of Zahiriddin Muhammad Babur. The Babur-name, rich in valuable information, mentions more than a hundred decrees. These decrees, different in content and volume, concerning the country's domestic and foreign policy, are of particular importance in the perception of socio-political activity and the spiritual appearance of Babur.

Keywords: *memoirs, decrees, politics, country, people, army, order, improvement.*

Произведение Захириддина Мухаммада Бабура «Бабур-наме» – ценный источник, отражающий духовную, общественную и политическую жизнь его эпохи. Это произведение, показавшее сложный и напряженный жизненный путь Бабура – правителя и поэта, стало для последущих поколений богатым источником информации и в то же время любимым произведением. «Бабур-наме» – это и кладезь для изучения личности великого государственного деятеля. В эти мемуары также включены указы – фирманы и письма Бабура, которые, в свою очередь, помогают расширить наши представления об общественно-политической деятельности Бабура и его личности.

Тема, выбранная нами для сообщения – сведения о фирманах и письмах Бабура, которые автор приводит в контексте описываемых им событий.

Сначала нам нужно уточнить смысл слова фирман. Фирман –это указ султана, шаха в некоторых мусульманских странах. Во время пророка Мухаммада правителям разных стран были разосланы фирманы – грамоты с призывом принять ислам. Затем фирманами начали называть важные указы

[1] Каромат Муллаходжаева – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

правителей. В настоящее время в разных архивах и книгохранилищах хранятся подобные ценные эпистолярные материалы.

Фирман – важный документ во внутренней и внешней политике государства. Его можно назвать определенным индикатором, который демонстрирует деятельность правителя и его политику и по которому мы можем дать оценку его трудам.

Со стороны бабураведов этой теме уделялось внимание только в рамках определенных вопросов. В частности, такие ученые, как академики Сабохат Азимжонова, Азиз Каюмов, профессор Хасан Кудратиллаев изучали указы Бабура в рамках своих исследований в области государственного управления.

Тексты копий трех фирманов, полученных из Индии и Пакистана Сабохат Азимджановой (почти полвека назад), касаются главным образом пожалований *мадад-и-ма'аш,* или *суюргала*. Эти фирманы, как писала С. Азимджанова, пополняют наши знания о земельных отношениях в Пенджабе иех времен. «В Индии Бабур постоянно стремился укрепить торгово-экономические связи со Средней Азией, Афганистаном и Ираном, которые были прерваны после поражения Бабура в 1511 г. ... Специальный фирман (указ) Бабура об измерении расстояния между Агрой и Кабулом, о благоустройстве караван-сараев, постройке специальных колодцев на торговых магистралях, заготовке фуража и съестных припасов для путников был издан с целью подъёма товарооборота страны, нормализации системы внешних сношений с другими странами», писала исследовательница.

Исследуя данную тему, мы заметили, что основным источником фирманов Бабура является «Бабур-наме». В книге подробно описано более 100 указов падишаха Бабура. Тексты всех этих фирманов не всегда цитируется. В научной литературе во многих случаях приводятся сведения о причине, времени написания фирмана и адресате, а его одержание доводится до читателя иногда детально, а иногда обобщённо. Можно сказать, что этого требует стиль «Бабур-наме».

Известно, что государственность Тимуридов была прекрасно организована, и Бабур, которого можно назвать одним из наследников Тимуридов, конечно, не был равнодушен к этому вопросу. В то же время тот факт, что Бабур был творческой личностью, способствовало усилению влияния его указов. Также Бабур подкреплял свои приказы и указы аятами Корана и тем самым создавал важные условия для безусловного их выполнения. «…Отсутствие земельно-налогового законодательства и некоторые другие социально-экономические факторы натолкнули Бабура на идею написать сочинение, где были бы изложены основные нормы мусульманского закона. Так появился его следующий труд под названием “Мубайин” (1521 г.), написанный в

стихах на староузбекском языке. Третья глава этой книги, озаглавленная “Китаб ат-закат”, полностью посвящена налоговой системе Средней Азии, Афганистана и Индии», отмечала в своем труде Сабохат Азимджанова.

Указы отражают политику Бабура. Глядя на типы указов, упомянутых в «Бабур-наме», можно увидеть, что внешняя и внутренняя политика проводились в гармонии друг с другом, согласно требованиям ситуации. В мирное время в Афганистане и Индии издавались указы о внутренней политике, в том числе о работах в сфере благоустройства. Например, Бабур отдает приказы ответственным людям выполнять работы, связанные с рытьем колодцев, строительством бань, посадкой садов и строительством определенных сооружений.

Указы, касающиеся военной политики, имели решающее значение для руководства армией. Потому что почти все сражения, которые вел Бабур, проходили в очень тяжелых и сложных условиях. Войско Бабура состояло из разных народов, в какой-то момент у них возникало чувство незащищенности, и, хорошо это чувствуя, Бабур по-разному поддерживал их, внушал доверие и уверенность в исходе боя. Иногда после военных побед награждения и поощрения солдат также сопровождалась указами. Например, «... в таком-то бою ... дается такому-то то-то... или потому, что хорошо сражался в этой битве ... он поощряется и т. д.». Именно в этом проявлялся характер Бабура как строгого лидера и душевного человека.

Бабур пишет: *«В эти дни, вследствие минувших событий, великие и малые, как уже упомянуто, испытывали большую тревогу и беспокойство. Ни от кого мы не слышали мужественного слова и смелого мнения. Велеречивые эмиры и проедающие свои области вазиры ни в словах, ни в поведении не были смелы; ни в речах их, ни в планах не было мужества. В этом походе [один] Халифа держал себя очень хорошо: укрепляя власть и порядок, он не совершил упущений. Наконец, видя у людей такое малодушие и наблюдая подобную слабость, я придумал некий план. Я созвал всех беков и йигитов и сказал: “Беки и йигиты! Всякий, кто пришел в сей мир, войдет в число тех, кто не существует. Вечен и бессмертен один лишь бог. Всякий, кто явился на пир жизни, в конце концов должен выпить чашу смерти. Всякий, кто пришел в обитель существования, в конце концов должен уйти из этой юдоли горя. Чем жить с дурной славой, лучше умереть с доброй славой. Если умру с добрым именем — хорошо. Мне нужно [доброе] имя — тело принадлежит смерти. Господь великий послал нам на долю такое счастье и приблизил к нам эту радость. Убиенный — это мученик, убивающий врагов, есть боец за веру. Все исполнится по слову Аллаха. Надлежит нам дать клятву, что никто не подумает отвернуть свой лик от боя и выйти из сечи и сражения, пока душа его не вышла из тела”. Бек и нукер,*

старый и малый — все с охотой взяли в руки Коран и дали клятву и обещание в таком смысле. План был хорош; это видел и слышал и друг, и враг вблизи и вдали».

В указах, касающихся дисциплины солдат в армии, отражены не только интересы солдат, но и забота о жителях оккупированной земли. Пример из «Бабур-наме»: «*Однажды во время послеполуденной молитвы вдруг поднялось всеобщее смятение и всех этих мусульман ограбили. Однако порядок в войске достигал такой степени, что вышел приказ никому не держать чужих вещей и все отдать обратно. На утро еще не пробили первой стражи, как у воинов не осталось чужого, даже конца нитки или обломка иголки, — все вернули владельцам».*

Среди указов Бабура важное место занимают призывные указы, также указы об обещаниях и угрозах. В основном это указы, касающиеся внешней политики.

В то время как в указах о призыве в основном Бабур обращается к народу и его правителям вокруг завоеванной им земли и пытается склонить их к себе, в указах об обещаниях и угрозах он применяет добровольно-принудительную форму подчинения. Бабур сообщает, что свои указы он запечатывал и отправлял через посла, чапара или доверенного лица.

Информацию о том, что он издал указ и сам его контролировал его исполнение, мы можем прочитать в этих мемуарах. Например: *«Выступив с этой стоянки, мы пришли в Шах-Абад. Мы послали человека к лагерю Султан Ибрахима взять «языка» и потому задержались на этой стоянке. Рахмат-пехотинец был послан в Кабул с грамотами о победе».*

Описывая события 1507–1508 годов, Бабур пишет: «*Хотя была середина зимы, мы возвратились в Кабул через Бад-и Пич. Я приказал вырезать на камне выше Бад-и Пича тарих нашего прохождения мимо этого места, Мирек Юсуф вырезал надпись, а Устад Шах Мухаммед исполнил дело резчика. Вследствие спешки он вырезал надпись не очень хорошо. Я пожаловал Газни Насир мирзе; Абд ар-Раззак мирза получил Нингнахарский туман, Мандравар, Дара-и Нур, Кунар и Нургал. ... До той поры потомки Тимура, хотя я обладал царской властью, называли меня "мирза". Теперь я приказал величать себя падишахом».*

В «Бабур-наме» полностью приводятся только два указа – грамоты. Бабур подробно описывает, как были подготовлены эти указы и причины их написания. Обе эти грамоты на персидском языке. В то время как первый указ посвящен отказу от алкоголя, второй касается битвы с Рааной Сангой.

Отношение Бабура к алкоголю хорошо описано в «Бабур-наме». Как и другие Тимуриды, Бабур не был застрахован от вина. Но когда он проанализировал все сделанное им и то, что заставило его переживать, он дал

себе слово не увлекаться этим напитком. Этот указ также выражает внутренние переживания и борьбу Бабура с самим собой. Этот указ подготовил почву для укрепления веры и последующих побед. Символично, что этот фирман был объявлен перед большой битвой – войной против Раана Санги.

Изучение роли этих двух фирманов в деятельности Бабура и Бабуридов, а также политической и общественной жизни того периода, а также стиля данных фирманов требует серьезных исследований.

Человечность, добродетели и душа Бабура более отчетливо видны так же в его тайном завещании, написанном на персидском языке, и в письмах к родственникам, в том числе детям.

Фирманы и письма Бабура содержат существенные детали исторических событий, в них показана правовая, социальная и политическая жизнь того времени и в них отражен дух той эпохи.

Говоря о языке «Бабур-наме», необходимо отметить его простоту, общедоступность, ясность и сжатость. Бабур не любит громких фраз и сложных выражений, простота языка Бабура способствует ясному восприятию его творений.

Литература

1. Бабур Захир ад-дин Мухаммед. 1993. Бабур-наме (Записки Бабура). – Тошкент: Главная редакция энциклопедий.
2. Азимджанова, С. 1977. Государство Бабура в Кабуле и Индии.– М.: Наука.
3. Қудратуллаев, Ҳ. 2011. Бобурнинг давлатчилик сиёсати ва дипломатияси.– Тошкент: Шарқ.

“Boburnoma”dagi harbiy terminlarning inglizcha tarjimalari qiyosi
Comparison of English translations of military terms in “Baburnama”

Ziyodaxon TESHABOYEVA[1]

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma”dagi harbiy terminlarning inglizcha tarjimalari qiyosiy tahlil qilinadi. Unda harbiy terminlarning turli davrlarda ingliz tiliga tarjima qilingan Jon Leyden va Villiyam Erskin (1826), Annetta Susanna Beverij (1921) va Vilyer Tekston (1996) tarjimalarining asliyatga mosligi o‘rganiladi. “Boburnoma” tilshunos va tarjimashunoslik sohasida yana ko‘p tadqiqotlar olib borishga sabab bo‘ladigan nodir obyekt bo‘lib, o‘zidagi arxaik so‘zlar ma’nosi va tarjimalarini tahlil qilish bugungi tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalasidir. “Boburnoma” germenevtik jihatdan ham tadqiqqa extiyoj tug‘iladi. Uning tarjimalari ham barcha o‘quvchi uchun eng yaxshi manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma” harbiy terminalar, ghul,* tufak, zarbzan, *baronghor, javonghor, tarjima.*

Annotation: The article compares the English translations of military terms in "Baburnama". It observes the accuracy of the translations of military terms into English made by John Leyden and William Erskine (1826), Annetta Susannah Beveridge (1921) and Wheeler Thackston (1996). "Baburnama" is a rare object that causes many more studies in the field of linguistics and translation studies, and the analysis of the meaning and translations of archaic words in it is an urgent issue of today's linguistics and translation studies. "Baburnama" also needs the hermeneutic research. Its’ translations are also the best resource for all readers.

Key words: *"Baburnama" military terms, centre, matchlock, matchlock shot, right wing, left wing, translation.*

O‘zbek klassik adabiyotining yirik vakili tarixshunos, olim, temuriy hukmdorlarning so‘nggi namoyondalaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Uning “Boburnoma” asari juda ko‘p tadqiqotlarga manba bo‘lib xizmat qilib kelgan va xizmat qilmoqda. Bugungi kunda uni o‘rganishga juda katta extiyoj tug‘iladi. Birinchidan uning leksikasining o‘ziga xosligi, yozilish uslubi, ikkinchidan sohalararo ma’lumotlarning mo‘lligi, asarning real ma’lumotlarga asoslanganligi; uchinchidan nodir asarning dunyo tillariga tarjimasining bosqichma-bosqich amalga oshirilganligidir.

[1]*Ziyodaxon Teshaboyeva Qodirovna* – filologiya fanlari doktori, dotsent. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

“Boburnoma”ni xorijiy tillarga o‘girishda avvallari til egalarining eski o‘zbek tiliga oid tushuncha va atamalarni to‘la anglab yetishlari uchun maxsus lug‘atga zaruriyat tug‘ilgan edi, hozir esa Bobur davridagi eski o‘zbek tilining qanchalik sodda, ommabop shaklida yozilgan bo‘lishiga qaramasdan o‘z tili bilan bugungi kitobxon tili va tushunchalari, fikrlash usullaridan farq qilishi sababli ham bari bir izohli lug‘atga extiyoj seziladi [Ishoqov F, 2008: 3], bu extiyojlar yillar davomida ortsa ortadiki, aslo kamaymaydi.

Shunday ekan, asarni har tomonlama tadqiq etish maqsadga muvofiq deb bilgan holda navbatdagi tadqiqimizni “Boburnoma” asarini ingliz tiliga tarjima qilishdagi harbiy terminlar murakkabliklari haqida olib boramiz va osha murakkabliklar aslida nimalarda ekanligiga urg‘u berib, misollar orqali tarjima qiyinchiliklarini ochib berishga harakat qilamiz.

“Boburnoma”da shunday terminlar uchraydiki, bugungi kun o‘quvchisi ularni birining ma’nosini to‘liq bilsa, boshqasining ma’nosini bilmasligi mumkin. Lekin ular u darajada bir qarashda murakkab emasdek tuyuladi. Jumladan, ***ghul, tufak, zarbzan, baronghor, javonghor, ra’dandoz*** **qorchi**, ***to‘lghama*** kabi harbiy sohaga doir terminlarning o‘zbek tilidagi ma’nolarining barchasi haqida to‘liq ma’lumotga ega emas. Qolaversa ularning inglizcha tarjimasini o‘rganish ham ma’lum darajada tarjimonlarga qiyinchiliklar tug‘diradiki, arxaik so‘zlar tarixni yodga soluvchi, kerak bo‘lsa ushbu terminni batafsil o‘rganishga to‘g‘ri keladi.

Shunday qilib, yuqorida keltirgan leksemalardan biri *g‘ul*ning gapdagi qo‘llanishini ko‘rib chiqamiz.

1. Aybdorning bo‘yin, oyoqlariga kiygizib qo‘yiladigan jazolash asbobi: **kishan**
2. *Zindonda bo‘yinlariga, oyoqlariga **g‘ul va zanjir** bog‘lanib [dehqonlar] qaqshab yotar edilar*. S. Ayniy, Doxunda.
3. Turkiy xalqlar va mo‘g‘ullarda: **qo‘shinning markazida,** podshoh, xon huzurida **turuvchi** maxsus **harbiy qism**.
4. Xalil Sulton raqibining **g‘uliga** kuchli zarba berdi. B. Ahmedov, Ulugbek.
5. Oyog‘ida kunda, bo‘ynidadir **g‘ul.** Rustamxon [Ishoqov F, 2008: 3].

Yuqoridagi misollarning birinchi, ikkinchi va beshinchi misollarda “kishan” ma’nosida aks etgan. Uchunchi va to‘rtinchi misollarda “harbiy, hujumchi qism” ma’nosida qo‘llangan. Keyingi leksema esa “tufak”ning ma’nosiga oydinlik kiritamiz.

Hozirgi o‘zbek tilida “tufak” so‘zi qo‘llanmaydi. “Boburnoma”da esa “miltiq”, “tufak” va “tufang” – ma'nodosh so‘zlar sifatida ishlatilgan. Ammo fors-tojik, ozarboyjon tillarida “tufang”, usmonli turkchada “tüfek” – “miltiq” ma'nosida hozir ham qo‘llanadi. “Tufak” rus manbalarida ham “тюфяк” shaklida uchraydi. Rus

yilnomalaridagi “тюфяк” haqida ilk qayd XIV asrga oid bo‘lib, qizig‘i shundaki, 1382 yili rus olimlari To‘xtamish hujumini qaytarish uchun tufakdan ham foydalanishgan ekan. Rus tarixchilarining fikriga ko‘ra, tufak Moskva knyazligiga turkiy xalqlar (tatarlar) orqali o‘tgan bo‘lishi mumkin. M.Fasmerning “Rus tilining etimologik lug‘ati”da “тюфяк” chig‘atoycha (eski o‘zbek tilida) ekanligi aytiladi.

“Boburnoma”da podshoh Boburning ikki farmoni fors tilida keltirilgan. Boburning vazirlari tomonidan yozilgan mazkur forscha matnlarda ham: “tufakchilar” ma'nosida “tufakchiyon”, ba'zan “tufakandoz” deb yozilganini ko‘rish mumkin. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da “tufak” so‘zini ot egar-jabdug‘i qismlaridan biri sifatida tilga olingan.

“Tufak” so‘zi “Devonu lug‘otit-turk”da shunday izohlangan: “تُفَکْ to‘wäk – tuppak. Tol daraxtining va umuman ho‘l shoxlarning po‘stlog‘ini yormay, shox, novdadan sug‘urib olinadi va uchiga g‘o‘lakchalar qo‘yib, chumchuqlarni otiladi. Yog‘ochning ichini kovak qilib ham tuppak yasaladi (chigillar lug‘ati)”. “Tuppak” so‘zi 1981 yili chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham: “loy soqqani puflab qush otish uchun maxsus tayyorlangan qamish nay”, deb izohlangan. Bu so‘z “tuflamoq” fe'lidan yasalganligi ham anglashiladi. Puflab otiladigan bu turdagi ibtidoiy pnevmatik qurol Amerika hindularida ham borligi turkiy xalqlarda tufak azaldan mavjud bo‘lganligidan dalolat beradi.

Demak, miltiq tilimizda dastlab “tufak” deb atalgan. Keyinchalik u fors va boshqa tillarga “tufang” shaklida o‘tgan. Pistolet yaratilgandan keyin esa, bu qurol “kalta miltiq” ma'nosida turk va fors tillarida “to‘pponcha”, “tufangcha”, “tubangcha” qabilida atala boshlagan.

“To‘p” (“zambarak”) so‘zi ham shaklan “tufak” yoki “tuppak”ka o‘xshasa-da, etimologik jihatdan “koptok” ma'nosidagi “to‘p” so‘ziga borib taqaladi. Bu qurolning o‘qi – dumaloq tosh, to‘p shaklida bo‘lganligi uchun shunday atalgan. “Devonu lug‘otit-turk”da: “تُوبْ top – to‘p, koptok. Bu so‘z topïqning qisqarganidir”, deb izohlangan. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” asari muallifi Sh.Rahmatullayev esa: “Aslida “top” so‘zi qadimgi turkiy tilda mustaqil ishlatilgan va “dumaloq narsa” ma'nosini anglatgan”, deb yozadi. Ya'ni, to‘p – qadim zamonlardan qal'a-qurg‘onlarni zabt etish uchun qo‘llanilgan manjaniq oilasiga mansub quroldir. “Boburnoma”da to‘p (zambarak), ko‘pincha, “qazon”, katta to‘p – “ulug‘ qazon” nomlari bilan tilga olinadi. Bunday atalishining sababi to‘p ham qozonday maxsus qolipga yuqori darajali issiqlikda eritilgan ma'dan quyilib yasalgan [Абдувоҳид Ҳайит, 2869]. Olim Abduvohid Hayitning yuqoridagi fikriga ko‘ra tufakning kelib chiqishini hozirgi til bilan bog‘lab, harbiy termin sifatida yodda tutish kerak. Bizga kerak bo‘lgan harbiy terminlar mazmuni ravshan bo‘lgani holda, “gul”ning ma’nosi kishan, kishanlamoq, zulm qilmoq va jangda markazda turib himoya qiluvchi “harbiy, hujumchi qism”, tufak va zarbzan miltiq yoki portlatuvchi dori solib, himoya uchun

ishlatiladigan harbiy qurol ekan. Shuningdek, *Turkiy xalqlar va mo‘g‘ullarda: **qo‘shinning markazida,** podshoh, xon huzurida **turuvchi** maxsus **harbiy qism*** haqida “Boburnoma”da qo‘llangan “gul”ning ma’nosiga to‘xtalamiz.

*... нодирул-аср устод Алиқули ки, бо тавобии худ дар пеши **ғул** истода буд, мардонагихр карда ва сангҳои азимул-қадр ки, чун дар паллаи мизони аъмолаш ниҳанд соҳибаш «Фааммо ман сакулат мавозинуху фахува фи ишатир-розия» ном барорад ва агар бар кӯҳи росих ва жабали шомиҳ андозанд «калиҳнилманфуш» аз по дар орад, ба жониби ҳисори оҳандисори сафи куффорро андохт ва баандохтани санг ва **зарбзан** ва **туфак** бисёри аз абнияи ажсоми куффорро мунҳадим сохт* [Бобурнома, 2002: 228]. Asliyatdan keltirilgan ushbu matnda ***ғул, зарбзан*** va ***туфак*** leksemalari harbiy terminlardir. Ushbu terminlar tabdilga ham to‘liq ko‘chgan:

Замона нодири Устод Алиқули ўз кишилари билан **ғул**нинг олдида туриб, мардоналик кўрсатиб, темир қўргондек кофирлар сафига шундай катта жуссали тошларни отардики, агар у тошни ҳам амаллар тарозисининг палласига солсалар, эгаси, кимнинг тоши оғир келса, у яхши турмушда яшайди “ деган ном олади ва агар қаттиқ тоққа ва баланд тепага отсалар, таралган юнгдай “ тит-пит қилиб юборади. Мана шундай тош, **туфак** ва **зарбзан** отиш билан кўпчилик кофирларни қулатди [[Бобурнома, 2008: 239]. Keltirilgan harbiy terminlarni tarjimalar tarixini boshidan kechirgan “Boburnoma”ning inglizchalarini ham kuzatib ko‘ramiz. Asarning birinchi tarjimoni John Leyden va Villiyam Erskinlar (1826) quyidagicha bergan:

Ustad Ali Kuli, who was stationed with his men in front of the **centre,** having exhibited great proofs of valour, discharged huge bullets, of such a size, that if one of them were placed in the basin of the scale of duty, its master, then that man whose scale is heavy gains a name among the blessed; and if thrown against a rooted hill, or a lofty mountain, it would drive them from their foundation like teased wool. Such were the bullets he darted on the iron-clad lines of the heathen bands, and from the discharge of balls and **guns and matchlocks**, many of the suns of the bodies of the heathen were annihilated. [J.Leyden-W.Erskine, 1826: 366].

– Ustoz Ali Quli o‘z yigitlari bilan **markaz** oldida turib, buyuk jasorat namunalarini ko‘rsatib, shunday o‘lchamdagi ulkan o‘qlarni otdiki, uning xo‘jayini agar ulardan biri qo‘riqchilik qilayotgan joyning qoq o‘rtasiga otsa, “kimning tarozisi og‘ir bo‘lsa, u mashhlar orasida nom qozonadi”; agar tepalikka mustahkam yoki baland tog‘ga tashlansa, ularning poydevorini “mazax qilingan yung kabi titib yuboradi. Mana shunday o‘qlar u majusiy guruhlarning temir bilan qoplangan chizig‘iga otildi va **to‘plar, miltiqlar** va **o‘qlar**ning otilishi natijasida majusiylarning ko‘zga tashlangan barcha jasadlarining ko‘plari yo‘q qilindi (Muallif tarjimasi).

Ushbu parchani qayta o‘zbek tiliga o‘girar ekanmiz harbiy terminlarni ajratib o‘rganish ham shart emasdek tuyuladi go‘yo, sababi ingliz tilidagi so‘zlarning barchasi aynan harbiy leksikani qamrab olgan. Lekin biz terminning mazmunini ochib berishni maqsad qilganimizdek aynan ***ғул,*** **туфак** va **зарбзан** leksemalarining tarjimadagi holatini aniqlashimiz zarur. ***Ғул–*** **centre, туфак** – **guns** va **зарбзан** esa **matchlocks,** deya tarjima qilinmoqda. “Boburnoma” asarini 1921 yilda Anetta Susanna Beverij ingliz tiliga yana tarjima qilib nashr ettirdi. Uning tarjimasi esa quyidagicha:

Master Ali Quli, standing with his followers before the **center** and evincing many acts of bravery, shot toward the iron-clad citadel of the infidels’ ranks rocks so huge that if they were placed in the scales of one’s deeds, it could be said, “he whose balances shall be heavy with good works shall be happy” and if they were hurled upon the towering mountains and firm hills, they would bring them down “like carded wool” and by hurling stones and **shooting matchlocks** and **mortars** he reduced the foundations of the infidels’ bodies. [Beveridge, 1921: 391].

– Ustoz Ali Quli o‘z shogirdlari bilan **markaz** oldida turib, ko‘p jasorat ko‘rsatib, kofirlar safining temir bilan qoplangan qal’asi tomon shunday ulkan qoyalarga otdiki, agar ularni amallar taroziga solib ko‘rilsa, deyish mumkin ediki, “Kimning tarozilari yaxshi ishlar bilan og‘ir bo‘lsa, ul baxtli bo‘lur” va agar ular baland tog‘lar va mustahkam tepaliklarga tashlansa, ularni “titilgan jun kabi sochib yuborgan bo‘lardi” va shu kabi toshlar, **portlovchi dori va minomyotlar** otib, poydevorni va kofirlarning jasadlarini yo‘q qildi.

Bevrijning tarjimasida ***ғул-centre, туфак-shooting matchlocks*** va ***зарбзан-mortar*** leksemalari orqali o‘quvchiga yetkazib berilmoqda. Asliyatdagi ***зарбзан*** uning tarjimasida **mortar,** ya’ni **ohak**ning portlovchi xususiyatni keltirish orqali asliyat mazmunini tiklab berilmoqda. “Boburnoma”ninng so‘ngi tarjimoni Vilyer Tekston (1996) da quyidagicha beriladi.

– Ustad Ali-quli, who with his own appurtenances stood in front of the **centre**, did deeds of valour, discharging against the iron-mantled forts of the infidels’ stones of such size that were (one) put into a scale of the balance in which actions are weighed, that scale shall be heavy with good works and he (i.e. its owner) shall lead a pleasing life; and were such stones discharged against a hill broad of base and high of summit, it would become like carded wool. Such stones Ustad Ali-quli discharged at the iron-clad fortress of the pagan ranks and by this discharge of stones, and abundance of **culverins** and **matchlocks** destroyed many of the builded bodies of the pagans [Thackston, 1996: 571].

– Ustoz Aliquli o‘z jihozlari bilan **markaz** oldida turib, kofirlarning temir qo‘rg‘onlariga shunday o‘lchamdagi toshlarni tashlab, mardonavor ishlar qildilar, agar amallari tortilsa, uning tarozi yaxshi amallar bilan og‘ir bo‘ladi va u (ya'ni uning

egasi) rohatda hayot kechiradi. Agar shunday toshlar keng va baland cho‘qqiga tashlanadigan bo‘lsa, u “junni titib yunborgudek” barbod qiladi. Ustoz Aliquli majusiylar safining temir bilan qoplangan qal'asiga tashlagan bunday toshlar va toshlarning ko‘pligi, **to‘p** va **tufaklar**ning ko‘pi butparastlarning jasadlarini vayron qildi.

Vilyer Tekston tarjimasida ***ғул-centre, туфак-*** **culverins**, yani bu joyda Tekston eski ingliz tilidagi, XVI asrda qo‘llangan mumtoz so‘zdan foydalangan, uning hozirgi ingliz tilidagi sinonim so‘zi “cannon” to‘p yoki zambarakka tog‘ri keladi va ***зарбзан*** esa **matchlocks** leksemasi orqa o‘quvchiga yetkazib berilgan. Asliyatdagi g‘ul jang maydonidagi hujumchi qism bo‘lib, ingliz tilida “offensive unit deb ataladi. Chunki markazda turadigan, dushmanga zarba beruvchi qism sanaladi. Ushbu zarba beruvchi pragmatic ma’no aynan harbiy termin “g‘ul”dir.

Demak asliyatdagi ***ғул, зарбзан*** va ***туфак*** uch turdagi inglizcha tarjimalarda:

Hujumchi qismning o‘ng tarafi – **o‘ng qanot**, chap tarafi – **chap qanot** deb ataladi. Ushbu ikki so‘z birikmasi mumtoz so‘z ***baronghor, javonghor*** deyiladi. Ushbu harbiy terminlar esa tarjimonga hech qanday qiyinchilik tug‘dirmay, tarjimaning kalka usuli orqali o‘giriladi. Quyidagi asliyat misolida qo‘llangan ***baronghor, javonghor***ga e’tibor qaratamiz.

Ва ***баронғори*** *кафара ба каррот ва маррот ҳамлахр бар жониби* ***жавонғори*** *лашкари ислом оварданд ва худро ба ғуззоти зуннажот расониданд ва ҳар навбат ғозиёни изом баъзеро ба заҳми сиҳоми зафарфаржом ба дорулбавори яс-лавнаҳр фабиъсал-қарор фиристода, барҳеро бар гардониданд...* [Бобурнома, 2002: 227].

– Кофирларнинг **баронғори** неча мартабадан ислом қўшини **жавонғори** томон ҳужум қилиб, узларини нажот эгалари ғозийларга етказдилар. Ҳар гал азамат ғозийлар баъзиларини зафарли ўқлар билан тамуғга юбориб, бир қисмини қайтардилар.

John Leyden va Villiyam Erskin tarjimasida ushbu matn tarjimasini quyidagicha bergan:

The heathen made repeated and desperate attacks on the **left wing** of the army of Islam, and fell furiously upon the holy warriors, the children of salvation; and each time the high and mighty holy warriors struck some with wounds from their arrows which lead to victory, and *sent them to the house of destruction, the worst of abodes,* and part of them they drove back … [J.Leyden-W.Erskine ,1826: 365].

– Butparastlar Islom lashkarining **chap qanotiga** qayta-qayta va umidsiz hujumlar uyushtirdilar va g‘azab bilan muqaddas jangchilar, najot farzandlari ustiga yiqildilar va har safar baland va qudratli muqaddas jangchilar g‘alabaga olib boradigan o‘qlaridan ba'zilarini yarador qilib, urib, ularni vayronagarchilik uyiga, eng yomon maskanga jo‘natishdi va ularning bir qismini orqaga haydab ketishdi.

Ularning tarjimasida asliyat va taddildagi *Ва **баронғори** кафара ба каррот ва марроt ҳамлахр бар жониби **жавонғори***– Кофирларнинг **баронғори** неча мартабадан ислом қўшини **жавонғори** (томон ҳужум қилиб) degan ajratib berilgan harbiy terminlarning bittasi tushib, leksik kompressiyaga uchragan. Ya'ni javong'or inglizchada aks etmagan. S.Beverij esa asliyat matnini quyidagicha o'girgan.

The pagan **right wing** made repeated and desperate attack on the **left wing** of the army of Islam, falling furiously on the holy warriors, possessors of salvation, but each time was *made to turn back or smitten with the arrows of victory, was made to descend into Hell,* the house of perdition; they shall be thrown to burn therein, and an unhappy dwelling shall it be [Beveridge1921; 569]. (Qoran, cap. 14, v 33) – Butparastning **o'ng qanoti** Islom qo'shinining **chap qanotiga** qayta-qayta hujum qilib, najot sohiblari bo'lgan muqaddas jangchilarni g'azab bilan urdi, lekin har safar *orqaga qaytishga majbur qilib, yoki g'alaba o'qlari bilan otib, do'zaxning, halokat uyiga yubordilar*; *Ular u yerda kuydirilurlar va u yerda baxtsiz maskan bo'lur*. (Qur'oni karim, 14-oyat, 33-sura).

S.Beverijda asliyatdagi ***баронғори*** va ***жавонғори*** ni **right wing** va **left wing**, deb to'liq o'giradi. Uning tarjimasida ko'plikdagi "Кофирлар" – The pagan deya birlikda o'girilishi biroz diqqat etiborni tortmasa, uning tarjimasi badiiy jihatdan yaxshi tarjima deyish mumkin. "Boburnoma"ning so'ngi tarjimoni V.Tekstonda quyidagicha tarjima qilingan:

Over and over again the infidels' **right flank** attacked the Army of Islam's **left flank**, but each time the great holy warriors dispatched some of them with their victorious lances to the house of perdition .– "They shall be thrown to burn therein, and an unhappy dwelling shall it be" and others back [Thackston, 1996: 391]. Asliyatdagi ***баронғори*** va ***жавонғори*** ning ingliz tilidagi ekvivalenti bo'lgan V Tekston **right flank** va **left flank** deb o'girgan.

– Kofirlarning **o'ng qanoti** Islom armiyasining **chap qanotiga** qayta-qayta hujum qildi, lekin har safar buyuk muqaddas jangchilar ulardan ba'zilarini o'zlarining g'olib nayzalari bilan halokat uyiga jo'natishdi. – *"Ularni u yerda kuydirilishi uchun tashlanadigan. baxtsiz uy bo'ladi"* va boshqalarini qaytarib ketishdi.

ASLIYAT MISOLI	**Leyden-Erskin (1826)**	**A. Beverij (1921)**	**V.Tekston (1996)**
ғул	centre	centre	centre
зарбзан	guns	shooting matchlocks	culverins
туфак	matchlocks	mortar	matchlocks
баронғори	left wing	right wing	right flank

жавонғори	-	left wing	left flank

Tarjimon S.Beverij Qur’oni karimdan keltirilgan ta’sirli so‘zlarga iqtibos keltiradi. Leyden Erskinlar esa kursivda beradilar, V.Tekston ham kursiv va ham qo‘shtirnoq ichida berib ketadi.

Xulosa sifatida aytish kerakki, “Boburnoma” shunday manba bo‘lib, unga har bir tarjimon individual yondashgan va baholi qudrat o‘zining mahoratini tarjimada namoyon qila olgan. Ba’zida asliyatdagi so‘zlar ko‘plikdan birlikka aylanib qolsa, gohida adekvatlikka erishishda so‘zlar qo‘shilishi ham kuzatiladi. Asarda yana shunday harbiy terminlar ham mavjud bo‘lib ular, *radandoz, to‘lg‘ama, qorchi, qaror bermoq, kutvol* kabilardir. Ushbu leksemalar yana boshqa bir tadqiqotni talab etadi. “Boburnoma”ni mutolaa qilar ekanmiz, u tuganmas manba, nodir asar ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz.

Adabiyotlar

1. Алишер навоий. 2000. Муҳокаматул луғатайн // Муламмал асарлар тўплами. XVI том. – Тошкент: Фан
2. Beveridge, Anette Susannah. 1921. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London.
3. Bobir, Zahiriddin Muhammad. 1960. Bobirnoma. Shamsiev P, Mirzaev S. – Toshkent: O‘z SSR Fan nashriyoti.
4. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад Бобурнома. 2002. Тошкент: Шарқ НМАК.
5. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2008. Бобурнома. Т.: “Шарқ” НМАК, , 336 б.
6. Leyden John. 1826. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan. – London.
7. Маҳмуд Кошғарий. 1960 – 1963. Девону луғотит-турк. I-III. – Т.: I–500 б. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1981. М.: Рус тили, Икки томли. II–715-б.
8. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). Т.: “Университет”, I т. 200-600 б. 371-бет.
9. Севортян Э.В. 1974–1989. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука I–VIII т.
10. Thackston Wh.M. 1996. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York.

“Boburnoma”ning o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusini yaratishda tarjima muammolari
Translation problems in creating the Uzbek-Turkish-Kazakh parallel corpus of “Boburnoma”

Dilafruz MUHAMMADIYEVA[1]

Annotatsiya: “Boburnoma”ning qomusiy manba ekanligini, undagi ifoda teranligi, fikr-hissiyotlarning yorqin aks ettirilishi, voqelikning mohirona tasvirini ta’kidlash lozim. Muallif fikr-mulohazalarini maqsadga muvofiq tarzda, aniq, ta’sirchan aks ettirgan. Bobur til imkoniyatlarini chuqur anglagan va undan mahorat bilan foydalangan. “Boburnoma” o‘zga tillarga eng ko‘p tarjima qilingan asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada “Boburnoma”ning turkcha tarjimasi tahlilga tortilgan. Asarda til birliklarining tarjimada ifodalanishiga e’tibor qaratilib, tarjimaning yutuq va kamchiliklari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, parallel korpus, asl matn, tarjima, madaniy belgi,gap qurilishi, raqamlashrirish*

Annotation: It should be noted that "Boburnoma" is an encyclopedic source, its depth of expression, vivid reflection of thoughts and feelings, skillful depiction of reality. The author expressed his opinions in an appropriate, clear and effective way. Babur had a deep understanding of the possibilities of language and used it skillfully. “Boburnoma” is one of the most translated works into other languages. This article analyzes the Turkish translation of “Boburnoma”. The work focuses on the representation of language units in translation and shows the achievements and shortcomings of translation.

Key words: *“Boburnoma”, parallel corpus, original text, translation, cultural sign, sentence structure, digitization*

“Boburnoma” jahon adabiyotining nodir durdonasi hisoblanadi. U o‘zining tarjimalari bilan barcha xalqlar adabiyotiga bemisl hissa qo‘shgan. Asar dunyo tillariga tarjima qilinishining tarixiy va tadrijiy jarayonlarini ko‘rib chiqish asnosida, tarjimonlarning asliyatni qayta tiklash jarayonida neqadar mashaqqatli va sharafli yo‘lni bosib o‘tganligini ko‘rish mumkin. Buning natijasi o‘laroq bugungi kunda “Boburnoma”ning jahon yuzini ko‘rishi uchun yetarlicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Hozirda “Boburnoma” va uning tarjimasiga tegishli bo‘lgan tarixiy

[1] Muhammadiyeva Dilafruz Axtamovna –Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

hujjatlar dunyoning 23 kutubxonasining noyob mulki hisoblanishi ham asar salohiyatining nechog‘lik yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Asar tarjimalarining tadqiqoti shuni anglatadiki, har qanday vaziyatda ham tarjimon asliyatdan yiroqlashmasligi, asar zamiridagi so‘z va frazemalar, realiyalar yoki joy nomlari, tarixiy shaxslar ismlarini tarjima qilishda ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozimligini ko‘rsatadi. Chunki asliyat mansub bo‘lgan xalq urf-odatlari va milliy-madaniy xususiyatlarini, diniy, iqtisodiy-ijtimoiy turmush tarzini mukammal o‘rganmay turib, asarda tasvirlangan voqea-hodisalar to‘g‘risida yetarli tasavvur hosil qilish, shakl va mazmunning uyg‘unligidan iborat tarjima yaratish juda qiyindir. Har qanday aslmonand tarjima zamini shakl va mazmunning dialektik birligini tashkil etadiki, uning mazmuniga ko‘proq urg‘u berib, shaklga e’tiborni susaytirish asarning badiiy va milliy xususiyati, tarixiy o‘ziga xosligiga putur yetishiga olib keladi.

Yirik matnshunos olim R. R. Arat “Boburnoma”ni turk tiliga “Vaqoye” (Bobur xotiroti) nomi bilan 1943-1946-yillarda ikki jild holida nashr ettirgan. R. R. Arat tarjimaning so‘z boshi qismida shunday yozadi: “Tilimizga tarjima qilinayotgan ushbu asarda buyuk turk podshocining hayoti batafsil tasvirlangan, uning shaxsiy his-tuyg‘ulari har qanday mubolag‘a va pardalashlardan xoli. U o‘z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini, xatti-harakatlarini oynadek ravshan tasvirlaydi. Uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli. Shu jihatdan bu asar Osiyoda yagona, chinakam tarixiy tasvir namunasidir”[Vekayi, 1987:018]. Bu satrlar R. R. Aratning Boburga bo‘lgan yuksak hurmatini namoyon etadi.

Tarjimada, shuningdek, mukammal lug‘at, qisqa izoh hamda Bobur shajarasi sxemasi o‘ziga xos tarzda aks ettirildi. Ammo olib borilgan qiyosiy tadqiqotimiz asarning turkcha matnida qator kamchiliklar borligini ham ko‘rsatdi. Professor H.Boltaboyev tarjimaning ba’zi kamchiliklari haqida shunday yozadi: “..asarning Haydarobod nusxasida 936 (1529) yil voqealari to‘la emas, tarjimon bu o‘rinda Qozon nusxasidagi voqealar tasviri bilan to‘ldirgan, biroq bob matni to‘la emas. Nashrlardagi bu xatolikni Porso Shamsiyev 1960-yilgi nashrda “Boburnoma”ning boshqa tillardagi (xususan, fors tilidagi) tarjimalari asosida to‘ldirgan. O‘zbekcha nashrga P. Shamsiyev tomonidan ilova qilingan “Bobur qo‘l ostiga kirgan joylar daromadining hisobi va Bobur shoh farmoni” turkcha nashrga kirmay qolib ketgan”[Hayitov, 2018:73].

Darhaqiqat, ta’kidlanganidek, turkcha nashrda ko‘plab xatolar mavjud. Masalan, kishi ismlari, jo‘g‘rofiy nomlar ko‘rsatkichi, ayniqsa, Bobur mirzoning farmonlari to‘laligicha keltirilmagan. Matnda ko‘plab uzilishlar bor. Jumladan, boshqa ko‘plab tarjimalarda bo‘lgani kabi, “Boburnoma”ning turkcha matnida ham 914(1509) yil voqealari tamomlanmay qolgan. Shundan keyingi 10-11 yillik voqealar ham yo‘q.

Tarjimada 233a sahifadagi “Ushbu kun mening yaxshi shahbozim yo‘qoldi” jumlasi o‘rin olmagan. R.Arat tomonidan tayyorlangan matnda *“Turna ve kekliği fevkelade iyi tutardı –(Shunqorim) turna va kaklikni yaxshi tutardi” tarzida berilsa (s.261),* “Boburnoma”ning S.Hasanov tayyorlagan matnida *“Shahbozim turnani va laklakni yaxshi tutar edi” deyiladi (b.171.).* Kaklik va laklak (laylak) boshqa-boshqa qushlar. Bilamizki, kaklik ovlangan, bu haqda ko‘pgina manbalarda yozib qoldirilgan. Lekin laylakni ovlash haqidagi ma’lumotlarni uchratmaymiz. Bundan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, tabdil va tarjimadagi nuqsonlar nafaqat mazmunga, mantiqning buzilishiga, madaniyat, madaniy munosabatlar haqida noto‘g‘ri xulosaga ham olib keladi. Ammo bu o‘rinda turkcha tarjimada o‘zbekcha matndagi nuqson to‘g‘irlanganligini ko‘rish mumkin.

S. Hasanov tayyorlagan matndan “Boburnoma”ning 935-yil voqealarini o‘qiymiz: *“Tonglasa odina kuni Muhammad baxshi va ba’zilar kelib, mulozamat qildilar. Nomozi peshinga yovuq Juunundin o‘tib, Xoja Abdulhaqqa mulozamat qilib, qal’a borib, amma begimlarni ko‘rdim”(b.261).*

Asarning turkcha matnida “Nomozi peshinga yovuq” so‘zlari uchramaydi. Qolaversa, matnda *“Hoca Abdülhak’a mülazemet ettikten sonra kaleye gidip halalarımı gördüm”* jumlasi *Hoca Abdülhak a mülazemet ettikten sonra kaleye gidip* ***halalarımı*** *gördüm* (s.429). Bu o‘rinda tarjimada davr muhiti yoritilmay qolgan, ya’ni “begim” so‘zi tushib qolib, tarjimadagi milliy koloritga putur yetgan. Bu ikki millat orasida lingvokulturologik o‘ziga xosliklar borligini ko‘rsatadi.

“Boburnoma”ning deyarli barcha ilmiy nashrlari asosida Qozon va London nashrlari turadi. Shu jumladan, R. R. Arat tomonidan qilingan tarjima ham aynan shular asosida yaratilgan. Bu yerda eng katta nuqson ikkala asos nashr ham arab alifbosida yozilmaganligida namoyon bo‘ladi[Hayitov, 2018:82]. Biroq R. R. Arat asardagi har bir so‘z va iborani tarjima qilishga nihoyatda ehtiyotkorona yondashadi. So‘zning ma’no chegarasidan chiqmasligini ta’minlashga harakat qiladi: “...ushbu navohida ekanda bizning cherik borib, O‘g‘ray va Dahonadin oshliq kelturdilar”[Boburnoma,2002:141] jumlalari *“Bu civarda iken askerlerimiz Güri ve Dehane taraflarına gidib erzak getirdiler”* tarzida keladi. Matnning o‘zbekcha nashrida O‘g‘ray va Dahona deb keltirilsa, turkcha matnda bu so‘z “Guri” ya’ni, Qohmirning shimoliy sharqida joylashgan manzil, “Dahona” esa Balxning janubida joylashgan joy nomi sifatida ko‘rsatiladi. Bu ma’lumotlarni kitobxon tushunchasiga yetkazish, tabiiyki, tarjimonning butun diqqat va bilimi bilan o‘lchanadi. Ana shuning uchun ham badiiy tarjimaning asosiy shartlaridan bo‘lgan har bir so‘zning ma’nosini to‘g‘ri aks ettirish, asl nusxaning nozik individual uslub xususiyatlarini butun mukammalligi bilan saqlab qolish tarjima nazariyasida muhim o‘rin tutadi.

Tarjimashunos olim G‘. Salomov tarjima jarayoni uch bosqichdan iborat ekanligini ta’kidlaydi[Salomov, 1983:66]. Bular quyidagilar:

1. Asl nusxani idrok etishda matn so‘zma-so‘z idrok etiladi. Mazkur bosqichda tarjimon oldida ba’zi bir qiyinchiliklar turadi. Bularga matnni noto‘g‘ri o‘zlashtirish, yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish, matnda ishlatilgan (masalan, “o‘yluq” so‘ziga o‘xshagan, –ta’kid bizniki – D.M.) ba’zi xos so‘zlarning ma’nosiga tushunmaslik kabilar kiradi. R. R. Arat tarjimasini G‘. Salomov aytib o‘tgan tarjima jarayonining birinchi bosqichi asosida tahlil qilsak, ayrim so‘zlar tarjimasidagi qusurlarni hisobga olmasak, bu holatlar ijobiy hal etilganiga amin bo‘lamiz.

2. Ikkinchi bosqichda tarjimon muallif tomonidan ishlatilgan uslubiy omillarga e’tibor qilishi nazarda tutiladi. “Boburnoma”ning turkcha matniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, R. R. Arat asarda muallif qo‘llagan ayrim so‘zlarga qo‘shimcha izoh keltiradi. Masalan, kishi nomlari, joy, hayvonot va o‘simliklar nomini tarjima oxirida birma-bir interpretatsiyalashtiradi (izohlaydi, sharhlaydi, talqin qiladi). Asardan o‘rin olgan xos so‘zlar izohini agarda sahifalar kesimida aytadigan bo‘lsak, 235 betni qamrab oladi. Demak, bu bosqichdan ham tarjimon o‘rinli foydalanadi.

3. Tarjimon muallif tomonidan yaratilgan badiiy voqelikni to‘laligicha idrok etishi kerak. Agar tarjimon haqiqiy san’atkor bo‘lsa, asarda ishtirok etuvchilarning o‘ziga xos xarakter xususiyatlarini, tilini to‘laligicha idrok etib, keng mushohada yuritadi. R. R. Arat “Boburnoma”ni tarjima qilar ekan, uni avval chuqur idrok etish dolzarb ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. O‘zi ham avval asarni o‘qib, tushunib, so‘ngra tarjimaga kirishganini yozadi. R. R. Arat fikriga ko‘ra, “Boburnoma” tarjimasida eng muhim jihat asar qo‘lyozmasini imkon qadar chuqur o‘rganish, shular asosida avval uning qoralama ilmiy matnni tayyorlash, matn har jihatdan to‘g‘ri ekanligiga amin bo‘lgandan so‘nggina nashrdan chiqarish kerak. Biroq vaqt tig‘izligi bois, to‘g‘rirog‘i, turk tarixi jamiyatining tarjimani tezroq nashr ettirishga bo‘lgan talabi evaziga “Boburnoma” tarjimasida ushbu muhim jihatlarga kam e’tibor qaratiladi.Tarixiy asar nashr qilinganidan so‘ng qancha ko‘p vaqt o‘tsa, uni o‘giradigan tarjimonning vazifasi shuncha qiyinlasha boradi. Tarixiy joy nomlari va o‘tmishdagi voqealar bilan bog‘liq asarni tarjima qilish yillar o‘tgan sayin murakkablashib boradi. Bu holni Boburning “Boburnoma” asarida keladigan toponimik atamalarga nisbatan tarjimonlar munosabatida ham ko‘rish mumkin. Shu bois ham R. R. Arat ba’zi-ba’zida interpretatsiya, ya’ni izohlash usulidan foydalanadi. Shu orqali asardagi tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zni o‘quvchi ongiga yetkazishga harakat qiladi. Masalan:*kizil söğüt – tabulgu, önü süslü elbesi – postini piş berre* сингари.

R. R. Aratning matn yaratish va tarjimadagi mahorati voqealarning bir butunlikda kelishida ko‘rinadi. U asl nusxaning nozik individual uslub xususiyatlarini butun mukammalligi bilan saqlab qolishga harakat qiladi.Boburnoma turkcha tarjimasi bilan bog‘liq muammolarni quyidagicha tasniflab berish mumkin:

1. So‘zlar ma’nosini anglamaslik va buning oqibatida noto‘g‘ri tarjimaning yuzaga kelishi bilan bog‘liq muammolar. Masalan: o‘zbekcha matndagi *Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo‘lur, qalin lola va* ***gullar*** *ochilur [Boburnoma, 3b]* gapi *Akar suları vardır. Baharı çok güzel olur; birçok lâle ve* ***güller*** *açar [Vekayı, 3b]* tarzida tarjima qilinadi. Bu yerda o‘zbek tilidagi *gul* so‘zi turk tilida ham *gül* tarzida o‘girilgan.gap shundaki, turk tilida *gül* so‘zi *atirgul* ma’nosini beradi, *gul* ma’nosida esa *çeçek* so‘zi qo‘llanadi. *Bunday misollarni tarjimada ko‘plab keltirishimiz mumkin:* ***navkar****ni yaxshi shafqat bila saxlar edi [Boburnoma, 22b]//****Adamlar*** *üç bin kadar olmuştu. Onları iyi ve şık tutardı[Vekayı, 22b]. Xon O‘ratepani Muhammad Husayn* ***ko‘ragonga*** *berdi [Boburnoma,33b]// Han, Ura-Tepe'yi Muhammed Hüseyin* ***Gürgân'a*** *Verdi[Vekayı,33b].*

2. Birikmalarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi bilan bog‘liq muammolar: *Bir jins anor bo‘lur, “donakalon” derlar,* ***chuchuklugida zardolu mayxushlugidin*** *andak choshni bor [Boburnoma, 3b]. Dânekelân dedikleri bir cins nar vardır ki,* ***tatlılık ve mayhoşlukta*** *Semnan narlarına (3 b) tercih edilebilir.* Ushbu gapda *chuchuklugida zardolu mayxushlugidin* birikmasi *tatlılık ve mayhoşlukta* tarzida teng birikma qilib tarjima qilingan. Shu bilan birgalikda asl matndagi ma’nosiga ham putur yetgan.

Ov qushi *yaxshidur, oq kiyik yovuqta topilur [Boburnoma,4 a].* ***Avı ve kuşu*** *iyidir; ak geyik, yakınında bulunur[Vekayı,4b].*Ushbu misolda esa qaratqichli birikma teng birikmala aylantirilgan holda o‘girilgan, asl matn mavzusi butunlay o‘zgarib ketgan.

3. Gap qurilishi bilan bog‘liq muammolar. Tarjima jarayonida asl matndagi sodda gaplar ba’zan qo‘shma gapga aylantirilgan,yoki aksincha, ba’zan 2-3 ta gap mazmuni olinib bir sodda gap tarzida ifodalangan. Tarjima nuqtai-nazaridan qaralsa, bu juda kata muammo amas, ammo korpus yaratishda barcha gaplar raqamlanib, bir-biriga moslashtirilishini hisobga olsak, bu muammo yaratadi. Masalan:

Bu xabar Sulton Mas'ud mirzog‘a kelgach, Vali Xisravshohkim, bu kechgan kishining ustiga bormoqni harchand sa'y qildi, Sulton Mas'ud mirzo bedillig‘idin yo Boqi Chag‘oniyoniyningkim, Valining ziddi edi, sa'yidin bu kechgan kishining ustiga bormadi. Buzulg‘on yo‘sunluq Hisor sari yondilar [Boburnoma 33b]. Ushbu asl matndagi 2 ta gap tarjimada bitta gap tarzida berilgan:

Sultan Mes'ud Mirza bunu haber alınca, Husrev Şah ile Veli derhal bunların üzerine yürümenin lüzumu üzerinde İsrar ettiler. Fakat Sultan Mes'ud Mirza'nın cesaretsizliğinden veya Veli'nin muhalifi olan Bâkî Çaganyåni'nin fikrine uymasından, bu suyu geçen adamların üzerine yürümeyerek, bozguna uğramış gibi, Hisar tarafına döndüler [Vekayı, 33b].

Yoki: *Sulton Ahmad Tanbal ham qilich tegurdi. Muhammad Do‘st tag‘oyi ham qilich tegurdi, vale bahodurluq ulushini Sayyid Qosim oldi [Boburnoma, 31 b].*

Seyid Kasım, Sultan Ahmed Tenbel, Muhammed Dost Tagayî de kılıç kullandılar; lâkin bahadırlık pâyesini Seyid Kasım aldı [Vekayı, 31 b].

“Boburnoma” ham badiiy, ham tarixiy-memuar xarakterda yozilgan asar. Bunday asarlar tarjimondan juda katta mahorat va qunt talab etadi. Asar tarjimasida R. R. Arat qo‘llagan transliteratsiya, adyekvatsiya va izohlash metodi bu borada ancha qo‘l kelganligini ko‘ramiz.

Tarjimashunoslik tarixidan ma’lumki, sof milliy ruhdagi so‘zlar, termin va iboralarni ikkinchi bir tilda mumkin qadar to‘g‘ri berish masalasi ancha murakkab masala hisoblanadi. Bu holatni tarjimon R. R.Arat ancha ijobiy hal qilgan deya olamiz. Tarjimada o‘sha xalqqagina xos bo‘lgan urf-odat, kiyim-kechak nomlari, maqol va matallar o‘z ta’sir doirasini saqlab qolgan. Tarjimon so‘z va tushunchalarning ma’nosini ba’zi bir o‘rinlarda boshqa-boshqa so‘zlarga aylantirilib qo‘ygan. Ammo ushbu tarjima o‘z davrida bajarilgan ishlar ichida eng ahamiyatlisi sanaladi.

Adabiyotlar:

1. Babur, Z. M. (2011). Baburnama. Çeviren Ramiz Askar. 2-naşr. Bakı.
2. Babür, Z. M. (1943,1946,1987). Vekayi (Babür'un Hatıratı). Ankara.
3. Бобур, З. М. (2002). Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Тошкент.
4. Саломов, Ғ. 1983. Таржима назарияси асослари. – Тошкент.
5. Ҳайитов, Ш. 2018. Бобур ижодининг хорижда ўрганилиши (ўзбекча-туркча манбалар қиёсий таҳлили). Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. –Тошкент.
6. Muhammadiyeva, D. The semantic classification of phrases in “Baburname” and problems of their transfer in Turkish translations. URL: https://www.researchgate.net/publication/343578961 (Murojaat etilgan sana: 19. 09. 2024)
7. O‘razova I. Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi. [Internet manba]. URL: https://zenodo.org/records/11108578 (Murojaat etilgan sana: 17. 09. 2024)
8. Muhammadiyeva D. Boburnomadagi o'lim va umr konseptl iparemiyalar xususida. URL:https://www.researchgate.net/publication/357899166 (Oxirgi murojaat qilingan sana:15.09.2024)
9. Muhammadiyeva D. Semanticeskaa klassifikacia frazem v Baburname. URL https://www.researchgate.net/publication/355780029 (Oxirgi murojaat qilingan sana: 18.09.2024)

“Boburnoma”da Alisher Navoiy xususida tarixiy ma’lumotlar
Historical information about Alisher Navoi in “Boburnoma”.

Toji NOROV[1]

Annotatsiya: Ushbu maqola, nodir tarixiy asar, Z.M Boburning “Boburnoma” asarida ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy to‘g‘risida yozib qoldirgan qimmatli tarixiy ma’lumotlar tadqiqiga bag‘ishlangan. Maqolada, “Boburnoma”ning 16 joyida turli mavzular va voqealar munosabati bilan tilga olinganligi e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: *Alisherbek, Navoiy, Hirot, Samarqand, begi, musohibi, akobir, turkiy til, she’r, “Mantiq ut-tayr”, “Foniy”, Husayn Boyqaro, mutasavvif.*

Abstract: This article is dedicated to the research of the valuable historical information written by Z.M. Babur about the great thinker Alisher Navoi in “Boburnoma”, a rare historical work. In the article, it is recognized that “Boburnoma” is mentioned in 16 places in connection with various topics and events.

Key words: *Alisherbek, Navoi, Herat, Samarkand, Begi, Musahibi, Akobir, Turkish language, poem, “Logic ut-Tayr”, “Foni”, Husayn Boykara, mystic.*

Zahiriddin Muhammad Bobur – nafaqat o‘zbek xalqi tarixida betakror tarixiy shaxs sifatida e’tirof etiladi. U o‘zining siyosiy faoliyati, jahon tamaddunida, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixida o‘chmas iz qoldirgan temuriy hukmdor sifatida, undanda qadrlisi, jahon tarixi va falsafiy tafakkur tarixida o‘zining betakror, ulug‘ faylasuf, shoir, tarixnavis olim sifatida o‘rniga ega bo‘lgan nodir tarixiy siymodir. Bobur mirzo o‘zining mashhur “Boburnoma”sida, Amir Temur, deyarli hamma temuriy hukmdorlar va shahzodalar haqida ma’lumot qoldirgan. Shuningdek, saltanatining ma’naviy ustuni bo‘lgan yana bir ulug‘ mutafakkir - Amir Alisher Nizomiddin Navoiy(1441-1501) haqida ham qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Ushbu maqolamizda, shu xususda fikr yuritamiz. Chunki shu oyda xalqimizning bu ikki ulug‘ siymosining tavallud ayyomlari munosabati bilan ularning ruhi oldidagi burchimiz mas’uliyatidan kelib chiqib, biz ushbu maqolamizni ularni xotirasiga bag‘ishlaymiz.

Maqola tahlilida 1960 yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti tomonidan nashr etilgan “Bobirnoma” asarining akademik nashrini asos qilib oldik. Maqola matnida keltirilgan ma’lumotlarga sahifalarini shu nashr asosida keltiramiz va izohlab boramiz. Zero ularni izohlashdan ko‘ra yana bir takror eslatish desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki bu ma’lumotlarni izohlashga zaruriyat yo‘q. Shu sababli, bizni ko‘chirmachilikda ayblamoqchi bo‘lganlarga shoshilmaslikni so‘rab, ko‘proq

[1] *Toji Norov* – TDIU “Falsafa” kafedrasi professor v.b. falsafa fanlari doktori

so‘zni Bobur mirzoning o‘zlariga berdik. Negaki, bu masalada undan oshirib nimadir deyish, izoh berish, ehtimol, uning so‘zlarini ohorini to‘kib qo‘yishi mumkin deb o‘yladik.

Shunisi e’tiborliki, “Boburnoma”da turli voqealar va maqom taqqazosi bilan 16 joyida Alisher Navoiy nomi tilga olingan. Bobur mirzo, Navoiy shaxsiga katta hurmat bilan: “Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar. Xususiyat bisyor ekandur”. Buning mazmuni, Unda yaxshi xususiyatlar ko‘p edi. Alisherbek Navoiy shunchaki bek emas edi, u hukmdorlarga suhbatdosh va maslahatchi edi, deydi.

Navoiy hazratlarining 1464-1469 Hirotdan Samarqandga kelishini Bobur “surgun”, “quvg‘in” tarzida sharhlab: “Bilmon, ne jarima bila Sulton Abusaid mirzo Hiridin ixroj (surgun) qildi”, deydi (Boburnoma-233) Mir Alisher Navoiy Hiridin Samarqandg‘a kelgan fursatlar Ahmad Xojibek bila bo‘lur edi. Sulton Husayn mirzo shoh bo‘lg‘ondin so‘ngra Hiriga (Hirotga) keldi.

“Alisherbekning mizoji nozuk bila mashhurdur. El nazokatini davlatining g‘ururidin tasavvur qilur erdilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy (tug‘ma iste’dod) ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozuk mizoj ekandur. Alisherbek naziri yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytubturlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi “Xamsa” javobida, yana bir “Mantiq ut-tayr” vaznida, “Lison-ut-tayr” otliq. To‘rt g‘azaliyot devoni tartib qilibtur: “G‘aroyibussig‘ar”, “Navodir-ush shabob”, “Badoyiul-vasat”, “Favoidul-kibar” otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana ba’zi musannafoti (asarlari)borkim, bu mazkur bo‘lg‘onlarg‘a boqa pastroq va sustroq voqi’ bo‘lubtur. Ul jumladin insholarini Mavlono Abdurrahmon Jomiyg‘a taqlid qilib jam’ qilibtur. Hosili kalom, har kimga har ish uchun har xatkim bitibtur, yig‘ishturubtur. Yana “Mezon ul-avzon” otliq aruz bitibtur, bisyor madxuldur(madhga, maqtovga sazovardir): Yigirma to‘rt ruboiy vaznida to‘rt vaznda g‘alat qilibtur. Ba’zi bahurning avzonida ham yangilibtur, aruzg‘a mutavajjih (qiziqqan) bo‘lg‘on kishiga ma’lum bo‘lg‘usidur, Forsiy devon ham tartib qilibtur. Forsiy nazmda «Foniy» taxallus qilibtur, ba’zi abyoti yomon emastur, vale aksar sust va furudtur (zaif, kuchsiz). Yana musiqida yaxshi nimalar bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi peshravlari (etakchi o‘rindagi ishlari) bordur. Ahli fazl va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay. ...O‘g‘ul va qiz va ahlu ayoli yo‘q, olamni tavre fard (yolg‘iz yashash) va jariyda (yakka) o‘tkardi. Avoyil(avvval, ilgari) muhrdor edi, avosit bek bo‘lub, necha mahal Astrobodta hukumat qildi, avoxir (keyin, oxirida) sipohiliqni tark qildi. Mirzodin(Husayn Boyqaro) nima olmas, balki yilda mirzog‘a kulliy mablag‘lar peshkash qilur edi”.

Bobur mirzo o‘z davrdagi Farg‘ona viloyati elini tili xususida gapirar ekan bu yerda Navoiy asarlari tili asosida gapirilishini keltiradi. “Eli turkdur. Shahr va

bozorisida turki bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti (asarlari) bovujudkim Hirida nash’u namo topibtur, bu til biladur.

Bobur mirzo, sulton Husayn Boyqaro bilan o‘g‘li Badiuzzamon mirzoning Balx va Astrobot viloyati bo‘yicha nizolashib, yovlashgani va uni hal qilishda Navoiyni o‘rnini shunday ko‘rsatadi: “...Oxir Alisherbek ham elchilikka keldi. Harchand sa’y qildilar, Astrobodni inisiga bermakka rizo bo‘lmadi. Dedikim, mening o‘g‘lum Muhammad Mo‘min mirzoni xatna qilg‘onda mirzo anga bog‘ishlabtur. Bir kun Alisherbek bila mirzoning orasida bir suhbate o‘ttikim, mirzoning tez fahmlig‘ig‘a va Alisherbekning riqqati (nozik fahm) qalbig‘a doldur. Alisherbek sirriy(maxfiy) so‘zlarni mirzog‘a go‘shaki g‘alaba aytti. Dag‘i dedikim: - bu so‘zlarni unutung. Mirzo filhol (birdaniga) ayttikim, qaysi so‘zlarni? Alisherbek bisyor mutaassir bo‘lub ko‘p yig‘ladi.

Bobur mirzo Navoiy bilan ijodiy muloqo xususida: ...Bu ikkinchi navbat Samarqadni olg‘onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham bir kitobat yiborib edim, orqasida turki bayt aytib, bitib yiborib edim. Javob kelguncha tafriqa (ayriliq) va g‘avg‘o bo‘ldi. ...Doim qasida va g‘azal o‘tkarur edi. Navoda bir amal mening otimg‘a bog‘lab o‘tkardi. Ushul asnoda bir ruboi aytib o‘tkardi. Ul fursatlarda birar, ikkirar (ikkilik) bayt aytur edim. Vale g‘azal tugatmaydur edim. Birgina turki ruboi aytib yibordim.

“Boburnoma”da, Amir Temur va deyarli hamma temuriy sultonlar, shahzodalar xususida ma’lumotlar berilgan bo‘lib, xususan, Husayn Boyqaroning axloq va atvori xususida ham qimmatli ma’lumotlar bitilgan: “Avval taxt olg‘onda xayoli bor ekandurkim...(bu yerda ichkilik va boshqa ayrim boshqa ishlar bo‘yicha) Alisherbek va ba’zilar man’ qilibturlar. So‘ngralar xud jami’ ish-kuchi sunnat va jamoat mazhabi bila muvofiq edi.

Manbada Navoiyning ukasi, xususida: “Yana Darvesh Alibek edi. Alisherbekning tuqg‘an inisi edi. Necha mahal Balxning hukumati munda edi. Balxda yaxshi bekliklar qildi. Tiyra mag‘z va behunarroq kishi edi. Sulton Xusayn mirzo avval Qunduz va Hisor ustiga kelganda tiyra mag‘zlig‘idin tutturdilar. Balx hukumatidin ma’zul (ozod bo‘lish, bo‘shash) bo‘ldi. Tarix to‘qquz yuz o‘n oltida (taxminan 1512-13 yillar) men Qunduz kelganda, mening qoshimg‘a kelib edi, masx (o‘zgarish) va mabhut (g‘ururli) edi. Beklik qobiliyatidin dur va ichkilik salohiyatidin mahjur (mahrum, yiroq). G‘olibo Alisherbek vositasidin muncha rioyat topqandur. Yana bir bek haqida: “Bobo Ali eshik og‘a edi. Avval Alisherbek rioyat qilib edi, so‘ngra mardonalig‘idin mirzo olib, eshik og‘asi qilib bekliq martabasira yetkurub edi”. Navoiyning ijod ahliga homiylik va rahnamoligi xususida: Yana Kamoliddin Husayn Gozurgohiy edi, agarchi so‘fi emas edi, mutasavvif (tasavvufchi) edi. Alisherbek qoshida mundoq mutasavviflar yig‘ilib, najd va samo‘ (zikr tushish)

qilurlar ekandur. Aksaridin muning usuli yaxshiroq ekandur. G‘olibo sababi rioyati usuli bo‘lubtur. Bir tasnifi bor; «Majlisul-ushshoq» otliq, Sulton Husayn mirzoning otig‘a bog‘lab bitibtur...

Navoiy bilan hamkorlikda ijod qilgan ijodkorlar misolida: “Yana Ahliydur, omiydur. She’rlari yomon emas, devoni ham bordur. Xushnavislarlin agarchi xili kishi bor edi, vale borining saromadi nasx ta’liqda Sulton Ali Mashhadiy edi. Mirzo uchun, Alisherbek uchun qalin kitobatlar qildi. Har kunda o‘ttuz bayt mirzo uchun va yigirma bayt Alisherbek uchun bitir edi. Musavvirlardin Behzod edi, musavvirliq ishini bisyor nozuk qildi...

Navoiy bilan Majdiddin Muhammad o‘rtasidagi ziddiyat va ixtilof xususida: “...Vale Alisherbek boshliq jami’ beklar va ahli mansab bila ziddona (zid, qarshi) maosh qildi, bu jihatdin borcha aning bila yomon bo‘ldilar. Sa’y va ig‘vo qilib, Majdiddin Muhammadni tutturub, ma’zul (ozod qildilar, amaldan olishdi) qildilar. Aning o‘rnig‘a Nizomulmulk devon bo‘ldi. Necha mahaldin so‘ng Nizomulmulkni ham tutturub o‘lturub, Xoja Afzalni Iroqtin kelturub devon qildilar. Men Qobul kelgan fursatda Xoja Afzalni bek qilib edilar, devonda ham muhr bosar edi”, deydi, Bobur . Navoiyning zamondoshi, u bilan ijodiy va boshqa masalalarda diomiy munozarada bo‘lgan shoir Binoiy munosabatlari xususida, hozir ham el orasida mashhur bo‘lgan voqeani shunday bayon qiladi: “...Ul jumladin biri budurkim bir kun shatranj majlisida Alisherbek oyog‘ini uzatur. Binoiy(ning) (orqasi)ga tegar, Alisherbek mutoyaba bila derki, “Hirotda shoirlar shunchalik ko‘payib ketdiki, oyog‘ingni uzatsan oyog‘ing albatta bitta shoirga (orqasiga) tegib ketadi” deganiga, Binoiy hazil bilan “Ha nimasini aytasiz, oyog‘ni yizsangiz ham oyoq yana bir shoir(orqasiga)ga borib tegadi” (matnda forsiy tilda keltirilgan). Binoiy va Navoiy munosabatiga doir voqea yana bir joyda “tugmali chakmon voqeasi” misolida keltiriladi. Yana Navoiyning faoliyatidaga bir holat hazil misolida shunday bayon qilgan: “Alisherbekki qalin (ko‘p) nimalar ixtiro‘ qilib edi va yaxshi nimalar ixtiro‘ qilib edi, har kishikim, har ishta bir nima paydo qildi, ul nimaning rivoj va ravnaqi uchun “Alisheriy” der edi. Ba’zi zarofat (hazilomuz) bila Alisherbekka isnol (bog‘lash, nisbat qilish) qilurlar edi. Nechukkim Alisherbek quloq og‘rig‘ida yog‘liq (rumol) bog‘lag‘on uchun xotunlar ko‘k yog‘liqni qiyiq bog‘lag‘onni “nozi Alisheriy” ot qo‘ydilar.

Bobur yurtdan ketib, Hirotga borganida Navoiy qurdirgan binolar, u yaratgan va obod qilgan ko‘cha va bog‘larni tomosha qilganini, lekin, u paytda Navoiy hayot emas edi. Voqealar bayonidan anglash mumkinki, ular tiriklikda ko‘rishishmagan. U yozadi: “Yigirma kunkim, Hirida edim, har kunda ko‘rmagan yerlarni otlanib sayr qilur edim. Ajzchimiz (yo‘lboshchimiz) bu sayrlarda Yusuf Ali ko‘kaltosh edi. Har qaysi sayrgohqa tushulsa edi, Yusuf Ali ko‘kaltosh bir nav’ osh tortar edi. Bu yigirma kunda mashhur sayrgohlardin bir Sulton Husayn mirzoning xonaqohidin o‘zga yer

ko‘rulmagan shoyad qolmadi ekin. Jahonoroning shimol tarafidag‘i ulug‘ havz va to‘rt tarafidag‘i to‘rt imorat va qal’aning besh darvozasi: Darvozai Malik va Darvozai Iroq va Darvozai Firuzobod va Darvozai Xush va Darvozai Qipchoq va Bozori Malik va Chorsuv va Shayxulislomning madrasasi va Maliklarning masjidi jomi va Bog‘i shahr va Badiuzzamon mirzoning Jo‘yi Injil yoqasidag‘i madrasasi va Alisherbekning o‘lturur uylarikim, “Unsiya” derlar, maqbara va masjidi jomiynikim, “Qudsiya” derlar, madrasasi va xonaqohinikim, “Xalosiya” va “Ixlosiya” derlar, hammom va dorushshifosinikim “Safoiya” va “Shifoiya” derlar, borini andak fursatta sayr qildim. Odina kuni oyning yigirma uchida Alisherbekning to‘rt devonidin buhur (bahr, she’r vazni, shakli), avzon bir bayti bila g‘azallar va abyotkim, intixob (saylash, saralash) qililadur edi, itmomig‘a yetti (tugadi).

Navoiyning o‘limini quyidagicha bayon qilingan: “Sulton Husayn mirzo Astrobod cherikidin yong‘onda istiqbolg‘a keldi, mirzo bila ko‘rushub qo‘pquncha, bir holati bo‘ldi, qo‘polmadi, ko‘tarib eltdilar. Tabiblar aslo tashhis qila olmadilar. Tonglasig‘a-o‘q (ertasi kuniyoq) tengri rahmatiga bordi. Bir bayti hasbi hol voqi’ bo‘lubtur:

Bu dard ilaki o‘larmen, maraz chu zohir emas,
Tabiblar bu balog‘a ne chora qilg‘oylar” .

Ya’ni Navoiy o‘z o‘limini oldinroq o‘zi bashorat qilganligini aytib o‘tadi. Garchi Navoiyning o‘limi asar nihoyasida bo‘lmasada uning hayotining intihosi shu tarzda bayon qilingan. Asar niyasida esa, bir qancha olimlar va shayxlar Navoiy tufayli sulton suhbatiga musharraf bo‘lganini: “Abulbaqokim, ilmi hikmat bobida bebadal erdi. Va Shayx Zayn sadrkim, Zayniddnn Xavofiyni nabirasi erdi, hiddati tab’i bor erdi, nazm va inshodin saliqalig‘ va Humoyun shoh zamonida umarolig‘ ham topib erdi. Va Shayx Abulvohid Forig‘iykim, Shayx Zayn Xavofiyni abasi bo‘lur erdi, xushtab’ va she’r ham aytur erdi. Va Sulton Muhammad ko‘sakim, Mir Alisherning musohiblaridin (suhbatdoshlari) erdikim, shoh suhbatida izzat topib, sarafroz bo‘lub erdi. Va mavlono Shihob muammoyikim, “Faqiriy” taxallus qilib erdi, fazoyil va she’rdin nasibasi bor erdi. Va Mavlono Yusufi tabibkim, aning Xurosondin tilatib erdilar, nabz (tomir urishini-pulsni) ko‘rmog‘din va tashxis qilmog‘ aning ishi erdi” degan bebaho ma’lumotlarni qoldirgan.

“Boburnoma”da O‘sh qasabasi ekologik holatining ta’rifi
«Бабурнамэ»де Ош шаарынын экологиялык абалынын сүрөттөлүшү

Alisher MAMAJONOV[1]
Gulida AXMEDOVA (OXUNOVA)[2]
Abduvohid ALISHEROV[3]

Аннотация: Мамлекет Ош шаары экологиялык кырдаалды “Бобурномдо” сүрөттөйт, өрөөндүн бай түшүмдүү жаратылышын жана экологиясын сүрөттөйт, бул провинциянын, хорчинанын, айылдын, шаардын, сепилдин, максаланын, мыйзамдуу түрдө Ошилердин, Исфаранын шарттарына байланыштуу. жана Корагин региондор деп аталат, Оджу-Туба Ош облусунун, Навканд, Өзгөнд, Алатаг айылдарынан кенири сүрөттөлгөн, алар алтыга чейин бирдей аталышта, Ош шаары Фергана оюнунун жолундагы эшик, Мен узак өмүр сүрүп жатам, илимий негизде баяндалган жаратылыш менен экологияны салыштыруу.

Ачкыч сөздөр: *Фергана өрөөнү, экология, Борбордук Азиянын берметі, провинция, кирпи, шаар, айыл, сепил, максаланын, “Эки суунун ортосунда”, төрт дарак.*

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma”da O‘sh shahri ekologik holatining ta’rifi unda vodiyning boy, sermahsul tabiati va ekologiyasiga juda katta ta’rif berilganligi, O‘rta Osiyo javohiri deb nom olgan Farg‘ona vodiysi Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan yirik dehqonchilik va sanoat tumanlaridan biri hisoblanishi, vodiy aholisining o‘rta asrlardagi yashash sharoitlariga qarab viloyat, o‘rchin, qasaba, kent, qo‘rg‘on, mahalla tarzida ifodalanganligi, rivoyatlarda O‘sh nomini kelib chiqishi, viloyatlar sifatida Farg‘ona, O‘sh, Isfara va Qorategin tilga olinganligi, O‘sh viloyati kentlaridan O‘nju Tuba, bugungi kunda ham shu nom bilan ataladigan Navkand, O‘zgand, Olatog‘ kabi kentlar ham qayd qilinganligi, Farg‘ona vodiysining darvozasi sifatida O‘sh shahri bo‘lganligi va Langardan O‘shga kelish yo‘lida joylashgan qirg‘iz ovullariga batafsil tavsif berilgan, o‘rta asr Farg‘ona vodiysi va Hindiston aholisi, tabiati hamda ekologiyasini taqqoslanganligi ilmiy asosda bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *Farg‘ona vodiysi, ekologiya, O‘rta Osiyo javohiri, viloyat, o‘rchin, qasaba, kent, qo‘rg‘on, mahalla, “Ikki suv orasi”, to‘rt yig‘och.*

[1]Alisher MAMAJONOV – З.М Бобур номидаги Андижон давлат университети, доцент, тарих фанлари номзоди
[2] Gulida AXMEDOVA – Б.Сидиқов номидаги Қирғиз-ўзбек халқаро университети, катта ўқитувчи (Ош, Қирғизистон)
[3] Abduvohid ALISHEROV – З.М.Бобур номидаги Андижон давлат университети, ўқитувчи (Андижон, Ўзбекистон)

Yangi O‘zbekiston sharoitida insoniyat tarixi taraqqiyoti taqdiriga butunlay yangicha dunyoqarash, fikrlash nuqtai nazardan qaralmoqda. Yangilanayotgan tarixiy davr ilm-fan, ma’naviyat, ma’rifatchilik davri sifatida vujudga kelmoqda. Vatanimiz o‘tmishiga, o‘zimizning tug‘ilib o‘sgan shahar, qishloq, mahallayu guzarlarimiz tarixi hamda uning ekologik holatiga qiziqish ortib bormoqda. Biz olamni tarix orqali, insoniyat tarixi taraqqiyoti bosqichlari, evolyutsiyasi orqali anglaymiz. U orqali bugungi kunimizning mazmun-mohiyatini tushunib olamiz, ertangi kunga dahldor orzu-umid, maqsadlarimizni belgilaymiz. Gap vodiy to‘g‘risida ketar ekan O‘rta Osiyo javohiri deb nom olgan Farg‘ona vodiysi Sirdaryoning yuqori oqimida joylashgan yirik dehqonchilik va sanoat tumanlaridan biri hisoblanadi. Tarixning buyuk qudrati, mohiyati moziyni o‘rganish, yoshlarda ekologik ta’lim-tarbiyani shakllantirish orqali bugunni baholash o‘tgan asr mutafakkirlarini fikrlarini mujassam eta olishimizdir.

“Hozirgi paytda jamiyat va sivilizatsiyalar avvalo ijtimoiy qadriyatlar... buyuk ajdodlarimiz bo‘lgan mutafakkirlarimiz asarlarini, ularning butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini chuqur o‘rganish, teran anglash va keng ommalashtirish alohida ahamiyatga egaligi” buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan asarlarni yanada kengroq o‘rganish, undagi fikr va g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirish dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Ana shunday asarlardan biri buyuk yurtdoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”sidir.

“Boburnoma”ni o‘qir ekanmiz insonning yashashdan asl maqsadi - ezgu ishlar qilib, munosib farzandlar tarbiyalab, yaxshi nom qoldirish, qadriyatlar, ajdodlar ruhiga tayanish, ajdodlar merosiga haqiqiy voris bo‘lish xislatlarining shakllanib borishidir.

“Boburnoma”da Farg‘ona vodiysining boy, sermahsul tabiati hamda ekologiyasiga juda katta ta’rif berilgan.

Unda ko‘rsatilishicha “Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur. Ma’muraning kanorasida voqe bo‘lubtur. Sharqi Koshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog‘lar, shimolida agarchi burun shahrlar bor ekandur, misli: Olmoliq va Olmotu va Yangi kim, kutublarda Tarozkent bitirlar, mo‘g‘ul va o‘zbek jihatdin bu tarixda buzulubtur, aslo ma’mura qolmabdur. Muxtasar viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdogirdi tog‘ voqe bo‘lubtur. G‘arbiy tarafidakim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘iy kela olmas. Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli Fanokatning janubiy tarafidinkim, holo Shohruxiyag‘a mashhurdur, o‘tub yana

shimolg‘a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyiroq bu daryo tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas [2,7-8].

Parchadan ko‘rinib turibdiki, Sirdaryoning qumda yo‘qolishi bilan birga uni “Ikki suv orasi”, (ya’ni Norin bilan Qoradaryo o‘rtasi) “Miyonrudon” nomida ham uchraydi. Bu mavze Norin va Qora daryo orasida bo‘lib, sharqda Uchqo‘rg‘on, g‘arbda Mingbuloqqacha, ya’ni ushbu daryolar qo‘shilgan joygacha bo‘lgan masofani qamrab olgan. Bu joylar u davrda bahor pallasida g‘oyat go‘zal, dov-daraxt, bog‘-rog‘lar, oqar suvlar nihoyatda serob. Qir-adirlar ko‘kalamzorlashib, lolaqizg‘aldoqlar bilan qoplangan. Ilamish daryosi (ya’ni Qoradaryo) sharqdagi tog‘-adirlarga yoqqan qoru yomg‘irlar suvidan to‘lib-toshib loyqalanib oqadi. Bunday kezlarda ot minib sayr qilish juda yaxshi bo‘lib, bu joylar ovbop bo‘lganligi uchun, ular qishni ov bilan o‘tkazar edi.

“Ilamish (Iramish) daryosining yaqinidagi qalin changallarda bug‘u, maral va tunquz ko‘p bo‘lur. Ushoq-ushoq changallarida qirg‘ovul va tovushqon qalin bo‘lur. Pushtasida tulkusi bisyor bo‘lur, darkamin bo‘lur, tulkusi o‘zga yerning tulkusiga boqa yuguruk bo‘lur. Bu qishloqda ekanda har ikki-uch kunda ovg‘a otlanur edim. Ulug‘ changallarni o‘rtab, bug‘u-maral ovlar eduk” [3,65].

“Boburnoma”da jug‘rofik joylar ekologiyasi va ularning tabiati to‘g‘risida fikr yuritilib, vodiy aholisi yashash sharoitlariga qarab viloyat, o‘rchin, qasaba, kent, qo‘rg‘on, mahalla tarzida ifodalanadi. Viloyatlar sifatida Farg‘ona, O‘sh, Isfara va Qorategin tilga olinadi. O‘rchin atamasi viloyatdan kichik, qasabadan kattaroq hududga nisbatan qo‘llanib, asarda Raboti Sarxang, Rabatak, O‘ratepa, Xo‘qon, Olayluq singari o‘rchinlar qayd qilingan. Bobur Farg‘ona vodiysidagi asosiy shaharlarni qasaba deb atagan. Qasabalar, ya’ni shaharlar yettita bo‘lib, ulardan beshtasi: Andijon, Marg‘inon, Isfara, Xo‘jand, Kandibodom Sirdaryoning janub tomonida, ikkitasi Axsi va Koson daryosining shimol tomonida joylashgan. “Boburnoma”da bu joylarning tabiati, havosi, suvlari, hayvonoti va o‘simliklariga ajoyib ta’rif berilgan.

“Boburnoma”da yozilishicha, Andijonning uchta darvozasi bo‘lgan. Ular tunda yopilib, bomdod namozidan so‘ng ochilar, maxsus tayinlangan darbozabonlar tomonidan qo‘riqlanar edi. Farg‘ona mulkining poytaxti o‘laroq, Andijon Movarounnahrda o‘z davrining nufuzli shaharlaridan biriga aylangan.

“Boburnoma”da vodiy viloyatlaridan yana biri O‘sh shahri (qasaba) to‘g‘risida ham ma’lumot berib, O‘sh “Andijonning sharqi janubiy tarafidur, sharqqa moyil, Andijondin to‘rt yig‘och (yig‘och - 8 km ga teng masofa o‘lchovi) yo‘ldir. Havosi xo‘b va oqar suyi farovondur. Bahori bisyor yaxshi bo‘lur. O‘shning fazilatida xeyli ahodis vorid bo‘lubtur. Qo‘rg‘onning sharqi janubiy bir mavzun tog‘ tushubtur, Baroko‘hg‘a mavsum. Bu tog‘ning qullasida Sulton Maxmudxon bir hujra solibtur, ul hujradin quyiroq ushbu tog‘ning tumshug‘ida tarix to‘qquz yuz ikkida men bir

ayvonlik hujra soldim. Agarchi ul hujra mundin murta-fe'dur, vale bu hujra bisyor yaxshiroq voqe bo‘lubtur: tamom shahr va mahallot oyog‘ ostidadur. Andijon rudi O‘shning mahallotining ichi bila o‘tub, Andijonga borur. Bu rudning har ikki jonibi bog‘ot tushubtur, tamom bog‘lari rudqa mushriftur, binafshasi bisyor latif bo‘lur. Oqar suvlari bor, bahori bisyor yaxshi bo‘lur, qalin lola va gullar ochilur. Baroko‘h tog‘i domanasida shahr bila tog‘ning orasida bir masjid tushubtur, masjidi Javzo otliq, Tog‘ tarafidin bir ulug‘ shahjo‘y oqar. Ushbu masjidning tashqari sahni nishebroq, sebargalik, pursoya, safoliq maydon voqe bo‘lubtur. Har musofir va rahguzar kelsa, anda istirohat qilur. O‘sh avboshining zarofati budurkim, har kim anda uyqulasa, ul shahjo‘ydin suv quyarlar. Umarshayx mirzoning oxir zamonlarida qizil bila oq mavjliq tosh ushbu tog‘da paydo bo‘ldi: pichoq dastasi va taqband va ba'zi nimalar qilurlar, xeyli yaxshi toshdur. Farg‘ona viloyatida safo va havoda O‘sh chog‘lik qasaba yo‘qtur" [2, 9-10]- deb ta'riflanadi. Shuningdek O‘sh viloyati kentlaridan O‘nju Tuba, bugungi kunda ham shu nom bilan ataladigan Navkand, O‘zgand, Olatog‘ kabi kentlar ham "Boburnoma"da qayd qilingan.

Yuqorida aytilgandek, O‘shdan oqib o‘tgan Oqbo‘ra daryosi Andijongacha kelgan. Bobur "Andijon rudi" deb atagan Oqbo‘ra daryosi qadimda Andijonning janub tomonidan aylanib oqib, so‘ngra shahar shimolida g‘arbga tomon burilgan va hozirgi "Oqyor" tomonga oqqan-da Qoradaryo rudxonasi (ya'ni poymasi)ga burilib daryoga qo‘shilgan.

"Boburnoma"da qayd qilingan O‘sh qasabasi haqida rivoyatlarda aytilishicha, "Bir vaqtlar Zangi otaning qoramollari haddan tashqari ko‘payib ketgan paytda uning podasini bir ko‘ng‘ir buqa boshqarib yurar ekan. Oradan yillar o‘tib, qo‘ng‘ir buqa ham qarib, quvvatsizlanib, butun podani boshqarib yurish, uzoqqa ketganda qaytarib kelishga madori yetmay, o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lib qolibdi. Poda esa o‘z holicha o‘tlab, asta-sekin olis-olislarga jilib keta beribdi. Zangi ota qarasa podasining boshi Farg‘onadan o‘tib, Andijondan oshib qolgan emish. Shu payt Shosh shahrini biqinidan Zangi otaning "O‘sh-sh!"- degan ovozi eshitilibdi, Shunda hozirgi O‘sh shahri o‘rnida o‘tlab yurgan poda Zang otaning sasini (ovozini) eshitib orqasiga qaytib ketgan ekan. Zangi otaning ovozini eshitgan poda iziga qaytgan joy esa O‘sh deb atala boshlabdi" [4, 103].

Bu joy nomidan kelib chiqib, "Ma'sir-i Buxoro"da Farg‘ona vodiysining darvozasi sifatida O‘sh shahri eslatiladi va Langardan "Boburnoma"da tilga olingan O‘shga kelish yo‘lida joylashgan qirg‘iz ovullariga batafsil ta'rif berib o‘tiladi. Bu asarda Qashqar-Qo‘qon oralig‘idagi turli hududlardagi qazilmalar va tabiiy yerosti boyliklari va ulardan foydalanish darajasi haqida fikr bildirib Sho‘rbuloq, Qo‘rg‘oshin deb atalgan joyda mahalliy qirg‘izlar tomonidan qo‘rg‘oshin qazib olinib Farg‘ona shaharlarida sotilishi, Archalik deb atalgan joyda archalar mo‘l ekanligi va

undan mahalliy hunarmandlar foydalanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar e’tiborga loyiqdir” [5,214-215].

“Boburnoma”da Farg‘ona vodiysi va Hindiston aholisi, tabiati va geografik joylashuvining ekologiyasi taqqoslanib, “Hindiston elining ko‘pragi kofir bo‘ladur. Hind eli kofirni hindu derlar..., Hinduston kam latofat yer voqe bo‘lubtur. Elida husn yuq va husni ixtilot va omizish va omadu raft yo‘q va tab’ va idrok va adab yo‘q va karam va muruvvat yo‘q va hunarlarida va ishlarida siyoq yo‘q..., yaxshi ot yo‘q va yaxshi it yo‘q va uzum va qovun va yaxshi mevalar yo‘q... , sovuq suv va bozorlarida yaxshi osh va yaxshi non yo‘q va hammom yo‘q va madrasa yo‘q...

Daryolaridin va qora suvlaridin o‘zgakim, jarlar va chuqurlarda oqadur, bog‘ va imoratida oqar suvlar yo‘q. Va imoratlarida safo va havo va siyoq va andom yo‘q... Yog‘inlarida bir zamonda sellar keladur, hech suv yo‘q yerlarda daryolar oqadur. Yog‘ar mahallida va yog‘ib turg‘on mahallarida g‘arib yaxshi havolar bo‘ladur, andoqkim, havoning e’tidoli va latofati andin o‘tmas. Aybi budurkim, havo ko‘p purnam bo‘ladur [3, 266-267] -deb ta’riflangani bejiz emas.

Bobur Hindistonda juda qisqa muddatda begona yurtning shart-sharoitini o‘rganish, yangi saltanatni mustahkamlash kabi ishlarga katta kuch-matonat va vaqt sarfladi, bu ishlar bilan har qancha band bo‘lmasin yaratuvchilik va bunyodkorlik ishlariga ham vaqt va imkoniyat topa olgan.

Bobur imoratlar qurdirishdan tashqari karvon yo‘llarini tiklash, hovuz, quduq va ariqlar qazdirish ishlari bilan shug‘ullangan, hammomlar barpo ettirgan, Hindistonda suv tegirmoni ham qurdirgan [6, 89].

Xulosa qilib aytganimizda, “Boburnoma”ni qomusiy bir asar sifa-tida ta’riflansa ham hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, unda yurtimizni jumladan vodiy xududlarining o‘rta asrlar davridagi ekologik rivojlanishi, tarix ilmi, jug‘rofiyaga oid voqealar, joy nomlari, tabiat sarchashmalari, aholining etnik tarkibi, badiiy shoirona lavhalarda o‘z aksini topgan.

Adabiyotlar

1. Ipak yo‘li afsonalari. 1993. –Toshkent: “Fan”.
2. Mirziyoyev, Sh.2017.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”.
3. Muhammadiyeva D. Boburnomadagi o'lim va umr konseptl iparemiyalar xususida.URL:https://www.researchgate.net/publication/357899166 (Oxirgi murojaat qilingan sana:15.09.2024)
4. Muhammadiyeva D. Semanticeskaa klassifikacia frazem v Baburname. URL https://www.researchgate.net/publication/355780029.(Oxirgi murojaat qilingan sana: 18.09.2024)
5. Rustambek Shamsutdinov va b. 2010. Ko‘hna va navqiron Andijon. Toshkent: “Sharq”.

6. O‘ktam Mavlonov.2008.Markaziy Osiyoning qadimgi yo‘llari.-Toshkent: “Akademiya”.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2015. Boburnoma. -Toshkent: “Yangi asr avlodi”.
8. Zahirddin Muhammad Bobur.1989. Boburnoma. -Toshkent: “Yulduzcha”.

“Boburnoma” dagi vazn o‘lchov birliklari leksemalarining inglizcha tarjimalari tahlili

Analysis of english translations of lexemes of weight measurement units in “Boburnoma”

Sayyora Shodmonova[1]

Annotatsiya: Ushbu maqola “Boburnoma” matnidagi vazn o‘lchov birliklarining tarjimalarda aks etish xususiyatlariga bag‘ishlanadi. Vazn o‘lchov birliklarining tarjimasini transliteratsiya usulida berilishi hamda tarjimalarning qayta tiklashdagi muammolar yechimini topish masalalariga alohida e’tibor berilgan. “Boburnoma” matnidagi vazn o‘lchov birliklarining tarjimalarda aks etishdagi usullar va ularning tarjimalarida lingvokulturologik xususiyatlarini qayta tiklanish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *o‘lchov birliklari, vazn o‘lchovlari, sir, misqol, arshin, kuruh, farsax, mann, xarvor, xurd, naxo‘d, jarib, gaz, mill, lingvokulturologik xususiyatlar, asliyat.*

Annotation: This article is devoted to the features of the units of weight in the text “Baburname” in the translation. Particular attention is paid to the translation of units of weight by the method of transliteration, as well as the solution of problems in the reconstruction of translations. In the text “Baburname” the methods of reflection of weight units in translations and the issues of restoration of linguacultural features in their translations are analyzed.

Keywords: *units of measurement, weights, sir, misqal, arshin, kuruh, farsax, mann, harvor, khurd, nakhod, jarib, gaz, mill, linguacultural features, originality.*

Zahiriddin Muhammad Bobur uchun Hindistonda qo‘llanadigan og‘irlik birligi ham alohida ahamiyatga molik edi. Chunki davlat ishlarini yurgizish, ularni bir tartibga solishda aniq og‘irlik birligining qo‘llanishi alohida ahamiyat kasb etgan. Azaldan Sharq mamlakatlarida bir atama ostida har xil vazn birliklari tushunilgan. Ayniqsa, sir, misqol, arshin, kuruh, farsax, mann, xarvor, xurd, naxo‘d, jarib, gaz, mill va boshqalar Movarounnahr va Xurosonning turli hududlarida turlicha og‘irlik va uzunlik birliklarini bildirgan. Bobur bularning hammasini umumlashtirib, saltanat ishlari uchun muqobil variantlarini ishlab chiqqan.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z asarida O‘rta Osiyo va Hindistondagi og‘irlik o‘lchovlarini solishtirib, o‘zaro farqini ajratib ko‘rsatgan. “Boburnoma”da quyidagi og‘irlik o‘lchovlari uchraydi: misqol, rati, mosha, to‘la, botmon,

[1] *Sayyora Shodmonova* – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori PHD dotsent. Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute

man//mon, minosa, tong, ser//sir, pushtivora, xarvor, qop, sanduq, tang-tang, teva, sabad, ortmoq-ortmoq.

Olima N.Jiyanovani ta'kidlashicha, "og'irlik o'lchovini ifodalovchi bu numerativlarni anglatgan ma'nolariga ko'ra, ikki guruhga bo'lib o'rganish ma'qul: a) aniq og'irlikni ifodalovchi numerativlar; b) taxminiy og'irlikni ifodalovchi numerativlar.

"Boburnoma"da quyidagi aniq og'irlikni ifodalovchi so'zlar uchraydi: misqol, botmon, man//mon, minosa, ser//sir, to'la, mosha, rati, tong" [Jiyanova, 2010:50]. Bu jarayon "Boburnoma"da shunday aks etganiga guvoh bo'lamiz: "*Yana hind eli vaznlarni tavre ta'yin qilibturlar: sekkiz rattiy bir ma'sha, to'rt ma'sha bir taankkim, o'ttuz ikki rattiy bo'lg'ay. Besh ma'sha bir misqolkim, qirq rattiy bo'lg'ay. O'n to'rt to'vla bir ser. Bu xud muqarrardurkim har yerda qirq ser bir botmon bo'lur, o'n ikki botmon bir ma'niy bo'lur. Yuz ma'niyni bir manyasa derlar. Javohir va marvoridin taank bila tortarlar*" [Leyden,1826:208]. Bobur o'lchov birliklari ifodalangan atamalar va so'z birikmalari ifodasida muqoyasa usulidan foydalanadi. Shu usul vositasida o'lchov aniqligi va ijtimoiy, iqtisodiy turmush uchun foydaliligini ta'minlashga erishadi. Bu holatlar har uchala tarjima variantida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladiki, quyida shu holatlarni tahliliy ko'rib o'tamiz.

Leyden-Erskin tarjimasida: "*The inhabitants of Hindustan have a peculiar method of reckoning as to measures; they allow eight ratis to one masheh; four mashehs to one tang, or thirty-two ratis to one tang; five mashehs to one mishkal, which is equal to forty ratis; twelve mashehs make one tola or ninety-six ratis; fourteen tolas make one ser; and it is fixed that everywhere forty sers make one man, and twelve mans one mani, and one hundred manis one minaseh. They reckon jewels and precious stones by the tang*" [Fedorov, Vol.II.; 240] (*Hindiston elida og'irlik o'lchovlarini o'ziga xos uslubi bor. Sakkiz rattiy bir ma'shaga, to'rt mash'a bir taankni yoki o'ttiz ikki raatiy bir taank bo'ladi. Besh mash'a, ya'ni bir misqol qirq raatiyga teng. O'n ikki mash'a bir to'vla yoki to'qson olti raatiyga teng. O'n to'rt to'vla bir ser hisoblanadi. Qirq ser belgilab qo'yilgandek har yerda bir botmon, o'n ikki botmon bir ma'niyga va yuz ma'niy bir manyasaga teng. Ular javohir va qimmatbaho toshlarni taankda o'lchaydilar* (S.Sh) deb o'giriladi. Ayni tarjima matnida o'lchov birliklariga oid terminlar transliteratsiya usuli bilan qayta tiklangan. Asliyatdagi o'lchov birliklaridan biri "**to'vla**" termini, Leyden-Erskin tarjimasida "**tola**", A.Beverij tarjimasida "**tula**", V.Tekstonda esa "**tola**" shaklida beriladi. Ko'rinadiki, tarjima matnlarida o'lchov birliklari transliteratsiya usuli orqali berilsa-da, turli shakllarda keltirilgan.

A.Beverij tarjimasida bu: "*The people of Hind have also well-arranged measures: 8 ratis=1 masha; 4 masha=1 tank=32 ratis; 5 masha=1 misqal=40*

ratis; 12 masha=1 tula=96 ratis; 14 tula=1 ser. This is everywhere fixed:−40 ser=1 manban; 12 manban=1 mani; 100 mani they call a minasa.

Pearls and jewels they weigh by the tank" [Beveridge,1922:517-518] (*Hind xalqini juda yaxshi belgilangan o‘lchovlari bor. Sakkiz raatiy bir mash’a, to‘rt mash’a bir taank o‘ttiz ikki raatiyga tengdir. Besh mash’a bir misqol qirq raatiy, o‘n ikki mash’a bir to‘vla to‘qson olti raatiy, o‘n to‘rt to‘vla bir serga tengdir. Bu hamma yerda qirq ser bir botmon bo‘ladi deb belgilab qo‘yilgan, o‘n ikki botmon bir ma’niyga, yuz ma’niyni bir manyasa deydilar*), aks etadi. Transliteratsiya usuli bu o‘rinda qo‘l kelgani kuzatiladi. Masalan, asliyatdagi "**misqol**" so‘zini A.Beverij "**misqal**", Leyden-Erskin tarjimasida: "**mishkal**", V.Tekstonda esa "**mithcal**" shaklida beradi. Uch tarjimon ichida A.Beverij tarjimasi asliyatning pragmatik xususiyatlariga muvofiqligi bilan ajralib turadi. Xususan, A.Beverij har ikkala tarjimadan farqli tarzda "**equal**" so‘zini "=" belgisi bilan ifodalaydi. Muallif o‘lchov birliklarini qisqa va lo‘nda bersa, tarjimon bu tasvirlarni texnik jihatdan yanada ixchamlashtirib berishga intiladi.

V.Tekston tarjimasida shunday keladi: "*The people of India also have wonderful weights and measures. Eight rattis equal 1 masha; 4 mashas equal 1 tank, or 32 rattis; 5 mashas equal 1 mithcal or 40 rattis; 12 mashas equal 1 tola, or 96 rattis; 14 tolas equal 1 seer. It is set everywhere that 40 seers equal 1 maund. 12 maunds equal 1 mani; 100 manis is called a manyasa. Jewels and pearls are weighed by the tank*" [Leyden, 1826: 350] (*Hindiston xalqida ajoyib og‘irlik o‘lchovlari bordir. Sakkiz raatiy bir ma’shaga teng, to‘rt mash’a bir taankka yoki o‘ttiz ikki raatiyga tengdir, besh mash’a bir misqol yoki qirq raatiyga teng. O‘n ikki mash’a bir to‘vla yoki to‘qson olti ratiiyga tengdir, o‘n to‘rt to‘vla bir serga teng. Qirq ser belgilab qo‘yilgandek hamma yerda bir botmon bo‘ladi. O‘n ikki botmon bir ma’niyga teng. Yuz ma’niyni bir manyasa deydilar. Javohir va marvaridlarni taankda o‘lchaydilar* (S.Sh). Tarjimon og‘irlik o‘lchov birliklarini qayta tiklashda o‘quvchiga tushunarli bo‘lish yo‘llarini izlaydi. O‘lchov birliklarini transliteratsiya orqali va raqamlar bilan berishni ma’qul ko‘radi. "**Ser**" o‘lchov birligi, V.Tekston tarjimasida "**seers**", A.Beverijda esa "**ser**", Leyden-Erskin tarjimasida "**ser**" shaklida qayta tiklangan. A.Beverij va Leyden-Erskin tarjimalarida "**ser**" so‘zi asliyatdagidek transliteratsiya qilinsa, V.Tekston "**seers**" shaklida transliteratsiya qiladi. Leyden-Erskin tarjimasida: "**twelve mashehs make one tola or ninety-six ratis**", V.Tekston tarjimasida: "**12 mashas equal 1 tola, or 96 rattis**", A.Beverijda esa: **12 masha=1 tula=96 ratis** (*o‘n ikki mash’a bir to‘vla yoki to‘qson olti ratiiyga tengdir*) jumlasi asliyatda yo‘q. Bizningcha, buni izohlovchi qo‘shimcha sifatida tarjimonlar kiritishgan. N.Otajonovning qayd etishicha: "Juda oddiy tuyulgan bu talqinu atamalarni boshqa tillarga o‘girishda nihoyatda ko‘p xilma-xillik va chalkashliklar uchraydi" [Otajonov, 1994:224].

Tarjimonlar “Boburnoma” matnidagi o‘lchov birliklarini qayta tiklashda ham, yuqorida vaqt o‘lchovlari tarjimasida ko‘rganimizdek, turli usullardan foydalanishgan. Natijada asliyatning pragmatik jihatlari tarjimada o‘z aksini topgan. Bobur so‘z bilan bergan o‘lchov birliklari tarjimada so‘z va sonlar orqali ifodalangan. Tarjima matnida Leyden-Erskin og‘irlik o‘lchov birliklarini so‘zlar orqali, V.Tekston raqamlar bilan, A.Beverij esa raqam va belgilar vositasida ifodalagan.

Tarjima jarayonida matnning leksik, stilistik va pragmatik tomonlariga diqqat qaratish muhim. Bu jihat tarjimon mahoratining bir qirrasini tashkil etadi. Muallif tasvirlagan voqealar, o‘lchov birliklari va boshqa tasvirlarni tarjima matnlarida adekvat aks ettirish tarjimon mahoratini talab etadi. Har bir tasvir, tafsilot va talqin tarjima matnida asliyatning pragmatik xususiyatlariga muvofiq aks etishi tarjima amaliyotining sinalgan, samarali yo‘lidir.

Adabiyotlar:

1. Beveridge A.S. London, 1922; Repr, in one Volume. London, 1969. New Delhi, 1970. Lahore, 1975. The Bābur-nāma in English (Memoirs of Babur), Translated from the Original Turki Text of Zahiru’ddin Muhammad Babur Padshah Ghazi by Annette, Susannah Beveridge. 2 Vols: 134
2. Fedorov A.V. 1983. Osnovы obщyey teorii perevoda (lingvisticheskiye problemы). M.: Vыsshaya shkola: 134
3. Hakimova M. 2004. O‘zbek tilida vaqt ma’noli lug‘aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. NDA. Farg‘ona.
4. Leyden J., W.Erskine. 1826. Memoirs of Zehired-din Muhammed Babur, Emperor of Hindustan. Edinburg: 422
5. Nazokat Jiyanova. 2010. “Boburnoma”da numerativ so‘zlar. Filol.f.nom. diss..avtoreferat. –Toshkent.
6. Otajonov N. 1994. “Boburnoma” jahon adabiy jarayonida. Qiyosiy-tipologik tahlili. Filol. Fan. Dok. ... diss. –Toshkent: 224.
7. Qudratullayev H. 1998. “Boburnoma”ning adabiy-tarixiy va uslubiy tahlili, dok. diss..avtoref. T.: 43
8 Rahimov G‘. 2016. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi: 113.
9. Wheeler M., Thackston . 1996. The Baburnama. Memoirs of Babur. New York & Oxford.
10. Xolmanova Z. 2007. “Boburnoma” leksikasi. –Toshkent: Fan: 3.
11. Xolmirzayev F. 2003. Xotira uyg‘onsa go‘zaldir. –Toshkent: Fan: 2003: 56
12. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2002. “Boburnoma”. –Toshkent: Sharq NMAK: 37.

“Boburnoma” – sharq xalqlari tarixini o‘rganishda badiiy-tarixiy manba
“Baburnama” is an artistic historical source for studying the history of eastern peoples

Safar ERKAYEV [1],
Qosimboy MAMUROV [2],
Nigora ERKAYEVA [3],

Annotatsiya:«Boburnoma» sharq xalqlari Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston, Hinduston tarixi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar beruvchi tarixiy manba sifatida besh asrdan buyon ilm-ma’rifat ana’nalarini bahramand qilib kelmoqda. Asarda o‘tgan tarixiy voqealar xronologik tarzda bayon qilinib, Bobur Mirzoning avlodlari, uning yurishida qatnashgan tarixiy shaxslarga, viloyatlar, shahar-qishloqlarga, obu-havosi, tabiati, urf-odatlariga tarixiy nuqtai nazardan baho beriladi.

Kalit so‘zlar: *Bobur, «Boburnoma», sharq, xalqlar, Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston, Hinduston.*

Annotation: For five centuries, the eastern peoples of “Boburnoma” have used knowledge and enlightenment as a historical source, providing valuable information on the history of Mowarounnahr, Khorasan, Afghanistan and India. In the work, historical events are described in chronological order; from a historical point of view, the descendants of Babur Mirza, historical figures who participated in his campaign, regions, cities and villages, climate, nature, and customs are considered.

Key words: *Babur, “Baburnoma”, east, peoples, Mowarounnahr, Khorasan, Afghanistan, India.*

Sharq xalqlari o‘tmish tarixining har bir sahifasi va hikmatlari, turli ko‘rinishdagi asarlari nafaqat sharq xalqlari tarixini, balki jahon xalqlari tarixini o‘rganishda muhim tarixiy manba hisoblanib, jahon madaniyati oltin fondidan joy olgan. Bu yo‘nalishda jahon memuar janrining nodir va tarixiy namunasi hisoblangan “Boburnoma” qomusiy asar va tarixiy manba sifatida muhim ilmiy ahamiyatga egadir. Oxirgi tarixiy manbalar ma’lumotiga ko‘ra “Boburnoma” to‘rt marta fors va ingliz, ikki marta olmon, fransuz, turk, urdu, bir marta golland, italyan, hind, yapon, polyak, nemis, ispan, uyg‘ur, qozoq va boshqa ko‘plab tillarga tarjima qilingan. “Boburnoma” da XV - XVI asrlar sharq xalqlari tilidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy, harbiy-maishiy hayotiga oid juda ko‘plab tarixiy ma’lumotlar jamlangan. “Boburnoma” da

[1] *Safar Erkayev* – академик Б.Ғафуров номли Хужанд давлат университети ,доцент, тарих фанлари номзади .
[2] *Qosimboy Mamurov* – Алишер Навоий номли Тошкент ўзбек тили ва адабиёти давлат университети» профессори, филология фанлари номзади,
[3]*Nigora Erkayeva* – Шарқии Мичиган университети профессори, фалсафа фанлари доктори

Markaziy Osiyo va sharq xalqlari, Hindiston, Afg‘oniston tabiati, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, sharq xalqlarining yashash tarzi, madaniyati turmush darajasini, tarixini aks ettiruvchi fors-tojikcha, hindcha so‘zlar, eski o‘zbek adabiy tilidagi so‘zlar o‘z aksini topgan bo‘lib ham, bu muammolarni o‘rganishda nodir badiiy- tarixiy manba hisoblanadi.

O‘zbek tili va adabiyotining oltin xazinasi va nodir manbasi - “Boburnoma” asrlar davomida tarix, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, etnografik, antropologik, toponomik, onomistik, geneologik, xronologik, arxontologik nuqtai nazaridan bir necha marta tahlil qilingan. Bu muammo alohida tadqiqot mavzusi va yo‘nalishidir.

Bu yo‘nalishda buyuk davlat arbobi, adolatli shoh va mehribon ota, dovyurak sarkarda va ajoyib mo‘yqalam ustasi, shoir, yozuvchi va o‘z davrining eng olijanob komil insoni bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Boburning bir qancha asarlari qatorida ilmiy asar darajasiga ko‘tarilgan, ensiklopedist asari hisoblangan «Boburnoma» tarixiy-memuar asari bilan yaqindan tanishish, uni to‘la o‘rganish, buyuk tarixchilar tomonidan yaratilgan “Boburnoma”ni o‘rganish yo‘llarini izlab, ular orqali o‘tmish avlodlar tarixini yanada chuqurroq bilib, bugungi tarixiy sharoitni realroq tahlil qilib va bu orqali kelajak avlod uchun, kelajak jahon tarixi uchun, uni oldindan ko‘ra olish yo‘llarini o‘rganishdan iboratdir. Mana asarning yaratilganiga 500 yildan ortiq tarixiy vaqt o‘tgan bo‘lsada, jahon jamiyatshunos olimlari uchun “Boburnoma” sharq va dunyo tarixini o‘rganishda asosiy badiiy -tarixiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Har vaqtki ko‘rgaysen mening so‘zumni
So‘zumni o‘qib, anglaysen mening o‘zumni… (Bobur Mirzo)

Bobur Mirzoning so‘zini anglagan har bir kishi uning o‘zini ko‘rgandek, u bilan suhbatlashgandek bo‘ladi. Bobur Mirzoning xizmatlarini baholashdan oldin uning tarixiy taraqqayotga qanday yondashganligini, tarixiy haqiqat haqida qanday ma’lumot berganliklarini o‘rganib, unga tarixiy nuqtai nazardan baho berish va adolatli hukm chiqarish har qanday yoshlarning, tarixchilarning asosiy vazifasidir. “Boburnoma” sharq xalqlari tarixini o‘rganishda tarixiy manba ekanligini o‘rganish uchun yuzdan ortiq asarlarni – “Boburnoma”, P.Qodirov “Yulduzli tunlar”, “Avlodlar dovoni”, Xerman Vamberi “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”, X.Davron “Samarqaned hayoli”, X.Xasanov “Bobur sayyoh va tabiatshunos”, X.Sulton “Boburning tushlari”, “Bobur haqi”a qissa”, A.Xomidoa “Boburnoma”da tabiat ko‘rki”, X.Ismatulloyev “Bobur avlodi - AQSH professori”, Javoharlal Neru “Dunyo tarixiga bir nazar”, B.Fayzulloyev “Bobur Mirzo Bizni unutqonni unutmoq kekrak», S.A.Erkayev, R.Tuhtayev, Sh.Zulfiqorov “Boburning “Boburnoma” asari tarixiy manba sifatida”, D.V.Mitroxin “Hinduston yangi asr bo‘sag‘asida”, A.Ibrohimoa “Boburiylar merosi”, N. Mallayev “O‘zbek adabiyoti tarixi”, S.Azimjonova “Gulbadanbegim”, “Boburnoma”ning yozilish tarixidan”, N.Rajabov “Boburnoma”da Naviy” va boshqa

asarlar, matbuot mavodlarini o‘rganib, “Boburnoma” sharq xalqlari tarixini o‘rganishda tarixiy manbadir degan xulosaga keldim [Erkayev 1995, 3-66]. “Boburnoma” kitobida XX asrning 4-choragidan XXI asrning 30 yillarigacha bo‘lgan davrlardagi Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston va Hindustonda bo‘lgan tarixiy voqealar xronolik tarzda bayon qilinadi. Asarda Bobur Mirzo faqat tarixiy voqealar bilan cheklanmasdan, balki shu voqealar va yuz bergan joylar geografiyasi, tabiati, voqealarda qatnashgan tarixiy shaxslarning kelib chiqishi, nasl-nasabi, jang-jadallarning borishi va natijalariga ham keng to‘xtalib, ifodali bayon etilgan.

Jahon tarixi va madaniyati tarixida iste’dodli shoir, voqelikni teran anglagan va nurli chizgilarda bayon etilgan noziktabiat ijodkor, buyuk va adolatli davlat arbobi, tashkilotchi va tashabbuskor shoh va mehribon ota, dovyurak va mahoratli sarkarda va ajoyib mo‘yqalam ustasi, shoir, yozuvchi, ma’naviy – ma’rifiy sivilizatsiya asoschisi, buyuk imperator va o‘z davrining eng olijanob komil insoni bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur so‘nmas iz qoldirgan. «Boburnoma» tarixiy asari ijodkor aqliy salohiyati, tafakkur darajasi, sinchkov tabiatning yorqin ifodasi, jahon afkor ommasini hayratga solgan bemisl tafakkur mahsuli bo‘lib, jahon tarixi ilmiy va oltin xazinasidan so‘nmas joy olgan tarixiy manbadir. Shuning uchun ham “Boburnoma” – sharq xalqlari tarixining buyuk xotirasidir.

“Boburnoma”da XX - XXI asrlardagi Xuroson, Movarounnahr, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va sharq xalqlari hududida yuz bergan siyosiy –madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy – harbiy voqealarni o‘rganishda juda ko‘plab tarixiy ma’lumotlar jamlangan bo‘lib, bu buyuk asarning mazmun va mohiyatini boshqa asarlarga tenglashtirib bo‘lmaydi. Asarning yana bir muhim ahamiyati XX - XXI asrlar sharq xalqlari, o‘zbek-tojik xalqlari tarixining katta –kichik shaxsiyatlari va ularning o‘zaro muloqot va munosabatlari haqidagi muhim tarixiy manbadir.

O‘z davrining mashhur tarixshunosi Bobur Mirzo “Boburnoma”da in’om – ehson, xizmat haqi ko‘rinishlari, maosh turlari, pora, rishva, sovg‘a, shibron, diniy marosimlar, urf-odatlar, an’analar, to‘ylar, voqea-hodisalar, joylarning tasviri, qabila, urug‘, elatlarning nomi, tili, yashash tarzi, manzillari, o‘ziga xos jihatlari, afg‘on, hind xalqi, lo‘lilarning urf-rasmlari, irimlari, kiyim-kechak nomlari, rang ko‘rinishlari, qabila – elatlarning yashash xususiyatlari, sharq xalqlarining madaniyati, oilaviy munosibatlari, savdo-tijorat, diplomatik munosibatlari va bir qancha boshqa masalalar borasida ham aniq ma’lumotlarni bayon qiladi. Shuning uchun ham bu borada ham tengsiz tarixiy manba ekanligi jahon jamiyatshunoslik olimlari tamonidan tasdiqlangan.

Sharq xalqlari tarixini o‘rganishda tarixiy manbasi hisoblangan «Boburnoma»ning ahamiyati shundaki, bayon qilingan voqealarda muallifning bevosita o‘zi ishtirok etadi. Bobur Mirzo o‘z boshidan kechirgan voqealarni kitobxon oldida yaqqol tasvirlab hikoya qilib beradi. «Umarshayx Mirzoga bu voqea berganda

men Andijonda chahorbog‘da edim. Seshanba kuni ramazon oyining boshqa bir xabar Andijonga keldi. Iztirob bilan otlanib, qoshimdagi navkar va savdar, bila qurg‘on azimati qildim…”, deb yozadi Mirzo Bobur otasi Umarshayx Mirzoning halokati to‘g‘risida.

P.Qodirov “Yulduzdi tunlar” asarida Boburning hayotiga taalluqli muhim voqealar, uning bajargan ishlarini mohirlik bilan tasvirlaydi. Asarda shoir va shoh Bobur hayotiga to‘xtaladi “*Keyin yarim tungacha daftaridan bosh ko‘tarmay so‘nggi yilining voqealarini yozadi*” [P.Qodirov 1990, 241]. Yozuvchi «Avlodlar dovoni” asarida Bobur avlodlari tarixi, nabirasi Akbarshoh davri to‘g‘risida to‘xtalib, Mirzo Boburning ko‘p sifatlarini bayon etib, uning ruboiysidan misollar keltiradi:

Gul jamolin yopqon ul gulning ikki rayhonidur,

G‘uncha sirrin ochkon ul ikki labi xandonidur [P.Qodirov 1989, 13].

O‘rganilgan asarlarda Bobur shaxsiga, uning “Boburnoma” asariga to‘xtalib, “Boburnoma”ning tarixiy, geografik, etnografik, badiiy asar ekanligi keng bayon qilingan. Uning o‘z portretini chizishdagi samimiyligi, fazilat va nuqsonlarini ham tasvirlashi, ochiq ko‘ngilligi va ajoyib xazilkashlik tuyg‘usi uning go‘zal memuarlarining e’tiborini yanada oshiradi.

“Boburnoma”da tabiat ko‘rki, tarixiy voqealarni bayon qilish bilan shaxs talqini, tarixiy voqealar, davlatni boshqarish to‘g‘risida kengroq ma’lumotlar bayon etilgan.

Yuqorida Mirzo Bobur to‘g‘risida nashr etilgan asarlarda hind xalqining chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashi tarixi, Bobur va uning avlodlarining Hindiston davlati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ko‘shgan hissasi, Boburiylar madaniyati real baholanishi, Bobur eng madaniyatli inson bo‘lganligi, Buyuk Boburning hayot yo‘li kabi uning shaxsiyati ham g‘oyat murakkabligi, Bobur o‘n bir yoshidan boshlab, siyosat qozonida qaynay boshlagani, u Hinduston mulkining shohanshohi sifatida olamga dovrug‘i ketgan paytida, ayni 48 yoshida dunyodan o‘tganligi, «Boburnoma»da tarixiy voqealar, boburiylar avlodlarining Hindistonda qanday iz qoldirganliklari, ularning madaniy meroslari, Hindistonda Boburiylar shajarasi, Boburning Qobulga qaytib borishi, Afg‘oniston va Shimoliy Hindistonda katta yerlarni bosib olishi, bobur imperiyasining tashkil qilinishi, “Boburnoma”ning yo‘qotilgan”, “yozilmagan”, “unutilgan” sahifalari qanday tasvirlanganligi masalalari va boshqalar keng ochib berilgan.

O‘zbek klassik adabiyotining XX asr oxiri va XXI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyandalaridan biri, ensiklopedist olim, tarixshunos Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qisqa hayoti davomida sharq xalqlari tarixini o‘rganish manbasi hisoblangan ko‘plab tarixiy asarlar yozib qoldirgan, ammo ularning hammasi qo‘lyozma holida bizgacha yetib kelmaganligini ta’kidlaydi. Bobur Mirzoning “*Boburnoma*” tarixiy asarining davomi hisoblangan bu asarlariga – islom dini asoslarini bayon etuvchi “*Mubayyin*” nomli she’riy risolasi, “*Volida*” atalgan

tasavvufga oid bir kitobning she’riy tarjimasi, “*Xatti Boburiy*” deb nomlangan alifbo jadvali, Qobulga kelganida o‘n besh yoshli o‘g‘li Xumoyunga taqdim etgan aruz ilmiga bag‘ishlangan “*Muxtasar*” nomli asari va boshqalar.

“Mubayyin” nomli she’riy risolasini o‘g‘li Xumoyunning izmiga mos kelishini nazarda tutib shunday nom bergan, unda fiqxning qonun-qoidalari turkiy tilda yozilgan va u Xumoyun uchun darslik vazifasini bajargan. Boburning o‘z so‘zi va uning qizi Gulbadanbegimning “Xumoyunnoma”da keltirgan ma’lumotlariga qaraganda, “Boburnoma” dastlab “Voqeanoma” deb atalgan. Bu haqda Boburning o‘zi shunday yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidan turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu «Voqoye»ni uqur bilgaykim,
Ne ranju ne mehnatu ne g‘amlar ko‘rdum [Mallayev 1979,662]

“Boburnoma” haqiqatan ham movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston, Hindiston va sharq xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid eng nodir qimmatli materiallarni o‘z ichiga olgan, jahon xalqlari madaniyati xazinasidan o‘rin olgan “o‘zbek xalqi boy o‘tmish tarizining zarxal sahifasi» bo‘lib hisoblanmish ensiklopedik asardir. Ushbu asar asl nomi «Vaqoi’’ deb yoki “Boburiya” deb nomlangan bo‘lib, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Voqeoti Boburiy” deb atalgan, keyinchalik bu asar “Boburnoma” degan nom bilan mashhur bo‘lgan [Bobur 1995, 3]. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materiallarni o‘z ichiga olganligi, til va uslubining go‘zalligi bilan XVIII asr, ayniqsa, XIX asr sharqshunoslik olimlarining diqqatini o‘ziga tortgan va uning turli qo‘lyozma nusxalari izlana boshlangan va g‘arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi. XVIII asrdan boshlab, turk, fors, golland, fransuz, ingliz, nemis, rus, hind va borshqa tillarga tarjima qilingan. Boburning nabirasi, Xumoyunning o‘g‘li Akbarshoh topshirig‘i bilan asar uch marta fors tiliga Hindustonda tarjima qilingan. «Boburnoma»ning asl o‘zbek tilidagi qadimiy qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Uning faqat XVI asrda ko‘chirilgan, hozirgi Hindustonning Xaydarobod shahridagi Salordang muzeyida saqlanayotgan qo‘lyozmalari yetib kelagan. Hozirgi davrda “Boburnoma”ning rasmli qo‘lyozmalari London, Dehli Alvar, Moskva muzeylarida saqlanmoqda.

“Boburnoma” jahon adabiyotida memuar janrining dunyo tafakkur ahli tomonidan e’tirof etilgan eng nodir namunasi, jahon va sharq xalqlari tarixi va madaniyatini o‘rganishda oltin xazina hisoblanadi. Shuning uchun ham bu asarni ruhiyat solnomasi-yilnomasi deb atash mumkin. Bobur til va tarix ilmini rivojlantirdi, qomusiy ilmga ega bulgan buyuk so‘z san’atkoridir, sharq xalqlari yashash jamiyatini yoritgan kuchli bilimli olimdir, o‘sha davr tillarini o‘rganish targ‘ibotchisidir, astronomiya, tib, tilshunoslik, chenak-metrologiya, tarixshunoslik, harbiy tuzum va

san’ati, eski o‘zbek tili, o‘zbek, tojik-fors, arab, hind mo‘g‘ul va boshqa tillarning o‘zaro aloqasi, munosabati kabi ilmiy yo‘nalishlarning ham tadqiqotchisidir.

Xulosa, “Boburnoma” - haqiqatan jahon va sharq xalqlari tarixini o‘rganishda tarixiy manbadir. Bu asarni mazmuniga ko‘ra uch qismga bo‘lib o‘rganish mumkin. 1.XV asr ikkinchi yarmi XVI asrning dastlabki choragi davomida o‘rta Osiyo va Eronda ro‘y bergan vaqealar. 2.XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida Afg‘onistonda bo‘lgan voqealar. 3.XVI asrning birinchi choragida Shimoliy Hindiston xalqlari tarixi haqida hikoyalar. “Boburnoma” sharq xalqlari tarixi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar beruvchi tarixiy manba sifatida besh asrdan buyon tarixchi, tarixshunos, sharqshunos, geograf, etnograf, iqtisodchi, tilshunos, adabiyotshunos, jamiyatshunos va boshqa fanlar, ilm-ma’rifat ahllarini o‘z oltin xaznasidan bahramand qilib kelmoqda. Asar tarixiy manba bo‘lib, bo‘lib o‘tgan tarixiy voqealar xronologik tarzda bayon qilinib, Bobur Mirzoning avlodlari, uning yurishida qatnashgan tarixiy shaxslarga, viloyatlar, shahar-qishloqlarga, ob-havosi, mevalari, daraxtlari, gullari, odamlarning fe’l-atvori, aft-basharasi, nasl-nasabi, tabiati, urf-odatlari, daryolari, torg‘lariga tarixiy nuqtai nazardan baho beriladi. «Boburnoma», Boburning adabiy tarixiy merosi hech qachon o‘zining tarixiy-ma’rifiy, ilmiy qimmatini yo‘qotgan emas. Asarlari Sharq va G‘arb tarixchilari, tarixshunoslari, etnograflari, simoshunoslari, filologlari va sharqshunoslari diqqatini o‘ziga tortib kelayotir. “Boburnoma” - sharq xalqlari tarixi va madaniyatini o‘rganish, eski o‘zbek va tojik-fors tillarini munosibatlarini aks ettirgan nodir tarixiy manba sifatida jahon olimlari tomonidan tan olingan. Bu jahon xalqlari va sharq xalqlari tarixini talqin qilishda oltin xazina hisoblangan asar – buyuk tafakkur mahsulidir. Asarda tarixiy shahslar, o‘z davrining siyosatchilari, olimlari, yozuvchilari, ziyolilari nomi nasabi, avlodlari, fe’l-atvori, qiziqishlari, o‘zaro oilaviy, do‘stona, diplomatik munosabatlari, toponimlar, turli tillar va ularning yaqinlashuvi, bu tillardagi turli so‘zlarning ishlatilishiga xos faktik ma’lumotlar juda mohirlik bilan keltirilgan va asar alohida nodir va so‘nmas tarixiy qiymatga egadir. “Boburnoma” haqiqatan sharq xalqlari tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega badiiy-tarixiy manbadir.

Adabiyotlar

1. Bobur, Z. 1989. “Boburnoma” nashri haqida.-Toshkent..
2. Qodirov P. 1989. Avlodlar davoni. –Toshkent.
3. Qodirov P. 1990.Yulduzli tunlar. –Toshkent.
4. Mallayev N.1978. O‘zbek adabiyoti tarixi. –Toshkent.
5. Muhammadiyeva D. Boburnomadagi o'lim va umr konseptl iparemiyalar xususida.URL:https://www.researchgate.net/publication/357899166 (Oxirgi murojaat qilingan sana:15.09.2024)

6. Muhammadiyeva D. Semanticeskaa klassifikacia frazem v Baburname. URL https://www.researchgate.net/publication/355780029.(Oxirgi murojaat qilingan sana: 18.09.2024) “Fan va turmush” jurnali. 1990. № 2, 9 sah.
7. Erkayev S.,Tuhtayev R., Zulfiqorov Sh. 1995. Boburning “Boburnoma” asari tarixiy manba sifatida. –Xo‘jand.

“Boburnoma”da panjob viloyatining tarixiy geografiyasi
“Boburnoma” of the Punjab region historical geography

Azizjon SHARIPOV[1]

Annotatsiya: “Boburnoma”ning bizgacha yetib kelgan manbasida 1800 dan ziyod joy nomlari berilgan. Mazkur toponimlar hududiy jihatdan asosan Markaziy Osiyo (Movarounnahr, Xuroson va Afg‘oniston), Pokiston va Shimoliy Hindiston hududiga to‘g‘ri keladi. “Boburnoma”dan Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindistonning tarixiy-geografiyasiga tegishli ma’lumotlar, hususan, o‘lkaning ma’muriy-hududiy holati, oronim (tog‘, vodiy, dasht va cho‘llari) va gidronimlari (suv ma’danlari), oykonimlari (shahar va qishloqlari), xayvonot va o‘simliklar olami, etnik-hududiy holati geografiyasi, umuman olganda, tarixiy toponimiyasi haqida keng ma’lumotlar olsa bo‘ladi. “Boburnoma”da Boburning Hindiston yurishi asnosida Pokiston hududidagi 100 dan ziyod joy nomlari eslatilgan. Ushbu maqolada “Boburnoma”da tilga olingan Pokistondagi ba’zi toponimik joylar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, Pokiston, Panjob o‘lkasi, tarixiy geografiya, toponimlar, gipdronimlar*

Abstract: In the source of “Boburnoma” that has reached us, more than 1800 place names are given. Geographically, these toponyms correspond mainly to the territory of Central Asia (Movarounnahr, Khorasan and Afghanistan), Pakistan and North India. From “Boburnoma” you can get information about the historical-geographical history of Central Asia and Northern India, in particular, about the country's administrative-territorial situation, oronim (mountains, valleys, steppes and deserts) and hydronyms(water mines), oikonim (cities and villages), fauna and flora, geography of ethno-territorial situation, historical toponymy in general.

“Boburnoma” mentions the names of more than 100 places in the territory of Pakistan during Babur's campaign in India. This article discusses some toponymic places in Pakistan mentioned in Boburnoma.

Key words: *Baburnoma, Pakistan, Punjab, historical geography, toponyms, hydronyms*

Bugungi kunda jahon ilm-fanida tabiatni, jumladan, uning geografik tarixini o‘rganish, inson faoliyati bilan bog‘liq tabiiy jarayonlardagi qator muammolar – ya’ni tabiatni asrab-avaylash, muhofaza qilish, atrof-muhitni ko‘kalamzorlashtirish,

[1] Azizjon SHARIPOV – O‘zRFA Temuriylar tarixi davlat muzeyi “Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi mudiri, O‘zR FAShI mustaqil tadqiqotchi.

ekologik ekologik holatni yaxshilash va sog‘lomlashtirish, tabiiy resurslar (boyliklar)dan oqilona foydalanish va boshqa shu kabi muammolarni bartaraf etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu muammo respublika hukumatining siyosiy e’tiboridan ham chet qolmagan.

O‘zbekistonda sobiq sovet davrida nomlari unutilgan tarixiy joylarni aniqlash, toponimik nomlarini qayta tiklash borasidagi ham qator amaliy ishlar ham olib borilmoqda. Bu borada geografik, shu jumladan, tarixiy-geografik bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Ma’lumki, “Boburnoma” chig‘atoy-turkiy tilida yozilgan va unda arab, fors va hind tillaridan ham keng foydalanilgan. Ushbu tarixiy-madaniy meros XIV–XVI asrlar davri tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi va uni har tomonlama tadqiq qilish, chuqur o‘rganish zarurligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev qarorida ham o‘z aksini topgan[Халқ сўзи// 2017:1].

“Boburnoma”ning bizgacha yetib kelgan manbasida 1800 dan ziyod joy nomlari berilgan. Mazkur toponimlar hududiy jihatdan asosan Markaziy Osiyo (Movarounnahr, Xuroson va Afg‘oniston), Pokiston va Shimoliy Hindiston hududiga to‘g‘ri keladi. “Boburnoma”dan Markaziy Osiyo va Shimoliy Hindistonning tarixiy-geografiyasiga tegishli ma’lumotlar, hususan, o‘lkaning ma’muriy-hududiy holati, oronim (tog‘, vodiy, dasht va cho‘llari) va gidronimlari (suv ma’danlari), oykonimlari (shahar va qishloqlari), xayvonot va o‘simliklar olami, etnik-hududiy holati geografiyasi, umuman olganda, tarixiy toponimiyasi haqida keng ma’lumotlar olsa bo‘ladi.

Ma’lumki, Pokiston va Hindiston hududidagi tarixiy viloyat – Panjob o‘lkasi 1398 yilda Amir Temur tomonidan ishg‘ol qilinib, uning davlati tarkibiga kiritilgan edi. Dehli sultonlarining bu yerdagi sobiq mulklarini boshqarish huquqi Sohibqiron tomonidan Sayid Xizrxonga topshirilgandi. Keyinchalik, uning o‘g‘li Muborakshoh (1421–1434) hukmronligi davrida ham bu yerlardan tushgan daromadlarning bir qismi soliq sifatida temuriylarga to‘lab borilar edi. Shu asosda **“Buyuk Temur zabt etgan o‘lkalarning qonuniy vorisi”** sifatida Bobur, bu viloyatlarni **“yo kuch bilan yoki tinchlik yo‘l bilan”** temuriylar tasarrufi ostiga qayta kiritish va idora etishni maqsad qilgandi: *“Chun hamisha Hinduston olmoq xotirda edi, bu bir necha viloyatlarkim, Bhira va Xushob va Chanob va Chanut bo‘lg‘ay, necha mahal turk tasarrufida edi, bularni xud mulkimizdek tasavvur qilur yeduk. Zo‘r bila yo sulh bila o‘zimizning mutasarrif bo‘lurimizg‘a mutayaqqin yeduk. Bu jihattin bu tog‘ eli bila yaxshi maosh qilmoq vojib va lozim edi”[Бобур, 2002:224a].* Shu sabab, Bobur bu yerdagi mahalliy aholini tinchlantirish va ko‘nglini hotirjam qilish maqsadida, o‘z askarlarini bu hududni talon-taroj qilish va aholisiga zarar keltirishni qat’iy taqiqlaydi: *“Farmon bo‘ldikim, hech kim bularning gala-qoralarig‘a, balki ip uchi, igna sinurlariga atrof va navohida zarar va nuqson yetkurmasun”.* Ushbu

maqsadlarni ko‘zlab, Bhira viloyatiga Boburning vakili Abdurahimbek yuboriladi. Natijada Bhira hukmdori Alixon (Lahor hukmdori Davlatxonning o‘g‘li) Boburga shaharni qarshiliksiz topshiradi.



Tarixiy Panjob o‘lkasi
(Xarita muallifi A.Sharipov)

Ayni vaqtda, Bobur Temur avlodlariga tegishli bo‘lgan barcha yerlarni, ya’ni Bhira va unga tutash bo‘lgan Panjob viloyatlarini qaytarib berishni talab qilib, Mavlono Murshidni Dehliga, Sulton Ibrohim huzuriga elchi qilib jo‘natadi. Biroq, Panjob hokimi Davlatxon Lo‘diy Boburning mazkur elchisini Lahorda to‘xtatib, turli bahonalar bilan ushlab qoladi. Bobur Jelam va Chinob daryolarini kechib o‘tib, Lahorga qarab yo‘l oladi. Dehli tomondan ham, Davlatxonga jazo berish uchun Sulton Ibrohim Lo‘diyning Bahodirxon, Muborakxon Lo‘diy va Biharxon Lo‘haniy boshchiligidagi qo‘shini yaqinlashib kelayotgan edi. Davlatxon qo‘rqqanidan Lohorni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi. Bobur Shashkuruh nomli mavzega yetganda Sulton Ibrohimning bu qo‘shini bilan to‘qnashib, g‘alaba qozonadi. Lohurda to‘rt kun turib, janubga qarab qo‘shin tortadi, qisqa fursatda Dipalpur va Sahrind (Sarhind) ham egallanadi. Bu yerda Boburga Davlatxon o‘z o‘g‘illari bilan itoatlik maqomida kelib qo‘shiladi. Biroq, Bobur Davlatxonga Lohur taxtini qaytarib bermaydi. Zero u Davlatxonning asl rejasidan, makr-hiylalaridan ogoh edi. Shu sabab, Davlatxonga otasining boshqa

yerlarni – Jalandhar va Sultonpur shaharlarini in'om etadi. Bundan Davlatxon norozi edi, sababi u Boburni qaytib ketishiga qattiq umid bog'lagandi va qanday yo'l bilan bo'lsa ham uni ortga, Kobulga qaytib ketishiga sabablar axtarib turardi.

Boburning Pokiston yerlariga, hususan, Panjobga qilgan yurishi o'z natijalariga ko'ra ancha muvaffaqiyatli kechgan edi, chunki u Bhira, Xushob, Chinob hududini o'z davlati tasarrufiga kiritib, barcha joylarda yaqin safdoshlari orasidan vakillarini tayinlagandi: *"Bhira viloyatini Hindubekka.... Chanob viloyatini Husayn ikrakka inoyat qilib berduk... Bhira bila Sind daryosining orasidag'i viloyatlarni va ellarni, misli, Qorluq, Hazora, Haatiy, G'ayosvol va Keb Muhammad Ali jang-jangga inoyat bo'ldi"[Бобурнома,2002: 228a, 232a]*. Bu hududning barchasi katta strategik ahamiyatga ega edi, chunki Bhira shahri "Hindustonga kirish eshigi" hisoblanardi.

Ayni paytda Qandahor va Badaxshondagi vaziyat murakkablashib, Boburni Kobulga qaytib ketishiga sabab bo'ladi. Bundan foydalangan Davlatxon esa, Boburning bu yerdagi noiblariga qarshi qo'shin tortib, Sultonpur, Dibalpur, Sialkot va Kalanjar qo'rg'onlarini qayta egallab oladi.

1525 yil oxiriga kelib, Boburning qo'l ostida faqatgina Lohur viloyati qolgan edi. Panjobning qolgan hududlari yana Davlatxon va uning to'ng'ich o'g'li G'ozixonga o'tib ketgandi.

1525 yilning noyabrida Bobur Panjob masalasini hal qilish hamda Hindistonning qat'iy ravishda fath etish maqsadida Kobuldan yo'lga chiqadi. Bu Boburning Hindistonga qilgan beshinchi va so'nggi, hal qiluvchi yurishi edi.

Boburning 1526 yil 21 aprelda Panipat maydonidagi Sulton Ibrohim ustidan ishonchli g'alabasi Pokiston va Shimoliy Hindistonda, Dehli sultonligining salkam 300 yillik tarixiga yakun yasab, Lo'diylar sulolasi hukmronligiga chek qo'ygan so'nggi zarba bo'ldi. Boburning o'zi ham mazkur g'alabasini iste'dodi, shaxsiy mahorati va tajribasidan emas, balki kamtarona tarzda, "taqdirning unga ko'rsatgan inoyatidan" deb biladi: *"Bu hol va bu quvvat bila tavakkul qilib, o'zbakdek yuz ming qari yog'iyni orqada qo'yub, Sulton Ibrohimdek qalin cheriklik va vase' mulkluk podshoh bila ro'baro' bo'lduk.* ***Tavakkulimizga yarasha Tengri taolo ranj va mashaqqatimizni zoyi' qilmay, mundoq zo'r g'animni mag'lub qilib, Hindustondek keng mamlakatni maftuh ayladi. Bu davlatni o'zumizning zo'r va quvvatidin ko'rmasbiz, balki Tengrining mahzi lutf va shafqatidindur va bu saodatni o'zumizning sa'y va himmatidin bilmasbiz, balki Tengrining ayni karam va inoyatidindur***"[Бобурнома, 2002:269a].

Bu Bobur tomonidan Pokiston va Hindiston yerlarini zabt etilishiga oid qisqacha ma'lumotlar xronologiyasi edi. "Boburnoma"da Hindiston yurishi asnosida Pokiston hududidagi 100 dan ziyod joy nomlari eslatilgan. Garchi ushbu joylar haqida mazkur maqolada to'liq ma'lumotlar berolmasak-da, quyida "Boburnoma"da tilga olingan Pokistondagi ba'zi toponimik joylar haqida to'xtalib o'tmoqchimiz.

ABUHA – Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatidagi, Svat (*Savod suyi*) daryosining chap sohilida joylashgan hozirgi Aboxa shahri. Yaqin atroflarida YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan mil.av. I asrga tegishli yodgorliklari (“Shahri Bahlul” qal’a xarobasi; “Taxti-Boxiy” buddaviylik ibodatxonasi) bor.

“Boburnoma”da 925 (1519-1520) yil voqealari bayonida eslatilgan. Temuriylar davrida Abuha Savod viloyati tarkibida, yusufzayi afg‘on qabilalari yashagan. Bobur 925h (1519) y. Savodda isyon ko‘targan yusufzayilarga qarshi bir necha bor yurish qiladi. Qo‘zg‘olonni tinch yo‘l bilan hal etish maqsadida, Bobur Yusufzayi qavmining boshlig‘i Malik Shohmansurning Bibi Muboraka (Afg‘oniy Og‘acha) ismli qizini o‘z nikohiga oladi. Natijada Shohmansur va uning ukasi Tovusxon yusufzayilar ham Boburga el bo‘lib, xizmatiga o‘tadi: *“Dushanba kuni, jumodiussoniy oyining g‘urrasida Shoh Mansur boshliq Yusuf Zayi afg‘oniyning ulug‘larig‘a xil’atlar kiyduruldi, Shoh Mansurg‘a qumosh to‘n, jiba va tugmasi bila, yana biriga yalaklik qumosh to‘n, yana olti kishiga qumosh to‘nlar kiydurub, ruxsat berildi. Andoq muqarrar bo‘ldukim, Abuhadin yuqqori Savod viloyatig‘a daxl qilmag‘aylar va jami’ raiyatlarni ichlaridin chiqarg‘aylar, yana Bajavr va Savodta ekan afg‘onlar olti ming harvor oshlig‘ devong‘a tushurgaylar*” [Бобурнома, 2002: 236аб].

AKRIYa (Akriya) – Pokistonning Panjob viloyatida, Jelam va Chinob daryolari oralig‘ida joylashgan hozirgi Akriyanvala (Akrianwala) shahri. Bobur 1519 yilda Panjob viloyatini egallab, bu yerdagi shahar va tumanlarga o‘z noiblarini tayinlaydi. Panjobning Sialkot, Bimrugiriy va Akriya viloyatlariga Vali Qizil mas’ul bo‘lgan edi. Biroq Bobur Panjobni tark etib Kobulga qaytib ketishi bilan Davlatxon Lo‘diy bu o‘lkalarni qayta egallab oladi: *“Vali Qizilkim, parganasi Biymrugiriy va Akriyada edi, Siyalkot ko‘magi edi, munda kelib ko‘rdi. Siyalkotni asramag‘on jihatidin itob va xitob maqomida edukkim, arz qildikim men parganaga kelib edim, Xisrav ko‘kaldosh Siyalkottin chiqarida manga xabar ham qilmadi. Bu uzri masmu’ edi. Deyildikim, chun Siyalkotni asramading, Laho‘rda beklarga nega borib qo‘shulmading, mulzam bo‘ldi. Chun ish yovuq edi, aning bu jarimasini parvo qilmaduk”[Бобурнома, 2002:236аб]*.

1526 yil 19 fevralda Panjob viloyati Bobur davlati tarkibiga butunlay kiritilgach, Akriya ham boshqa shaharlar qatorida qayta egallanadi.

ALI MASJID – Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatida, Kobul–Peshavar avtomobil yo‘li ustidagi aholi maskani. Qo‘rg‘oni Xaybar dovonining eng tor qismida, Safedko‘h tog‘ etaklarida joylashgan. Ali ibn Abu Tolib (r.a.) xotirasiga atalgan ziyoratgoh va masjid (mahalliy afsonlarga ko‘ra, bu yerdagi harsangtoshlarda hazrati Alining qo‘l-panja izlari bor) bo‘lganligi sababli “Ali masjid” nomini olgan. Bobur Hindiston yurishini boshlab, 1525 yil noyabr oylarida Haybar dovonini oshib

Ali Masjidga kelib to‘xtaydi. Qo‘rg‘onning kichikligidan Bobur baland tepalikka chodir tikib, o‘zi yuqoridan turub qo‘shinning olov yoqqan mash’aliga mahliyo bo‘lganini yozadi: *“Oxshom andin ko‘chub, Alimasjidg‘a tushuldi. Bu yurtning torlig‘idin doim men bir pushta ustiga tushar edim, cherik eli tamom bir qo‘lda tushar edikim, men tushgan pushta borig‘a mushrif (yondosh) edi. Kecha cherik elining o‘tidin ajab yaxshi charog‘on bo‘lur edi*”[Бобурнома, 2002: 244а].

ALI MASJID SUYI – Haybar daryosi. Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatidagi kichik daryo, soy. Safedko‘h tog‘laridan boshlanib, Xaybar dovoni bo‘ylab Ali Masjid hududidan oqib o‘tadi. U yerdan daryo o‘z yo‘nalishini janubi-sharqqa burib, Jamrud vodiysi orqali Peshovar hududiga yetib boradi. Bobur 1519 yil noyabr-dekabr oylarida Hindistondan Kobulga qaytganda ushbu soy orqali Xaybar dovoniga chiqadi va bu yerdagi Xizrxayl pushtun qabilalarining yo‘lto‘sarlik va qaroqchiliklariga barham beradi: *“O‘shul qaror bila suv yoqasidin sahar ko‘chub, Jom[rud]din o‘tub, Ali Masjid suvining chiqishida tushuldi.... Xaybar ko‘talidin oshib, ko‘tal tubiga tushuldi. xizrxaylidin ko‘p noshoyista harakatlar zohir bo‘lub edi....Alarg‘a ta’dibe qilmoq va go‘shmole bermoq vojib va lozim ko‘rundi”[Бобурнома,2002: 244б]*.

ALI MASJID QAL’ASI
Pokiston. Xaybar-Paxtunxva viloyati

ANBAHIR (**Ambahar**) – Pokistonning Xaybar-Paxtunva viloyatida, Svat (Savot) daryosining chap sohilida joylashgan tuman, hozirgi Ambahar shahri va undagi dovon nomi. Bobur davrida ma’muriy jihatdan Bajavr viloyatiga tegishli edi. Bobur 1519 yil bahor oylarida Bajavr viloyatidagi Yusufzayi va Muhammadzayi

afg‘onlarini bo‘ysundirish uchun Anbahir dovoni orqali o‘tganligini eslatadi: *“Anbahir va Paniyaliy yo‘li bila yurub, Hashang‘arning yuqqori yoni bila Savod suyini o‘tub, Yusuf zayining singiri Mohura to‘g‘risi tuzdag‘i o‘lturg‘on afg‘onlarnikim, Yusuf va Muhammad zayi bo‘lg‘ay, ilg‘ob chopmoq kerak*”[Бобурнома, 2002:221а].

ANDAROBA QO‘RG‘ONI (Andarona) – Pokistonning Panjob viloyatida, Islomobod shahrining janubida, Suhon (hozirgi Soan) daryosining chap sohilida joylashgan qadimiy Anderana qo‘rg‘oni. Dehli sultonligi davrida janjuha qabila sardorlari tomonidan boshqarilgan. Boburning xabar berishicha, qo‘rg‘on Malik Hastning otasiga tegishli bo‘lgan, keyinchalik gakkar qabila boshlig‘i Haatiy Gakkar tomonidan vayron etilgan.

1519 yil 17 martida Bobur gakkarlarni bo‘ysundirish maqsadida Andarobaga keladi va qo‘rg‘onni vayron etilganiga guvoh bo‘ladi: *“Panjshanba kuni, oyning o‘n beshida ko‘chub, Andarobag‘akim, Suhon suyining yoqasidadur, tushuldi. Bu Andaroba qo‘rg‘oni Malik Hastning otasig‘a qadimdin taalluq ekandur, Haatiy Gakkar Hastning otasini o‘lturg‘ondin so‘ng, buzulubtur, ul fursatta buzuq edi*”[Бобурнома, 2002:231а].

BAGYALLAR YuRTI – Pokistonning Panjob shtati Talagang tumanidagi hozirgi Bagyal (Bagyal) va Budhial (Budhial) qishloqlari. Savan daryosi (Sind daryosining chap irmog‘i)ning o‘ng sohilida joylashgan. Janubiy hududlaridan sharqdan-g‘arbga qarab Ko‘hi Baal-Naat-Jo‘gi (Koh-e-Baal Naath Jogi) tog‘ tizmasi cho‘zilgan.

Hindiston yurishi mazkur manzil orqali o‘tgan bo‘lib, Bobur 1525 yil dekabr oylarida ushbu yurtda to‘xtaganini eslatadi: *“Sinddin besh ko‘ch ko‘chub, oltinchida Jud tog‘iga payvast Balnat jo‘gining tog‘ining tubida Bagyallar yurti rudqa kelib tushuldi*”[Бобурнома, 2002:254б]. “Boburnoma”da qayt etilgan ***Bagyal rudi*** – Gandiya-Nadi daryosi (Savan daryosining irmog‘i) hisoblanadi.

BAJAVR (Bajo‘r, Bajaur) – Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatidagi qadimiy, tog‘li tuman va vodiy. Hozirgi nomi – Bajaur. Ma’muriy markazi Xor (Kxar) shahri, Kobuldan 290 km shimoli-sharqda joylashgan. Bajavr vodiysi Hindukush tog‘larining Kunar tizmasidagi hushmanzara yerlardir. Aholisi asosan pushtun tilida so‘zlashuvchi tarkaloniy va yusufzayi afg‘onlaridan iborat. Bajavrdan qadimgi Gandxara madaniyati, Kushonlar davriga oid ko‘plab me’moriy obidalar, ibodatxona xarobalari topilgan. Bajavrning janubida, Peshovar vodiysidan ko‘rinib turadigan Kohi-Mor cho‘qqisida, miloddan avvalgi 326 yilda Aleksandr Makedonskiy Niysa (Nysa) qal’asiga asos solgan. 1398 yildan Amir Temur davlati tarkibiga kiritilgan. Kobuldan Hindistonga olib boradigan qadimiy yo‘llardan biri Bajavr orqali o‘tgan. Hududi bo‘ylab Panjkura (Panjkora; Svat daryosining irmog‘i), Jandol (Jandool Kwar), Boboqora (Babukara Kwar) va Vatalai (Watalai Kwar)

daryolari va boshqa katta-kichik soylar oqib o‘tadi. Bajavr qo‘rg‘oni yaqinidan oqib o‘tuvchi Vatalai soyi “Boburnoma”da “Bajavr suyi”, Jandol daryosi esa “Chandoval rudi” deb atalgan. Bajavr “Boburnoma”da Kunar, Nurgil va Savod viloyatlari bilan chegaradosh sifatida eslatiladi. Bobur Bajavrga yurish qilganiga qadar bu yerda mustaqil Bajavr (Jahongiriylar) sultonligi mavjud bo‘lgan. Mazkur viloyatni temuriylar tasarrufiga qayta kiritish maqsadida, Bobur 1518 yilda u yerga o‘z elchisini yuboradi, biroq Bajavr sultoni itoat etishdan bosh tortadi: *“Bajavr qo‘rg‘onig‘a zo‘rlamoq doiyasi bila Bajavr qo‘rg‘onining yaqinig‘a tushub, Dilazok afg‘oniydin bir mu’tabar kishini Bajavrg‘a yibordukkim, Bajavr sultonig‘a va elig‘a nasihat qilg‘aykim, qulluq maqomida bo‘lub, qal’ani topshurg‘aylar. Ul jam’i besaodati johil nasihatni qabul qilmay, parishon javoblar yibordilar. Farmon bo‘ldukim, cherik eli to‘ra va shotu va qo‘rg‘on olmoq asbobi tayyor qilg‘aylar*”[Бобурнома,2002: 216б].

Bajavrning burj (minora) va qalin mudofaa devorlari (boru) bilan o‘ralgan mustahkam qo‘rg‘onini zabt etish uchun Bobur zamonaviy qurol – to‘fanglardan unumli foydalanadi. To‘fangdozlar qal’a devorlari ustidagi mudofaachilarni o‘qqa tutib, narvonlardan chirmashib chiqayotgan Bobur jangchilarini himoya qilib turgan. Shu tariqa askarlar qo‘rg‘ondan oshib o‘tib, qisqa muddatlarda uni zabt etishga muvaffaq bo‘lishgan: *“Tengri taoloning lutfu inoyati bila mundoq mazbut va mustahkam qo‘rg‘on ikki-uch soati nujumiyda fath bo‘ldi*”[Бобурнома,2002: 218а]. Asirga tushganlarning deyarli barchasi ozod etiladi, faqat sultonlari va itoatsizlik ko‘rsatganlar jazolanadi. Bobur Bajavr fathi munosabati bilan Kobul, Badaxshon, Qunduz va Balx viloyatlariga fathnomalar yuboradi. Bajavr zabt etilgach, ushbu viloyatga sodiq beklaridan Xoja Kalonni hokim qilib tayinlaydi. Biroq keyinchalik uni o‘z huzuriga chaqirtirib olib, Bajavrga Mir Husaynbekni yuborgan. Boburning Savod va Bhira viloyatlariga yurishi Bajavr orqali amalga oshirilgan. Bajavrning isyonkor va itoatsiz aholisini tinch yo‘l bilan bo‘ysindirish maqsadida, Bobur 1519 yilda yusufzayi qabilasining boshlig‘i Shohmansur bilan tinchlik shartnomasi doirasida, uning qizi Afg‘oniy Og‘acha (Bibi Muboraka)ga ham uylanadi.

BAJAVR TOG‘LARI – Hindukushning Kunar tog‘ tizmalarii. Kobulga nisbatan sharq tomonda joylashgan. Uncha baland bo‘lmasa-da, xarsang va o‘tkir qoyatoshlar uni oshib o‘tishni qiyinlashtirib, tabiiy himoya qal’asi vazifasini o‘tagan. “Boburnoma”da tog‘ning suvlari, o‘simlik va hayvonot olami haqida muhim ma’lumotlar berilgan: *“Yana bir Nijrov va Lamg‘onot va Bajavr va Savod tog‘lari qalin noju va chilg‘o‘za va balut va zaytun va xanjaqliq tog‘lardur... Bu tog‘larda Hinduston jonivorlari bisyordur, misli to‘ti va shorak va tovus va lucha va maymun”* [Бобурнома,2002 140б]. Bobur Hindistonning hayvonot olami haqida yozganida ba’zan ularni Bajavr viloyati hayvonlari va o‘simliklari bilan qiyoslaydi. Bajar tog‘larida Bobur bug‘u va marallarni ovlaganini ham eslatadi: *“Panjshanba kuni,*

oyning o‘n sekkizida Bajavr bila Chandoval arosidag‘i tog‘ni ovladuk. Bu tog‘ning bug‘u, marali qop-qora ranglik bo‘ladur. Quyrug‘u yana bir o‘zgacha ranglik, g‘olibo mundin quyi Hinduston bug‘u, marali tamom qop-qora bo‘lur”[Бобурнома, 2002:219a].



Bajavr tog‘lari

BALNATJO‘GI – Pokistonning Panjob shtatida, Potoxar platosining janubidagi hozirgi Ko‘hi Baal Naat Jo‘gi (Koh-e-Baal Naath Jogi) tog‘ tizmasi, boshqa nomi Ko‘hi Namak (Tuzli tog‘). Jelam daryosining Kaxan va Bunxar (Balxan) irmoqlari orasida joylashgan. Tosh tuzi konlariga boy bo‘lib, bu yerda qadimdan katta miqdorda tuz olingan. Ushbu tog‘ ibodatxona nomidan olingan. Balnat (to‘g‘risi Bolenatx) Shiva xudosining nomlaridan biri bo‘lib, “miskinlar homiysi” ma’nosini bildiradi. Qadimdan hindularning quyoshga sig‘inadigan joyi. Tog‘ning baland cho‘qqisi (975 m) *Tilla Jo‘giyon* (panjob tilida – “jo‘gilar cho‘qqisi”, “avliyolar tepaligi”) deb ataladi. Bu yerda jo‘gilar (yoga bilan shug‘ullanuvchilar)ning ibadatxonasi hozir ham mavjud bo‘lib, hindularning muqaddas ziyoratgohlaridan biri sanaladi.

Bobur Hindistonga kirib kelayotganida 1525 yil dekabr oylarida ushbu tog‘ etagida to‘xtab o‘tgan va uning Jud tog‘i bilan tutash ekanligini ham qayd etgan: *“Sinddin besh ko‘ch ko‘chub, oltinchida Jud tog‘iga payvast Balnat jo‘gining tog‘ining tubida Bagyallar yurti rudqa kelib tushuldi*”[Бобурнома,2002: 254б].

Abulfazl Alomiyning ma’lumotiga ko‘ra, Akbarshoh ham ushbu toqqa, “Balnat ziyoratgohiga” tashrif buyurgan va bu yerning qadimiyligidan hayratda qolgan. Keyinchalik Jahongir mirzo ham ko‘p marta ushbu joyga tashrif buyurgan ekan.

BANGASh (Bangish) – Kobul viloyatidagi tuman (viloyat ham sanaladi). Bu mintaqa hozirgi Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatiga tegishli Kohat, Txal, Bannu va Spinghar shaharlari (shuningdek, Afg‘onistonning Paktiya viloyatidagi ayrim hududlar)ni o‘z ichiga olib, shimolda Ko‘hi Safed (Sping‘or) tog‘i janubda Sulaymon tog‘larigacha bo‘lgan tarixiy hududni qamrab oladi. Bangash bila Ningnahorni Ko‘hi Safid tog‘lari ajratib turadi. Hududi bo‘ylab Kurram, Ko‘hat, Qaytu, Tochi va Sind daryosining boshqa irmoqlari oqib o‘tadi.

Bangash eli asosan dehqonchilik (guruch va bug‘doy yetishtirish) bilan shug‘ullanishadi. Aholisi pushtu tilining Afridi-pashtu dialektida so‘zlashadi. Bangash atrofida xugiyoni, xirilji singari afg‘on qabilalari yashab, Boburga itoat etishni istashmagan. Bobur Kobulni egallagan yiliyoq bu tumanni bo‘ysundirish uchun yurishlar qilgan. Bu harakatlarda Boburning ulug‘ begi Qosimbek qavchin keksayib qolganiga qaramay qattiq shijoat ko‘rsatgan. Shu sababli Bobur Bangashni Qosimbekka juldu tarzida in’om qilgan. Bobur boshqa viloyatlarni bo‘ysundirish va Hindistonni zabt etish bilan band bo‘lgan davrda Bangash qabilalari yana itoatdan bosh tortgan: *“Menga ham ulug‘ ishlar orag‘a tushti, misli Qandahor va Balx va Badaxshon va Hindiston fathi, bu sabablardin Bangashning zabtig‘a fursat bo‘lmadi. Tengri rost kelturib fursat topqach, Bangashning qutto‘ut-tariqi bila zabtig‘a mutaayyindurmen*”[Бобурнома, 2002:139б].

BANGASh RUDI – hozirgi Kurram daryosi, Afg‘onistonning Paktiya va Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatlaridan oqib o‘tuvchi transchegaraviy daryo, Sind daryosining o‘ng irmog‘i. Daryoning o‘rta havzasi hozir ham “Bangash” deb ataladi. Uzunligi 88 km. Ko‘hi Safid (Sping‘or) tog‘laridan boshlanib, Txal (Tall) va Bannu orqali o‘tib, Isohayl shahrining janubidan Sind daryosiga quyiladi. Qadimda Mo‘ltondan Gardiz orqali Kobulga eltuvchi yo‘l ushbu daryo bo‘ylab o‘tgan. “Boburnoma” Kurram daryosi viloyatning asosiy suv ta’minoti sifatida eslatilgan: “Bangash rudi Bannug‘a chiqar, Bannu bu suv bila ma’murdur”[Бобурнома, 2002:148а].

BANNU – Pokistonning Xaybar Paxtunxva viloyatida, Kurram (*Bangash rudi*) va Gambil daryolari orasida joylashgan tuman va shahar. Shahar sifatida miloddan avvalgi 1-ming yillikda vujudga kelgan. Avestoda “Varna (Varnu) shaklida tilga olingan. Sulton Mahmud G‘aznaviy mazkur tuman orqali bir necha bor Hindistonga yurish qilgan. Bobur davrida Dehli sultonligi tarkibida bo‘lgan.

“Boburnoma” da Kobulning janubidagi tarixiy o‘lka sifatida eslatilib, uning aniq chegaralari qayd etilgan: *“...Bannu tup-tuz yerda voqi’ bo‘lubtur. Shimoli Bangash va Nag‘arning tog‘laridur... Janubi Cho‘pora (Sulaymon tog‘lari) va Sind suyidur, sharqi Dinkot, g‘arbi Dashtkim, Bozoru-Tok ham derlar”*. Bannudan Kobulga eltuvchi yo‘l asosan uch yo‘nalish bo‘yicha amalga oshirilgan: shimoli-sharqiy yo‘nalish – Xangu–Ko‘hat–Haybar dovoni orqali Odinapur (Jalolobod) –

Kobul; shimoliy yo‘nalish – Kurram daryosi bo‘ylab Tiyl (Txal) – Purchinor – Bangash tog‘lari orqali Butxok – Kobul; shimoli-g‘arbiy yo‘nalish – Xost (Dasht)– Gardiz–Barakston tog‘lari orqali – Kobul.

Temuriylar davrida bu yerda kuroniy, kiviy, suriy, isoxayliy, niyoziy kabi afg‘on qabilalari yashagan. Bobur Kobulni qo‘lga kiritgandan so‘ng janubiy hududlarga, jumladan, Bannuga yurishlar (1504 y.) qilib, u yerdagi itoatsiz afg‘on qabilalarini bo‘ysundirgan. Bobur qo‘shini Bangash va Nag‘ar tog‘larini oshib o‘tishi paytida yo‘lni yo‘qotib, katta mashaqqatlar bilan Bannuga yetib borgan. Buning uchun Bobur askarlari yo‘lboshlovchi bo‘lgan Malik Busa’id Kamariyni ayblashgan. Bannudagi afg‘on qabilalari toqqa chiqib, mustahkamlanib olishgan. Bobur tomonidan ularga qarshi yuborilgan Jahongir Mirzo kiviy qabilasini itoatga keltirgan [Бобурнома,2002:145б]. Qabila boshlig‘i Shodixon Bobur huzuriga o‘t tishlab kelgan. Bu odat ramziy ma’noga ega bo‘lib, taslim bo‘lish, itoat etishni anglatar edi. Bobur bundan ta’sirlanib, kiviy qabilasidan tushgan asirlarni ozod qilgan.

BAHAT SUYI – Pokistonning Panjob viloyatidan oqib o‘tuvchi kichik daryo. Chinob daryosining o‘ng irmog‘i (Vazirobod, Qodirobod shaharlaridan oqib o‘tib, Jalolpur yaqinidan Chinobga qo‘yiladi). Hozirgi kunda ham “Bahat daryosi” (Bahat Nala) deb yuritiladi. Daryoning shimoliy qismidan parallel ravishda Jelam daryosi oqib o‘tadi.

“Boburnoma”da Hindistonning boshqa daryolari qatorida sanab o‘tilgan. Bobur Bhira viloyatidan oqib o‘tuvchi daryo sifatida eslatadi: *“Namozi peshin bo‘la Bhira elig‘a zarar va zahmat tegurmay, Bhiraning sharqida Bahat suyining yoqasida bir zorda tushuldi...Andin ko‘chub, Bahat suvining Jelamdin quyiroq guzar bila kechib tushtuk... Chanob suvi yoqasida tushuldi. Yo‘ldin borib, Bahlulpurkim, xolisa edi, sayr qilduk...Sahrinddin shimol sari boqa olti daryokim, Sind va Bahat va Chanob va Raviy va Biyah va Satlaj bo‘lg‘ay*”[Бобурнома, 2002:224, 255, 273а].

BAHLULPUR – Pokistonning Panjob viloyati, Gujrot tumanidagi hozirgi Behlolpur (Behlolpur) shahri. Sialkotdan taxminan 48 km shimolda, Chinob daryosining o‘ng sohilida joylashgan. Dehli sultoni Bahlulxon Lo‘diy hukmronlik (1451–1489) yillarida qurilgan. Qo‘rg‘oni baland jar ustida barpo etilgan bo‘lib, uchta daryoning (shimoliy qismida Jammu-Taviy va Manavar-Taviy daryolari Chinobga chap va o‘ng irmoq sifatida) kelib qo‘shilishi natijasida ajoyib tabiiy manzara hosil qiladi. Bahlulpurning go‘zal tabiati, qulay joylashuvi, salqin obi havosi Boburga juda ma’qul kelgan va sharoit taqozo etsa, Siyalkotda yashagan aholining bir qismini ushbu manzilga ko‘chirishni ham niyat qilgan: *“Bahlulpurkim, xolisa edi, sayr qilduk. Qo‘rg‘oni Chanob suvining yoqasida baland jar ustida voqi’ bo‘lubtur, Xeyli xotirg‘a yoqti. Siyalkot elini munda kelturur xayol qilduk. Inshoolloh fursat bo‘lg‘och-o‘q kelturulgusidur”*[Бобурнома, 2002:255а*]*.

Bahlulpur nomli shahar va qishloqlar Hindistonning boshqa hududlarida ham mavjud: 1) Bihar viloyati, Patna sh.ning shimolida, Gandak daryosining o‘ng sohilida; 2) Uttar-Pradesh shtati, Ayodhiya shahrining janubida, Gomati daryosining (Ganganing irmog‘i) o‘ng sohilida; 3) Haryana shtati, Panipatning shimolida, Jamnaning o‘ng sohilida.

BIYLA – Pokistonning Balujiston viloyatidagi shahar. Mehtar Sulaymon tog‘larining janubi-sharqida, Mastung (Dasht) shahridan janubda, Kular daryosining o‘ng sohilida joylashgan. Tabiati quruq, tog‘ va dashtdan iborat, aholi chorvachilik bilan shug‘ullanadi. “Boburnoma”da Mo‘lton viloyatiga tegishli qasaba, uning hududidan oqib o‘tuvchi daryoni esa “Biyla suyi” sifatida eslatilgan: *“Dashttin ko‘chub Mehtar Sulaymon tog‘ini domanalab janub sari boqa yurub, ... Multon tavobii kentlaridin Biyla suyining yoqasidag‘i Multon tavobii kentlaridin Biyla degan qasabachag‘a yetishildi*”[Бобурнома, 2002:150б].

BIYMRUGIRIY (Bimrugiriy) – Panjob viloyatidagi tarixiy tuman, hozirgi Pokistonning Jelam va Chinob daryolari oralig‘ida joylashgan. Amir Temur Hindistonni egallaganidan so‘ng Shohrux va uning vorislari tasarrufida bo‘lgan. Sulton Abusa’id zamonida Temuriylar hokimiyatidan ajralib chiqqan, ammo Bobur o‘z tasarrufiga kiritib, Vali Qizilni hokim etib tayinlagan.

BOBOQORA (Boboqaro) – Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyati, Bajavr vodiysidagi aholi maskani, shu nomdagi soy va chashma. Bajavr qo‘rg‘onining shimolida, hozirgi Shayh Bobo (Shaikh Bāba) qishlog‘iga to‘g‘ri keladi. Chashma o‘rnida avliyo Shayh Bobo Karam ziyoratgohi mavjud. Ziyoratgoh janubidan Panjkura daryosining irmog‘i Jandol daryosi oqib o‘tadi. Boboqora soyi ham hozirda shu nom bilan Babukara (Babukara Kwar) deb ataladi.

1509 yili Bobur Bajavr qo‘rg‘onini egallaganidan so‘ng, mazkur chashma bo‘yida dam oladi: *“[Bajavr] qo‘rg‘on fath bo‘lg‘ondin so‘ng, ... Tonglasi ko‘chub, Bajavrning julgasida Boboqaro chashmasiga tushuldi*”[Бобурнома, 2002:218б]. Bu yerda u asirga tushgan Bajavr elini ozod qilib, ularning ahli ayollarini qaytarib beradi. Bajavr zabti to‘g‘risida Kobul, Badaxshon, Qunduz va Balxga fathnomalar jo‘natadi.

BOZOR VA TOQ (Bozoru-Tok) – Pokistonning Xaybar Paxtunxva viloyatida, Janubiy Vaziriston o‘lkasidagi hozirgi Tonk tumanidagi Bozoyi qishlog‘i va Tonk shahri. Tuman markazi Tonk (Tok, Tonk تاک / تانک) shahri, Darai Ismoilxon shahrining shimoli-g‘arbida, Sind daryosining chap irmog‘i bo‘lmish Tonk-Zam (Tank-Zam) daryosining o‘ng sohilida joylashgan. Bozoyi qishlog‘i esa, Tonk shahridan 20 km g‘arbda joylashgan. Qishloq nomi Pokiston va Afg‘onistonda yashovchi Bozoyi (Bazai) pushtun qabilasi nomidan olingan. Bozoyi qabilalari, asosan, Balujistonning tog‘li hududlarida, jumladan Kvetta, Bannu, Mastung (Dasht), Darayi Ismoilxon tumanlarida istiqomat qilishadi.

Garchi mazkur hududlar Bannu viloyatining janubida joylashgan bo‘lsada, biroq “Boburnoma”da Bannuning g‘arbida deb ko‘rsatilgan: *“(Bannuning) g‘arbi Dashtkim, Bozor va Tok ham derlar*”[Бобурнома,2002: 148a]. Agar Hindistondan Afg‘oniston tomon yurilsa, u holda Bozoru-Tok hududlari, Bobur qayd etganidek, Bannuga nisbatan g‘arbda joylashganini ko‘rishimiz mumkin.

BORA SUYI – Pokistonning Xaybar-Paxtunxva viloyatidagi kichik daryo, Kobul daryosining o‘ng irmog‘i. Daryo yuqori havzasida Rajgal deb nomlanadi. Sping‘or (Safedko‘h) tog‘laridagi Tira darasi va vodiysi (hozirgi kunda Varsak to‘g‘oni)dan boshlanib, Bora shahri orqali Peshovarning janubi-sharqidan oqib kelib, Akbarpur shahri yaqinidan Kobul daryosiga qo‘yiladi.

“Boburnoma”ning 909h (1503-1504) yil voqealari bayonida eslatilgan. Bobur Xaybar dovonini oshib Jamrud orqali Bora daryosini kechib o‘tib Bangash, Ko‘hat va Hangu elini bo‘ysundirish uchun qo‘shin tortgan: *“Uluq ixtiyor kishi Kuhat sarini maslahat ko‘rub, o‘zining muddaosining isbotig‘a necha tonuq ham o‘tkardi yesa, suv o‘tmakni va Hinduston azimatini fasx qilib, Jomdin ko‘chub, Bora suyini o‘tub, Muhammad Pix dobonig‘a yovuqroq kelib tushuldi*”[Бобурнома, 2002:146a].

Bora daryosining Peshovar sharqida joylashgan Choxa-Gudjor qishlog‘i hududidan oqib o‘tuvchi qismida, Shohjahon davrida, 12 arkali toshko‘prik barpo etilgan. “Bora ko‘prigi” nomi bilan mashhur bo‘lgan mazkur ko‘prikning uzunligi 92 m, eni 5,5 m.ni tashkil etib, bugungi kunda ham faoliyat ko‘rsatadi.

“Bora ko‘prigi” - Shohjahon davrida qurilgan 12 arkali toshko‘prik. Peshovar tumani Choxa-Gudjor qishlog‘i.

Xulosa qilib aytganda Pokiston hududida Bobur tilga olgan yoki qadami yetgan joylar, qolaversa, Boburiylar davri bilan bog‘liq me’moriy yodgorliklar, osori atiqalar bisyordir. Bugungi kunda pokistonlik hamkasb olimlarimiz bilan birgalikda mazkur joylarni ilmiy o‘rganish uchun keng miqyosda hamkorlik ishlari olib borilmoqda.

“Boburnoma”da keltirilgan geografik obyektlar va joy nomlarining ilmiy ahamiyati
Scientific significance of geographical objects and toponyms mentioned in “Boburnoma”

Jo‘rabek NAMOZOV[1]
Mirdavlat MIRISLOMOV[2]

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”asari o‘zida geografiya faniga aloqador bo‘lgan ulkan ilmiy meros jamlagan bo‘lib, “Boburnoma”da geografik ma’lumotlar talaygina. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy merosining geografik jihatlari talqin qilingan va “Boburnoma”da keltirilgan geografik hududlar va obyektlarning tavsifi berilgan. Ayrim joy nomlari va terminlar izohi hamda “Boburnoma” asarida ochib berilgan geografik qonuniyatlar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, Zahiriddin Muhammad Bobur, toponimika, geografiya, gidronimlar, oronimlar.*

Abstract: Zahriddin Muhammad Babur’s work “Baburnoma” contains a huge scientific heritage related to the science of geography, and "Boburnoma" contains a lot of geographical information. The article interprets the geographical aspects of Zahriddin Muhammad Babur’s scientific heritage and describes the geographical areas and objects mentioned in “Boburnoma”. An explanation of some place names and terms and information about the geographical laws revealed in the work “Boburnoma” are given.

Key words: *Baburnoma, Zahiriddin Muhammad Babur, toponymy, geography, hydronyms, oronyms.*

Zahiriddin Muhammad Bobur tarixda nafaqat shoh, sarkarda, Hindistonda Boburiylar sulolasining asoschisi sifatida, balki buyuk olim, shoir, tarixchi, sayyoh, geograf, o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondasi sifatida ham o‘chmas iz qoldirgan. Boburning sarguzashtlarga boy hayoti o‘zining ilmiy me’rosi “Boburnoma” asarida keltirilgan. Ushbu asar XV asr oxiri XVI asr boshlarida O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tabiati, xalqlari tarixi, har bir tasvirlanayotgan hududning geografik o‘rni, iqlimi, o‘simliklari, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi va umuman Boburning Farg‘ona vodiysida o‘tgan yoshlik yillaridan to

[1] *Jo‘rabek Namozov* – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Geografiya kafedrasi dotsenti, (g.f.f.d),
[2] *Mirdavlat Mirislomov* – talaba, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Hindistonda podsholik qilgan yillarigacha bo‘lgan voqea-hodisalarni o‘z ichiga olgan asardir.

Asar va unda keltirilgan tarixiy voqealar hamda geografik obyektlar yuzasidan O‘zbekiston, Rossiya, Germaniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Turkiya, Pokiston, Afg‘oniston, Italiya, Hindiston kabi mamlakatlarning olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan va olib borilmoqda. Masalan, 1980-1985-yillarda dunyoning eng nufuzli tashkilotlaridan biri – UNESCO tashabbusi bilan “Boburnoma” fransuz tilida bosib chiqarilganligi unga bo‘lgan qiziqishni benihoyat katta ekanligidan dalolat beradi [Sobirova, 2024:1].

“Boburnoma” – geografik va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o‘z davridagi ko‘plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmon va cho‘llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar jamlangan. “Boburnoma”ni g‘arb tillariga tarjima qilgan J.Leyden, V.Erskin va boshqalar bu mumtoz kitobga, asosan, tarixiy asar sifatida yondashib, o‘z tarjimalariga yozgan so‘zboshi va izohlarida uni XV asr oxiri va XVI asr boshlarida O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aniq tasvirlovchi tarixiy hujjat, ana shu hududlarning jo‘g‘rofiyasi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, etnografiyasi haqida ishonchli ma’lumot beruvchi manba deb baholaganlar.

Bunga misol tariqasida Andijon tasvirini keltirish mumkin:

“Andijondurkim, vasatta voqe bo‘lubdur, Farg‘ona viloyatining poytaxtidir. Oshlig‘i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidin yaxshiroq noshpoti bo‘lmas” [Bobur, 2019:46].

“Boburnoma” asari orqali Zahiriddin Muhammad Boburni onomastik olim sifatida ham bilamiz.

Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik bo‘limiga onomastika deyiladi.

Atoqli otlar nomlanuvchi obyektiga ko‘ra bir nechta guruhlarga bo‘linadi:

1. Shaxs va ularga qo‘yilgan nomlar antroponimlar: Ahmad, Karim va boshqalar.

2. Geografik obyektlar va ularning nomlari toponimlar: Shirmonbuloq, Qorako‘l, Qarshi kabi.

3. Hayvon nomlari va ularga atab qo‘yilgan nomlar zoonimlar: To‘rtko‘z, Bo‘ribosar [Nurmonov, 2013:337].

Asarni o‘qib borar ekanmiz, bularning barchasini uchratamiz, shaxslar, o‘rin-joylarning nafaqat nomlarini, balki barchasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishamiz, ularni o‘rganamiz.

Endi asarda berilgan toponim turlari bilan tanishib chiqsak:

Shahar va qishloq nomlari:

Qoshg‘ar, Samarqand, Badaxshon, Xo‘jand, Fanokat, Shohruhiya, Turkiston, Andijon, Kesh, O‘sh, Marg‘inon, Isfara, So‘x, Xushyor, Voruhyana, Toshkent, Xo‘jand, Kobul, Konibodom, Axsikat, Koson, O‘ratepa, Qubo , Hisor, Termiz, Balx, Astrobod, Buxoro, Zomin, Kandahor, Xorazm, Kesh, Itmak, Pop, O‘ratepa, O‘zgan, Saripul, Qorabog‘, G‘azna, Odinapur, Ningnahor, Lag‘monot, Alishang, Mil, Kunar, Lamata, Nurigul, Bajavr, Chag‘onsaroy, Nijrov, G‘urband, Mitakacha va shu kabilar

Mamlakat nomlari:

Afg‘oniston, Hindiston, Xitoy, Xuroson, Mo‘g‘uliston kabi mamlakat nomlarini uchratamiz.

Tog‘ nomlari: Olatog‘, Saretog‘, Olg‘tog‘i, Metar Sulaymon tog‘i, Murg‘on tog‘i, Shovdor tog‘i, Shunqorxona tog‘i, Kirmosh tog‘i, Xoja Ismoil tog‘i singarilar.

Daryolar nomi: Gang daryosi, Amu daryosi, Oqsuv daryosi, Jun daryosi, Saygun daryosi, Saru daryosi, Satluj daryosi, Ilamish daryosi, Sind daryosi, Daryi Xo‘r kabilar [Axmedova, 2022:3].

Bobur o‘z asarida o‘rni kelib qolganda gidronimlarning ba’zilariga mufassal to‘xtaladi, ularni atroflicha izohlaydi. Xususan, hozirgi Sirdaryo haqida quyidagilarni qayd etadi: “Sayxun daryosikim, Xo‘jand suyiga mashhurdir, sharq va shimoli tarafidan kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tib, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shoxruxiyaga mashhurdir, o‘tib yana shimolga mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondan xili quyiroq bu daryo tamom xumga singar, hech daryoga qotilmas” [Bobur, 2019:60]. Ko‘xak suyi xususida mana shu ma’lumotlarni keltiradi: “Ko‘xak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki quruh bo‘lgay. Bu suv bila Samarqand orasida bir pushta tushubtur, Ko‘xak derlar. Bu rud muning tubidan oqar uchun Ko‘xak suyi derlar. Bu suvdin bir ulug‘ rud ayiribturlar, balki daryochadur, Darg‘om suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar. Samarqanddin bir shar’iy bulg‘oy. Samarqandning bog‘ot va mahalloti va yana necha tumonoti bu suv bila ma’murdur” [Bobur, 2019:104].

Shuningdek, asarda oronimlar, ya’ni tog‘ nomlari haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. Bobur “Boburnoma” da oronimlar haqida to‘xtalganda o‘sha tog‘, dara, kutallarning joylashgan o‘rni, foydali qazilmalari, o‘simliklar va hayvonot olami, yo‘llari, iqlimi, gidrografiyasiga oid muhim ma’lumotlarni keltirib o‘tadi. Chunonchi, Xo‘jand yaqinida joylashgan tog‘ xususida shunday deb yozadi: “…daryoning shimol tarafida bir tog‘ tushubtur, Munugip otliq, derlarkim, bu tog‘da firuza koni va ba’zi konlar topilur. Bu tog‘da bisyor yilon bor”.

“Boburnoma”ni o‘qir ekanmiz, unda ko‘plab geografik nomlarning etimologiyasiga doir asosli ilmiy fikrlar bayon qilinganligini ko‘ramiz. Darhaqiqat,

Bobur joy nomlarini tilga olganda, ba’zan ularning qanday ma’no anglatishiga, nima uchun shunday nom olganligiga e’tibor beradi, bu haqida o‘z mulohazalarini kitobxon bilan o‘rtoqlashadi. Chunonchi, Boburning Kandibodom shahri nomining ma’nosi to‘g‘risidagi fikri diqqatga loyiqdir. Kandibodom hozirda Tojikiston Respublikasiga qarashli hudud bo‘lib, Konibodom shaklida yoziladi va shunday talaffuz qilinadi. Mahalliy aholining fikriga ko‘ra, Konibodom toponimi ikki qismdan: kon va bodom so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, “bodom koni” ma’nosini bildiradi. Aslida mazkur oykonimik nomning birinchi qismidagi kon so‘zining ko‘p, mo‘l, serob ma’nosiga hech qanday aloqasi yo‘qligini, u aslida “kand” so‘zi bo‘lib, “shahar” ma’nosida qo‘llanganligi, binobarin, Kandibodom “bodom shahri”, “bodomli shahar” ma’nosini anglatishini biz “Boburnoma” mutolaasi orqali bilib olamiz [Sobirov, 2021:2-3].

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozim, Zahiriddin Muhammad Bobur mamlakatni, o‘lkani, undagi shaharlarning geografik joylashuvini, iqlimini, relyefini, tog‘, daryo, o‘simlik va hayvonot dunyosini batafsil bilgan. Boburning fikriy doirasi nihoyatda keng, xotirasi esa nihoyatda tengsiz, haqiqatda kishini hayratda qoldiradigan darajada bo‘lgan. Undagi keng qamrovli ma’lumotlar shu darajada qimmatliki, mana besh asrdan buyon tarixchilar, geograflar, tilshunoslar, sharqshunoslar, etnograflar, adabiyotshunoslar va botaniklarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Uni koinotdagi, tabiatdagi barcha narsalar qiziqtirgan. Shu boisdan Zahiriddin Muhammad Boburni mubolag‘asiz mashhur sayyoh, geograf olim deb atashimiz mumkin.

Adabiyotlar

1. A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, N.Qosimov. 2013. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Ilm ziyo”.
2. J.Z.Sobirov. 2021. “Boburnoma”da joy nomlari toponimikasi // – Toshkent. Pedagogik fanlar bo‘yicha akademik tadqiqotlar.
3. M.U.Axmedova. 2022. Toponimika fanining rivojida “Boburnoma” da keltirilgan o‘rin-joy nomlarining ahamiyati.
4. Z.M.Bobur. 2019. Boburnoma. – Toshkent: Fan.
5. Sh.S.Sobirova. 2024. “Boburnoma” asarida keltirilgan ayrim geografik obyekt va hududlarning tavsifi // sai. №special issue 39.

“Boburnoma”da Sulton Husayn Mirzo obrazi
The image of Sultan Husayn Mirza in “Boburnoma”.

Ilhom ASLONOV[1]

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma”da Sulton Husayn Mirzo obrazining badiiy-psixologik tasviri haqida so‘z boradi. Uning shaxsiga haligacha yetarli darajada e’tibor berilmaganligi, bu borada “Boburnoma” eng ishonchli manbalardan biri ekanligi ta’kidlanib, ushbu tarixiy shaxs tasvirining muhim tomonlari badiiy-psixologik jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Sulton Husayn mirzo obrazi, insoniy sifatlar, axloq va atvor, iearxik munosabatlar, xolislik va haqqoniylik tamoyili.

Abstract: The article talks about the artistic and psychological portrayal of the image of Sultan Husayn Mirza in "Boburnoma". It is emphasized that his personality has not been paid enough attention, "Boburnoma" is one of the most reliable sources in this regard, and the important aspects of the image of this historical person are analyzed from an artistic and psychological point of view.

Key words: the image of Sultan Husayn Mirza, human qualities, morals and character, hierarchical relations, the principle of impartiality and honesty.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida eng ko‘p ta’rif va tavsif etilgan tarixiy shaxslardan biri Sulton Husayn Mirzodir. Bobur tomonidan “karimutarafayn” deb e’tirof etilgan Sulton Husayn mirzo 1438 yilda Hirot shahrida tavallud topgan. “Karimutarafayn” – so‘zi (ikki tomonlama ulug‘) uning ota tomonidan Temurning ikkinchi o‘g‘li Umarshayx mirzoga, ona tomonidan esa Mironshohga tutashganligi bildiradi.

“Valodati sekkiz yuz qirq ikkida Hirida Shohruhmirzo zamonida edi. Sulton Husayn mirzo binni Mansur binni Boyqaro binni Umarshayx binni Amir Temur onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi.Sulton Husayn mirzo Mironshoh mirzoning ham nabirasi bo‘lur edi. Sulton Husayn mirzo karimuttarafayn (ikki taraflama ulug‘) edi…” [Бобур, Бобурнома, 2002:128]

“Boburnoma”dagi Sulton Husayn mirzo obraziga baho berilar ekan aksariyat hollarda Boburning u haqida yozgan tanqidiy fikrlariga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Lekin Boburning tarixiy shaxslar haqida bildirgan fikrlarini bugungi kun qolipi bilan o‘lchash noto‘g‘ri bo‘lardi. Bizda tarixiy asarlarda tanqidiy fikr bildirilgan shaxslar haqida bir tomonlama keskin salbiy munosabat paydo bo‘ladi. Lekin Boburning

[1] Ilhom Aslonov – filolog, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent, kafedra mudiri

tarixiy shaxslar badiiy-psixologik obrazlarini ta’riflash va tavsiflashdagi xolislik va haqqoniylik tamoyillariga amal qilganligi, ulardagi ijobiy hamda salbiy xususiyatlarni yaqqol va aniq misralarda bayon qilganligi, o‘quvchining matn ichidagi ma’lumotlarga e’tiborli bo‘lishini, aynan bir tarixiy shaxsning obrazini tasavvur qilishda Bobur tilga olgan har bir qisqa ma’lumot va detallarga e’tibor qaratishini talab qiladi.

Keling, avvalo Bobur tasvirlagan Sulton Husayn mirzoning ijobiy sifatlariga e’tibor qarataylik.

“Shakl-u shamoyili: qiyiq ko‘zluk, sher andom (qomat) bo‘yluq kishi edi. Belidin quyi inchka(ingichka) edi. Bovujudkim, ulug‘ yosh yashab, oq soqolliq bo‘lub edi, xushrang qizil, yashil abrishimni (ipak) kiyar edi. Qora qo‘zi bo‘rk(telpak) kiyar edi, yo qalpoq. Ahyonan iydlarda kichik sepech (uch o‘ram) dastor(salla)ni yap-yassi namoyomon chirmon (o‘ralgan) chirmab, qarqara o‘tag‘asi (podsholi jig‘asi) sanchib, nomozg‘a borur erdi.”

Yuqoridagi misralarda Boburning Sulton Husayn mirzoga bo‘lgan munosabati u ishlatgan o‘xshatish va iboralardan sezilib turadi. Xususan unga nisbatan ijobiy munosabat “sher andom bo‘yluq” iborasini qo‘llashi, shuningdek, uning kiyimlari va undagi kichik detallargacha e’tibor qaratganligi o‘z davrida Sulton Husayn mirzoning ko‘pchilik uchun havas va taqlid obyekti bo‘lganligidan darak beradi.

Agar biz bu tavsiflarni Sulton Husayn mirzoning Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan portreti bilan qiyoslasak, adib fikrlarining haqqoniyligiga to‘la ishonch hosil qilamiz va uning portret tasviri ustasi ekanligini bilib olamiz. Bobur ulug‘ hukmdorning shakl-shamoyilini chizish jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari va insoniy fazilatlarini teran ilg‘ashga ham intiladi [https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/bobur-husayniy-haqida.html].

Sulton Husayn mirzoning axloqi va atvori haqida “Boburnoma”da shunday deydi: “Avval taxt olg‘onda xayoli bor ekandurkim duvozdah imomni xutbada o‘qutg‘ay. Alisherbek va ba’zilar man’ qilibturlar. So‘ngralar xud jami’ ish-kuchi sunnat va jamoat mazhabi bila muvofiq edi. Mafosil zahmati jihatidin namoz qila olmas edi, ro‘za ham tutmas edi” [Бобур, Бобурнома, 2002:128]. Bobur yuqoridagi ma’lumotlarni xolisona aytib o‘tadi hamda bu masalaga o‘z xulosa va munosabatini bildirmaydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, hukmdorlik etiketi, o‘zaro muomaladagi iearxik munosabatlar, hukmfarmon shaxslarga nisbatan hurmatni saqlash temuriy sulola shahzodalari tarbiyasiga singdirilgan. Vaholanki, Bobur o‘z o‘rnida oddiy amirlar hamda beklar borasida gap ketganda “benamoz va fosiq kishi erdi” degan qat’iy hukmlarni chiqaradi.

Hukmdorlar masof va urushlarini bayon qilar ekan Bobur nafaqat buyuk strateg sifatida harb ishiga baho beradi, balki tajribali ruhshunos sifatida ham shaxs xarakteri, layoqat hamda sifatlarini tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi. Xususan, Sulton

Husayn mirzoning Xuroson mulki uchun olib borgan urushlaridagi g‘alabalari haqida batafsil gapiradi, so‘nggida esa “jahongirlik, va lashkarkashlik ranj va taabin tortmadi...” deya xulosa qiladi.

Chunki, Sulton Husayn mirzo Hirot taxtiga o‘tirgandan keyin faqat o‘z hududini saqlab qolish hamda farzandlari bilan nizolarini bartaraf qilish uchungina janglar olib bordi va “mulkgirlik doyasi”ga amal qilmadi, Bobur ta’biri bilan aytganda, “... borgan sayi navkar va viloyati kam bo‘ldi va ortmadi” [Бобур, Бобурнома, 2002:129].

Bobur kishilarini ta’riflashda, ularning xulq-atvori, qilmishlariga baho berishda “saj” san’atidan g‘oyatda unumli foydalanadi. U sajni matnni bezovchi, uning badiiyligi oshiruvchi vosita sifatida emas, balki, fikrning psixologik ta’sirini kuchaytiruvchi, o‘zining emotsional munosabatini namoyon etish vositasi sifatida qo‘llaydi. Xususan, yuqoridagi misolda o‘zining afsus nadomatini bildiribgina qolmay, balki shaxsning qilmishlari uning taqdirini belgilab berishi haqidagi mantiqiy xulosani ham bayon qiladi: “...jahongirlik, va lashkarkashlik ranj va taabin tortmadi (shuning uchun) ... borgan sayi navkar va viloyati kam bo‘ldi va ortmadi”.

O‘zini Temur davlati vorisi deb his qilgan shahzodalardan biri sifatida Bobur davlat tanazzulini oldini olishni, bobosi tuzgan ulkan davlatni qayta birlashtirishni orzu qiladi va temuriy hukmdorlarga shu nuqtai nazardan talablar qo‘yadi. Shu tufayli u temuriy hukmdorlarning say’i harakatlari, axloqi va turish-turmushini mazkur g‘oya prizmasidan qarab tanqid qiladi.

Sulton Husayn mirzo haqidagi fikrlaridagi achchiq haqiqat ham sulolaning kattalariga ta’na va dashnomdek ta’surot uyg‘otadi: “Chun Xiridek shahr ilgiga tushti, tunu kun ayshu ishrattin o‘zga ishi yo‘q, edi, balki tavobi’ va lavohiqida ayshu ishrat qilmas kishi yo‘q, edi.”

Yana bir o‘rinda, Shayboniyxonga qarshi kurash asnosida Sulton Husayn mirzoning qo‘rg‘on berkitish taklifini bayon qilgan maktubini olganda Bobur “hafsalasi pir” bo‘lib shunday yozadi: “Sulton Husayn mirzodek Temurbek o‘runig‘a o‘lturg‘on ulug‘ podshoh g‘animning ustiga yurumakni demay, yer berkitmakni desa, el va ulusqa ne umidvorlik, qolg‘ay?” [Бобур, Бобурнома, 2002:103].

Sulton Husayn mirzo va uning avlodi haqidagi yakuniy xulosa ham Bobur tilidan achchiq haqiqat sifatida yangraydi. Bu xulosa temuriylar naslidan bo‘lgan ushbu xonadon uchun afsus-nadomat, qilingan gunohlar uchun adolatli jazo muqarrarligi kabi tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgandir: “Sulton Husayn mirzodek ulug‘ podshoh, Hiridek islom shahrining podshohi bu ajabturkim, bu o‘n to‘rt o‘g‘lidin uchi valadduz-zino emas edi. Fisq, va fujur o‘zida, o‘g‘lonlarida va el-ulusida asru shoyi’ edi. Ushbularning shomatidin edikim, mundoq xonvodadin yetti-sekkiz yilda bir Muhammad Zamon mirzodin o‘zga osor va alomat qolmadi” [Бобур, Бобурнома, 2002:132].

Yuqoridagi tarixiy faktlardan qat’i nazar Sulton Husayn mirzo shaxsi sharq uyg‘onish davri uchun muhim tarixiy ahamiyat kasb etganligini e’tirofga loyiq. Uning 36 yillik hukmronlik davrida Xurosonda nisbatan tinchlik va osoyishtalik, adolat ustuvorligi hukm surgani bilan bu davr insoniyat tarixidagi noyob sahifalardan biriga aylangan. Albatta, saltanatda ushbu muhitning yaratilishida Navoiyning roli beqiyos bo‘lgani tabiiy – qaerda adolatsizlik ro‘y bergan bo‘lsa, odamlar Amir Navoiyga murojaat etishgan. Ammo ushbu imkoniyat Sulton Husaynning adolatga moyilligi tufayli amalga oshganligi sir emasdir.

Alisher Navoiy o‘rni kelganda o‘ziga ustoz sifatida ko‘rgan tarixiy hukmdor va shoir, shaxsiy sifatlari borasida munozarali xulq –atvor va taqdir egasi bo‘lgan Sulton Husayn mirzo hayoti va ijodini o‘rganish bugungi avlod uchun ham qarz, ham farzdir. Bu borada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari eng muhim, haqqoniy manba sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. 2002. Boburnoma. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, –Tashkent.

Zahiriddin Muhammad Boburning Hindiston madaniyati va ekologiyasi rivojidagi o‘rni (“Boburnoma” asari misolida)
The role of Zahiriddin Muhammad Babur in the development of indian culture and ecology (based on the example of “Baburnama”)

Dilfuza TOSHNIYOZOVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk davlat arbobi va ijodkor Zahiriddin Muhammad Boburning Hindistonga kelishi bilan bog‘liq buyuk o‘zgarishlar: hind xalqi madaniyati, ma’naviyati, me’morchiligi, obodonchiligi va ekologiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘z atrofida ilmli, fozil va donishmand kishilarni to‘plaganligi va ularga homiylik qilganligi, natijada Boburiylar saltanatining gullab-yashnaganligi “Boburnoma” asarida keltirilgan parchalar orqali tasvirlab berilgan.

Kalit so‘zlar: *ekologiya, Javoharla’l Neru, Agra, Hasht behisht.*

Abstract: This article describes the great changes associated with the arrival of Zahiriddin Muhammad Babur, a great statesman and creator, to India: his contributions to Indian culture, spirituality, architecture, landscaping, and ecology; his gathering of educated, virtuous, and wise people around him and his patronage of them, and the consequent flourishing of the Mughal Empire, as illustrated through passages from the "Baburnama".

Keywords: *ecology, Jawaharlal Nehru, Agra, Hasht Behisht, architecture, culture.*

“Tarixi Rashidiy” asari muallifi Mirzo Muhammad Haydar buyuk davlat arbobi, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida: “…U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtovli xislatlarga ega turardi. Turkiy she’rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas. Boburning Hindistonga kelishi tufayli bu o‘lkada buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, me’morchilikda, obodonchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha taraqqiyot yuz berdi”, – deb yozgan edi. Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy”da Boburning Hindiston madaniyatiga qo‘shgan hissasi haqida alohida to‘xtaladi. Bobur haqida zamonning dono kishilari ta’rix, marsiya, qasida va tarkiblar bitganlar. Boburning zamondoshi Mavlono Shihob Muammoyi: “U qobil podshohning yaxshiliklarini aytib va yozib tugatish mahol. Lekin lo‘nda qilib aytganda, uning asli zotida mana bu sakkiz sifat hamma vaqt mujassam edi: birinchisi shuki — muvaffaqiyatlari baland edi; ikkinchisi — himmati arjumand

[1] *Dilfuza Toshniyozova* – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Sharof Rashidov nomli Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi

(aziz himmatli) edi; uchinchisi — viloyat olmoq; to‘rtinchisi — viloyat saqlamoq; beshinchisi — ma’murlik; oltinchisi — Tangri taolo bandalariga turmush kengchiligi (yaxshi ahvol) niyati; yettinchisi — lashkarning ko‘nglini qo‘lga olish; sakkizinchisi — adolat qilmoqlik”, — deb xalq dardi bilan yashaydigan asl shohga xos bo‘lgan ijobiy xislatlarni sanab o‘tadi. Bobur ilm va madaniyat homiysi edi. “Boburnoma”da o‘z zamonasining ahli donishmandlari: ilmi hikmat bobida tengi yo‘q Abulbaqo; o‘tkir ta’bli, nazm va inshoda zavqi baland Zayniddin Xavofiyning nabirasi Shayx Zayn Said; shoir Shayx Abulvohid Forig‘iy; Mir Alisherning musohiblaridan Sulton Muhammad ko‘sa; “Faqiriy” taxallusini olgan Mavlono Shihob Muammoyi kabi iqtidorli ijodkorlar hamda Mavlono Yusufiy tabib; (uni Xurosondan chaqirib olgan edilar, tomirdan ko‘rish va tashxis qo‘yish uning ishi edi) Yana Surx Vadoiy; (turkiy va forsiyda she’r aytardi) zavqi baland Mullo Baqoiy; (“Maxzan ul-asror” vaznida podshohga bag‘ishlab masnaviy bitgandi) Xoja Nizomiddin Ali Xalifa; (xizmat, mahramiyat va vazirlik ishlariga aql, tadbiri bor edi, podshoh oldida shunchalar izzati bor ediki, ko‘p so‘zi ta’biga ma’qul kelardi, tabiblikka ham qobiliyati bor edi) Mir darvesh Muhammad sorbon; (Xoja Ahrorning yaxshi muridlaridan, xushsuhbat kishi edi, fazilatidan podshoh saroyida obro‘-e’tibor topdi) tarixchi Xondamir (xalq orasida mashhur bo‘lgan “Habib us-siyar”, “Xulosat ul-axbor”, “Dastur ul-anvor” va yana boshqa asarlar muallifi) kabi ijodkorlarga ijobiy ta’rif beradi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Boburmirzo o‘z atrofida ilmli, fozil va donishmand kishilarni to‘plagan. Ularga homiylik qilgan. Bu esa Boburiylar saltanatining gullab-yashnashiga sabab bo‘lgan. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javoharla’l Neru shunday yozgan edi: “Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi”. Darhaqiqat, Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o‘zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi. Davlatimiz rahbari haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Boburning ekologiya haqida yozganlarini o‘qisangiz, hozirgi davrda yashaydi, deb o‘ylaysiz”. Darhaqiqat, “Boburnoma”ni o‘qiganda unda bayon qilingan joylarning ekologik holati, ya’ni o‘sha diyorning o‘simlik dunyosi, hayvonot olami, qushlari, yeri, obi-hayoti, iqlimi, giyohlari, meva-chevasi xususida tarixiy va ekologik nuqtayi nazardan bugungi kun uchun ham qimmati yuksak bo‘lgan ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo‘lgan shoh asari *“Boburnoma” tom ma’nodagi ensiklopedik asar. Uning ahamiyati shundaki, asarda muallif asosan o‘zi ko‘rgan-kechirgan, ishtirok etgan hodisalarni yozadi. “Boburnoma”dan filologlar, siyosatchilar, etnograflar, aholishunoslar, geobotaniklar, zoogeograflar, iqlimshunoslar o‘zlari uchun kerakli bo‘lgan juda ko‘p faktik materiallarni ajratib olishlari mumkin. Lekin shuni alohida qayd*

etishimiz kerakki, u tom ma'noda aholi geografiyasiga va uning ajralmas qismi bo'lgan ekologiyasiga bag'ishlangan asar hamdir. Bobur tasvirlagan hamma voqealar ma'lum bir vaqt va bir geografik hududda ro'y bergan. "Boburnoma"da voqealar faqat tasvirdan iborat emas, balki Boburning shaharlarni obodonlashtirishga, shaharlarda bog'lar yaratishga, turli xil madrasalar, jome masjidlari, qasrlar qurishga qo'shgan hissasi keltirib o'tilgan. "Boburnoma"da bayon qilingan tarixiy voqeliklar, faktlar shundan dalolat beradiki, Bobur, nafaqat, o'zi umrguzaronlik va hukmronlik qilgan hududlarning o'simlik dunyosi haqida ma'lumotlar keltiradi, balki ushbu yerlarning iqlim sharoitiga qarab ularni shu yerda moslashtirishga va o'stirishga harakat qiladi. Masalan, Boburning buyurtmasi bilan Agradagi "Hasht bihisht" bog'ida Hindiston sharoitida birinchi bor qovun, uzum, olxo'ri hamda Markaziy Osiyodan olib keltirilgan gullar ekib, o'stirilgan. Bu tajriba o'simliklarni introduksiyalash va iqlimlashtirishning agronomiya va biologiya tarixidagi dastlabki namunalaridan biridir. Tarixiy ma'lumotlar shundan guvohlik beradiki, Bobur Hindistonda shaharlarni obod qilish, quduqlar qazib suv chiqarish, go'zal bog'lar yaratish kabi ishlar bilan mashg'ul bo'lgan. Bundan tashqari, asar geografik va ekologik dalillarga juda boy. "Boburnoma"da Hindiston o'lkasida Boburning ko'z bilan ko'rganlari va eshitganlari bayon etib qoldirilgan. Jumladan, u Hindistonning geografik joylashuviga quyidagicha ta'rif beradi: "Hindiston sharqi va janubi, g'arbi Muhit daryosidir (Hind okeani). Shimoli Hindikush, Kofiriston va Kashmir tog'lari bilan payvastadir va shimoli-g'arbi Kobul, G'azni va Qandahor viloyatlaridir. Hindiston viloyatining poytaxti Dehlidir." Shuningdek, Bobur Mirzo Hindiston o'lkasi bizning o'lkalardan umuman boshqachaligi, suvi va hayvonoti ham o'zgachaligini yozadi. "Hindistondagi ba'zi daryolarning manbayi tog'lardir va mamlakatning aksari yerlari tuz yerlardir. Ko'p shaharlar va viloyatlarda oqar suv yo'qdir, oqar suvi daryolardir, ba'zi yerlarda qora suvlardir. Ba'zi viloyatlarda oqava suvga ehtiyoj kamroq, ularning hosili yomg'irda pishadi, daraxtlarning niholiga bir-ikki yil suv tashiladi, keyin suv aslo tashilmaydi" [Bobur 1993, 299]. "Hindiston hayvonlaridan fillar mashhurdir, ularni "haatiy" deyiladi, Kalpiy viloyatining sarhadlarida bo'lar. Sharqqa borgan sari sahroyi fillar ko'payadi", – deydi muallif, – ...u yerlardan fil tutib keltiradilar. Kurara va Manikpurdin 30-40-mavzelarini ishi fil tutmoqdir. Filning yemog'i ham, ichmog'i ham xartumidadir. Filning ahamiyati bu mamlakatda juda qadrli va cheriklar harbiy maqsadda foydalanishadi, bahosi juda qimmat". "Yana bir jonivor bor", – deydi Bobur Mirzo, – ...bu jonivor Karkdir (karkidon) u kuchda filga teng keladi, ko'pincha g'olib bo'ladi. Uning burnining ustida shoxi bor. Ular Hindistoning Parshovar va Xashnag'ar changalzorlarida bo'ladi. Ular yana Hindistoning Saru daryosi yoqalarida ham bo'ladi. Yana Hindistonning tog'larida kichikroq kiyik va qo'chqor bo'lur deydi, ularning go'shti yumshoq va bisyor bo'ladi. Hayvonlardan maymun

bor, uning bir turi borki, lo‘lilar o‘yin o‘rgatarlar. Ularning tuki sariq, yuzlari oqdir” [Bobur, 1993:301,302]. Bundan tashqari, Hindistonda zaharli katta-kichik ilonlar, jayronlar, tulkilar, har xil qushlar (eng noyobi tuyur (tovus) bo‘lib, u juda chiroyli bo‘ladi) va parrandalar, millionlab hashoratlar borligini yozadi. Bobur Mirzo Hindistonni bosib olgandan so‘ng obodonlashtirish ishlariga Samarqand, Buxoro, Andijon, Marg‘ilondan kelgan ustalar jalb etilgan. Hind ustalari ham kamsitilmasdan, ularga boshqa ustalar bilan tengma-teng miqdorda haq to‘langan. Bobur Hindistonda juda oz muddat – atigi to‘rt yil-u sakkiz oy (1526-1530) hukmdor bo‘lgan. Lekin ushbu davr ichida uning qurilishlarida yuzlab kishilar mehnat qilgan. Bu haqda “Boburnoma”da quyidagi satrlarni o‘qish mumkin: “Nechukkim “Zafarnoma”da Temurbekning “Masjidi Sangan” imoratini qilurda Mulla Sharif mundog‘ mubolag‘a bila bitibdurkim, Azarbayjon va Fors va Hindiston va yana o‘zga sangtaroshlardan har kunda ikki yuz kishi masjidda ish qilurlar edi. Bir Ograda (Agra) ushbu Ograning sangtaroshlaridan mening imoratlarimda har kunda olti yuz sakson kishi ish qilurlar edi, yana Ograda, Sehrida va Biyonada va Dilpurda va Guvalyorda ming to‘rt yuz to‘qson bir sangtarosh har kunda mening imoratlarimda ish qilurlar edi” [Bobur 1993, 292]. Bobur Kobul, Hirot, Samarqand, Buxoro, hatto Makka va Madina shaharlaridagi jome masjidlarini, buyuk shaxslarning maqbaralarini, bog‘larni va boshqa ziyoratgohlarni ta’mirlash uchun har doim sovg‘a-salomlar bilan birga, katta miqdorda oltin va kumush tangalarni (pullarni) ham jo‘natib turgan. Taniqli tadqiqotchi olim Ketrin Esherning fikriga ko‘ra, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistondagi qisqa muddatli hukmronligi davrida Temuriylar davri qurilish uslubini Hindiston me’morchiligiga olib kirishga muvaffaq bo‘lgan. Olim yana shunday ma’lumot beradi: “Bizning kungacha uchta masjid saqlanib qolgan. Panipatdagi “Qobuliy bog‘” va yana boshqa ikki masjid: ulardan biri Sambhalda, ikkinchisi Ayodhiyada qad ko‘targan. Ularning barpo bo‘lishida Boburning o‘zi va aqoriblari bevosita rahnamolik qilishgan” [Бобур, 2016:264].

Shaharlar havosining yengilligi yoki tozaligi, iflosligi, changligi, namligi yoki quruqligi Hindistondagi Peshovar, G‘azna, Bxira, Badjaur, Agra, Dehli, Banoras, Bongola shaharlarining tabiiy geografik o‘rniga, ya’ni qaysi tog‘ etagida, qaysi daryo, ko‘l, dengiz bo‘yida, adir va tekislikda, cho‘lda joylashganligini, ularning tabiatining qulay yoki noqulay tomonlarini nihoyatda sinchkovlik bilan tasvirlab bera olgan. Bobur o‘sha davrdagi shaharlarning arxitekturasini, diqqatga sazovor joylarini, ya’ni: madrasalar, masjidlar, muqaddas ziyoratgohlar, qabrlar, shahardagi bog‘lar, ayniqsa, shahar arkalari (ichki qal’a) haqida batafsil ma’lumotlar bergan. Bobur Mirzo Hindistonni bosib olgandan so‘ng quyidagicha asarida bayon qiladi: “Doim xotiraga yetar edimki, Hindistonning bir ulug‘ aybi budurkim, oqar suvi yo‘qdir, har yerida o‘lturushlik bo‘lsa, charxlar yasab, oqar

suvlar qilib, tahirliq va syoq yerlar yasasa bo‘lur. Oraga kelgandin bir necha kun o‘tib, bog‘ yerlarini mulohaza qildik.. (bu yerda bog‘ bunyod etishadi. Agra shahri) Andoq besafo va xarob yerlar edikim, yuz qarohat va nohushluq bila andin ubur ettuk”. Bobur Mirzo Hindiston ob-havosi issiq va chang-to‘zonliligi va oqava suvning yo‘qligi uchun Bobur hordiq chiqarish uchun o‘ziga bog‘ bunyod ettiradi va charxpalakdan suv chiqaradi (Boburmirzo Jehlam daryosi yaqinida bog‘larda birinchi marta charxpalakni quradi). Bundan bilishimiz mumkinki, hindlar sug‘orish uchun charxpalakdan foydalangan, ko‘p yerlar lalmikor bo‘lib, asosan, yomg‘irda pishgan. Zahiriddin Muhammad Bobur kuchli siyosatchi, boshqaruvchi, adolatli hukmdor bo‘lganligini uning chiqargan farmonlarida va farzandlariga, amirlariga, hokimiyatdagi taniqli kishilarga yozgan maktublarida ko‘ramiz. “Boburnoma”ning 264-sahifasida Boburning Xo‘ja Kalonga yozgan maktubida quyidagi misralarni uchratamiz.

“Zarur ishlar quyidagilardir: eng avvalo, qo‘rgon tartibga keltirilsin, undan keyin zaxira to‘plash, undan keyin kelib-ketuvchi elchilar uchun maosh va oziq-ovqat va yashash joyi xarajatlarini ta’minlash, undan keyin jome masjidi imoratini qurish. Bularning barchasi uchun mablag‘ni tushayotgan daromaddan olib shariat qonun-qoidalariga muvofiq sarf etilsin. Yana karvonsaroy va hammomlar tartibga keltirilsin, yana arkda Ustod Hasan Ali pishiq g‘isht bilan qurib yarmiga yetkazib qo‘ygan imorat bitkazilsin. Bu imoratni Ustod Sulton Muhammad bilan kengashib, yaxshi reja bilan qurish tayinlansin. Agar Ustod Hasan Ali tuzgan avvalgi reja saqlanib qolgan bo‘lsa, imoratni o‘sha reja asosida oxiriga yetkazilsin, imorat rejasi topilmasa, unda o‘zaro kelishib, chiroyli bir rejali imorat solinsin. Hovlisining sahni devonxona hovlisi sahni bilan barobar bo‘lsin. Yana daradan Kichik Kobul sari borib, Buthoq daryosida to‘planadigan to‘g‘onini yaxshi saqlang. Yana G‘azni to‘gonini tuzating, Bog‘i Xiyobon va xiyobonni ham. Yana bu bog‘ning suvi kam unga bir tegirmon suv topib keltirish kerak. Yana Xoja Bastaning g‘arbi-janub tarafida Tutum daradan bir tepalik ustiga suv keltirib, hovuz qazdirib, nihollar ektirgan edim. Kechik ro‘parasiga tushgani va o‘ziga tortadigan joy bo‘lganligi bois “Nazargoh” deb atagandik, bu yerlarga ham yaxshi nihollar ekish kerak. Tartib bilan gulzorlar qilib, atrofiga xushrang va xushbo‘y gullar, rayhonlar ekish lozim” [Бобур 2016, 264]. Biz Boburning Hindiston madaniyati va obodonchiligi borasidagi ishlarining bir qismigagina izoh berdik. “Boburnoma”da bunday izohini kutayotgan shaharlar, qal’alar, qo‘rg‘onlar nomi o‘nlab, yuzlab topiladi. Ko‘rinib turibdiki, Boburning o‘sha davr urbanizatsiyasi haqida bergan ma’lumotlari haligacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Bobur madaniy merosining boshqa qirralarini o‘rganish va uni keng ommaga tanitish tadqiqotchilar oldida turgan vazifalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Madraimov A., Fuzailova G. 2008. Manbashunoslik. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. 2006. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. –Toshkent: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi.
3. Ахмедов Б. 2001. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Toshkent: Ўқитувчи.
4. З.М.Бобур. 2016. Бобурнома. –Toshkent: Шарқ.
5. Ибраҳимов А. 1993. Бобурийлар мероси. –Toshkent: Меҳнат.
6. Сатимов Ғ. 2018. Бобурийлар салтанатида давлат бошқаруви. –Toshkent: Ўзбекистон.

“Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlarining bir-biriga bo‘g‘liqligi
The relationship between the works “Baburnama” and “History of Rashidi”

Zilola SHUKUROVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkala asarning bir-biriga bog‘liqligi haqida so‘z boradi. Asar mualliflarining bir-biri bilan qarindoshligi va ularning do‘stona munosabatlari haqida ma’lumotlar beriladi. Har ikkala asar tarixiy-memuar asar sifatida e’tirof etilishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tarixiy asar, mashhur adiblar, 16-asr hayoti, tarixnavis, tarjimalar

Annotation: This article discusses the connection of the two works. It is given an information about the relationship of the authors and their friendly affection. It is analyzed the recognition of both works as historical-memoir work.

Key words: *historical work, famous writers, the life of 16th century, historian, translations*

Zahiriddin Muhammad Bobur bizning bobokalonlarimizdan biri bo‘lib, kelajak avloddga faxr va g‘urur bilan tilga olib eslanadigan buyuk ajdodimizdir. Bobur Mirzo halqimizning tengi yo‘q farzandi bo‘lib, u turli jabhalarda hamon o‘zining teran fikrli asarlari bilan ilm ahlining qalbidadir. “Mana shunday bizning ajdodlarimiz borligini, ular Andijon farzandi ekanligini hech qaysimiz unutmasligimiz kerak.... Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, marifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. O‘zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm marifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo‘lmaymiz”[Мирзиёев 2018:14]. Bobur Mirzo o‘zining jahon adabiyotining rivojiga munosib hissa qo‘shgan muarrixlardan bo‘lib, memuar asari “Boburnoma”ni yaratgan. Asar dunyoning ko‘plab tillariga o‘girildi. Asar dastlab 1705 yildan Europada tadqiq etila boshlandi.

Xorijiy tadqiqotchilar “Boburnoma”ni avval tijorat maqsadda tadqiq etgan bo‘lsalar, keyinchalik ilmiy adabiy, tarixiy manba sifatida qayta-qayta o‘rganilib, jahon halqlarini bir-biriga bog‘lashda va adabiy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Evropa tarixiy manbalarida Hindiston, Pokiston va Rossiyada "Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi" nomi ostida dunyoga tanilib, jahonning yirik olimlari asarni jiddiy tadqiq qilishgan va xorijda bobur shunoslik sohasini vujudga keltirisgan. “Boburnoma” 1714 yilda ilk bor o‘zbek tilshunosligida Buxoroda Temur Po‘lat ismli shaxs tomonidan tadqiq etilgan. Asarning birinchi nashri 1857 yilda chop etillgan, lekin XX asrning 40 yillarigacha asar ustida ayrim

[1] Shukurova Zilola Fazlidinovna – ToshDO‘TAU tadqiqotchisi

noma’lum sabablarga ko‘ra tadqiqot olib borilmagan. 1947 yili Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligining nishonlanishi tufayli Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi va “Boburnoma”ni tadqiq etishga e’tibor qaratila boshlandi. 2014 yili Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tomonidan Respublikamiz va jahonning barcha boburshunos olimlari ilmiy tadqiqotlari asosida “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan Zahiriddin Muhammad BOBUR entsiklopediyasi chop etilgan. 744 sahifali usbu kitob filologiya fanlari doktori, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademiki, boburshunos Aziz Qayumov rahbarligida o‘zbekistonlik va xorijlik olimlarni jalb etgan holda bir guruh boburshunoslar tomonidan yozilgan. Kitobda Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida tilga olingan so‘zlar, iboralar, voqealar, shaxslar, joy nomlariga ta’rif berilgan. Bu olamshumul voqea esa o‘zbek tilshunosligidagi muhim ahamiyatga molik muvaffaqiyatdir.

Endilikda esa Mirzo Boburning “Boburnoma” va Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asarlari va ularning qay darajada bog‘liqligi haqida so‘z yuritsak. Muhammad Haydar1541-1546 yillarda “Boburnoma”dan ilhomlanib, fors tilida “Tarixi Rashidiy” nomli tengsiz tarixiy-badiiy va fundamental asar yaratadi. Dalillarga asoslangan va Sharq memuarchilik san’atida haqli ravishda o‘zining “Boburnoma”dan keyingi faxrli, ikkinchi o‘rinni egallovchi “Tarixi Rashidiy” asari bir qancha qirralariga binoan, bu asar nafaqat o‘zbek, balki butun O‘rta Osiyo davlatlarining milliy boyligi hisoblanadi. Shuning uchun, hozirgi davrga qadar dunyoda mumtoz adabiyotlar tarjimasi va ularni o‘rganish dolzarblik kasb etib kelgan [Muhammad Haydar Mirzo 2010:18].

O‘zbekiston va jahon tarixchi olimlari “Markaziy Osiyo haqidagi yagona mukammal asar” deb bir og‘izdan tasdiqlagan “Tarixi Rashidiy” nafaqat Mo‘g‘uliston, ayni paytda O‘rta Osiyoning o‘sha davrdagi shaharlari Andijon, Toshkent, Xo‘jand, Sayram, Turkiston, O‘ratepa, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Hisor, Qunduz, Marv va boshqa mamlakatlar: Afg‘oniston, Pokiston, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Kashmirning XV-XVI asrlardagi tarixini o‘rganishda birlamchi asosiy manbalardan bo‘lib xizmat qiladi. Bejiz emaski, mashhur yapon olimi Eyji Mano XV-XVI asrlardagi Markaziy Osiyo tarixini Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarlari tadqiqi asosida yaratish mumkinligini “Bobur va uning davri” fundamental monografiyasi bilan isbotladi. “Chig‘atoy va mo‘g‘ullar tarixini tadqiq qilish uchun biz foydalangan asosiy tarixiy manbalar - Boburning “Boburnoma”si hamda Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asaridir”. – deb yozadi u, - Markaziy Osiyo Bobur hayotligida mo‘g‘ul, chig‘atoy, o‘zbek, qozoq hamda uyratlardan tashkil topgan oltoy xalqlariga mansub bo‘lgan kishilarning faoliyatiga guvoh bo‘lgan. Bu yapon olimi ham asarning beqiyosligiga amin bo‘lib, ilmiy tadqiqlar olib brogan[Muhammad Haydar Mirzo, 2010:6]

Dunyo adabiyotshunosligi va tarjimashunosligida Mirzo Muhammad Haydarning “Tarixi Rashidiy” asari bir necha olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, XIV-XVI asrlar Markasiy Osiyo, jumladan, Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston, qisman Tibatning davlatchilik tizimi, madaniy hayoti, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, xalqaro munosabatlari, shu bilan birga jug‘rofiyasi, etnografiyasi, etnogenezi, tabiati, shu o‘lkada yashab ijod etgano‘sha davrning mashhur insonlarini o‘rganishda tarixiy hujjat sifatida e’tirof etiladi.

“Tarixi Rashidiy” asarining muallifi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, o‘rta asrlar Sharqning ulug‘ muarrixlaridan biri hisoblangan Mirzo Muhammad Haydar Dug‘lot (1499–1551) o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biridir. U Zahiriddin Muhammad Boburning xolasi Xo‘b Nigorxonimning o‘g‘li, ya’ni xolavachchasi bo‘lgan, “Haydar” so‘zining ma’nosi “sher” bo‘lib, bu jihatdan Boburning ismiga o‘xshash.Har ikkala yetuk tarixnavislarning taqdirlari va insoniyat tarixida qoldirgan o‘chmas izlari ham hayratlanarli darajadabir-biriga monanddir. Har ikkalasi Movarounnahrda tug‘ilgan bo‘lsalar-da, voqea-hodisalarga boy jo‘shqin umrlari olis Hindistonda yakun topadi. Mirzo Muhammad Haydarning onasi Xo‘b Nigorxonim Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonimning tug‘ishgan singlisi edi. Mirzo Haydar taqdir taqozosi bilan ota-onadan juda erta yetim qolgach bir necha yillar davomida Boburning panohida va tarbiyasida bo‘ladi. Keyin ayrim sabablarga ko‘ra, uning oldidan ketishga majbur bo‘lib, ko‘p yillar Koshg‘arda yashaydi. Umrining so‘nggi o‘n yilini Kashmirda yashab ijod qiladi. U butun umri davomida Boburga bo‘lgan cheksiz muhabbatini o‘z asari “Tarixi Rashidiy”da ham takror va takror bayon etadi va yuragining tub-tubidagi minnatdorchilik tuyg‘ulari asarda yaqqol sezilib turadi[Мирза Муҳаммад Ҳайдар 2016:22].

Mirzo Haydar kuchli davlat arbobi, yetuk zakovat egasi, juda ulkan hayotiy tajribaga ega, tafakkuri keng, ko‘zga ko‘ringan va mohir sarkarda bo‘lishi bilan birga, iste’dodli tarixchi va atoqli shoir ham edi. U “Tarixi Rashidiy” dek tengsiz memuar asarni yaratgan tarixnavis sifatida tan olinibgina qolmay, shoir sifatida ham Ayoz, ba’zan Ayoziy taxallusi bilan “Jahonnoma”, “Mahmudnoma” dostonlari va qator g‘azal, ruboiy, masnaviy, qit’a, fardlarni yaratgan. Ayoziyning she’rlar to‘plami devoni ham bo‘lgani va u Sharqiy Turkistonda topilgani haqida ma’lumotlar mavjud.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, hozirga qadar tadqiq etilgan ilmiy izlanishlar natijasida bu ikkala mashhur asar O‘rta Osiyo haqida butun tarixini borligicha, ortiqcha mubolag‘alarsiz yozilganini isbotlaydi. Hatto, ikkala tarixnavis mualliflar ham o‘zlarining ushbu asarlarini yaratishda o‘zlari guvoh bo‘lib, O‘rta Osiyo va Movarounnahr haqida yagona tarixiy ma’lumotlarni berishgan. Bu ayniqsa o‘zbek xalqining buyuk va o‘chmas merosidir.

Adabiyotlar

1. Jalilov O.H. 2011. “Tarixi Rashidiy”-O‘zbekiston.

2. Мугинов А.М. 1962. Описание уйгурских рукописей Института Народов Азии.-Москва: Изд-во восточной литературы.
3. Erskine W. 1854. History of India under the two first sovereians the nous of Taimur, Babur and Humaiyn, w. I-II, London,.
4.Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. 2011. Tarixi Rashidiy. Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi, tabdil, isohlar va ko‘rsatkichlar muallifi t.f.n. O. Jalilov. – Toshkent: O‘zbekiston.
5. Muhammad Haydar Mirzo. 2010. Tarixi Rashidiy. Vahob Rahmonov va Yanglish Egamova tarjimasi. – Toshkent: Sharq.
6. Мирза Мухаммад Хайдар. 2010,2016. Та’рих-и Рашиди. Введ., пер. с персидского.
А.Урунбаева, Р.П. Жалиловой, Л.М. – Toshkent: Sharq.

“Boburnoma” asarida qo‘llanilgan evfemizmlarning stilistik talqini
Stylistic interpretation of euphemisms used in “Boburnoma”

Sarvinoz XOLMAMATOVA [1]

Annotatsiya: Mazkur maqolada evfemistik iboralar va ularning turli tillarda mavjudligi tahlil qilinadi. Maqolada evfemizmlarning salbiy mazmunli so‘zlarni yumshatish va uning foydalanish maqsadlari, ularning asosiy turlari bayon etilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, evfemistik iboralar o‘zaro muloqotning muhim vositasi sifatida keng qo‘llaniladi va ulardan foydalanish jamiyatdagi madaniyat hamda axloqiy me’yorlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Maqolada evfemizm haqida turli qarashlar tahlilga tortilgan va ularning har biriga tadqiqotchi o‘z munosabatini bildiradi hamda ularni misollar yordamida dalillab o‘tishga harakat qilinadi. O‘rganilayotgan misollar Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari “Boburnoma”dan keltirilib ularning ishlatilish o‘rni va stilistik ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Evfemizm, leksikologiya, stilistika, lisoniy muhit, evfemistik qobiq, xushmuomalalik, muloqot madaniyati, evfemistik kategoriya.*

Abstract: This article analyzes euphemistic expressions and their existence in different languages. The article describes the purposes of euphemisms to mitigate negative words and their main types. The results of the analysis show that euphemistic expressions are widely used as an important means of communication and their use is closely related to culture and moral standards in society. The article analyzes different views on euphemism and the researcher expresses his attitude to each of them and tries to prove them with the help of examples. The studied examples are taken from Zahiriddin Muhammad Babur’s masterpiece “Boburnoma”and their place of use and stylistic importance are revealed.

Key words: *Euphemism, lexicology, stylistics, linguistic environment, euphemistic shell, politeness, communication culture, euphemistic category.*

Evfemizmlar turli tillarda nutq madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular orqali so‘zlovchi qo‘pol yoki salbiy mazmunli so‘zlarni yumshoq, ko‘ngilga ozor yetkazmaydigan iboralar bilan almashtirib, muloqot jarayonini osonlashtiradi. Evfemizmlar asosan qiyin yoki noqulay ma’lumotni yetkazishda qo‘llaniladi va ko‘pincha salbiy ta’sirni yumshatishga xizmat qiladi. Bunday iboralarning qo‘llanilishi jamiyatdagi madaniyat va axloqiy me’yorlarning aksidir.

[1] Sarvinoz Xolmamatova – Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Evfemizmlar haqida ilmiy manbalarda turli fikrlar mavjud. Odatda, ularning mazmunini yumshatish vositasi sifatida ta’riflanadi. Tadqiqotchilar evfemizmlarning asosiy vazifasi salbiy ta’sirni kamaytirish va o‘zaro muloqotda xushmuomala bo‘lish deb hisoblashadi. Evfemizmlar asosan siyosat, tibbiyot, harbiy xizmat va kundalik hayotda keng qo‘llaniladi. Ular ma’naviy-axloqiy me’yorlarga zid keladigan ma’lumotlarni yumshoq shaklda bayon etishga yordam beradi. Jahon tillari, shu jumladan o‘zbek tilida ham evfemistik so‘zlar va iboralar qo‘llanilishiga alohida e’tibor qaratilgan.

Deyarli barcha tillarda evfemistik iboralar mavjud. Evfemizmlar so‘zlovchilarga xushmuomalalik bilan gapirishga va qo‘pol tilda qiyin xabarlarni ifodalashga imkon beradigan samarali muloqot vositasidir. Evfemistik iboralar tufayli so‘zlovchilar boshqa tinglovchilarning his-tuyg‘ularini ranjitishdan saqlaydilar, ularning turli dunyoqarashlariga hurmat ko‘rsatadilar, xushmuomala va diplomatik bo‘lib qoladilar. Evfemizmlar majoziy tilga tegishli. Ular salbiy ma’noli so‘zlarni ijobiy yoki hech bo‘lmaganda neytral so‘zlar bilan almashtiradilar. Evfemistik tildan foydalanish madaniyatga xos bo‘lib, ma’lum bir mamlakatda qabul qilingan me’yorlarni aks ettiradi. Evfemizmlar odatda odamlar suhbatlarida yoki matnlarda uchta asosiy maqsadda qo‘llaniladi: ritorika, yumshatish va qochish. Birinchi maqsad orqali ishlatilgan ibora tavsifini o‘zgartiramiz, ikkinchisi orqali esa xabarning jiddiyligini kamaytirishga erishamiz. Qochish orqali esa berilgan qo‘pol ma‘noli so‘zni boshqa so‘z bilan almashtirishimiz mumkin.

Evfemizm (yunoncha euphemia – yumshoq ifodalash) – so‘zlovchiga aytish noqulay, noo‘rin yoki qo‘pol tuyulgan so‘z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo‘lgan so‘zlar. Evfemizm salbiy voqelikni atashdan qochish, shunday voqelikning salbiy ta‘sirini yumshatish uchun xizmat qilib, kishining izzat-nafsiga tegadigan, unga malol keladigan, hurmatsizlik ifodalaydigan, axloqiy me‘yorlarga zid keladigan holatlarning yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytish mumkin bo‘lmagan maxfiy voqelikning salbiy ta‘sirini kamaytirish, ularni yashirish, berkitish; noxush xabarni beozorroq, yumshoqroq shaklda yetkazish, ifodalash uchun ishlatiladi. *Masalan: o‘ldi deyish o‘rniga olamdan o‘tdi, vafot etdi, ko‘z yumdi; tug‘di deyish o‘rniga ko‘zi yoridi, yengillashdi kabi iboralardan foydalanish* [Исматуллаев, 1963: 43].

So‘z qo‘llashning turlari ko‘p. Shulardan biri evfemistik qo‘llashdir. Ishlatilishi noqulay yoki tinglovchiga salbiy ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan so‘z va iboralar evfemizlar deb yuritiladi [Бердалиев, Хидиров, 2013: 32].

Evfemizmlar sinonimlarga yaqin turadi lekin, ulardan farqlanadi. Asosiy farqlardan biri evfemizlar so‘z qo‘llash jarayonida paydo bo‘lishida bo‘lsa, ikkinchi farqli jihati hamma so‘zlar ham evfemizm bo‘la olmasligidadir. Chunki hamma so‘zlarda ham salbiylik va ijobiylik bo‘yog‘i mavjud emasligidadir.

Evfemizlik bo‘yog‘iga ega so‘z va iboralarni bir qancha guruhlarga bo‘lish mumkin.

1. Noxush xabar haqida ma’lumot yetkazuvchi evfemizlar. Bu guruhga mansub evfemizmlar so‘zlovchi tomonidan berilayotgan xabarning asosiy markazdagi so‘zi qayg‘uli yoki noxushroq bo‘lganda qo‘llaniladi. Misol uchun “o‘lmoq” so‘zining o‘rniga “vafot etmoq”, “narigi dunyo safariga jo‘namoq”, kabi so‘z va iboralarni qo‘llash mumkin. “Boburnoma” asarida lirik qahramon tilidan ko‘plab shunday evfemistik so‘zlar keltiriladi. Masalan, *Shunqor bo‘lmoq (otasiga nisbatan), tengri rahmatig‘a bordi (Xonzodabegimga nisbatan), dunyoyi foniyni vido‘ qildilar (Mehr Nigorxonim va u bilan asirlikka tuhganlar haqida), olami foniyni vido‘ qildi (Sulton Ahmadga nisbatan), olamdin bordi (Boqi Tarxonga nisbatan), olamdin kechdi (Hasan Yaqubga nisbatan*).

2. Hayvon va hasharotlar o‘rnida qo‘llaniluvchi evfemizlar. Xalq orasida ko‘rinishi qo‘rqinchli shunday hayvon va jonzotlar borki ularning nomi so‘zlashuv nutqida deyarli keltirilmaydi. Chunki o‘zbek xalqining ongida nimani yo‘qlasang u ham seni yo‘qlaydi degan yozilmagan aqida borligidadir. Misol uchun, *ilonga nisbatan “arg‘amchi”, “uzun opam” chayonga nisbatan “nomi yo‘q*” kabi evfemizmlar qo‘llanilishi ko‘p uchraydi.

3. Kasalliklar o‘rnida qo‘llaniluvchi evfemizmlar. Oddiy so‘zlashuv tilida shunday kasallik nomlari borki, ularni boshqa shaxslar oldida gapirish noo‘rindir. Shu sababli tinglovchiga yumshoq eshtilishi uchun ularning aynan ikkinchi nomi keltriladi. Masalan, *suvchechakni “chechak”, qizamiqni “gul” deyilishi keng urf bo‘lgan. “Boburnoma” asarida “zocha” evfemizmi keltiriladi. Bu kasallik ma’nosida kelgan bo‘lib, Mas’uma Sultonbegim shu kasalga yo‘liqqan edi.*

4. Shaxslarga nisbatan qo‘llaniluvchi evfemizlar. Evfemizmlarning bu guruhi keng tarmoqli bo‘lganligi bois ularni o‘z ichida yana guruhchalarga bo‘lishni joiz bildik. *a)shaxslarning jismoniy holatini bildiruvchi evfemizmlar: imkoniyati cheklanganlar - ko‘r, kar, soqov, nogironligi bor shaxslar uchun b)shaxslarning tana a’zolarini bildiruvchi evfemizmlar: ko‘krak-bolani sut bilan ta’minlovchi tananing bir qismi, orqa, old kabi evfemizmlar ham misol bo‘ladi. c)shaxslarning qarindoshlik drajasini bildiruvchi evfemizmlar: padari buzrukvorim, ko‘rar ko‘zim, “Boburnoma” asarida “qiblagohim-otasi Umarshayx Mirzoga nisbatan qo‘llanilsa, “Ko‘kaldosh” – otasi boshqa-boshqa lekin bitta onani emgan emikdosh evfemizmi xolasiga nisbatan qo‘llaniladi*.

5. Turli holat va harakatlarni ifodalovchi evfemizmlar. Evfemizmlarning bu turi qolganlaridan farqli o‘laroq so‘zning o‘zidan emas, balki matndan anglashiladi. Masalan: *Uni o‘z egasiga topshirsak, zimmamizdagi bir yukdan xalos bo‘lardik.* Gap mazmunidan shu anglashiladiki, kimdir uzatilishi “o‘z egasi” –turmush o‘rtog‘iga tezroq uzatilishi haqida gap ketmoqda. “Boburnoma” asarida ham shu guruhga

kiruvchi evfemizlar qo‘llanilgan. Masalan, *1)Xonzodabegim Muhammad Shayboniyxong‘a tushub edi gapida Xonzodabegimning turmushga chiqqanligi haqida gap ketmoqda. 2)Burunlari ko‘p ichar edi, so‘ngralar haftada bir yoki ikki qatla suhbat tutar edi gapida “suhbat tutmoq” birikmasi mast qiluvchi ichimlik ichish mazmunida qo‘llanilmoqda. 3)Sulton Nigorxonimni Sulton Mahmud Mirzog‘a chiqarg‘an edilar gapida qizning uzatilganligi haqida axborot berilgan.*

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, evfemizmlar so‘zlovchi tomonidan so‘zlanganda tinglovchi qulog‘iga yoqimli eshtilishi bilan bir qatorda shaxsning so‘z boylik mahorati shuningdek uning muomala layoqati va madaniyatini ham ochib berishga xizmat qiladi. Evfemizmlar har bir tilning nutq madaniyatida muhim o‘rin tutadi. Ular qo‘pol yoki salbiy so‘zlarni yumshoq ifoda shakllari bilan almashtirib, muloqotda xushmuomala bo‘lish va hurmatsizlik qilishdan qochishga yordam beradi.

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, evfemistik iboralarning qo‘llanilishi jamiyatdagi madaniy an’analar va me’yorlarga muvofiq ravishda shakllanadi, shu bois ular turli tillarda turli shakllarda namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. Бердалиев, А., Хидиров Р. 2013. Ҳозирги ўзбек тили. – Хўжанд.

2. Ергазиева, Н. 1989. Взаимосвязь прозвищ, табу и эвфемизмов в казахском языке Ономастика Узбекистана. – Ташкент.

3. Holder, R.W. 2003. How Not to Say What You Mean: A Dictionary of Euphemisms. –Oxford: Oxford University Press,

4. Исматуллаев, И. 1963. Ҳозирги ўзбек тилида эвфемизмлар. – Тошкент.

5. Ларин, Б.А. 1961. “Об эвфемизмах” Проблемы языковедения. – Ленинград.

6. Мўминов, С. 2001. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. док. ...диссертацияси. –Тошкент.

7. Москвин, В.П. 2007. Эвфемизмы в лексической системе современного русского языка. – Москва: Ленард,

8. Омонтурдиев, А. Профессионал нутқ эвфемикаси (Чорвадорлар нутқи мисолида). – Тошкент.

9. Rut Vaynrib Exletive Deleted: A Good Look at Bad Language, 2005.

10.https://www.wallstreetenglish.ru/blog/evfemizmy-v-angliyskom-yazyke/

“Boburnoma” hamda “Layli va Majnun” asarlaridagi “jon” yadroli frazemalarning qiyosiy-semantik tahlili
Comparative-semantic analysis of phrases with the core “soul” in the works “Boburnoma” and “Layli and Majnun”

Iqbol O‘RAZOVA[1]

Annotatsiya: Frazemalar nutqning eng faol birliklaridan bo‘lib, davrlar osha til egasi tomonidan avloddan avlodga shu tilni o‘zlashtirish jaroyonida o‘tib keladi. Bu birliklarning shakllanishi va semantik taraqqiyotini yozma manbalardagi frazemalarni qiyosan o‘rganish orqali aniqlash mumkin. Shu maqsad bilan ushbu maqolada “Boburnoma” hamda “Layli va Majnun” asarlaridagi “jon” semali frazemalar qiyosan o‘rganiladi, birlik shakllanishida “jon” leksemasidagi faol semaning frazema mazmunidagi ahamiyati ochib beriladi, ikki manbada qo‘llangan frazeologik bilrliklardagi semantik farqlar izohlanadi, mualliflar tomonidan frazemalarga yuklangan okkazional ma’nolar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *leksema, frazema, semema, sema, semantik yadro, integral sema, faol sema.*

Annotation: Phrasemes are one of the most active units of speech, and are passed down from generation to generation by the owner of the language in the process of mastering this language. The formation and semantic development of these units can be determined by comparative study of phrases in written sources. For this purpose, in this article, the phrasemes with the word “soul” in the works “Boburnoma” and “Layli and Majnun” are comparatively studied, the importance of the active word in the lexeme “soul” in the formation of the unit is revealed in the content of the phrase, the semantic differences in the phraseology used in the two sources are explained. the occasional meanings assigned to idioms by the authors are analyzed.

Key words: *lexeme, phrase, sememe, seme, semantic core, integral seme, active seme.*

“Boburnoma” tili va uslubi jihatidan XV asr turkiy til, chunonchi o‘zbek tilini aks ettiruvchi manba, deb qarash mumkin. Chunki, shoh va shoir Bobur asarni yozishda o‘zigacha bo‘lgan nasriy uslublarni davom ettirmadi, aksincha til va uslub jihatidan ancha sodda bo‘lgan, ammo ta’sirli badiiy tilni ma’qul topdiki, “Boburnoma” tili ijodkor mahoratining yaqqol isbotidir. Muallif asar tilini boyitish,

[1]*O‘razova Iqbol Abdikarimovna* – doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

emotsional-ekspressivligini oshirish maqsadida xalq tilida faol qo‘lllangan maqol va frazemalardan umumli foydalangani barchaga ayyon. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, asar tilidagi frazemalarning aksari leksik jihatdan turkiy qatlamga mansub, o‘zlashma so‘zli frazemalar kam uchraydi. Tadqiqotimiz uchun tarkibida “jon” leksemasi ishtirok etgan frazemalarni asardan ajratib olish maqsad qilib qo‘yildi va hasbi holda yigirma to‘qqiz o‘rinda kelgan 16 ta “jon” yadroli frazema aniqlandi.

/r	Frazema	Misoli
	BESH KUNLUK O‘LAR JON	o‘tkinchi umr, hayot, tiriklik: *Bu **besh kunluk o‘lar jon** uchun yamon ot bila bordi (B, 132).*
	BIR JON BIR TAN BO‘L=	hamjihat bo‘lmoq, yakdil bo‘lmoq” (O‘TFL, 2022, 81): *Islom suvoriylarining hashamat va dabdabalari din dushmanlari va kofir lainlarning quloqlariga yetishi bilan muhammadiy millat muxoliflari, ahli islom ка'basini buzishga bel bog‘lagan “as’hobi fil”dek, tog‘ jussa va dev haybat fillarni o‘zlariga madadgor va tayanch qilib, hammalari **bir jon bir tan bo‘lib**, o‘z buzuqi lashkarlarini tartibga soldilar. (B, 688-689).*
	JON BAG‘ISHLA=	o‘lim yoqasidan qaytmoq, tasodifan tirik qolmoq: *Tengri taoloning inoyati bor ekandur, manga yangi boshdin **jon bag‘ishladi** (B, 531).*
	JON BER= I	tiriltirmoq, hayot bag‘ishlamoq (ANATIL, I, 589); o‘lim yoqasidan qaytmoq, tasodifan tirik qolmoq: *O‘shal holda manga andoq holat bo‘ldikim, go‘yo manga yangi boshtin Xudoy **jon berdi**. (B, 198). Tengri manga boshdin **jon berdi**. (B, 530).*
	JON BER= II	o‘lmoq, vafot etmoq (ANATIL, I, 589): *Va ko‘prog‘i o‘shul maydonda **jon berib**, jahannamg‘a ketdilar (B, 666). Barcha jangchilar to‘liq sa ’y va g‘ayrat bilan urushga rag‘bit ko‘rsatib, “Ayt, ikki ezgulikdan boshqa biror narsani bizdan kutadilarmi?” - degan oyatni nazari e’tiborga oldilar va **jon berish** yurishni qilib, jon olish bayrog‘ini ko‘tardilar. (B, 694).*
	JON BERIB, JON OLIB	astoyidil; jonbozlik, fidokorlik ko‘rsatmoq [O‘TIL, 2022, 674]: *Va bori bahodirlar **jon berib, jon olib**, intiqom barqlarini dushm andin uzattilar (B, 665). G‘oziy jangchilar, ayni **jon olib, jon berib** turgan paytda g‘ayb nidochisidan: “Qayg‘irmang, umidsizlanmang, g‘amga tushmang – g‘alaba sizlarda” – degan xushxabar eshitar,.. (B, 696).*
	JON OL=	o‘ldirmoq (ANATIL, I, 589): *Andoq zohir bo‘ldikim, yo‘lda ajal yo‘ldosh bo‘lub, **jonini olib**, jahannamg‘a yiborur (B, 132). Barcha jangchilar to‘liq sa ’y va g‘ayrat bilan urushga rag‘bit ko‘rsatib,*

		“Ayt, ikki ezgulikdan boshqa biror narsani bizdan kutadilarmi?” – degan oyatni nazari e’tiborga oldilar va jon berish yurishni qilib, ***jon olish*** *bayrog‘ini ko‘tardilar. (B, 694).*
	JON TASLIM QIL=	o‘lmoq: *Muhammad Ali Mubashshirbek mening yashgi rioyat qilg‘on beklarimdin edi, xeyli mardona va qobili rioyat, yaxshi yigit edi, jibasi yo‘q, ilgarrak shox solg‘on yo‘lg‘a mutavajjih bo‘ldi, biqinig‘a o‘qladilar, o‘shul zamon* ***jon taslim qildi*** *(B, 270). El qo‘rg‘on eshigida bisyor g‘uluv qiladurlar edi, siyosat uchun bir necha o‘q ottim, yakbor bir qazo o‘qi Humoyun mirzoning qissaxoniga tekgach-o‘q* ***jon*** *bahaq* ***taslim qildi*** *(B, 447).*
	JON TOPSHIR=	o‘lmoq: *Kofirlarning mamlakati majruh va o‘lganlardan jahannamdek to‘ldi va jahannamning eng tubi do‘zox posboniga* ***jon topshirgan*** *munofiqlardan limmo-lim bo‘ldi. (B, 132).*
	JON TORT= / JONLAR TORT=	azob chekmoq, qiynalmoq (ANATIL, I, 590): *Yana bir bukim, bizning sipohi va raiyatni andoq yakdil va yakjihat toptilarkim, to jon va tanlarida ramak va tavon bordur* ***jon tortmoq****din qo‘ymag‘aylar* (B, 32). *Ko‘rsamkim, Qutluq Muhammad barlos va Boboyi Parg‘ariykim, mening* ***jon tortqon*** *navkarlarim o‘n-o‘n besh, yigirma kishi bolg‘ay, yetib keldilar. (B, 198). Sizlaning* ***jon tortib****, qilich chopmoq mahallaringizdur (B, 605). Axsidag‘i beklar va yigitlar yaxshi* ***jonlar torttilar*** *(B, 33). Mundog‘ ulug‘ vaqoye ro‘y berganda Umar Shayx mirzodin qolgan beklar va yigitlar yaxshi qatlanib mardona* ***jonlar torttilar*** *(B, 33). … mo‘g‘ul Abdulvahhobnikim, mundin burnaroq ham mening qoshimda bor edi, Andijon qabalida ham Xoja qozi bila yaxshi yakjihatliqlar qilib,* ***jonlar tortib*** *edi, manga yiborib meni tilabdurlar (B, 128). Qabolda yaxshi* ***jonlar tortti.*** *(B, 402). Holo ne zo‘r kelibtur va ne zarur qilibturkim, mundoq* ***jonlar tortib*** *olg‘on viloyatlarni bejihat solg‘aybiz. (B, 511).*
	JON VAHMI	o‘limdan qo‘rqish: *Olamda* ***jon vahmidin*** *yamonroq nima bo‘lmas emish. (B, 196).*
	JONI AMONDA BO‘L=	tirik qolmoq, o‘limdan qutilib qolmoq: *Bu yo‘sunluq ahd bo‘ldikim, aning* ***joni amonda bo‘lg‘ay*** *(B, 205).*
	JONI CHIQ=	o‘lmoq: *Oxir Seydim Ali darbonning bir o‘bdori navkari birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘an uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida-o‘q* ***joni chiqdi****. (B, 210).*
	JONIG‘A ZARAR TEGUR=	o‘ldirmoq: *Chun ahd qililib edi,* ***jon*** *va molig‘a* ***zarar*** *va nuqson* ***tegurmay*** *Qorategin yo‘li bila Hisor sari ijozat berildi (B, 108).*

	JONLARIDAN KO‘NGIL UZ=	hayotining xavf ostida ekanligini bilgan holda o‘limiga rozi bo‘lmoq: *Oxirda **jonlaridan ko‘ngil uzib**, g‘ulning o‘ng va so‘lida hujumga o‘tdilar (B, 697).*
	JONG‘A YET=	jondan to‘ymoq (ANATIL, I, 588); sabr tugamoq: *Oxir mundoq sargardonliqtin va bu nav’ bexonumonliqtin **jong‘a yettim**. (B, 167). Nozi va ruxsati haddin oshti, biz ham aning axloq va af’olidin **jong‘a yettuk**, ruxsat berduk. (B, 267).*

Aniqlangan 16 frazemaning 8 tasi ikki komponentli, 4 tasi uch komponentli, 4 tasi to‘rt komponentli bo‘lib, fe’l frazemalar 13 tani, ot frazemalar 2 tani, ravish frazema esa bittani tashkil qiladi. Qiyos sifatida aytish mumkinki, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy” asarida 14 ta, Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida 32 ta “jon” yadroli frazema qo‘llangan [O‘razova, 2023:177-178].

Frazemalarning shakllanishida semantik yadro sememasi alohida ahamiyaga ega. Albatta, har qanday birikmaning frazema sifatida shakllanishi va yaxlit ma’no kasb etishida semantik tayanch komponent bilan grammatik munosabatga kirishuvchi so‘zning ham roli salmoqli. “Ammo frazema shakllanishida semantik tayanch leksemaning o‘rni muhimki, ular frazemalarning ma’no tomonini hosil qiladi” [Mamatov, 199:162]. O‘zbek tilida frazemalarning shakllanishida aksariyat hollarda semantik jihatdan ot leksemalar, grammatik jihatdan fe’l komponentli leksemalar faol sanaladi. “Jon” leksemasi yordamida hosil qilingan 16 ta birlikning 13 tasi fe’l frazema ekani ham fikrimiz isboti bo‘la oladi. “Jon” yadroli frazemalar eng qadimgi manbalarda uchrashi leksemaning uzoq davrlardan beri tilda faolligini isbotlaydi. Jumladan, “Qadimgi turkiy lug‘at”da “jon” leksemasi fosrcha o‘zlashma sifatida “ko‘ngil, ruh; hayot” ma’nolarida izohlangan [DTS, 1969, 640] va leksema bilan bog‘liq to‘rtta frazema berilgan. Izohli lu’atlarda “ruh; hayot; kuch-quvvat” sememasi berilgan [O‘TIL, 2022, II: 672] va “jon” leksemasi bilan shakllangan 32 ta frazema izohlangan [O‘TIL, 2022, II: 672-676].

Tahlilga tortilgan “jon” yadroli frazemalar ana shu uch sema: *“ruh”; “hayot”; “kuch-quvvat”* semalaridan hosil bo‘lgan.



“Boburnoma”dagi frazemalarning shakllanishida “jon” leksemasidagi “hayot” semasi faol bo‘lib, 12 ta frazema shu semaning faollashishidan hosil bo‘lgan. Jon leksemasidagi “hayot” semasi asosida ikki xil integral semaga ega frazemalar yuzaga kelgan: tiriklik va o‘lim.

1. Asarda qo‘llangan va “hayot” semasi asosida shakllangan *jon bag‘ishla=, jon ber= I, joni amonda bo‘l=* frazemalari uchun “tiriklik” semasi integral semadir. Voqeanomada *jon bag‘ishla=* frazemasi joni xatarda qolib, o‘lim yoqasidan qaytgan, tasodifan tirik qolgan obraz holatini ochib berish uchun qo‘llangan va “tirik bo‘lmoq” ma’nosini ifodalagan: *Tengri taoloning inoyati bor ekandur, manga yangi boshdin* ***jon bag‘ishladi*** *(B, 531).* Navoiyning “Layli va Majnun”dostonida ushbu frazema polisemantik birlik sifatida uchraydi va “tiriltirmoq” semasidan tashqari “umid bermoq” ma’nosida ham qo‘llanganini ko‘rish mumkin: *Gah so‘z bila elga jon bag‘ishlab, Bir so‘z bila gah jahon bag‘ishlab, (LM, 46-47).*

Ham Bobur, ham Navoiy asarlarida *jon ber=* frazemasi omonim birlik sifatida uchraydi. *Jon bag‘ishla=* frazemasi bilan sinonim xarakterga ega bo‘lgan *jon ber= I* frazema “tiriltirmoq, hayot bag‘ishlamoq” (ANATIL, I, 589) ma’nosini bilan asarning ikki o‘rnida uchraydi va o‘lim yoqasidan qaytgan obrazning ruhiy holatini ochib berishga xizmat qilgan: *O‘shal holda manga andoq holat bo‘ldikim, go‘yo manga yangi boshtin Xudoy* ***jon berdi****. (B, 198). Tengri manga boshdin* ***jon berdi****. (B, 530).* Navoiy ijodida ham frazema ayni ma’noda qo‘llansa-da, kichik semantik farq mavjud. “Boburnoma”da frazema obraz hayotini saqlab qolish holatini ifodalagan bo‘lsa, “Layli va Majnun” dostonida frazemadagi “tiriltirish” semasi bo‘rtib turadi: *Yo‘q ersa mizojidin muvoso, Jon bersa ne sud elga Iso (LM, 71).*

Joni amonda bo‘l= frazemasi esa xavfli vaziyatdan tirik chiqqan obraz holatini ifodalab kelgan va asarda “tirik qolmoq, o‘limdan qutilib qolmoq” ma’nolarini ifodalagan: *Bu yo‘sunluq ahd bo‘ldikim, aning **joni amonda bo‘lg‘ay** (B, 205).* Farzema “Layli va Majnun”da uchramaydi.

“Jon” leksemasining “hayot” semasi asosida shakllangan *besh kunluk o‘lar jon* frazemasi “Boburnoma”da bu hayotning o‘tkinchiligini, chin dunyo o‘limdan so‘ng ekanligini, bu hayot arzimas bir matoh ekanligini ta’kidlash maqsadida qo‘llangan va “o‘tkinchi umr, hayot, tiriklik” semalarini ifodalagan: *Bu **besh kunluk o‘lar jon** uchun yamon ot bila bordi (B, 132).* Bu birlik “Layli va Majnun”da uchramaydi, ammo ushbu frazema *besh kunlik dunyo* tarzida hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llanadi.

2. “Boburnoma”da “jon” leksemasi orqali shakllangan *jon ber= II, jon ol=, jon taslim qil=, jon topshir=, jon vahmi, joni chiq=, jonlaridan ko‘ngil uz=, jonig‘a zarar tegur=* frazemalari “hayot” semasi asosida shakllangan bo‘lib, ular uchun integral sema “o‘lim” semasidir. *Jon ber= II, =, jon taslim qil=, jon topshir=, joni chiq=* frazemalari asarda “o‘lmoq” ma’nosini anglatib, sinonim sifatida qo‘llangan va jang maydonida yoki jazolanish jarayonidagi obrazlarning o‘lim holatini ifodalashga xizmat qilgan: *Va ko‘prog‘i o‘shul maydonda **jon berib**, jahannamg‘a ketdilar (B, 666). El qo‘rg‘on eshigida bisyor g‘uluv qiladurlar edi, siyosat uchun bir necha o‘q ottim, yakbor bir qazo o‘qi Humoyun mirzoning qissaxoniga tekgach-o‘q **jon** bahaq **taslim qildi** (B, 447). Kofirlarning mamlakati majruh va o‘lganlardan jahannamdek to‘ldi va jahannamning eng tubi do‘zox posboniga **jon topshirgan** munofiqlardan limmo-lim bo‘ldi (B, 132). Oxir Seydim Ali darbonning bir o‘bdori navkari birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘an uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida-o‘q **joni chiqdi**. (B, 210).* Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida *jon taslim qil=, jon topshir=* frazemalari uchramaydi, ammo *jon ber= II, joni chiq=* frazemalari ayni ma’noda qo‘llanganini ko‘rish mumkin: *Jonin Majnun so‘zida berdi, Hargiz Layli degil yo‘q erdi (LM, 297). Ul nav’ yiqildi tortibon oh Kim, joni degilki chiqti nogoh. (LM, 94).*

Jon ol= frazemasi “Boburnoma”da ikki o‘rinda qo‘llangan bo‘lib, har ikki holatda ham “o‘ldirmoq” [ANATIL, I:590] ma’nosini anglatib, obrazlarning tashqi ta’sir (jang yoki qatl jarayonida) natijasidagi o‘limini ifodalashga xizmat qilgan: *Barcha jangchilar to‘liq sa’y va g‘ayrat bilan urushga rag‘bit ko‘rsatib, “Ayt, ikki ezgulikdan boshqa biror narsani bizdan kutadilarmi?” – degan oyatni nazari e’tiborga oldilar va jon berish yurishni qilib, **jon olish** bayrog‘ini ko‘tardilar. (B, 694).* Frazema ayni ma‘noda “Layli va Majnun”da ham uchraydi: *Hijron tuni joning olsa bebok, Subh aylar ekin sanga yaqo chok (LM, 205).* Shuningdek, boshqa bir baytda Navoiy frazemani ko‘chma ma’noda qo‘llash orqali “qattiq azoblanmoq” ma’nosini ham ifodalagan: *Jonimni olur g‘ami nihonim, Daf’ ayla-vu yo bag‘ishla*

jonim (LM, 252). O‘z motami birla jismi ranjon, Darding xud olur bu jismidin jon (LM, 289).

“Hayot” semasidan shakllangan *jonlaridan ko‘ngil uz=* frazemasi asarda hayoti xavf ostida ekanligini bilgan obraz ruhiyatini ochib berish uchun qo‘llangan bo‘lib, “o‘limiga rozi bo‘lmoq” ma’nolarini ifodalagan: *Oxirda **jonlaridan ko‘ngil uzib**, g‘ulning o‘ng va so‘lida hujumga o‘tdilar (B, 697).* “Layli va Majnun” dostonida bu frazema uchramaydi, ammo ayni ma’noga yaqin *ko‘nglini o‘lumga qo‘y=* frazema mavjud bo‘lib, “o‘limini kutmoq, o‘limga rozi bo‘lmoq” semalarini ifodalagan: *Umri kemasi vahalg‘a botdi, Ko‘nglini o‘lumga qo‘ydi, yotti (LM, 289).*

Hasbi holda qo‘llangan va “hayot” semasi asosida shakllangan *jonig‘a zarar tegur=* frazemasi inkor shakl orqali “o‘ldirmaslik, hayotini saqlab qolish” ma’nolari ifodalangan bo‘lsa, *jon vahmi* frazemasi “o‘limdan qo‘rqish” ma’nosini anglatib, obrazning real ichki kechinmalarini ochib berishga xizmat qilgan: *Olamda **jon vahmidin** yamonroq nima bo‘lmas emish. (B, 196). Chun ahd qililib edi, **jon** va molig‘a **zarar** va nuqson **tegurmay** Qorategin yo‘li bila Hisor sari ijozat berildi (B, 108).*

“Jon” leksemasining “ruh” semasidan esa *bir jon bir tan bo‘l=, jong‘a yet=* frazemalari shakllangan. *Bir jon bir tan bo‘l=* frazemasi “hamjihat bo‘lmoq, yakdil bo‘lmoq” [O‘TFL, 2022, 81] ma’nosini ifodalaydi. Frazemaning shakllanishiga ruhiy hamfikrlik, qalban bir maqsadni to‘g‘ri deb bilish asos bo‘lib xizmat qilgan. Tanning birligi majoziy ma’noda keltirilgan bo‘lib, g‘oyaviy yakdillikni bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalashga, ma’noni ta’kidlashga xizmat qilmoq: *Islom suvoriylarining hashamat va dabdabalari din dushmanlari va kofir lainlarning quloqlariga yetishi bilan muhammadiy millat muxoliflari, ahli islom ка'basini buzishga bel bog‘lagan “as’hobi fil”dek, tog‘ jussa va dev haybat fillarni o‘zlariga madadgor va tayanch qilib, hammalari **bir jon bir tan bo‘lib**, o‘z buzuqi lashkarlarini tartibga soldilar. (B, 688-689).* Bu frazema “Layli va Majnun” dostonida uchramaydi, ammo hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanadi.

Bobur tomonidan qo‘llangan *jong‘a yet=* frazemasi asarda “1. jondan to‘ymoq; 2. zerikmoq, joniga tegmoq, bezor bo‘lmoq, zeriktirmoq, bezor qilmoq” [ANATIL, I, 588] ma’nolarini ifodalagan. Chunonchi, quyidagi jumlada *jong‘a yet=* frazemasi “jondan to‘ymoq” ma’nosini anglatib, tushkunlikka tushgan, yashashni xohlamagan, o‘limiga rozi bo‘lgan Bobur ruhiyatini ochishga xizmat qilgan: *Oxir mundoq sargardonliqtin va bu nav’ bexonumonliqtin **jong‘a yettim** (B, 167).* Quyidagi jumlada esa frazema “zerikmoq, bezor bo‘lmoq” ma’nosini anglatib, boshqalarning xatti-harakati sabab sabr kosasi to‘lgan obraz ruhiyatini chizishda foydalanilgan: *Nozi va ruxsati haddin oshti, biz ham aning axloq va af’olidin **jong‘a yettuk**, ruxsat berduk. (B, 267).* Frazema “jon” leksemasidagi “ruh, ko‘ngil” semalarining faollashuvidan shakllangan bo‘lib, “Layli va Majnun” dostonida frazema ikkinchi

ma’nosida qo‘llangan, ya’ni dastlabki ma’no asarda uchramaydi: *Mendin seni notavong‘a yetti, Ko‘nglung alamimda jong‘a yetti (LM, 281).*

Asarda qo‘llangan *jon berib, jon olib, jon tort= / jonlar tort=* frazemalari “jon” leksemasidagi “kuch-quvvat” semalarining faollashuvidan yuzaga kelgan. Hozirgi o‘zbek tilida faol qo‘llanuvchi yana bir frazema *jon berib, jon olib* “biror ishda astoyidil g‘ayrat ko‘rsatmoq; jonbozlik, fidokorlik qilmoq [O‘TIL, 2022, 674] ma’nolarini anglatib, voqeanomada ikki o‘rinda qo‘llangan: *Va bori bahodirlar **jon berib, jon olib**, intiqom barqlarini dushmandin uzattilar (B, 665). G‘oziy jangchilar, ayni **jon olib, jon berib** turgan paytda g‘ayb nidochisidan: “Qayg‘irmang, umidsizlanmang, g‘amga tushmang – g‘alaba sizlarda” – degan xushxabar eshitar,.. (B, 696).* Farzema kontaminatsiya natijasida yuzaga kelgan bo‘lib (Kontaminatsiya haqida bu yerdan o‘qishingiz mumkin: https://zenodo.org/records/11108578), *jon bermoq* (o‘lmoq) va *jon olmoq* (o‘ldirmoq) frazemalarining shaklan va semantik qayta shakllanishidan hosil bo‘lgan. Frazema shakllanishida “jon” leksemasidagi “kuch-quvvat” semasi asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lib, biror ish-harakat yoki maqsadga bor kuch-g‘ayratini safarbar qilishni aks ettiradi. “Boburnoma”da ham, “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da ham frazema ikki xil variantda: *jon olib, jon ber=* va *jon berib, jon ol=* shaklida keltirilgan. Agar frazemaning semantikasiga diqqqat qaratsak, hozirgi paytda frazema tarkibidagi *jon olmoq* shakli o‘ldirmoqni emas, aksincha, “qayta tirilmoq”, “jonini qaytarib olmoq” ma’nosini ifodalaydi, shu jihatdan, frazemaning *jon olib, jon ber=* shaklidan ko‘ra, *jon berib, jon ol=* varianti mantiqan to‘g‘ri qo‘llanish sanaladi. Chunki odam avval o‘lib, keyin tiriladi. Ayni ma’noda og‘zaki nutqda qo‘llanuvchi *o‘lib tirilib* frazemasi ham fikrimiz isboti bo‘la oladi.

“Boburnoma”da eng ko‘p qo‘llangan frazemalardan biri *jon tort= / jonlar tort=* birligi bo‘lib, asarning 8 o‘rnida istifoda qilingan. Frazema “azob chekmoq, qiynalmoq” [ANATIL, I, 590] ma’nolarini ifodalasa-da, Bobur bu birlikni ijobiy ma’noda qo‘llaydi va ko‘proq asarda “mardona jang qilmoq” semalarini tashiydi: *Sizlarning **jon tortib**, qilich chopmoq mahallaringizdur (B, 605). Axsidag‘i beklar va yigitlar yaxshi **jonlar torttilar** (B, 33). … Andijon qabalida ham Xoja qozi bila yaxshi yakjihatliqlar qilib, **jonlar tortib** edi, manga yiborib meni tilabdurlar (B, 128).* Ushbu frazemaning shakllanishida ham “jon” leksemasidagi “kuch-quvvat” semasi hosil qilivchi sema bo‘lib, bor kuch-g‘ayrati bilan kurashgan obraz holatini ochib berishga xizmat qilgan. Har ikki frazema Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida uchramasa-da, ijodkorning boshqa asarlarida uchratish mumkin.

Tahlillar asosida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- “Jon” yadroli frazemalar qadimgi manbalarda qo‘llangan faol birliklar bo‘lib, davr o‘tishi bilan bu leksema yordamida shakllangan frazemalar soni ortib borgan.

Buni leksemaning somatizm ekani va birlikning tilimizdagi faol qatlamga mansubligi bilan izohlash mumkin;

- “Boburnoma”da qo‘llangan “jon” yadroli frazemalarning 12 tasi “hayot” semasidan, 2 tasi “kuch-quvvat” semasidan, 2 tasi esa “ruh, ko‘ngil” semasidan hosil bo‘lgan. “Jon” leksemasining bosh semasi “hayot” semasi bo‘lgani uchun ayni sema bilan shakllangan frazemalar miqdor jihatidan ko‘p. Qolaversa, Bobur hayoti jang-jadallarda o‘tgani va asarda o‘lim bilan bog‘liq sahnalarning ko‘pligi ham “tiriklik” va “o‘lim” semantik maydoniga tegishli frazemalarga ko‘proq murojaat qilinishiga turtki bo‘lgan, nazdimizda.

- “Boburnoma”da “jon” yadroli frazemalar ko‘proq obrazlarning jismoniy holatini ochib berishga xizmat qilgan va jang bilan bog‘liq sahnalarda foydalanilgan. “Layli va Majnun” esa bu frazemalar ko‘proq obrazlarning ruhiy holatini, ichki hissiyotlarini aks ettirishga xizmat qilgan.

- “Boburnoma”da qo‘llangan “jon” yadroli frazeologik birliklarning aksariyati o‘zgarishsiz ravishga hozirgi o‘zbek tilida foydalanilishiga tayanib shuni aytish mumkinki, Bobur o‘z asarida XV-XVI asrlardagi turkiy qavmlar, xususan, o‘zbeklarning jonli nutqini namoyon qilgan.

SHARTLI QISQATRMALAR:

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати.

B – Bobur Z.M. Boburnoma.

DTS – Древнетюркский словарь.

LM – Navoiy A. Layli va Majnun.

O‘TIL – O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

O‘TFL – O‘zbek tili frazeologik lug‘ati.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / А.И.Фозилов таҳрири остида. 1983. IV томлик. 1-том. – Тошкент: Фан,– 656 б.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / А.И.Фозилов таҳрири остида. 1985. IV томлик. 4-том. – Тошкент: Фан,– 636 б.
3. *Bobur Z.M.* 2015. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi,– 704 b.
4. Древнетюркский словарь. 1969.– Ленинград: Наука, 677 с.
5. Маматов А. 1999. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиш масалалари. Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент,–Б. 162.
6. *Navoiy A.* 2020.Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, –344 b.
7. *Навоий А.* 2019. Хамса [Матн]: Насрий баён. – Тошкент: Наврўз, – 712 б.
8. *O‘razova I.* 2023. XIV asrning II yarmi turkiy yozma manbalardagi frazemalar tadqiqi. – Toshkent: Book-many print, – 204 b.

9. *O‘razova I.* Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi. [Internet manba]. URL: https://zenodo.org/records/11108578 (Murojaat etilgan sana: 17. 09. 2024)
10. Muhammadiyeva, D. The semantic classification of phrases in “Baburname” and problems of their transfer in Turkish translations. URL: https://www.researchgate.net/publication/343578961 (Murojaat etilgan sana: 19. 09. 2024)
11. Muhammadiyeva D. Semanticeskaa klassifikacia frazem v Baburname. URL https://www.researchgate.net/publication/355780029.(Oxirgi murojaat qilingan sana: 18.09.2024)
12. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2022. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. 1035 b.
13. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. 2022. – Toshkent: G‘afur G‘ulom. 635 b.

Qadimgi turkcha bitiktoshlar va “Boburnoma”dagi mushtarak harbiy istilohlar
Common military terms in ancient turkic stones and “Baburnama”

Ma’rufjon DUSTMURODOV[1]

Annotatsiya: Turkiylar tarixi qanchalik qadimiy bo‘lsa, ularning harbiy ishdagi mahorati va jasorati ham shu qadar tarixiydir. Bu qadar tarixiylikka ega bo‘lgan harbiy ish yuzliklar davomida turkiylar tomonidan rivojlantirilib borilgan. Turkiylar tarixining shonli bosqichi bo‘lmish Turk xoqonligi davridagi harbiy tizim ayniqsa Temuriylar, xususan, Boburiylar davrida yaxshi taraqqiy topgan. Bu qadimgi turkcha bitiktoshlarda qo‘llanilgan harbiy istilohlarning “Boburnoma”da faol tilga olinishida ko‘zga tashlanadi. Zero, bir qancha turkiy davlat uyushmalaridagi mavjud harbiy terminlarning ildizi xoqonliklar davriga borib taqaladi.

Kalit so‘zlar: *harbiy tarix, O‘rxun-Yenisey bitiktoshlari, “Boburnoma”, harbiy terminologiya, harbiy tizim.*

Abstract: The history of the Turks is as old as their military skills and courage. Military work with such history has been developed by the Turks for hundreds of years. The military system during the period of the Turkic khaganate, which is the glorious stage of the history of the Turks, was particularly well developed during the period of the Timurids, especially the Baburis. This is evident in the active mention of the military revolutions used in ancient Turkic inscriptions in “Baburnoma”. After all, the roots of the existing military terms in several Turkic state associations go back to the Khaganate period.

Keywords: *military history, Orkhun-Yenisei inscriptions, “Baburnoma”, military terminology, military system.*

“Boburnoma”da O‘rxun-Yenisey bitiktoshlaridagi harbiy terminlar bilan mushtarak *qaravul, qaroqčï, yayoq/yayov, til, ilγor, čapγunčï, otlïq/otlïγ, ordu* kabi istilohlar tilga olinadi. Asarda qadimiy “kuzatuv, razvedka kuchlari” anglamidagi *qara-* fe’lidan *-vul* mo‘g‘ulcha qo‘shimchasi orqali yasalgan *qaravul* istilohi faol uchraydi. “*Naqora vaqtida qarovuldin xabar keldikim, g‘anim kishisi qochib ketibtur”* [Bobur, 2015:586]. Ushbu so‘zning asosi bo‘lgan *qara* dan yasalgan va harbiy istehkom tushunchasiga aloqador terminlardan *qaraγu(n)* qadimgi turk bitiktoshlari, xususan, Bilga xoqon va To‘nyuquq yodgorliklarida aks etgan: *“Säläŋä qodï yorïpan qaraγu(n) qïslata äbin barqïn anta buzdum* – Selenga

[1] *Ma’rufjon Dustmurodov* – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

(daryosiga) quyi tushib, postni bostirib, uy-joyini buzdim” (Bilga xoqon, 37). Ushbu satrdagi *qarayu(n)* istilohi “dushman hujumidan ogohlantiruvchi harbiy istehkom; soqchixona” ma’nolarida kelmoqda. Aytish lozimki, Temuriylar tomonidan Xitoyga elchi qilib yuborilgan G‘iyosiddin Naqqoshning safarnomasida *qarayu(n)* haqida dushman hujum qilganda chegara harbiy qismlarining o‘zaro tutunli olov bilan bir-biriga xabar berishiga xizmat qiluvchi baland mudofaa inshooti mazmunida ma’lumot berilgan [Ўринбоев 1991, 17; Самарқандий 2008, 428; Дадабоев. 2018 173]. Ushbu qaydlardagi ma’no va vazifa bitiktoshlardagi *qarayu(n)* istilohi anglatgan ma’no va vazifa bilan deyarli bir xildir. Yana bir e’tiborli jihat, To‘nyuquq bitigida “qorovul, qo‘riqchi” ma’nolaridagi *qarγu* termini ham qo‘llanilganki, bu so‘z “Boburnoma”dagi *qaravul* istilohlari bilan bevosita ayni ma’nodadir. *“Yälmä, qarγu ädgüti urγïl, basitmä! – tämiš* – Yelma, yaxshilab qorovul qo‘y, (dushmanga) bostirib qo‘yma! – depti*”* [To‘nyuquq:34]. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit-turk”da *qarγu(y)* haqida shunday yozadi: “qarg‘uy – tog‘ cho‘qqisiga yoki baland yerlarga minoraga o‘xshatib yasab qo‘yiladigan joy. U yerda o‘t yoqilishi bilan dushmandan xabar beriladi va odamlar o‘zlarini ham, mollarini ham qutqarishga harakat qiladilar” [Devoni lug‘otit-turk III, 260]. Bu o‘rinda bitiktoshlardagi *qarγu* istilohini *qaravul* – “qorovul, qo‘riqchi”, *qarayun*ni “qo‘riqchi minorasi” sifatida tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek tilida ushbu so‘zlarning o‘zagidan hosilalangan *qaroqchi* – “yo‘lto‘sar”, *qarog‘* – “qorachiq” va aynan *qorovul* leksemalari mavjud. Qolaversa, o‘zbek tilida faol qo‘llaniladigan *qo‘rg‘on* leksemasining kelib chiqishi ham *qarγu* bilan bog‘liq. O‘zbekistonning ko‘pgina toponimlarida saqlanib qolgan ushbu so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “1. o‘rta asrlarda qalin va mudofaa devori bilan o‘rab qurilgan, asosan, bir darvozali shahar-qal’a”; “2. qal’a, shahar, qo‘rg‘on va shu kabilarni mudofaa qilish uchun qurilgan mustahkam devor” ma’nolarida izohlangan [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, V, 416-417]. Aytib o‘tish kerakki, ushbu istilohlarning etimologiyasi xususida *qur-* fe’lidan qadimgi turkchada harakat fe’lidan ot yasovchi *-γan (-γun)* qo‘shimchasi [ДТС, 692] orqali yasalgan degan fikr ham bildirilgan, ya’ni “qurilgan inshoot” ma’nosida *[*Сафаров, 2015:43*]*. Bizningcha, ushbu istiloh qadimgi turkiy tilda ham faol bo‘lgan “ko‘rmoq” ma’nosidagi *qara-* fe’lidan qadimgi turkchada narsa, o‘rin-joy oti yasovchi *-γu* qo‘shimchasi [ДТС, 693] orqali yasalgan, ya’ni “qarash, kuzatuv joyi” ma’nosida.

Ko‘pincha “Boburnoma”da ma’lum miqdordagi askarlarning piyoda kelishini tasvirlashda ishlatiladigan *yayoq/yayov* istilohi tilga olinadi. *“Tanbal hanuz o‘ziga kelturmay, Axsi bila Kamon oralig‘ida otliq-yayov cheriki bila xonlar bila ro‘baro‘ bo‘lub, o‘zini shox va xandaq bila berkitib olturub edi”* [Bobur, 2015:145]. Asarda *yayoq* va *yayov* terminlari teng qo‘llaniladi, lekin miqdor jihatdan *yayoq* varianti faolroq. Aytish kerakki, ushbu so‘z asl turkchadir. Qadimgi turkiy tilda asosan *sü*

(“qo‘shin, askar”) bilan sintagmatik munosabatga kirishib, “piyoda qo‘shin yoki askar” ma’nosini anglatadigan *yadaγ sü* birikmasini hosil qilgan *yadaγ* so‘zi “Boburnoma”da keltirilgan *yayoq*/*yayov*ning ilk ko‘rinishidir. Ushbu istiloh quyidagi bitiglarda ko‘zga tashlanadi: *“yadaγ süsin äkinti kun ... Yayov lashkarini ikkinchi kun ...”* (Bilga xoqon, 1); *“bir ülügi yadag ärti – bir qismi piyoda edi”* (To‘nyuquq, 4).

Qadimgi turkcha *yadaγ*ning *yayoq*/*yayov* shaklida o‘zgarishini quyidagicha asoslash mumkin. *käd- > käδ- > käy-* kabi ko‘pgina turkiy so‘zlarning tarkibida eski turkiy til davriga kelib *d > δ > y* yoki *d > y* o‘zgaruvi uchrashi ma’lum. *bod > boy; adaq > aδaq > ayaγ*; *adrïl- > ayrïl-* kabi. Bu jarayonni *yadaγ* so‘zi ham boshdan kechirgan. *yadaγ > yaδaγ > yayaγ > yayov*. “Qutadg‘u bilig”da *yadaγ, yadaγlïγ* istilohlari qayd etilgan. *yadaγlïγ* aynan “piyoda askar yoki qo‘shin” ma’nosini anglatgan: “*Yorïp tägmägü yärkä barma yadaγ*” [QBH, 109_{36}]. “Qisasi Rabg‘uziy” matnida uch o‘rinda *yadaγ*, uch o‘rinda *yayaγ* shakli ishlatilgan *[*Şirin, 2015:247*]: “yadaγïn tokušup tälimni tamuγga ïtdï* – piyodasi bilan urushib, ko‘pini jahnnamga jo‘natdi” (Qisasi Rabg‘uziy, 246:20); *“yätmiš miŋ yayaγ Musanï qavdïlar* – yetmish ming piyoda askar Musoni quvdilar” [Qisasi Rabg‘uziy, 115:8]. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida *yadaγ* leksemasi ayni shaklda – “yayov” ma’nosida qayd etilgan [Devoni lug‘otit-turk III, 35]. Leksema boshqirdchada ham *yäyäv* [Башкорт теленең һүзлеге, 1993:461] shaklida ishlatiladi. Ushbu so‘z hozirgi o‘zbek tilida *yayov*, *yaydoq*, *yaydov*, shuningdek, badiiy nutqda *yaydog‘* shakllarida saqlangan. 1. *yaydog‘* – egar-jabduqsiz, yalang‘och (ot); 2. ko‘chma ma’noda: yap-yalang‘och; hech narsasi yo‘q [O‘zbek tilining izohli lug‘ati, V, 100]. So‘zlar oxiridagi tovush o‘zgarishlarini o‘zbek tilida kuzatiladigan *g‘ ~ v /w ~ q (tog‘ – tow – toq* kabi) tovush o‘zgarishi bilan izohlash mumkin. “Boburnoma”ga ko‘ra piyoda askarlarning soni otliqlarga nisbatan bir necha marta kam bo‘lgan va ular asosan qal’a, qo‘rg‘on, hisor yoxud dushmanning mudofaa istehkomlarini qo‘lga kiritish, tog‘li hududlarda jangovar harakatlar olib borishga jalb etilgan.

“Ma’lumot to‘plash maqsadida dushmandan olingan asir” ma’nosidagi *til* istilohi Bobur Mirzo harbiy-idora tizimida ham faol qo‘llanilgan. Chunonchi, “Boburnoma”dagi *til tuta yibormoq* iborasi “ayg‘oqchilikka yubormoq” [Муҳаммадиева, 2021:19] ma’nosida qo‘llangan. *“... til tuta borg‘onlardin Haydarquli xabar kelturdikim, Dovudxon Haytimxonni besh-olti ming kishi bila Miyoni duobsari kechurubtur”* [Bobur, 2015:455]. Mazkur istiloh ko‘k turk yozuvlaridan To‘nyuquq bitigida ham aynan “ma’lumot yig‘ish uchun olingan asir” ma’nosida uchraydi: *“kälmäz ärsär, tïlïγ sabïγ alï olur tädi* – kelmas bo‘lsa, til tutib ma’lumot olib tur, dedi” [To‘nyuquq, 32]; *“tïlïγ kältürdi sabï* – til tutib keltirdi, so‘zi” [To‘nyuquq, 36]. Aytish kerakki, yuqoridagi o‘rinlarda *tïl* so‘zining ma’no ko‘chish hodisasiga uchragani yaqqol namoyon bo‘lgan. A.Donuk *[*Donuk,

1988:104*]* hamda A.Gul *[*Ekrem, 2014:27-103*]* ham *tïl* so‘zini barcha harbiy mavzudagi matnlar uchun “urushda dushman tomonidagi yangiliklar uchun ushlab turilgan odam, asir va josus” sifatida izohlaydi. Ushbu so‘zning harbiy termin sifatidagi ma’no hamda vazifasi XI asr matnlarida, xususan, hozirgi o‘zbek harbiy terminologiyasida ham o‘z aksini topgan. Jumladan, “Devoni lug‘otit-turk”da *tïl* istilohi *josus* sifatida izohlanadi: “*yaγïdan tïl tuttï* – dushman josusini tutib oldi” (Devoni lug‘otit-turk III, 148). “Qutadg‘u bilig” muallifi jangovar harakatlar boshlanishidan oldin g‘anim tomonidan asir olishning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi: “*tïl alγu käräk, bu tïldin yaγï qïlqï bilgï käräk* – til tutmoq kerak, bu til (asir) orqali dushman harakatlaridan xabardor bo‘lmoq kerak” [ДТС, 559]. Ushbu istilohning “Boburnoma”da faol tilga olinishi Bobur Mirzo muhim janglar oldidan (masalan, Panipat jangida ham) dushman haqida ma’lumot to‘plashga va buning uchun hatto jangga kirishga shoshilmay, raqibni jiddiy o‘rganishni odat qilganligini ko‘rsatadi. Qolaversa, uning qo‘shinida eng qadimgi turklar ham borligi, qo‘llanilgan usullar, hatto ularning nomigacha saqlanib qolganligi ham oydinlashadi.

Asarda *ilγor* istilohi ham tilga olinganki, u polisemik jihatdan uch ma’noda uchraydi:

1. qo‘shinning yetakchi, ilg‘or qismi – avangard: “*Bizning borg‘on ilg‘or turkdin ikki yuz ellik-uch yuzga yovushur edi”* [Bobur, 2015:514]. Shuningdek, bu parchadan ko‘rish mumkinki, Boburiylar qo‘shinida ilg‘or qism asosan turklardan tuzilgan.

2. qo‘shinning mazkur qismi sarkardasi; “… *bu munosabattin Muhammadiy o‘rnig‘a Sanbaig‘a ilg‘or Hindubekni va Katta bekni ... duob orasidag‘i tarkashbandlari bila ilg‘or yiborildi”* [Bobur, 2015:514].

3. shaxs otlaridan oldin kelib, mazkur qismda jang qiluvchi askar: “*Turdibek boshliq ilg‘or yigitlariga farmon bo‘ldikim, Olamxon, chun yerlik kishidur, bu nav’ qulluq va xizmatkorliqni o‘ziga oladur”* [Bobur, 2015:525]. Ushbu so‘z etimologik jihatdan qadimgi turkiy tilda “old” ma’nosini anglatgan *il* so‘ziga aloqador. *il* so‘zining *ïl* shaklidan *-γa* qo‘shimchasi bilan yasalgan – “oldinga bor”. Keyinchalik *-r* qo‘shimchasi qo‘shilib, fe’lning sifatdosh shakli hosil qilingan – “oldinda boruvchi”. Hozirgi kunda bu so‘z sifatga aylangan *[*Раҳматуллаев, 2000:115*]*. Ushbu so‘zning asosi birinchi marta O‘rxun-Yenisey bitiktoshlarida aynan harbiy ma’noda uchraydi. Cherik yurishga otlanganda uning oldida harakat qiluvchi qism bitiktoshlar tilida *ilki sü* istilohi bilan ifodalangan. *ilki sü* (*ilki* – old, yetakchi; *sü* – qo‘shin, askar) termin-birikmasi Bilga xoqon bitigida ko‘zga tashlanadi: *“Oγuz tapa sülädim, ilki sü tašïqmiš ärti, äkin sü äbdä ärti. Üč oγuz süsi basa kälti* – O‘g‘uz tomonga lashkar tortdim, birinchi lashkar yo‘lga chiqqan edi, ikkinchi lashkar uyda edi, uch og‘uz lashkarib bosib keldi” (Bilga xoqon 32). Qadimgi turkiy tilda “old”

ma’nosini anglatgan *il* otidan *-i* qo‘shimchasi bilan “oldga tomon harakatlanmoq” ma’nosini anglatuvchi *ili-* fe’li yasalgan va unga *-k* qo‘shib ilik so‘zi yasalgan [ЭСТЯ, I, 350], keyinroq ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan [Devoni lug‘otit-turk I, 78]. Dyorferga ko‘ra, bu so‘z turkchadan fors [Steingass, 1892:131], afg‘on va urdu tillariga ham o‘tgan [Gerhard, 1963:193-70]. Ko‘rish mumkinki, Turk xoqonligi harbiy terminologiyasidagi so‘z o‘z ma’no-vazifasidan uzoqlashmagan holda Boburiylar harbiy idora tizimida ham faol qo‘llanishda bo‘lgan. Shuningdek, turkiy sulolalarda qo‘shinning ilg‘or qismi uchun *yizäk* istilohi ham qo‘llanilgan.

“Boburnoma”da *čapγunčï* unvoni ham uchraydiki, u qism yoki bo‘linmalarga maxsus xabar bilan yoki hokimiyatga itoat etmagan, soliq to‘lashdan bosh tortgan hududlarning qarshiligini sindirish uchun yuboriladigan harbiy lavozim bo‘lgan. *“... chopqunchi afg‘ondin va hazordin kelib, bularni qabarlar”* [Bobur, 2015:444]. *“O‘zumizdin ilgarrak O‘zgand navohisini chopqali chopqunchi oyirduk”* [Bobur, 2015:113]. Qadimgi turkcha “yugur-“ ma’nosidagi *čap-* fe’lidan yasalgan istiloh O‘rxun-Yenisey bitiktoshlaridan mavjud bo‘lib, quyidagicha shaklda uchraydi: *“Bilgäsi čabïsï bänäk ärtïm* – Allomasi, chovushi men o‘zim edim” [To‘nyuquq, 7]. *“... Küli čör anča bilgäsi čabïšï ärti* – Kuli Cho‘r allomasi, chovushi edi*”* [Kali Cho‘r , 18]. Shuningdek, Kari Cho‘r Tegin (*Kari Cho‘r Tegin bitigi XXRning Xian provinsiyasidagi “Tang West Market Musuem”da saqlanadi. Bitik Yaglakar xon Chabish Teginning o‘g‘li Xon tutuqning jiyani Bo‘gu Bilga Tangri xoqonning kichik qardoshi Kari Cho‘r Teginga tegishli. Bitiktoshni turkiy ochunga tanitishda turk olimi Chingiz Alyilmazning xizmati katta)* bitigida *tägin* so‘zi bilan birga tilga olingan: *“čabïš tägin oγlï qan tutuγ atïsï* – Chovush Tegin o‘g‘li xon tutuqning nomi” [KChT, 3-6]. *čabïš* qadimgi turk qo‘shinida vazifador shaxs, boshliqlardan birini ifodalagan. P.Pelliot xitoy tilida yozilgan matnlarda *čavuš* so‘ziga o‘xshash ba’zi nomlar topilganini qayd etib, VIII asrda turklar tomonidan elchi sifatida yuborilgan shaxsning xitoy manbalarida *chopiše* unvoniga egaligi va bu *chovush*ning eng qadimgi shakli ekanligini ta’kidlaydi *[*Pelliot, 1929:237*]*. “*čabïš* istilohi vaqt o‘tishi bilan *čabïš* > *čavïš* > *čavuš*ga aylandi” [Solmaz, 2018:423-436]. *čabïš* so‘zi turkcha *čap-* “chopmoq” fe’lidan kelib chiqqan va ushbu fe’l “shoshilinch jo‘namoq, yugurmoq” ma’nolarida izohlanadi *[*Clauson, 1972: 394*]*.

Binobarin, *čabïš*ning bitiklardagi ma’nosiga e’tibor berilsa, ushbu unvon egasining urush vaqtida markaziy qo‘mondonlik va bo‘linma, harbiy qismlar o‘rtasidagi xabar-pochta vazifasini o‘z zimmasiga olganligi ko‘zga tashlanadi. Buning uchun *čabïš* unga berilgan vazifani, albatta, (otda) yugurib (chopib) bajarishi kerak. Bularni hisobga olsak, *čabïš* istilohining hozirgi o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lgan “yugurish” ma’nosini anglatuvchi “chopmoq” (“chopish”) fe’lining o‘zagi *chop*dan kelib chiqqanligi ayon bo‘ladi. Qolaversa, ushbu unvondorda o‘ta

epchillik, zukkolik, hushyorlik kabi sifatlar bo‘lishi talab etiladi. Bitiktoshlardagi To‘nyuquq tilidan aytilgan *“Bilgäsi čabïsï bänäk ärtïm”* [To‘nyuquq, 7] jumlasidagi *čabïsï* so‘zini “zakiysi, hushyori, yelib-yuguradigani” ma’nosida tushunish to‘g‘riroq bo‘ladi. Eng e’tiborlisi, bu o‘rinda *čapγunčï* va *čabïš/čävüš* istilohlarining ma’no va vazifasi naqadar yaqinligi ko‘zga tashlanadi. Qolaversa, Xoqonlikda *čabïš*lar (chovush) “odatda harbiy masalalarni hal qilishdan tashqari elchi sifatida ham faoliyat yuritishgan. Binobarin, keyinchalik bir qator turkiy sulolalarda bo‘lgani kabi xoqonlik davrida ham *čabïš* “qo‘mondon, xabarchi” vazifasini bajarib, qo‘shni davlatlarga elchi (harbiy maqsadlarda) yuborilgan shaxslarga nisbatan ham qo‘llanilgan” *[*Donuk, 1988:93; Буниятов, 1986:91*]*. Mahmud Koshg‘ariy *čavuš* istilohini “jangda saflarni tuzatuvchi, dam olish vaqtida askarni zulm qilishdan saqlovchi odam” tarzida izohlaydi [Devoni lug‘otit-turk I, 349].

Ko‘rish mumkinki, ushbu istiloh bir necha yuz yilliklar davomida *čabïš/čävüš, čapγunčï* va *čopar* shakllarida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, muhim vazifalarni ado etuvchi umumiy harbiy-diplomatik vakil ma’nosida birlashadi. Ko‘k turklardan boshlab deyarli barcha Turkiy sulolalarda yuqoridagi vazifalarni o‘z zimmasiga olgan harbiy lavozim egasi sifatida maydonga chiqadi. Ushbu istilohlardan hozirgi davrda faqat *čävüš* turk va ozarbayjon tillarida saqlangan bo‘lib, “serjant” ma’nosida ishlatiladi, *čopar* shakli o‘zbek tilida badiiy-publitsistik uslubda qo‘llaniladi.

Suvoriylar turkiy sulolalar qo‘shini uchun eng asosiy tuzilmalardan bo‘lgani ma’lum, bu holat Boburiylar uchun ham xosdir. Ushbu sulola qo‘shinining bu qismi uchun *suvori(y)* va *otlïq/otlïγ* istilohlari qo‘llanilgan. *“... sardorlik umidida taxminan o‘n ming suvori jam’ qilgan edi”* [Bobur, 2015: 688]. Aytish lozimki, asarda *otlïq* istilohi ikki ma’noda qo‘llanilgan.

1. *otlïq* (ot mingan harbiy): *“Yana bir otliq mening yonimdin Shayx Boyazid qochqon ko‘cha sari qochib boradur, qilich bila cho‘qqusig‘a sonchtim”* [Bobur,2015:187]; 2. *otlïq* (qo‘shin) – suvoriy. *“Viloyotning otliq va yayoq cheriklariga qadag‘an bila tavochilar va muhassillar yiborildi* [Bobur, 2015:444]. Ushbu istiloh Ko‘kturk va Uyg‘ur yozuvlarida “Boburnoma”dagi ayni ma’no va shaklda uchraydi. *“äki ülügi atlïγ ärti* – ikki ulug‘i otliq edi*”* [To‘nyuquq, 4]. Jumladan, Bilga xoqon bitigida *atlïγ* leksemasi *sü* istilohi bilan birikib, “otliq lashkar”ni anglatgan: *“Tabγač atlïγ süsi bir tumän artuqï yäti biŋ süg ilki kün ölürtüm…* – Tabg‘achning otliq lashkari(ni) o‘n yetti ming(lik) lashkarini birinchi kun o‘ldirdim” [Bilga xoqon, 1]. Ushbu istiloh *at* va *-lïγ* – (asosdan anglashilgan narsaga egalikni bildiruvchi sifat yasovchi qo‘shimcha)ning qo‘shiluvidan yasalgan. Ma’lumki, otliq qo‘shinlar Turk xoqonligi armiyasining asosini tashkil etgan. “Xoqonlikdagi sinfiy-sulolaviy tabaqalanish qo‘shin tuzilishiga ham o‘z ta’sirini

koʻrsatgan. Chunonchi, cherikning zarbdor qismini tashkil etgan otliqlar turk zodagonlari va ularning farzandlaridan tuzilgan. Ogʻir qurolli otliq askarlar jangda hal qiluvchi rol oʻynagan" *[*Dadaboyev, 2021:58*]*. Bu davr boshqa turk davlatlarida ham qoʻshinning otliq qismi yoki boʻlinmasi *atlïγ* istilohi bilan yuritilgan. Shuningdek, Moʻyun Choʻr bitigida *atlïlïγ* istilohi ham mavjudki, u ham "otliq (askar yoki qoʻshin); ot ustidagi" maʼnolarini anglatgan: *"atlïlïγ ... Täŋri: tuta bärti* – otliq … Tangri tutaverdi" [Moʻyun Choʻr, 14]. Eski oʻzbek adabiy tilida sof turkiy istilohga maʼnodosh forsiycha *suvoriy* oʻzlashmasi kirib keldi. Hozirgi oʻzbek tilida ham *otliq* soʻzi ikki maʼnoda qoʻllaniladi. Birinchisi *otliq* – "suvoriy", ikkinchisi *otlik* < *ot-li* – "otli, oti bor kishi" [Oʻzbek tilining izohli lugʻati I, 156]. Mahmud Koshgʻariy istilohni *atlïγ* shaklida keltiradi: *atlïγ är* – "otliq odam" [Devoni lugʻotit-turk I, 123; 178].

Ordu istilohi "Boburnoma"da faol tilga olingan: *"ordu girdini tamom shox, xandaq bila ehtimom va ehtiyot qilib mazbut qilduk" [*Бобур, 2015:144*]. "Urush qasdida yengilmas oʻrdu tomon yoʻnaldilar* [*Бобур, 2015:689*]. Ushbu parchada *ordu* istilohi "harbiy istehkom" maʼnolarida ishlatilgan. Shuningdek, asarda "*Bu yurtta ekanda Samarqanddin shahriy va bozoriy ul miqlor chiqib edikim, oʻrdu shahri boʻlub edi. Harne shahrlarda tilasalar, oʻrduda topilur edi"* [*Бобур, 2015:99*] jumlasi ham mavjudki, bu oʻrinda leksemaning "bozor, savdo-sotiq joyi" maʼnosida ham ishlatilganini koʻrish mumkin. *Ordu* bitiktoshlarda ham faol qoʻllangan istilohlardan biridir. Kul Tegin bitigidagi quyidagi gaplarda "harbiy qarorgoh" maʼnosida kelgan: *"oγuz yaγï orduγ basdï* – oʻgʻuz dushman oʻrduni bosdi" [Kul Tegin, 8]; *"toquz äräп säпčdï, orduγ bärmädi* – toʻqqiz erni sanchdi (nobud qildi) oʻrduni bermadi" [Toʻnyuquq, 9]. "Irq bitigi" ("Taʼbirnoma") dagi parchada ham ushbu istiloh "lashkargoh" maʼnosida ishlatilgan: *"Qan sükä barmiš, yaγïγ säпčmiš, köčürü konturu kälir, özi süsi ögirü säbinü ordusïŋaru kälir* – Xon safar (jan)gga otlandi, dushmanni yengdi, oʻziga xos keldi. Oʻzi, qoʻshini sevinib, xursandchilik bilan oʻrdusi – qarorgohiga keldi" [Irq bitigi, 34].

Tadqiqotlarga koʻra, "xun davriga tegishli deb qaraladigan *ordu* terminining Xan sulolasi davri (m.a. II asr) xitoy yilnomalarida uchraydigan *vo-lu-to* bilan aloqadorligi haqidagi qarashlar ilk marta Shiratoriy tomonidan oʻrtaga tashlangan. T.Tekin istilohning xun davridagi maʼnolarini oʻzining "Xunlarning tili" asarida "chegarada kuzatuvchi soqchi", "chegara qorovuli", "xunlarning xitoyliklardan himoyalanish uchun pistirmaga yotadigan joyi" maʼnosida beradi" *[*Şirin, 2015:301*]*. Bu bilan olim ushbu istilohning ildizini xun tili bilan bogʻlashga harakat qiladi. Shuningdek, boshqa tadqiqotlarga koʻra ushbu istiloh "qadimgi turkiy tilda "tepaga harakatlanmoq" maʼnosini anglatgan *or-* feʼliga *-(u)t* orttirma qoʻshimchasini qoʻshib hosil qilingan shakldan *-i* qoʻshimchasi bilan yasalgan [ЭСТЯ, I, 432]. Keyinchalik ikkinchi boʻgʻindagi tor unli talaffuz qilinmay

qo‘ygan; *t* undoshi *r* undoshining ta’sirida jaranglisiga, so‘z oxiridagi *u* unlisi *ä* unlisiga almashgan: *(or- – ut - orit-) + u - oriti > orti > ordi > ordä*” *[*Раҳматуллаев, 2000:486*]*. “Mazkur so‘z qadimgi turkiy tilda “shahar” ma’nosini anglatuvchi boshqa so‘zlardan farqli o‘laroq, “poytaxt” mazmunini ham bildirgan” *[*Содиқов, 2020:126*]*. Hujjatlarda “turk va uyg‘ur xoqonlarining yozlik va qishlik qarorgohlari sifatida bilingan” *[*Хатамова, 2018:6*] ordu*lar va poytaxt shaharlari A.fon Gaben, K.Segledi, T.Nagrodzka-Maychjik kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan *[*Gabain, 1944:685-695*]*.

Ordu(*G‘.Abdurahmonov va S.Mutallibovlar bu so‘zni дворецкий deb tarjima qiladi*.)ning ma’no kengayishiga uchrab, “qo‘shin, lashkar” ma’nolaridan tashqari “hukmdor, xon qarorgohi, qal’a, qo‘shin qarorgohi, lashkargoh, saroy” ma’nolarini ifodalashi keyingi davrda juda faollashgan. “Devoni lug‘otit turk”da *ordu* II – “o‘rda, shoh turadigan shahar” [Devoni lug‘otit-turk, I, 145], “hukmdor joylashgan yer” ma’nosida izohlangan. Lug‘atda “shohlar xizmatidagi kishi” ma’nosida *ordu bašï* so‘zi tilga olingan [Devoni lug‘otit-turk, I, 145]. Shuningdek, asarda *o‘ziga shahar qurdirdi* ma’nosidagi *ordulandï* [Devoni lug‘otit-turk I, 291] leksemasi va*“Qashqarni Ordukänd deydilar, ya’ni shohlar turuvchi shahar demakdir”* [Devoni lug‘otit-turk I, 145] qaydlari mavjud. Bu yerda *ordu* so‘zining X-XI asrlarda narsa oti emas, oliy hukmdorning harbiy harakatlanishi bilan doimiy bog‘liq bo‘lgan muayyan joyga nisbatan ham ishlatilganini ko‘rish mumkin. Bu davrda (Uyg‘ur, Xoqoniya) *ordu (ordo)* leksemasi “qo‘shin” ma’nosidan biroz uzoqlashib, “oliy qo‘mondonning buyruqlar chiqaradigan va qo‘shin ustidan nazorat olib boradigan harbiy qarorgohi” ma’nosida qo‘llanila boshlangan. “Devoni lug‘otit turk”da *ordu*ning aniq bir jo‘g‘rofiy hududga ishlatilganligini ham kuzatish mumkin: ordu – Balasog‘un yaqinidagi bir shahar; shuning uchun Balasog‘un Quz O‘rdu ham deyiladi [Devoni lug‘otit-turk I, 145-5]. Ushbu toponim Yusuf Xos Hojib tomonidan ham tilga olinadi: *Mu täŋi turuγlaγ qut ordu äli* – (Muallif o‘zini nazarda tutmoqda) istiqomat joyi Quz O‘rdu eli, asli nasabidan yuritmish tili” [QBK, 6_{14}]. Muqaddam davlatning ma’muriy-harbiy markazi bo‘lgan, o‘rdu – qo‘shin joylashgan, oliy hukmdor qarorgohi bo‘lgan shahar (Balasog‘un) keyinchalik biroz bo‘lsa-da bu maqomi (harbiy qarorgoh)dan ayrilgan bo‘lsa ham, lekin nom bu hududga nisbatan qat’iy ishlatiladigan bo‘lgan. “Qutadg‘u bilig”da *ordu (uč ordu)* boshqa bir o‘rinda Turkistondagi bir shahar nomining tarkibiy qismi sifatida tilga olinadi. “*Nägü tär äšitgil uč ordu χanï* – Uch O‘rdu xoni nima deydi, eshitgin, elga moslab to‘g‘ri so‘z aytgan kishi” [QBN, 219_3]. Alisher Navoiy asarlarida istiloh *ordu* tarzida kelgan bo‘lib, “qarorgoh, qo‘shin, askar turadigan joy” ma’nosini anglatadi: *Ittifoqo ul kecha bir g‘arib tund yel estikim, o‘rduning ko‘proq oq uy chodirlarni yiqib, ajab oshub el orasig‘a soldi* [ANATIL, III, 611].

Ayni zamonda asosan, davlatning oliy qo‘mondoni va birinchi rahbari bajaradigan vazifasi nuqtayi nazaridan ayro lavozimlar hisoblansa, qadim va o‘rta asrlarda davlatning oliy hukmdori bo‘lgan xoqon, xon, shoh, imperator (fag‘fur) o‘z xalqining rahnamosi sifatida harbiy qo‘mondonlikni ham o‘z zimmasida ushlagan, to‘g‘rirog‘i bu davr talabi bo‘lgan. Shundan kelib chiqib, yuqorida qayd etilganidek, oliy qo‘mondon va a’yonlar, eng muhimi, saltanat quvvati bo‘lgan qo‘shin qaror topgan joy *o‘rdu* – qo‘shin joylashgan ma’muriy-harbiy istehkom, poytaxt deyilgan, bu o‘sha hudud tub aholisi tomonidan ham shunday nomlangan. Keyinchalik bu joy ushbu maqomidan ayrilgan bo‘lsa-da, *ordu – orda – o‘rda* nomi bilan ataladigan bo‘lgan, *Balasog‘un* [Devoni lug‘otit-turk I, 145-5] kabi. Keyingi davrlardan boshlab *o‘rdu* davlatning poytaxti ma’nosida qo‘llanila boshlangan, *O‘rdu baliq* kabi. Lekin ayrim hujjatlarga ko‘ra, keyingi davrlarda *ordu* istilohi anglatgan hududning yanada kichrayib, faqat xon saroyini anglatishi kuzatiladi. XVII asrga tegishli hujjatlarda *o‘rda* saroy ma’nosida qo‘llanilgan: *“... taqi kelib Arslonxonning o‘rdasin va beklarning evlarin chopti”* [Абулғозий Баҳодирхон, 1995:22]. Keyingi davrlarda istilohning “askar, qo‘shin” ma’nosida qo‘llanishi, asosan, o‘g‘uz tillarida saqlanib qoldi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu termin *o‘rda* va *o‘rdu* shakllarida ilk va o‘rta asrlardagi ma’nolaridan uzoqlashmagan holda izohlangan: *o‘rda* – 1. turkiy va mo‘g‘ul xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, qal’a (Qo‘qon xoni o‘rdasi); 2. qo‘shin qarorgohi, lashkargoh; *o‘rdu* – qo‘shin, lashkar: *o‘rdugoh* – qo‘shin qo‘nadigan yoki turadigan joy, lager [O‘zbek tilining izohli lug‘ati V, 163]. Bu leksemalar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da aks etsa-da, jonli so‘zlashuv tilida deyarli muomalada emas. Asosan badiiy-tarixiy asarlarda ishlatiladi. Bu so‘zlarning faol ishlatilishi XIX-XX asrlargacha, xonliklar siyosiy hayotining tugashi bilan yakunlangan.

Boburiylar davrida “shohlarning Dehlidagi saroyi *urdu-i-mu’alla,* bu yerdagi ishlatiladigan til *zaban-i-urdu* deb atalgan” *[*Şirin, 2015:301*]*. Dastlab, “qo‘shin” ma’nosida ishlatilgan ushbu leksema keyinchalik Boburiylar sulolasi davrida Hindistondagi musulmon aholi so‘zlashadigan jonli tilni anglata boshlagan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, turkiylar tarixining shonli bosqichi bo‘lmish Turk xoqonligi davridagi harbiy tizim ayniqsa Temuriylar, xususan, Boburiylar davrida yaxshi taraqqiy topgan. Bu qadimgi turkcha bitiktoshlarda qo‘llanilgan harbiy istilohlarning “Boburnoma”da faol tilga olinishida ko‘zga tashlanadi. Zero, bir qancha turkiy davlat uyushmalaridagi mavjud harbiy terminlarning ildizi xoqonliklar davriga borib taqaladi. Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar turkiy tilli xalqlar ijtimoiy-siyosiy tarixi, ayniqsa, turkiy tilning shakllanishi va taraqqiyoti, ushbu til so‘z boyligida turli semantik maydonlarning vujudga kelishida ichki va tashqi omillarning ahamiyati, leksikonning keyingi davrlarda shakllangan turkiy

tillarda saqlanish holatini o‘rganish, bu boradagi mavjud muammoli masalalarni hal etishda yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Clauson G. 1972. An Etymological Dictionary of Pre-Thirteenth-Century Turkish. Oxford: 1038.
2. Dadaboyev H., Yodgorov H. 2021. O‘zbek harbiy terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Sahhof: 210.
3. Doerfer Gerhard. 1963. Türkische und mongolische Elemente im Neupersischen unter besonderer Berücksichtigung älterer neuperisischer Geschichtsquellen vor allem der Mongolen-und Timuridenzeit I,Wiesbaden: Franz Steiner Verlaf: 193/70.
4. Donuk A. 1988. Eski Türk devletlerinde idari-askeri unvan ve terimler. Istanbul.
5. Ekrem G. 2014. Babürname’de Geçen Askeri Terimler Üzerine. Belleten.
6. Gabain A. 1944. Köktürklerin Tarihine Kısa Bir Bakış I: Stepte Yaşayan Köktürkler (682–742) // Dil ve Tarih –Coğrafya Fakültesi Dergisi. Cilt II. Sayı 5.
7. Pelliot P. 1929. Neuf notes sur des questions d'Asie centrale, T’oung Pao, Second Series, Vol.26, No.4-5: 237.
8. Şirin H. 2015. Kül Tigin yazıtı – notlar. Bilge kültür sanat. Istanbul: 151.
9. Solmaz S. 2018. Çavuş Unvaninin Kökeni, Anlamlari Ve Türkiye Selçuklulari Döneminde Kullanimi. // Sutad Bahar: 423-436.
10. Steingass F. 1892. Comprehensive Persian-English Dictionary, London. Şemseddin Sâmi, Kâmûs-ı Türkî, Dersaadet: 131.
11. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2015. Bobumoma. T.: “Yangi asr avlodi”: 586.
12. Абдураззоқ Самарқандий. 2008. Матлаи саъдайн ва матлаи баҳрайн. T.: O‘zbekiston: 428
13. Абулғозий Баҳодирхон. 1995. Шажарайи Тарокима. Нашрга тайёрловчи: Қозоқбой Маҳмудов. T.: 22.
14. Башкорт теленең һүзлеге. том I. 1993. M.: Русский язык: 461.
15. Бобоёров Ғ. 2022. Ўзбек тили тарихи. T.: Фан:176.
16. Буниятов З.М. 1986. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов (1097–1231). M.: Наука: 91.

Shartli qisqartmalar

BX – Bilga xoqon bitigtoshi
DLT – Devonu lug‘atit-turk
KT – Kul Tegin bitigtoshi
KCH – Kulicho‘r bitigtoshi
KCHT – Kari Cho‘r Tegin bitigi
To‘n – To‘nyuquq bitigtoshi
ЭСТЯ – Этимологический словарь тюркских языков

“Qutadg‘u bilig” va “Йoburnoma” asarida keltirilgan turkiy so‘zlar

Mushtariy XOLMURADOVA [1]

Annotatsiya: u maqolada “Qutadg‘u bilig” va “Boburnoma” asarlarida keltirilgan turkiy so‘zlar tahlil qilingan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan va qo‘llanmaydigan turkiy so‘zlar o‘zaro qiyosan tahlil etilgan. Asarda qo‘llanilgan ayrim turkiy so‘zlar bugungi kunda unutilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati shevalarda saqlanib qolganligiga e’tibor berilgan.

Kalit so‘zlar: *turkiy so‘zlar, sheva, qiyosiy metod*

Abstract: This article analyzes the Turkish words mentioned in the works “Kutadgu bilig” and “Boburnoma” The Turkish words that are used and not used in the current Uzbek literary language are comparatively analyzed. Although some Turkish words used in the work have been forgotten today, it has been noted that most of them have been preserved in dialect.

Key words: *turkish words, dialect, comparative method*

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” hamda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”si turkiy til mavqeyini yuqoriga ko‘targan asarlar hisoblanadi. “Qutadg‘u bilig” turkiy tilda bitilgan ilk badiiy doston bo‘lsa, “Boburnoma” o‘zining sodda va ravon tili bilan ajralib turadi. G.Blagova “Qutadg‘u bilig” materiallarini “Boburnoma”ga qiyoslab, uning morfologik xususiyatlarini tahlil qildi. Shu asosda eski turkiy tilning eski o‘zbek adabiy tili taraqqiyotida muhim o‘rin tutganligini ta’kidladi

“Qutadg‘u bilig”da **börk** so‘zi “bosh kiyim” ma’nosida qo‘llangan: *Nečä er beδüsä baš aγrïγ beδür, nečä baš beδüsä beδük börk keδür* – Kishi qancha ulg‘aysa, (uning) bosh og‘rig‘i (shuncha) ko‘payadi, bosh qancha kattalashsa, shunchalik katta bo‘rk kiyadi [QBN, 427; 22b4]. Börk “bosh kiyim”, “qalpoq”, “telpak” [ANATIL, I, 346]. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “qopla”, “yop” ma’nosini anglatgan börü - fe’lidan [Devon, II, 164] -k qo‘shimchasi bilan yasalgan [ESTYa, II, 222]; o‘zbek tilida ö unlisining yumshoqlik belgisi yo‘qolgan: börü-+k= börük>börk>bork [O‘TEL, I, 77]. S.E.Malov mazkur so‘zni mo‘g‘ulcha borkur (покрывало) so‘ziga bog‘laydi. Börk qadimgi turkiy til manbalarida, Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida ham “bosh kiyim” ma’nosida qayd etilgan [DLT, II, 326]. “Boburnoma”da bo‘rkning a) os bo‘rk – “os (qunduz) terisidan tikilgan bo‘rk”, b) mo‘g‘uliy bo‘rk – “mo‘g‘ulcha bo‘rk”, v)

[1] Mushtariy Xolmuradova – ToshDO‘TAU dotsenti v.b.

dubulg‘a bo‘rki– “dubulg‘a ostidan kiyiladigan bosh kiyim” kabi turlari qayd etilgan. Xorazm shevalarida leksema “bosh kiyim, telpak” ma’nolarida qo‘llanadi. Turk tili shevalarida “yomg‘irdan, sovuqdan saqlanish uchun kiyiladigan kuloh” ma’nosida börkenek fonetik varianti ham ko‘zga tashlanishi ma’lum bo‘lgan.

“Qutadg‘u bilig”da börkning inson faoliyatiga baho berishda etalon sifatida qo’llanishi bu so‘z ifodalagan tushunchaning xalq hayotida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Xalq o‘z muddatida tug‘ilmagan, chala go‘daklarni bo‘rkka, telpakka solib, avaylab, ardoqlab parvarishlashgan. “Bo‘ri bolasini bo‘rkingda boqsang ham turmas” maqolida bo‘ri bolasini “shu darajada ehtiyotlab boqsang ham, el bo‘lmaydi”, degan mazmun ifodalangan. Bo‘rkda bola boqish o‘zbek xalqining madaniy munosabatlarini ifodalovchi birikma bo‘lib, “avaylash”, “asrash” ma’nolarini keng ko‘lamda ifodalashga xizmat qiladi.

“Xalq, odamlar” ma’nosidagi *el-kün* birikmasi birinchi bor aynan “Qutadg‘u bilig” matnida ishlatilgani bilan ajralib turadi. Kün so‘zining qadaš leksemasi bilan sintagmatik munosabatga kirib “qarindosh (erkak va ayol)lar” ma’nosida nasoy bitiklaridan birida qayd etilgani [DTS, 326], juft so‘zlar aksariyat ma’nodoshlardan tashkil topganini hisobga olib, “qarindosh, urug‘, qavm” ma’nosini anglatgani va shu bois “xalq” ma’nosidagi **el** so‘zi bilan birikkani xususida fikr yuritish o‘zini oqlaydi, deb hisoblaymiz. Ushbu birikmaning “xalq” ma’nosida “Gul va Navro‘z”, “Boburnoma” singari eski o‘zbek adabiy tili manbalarida qo‘llangani dostonning eski turkiy adabiy til va eski o‘zbek adabiy tili o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarganini yana bir bor isbotlaydi.

Asarda keltirilgan tuγčï istilohi tuγ (bayroq) so‘ziga -čï shaxs oti yasovchi qo‘shimcha qo‘shish orqali “bayroqdor, tug‘ni ko‘tarib yuruvchi shaxs” ma’nosini anglatgan: Iδišči töšäkči yana aščïqa, tüzü köz kemišsä yemä tuγčïqa – Idishchi (soqiy), to‘shakchi (yotoq boshlig‘i), yana oshchi(larga) hamda tug‘chilarga doim ko‘z tashlab tursa [QBN, 2518; 66b2]. Ushbu motivlangan termin eski o‘zbek adabiy tilida, jumladan, “Boburnoma”, “Shajarai turk” matnida qo‘llangani aniqlangan.

Doston matnida “lashkar, askar, qo‘shin” ma’nosini ifodalovchi *čerig* so‘zi faol qo‘llangan. Mahmud Koshg’ariy o‘g‘uzcha čer leksemasi “ro‘para” ma’nosini bildirishini aytib o‘tgan. Ikki askar safiga ham čerik deydilar. Chunki ular ham bir-biriga yuzma-yuz turadilar [DLT, I, 313]. “Qisasi Rabg‘uziy”: Barg‘ыl Namrudg‘a ayg‘ыl sanchushur könÿllÿk bar ersä, cherig anutg‘g‘ыl , “Boburnoma”: Cherik mundin o‘tarda... kelib sari asbaki sayr qilib o‘tulub edi. Alisher Navoiy asarlarida keng qo‘llanishda bo‘lgan [ANATIL, III, 463]. Terminning eski o‘zbek adabiy tili so‘z yasash jarayonida faol ishtirok etgani, o‘ziga xos leksik paradigmani yuzaga chiqqarganini ko‘rish mumkin. “Gul va Navro‘z” dostonida termindan turkiycha -la //-lä affiksi bilan yasalgan, “lashkar tortmoq” ma’nosini anglatuvchi cheriklä= fe’li qo‘llangan: Adan pàdshàhы Yaman xanыg‘a cheriklägäni [45v6]. Ushbu asarda

cherik bashlat=“qo‘shinga qo‘mondon etib tayinlamoq”, cherik ixtiyàrы “lashkar qo‘mondonligi”, cherik yasa= “lashkarni jangovar safga tizmoq”, cherik aldы “qo‘shin, lashkar avangardi (ilg‘or qismi)”, cherik toxtat= “qo‘shinni to‘xtatmoq”, cherikka közi tush= “lashkarni ko‘rmoq”, cherikni chenä= “lashkarning sonini chamalamoq” kabi qo‘shma fe’llar ham ishlatilgan. Bu holat leksemaning XIII – XIV asrlarga kelib faollashgani, yangi leksemalar yasalishiga asos bo‘lganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1.Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1985-1987. I, II, III, IV жилдлар. –Toshkent: Фан.

2.Благова, Г.Ф. «Кутадгу билиг», «Бабурнаме» и методика историко-лингвистического сопоставления // СТ.–№4. –Баку.

3.Дадабоев, Ҳ. 2008.Тарихий арбий терминлар луғати. –Toshkent: Университет.

4.Древнетюркский словарь.–Ленинград. 1969.

5.Каримов, Қ. 1972. Қутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. –Toshkent: Фан.

6.Маҳмуд Кошғарий. 1963. Девону луғотит турк. (I,II,III жилдлар).–Toshkent.

7. Раҳматуллаев, Ш. 2000. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар)–Т.: Университет, Раҳматуллаев Ш. 2003.Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). – Toshkent: Университет.

8. Севортян, Э.В. 1974–1994. Этимологический словарь тюркских языков. - Москва: Наука.

9. Холманова, З. 2009, “Бобурнома” лексикаси тадқиқи. Филол. фан. док...дисс. автореферати. –Тошкент.

10. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 1989. Бобурнома.–Тошкент.

“Devonu lug‘otit-turk” va “Boburnoma” asarlarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi
A comparative study of food names used in “Devonu lug‘otit-turk” and “Boburnoma” works

Shirinoy MUHSINJONOVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Devonu lug‘otit-turk” va “Boburnoma” asarlarida qo‘llangan oziq-ovqat mahsulotlari nomlarining qiyosiy tadqiqi xususida so‘z yuritiladi. Ta’kidlash lozimki, nomlari qayd etilgan asarlardagi mavjud taom nomlari ayrim hollarda o‘xshashlik hosil qilsa, ayrim o‘rinlarda ular o‘rtasidagi mavjud farqlarga guvoh bo‘lamiz. Asarlardagi taom nomlarini lingvistik nuqtayi nazaridan tahlil qilish o‘zbek leksikografiyasi doirasida amalga oshirilgan muhim ishlardan biri sanaladi.

Kalit so‘zlar: *“Devon”, “Boburnoma”, taom nomlari, lingvistik tahlil, qiyosiy tahlil, leksikografiya, tilshunoslik.*

Abstract: This article deals with the comparative study of the names of food products used in the works “Devonu lugotit-turk” and “Boburnoma”. It should be noted that the names of existing meals in the works whose names are mentioned are similar in some cases, but in some places we can witness the existing differences between them. Linguistic analysis of food names in the works is one of the most important works of Uzbek lexicography.

Keywords: *“Devon”, “Boburnoma”, food names, linguistic analysis, comparative analysis, lexicography, linguistics.*

Barchamizga ma’lumki, tildagi leksik qatlam bugungi kunda paydo bo‘lib qolgan jarayon emas. U ayrim bosqichlarni boshdan kechirib, hozirgi ko‘rinishiga yetib kelgan. Tildagi ba’zi so‘zlar bugungi kunga qadar o‘z ko‘rinishini saqlab qolgan bo‘lsa, ba’zilari mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirgan. Yana ba’zilari esa o‘zi ifodalagan tushuncha bilan birgalikga eskirgan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ana shunday so‘zlar tadqiqini amalga oshirish, aytish mumkinki, har bir tilshunos oldida turgan muhim vazifa sanaladi. Zero, arxeologlar yer qazisa, tilshunos so‘z “qaziydi”. Til tarixida shunday asarlar yaratilganki, ular o‘z davrining muhim lug‘at fondi sifatida ahamiyatlidir. Sababi, biz ushbu asarlar orqali o‘sha vaqtda xalq nutqida qanday leksik qatlam mavjud ekanligining guvohi bo‘lishimiz

[1]*Shirinoy Muhsinjonova* – Tayanch doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

mumkin. Tilshunoslik tarixida yaratilgan barcha asarlar ilmiy nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” hamda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlari bu borada yaqqol misol bo‘la oladi. “Devonu lug‘otit-turk” asari muallifi hisoblanmish Mahmud Koshg‘ariy to‘g‘risida manbalarda ko‘plab ma’lumotlar keltirilgan. Adibning ijtimoiy kelib chiqishi Qoraxoniylar sulolasiga mansub bo‘lgan. Otasi esa Barsg‘an shahrida amirlik qilgan. Mahmud Koshg‘ariyning hayot yo‘li hamda ijodiy faoliyati xususida I. Mu’tiy va M. Usmonovlar quyidagi mulohazalarni bildirgan edilar: “Olim Koshg‘ar shahrining O‘pol qishlog‘i, Oziq mahallasida dunyoga kelgan. Olim ota tarafidan Qoraxoniylar jamoasidan, Yusuf Qodirning o‘g‘li, Muhammadning nabirasi, ona tarafdan Oziq mahallasining o‘z davridagi o‘qimishli kishisi Xo‘ja Sayfiddinning qizi Burobiyaning o‘g‘li. Olim boshlang‘ich ma’lumotni O‘polda o‘z oilasida, yuqori ma’lumotni esa Koshg‘arda Husayn ibn Xalof Koshg‘ariy kabi olimlardan olgan”. Demak, adibning bu darajaga yetishuvida qator maktablar poydevor vazifasini o‘tagan.

Mahmud Koshg‘ariy 7-8 tilni, jumladan, arab, fors, turkiy tillarni mukammal bilgan. Bundan tashqari, ijodkorning Buxoro, Samarqand, Marv, Nishopur kabi joylarda bilim olganligi xususidagi ma’lumotlar ham mavjud. Adibning bizgacha yetib kelgan yagona asari bu “Devonu lug‘otit-turk”dir. Uning yaratilish tarixi mavjud bo‘lib, uni quyidagicha izohlash maqsadga muvofiqdir: mamlakatda sodir bo‘lgan ichki nizolar tufayli Mahmud Koshg‘ariy ma’lum muddat davomida – 1056-1057-yillarda – ona yurtini tark etishga majbur bo‘ladi. Natijada, yon-atrofdagi qardosh xalqlar orasida biroz vaqt umr kechiradi. Ana shu davr mobaynida ijodkor turkiy xalqlar istiqomat qiladigan hududlarni kezib, ularning hayot tarzi, nomlanish xususiyatlari, joylashish o‘rni, ayniqsa, ularning til xususiyatlarni puxta o‘rganadi. So‘ng Bag‘dodga qaytib, u yerda ancha vaqt mobaynida ijod qilgan. “Devonu lug‘otit-turk” asarining ham yozilish o‘rni sifatida aynan shu shahar e’tirof etiladi. Muallif ushbu asarni Abulqosim Abdulloh binni Muhammadil Muqtado biamrillohga taqdim etadi.

“Devonu lug‘otit-turk” asari tilshunoslikning ko‘plab sohalarini o‘z ichiga qamrab olgan asar sanaladi, chunonchi, dialektologiya, etimologiya, leksikologiya, leksikografiya. Mahmud Koshg‘ariy asarida mavjud so‘zlarni arab tilida izohlab beradi va quyidagicha fikr bildiradi:

“*Men bu kitobni maxsus so‘zlar, sajlar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Men iste’moldagi so‘zlarnigina berdim. So‘ngra men har bir qabilaga mansub so‘zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo‘llanishini qisqacha izohlab ko‘rsatish uchun alohida yo‘l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelingan she’rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llanadigan hikmatli so‘zlaridan, maqollar keltirdim*”.

“Devonu lug‘otit-turk” ensiklopedik asar, undan eski turkiy tilda mavjud xilma-xil istilohlar, leksik birliklar o‘rin olgan. Kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari, narsa-buyum nomlari va hokazolar lug‘at leksikasini boyituvchi manbalar sifatida ifodalangan. Ushbu leksemalar o‘zida eski turkiy tilga oid bo‘lgan ifodalarni aks ettirishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Asar ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism grammatikaga oid jihatlarni aks ettirsa, ikkinchi qismdan so‘z boyligi o‘rin olgan.

“Devonu lug‘otit-turk” asari tilshunoslikning etimologiya, leksikologiya, leksikografiya, dialektologiya kabi sohalarini o‘zida birlashtirgan. Chunonchi, ayrim so‘zlarning kelib chiqishi xususidagi fikrlar etimologiya sohasiga taalluqli bo‘lsa, leksik birliklarning asardan joy olishi leksikologiya sohasiga hamda lug‘atshunoslikning o‘ziga xos jihati sifatida e’tirof etiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari “Devon”dan bir necha asr o‘tib yozilgan bo‘lsa-da, biroq muallifning yozuvchilik va olimlik mahorati tufayli bugungi kunga qadar o‘zining muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Boburnoma” jahon va o‘zbek manbashunosligining nodir namunalaridan biri sanalib, nasriy usulda bitilgan tarixiy asar hisoblanadi. Asar turlicha nomlarga ega bo‘lib, “Boburiya”, “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”[www.wikipedia.com] kabilar shular jumlasidandir. Asar tili murakkab, ammo unda aks etgan ma’lumotlar tarix, geografiya, tilshunoslik, tabiat va nabotot ilmi kabilar uchun o‘zining qimmatli ahamiyatiga ega.

Bizning ushbu maqolamiz ham bevosita yuqorida nomlari qayd etilgan asarlarda qo‘llangan oziq-ovqat mahsulotlari nomlari va ularning qiyosiy tadqiqi xususidadir. “Devon” va “Boburnoma”da mavjud taom nomlariga oid birliklarni o‘xshashlik xususiyatlariga ko‘ra uch guruhga bo‘lish maqsadga muvofiq:



Shaklan bir xil taom nomlari ikki asarda ham o‘xshash ko‘rinishga ega. Ikkinchi turdagi birliklar tahlilida esa asos tarkibida qisman o‘zgarish vujudga kelganligining guvohi bo‘lamiz. Uchinchi turdagi taom nomlari leksikasiga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning shakli turlicha hisoblansa-da, ammo mazmundagi bir xillik asosiy xususiyat o‘laroq hosil bo‘ladi.

Shaklan bir xil leksemalar “Devon” va “Boburnoma” asarlarida ko‘plab ishtirok etgan. Ular mazmunan o‘xshashlik kasb etadi. Xususan, “Devon”da *aṧ* leksemasining “taom” ma’nosini ifodalashi yaqqol aks etgan. *Aṧ* so‘zi ishlatilgan dastlabki manba “Oltin yoruq” hisoblanadi: *soçig yagliḡ aṧ* – mazali, yog‘li ovqat. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham *aṧ* leksemasi yordamida shakllantirilgan birliklarga boy sanaladi: *aṧ basçisi* – bosh oshpaz, *aṧ suv* – taom, *aṧ tat-* taomni totmoq va boshqalar. “At-tuhfa”da “taom” ifodasi *aṧ* termini orqali anglashilgan. Bundan tashqari, “Boburnoma” asarida *aṧ* leksemasi taom turini bildirgan: “*Osh tortildi… osh tortadurg‘on yerda shira qo‘yub oltun va kumush surohilarni shira ustiga terdilar…*”.

“Devon” da qo‘llanilgan *yaɤ(Koshg‘ariy 2017, 86)* so‘zi bugungi kunga qadar o‘zining shaklini deyarli o‘zgartirmagan holatda yetib kelgan.. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu so‘zga quyidagicha ta’rif beriladi:

“*Yog‘ – chorva mollari, umuman, jonivorlar organizmida, sutida, ba’zi o‘simliklarning urug‘i, doni, gulida bo‘ladigan, ulardan ajratib olinadigan moy. Qo‘y yog‘i. Mol yog‘i. Kunjut yog‘i. Eritilgan yog‘ va hokazo [*O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2006:283*]*”.

“Devon”da ushbu so‘zga quyidagicha izoh berilgan: “*urug‘ va o‘simlik yog‘i*”. “Boburnoma” asarida bu leksik birlik “yog‘” tarzida qo‘llangan: “Har qachon fatilag‘a yog‘ ehtiyoj bo‘lsa, bu kadudin yog‘ qo‘dular” [Bobur, 2018: 208]. Demak, shakldagi qisman o‘zgarish aynan yog‘ leksikasi tarkibida uchraydi (“Devon”da *yaɤ;* “Boburnoma”da yog‘).

Shaklan xilma-xil, ammo mazmunan bir xil taom nomlari ikki asar tarkibida salmoqlidir. Jumladan, “Devon”dan o‘rin olgan taom nomlari, qayd etib o‘tish lozimki, Koshg‘ariy yashagan davr tiliga mos va muvofiqdir. “Devon”dan joy olgan taom nomlarining *azuq (Koshg‘ariy 2017, 46)* ko‘rinishiga ega ekanligi haqida asarda qayd etilgan. Ushbu asos tarkibida yangi so‘z hosil qilingan bo‘lib, u quyidagi ko‘rinishga ega:

Azuqluq I – oziqlik, ovqatlik (*Koshg‘ariy 2017*, 166)

Azuqluq II – oziq-ovqat (*Koshg‘ariy 2017*, 272)

Demak, nomlari keltirilgan ikki so‘z shakldoshlik xususiyatini kasb etadi. “Boburnoma” asarida esa ushbu birlik mazmunini ifodalash uchun a’tima va oshlig‘ birliklaridan foydalanilgan:

A'tima – ovqatlar*: "Xonlarda har nav gazaklar yasab edilar: tovuq kabobi va qoz kabobi va har jins a'timadan torttilar [Bobur 2018, 143].*

Oshlig' – ovqat*: "Cherikiga hech tarafdin oshlig' kelmadi, ochliqtin batang kela yovushib edilarkim, Bust dorug'asi Bustning qo'rg'onini berdi [Bobur 2018, 66].*

Bundan tashqari, ikki asar tarkibida quyidagi oziq-ovqat nomlarini ham qiyosiy tahlil qilish mumkin. "Devonu lug'otit-turk"da qo'llanilgan *sut* [Koshg'ariy, 2017:77] leksemasi hozirgi o'zbek tilida faol qo'llanayotgan sut leksemasi bilan aynan bir xil hamda muallif sut leksemasi ishtirok etgan quyidagi misolni ham keltiradi: "*bu er-ol süt õpürgān – bu kishining odati boshqalarga doim sut ichirishdir*". Shuningdek, asardan sut leksemasi asosida hosil bo'luvchi birliklar ham o'rin olgan. "Boburnoma"da ham xuddi shu shaklda qo'llangan sut so'zining sud ko'rinishi ham mavjud bo'lgan:

"Shanba kuni bir ayoq sut ichtim" [Bobur, 2018:218].

Uδitma [Koshg'ariy, 2017:7] leksemasi "Devon"dagi suzma, yangi panir, ya'ni pishloq nomiga nisbatan qo'llanilgan nom sanaladi. Ammo ushbu leksema "Boburnoma" asarida "panir" shaklida uchraydi: "Ali Masjidqa tushgandan otaliq o'n qo'y, ikki harvor turunch, sekkiz ulug' panir peshkash kelturdi" [Bobur, 2018:171].

"Devonu lug'otit-turk" asarida meva mahsulotlariga oid nomlar miqdoran salmoqli. *Yemiṧ* leksemasi hozirgi o'zbek tilidagi *meva* so'zining eski turkiy tildagi ma'nodoshi hisoblanadi. Bundan tashqari, *yemiṧ* [Koshg'ariy, 2017:327] so'zi umumiylikdan xususiylik tomon yondashilgan holda "daraxt mevasi", ya'ni "ho'l meva" ma'nosini anglatishi "Devon"ga xos misollardan biri sanaladi. Ammo "Boburnoma" yozilgan davrlarga kelib ushbu leksema o'rniga "meva" so'zining iste'molda tez-tez kuzatilishi ko'zga tashlanadi: "Uzum va mevasi bisyor..." [Bobur, 2018:111].

Erük ham "Devon"da o'z aksini topgan leksema hisoblanib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: " shaftoli, o'rik, olxo'ri mevalarining umumiy nomi, ular biror sifati bilan bir-biridan farq qiladi" [Koshg'ariy, 41]. Ko'rinib turibdiki, *erük* termini uch meva nomini anglatgan, ya'ni:

a) shaftoli;
b) o'rik;
c) olxo'ri.

Ushbu so'z bugungi kunga qadar biroz shakli o'zgargan holda yetib kelgan, ya'ni: *erük>o'rik*. Ammo mazmunda ham biroz o'zgarish mavjud, ya'ni eski turkiy tilda *eruk* leksemasi uch meva nomining umumiy ko'rinishini anglatgan (shaftoli, o'rik, olxo'ri) bo'lsa, hozirgi kunga kelib mazmunda torayish yuzaga kelgan, ya'ni faqat *o'rik* leksemasini ifodalashda davom etmoqda. Shuni ham qayd etish lozimki,

lug‘atshunos *erük* termini yordamida uch meva nomining umumiy jihatini aytib o‘tgan bo‘lsa, ularga ma’lum sifatlovchilar berish orqali fitonimlardagi mazmunni farqlashga erishgan, xususan: *tülüg erük* [Koshg‘ariy, 2017:41] – shaftoli; *sarı̈ır erük* [Koshg‘ariy, 2017:41] – o‘rik; *qara erük* [Koshg‘ariy, 2017:41] – olxo‘ri. Bobur asarida esa ushbu birlik “o‘ruk” shaklida o‘z ifodasini topgan: “purne’mat anori va o‘rugi asru xo‘b bo‘lur”. Bundan tashqari, zardolu leksemasi ham o‘rik mevasiga nisbatan qo‘llangan nomlardan biri sanaladi: “...chuchukligida zardolu mayxushligidin andak choshni bor” [Bobur, 2018;35].

“Devon”da shaftoli mevasining turfa navlari ham birma-bir qayd etib o‘tiladi, ya’ni uning nashvati, olmurut navi *armut* [Koshg‘ariy, 2017:79] leksemasi yordamida aks ettiriladi. Ushbu fitonim etimologiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning o‘rta qipchoq qabilalariga oid ekanligining guvohi bo‘lish mumkin. Fors tilida ham bu leksema mavjud bo‘lib, u *armud* yoki *amrud* kabi ko‘rinishlarga ega ekanligi manbalarda qayd etiladi. Ba’zi ilmiy adabiyotlarga tayangan holda qayd etishimiz mumkinki, ushbu fitonimning ko‘plik shakli eski turkiy tilda *armut* shaklida qo‘llangan. Tushum kelishigidagi formasi esa *armudu* hisoblanadi. Biroq “Boburnoma” asarida ushbu leksema biroz shakli o‘zgargan holda qo‘llangan va ma’nosida ham o‘zgarish yuz bergan. Nok mevasiga nisbatan asarda “amrud” ifodasi qo‘llangan: “Yana noranj mushobihi sadofildur, amrud andomliqdur” [Bobur, 2018:206].

Amsẖuy [Koshg‘ariy 2017, 59] yoki *limkān* [Koshg‘ariy, 2017:176] terminlari olxo‘rining sariq turiga nisbatan “Devon”da qo‘llangan bo‘lsa, ushbu termin “Boburnoma” asarida olu ifodasi yordamida olxo‘ri va shunga o‘xshash bir necha xil mevalar nomiga nisbatan ishlatilgan: “Buxoro olusidek hech yerda bo‘lmas”. Ikki asarda qo‘llangan taom nomlariga oid birliklarning qiyosiy tadqiqini quyidagi jadval asosida shakllantirishimiz maqsadga muvofiqdir:

/r	**“Devon”da aks etgan taomlari**	**“Boburnoma” asaridagi taom nomlari**
	Qiyosiy tahlil	
	Aṧ	*Osh*
	Azuqluq	*A’tima/ozuqliq*
	Amṧuy/ limkān	*Olu*
	Armut	*Amrud*
	Eruk	*O‘ruk*
	Sut	*Sut/sud*
	Uδitma	*Panir*
	Yemiṧ	*Meva*

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” va Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarining lingvistik nuqtayi nazardan qiyosiy tadqiqini amalga oshirish ushbu asarlarning badiiy va ilmiy ahamiyatini beqiyos oshiradi. Asardagi taom nomlariga oid birliklarning o‘xshash va farqli xususiyatlari ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliqulov A. 2005. Leksemalarning tasnifiga doir. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, №2.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 1985. Toshkent: Fan.
3. Muxtarov A., Sanaqulov U. 1995. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent: Fan.
4. Nasirov D.S., Paxratdinov Q. 1996. Tyrkiy tillerdiң jazba estelikleri. Nukus: Qaraqalpaq,
5. Tursunov U., O‘rinboev B. 1995. O‘zbek adabiy tili tarixi. Toshkent: Fan.
6. Xolmanova Z. 2007. Tilshunoslikka kirish. Toshkent.
7. Z.M.Bobur. 2018. Boburnoma. V. Rahmonov va K. Mullaxo‘jayeva tadbili. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
8. Абдураҳмонов Ғ. 1999. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. Тошкент.
9. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш. 1973. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Тошкент: Ўқитувчи.
10. Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. 1981. Тошкент: Фан.
11. Абдушукуров Б. 2017. “Қиссаси Рабғузий лексикаси. Филол. фан. док…дисс. Тошкент: Б. 192.
12. Аджи М. 1998. Европа, тюркии, Великая степь. Москва.
13. Бегматов Э. 1985. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. Тошкент: Фан.
14. Бобожонов Й. 1997. Жанубий Хоразм этнографиклексикаси. Тошкент: НДА.
15. Болтабоев Ҳ., Дадабоев Ҳ. 2006-2008. Девону луғотит турк, I,II,III жилдлар. Тошкент.
16. Будагов Л. 1969. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. I, .СПБ, II. СПБ.
17. Воҳидов Э. 2018. Сўз латофати. Тошкент: Ўзбекистон.
18. Гумилев. Л.Н. 2007. Қадимги турклар. Тошкент: Фан.
19. Дадабаев Ҳ., Насыров И., Ҳусанов Н. 1990. Проблемы лексики староузбекского языка. Ташкент: Фан.
20. Дадабоев Ҳ. 1988. “Бобурнома”даги баъзи бир терминларга доир мулоҳазалар // Адабий мерос. Тошкент. -№ 1 (43-сон).

21. Дадабоев Ҳ. 1998. Қадимги туркий ёдгорликлардаги атамалар ҳақида// Адабий мерос. №1-2. – Б.13-18.
22. Дадабоев Ҳ. 2014. “Девону луғоти-т-турк”даги эркак жинсини ифодаловчи лексемалар. “Лингвист” даврий мақолалар тўплами, V сон. Тошкент: Академнашр. – Б. 4-12.
23. Дадабоев Ҳ. 2017. “Девону луғотит-турк”нинг тил хусусиятлари. Тошкент: ТДШИ. – Б. 133.
24. Дадабоев Ҳ., Ҳамидов З., Холманова З. 2007. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. Тошкент: Фан.
25. Девону луғотит турк I,II,III жилдлар. 1940. Тошкент: Ўзбекистон СССР Фан нашриёти Тошкент.
26. Косимова С. 2017. XI – XIII асрларда Мовароуннаҳр тилшуносларининг араб грамматик назарияси бўйича илмий тадқиқотлари. Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD)… дисс. Тошкент.
27. Кошғарий Маҳмуд. 1960-1963. Девону луғотит турк. I – III. Тошкент: Фан.
28. Кошғарий Маҳмуд. 1963. Девону луғотит турк. III. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. Тошкент: ЎзФА нашриёти.
29. Мукаррамов И. 1984. Ҳозирги ўзбек тили адабий тилининг илмий услуби. Тошкент: Фан.
30. Поппе Н.А. 1936. Манголиский словарь — Муқаддиматул адаб. Т. I, II. Москва.
31. Радлов В.В. 1893. Опит словаря тюриских наречий. Москва.
32. Радлов В.В. СПБ. Т.I-1893, Т. II-1899, Т.III-1900, Т.IV-1905.Опыт словаря тюркских наречий.
33. Раҳматуллаев Ш. 2000. Ўзбек тилиниг этимологик луғати (туркий сўзлар). Тошкент: Университет.
34. Сайфи Саройи. Гулистон (нашрга тайёрлов Э. Фозилов). 1968. Тошкент.
35. Содиқов Қ. 2017. Девону луғотит турк. Тошкент.
36. Татарско-русский словарь. 1966. Москва: Наука.
37. Турецко-русский словарь. 1977. Москва: Наука.
38. Турецко-русский словарь. 1987. Москва: Наука.
39. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. 2006. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 680 б.
40. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд. 2007. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 688 б.
41. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. 2007. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 608 б.
42. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилд. 2007. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.

43. Уйгурского-русский словарь. 1968. Москва.
44. Усмонова Ш. 2011. Олтой тилларида маиший лексика. Тошкент.
45. Усмонова Ш. 2011. Олтой тилларидаги муштарак маиший лексика тадқиқи. Филол. фан. док…дисс. автореф. Тошкент.
46. Холмуродова М. 2009. “Қутадғу билиг” лексикаси. Филол. фан. фал. док.-ри (PhD). Тошкент.

“Boburnoma” asaridagi sabab izofiy birikmasining inglizcha tarjimasi tahlili
An analysis of the english translation of the synopsis of cause in “Baburnoma”

Yulduz ZAYNIYEVA[1]

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk hukmdor, ulug‘ sarkarda, tengsiz adib va shoir, tarixchi, adabiyotshunos olim bo‘lgan. O‘zbek mumtoz adabiyoti namunasi “Boburnoma” O‘rta Osiyo xalqlari haqida eng qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, Boburdan qolgan eng muhim badiiy merosdir. Ushbu asar bir necha asrlardan buyon o‘rganib kelinishiga qaramasdan, hali ham uni to‘liq o‘rganib bo‘lindi deb ayta olmaymiz. “Boburnoma” asaridagi sabab ma’nosini anglatuvchi izofalar *mujibi umidvorlik* va *mujibi noumidlik* birikmalarining inglizcha tarjimasi tadqiqinini ushbu maqolada ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, izofa, mujibi umidvorlik, mujibi noumidlik*

Annotation: Zahiriddin Muhammad Babur was a great ruler, magnificent commander, an incomparable writer and a poet. “Baburnama” is a unique work of history, classic literature, and Turkish written and literary language. “Baburnama” which is an example of Uzbek classical literature, contains the most valuable information about the peoples of Central Asia, and is the most important creative heritage left by Babur. Although this work has been studied for several centuries, we still cannot say that it has been fully studied. In this article, we will study the English translation of the conjunctions “*mujibi umidvorlik*” (hope) and “*mujibi noumidlik*” (hopeless) in the work “Baburnama”.

Key words: *“Baburnama”, izafa, mujibi umidvorlik(hope), mujibi noumidlik (hopeless)*

Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, sarkarda, shu bilan birga iste’dodli shoir, tarixchi va zakovatli olim bo‘lgan. Boburning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy, ilmiy asar, balki turkiy (chig‘atoy)da yuksak mahorat bilan bitilgan badiiy asardir. “Boburnoma”, “Bobiriya” nomi bilan yuritilayotgan ushbu asar Markaziy Osiyo, keyinroq esa bir necha Ovrupo tillariga, shu jumladan, ingliz va fransuz tillariga qayta-qayta tarjima qilingan. Ular orasida Anetta Susanna Beverij hamda Uiller Tekstonning asliyat va forsiydan qilgan tarjimalari eng yaxshi tarjima hisoblanadi.

Xususan, asarning ingliz tilidagi ko‘plab tarjima nusxalari mavjud bo‘lib, dastlab 1775-1811-yillarda yashagan ingliz sharqshunosi Jon Leyden 1809-yilda ingliz tiliga tarjima qilishga kirishgan. U bevaqt vafot etgach, ushbu ishni

[1] *Yulduz Zayniyeva* – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

shotlandiyalik rohib, sharqshunos olim Uilyam Erskin davom ettirgan va 1816-yilda oxiriga yetkazgan. Jon Leyden va Uilyam Erskin hammuallifligidagi o‘zbekcha va forscha nusxalarini solishtirish asosida 1826-yili Londonda nashr qilingan. Ushbu tarjima o‘z navbatida 1921-yilda Uayt King tomonidan to‘ldirilib yana nashr etilgan. Shuningdek, uning inglizcha tarjimalari bir bir o‘rganilar ekan, ba’zida asarning badiiy xususiyati o‘rganilsa, ba’zida uning iboralari tarjimasi tadqiqqa tortiladi. Bizning maqolada esa garchi izofalar qisqa va u qadar murakkab tahlil xususiyatlariga ega bo‘lmasa-da, baribir tarjimadagi mazmun mutanosibligi tarjimonni qiziqtirishi tabiiy. Izofalar tarjimadagi muammoni yechimini ochiqlab berishi bilan birga asliyatning asl mazmunini qaysi tilga tegishli ekanligini ham aniqlab beradi. Mana shuning uchun ham tarjimon zullisonayn bo‘lishi ham kerak, degan fikr vujudga keladi. Shu nuqtai nazardan “Boburnoma”dagi izofalar tarjimalari qay tarzda uzatilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

‘‘Boburnoma”dagi sabab ma’nosini anglatuvchi *mujibi umidvorlik* va *mujibi noumidvorlik* izofalarining inglizcha tarjimalarini tahlil qilsak.

M.Amonov izofali birikmalardagi *mujibi umidvorliq* umidvorliqqa sabab, mujibi noumidlik noumidlikka sabab ma’nosini anglatib, ularni o‘z dissertatsiyasida misollar orqali ochib bergan [Амонов. 2020.]

Har necha kunda bir kishi kelib, viloyattin va el va ulusdin so‘zlar taqrir qilur edikim, ***mujibi umidvorliq bo‘lur edi*** [“Boburnoma” 2002:109]. Yuqoridagi misolning tabdili esa quyidagichadir:

Garchi Xuroson niyati bilan yo‘lga chiqqan bo‘lsak-da, lekin shu ahvolimizda bu viloyatdan na Xisravshoh navkarlaridan *umidvorlik bor edi*.[“Boburnoma”2008 – 100];

Tabdilda ***mujibi umidvorliq bo‘lur edi*** ya’ni *umidvorlik bor edi* tarzida beriladi. Yuqoridagi misollar esa J.Leyden va L.Erskinda quyidagichja tarjima qilinadi:

Although I was on my way for Khorasan, yet, in the present state of things, I was not quite without *hopes* [*umidlar*] of still effecting something here among the territories and servants of Khosrou Shah [J.Leyden – W.Erskine-202]. Susanna Beverijda esa quyidagicha beriladi:

Though we had started with the intention of going into Khurasan, yet with things as they were something was *hoped for[umid qilib]* from the Hisar country and Khusrau Shah’s retainers [Susanna Beveridge, 1921:188].

Asliyat matni V.Tekstonda esa quyidagicha beriladi.

Although we had set out for Khurasan, *hope [umid]* issued from this province and from Khusrawshah's liege men. Every few days someone came to give encouraging reports of the tribes and folk of the region. [Wh.Thackston, 1996:161].

Yana asliyatda shunday matn beriladiki: *Sulton Husayn Mirzoning bu xatlari* ***mujibi noumidlik bo‘ldi*** (BN:111-bet) Ya’ni ***mujibi noumidlik bo‘ldi-*** *umidsizlik sababchisi bo‘ldi* tarzida berilgan. Uning tabdi ushbudir: Sulton Husayn Mirzoning bu xatlari *umidsizlik sababchisi bo‘ldi*. Negaki, Temurbekning yurtida bu tarixiy sanada ham yosh, ham tasarrufidagi yer-mulk, ham lashkar hisobi jihatidan undan ulug‘roq podshoh yo‘q edi [101].

Asliyat matni Jon Leyden va Uilyam Erskinda quyidagicha tarjima qilingan.

These letters of Sultan Hussain Mirza threw us into *despair [noumidlik];* for, at that time, of the whole house of Taimur Beg, there was no sovereign so respectable, either in regard to age, dominions, or military force [Erskine-206].

Asliyat matni Anetta Susanna Beverijda quyidagicha tarjima qilingan.

These letters threw us into *despair;* [noumidlik] – for why? Because at that time there was in Timur Beg‘s territory no ruler so great as SI. Husain Mirza, whether by his years, armed strength, or dominions; [Beviridge -191].

Asliyat matni V.Tekstonda esa quyidagicha beriladi.

These letters of Sultan-Husayn Mirza caused *despair*[noumidlik]. At that date no padishah within Temur Beg‘s domain was greater in age, estate, or army than he [Wh.Thackston 1996 – 163] .

Jadval-1.

Asliyat	Tabdil-2008	Jon Leyden va Uilyam Erskin	Suzsanna Beverij	Uiller Tekston
Mujibi umidvorlik	*umidvorlik*	*hopes* of	*hoped for*	*hope* issued
Mujibi noumidlik	*umidsizlik sababchisi*	into *despair*	into *despair*	caused *despair*

Demak tarjimalarni tahlilidan ko‘rinadiki, uch turdagi tarjimonlarning barchasi deyarli bir xil so‘z tanlagan bo‘lsalarda J.Leyden va S.Beverijlarda predlog of, for, into orqali hope umid, despair umidsizlikni aks ettirib berganlar. V.Tekston esa to‘liq gap *hope* issued, caused *despair* kabi shakldan foydalangan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, izofa tarjimada emas asliyatning ma’nosini ona tilida tushunib olish muhim ekanligi isbotlandi

Adabiyotlar

1. Amonov, M. 2020. “Boburnoma”dagi izofiy birikmalarning lisoniy tadqiqi. - Farg‘ona.

2. “Baburname” 1989. (Memories of Babur) Annette Susannah Beveridge, New Dehli.

3. “Boburnoma” nashrlari. 2024-yil. Bobur nomli xalqaro jamoat fondi raisi, professor Z. Mashrabov.

4. Ҳожиев, А., Нурмонов, А. ва б. 2001. Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларнинг изоҳли луғати . - Тошкент : Шарқ.

5. Винокур, Г.О. 1961.О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. Труды МИФЛИ. Т.5. Сборник статей по языкознанию. - Москва.

6. 3. Muhammadiyeva D. Semanticeskaa klassifikacia frazem v Baburname. URL https://www.researchgate.net/publication/355780029..(Oxirgi murojaat qilingan sana: 18.09.2024)

Zahiriddin Muhammad Bobur. 2008. “Boburnoma”. V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jayevalar tabdili, –Toshkent: O‘qituvchi.

7. Zahiriddin Muhammad Bobur. 1989**.** “Boburnoma”. -Toshkent: Yulduzcha.

8. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2015 “Boburnoma”. -Toshkent: Yangi asr avlodi.

9. John Leyden and William Erskine. 1921. “Zehireddin Muhammed Babur”. – Oxford: Oxford University Press.

10. Thackston Wheeler. 1996. The Baburname. – New York.

11. https://dictionary.cambridge.org/dictionary

12. https://uz.wikipedia.org/wiki

13. https://www.google.com/search?q=translator

Ingliz va o‘zbek tillarida zoomorflar orqali shakllangan xarakter iboralar
Character phrases formed by zoomorphs in English and Uzbek languages

Shahnoza MAQSUDOVA[1]

Anotatsiya: Ushbu maqola o‘ziga xos madaniy va lingvistik an’analarga ega bo‘lgan o‘zbek va ingliz tillarida hayvonlarning iboralari olamiga bag‘ishlangan. Ushbu iboralarni taqqoslash va taqqoslash orqali biz ushbu tillarning ma'noni etkazish va murakkab insoniy tajribalarni etkazish uchun hayvonlar ramzidan foydalanishning umumiy va o‘ziga xos usullarini ochishni maqsad qilganmiz.

Biz ushbu idiomalarning kelib chiqishini, o‘ziga xos hayvonlar va ular bilan bog‘liq xususiyatlarni va ularning talqinini shakllantiradigan madaniy kontekstni o‘rganamiz. Ushbu qiyosiy tahlil orqali biz inson tabiatining universalligi haqida tushunchaga ega bo‘lamiz, shuningdek, har bir tilda aks ettirilgan o‘ziga xos istiqbollar va madaniy qadriyatlarni qadrlaymiz.

Kalit so‘zlar: *zoomorf, xarakter iboralar,fe’l atvor, obraz, hayvonlar timsoli.*

Abstract: This article delves into the world of animal idioms in Uzbek and English, two languages with distinct cultural and linguistic traditions. By comparing and contrasting these expressions, we aim to uncover the shared and unique ways in which these languages utilize animal symbolism to convey meaning and communicate complex human experiences.

We will investigate the origins of these idioms, the specific animals and their associated traits, and the cultural context that shapes their interpretation. Through this comparative analysis, we will gain insights into the universality of human nature while also appreciating the distinct perspectives and cultural values reflected in each language

Key words: *zoomorph, character phrases, character, image, animal symbol*.

Zoomorf til, ya’ni hayvon obrazlaridan inson xarakterini tasvirlashda insonning hayvonot olamiga bo‘lgan chuqur qiziqishini ochib beradi. Bu iboralar oddiy metafora bo‘lishdan uzoqda, tabiat dunyosi va o‘zimizning murakkab tabiatimizni birlamchi tushunishga yordam beradi. Zoomorflar inson va hayvonlarning xulq-atvori o‘rtasidagi o‘xshashliklarni keltirib, bizning hayratlanarli va unchalik ko‘p bo‘lmagan xususiyatlarimizni yoritadi.

Ba'zi zoomorflar ijobiy fazilatlarni - jasoratning "sherning yuragi" ni, o‘tkir ko‘rishning “burgut ko‘zini” uyg‘otsa, boshqalari bizning qorong‘u tomonlarimizni ochib beradi. “Qo‘y kiyimidagi bo‘ri” bizning aldash qobiliyatimizni ta'kidlaydi,

[1]*Shahnoza Maqsudova* – Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti.

“o‘tdagi ilon” esa xiyonat qilish qobiliyatimizni ochib beradi. Biroq, bu iboralar shunchaki yorliqlar emas, balki bizning o‘ziga xos ikkiligimizning nozik aks ettirilishidir. Biz ham olijanob, ham asosiy harakatlarga, yuksak cho‘qqilarga ko‘tarilishga va umidsizlikka tushishga qodirmiz.

Har ikki tildagi inson fe’l atvorini, xulqini ifodalovchi frazeologizmlarning eng asosiy qismlarini aslida zoonimlar va somatik iboralar tashkil etadi. Zoonimlarda odatda hayvon xususiyatlari, fe’l atvorlari insonga metaforik yo‘l bilan ko‘chadi. Somatik iboralarda esa insonning fe’l atvori, xarakteri tana qismlari bilan bog‘lanadi. Ch.Inkuy o‘zining doktorlik ishida zoonimlarning semantik taraqqiyotini tahlil qiladi. Jumladan, shaxs tavsifida 127 ta hayvon nomi qo‘llanilib, ulardan 52 tasi yovvoyi, 75 tasi xonaki, 15 tasi hasharot, 11 tasi umumiy hayvon nomlarini ifodolovchi so„zlar, 10 tasi baliqlar, 7 tasi ham suvda, ham quruqlikda yashovchi jonivorlar, 5 tasi bir hujayrali hayvonlar ekanligini aniqlagan. Turkiy xalqlarda zoonimlarning tadqiq etilish tarixi“Devonu lug‘otit turk” asariga borib taqaladi. Ushbu asar turkiy xalqlarning noyob durdona asari bo‘lib, lug‘atda xalq og‘zaki ijodiga oid 300dan ortiq she’riy parchalar, 291 ta maqol va matal keltirilgan. Bu matnlar tarkibida 200ga yaqin zoonim, jumladan, 100ga yaqin qush nomi uchraydi. D.X.Bazarova o‘z tadqiqotida o‘zbek tilida mavjud qush nomlarini o‘rgangan. Asrlar mobaynidagi tashqi aloqalar natijasida o‘zbek tilida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar qush nomlarining variantlashuvi, dubletlar va sinonimlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lganligi ta’kidlangan.Tadqiqotda o‘zbek tilidagi qush nomlari tadqiqi asosida turkiy tillarga xos ornitonimlar tavsiflangan. H.A.Saidovaning ishida yovvoyi va uy hayvonlari, parrandalar, qurt-qumusqa kabilarni atab keluvchi so‘zlar hayvon nomlarini tashkil etishini izohlab, hayvon nomlarini tadqiqot obyetki sifatida oladi. Ishda ellikta zoonim semantik jihatdan tahlil qilingan. H.A.Saidova o‘z ilmiy ishida o‘zbek tilida eng ko‘p ishlatiladigan hayvon nomlarini tanlab olgan va zoonimlarni atash, nomlash va tasvirlash kabi ikki vazifada ishlatilishini yozgan. Jumladan, “Hayvon nomlari atash vazifasini bajarganda o‘z (to‘g‘ri) ma’nosida ishlatiladi. Tasvirlash vositasi sifatida qo‘llanganda esa shaxsni tavsiflovchi muhim vosita sanaladi va ko‘chma ma’noda ishlatiladi. Masalan, ArslonLisoniy ma’no: Katta jussali, chaqqon, qo‘rqmas, yirtqich hayvon.

Ko‘chma ma’nolari:

1) “rahbar”, “hokim”, “qo‘mondon”. “shoh”;

2) “sog‘lom”, “yetilgan”, “baquvvat”, “kuchli”;

3) “haybatli”, “darg‘azab”;

4) “chaqqon”, “epchil”;

5) “izidan qaytmas”, “bir so‘zli”

Hozir o‘zbek tilida inson xarakterini ochib beruvchi FBlarning ba’zilarini tahlil etsak:

Ilonning yog‘ini yalagan iborasi odatda juda ayyor mug‘ombir, quv insonlarni tasvirlashda qo‘llaniladi.

Ilon obrazi zoonimik leksika tizimida insonning salbiy xulq atvorini tasvirlashda alohida o‘rin tutadi. Ko‘pgina boshqa jonivorladan farqli o‘laroq, ilon o‘ziga xos timsollar xilma-xilligi va boyligi bilan ajralib turadi. U haqda juda ko‘p afsona, rivoyat, she’r, topishmoq va ertaklarda “xavf-xatar”, “qo‘rqinch”, “ablahlik”, “tajovuzkorlik” kabi tushunchalar bilan uyg‘unlashgan holda salbiy qiyofada namoyon bo‘ladi. Aksariyat xalqlarning ilon obraziga nisbatan shakllangan lingvomadaniy xususiyatlari va qarashlari, umumiy tarzda, mos kelishi ehtimol shundandir.

Mirzakarimboy *ilonning yog‘ini yalagan* odam edi: hamma boylar kabi ayyor, mug‘ambir, puxta-pishiq”.

Yer tagida ilon qimirlasa bilmoq iborasi esa ustamon, juda ziyrak kishini tasvirlashda qo‘llaniladi.

Yer tagida ilon qimirlasa bilaman, xotirjam bo‘l,— deya javob qildi u.

— Agar men bilmasam, boshqa kim ham bilardi.

Bu yerda bu ibora o‘ta ziyrak xarakterli inson obrazini tasvirlashda qo‘llanilmoqda.

O‘zbek tilida qo‘y arxiemasi ko‘p hollarda o‘ta yuvvosh va beozor insonlarni tasvirlashda yordam beradi. *Qo‘ydek yuvvosh, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan* FBlari nihoyat darajada mo‘min, beozor insonlarni tavsiflash uchun qo‘llaniladi.

Endi *qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan* bir yigitni ham bu dunyodan kuydirib o‘tkazmoqchimisan?

It fe’l- xulq atvori yoqimsiz insonlarni tasvirlashda qo‘llaniladigan bu ibora aslida ushbu hayvonning asl tabiatidan kelib chiqib o‘xshatish asosida ma’no ko‘chish orqali yasalgan.

Dardi xarina! Halitdan it fe’lingni oshkor qilmoqchimisan? Ayt, nima bo‘ldi, nonko‘r?

Quyon yurak- o‘taketgan qo‘rqoq insonlarni tasvirlashda qo‘llanilib keladi

-Sen qo‘rqoqsan! Quyon yurak!, - deya bolakayni haqorat qilishadi. Shu on kutilmaganda qaerdandir miltiqdan otilgan daydi o‘qlardan biri g‘o‘ng‘illab kelib bolakayning bog‘liq tuguniga uriladi.

Ingliz tilida ham aynan ilon, qo‘y so‘zi qatnashgan xarakter iboralar juda ko‘p va ularning aksariyati salbiy xarakterni tasvirlashda qo‘llaniladi.

Yolg‘onchi ishonib bo‘lmaydigan insonni tasvirlash uchun qo‘llaniladi *a snake in the grass* iborasi qo‘llaniladi.

We used to be friends, but who knows, he’d turn out to be such a snake in the grass? (Biz ilgari do‘st edik, lekin kim biladi, u o‘ta ayyor quv bo‘lib chiqadi?)

a snake in (one's) bosom (qo‘ynidagi ilon). Bu ibora aynan o‘zbek tilidagi shu kabi iboraga o‘xshash bo‘lib ayyor va noshukur insonlarning fe’l atvorini ochib berishda qo‘llaniladi.

Well, it turns out that Margaret was quite a snake in my bosom. I put my neck on the line to get her a job in our company, and then she turns around and tries to get me fired! (Ma'lum bo‘lishicha, Margaret mening bag‘rimdagi ilon edi. Men uni bizning kompaniyamizga ishga joylashtiraman deb bo‘ynimni qo‘ydim, keyin u orqasiga o‘girilib, meni ishdan bo‘shatishga harakat qiladi!)

As Mean as a Junkyard Dog- o‘taketgan shavqatsiz, urushqoq insonlarga nisbatan qo‘llaniladigan bu ibora o‘zbek tilidagi it fe’l iborasining ma’nosiga ancha yaqin keladi.

Don't mess with her, she's a junkyard dog when it comes to negotiations

Harmless as a Pet Rabbit- quyondek beozor. Bu yerda quyon zoonimi judayam yuvvosh va beozor sifatli inson xarakterini tasvirlash uchun qo‘llaniladi.

“She is so sweet. I reckon she is as harmless as a rabbit."

Have rabbit ears iborasi tanqidni ko‘tara olmaydigan insonlarni tasvirlashda qo‘llaniladi.

Catch the bull by its horns idiomasi esa eng og‘ir paytlarda ham o‘zini qahramonlarcha tuta oladigan insonlarni tasvirlashda qo‘llaniladi

Wolf in sheep’s clothing iborasi o‘ta ayyor va xavfli odamlar uchun qo‘llaniladi. Bu iboraning kelib chiqish tarixi Ezop masallariga borib taqaladi.

Mashhur yunon hikoyachisi Ezopning hikoyasida och bo‘ri qo‘yni o‘ldirib, terisini kiyib, qo‘ylar suruviga etib boradi va yana bir qanchasini o‘ldiradi. Qo‘ylarning hammasi bo‘ri ham ulardan biri deb o‘ylardi. Xavfli bo‘ri qo‘y terisi ostiga yashirinib, suruvni aldashga muvaffaq bo‘ldi!

Never trust strangers on the street, they may be wolvez in sheep’s clothing.

(Hech qachon ko‘chadagilarga ishonma , ular xavfli, ayyor odamlar bo‘lishi mumkin)

Bundan tashqari har ikki tilda boshqa hayvonlar va nabototlarni o‘z ichiga olgan juda ko‘p zoonimlar mavjud.

Zoomorfik til bizning umumiy insoniyligimizni kuchli eslatuvchi bo‘lib xizmat qiladi. Hayvonlarda bizni hayratda qoldiradigan yoki qo‘rqitadigan bir xil xususiyatlar - kuch, ayyorlik, sodiqlik, tajovuzkorlik - bizning ichimizda ham mavjud. Bizning borligimizning bu hayvoniy tomonlarini tan olish orqali biz o‘zimizni va motivatsiyalarimizni chuqurroq tushunamiz.

Oxir oqibat, inson xarakterini tasvirlash uchun zoomorflardan foydalanish bizning tabiat olamiga bo‘lgan hurmatimizni va inson tabiatining murakkabligini tushunish uchun davom etayotgan izlanishimizni aks ettiradi. Ular ramziy ma'no,

metafora va barchamizdagi hayvonni tushunish iplari bilan to‘qilgan boy lingvistik gobelen bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Базарова Д.Х. 1978. История формирования и развитие зоологической терминологии узбекского языка. –Ташкент: Фан.
2. Саидова Ҳ.А.1995. Ўзбек тилида ҳайвон номларининг шахс тавсифи вазифасида қўлланилиши: Филол. фанлари номзоди... дисс. –Бухоро.
3. Nurmuhammedov, Yusuf. 2022. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari.
4. https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/tora-sulaymon-ergash-jumanbulbul-ogli-el-kezadi-turkumidan-kuntugmish-dostoni.html
5. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek. 1976. Mukammal asarlar to‘plami. 19 jildlik.7-tom: Oltin vodiydan shabadalar. Roman. –Toshkent: Fan.
6. https://ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/ziyod-salim-o-g-li-1922-2000-
7. turkiya/ziyod-salim-o-g-li-qudratli-salim-hikoya
8. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/viktor-gyugo-1802-1885- fransiya/viktor-gyugo-qo-rquv-hikoya
9. https://www.imword.com/idioms/snake
10. https://www.thevillageidiom.org/idioms/junkyard-dog-idiom-meaning-and-origin/
11. https://discover.hubpages.com/literature/rabbit-idioms

“Boburnoma”da gidronimlar va ularning inglizcha tarjimasi muqoyasasi
A comparison of hydronyms and their english translations in the boburnoma

Mubina ABBASOVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Boburnoma”dagi gidronimlar va ularning uch ko‘rinishga ega J.Leyden-V.Erskin (1826), Anneta S. Beverij (1921) va V.Tekston (1996) inglizcha tarjimasi tahlili va tarjima muammolariga bag‘ishlangan. Maqolada Qizil suv, Andarob suyi, Obirahmat, qora suyi kabi gidronimlar tarjimasi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, inglizcha tarjima, Qizil suv, Andarob suyi, Obirahmat, Konigil qora suyi.*

Annotation: This article deals with the analysis of translation problems of the hydroniums in “Baburnama” and their three different English translations by J.Leyden-W.Erskine (1826), Anneta S.Beveridge (1921) and W.Thackston (1996). The article analyzes the translation of hydroniums such as Red water, Andarob suyi, Obirahmat, black water.

Key words: *“Baburnama”, English translation, Red water, water of Andarab, Obirahmat, Konigil black water.*

“Boburnoma”da eng ko‘p qo‘llanadigan joy nomlaridan biri gidronimlardir. Biz ushbu maqolamizda *Qizil suv, Nilob, Quruqsoy, Obirahmat* kabi gidronimlarning inglizcha tarjimalarini o‘rganamiz.

*Яъқубга ижозат бергандин сўнг **Қизилсув** қуйи кўчуб, **Андароб суйи**нинг қотилишиға ёвуқ тушулди*. [Бобурнома, 2002: 104]. Ushbu misoldagi ajratib berilgan ***Қизилсув, Андароб*** so‘zlari gidronimlardir. Bir necha marta ingliz tiliga tarjima qilingan “Boburnoma” o‘zining noyob asar bo‘lishi bilan bir qatorda uning ingliz tili sohibi tomonidan o‘rganilishi biz uchun yaxshi manbadir. Keling, asardagi gidronimlar tarjimasining xorijiy tilga qanday ko‘chishini o‘rganib chiqamiz. Demak, yuqoridagi asliyat matnida berilgan gidronimlar 1826 yilda amalga oshirilgan J.Leyden va V.Erskin tarjimasida qanday berilgan ekan:

*After Yakub had taken leave, we marched down the **Kezel-su**, and encamped near its conflux with the **river of Anderab***. [J.Leyden-W.Erskin, 1826: 131]. Bu joyda ***Қизилсув*** inglizchada ***Kezel-su*** *–Kezel-su* deb berilsa, *Andarob suyi* - ***river of Anderab*** *– Andarob daryosi*ga o‘zgaradi. Asliyat matni “Boburnoma”ning 1921 yilda qilingan S.Beverijning tarjimasida quyidagicha beriladi:

[1] *Mubina Abbasova* – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

After giving Yaq'ub leave to go, we marched down the ***Qlzll-su*** *and dismounted near to where it joins the* ***water of Andar-ab***. [A.S.Beveridge, 1921: 193]. A.Beverij tarjimasida *Andarob suyi-* ***water of Andar-ab****-Andar-ab suvi* tarzida tarjima qilinadi. Asliyatdagi ***Қизилсув*** inglizchada ***Qlzll-su*** ya'ni ushbu tarjimada imlo xatolar ham ko'zga tashlansa, uning tarjimasida *Qlzll-su* tarzida beriladi, *Andarob suyi* - ***water of Andar-ab*** – Andarob suvi tarzida tarjima qilingan.

Asliyat matni 1996 yildagi uchinchi tarjimon V.Tekstonda quyidagicha beriladi:

After Ya'qub was permitted to leave, we moved down the ***Red River*** *and camped near the confluence with the* ***Andarab*** [Wh.Thackston, 1996: 164].

Bu joyda *Andarob suyi-* ***Andarab*** *- Andarab* tarzida berilgan. V.Tekston tarjima uslubiga mos jihatni "Qizil suv" gidronimini ham garchi toponim bo'lsa ham tarjimaning kalka usulini qo'llab, ***Қизилсув*** ni ***Red River*** deya tarjima qilgan.

Keyingi misol esa *qora suv, Obi Rahmat* kabi gidronimlardir. *Яна Пуштаи Кўҳакнинг доманасида Конигилнинг* ***қора суйи****нинг устидаким, бу сувни* ***Оби Раҳмат*** *ҳам дерлар, бир боғ солибтур. Нақши жаҳонға мавсум* [Z.M. Bobur, 2002: 59]. ***Қора суйи*** va ***Оби Раҳмат*** gidronimining tarjimasi J.Leyden va V.Erskin tarjimasida quyidagicha beriladi.

– There is another garden, on the skirts of the hill of Kohik, on the banks of the **Ab-Siah** (black-water) of Kanegul, which they call ***Ab-e-Rahmet***, (or Water of Mercy), and this is denominated Naksh-e-Jehan (the Miniature of the World) [J.Leyden-W.Erskin, 1826: 50]. ***Қора суйи*** **- Ab-Siah** (black-water) va ***Оби Раҳмат*** **-** ***Ab-e-Rahmet*** kalka tarzida tarjima qilinadi.

Asliyat matni Beverijda quyidagicha tarjimasi: He made another garden, known as the Naqsh-i-jahan (World's Picture), on the skirt of Kohik, above the **Qara-sii** or, as people also call it, the **Ab-i-rahmat** (Water-of-mercy) of Kan-i-gil. It had gone to ruin when I saw it, nothing remaining of it except its name. [A.S.Beveridge, 1921: 78]. Uning tarjimasida ***Қора суйи*** **- Qara-sii** va ***Оби Раҳмат*****- Ab-i-rahmat** (Water-of-mercy) ya'ni muqaddas suv kabi tarjima qilingan. So'nggi tarjimon V.Tekstonda asliyat matni quyidagicha o'girilgan:

At the foot of Kohak Hill, above the still **river** at Kan-i-Gil, which is known as the **Ab-i-Rahmat River**, a garden called Naqsh-i-Jahan was constructed. [Wh.Thackston, 1996: 84]. V.Tekstonda ***Қора суйи*** **- river** va ***Оби Раҳмат*** esa **Ab-i-Rahmat River- Obi rahmat daryosi** kabi o'girilgan.

Қизилсув, Андароб суйи, қора сў, Оби Раҳмат gidronimlarning inglizcha tarjimalarini solishtirish uchun yana-da mufassalroq anglashda jadvalga solish maqsadga muvofiqdir.

Jadval 1. Gidronimlar inglizcha tarjimalari qiyosi.

“Boburnoma”ning asliyat matni (2002)	**J.Leyden-V.Erskin (1826)**	**Susanna Beverij (1921)**	**V.Tekston (1996)**
Қизилсув[104].	Kezel-su [131].	Qlzll-su [193].	Red River [164].
Андароб суйи [104].	river of Anderab [131].	water of Andar-ab[193].	Andarab [164].
Конигил қора суйи	Ab-Siah (black-water) of Kanegul [50].	Qara-sii or Ab-i-rahmat (Water-of-mercy) of Kan-i-gil [78].	river at Kan-i-Gil [P.84].
Оби Раҳмат	Ab-e-Rahmet, (or Water of Mercy) [50].	Ab-i-rahmat (Water-of-mercy) [78].	Ab-i-Rahmat River [P.84].

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinadiki, *Андароб суйи*da deyarli tarjimada o‘zgarishlar bo‘lmaganini ko‘ramiz. Конигил қора суйи esa qora suv, muqaddas suv, Konigil daryosi kabi semantic xusiyatga ega bo‘lgan tarjimani kuzatish mumkin.

Оби Раҳмат gidronimi ham tarjimaning kalka usulida o‘giriladi, lekin unda ham muqaddas suv va daryo indikatori orqali asliyatdagi gidronim mazmunini uzata olgan.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, gidronimlar tarjimasi qiyinchilik tug‘dirmasa-da, tarjimon tafakkurida aks etgan muhim mazmun yotadi. Tarjimon aynan muqaddas suvnimi yoki daryonimi ko‘proq o‘zining tarjimasida urg‘u bergani ko‘zga tashlanadi. Mumtoz asar “Boburnoma” o‘zida shunday ma’lumotlar tashiydiki, asliyatni o‘rganish bilan uning tarjimasini ham o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Beveridge, A.S. 1921. The Bābur-Nāma (Memoirs of Babur). Oriental Books Reprint Corporation.

2. Leyden, J. Erskine W. 1826. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammad Baber: Emperor of Hindustan. – London: Longman, Edenburgh.

3. Muhammadiyeva D. Semanticeskaa klassifikacia frazem v Baburname. URL https://www.researchgate.net/publication/355780029. .(Oxirgi murojaat qilingan sana: 18.09.2024)

4. Ражабов, Ф.У. 2022. Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларидаги ономастик бирликларнинг лексик-семантик ва лингвопоэтик хусусиятлари. Филол.фан. фалс. д-ри (PhD) Қарши давлат университети.

5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2022. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ.

6. Wheeler M. Thackston. 1996. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. – New York.

“Boburnoma” asarida uchraydigan daraxt nomini anglatuvchi fitonimlar
Phytonyms meaning the name of a tree found in “Boburnoma”

Gulbahor RASULOVA[1]

Annotatsiya. Ushbu maqolada fitonimlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda, “Boburnoma” asaridagi daraxt nomlari guruhlarga bo‘lingan holda tahlilga tortilgan. Tahlillar misollar orqali amalga oshirilgan.

Kalit so‘zlar: *fitonimlar, daraxt nomini bildiruvchi o‘simlik nomlari, manzarali daraxt nomlari, buta nomlari.*

Abstract. This article provides information about phytonyms. In addition, the names of trees in the work "Boburnoma" were analyzed by dividing them into groups. Analyzes are carried out through examples.

Key words: *phytonyms, tree names, ornamental tree names, shrub names.*

O‘simliklar olami tabiat boyliklaridan biridir. Bizning xalqimiz eng qadimgi davrlardan boshlab, o‘simliklarning xosiyatini bilishga harakat qilishgan va ulardan turli kasalliklarni davolash uchun foydalanishgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali Ibn Sino kabi ulug‘ allomalarimiz bemorlarning dardini dorivor o‘simliklar bilan davolashga harakat qilganlar. O‘rta Osiyo, Kavkaz orti, Eron, Afg‘oniston, Misr, Kichik Osiyo hududlarida yashovchi xalqlar bundan taxminan besh, olti ming yil muqaddam ham o‘z hududlaridagi o‘simliklarning tarqalishi, o‘sishi va xususiyatlarini o‘rganishga harakat qilishgan. Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy o‘sha davr tarixi, madaniyati, hayvonot va nabotot olami yoritilgan bir nechta asarlarni yozib qoldirgan. Bularga “Xronologiya”, “Hindiston”, “Geodeziya”, “Minerologiya”, “Mas’ud qonuni”, “Saydana” kabi asarlari kiradi. Ayniqsa, uning umrining so‘nggi yillarida Mahmud G‘aznaviyning vorisi Ma’dud sultonligi darvrida 1048-yilda yozilgan “Kitob as Saydana fit tib” nomli asari diqqatga sazovordir. Bu asar dorivor o‘simliklar, hayvonlar va ma’danlar tavsifiga bag‘ishlangan. “Saydana”ning qimmatli tomoni shundaki, unda dorivor o‘simliklarning bir nechta tillardagi nomlari keltirilgan. Bu asarda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning to‘la tavsifini bergan. Jumladan, asarda 1116 tur dorivorni tavsiflaydi. Shundan 750 turi o‘simliklardan, 101 turi hayvonlardan, qolgan 255 turi minerallardandir. Beruniy izoh bergan dorivor fitonimlarning bir nechtasi bilan tanishtirib o‘tamiz. Shuningdek, buyuk alloma Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” va “Kitobush-shifo” kabi asarlarida O‘rta Osiyoda o‘sadigan ko‘plab dorivor o‘simliklarning xususiyatlari haqida keltirib o‘tadi. Bundan tashqari til va

[1]*Gulbahor Rasulova* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

adabiyot sohasining yetuk namoyandasi, inson va tabiat go‘zalligini madh etuvchi alloma sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirgan Bobur ham o‘zining “Boburnoma” asarida hayvonot va nabobot olamini chuqur ilmiy izohlar bilan keltirib o‘tgan. Hindistonda o‘sadigan ayrim fitonimlar ilk bor “Boburnoma” asarida keltirilgan.

Asarda keltirilgan fitonimlar orasida daraxt nomlari eng ko‘pchilikni tashkil qiladi. Asarda keltirilgan daraxt nomlarini o‘z navbatida quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. **mevali daraxt nomlari**: anjir: ...mevasi daraxtining tanasidin chiqar, anjirga uxshar. Gular g‘arib bemaza mevadur (“Boburnoma”, 204-bet); funduk (yang‘oq): ...ichida fundukdek-fundukdek donalari bor; tut: ...bori yafroqlardin tut yafrog‘i va qaroyig‘och yafrog‘i otqa sazvorroq emish (“Boburnoma”, 85-bet); olma (Sebi Samarqand, qizil olma navlari): ...sardseriy mevalardin uzum va anor va o‘ruk va olma va bixi va amrud va shaftolu va olu va sanjid va bodom va yang‘oq ko‘ptur (“Boburnoma”:108), Vale ikki meva Samarqandtin mashhurdur: sebi Samarqand va sohibiyi Samarqand (“Boburnoma”, 59-bet), Yana paniyaladur, oluchadin ulug‘roqtur, qizil olmaning g‘o‘rasiga shabihdur, turshkina mazasi bor, yaxshiginadur (“Boburnoma”, 204-bet); uzum (obi angur, Kobul uzumi, G‘azni uzumi, qora uzum, husayni uzum, kishmish kabi uzum navlari): Bir nav’ uzum bulur, obi angur derlar, xeyli yaxshi uzumdir. Mast chog‘irlari bo‘lur. Xoja Xovand Sayyid Domani kuxiyning chog‘iri tundluk bila mashhurdur. Agarchi holo taqlid birla andin ta’rif qiladurlarki, “lazzati may mast donad, xushyoronro chi xaz” (“Boburnoma”, 108-bet), Kobul uzumidin G‘azni uzumi yaxshiroq bo‘lur (“Boburnoma”, 113-bet), Yana ja’mundur, bargi tol bargiga filjumla o‘xshap, girdoq va yashilroqtur, daraxti xoli az xushnamolik, emas. Mevasi qora uzumga o‘xshar, turshroq mazasi bor, xeyli yaxshi emastur (“Boburnoma”, 204-bet), Yana beyrdur, forsiy “kunor” derlar emish. Bu anvo‘ bo‘ladur. Oluchadin bir nima ulukroqdur. Bir nav’i bo‘ladur, husayni uzum andomida, aksari xeyli yaxshi bo‘lmaydur. Bandiyrda bir beyr ko‘rduk, xeyli yaxshi edi. Muning daraxti savr va javzoda barg tugub, saratonda va asadtakim, ayni pashakaaldur, barg chiqarib, tar va toza bo‘ladur. Mevasi dalv va xutta pishadur (“Boburnoma”, 204-bet), Yana bir mahvadur, gul chikon xam derlar. Muning daraxti ham xeyli bolida bo‘lur. Hinduston elining imorat lari aksar mahva yig‘ochidindur. Maxvaning gulidin arak, tortarlar va gulini mavzdek qurutub yerlar va arak, xam tortarlar. Filjumla kishmishga shabohati bor. Badmazalig‘i bor. Gulining uli ham yomon emas, yesa bo‘lur. Bu ham sahroyi bo‘ladur. Mevasi bemaza bo‘ladur. Donasi uluqroq, terisi yupqa, muning donasining mag‘zidin yog‘ ham tortarlar (“Boburnoma”, 204-bet); noranj (amradpal, amalbed, karna apelsin navi, Lamg‘onot noranjlari, andomi noranj, Bajavr noranjlari, Astrobod noranji kabi turlari): …noranj Lamg‘onotta va Bajavr va Savadta ko‘p bo‘lur va xo‘b bo‘lur. Lamg‘onot noranji kichikrak va kindiklik bo‘lur, bisyor latif va nozuk va serob bo‘lur. Xuroson

navohisining noranjiga hech nisbati yo‘qtur. Nozuklugidindurkim, Lamg‘onottin Kobulgachakim, o‘n uch-o‘n to‘rt yig‘och bo‘lgay, kelturguncha ba’zi noranjlar xarob bo‘lur. Astrobod noranjini Samarqanddakim, ikki yuz yetmish-ikki yuz sekson yig‘och bo‘lgay, eltarlar, terisining qalinligidin va kamoblig‘idin oncha xarob bo‘lmas. Bajavr noranjlarining ulug‘ligi bihicha bo‘lur, suvi ko‘ptur va o‘zga noranjlarning suvidin turshroqtur. Xoja Kalon dedikim, Bajavrda ushbu jins noranjning bir daraxtidin olib sanaduk, yetti ming noranj chiqti (“Boburnoma”, 206-bet); shaftolu (kordiy shaftolu navi): Yana bir kaneyrdur, oq ham bo‘ladur, qizil ham bo‘ladur. Shaftolu guli vaz’lik panjbarga bo‘ladu (“Boburnoma”, 206-bet). Ba’zi el anbani andoq, ta’rif kilib edilarkim, qovundin uzga jami’ mevaga tarjih qilib edilar. El ta’rif qilg‘oncha xud emastur. Kordiy shaftolug‘a shaboxati bor. Pashakaal vaqtida pishadur (“Boburnoma”, 203-bet); anor (anori Xo‘jand, Marg‘inon anori, Samnon anori navlari): ...yaxshi kasaba voqe bo‘lubtur, purne’mat: anori va o‘rugi asru xo‘b bo‘lur. Bir jins anor bo‘lur, “donakalon” derlar, chuchuklugida zardolu mayxushlugidin andak choshni bor. Samnon anorlarig‘a tarjih qilsa bo‘lur. ...mevasi farovon va bisyor yaxshi bo‘lur. Anori yaxshilikka mashhurdur. Nechukkim, «sebi Samarkand» va «anori Xujand» derlar. Vale bu tarixda Marg‘inon anori ko‘p ortuqdur (“Boburnoma”, 35-bet); o‘rik, (Subhoniy navi): Yana bir jins o‘ruk bo‘lurkim, donasini olib, ichiga mag‘z solib quruturlar, «subhoniy» derlar, bisyor lazizdur (“Boburnoma”, 35-bet); anba: Hinduston maxsusidur, biri anbadur... (“Boburnoma”, 203-bet); limu (galgal limu, uluq limu kabi navlari): Yana noranj mushobahati mevalardin uluq limudurkim, Hindustonda galgal limu deydurlar (“Boburnoma”, 206-bet);

2. **mevasiz, maishiy hayotda foydalaniladigan daraxt nomlari:** balut, bodomcha: …o‘tunlari xanjaq va balut va bodomcha va qarqanddur (“Boburnoma”, 115-bet); chinor: Chashmaning o‘rtasida qalin chinor daraxtlaridur, latif soyasi bordur (“Boburnoma”, 112-bet); tol: Sufaning girdida tamom tol daraxtlari ekildi (“Boburnoma”, 113-bet); terak: andin Feruza darvozasig‘acha xiyobon kilib, ikki tarafida terak yig‘ochlari ekturubtur (“Boburnoma”, 59-bet);

3. **manzarali daraxt nomlari**: norvan, sarv: Chorbog‘da ham martaba-martaba yerlarni siyok bila tuzatib, yaxshi norvanlar va sarv va safedorlar tikibturlar, xeyli saromad manzilidur (“Boburnoma”, 60-bet); archa: Andarob va Xost va Badaxshon tog‘lari tamom archalik, qalin chashmalik, yumshoq pushtalik tog‘lardur (“Boburnoma”, 115-bet).

4. **buta va butasimon daraxt nomlari:** bodom: …musmir daraxtisi bisyordur, vale bog‘chalarida aksar bodom daraxtidur (“Boburnoma”, 35-bet); jika: Yana karundadur, bizning viloyatning jikasi yo‘sunliq, buta-buta bo‘ladur. Jika tog‘larda bo‘lur. Bu dashtlarda bo‘ladur (“Boburnoma”, 204-bet); kaneyr: Bir pora

qizil kaneyrni Gvaliyardin Agra bog‘lariga kelturub ekturdum (“Boburnoma”, 239-bet).

Xulosa: Fitonimlarni o‘rganishda “Bobunoma” asarining o‘rni beqiyos. Boburning ekologiya haqida yozganlarini o‘qisangiz, hozirgi davrda yashaydi, deb o‘ylaysiz. Darhaqiqat, “Boburnoma”ni o‘qiganda unda bayon qilingan joylarning ekologik holati, ya’ni o‘sha diyorning o‘simlik dunyosi, hayvonot olami, qushlari, yeri, obi-hayoti, iqlimi, giyohlari, meva-chevasi xususida tarixiy va ekologik nuqtai-nazardan bugungi kun uchun ham ahamiyati qimmatli bo‘lgan aniq ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Xususan, “Boburnoma”ni nabobat olamiga oid sermazmun asar deyish o‘rinlidir. Unda Farg‘onadan Hindistongacha bo‘lgan yer, joylar, tog‘, o‘lkalarda o‘sadigan daraxt, o‘simlik, o‘t-o‘lan, gullar, ularning turlari, oziq-ovqat va tibbiy xususiyatlari to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlar keltiriladi.

Adabiyotlar

1. Муҳаммадиева Д. 2021. “Бобурнома” туркча таржимасидаги паремияларнинг қиёсий тадқиқи – Тошкент.
2. Muhammadiyeva D. Boburnomadagi o'lim va umr konseptl iparemiyalar xususida.URL:https://www.researchgate.net/publication/357899166 (Oxirgi murojaat qilingan sana:15.09.2024)
3. Muhammadiyeva D. Semanticeskaa klassifikacia frazem v Baburname. URL https://www.researchgate.net/publication/355780029.(Oxirgi murojaat qilingan sana: 18.09.2024)
4. Rasulova O. 2005. “Boburnoma” va tabiat. // “Jahon adabiyoti” №2.
5. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2002. “Бобурнома” Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент.
6. Бобур, Заҳириддин Муҳаммад. 2008. «Бобурнома» Нашрга тайёрловчи В.Раҳмонов. – Тошкент,
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг жаҳон маданияти тарихида тутган ўрни // Халқаро илмий анжуман материаллари. – Тошкент, 2012.
8. Холманова З.Т. 2009.“Бобурнома” лексикаси тадқиқи (Автореферат). – Тошкент.
9. Холмонова З.Т. 2009.“Бобурнома” лексикаси тадқиқи. Филол. фан. док. ...дисс. – Тошкент.

“Boburnoma”da etimologiyaning o‘ziga xosligi
Uniqueness of etymology in “Boburnoma”

Dildora KENJAYEVA[1]

Annotatsiya: “Boburnoma” XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir qimmatli ma’lumotlar jamlanmasi hisoblanadi. Maqolada “Boburnoma”dagi etimologik ma’lumotlar tahlil qilinadi. Unda toponim, antroponim, zoonim, fitonimlarning etimologik tafsilotlari izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *toponim, antroponim, zoonim, fitonim, etimologik tahlil.*

Annotation: “Boburnoma” is a collection of valuable information on the history, geography and ethnography of Central Asia, Afghanistan and India in the late 15th and early 16th centuries.The article analyzes the etimological information in the “Boburnoma”. It explains the details of toponyms, anthroponyms, zoonyms and phtonyms**.**

Key words: *toponym, anthroponym, zoonym and phtonym, etymological analysis.*

“Boburnoma” XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston tarixi, geografiyasi va etnografiyasiga doir qimmatli ma’lumotlar jamlanmasi hisoblanadi. Asrlar davomida tarixiy memuar asar sifatida shuhrat topgan. Bugungi kunda boshqa soha vakillari uchun ham tadqiqot manbayi bo‘lib ulgurgan. “Boburnoma”da muallifning leksemalar, antroponimlar, toponimlar, tibbiyotga oid so‘zlar, zoonimlar, etnonimlar, tabiat, gidrometerologiya sohasiga oid ma’lumotlar va so‘zlarning etimologik kelib chiqishi haqidagi qarashlari ham yoritilganligiga guvoh bo‘lamiz. Asar matnida Darmiyon, Olachaxon, Kark, Asad kabi antroponimlari, Qarshi, Kashmir, Lamg‘anot, Hotiypul, Balda’i mahfuza, Ko‘hi Safid, Hodarvesh, Seyoron, Ko‘hi Jud, Savolik parbat (Himolay tog‘i), Shohi Kobul toponimlari, Laqlaqa, Muqatta’, Chinnixona kabi masjid nomlari, Kakka, Nilagov, Murg‘aki Qarshi singari zoonimlar etimologiyasi keltirilgan.

“Boburnoma”da keltirilgan ma’lumotlar xalq etimologiyasi asosida qayd etilgan bo‘lib, Boburning o‘z qarashlariga uyg‘un tasvirlab berilgan. “Boburnoma” tilida voqeliklar o‘ziga xos leksik birliklar bilan ifodalangan. Masalan, shahar nomlari bilan bir qatorda ularning mohiyat-e’tiborini yorituvchi tasviriy ifodalarni ham qayd etgan: *“Balda’i mahfuza (Samarqand): Hech yog‘iy qahr va g‘alaba bila munga dast topmag‘an uchun baldayi mahfuza derlar”. “Samarqandni mo‘g‘ul va*

[1] *Dildora Kenjayeva* – ToshDO‘TAU stajyor-o‘qituvchisi

turk ulusi Semizqand derlar". Bundan koʻrinadiki, Bobur Samarqandning bogʻlari, serhosil dalalari, saxovatli odamlari serbarakot ekanini ta'kidlaydi [Yorqulov, 2021].

Bobur ijodidagi tilshunoslikka oid talqinlarni kuzatishda muallifning oʻzbek adabiy tili taraqqiyotidagi oʻrnini belgilash imkoni tugʻiladi. "Boburnoma"ning S.Hasanov, P.Shamsiyev, S.Mirzayev tomonidan, yaponiyalik Eyji Mano ilmiy-tanqidiy matni asosida tayyorlagan nashrida antroponimlar, toponimlar, etnonimlar, hayvon va oʻsimlik nomlari koʻrsatkichining nomlari kengaytirib berilgan [Холманова, 2021:32].

Bobur har bir soʻzni ma'nosiga muvofiq holda qoʻllagan. Oʻz davrining soʻzlashuv nutqiga xos soʻzlarning semantik imkoniyatlaridan oʻrinli foydalangan. Xalq jonli nutqidan soʻz oʻzlashtirish orqali matn mazmunini boyitgan. "Boburnoma" matnining lingvistik oʻziga xos jihatlari mavjud:

Birinchidan, "Boburnoma" XV-XVI asrlar Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston, Hindiston tarixiy muhiti, aholisi, ijtimoiy-siyosiy, maishiy turmush tarziga oid lugʻaviy birliklarni oʻz ichiga olgan. Ikkinchidan, asarda XV-XVI asrlar eski oʻzbek adabiy tili lugʻat boyligi bilan bir qatorda Bobur faoliyati bilan bogʻliq fors-tojikcha, hincha, pushtu, urdu tillariga oid soʻzlar qoʻllangan. Uchinchidan, turkiy soʻzlarning semantik xususiyatlari aks etgan. Toʻrtinchidan, eski oʻzbek adabiy tilining leksik, fonetik, struktur-morfologik, semantik xususiyatlari namoyon boʻladi. Beshinchidan, muallifning turli tillarga oid soʻzlar qiyosiga oid fikrlari, soʻz etimologiyasi, imlosi, tahliliga doir mulohazalari koʻzga tashlanadi. Soʻz etimologiyasining toʻgʻri yoritilishi xalq tarixi, madaniyati, tilning tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini oʻrganishda ahamiyatlidir [Холманова, 2021:70-71]. "Boburnoma"dagi joy nomlaridan koʻpchiligining ma'nosini oʻzbek va tojik tillari yordamida tushunsa boʻladi. "Boburnoma"ni oʻrgangan tilshunos va adabiyotshunoslar Boburning tilga boʻlgan munosabatini baholar ekan, uning onomastik (antroponimik, toponimik, etnografik) ma'lumotlarni berish chogʻida, u yoki bu tarzda etimologik ma'lumotlar bilan dalillash metodini hind, arab hamda turkiy tilshunoslikdagi an'ana va tamoyillarga bogʻlab tushuntiradilar. Yuqoridagi fikrlar asosida, asarda berilgan etimologik tahlillarni quyidagicha guruhlaymiz:

1.Toponimik etimologik tahlillar: toponimiya muayyan til lugʻat boyligining muhim tarkibiy qismi, oʻtmish voqealari darakchisi hisoblanadi [Йўлдошев, 2011:44]. Shuningdek, toponimlar bir necha yuz ming yillar avval yuzaga kela boshlagan va ular yozuv paydo boʻlishidan oldin yuzaga kelib, hayvon, oʻsimlik, xalqlar yoʻqolib ketsa-da, toponim yashayveradi [Қораев, 1980:16].

"Boburnoma"da keltirilgan toponimlar kelib chiqishi haqida ma'lumotlar koʻp. Ularni ma'lum darajada guruhlash asosida koʻrib chiqamiz:

a) togʻlar nomi etimologiyasi:

Kashmir tog‘i etimologiyasi shunday bayon qilingan: *“Ushmuncha deydurlarkim, bu tog‘ eli “kas” derlar. Xotirg‘a yettikim, Hinduston eli “shin” (harfi)ni “sin” talaffuz qilur. Chun bu tog‘da mo‘tabar shahr Kashmirdur, balki Kashmirdin o‘zga bu tog‘da yana shahre eshitilmaydur. Bu jihattin bo‘la olurkim, Kashmir demish bo‘lg‘aylar. Bu tog‘ elidin mato‘ nofa, mushk va qo‘tosi bahriy va za’faron va surb va misdur”.* Arab, hind tillarining o‘ziga xos tovush tizimi va o‘zbek tilining tovush tizimida farqlanishlar borligi, tillarda so‘zlar shevalararo farqlanishi va so‘zlarning ayrimlari shu tilning fonetik qonuniyatlariga muvofiqlashishi haqida fikr yuritilgan o‘rinlardan biri Kashmir toponimi *kas* etnonimi asosida vujudga kelgan etnotoponim ekani izohlanadi [Нурмонов, 2012:241]. Himolay tog‘larini Bobur bunday izohlaydi: *Bu tog‘ni hind eli Savolak parbat derlar, hind tili bila “savo”- rub’ (ya’ni chorak)* [Кораев, 1980:240]*, “lak” – yuz ming, “parbat” – tog‘, ya’ni “rub’ va yuz ming tog‘kim, yuz yigirma besh ming tog‘ bo‘lg‘ay. Bu tog‘larda qor o‘qsumas”* [Бобурнома, 1960:343].

So‘ngra *“Yana bir Parvon yo‘lidur, ulug‘ ko‘tal bila Parvon orasida yana yetti ko‘tal bor uchun haftbacha derlar”. “**Ko‘hi Safed** Ninginahorning janubida voqea bo‘lubtur, bu tog‘din qor hargiz o‘ksumas. Bu jihattin g‘olibo Ko‘hi Safed (Oq tog‘) derlar”* deya kelib chiqishi yoritiladi [Qilichev, 2022:7].

O‘sha davrda Zarafshon **Ko‘hak** deb atalgan: *“Bu suv bila Samarqand orasida bir pushti tushubtur. Ko‘hak derlar. Bu rud muning tubidin oqar uchun Ko‘hak suyi derlar”* (Ko‘hak tojikcha so‘z bo‘lib, ko‘h– tog‘, -ak kichraytirish affiksi, “tog‘cha”, ya’ni “tepalik” demak, hozir Cho‘ponota deb ataladi).

Takasekretku (Takasekirgan) – *“Bu jihatdan ul mavzu bu ismga mavsumdurkim, tog‘ domanasi jihatidin bu daryo andoq tor oqarkim, rivoyat qilurlarkim, ul yerdin taka sekrigandur, mag‘lub bo‘lib ilikka tushti”*. H.Hasanov Bobur tilga olgan Takasekretu Norin daryosining Uchqo‘rg‘on qishlog‘i yaqinidagi tor qisig‘i bo‘lsa kerak, deb taxmin qilgan. Biroq S.Jalilov bu joyni “Qoradaryodan qidirmoq kerak”, deydi [Qilichev, 2022:6]. Shunday qilib, Takasekretku qayerda ekanligi ma’lum emas.

Tog‘ nomlari kelgan o‘rinlarda ular tasviridan tashqari, etimologiyasi keltirilib, sharhlab o‘tiladi.

b) joy nomlari etimologiyasi:

Qarshi shahri nomlanishi yoritiladi: *“Yana Qarshi viloyatidurkim, Nasaf va Naxshab ham derlar, Qarshi mo‘g‘ulcha ottur, go‘rxonani mo‘g‘ul tili bila qarshi derlar. G‘olibo bu ot Chengizxon tasallutidin so‘ng bo‘lg‘ondur”* [Бобурнома, 1960:108]. Qadimgi turk tilida qarshi “ko‘shk”, “saroy”, “xon qarorgohi” demak. Lekin XV-XVI asrlarda bu so‘z “mo‘tabar shaxslar 7 qabriga qurilgan dahma, maqbara” ma’nosini olgan [Шукуров, 2013:72]. Qarshi so‘zining Bobur tomonidan go‘rxona deyilishi asosli. Tarixdan ma’lum bo‘lgan Qoraxitoylar yurtimizda katta

hududni egallab, davlat tuzgan. Ularning xonlaridan biri Go‘rxon bo‘lgan. V.V.Bartold qoraxitoylar xoni *go‘rxon* deb atalgani musulmon manbalarida **xoni xonon** - *“xonlar xoni”* deb qayd etilganini ta’kidlaydi. Xorazmshoh Abulg‘oziy Bahodirxon “Shajarayi turk” asarida *go‘rxon* laqabining ma’nosini tushuntirib bergan. “Go‘r”ning ma’nosi xitoy tilida *ulug‘ podshoh* demakdir. Xitoycha go‘r-ulug‘ podshoh va turiycha xon- podshoh birlashib “xonlar xoni” ma’nosini yasagan. Temuriylar xonadonida Go‘rxon nomi bilan bog‘liq “Go‘rxona” atamasi oddiy tushuncha bo‘lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur Qarshi saroyini ta’riflaganda, o‘sha oliy imorat xonning “xos sharif” istiqomat joyi ekanligini ko‘rsatish uchun Go‘rxonning qarorgohi ma’nosida “Go‘rxon xonasi”, ya’ni Go‘rxonasi atamasini ishlatgani ma’lum bo‘ladi. Arab alifbosida “G” va “K” harflarining bir xil shaklda yozilishi so‘zning ikki xil talaffuzini yuzaga keltiradi: Go‘rxon-Ko‘rxon, Go‘rxona-Ko‘rxona. Bobur Qarshi saroyini ta’riflaganda Ko‘rxona so‘zini nazarda tutgan bo‘lishi mumkin. Sababi, keyingi o‘zbek xonlari saroylarida eng katta va hashamatli qabulxonaning ko‘rinish xona deb atalishida o‘sha *Ko‘rxona-Ko‘r(inish) xona* ta’siri sezilib turadi. Go‘r so‘zi hozirgi xitoy lug‘atida yo‘qligiga asoslanib, turkiy so‘z deb qarasak, Go‘ro‘g‘li/Ko‘ro‘g‘li nurli Er-Hizrdan tug‘ilgan, Gur-Nur ma’nosini bildiradi. Qarshi so‘zi *“Nurli xona”* ma’nosini anglatib, Amir Temurning Ko‘ragon taxallusi Nurli xon (ba’zi manbalarda chingiziylarga “kuyov” bo‘ldi ma’nosida ekan) ma’nosini bildiradi [Шукуров, 2013:71-72].

Asarda **Konigil** to‘g‘risida aytilgan gaplar ham e’tiborga molik. *“Samarqand shahridin sharq tarafidadur, bir nima shimolga moyil, bir shar’iy bo‘lg‘oy. Qora suvkim, Obirahmat ham derlar, Konigulning o‘rtasidan oqar, yeti-sakkiz tegirmon suyi bo‘lg‘oy. Bu suvning atrofi tamom obgirdur. Ba’zi derlarkim, bu o‘langning asli oti Koni obgir ekandur, vale tarixlarda tamom Konigil bitirlar, xili yaxshi o‘langdur”* [Бобурнома, 1960:107]. Ba’zi birovlar uni *Koni gil*, ya’ni “tuproq koni” desalar, boshqalar, chunonchi, Fazlulloh bin Ro‘zbexon “Mehmonomayi Buxoro” asarida *Koni gul*, ya’ni “gullar koni” deydi. Bobur esa *“o‘langning oti Koni obgir”* deb yozadi. Bu esa haqiqatga yaqin. Chunki Siyob suvining “atrofi tamom obgir”, ya’ni botqoq bo‘lgan (obgir atamasi “Boburnoma”da bir necha joyda uchraydi). Demak, Koniobgir asta-sekin o‘zgarib Konigil shaklini olgan.

Kesh toponimining **Shahrisabz** deb atalishiga sabab: *“Bahorlar sahrosi va shahri va bomi va tomi xo‘b sabz bo‘lur uchun Shahrisabz ham derlar”*. *“Sabz”*-yashilligi shaharning shunday atalishiga sabab bo‘lgan.

G‘azni shahri yaqinida **Ravza** degan joy bo‘lgan. Boburning yozishicha Mahmud G‘aznaviy ana shu yerga dafn etilgan: *“Sulton qabri anda uchun Ravza derlar”* (ravza so‘zi arabcha bo‘lib, “chamanzor, bog‘” demak. Biroq buyuk kishilarning qabrini gulzorga nisbat berib, ba’zan ravza deb ataydilar).

Go‘spandliyorning ma’nosi: *“Omma yo‘l o‘ng qo‘limizda bir-ikki kuruh ekandur, bu yo‘l otliq yo‘li emas ekandur. Qo‘ychi va cho‘pon gohi gala va ramani bu yo‘l va tangi bila indurur uchun bu yo‘lni Go‘spandliyor der emishlar. Yo‘lni afg‘on tili bila liyor derlar”*. Demak, Go‘spandliyor – “qo‘y yo‘li” degan so‘z ekan [Qilichev, 2022:7].

“Xo‘jand bila Kandibodom orasida bir dasht tushubtur, ***Hodarvesh****g‘a mavsumdur. Hamisha bu dashtta yel borur. Marg‘inong‘akim sharqidur, hamisha mundin yel borur. Xo‘jandg‘akim g‘arbidur, doyim mundin yel kelur: tund yellari bor. Derlarkim, br necha darvesh bo bodiyada tund yelga yo‘luqub, bir-birini topolmay “Ho, darvesh”, “Ho, darvesh” de-de halok bo‘lubdurlar, andin beri bu bodiyani Hodarvesh derlar”* [Бобурнома, 1960:62]. Keyinchalik bu yer joy nomiga aylanib Hodarvesh deb nomlana boshlagan.

Yana bir toponim nima uchun **Havoli Qutiy** deb atalishining sababi keltirilgan: *“Ushbu tarih bila qor tepib, yo‘l qilib, Injukon yerdin uch-to‘rt kunda ko‘tali Zarrinning tubiga Havoli Qutiy degan Qavolg‘a kelduk. Ul el tog‘dag‘i g‘or va kovoklarni havol derlar”.* Mahalliy aholi g‘or kovaklarini “havol” deyishi sabab toponim shunday nomlangan.

Yuqoridagi ma’lumotlar Boburning toponimlarga nisbatan e’tiborini ko‘rsatadi va o‘z o‘rnida toponimlarni izohlab berishi, etimologiyasini yoritishi

2.Antroponimlar bilan bog‘liq etimologik ma’lumotlar. XV-XVI asrlar o‘zbek antroponimlaridagi o‘ziga xos jihatlar mavjud. Antroponimga aylangan nisba, laqab, taxalluslar atroflicha tahlil qilib berilgan. Bobur o‘zining beklari, amirlari, vazir-u vuzarolari, lashkarlari-yu, qarorgoh xizmatchilarini bir-biridan farqlash uchunmi, ismlar yoniga laqab va mansab nomlarini keltirib o‘tadi [Муминова, 2021:21]. O‘z zamonasida laqab, nisba, mansab nomlari ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlarga nisbatan qo‘llangan. Nisbatan ijobiy sifatlashda qo‘llangan.

a) shaxsning faoliyatini sifatlovchi etimologiyalar:

Olachaxon antroponimi shunday izohlanadi: *“Sulton Ahmadxon edikim, Olachaxong‘a mashhurdur. Olachaning vahji tasmiyasi muni derlarkim, qalmoq va mo‘g‘ul tili bila ulturg‘uchini* ***“olachi”*** *derlar. Qalmoqni necha qatla bosib, qalin kishisin qirg‘on uchun Olachi de-de kasrati iste’mol bila Olacha bo‘lubtur”* [Бобурнома, 1960:68/69]. Bobur uni “Olochixon” (O‘ldurguvchi xon) deb atagani va bu laqab xalq og‘zida Olachaxonga aylanib ketganini yozadi [Qilichev, 2022:13]. Matn mazmuniga ko‘ra, Olachaxon “qattol”, “qotil” ma’nosidagi so‘zdan shakllangan. So‘zning genetik asosi qadimgi turkiy til manbalarida keltirilgan “qotil” ma’nosini ifodalovchi *ülütci* so‘ziga bog‘lanadi [Холманова, 2021:158].

Shayx Abusaidning **darmiyon** laqabini olishini bayon qiladi: *“Yana Shayx Abusaidxon darmiyon edi. Bilmon, bir urushta mirzog‘a ot kelturubmudur yo mirzog‘a qasd qilg‘on g‘animni daf’ qilibmudur, ul jihattin bu laqab bila mulaqqab*

bo‘lubdur” [Бобурнома, 1960:236]. Darmiyon forscha “o‘rtada, orada” manosini bildiradi. Bobur mazkur laqab bilan nomlangan shaxsni hal qiluvchi damda (g‘anim qasd qilganda yoki Husayn mirzo otsiz qolganda) oraga tushganini (“joniga ora kirganini”) ta’kidlagan [Холманова, 2021:157].

Mir Murtoz *“Yana Mir Murtoz edi, hikamiyot va ma’qulotni yaxshi bilur edi, aning uchun bu laqab bila mulaqqab bo‘lubturkim, bisyor ro‘za tutar ekandur”* [BN:240]. Murtoz badiiy manbalarda “nafsini tiyuvchi, riyozat tortib, o‘zini qiynovchi” ma’nolarida ishlatilgan. Bu nisba mazkur shaxsning asosan nafsini tiyib ro‘za amallarini bajarishdagi e’tiqodi tufayli atrofdagilarning e’tiboriga sazovor bo‘lganligi ifodasidir [Холманова, 2021:158].

b) kasb-korni anglatgan so‘zning shaxs nomiga aylanishi:

Atika (izohda Abika) **baxshi** misolida ko‘rish mumkin: *“Yaramni boqqali Atika baxshi otliq mo‘g‘ul jarrohini yiborubturlar. Mo‘g‘ul eli jarrohni ham baxshi der. Jarrohliqda bisyor hoziq edi. Kishining mag‘zi chiqsa, doru berur edi. Ildizdin har turluk yara bo‘lsa edi, oson muolaja qilur edi”* [Бобурнома, 1960:165]. Baxshi leksemasining mo‘g‘ul tilida tabibga nisbatan qo‘llanilishini yoritib, hakim so‘zining o‘rnida uni qo‘llagan va leksemaning sinonimlari qatorini kengaytirgan.

d) iqtidorning shaxs nomiga ko‘chishi:

“Yana Mullozodai Mullo Usmon edi. Ulug‘bek mirzo zamonida o‘n to‘rt yoshida dars aytqon uchun, ***Mullo Modarzod*** *(tug‘ilishdan) derlar ekandurlar. Bisyor donishmand kishi edi”* [Бобурнома, 1960:240].

e) nasl-nasabini ifodalovchi so‘z shaxs nomiga aylanishi:

“Yana Osafiy edi, vazirzoda uchun Osafiy taxallus qilubtur” [Бобурнома, 1960:241]. Vazir oilasiga mansubligi uning shu taxallusni olishiga sabab bo‘lgan.

f) voqea-hodisa asosida qo‘yilgan laqabning shaxs nomiga ko‘chishi:

Kark laqabi shu shaxs bilan bog‘liq voqeaga asoslangan. *“Bir ovda Maqsud otliq chuhraning otini shoxi bilan bir nayza bo‘yi tashladi. Bu jihattin* ***Maqsud kark****ka mulaqqab bo‘ldi”* [Бобурнома, 1960:345]. Kark ovida karkni bo‘ysundirganligi uning shu laqab bilan nisbatlanishiga sabab bo‘lgan. Sulton Mahmud G‘oziyga **“g‘oziy”** (islom dinida bo‘lmaganlar bilan urush qilib, g‘alaba qozongan [Исҳоқов, 2008:226]) nisbasi berilishi keltiriladi: *“Ikki qatla Badaxshonning janub jonibi Kofiristong‘a borib g‘azot qildi. Bu jihattin faromininig tug‘rosida Sulton Mahmud g‘oziy bitirlar edi”* [Бобурнома 1960,82]. Kanva jangi g‘alabasidan so‘ng Bobur ham o‘zini g‘oziy hisoblagan. “Fath farmoni”da u “Zahiriddin Muhammad Bobur G‘oziy” deb qayt etgan [Бобурнома, 1960:387].

g) jonli nutqdagi muayyan so‘zning ifoda shakli shaxs nomiga ko‘chishi:

Asad so‘zining hindistonliklar nutqidagi talaffuzi asosida ***Hast*** antroponimiga aylanishi kuzatiladi. *“Suhon suyining navohisidag‘i el va ulusning hokimining oti*

Malik hast edi, asli oti Asaddur. Hindustoniylar mundoq harakatlarni gohi sokin o‘qurlar, nechukkim, “xabar”ni “xabr” derlar, “asad”ni “asd” dertublar, bora-bora “hast” bo‘lubdur” [BN:289]. Bu hindistonliklarning unli tovushni ifodalovchi harakatlarni talaffuz qilmasliklarini tasdiqlaydi. Bu esa antroponimning yangicha ifodasini yuzaga keltiradi.

XV-XVI asrlar o‘zbek antroponimlarida arab tiliga oid diniy, ilohiy tuhunchalarni ifodalovchi, Alloh sifatlari bilan bog‘liq ismlar ko‘p uchraydi. Turkiy ismlar ham mavjud. Antroponimlarga qo‘yilgan nisba, laqab, taxalluslarni quyidagicha izohlash mumkin: 1) bir xil ismdagi shaxslarni farqlash; 2) shaxsning jismoniy imkoniyat, tashqi ko‘rinishini tasvirlash; 3) shaxsning fe’l-atvori, xarakter-xususiyatlarini yoritish kabilar.

3.Masjidlar nomiga aloqador etimologik ma’lumotlar. Bir necha masjid (nekronim [Муминова, 2021:24]) nomlarining etimologiyasi yoritilgan.

a) o‘ziga xos xususiyatiga ko‘ra: Laqlaqa masjidi nega shunday nomlanganini izohlaydi: *“Samarqandning qal’asining ichida yana bir qadimiy imorattur, masjidi Laqlaqa derlar. Ul gunbazning o‘rtasida yerga tepsalar tamom gunbazdin laq-laq un kelur, g‘arib amirdur, hech kim muning sirrini bilmas”* [Бобурнома, 1960:106].

b) predmetning nomga ta’sir etishiga ko‘ra: Bog‘i Maydondagi Chinnixona masjidining nomi yoritiladi: *“bog‘chasida yana bir chordara solibtur, izorasi tamom chiniy, Chinixona derlar. Xitoydin kishi yiborib kelturubdurlar”* [Бобурнома, 1960:106].

Ulug‘bek madasasining yonidagi Muqatta’ (bo‘laklangan), (parcha [Исҳоқов, 2008:115].) masjidi nomi uning qurilishi bilan bevosita nomlangani ta’riflanadi: *“...masjidi Muqatta’ derlar. Bu jihatdin Muqatta’ derlarkim, qit’a-qit’a yig‘ochlarni tarosh qilib, islimiy va xitoiy naqshlar solibdurlar, tamom devorlari va saqfi ushbu yo‘sunliqtur”* [Бобурнома, 1960:105].

“Yana Ohanin darvozasig‘a yovuq qal’aning ichida bir masjidi jum’a solibdur, sangin, aksar Hindustondin eltgan sangtaroshlar anda ish qilubturlar. Masjidning peshtoqi kitobasida bu oyatni “Ba iz yafrau Ibrohimal qavoida (ilo oxirihi)” andoq ulug‘ xat bila bitibturlarkim, bir kuruh yovuq yerdin o‘qusa bo‘lur. Bu ham bisyor oliy imoratdur” [Бобурнома, 1960:105]. Peshtoqiga yozilgan oyat uning nomiga ta’sir etganligi bayon etiladi.

4. Zoonimlar nomi bilan bog‘liq etimologik ma’lumotlar. Zoonimlarning

shakllanish xususiyati 6 ga ajratilib o‘rganilgan va Murg‘aki Qarshi, Kashmir to‘tisi va boshqalarning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan [Ражабов, 2022:19]. Zoonimlarni etimologik tahlilida quyidagicha nomlash mumkin:

a) rang-tus orqali nomlanish:

“Yana ***Nilagov****dur, balandligi otcha bo‘lg‘ay, otdin bir nima inichkaraktur. Erkagi ko‘ktur. Bu jihattin g‘olibo nilagov derlar. Ikki kichikrak shoxi bor. Bo‘g‘zida bir qarishdin uzunroq tuki bordur. Bahriy qo‘tosqa mushobahati bor. Tuvori o‘yning tuvoridek ayridur. Modasining rangi bo‘g‘u-maralning rangidekdur.”* [Бобурнома, 1960:346]. Nilagov (ko‘k ho‘kiz) demakdir [Бобурнома, 2008:207]. Zoonim nomi uning rangidan kelib chiqib qo‘yilgan.

“Yana bir jayranning erkagi huna yo‘sunliq kiyikdur. Orqasi qora, tuki oq, hunaning shoxidan muning shoxi uzunroq va parishonroqtur. Hindustoniy ***“galahra”*** *der. Aslda “golohran” ekandur, ya’ni* ***qora kiyik****, taxfif qilib, “galahra” debdurlar”.* Qora rang uning nomiga aylangan va fonetik ta’sirga uchrab talaffuz qilingan.

b) jismoniy darajaning nomda aks etishi:

“Yana ko‘tahpoy (kaltaoyoq) [Бобурнома, 2008:211] *dur. Uluqlug‘i oq kiyikcha bo‘lg‘ay. Muning ikki qo‘li va buti qisqaroqdur. Bu jihattin ko‘tahpoy derlar. Munguzi bo‘g‘u munguzidek shoxchaliqdur, vale kichikraktur. Har yil, bo‘g‘udek, bu ham munguz solur. Yugurishda zabunroqdur. Bu jihatdin jangaldan chiqmas”* [Бобурнома, 1960:346]. Uning oyoqlari kaltaligi shu nomni olishi uchun asos bo‘lgan.

d) o‘ziga xoslik xususiyati bilan nomlanish:

“Yana bir sichqon Nijrovda bo‘lur emish, “mushi mushkin” derlar. Mushk idi andin kelur emish. Ani men ko‘rmaydurman” [Бобурнома, 1960:193]. Sichqondan mushk hidi anqishi o‘ziga xoslikni beradi.

e) zoonimlarning sonomememalar orqali shakllanishi:

Kakka baliqning chiqargan ovozi uning nomanishiga asos bo‘lgan. Shu orqali kakka deb nomlangan:*“Yana kakka baliqdur. Ikki qulog‘ining to‘g‘risi ikki so‘ngak chiqibtur, uzunlug‘u uch ellik bo‘lg‘ay, yotqanda bu ikki so‘ngakni tebratur. G‘arib tavr un keladur. G‘olibo ul uni jihattin kakka debturlar”* [Бобурнома, 1960:352].

f) hayvon yoki parrandaning doimiy uchrash o‘rniga ko‘ra nomlash:

“Bag‘riqaro yo‘sunluq qushqina bo‘lurkim, qilquyruq derlar, Qarshi viloyatida behad va benihoyat bo‘lur uchun ul navohida murg‘aki qarshi derlar” [Бобурнома, 1960:108]. Bu qush faqat shu hudduda uchragani uchun joy nomi bilan birga qo‘llangan.

Fitonimlar nomiga aloqador etimologiyalar.

a) o‘simlikning o‘sish holatiga ko‘ra;

“aksar butaka o‘ti bo‘lur, otqa bisyor sazvor o‘ttur. Andijon viloyatida bu o‘tni butka o‘ti derlar, vahji tasmiyasi ma’lum emas erdi, bu viloyatlarda ma’lum bo‘ldi. Bu o‘tning buta-buta chiqar uchun butaka derlar emish” [Бобурнома 1960,198]. Tabiiy o‘sish jarayoni o‘simlikka shu nom uchun asos bo‘lgan.

b) o‘simlikning xususiyatiga ko‘ra:

“Ba’zi kitoblarda bitibturlarkim “yabruhus sanam” bu tog‘lardadur, vale bu muddatta hech eshitilmadi. Bir giyoh eshitildikim, Yettikentning tog‘larida bo‘lur, ul el “ayiq o‘ti” derlar, mehrigiyoh xosiyatliq, g‘olibo mehrigiyohdur, ul el bu ot bila ayturlar” [Бобурнома, 1960:63]. “Ayiq o‘ti” deb ham nomlanishida uning uyqu bilan bog‘liq semasi muhim rol o‘ynaydi [Kenjayeva, MD 2023:33].

a) o‘simlik foydaliligiga ko‘ra:

“Qo‘rg‘onning ikki tarafidagi rud yoqlari tamom daraxttur, ko‘pragi emluk yig‘ochidur. Bu mevani ba’zi turklar qora yemish derlar. Darai Nurda bisyor bo‘lur, o‘zga yerda bu mevani ko‘rulmadi” [Бобурнома, 1960:191].

“Boburnoma”da zikr etilgan toponimlarning leksik tarkibi o‘ziga xos. Ularning aksariyat qismi o‘z qatlamiga mansub leksemalardan, ya’ni o‘zbekcha so‘zlardan tarkib topgan. Oqsuv, Qizilsuv, Beshkent, Yettikent, Yangiyo‘l, Toshqo‘rg‘on, Olaqo‘rg‘on, Toshkent, O‘ratepa, Ikki suv orasi, Qorasuv, Qo‘shtegirmon, Sirkariq, Olatog‘, Olmaliq, Archakent, Yonbuloq singarilarni bularga misol qilib keltirish mumkin [Jo‘raboyeva, 2021:138-139].

Bobur ham hukmdor, ham ziyoli sifatida butun umri davomida asarlari orqali tilimizning ravnaqi, milliy tilning boy lug‘at tarkini amalda ko‘rsata olgan va uning sayqallanishi, takomillashishiga o‘zining katta hissasini qo‘shgan. “Boburnoma” asrida keltirilgan etimologik ma’lumotlari, ayrim so‘z va istilohlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq taxminiy fikrlari, ilmiy mushohada va qaydlari bugungi tilshunosligimizning, xususan, etimologiya, etnografiya, geografiya, biologiya, zoologiya, o‘lkashunoslik kabi bir qator fanlarning taraqqiyotiga ham katta hissa qo‘shganligini unutmasligimiz lozim.

Adabiyotlar:

1. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. 1960. Бобурнома. – Тошкент: ФА нашр.
2. Бобур Заҳириддин Муҳаммад. 2008. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи.
3. Исҳоқов, Ф. 2008. “Бобурнома” учун қисқача изоҳли луғат. – Андижон.
4. Jo‘raboyeva, S. 2021.“Boburnoma” asarida toponimlarning qo‘llanilishi. Молодой ученый журнал. №30. –Москва.
5. Kenjayeva, D. 2023. “Boburnoma”dagi zoonimlarning etimologik xususiyatlari. – Toshkent.
6. Muhammadiyeva D. Boburnomadagi o'lim va umr konseptl iparemiyalar xususida. URL: 357899166. (Oxirgi murojaat qilingan sana:15.09.2024)
7. Муминова, М. 2021. “Бобурнома” матни таржималарида антропоним ва топонимларнинг лингвокультурологик хусусиятлари (“Бобурнома” матнининг инглизча таржималари мисолида). – Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. авторef. – Андижон.
8. Нурмонов, А. 2012. Танланган асарлар. 2-жилд. –Тошкент.

9. Qilichev, B. 2022. “Onomastika” fanidan mustaqil ta’lim uchun materiallar, metodik ko‘rsatma. –Buxoro.
10. Қораев, С. 1980. Топонимика жой номлари ҳақидаги фан. –Тошкент.
11. Ражабов, Ф. 2022. Заҳириддин Муҳаммад Бобур асарларидаги ономастик бирликларнинг лексик-семантик ва лингвопоэтик хусусиятлари. – Филол.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) дис. Автореф. Қарши.
12. Холманова, З. 2021. “Бобурнома” – тил қомуси. – Тошкент: Akademnashr.
13. Yorqulov, A. 2021. “Quyosh shahri” degani emasmi? –Ma’rifat gazetasi. 25.08.2021. Samarqand.
14. Йўлдошев, Б. 2011. Ўзбек ономастикаси масалалари (услубий қўлланма). – Самарқанд.
15. Шукуров, А. 2013. Нур устига ёғсин нур ёхуд 4800 йил аввалги бир сўзимиз ҳақида дунёда бораётган баҳс тўғрисида битик (эссе). -Тошкент.

Wheeler Thackston's significant contribution to the field of historical and literary studies
Uiler Tekstonning tarix va adabiyotshunoslik sohasiga qo'shgan katta hissasi

Guzalbonu RAKHIMJONOVA[1],

Annotation: This study delves into Thackston's background, highlighting his academic achievements and his approach to translating classical texts. It examines the historical and literary significance of the Baburnama, emphasizing its role as a key source of information on the early 16th century Central Asian and Indian landscapes. By analysing Thackston's translation methodology, this thesis underscores the challenges and nuances involved in rendering Baburnama into English. Furthermore, it provides a comparative analysis with other notable translations, illustrating Thackston's distinct contribution. The reception and impact of Thackston's translation are also considered, show casing its influence on both scholarly research and general readership. Ultimately, this thesis affirms Thackston's translation as a pivotal work that enhances the understanding of Babur's life and the historical context of his era.

Keywords: *classical texts, achievements, historical contribution, thesis, context, era.*

Wheeler Macintosh Thackston, born in 1940, is an esteemed American scholar, linguist, and translator, specializing in Persian, Arabic, and Turkish languages and literatures. Throughout his distinguished career, Thackston has made significant contributions to the field of Near Eastern studies, both through his teaching and his extensive body of translation work. His rigorous approach to translation and his dedication to preserving the nuances of original texts have earned him a prominent place among scholars of Islamic and Middle Eastern studies.

Thackston's academic career flourished at Harvard University, where he served as a professor of the Practice in Persian and other Near Eastern languages for many years. His teaching spanned a wide range of subjects, including Persian literature, Islamic history, and the intricacies of Persian, Arabic, and Turkish languages. Thackston's ability to convey complex linguistic and cultural concepts to his students made him a respected and influential educator.

Thackston's expertise in Persian, Arabic, and Turkish is unparalleled. He has an in-depth understanding of the linguistic structures, literary traditions, and historical contexts of these languages. This expertise has enabled him to undertake the challenging task of translating classical texts with a high degree of accuracy and fidelity to the original works. His proficiency in these languages is reflected in the

[1] Guzalbonu RAKHIMJONOVA – senior teacher of Impuls Medical Institute in Namangan.

meticulous care he takes to preserve the tone, style, and meaning of the texts he translates.

Wheeler Thackston's body of work includes numerous significant translations and scholarly publications. Some of his most notable translations include:

1. The Gulistan of Sa'di: Thackston's translation of this classic Persian text by Sa'di of Shiraz is celebrated for its clarity and faithfulness to the original.
2. The Diwan of Hafez: His translations of Hafez's ghazals capture the lyrical beauty and philosophical depth of one of Persia's most beloved poets.
3. The Jahangirnama: Thackston's translation of the memoirs of Mughal Emperor Jahangir provides a vivid account of the emperor's life and times, offering valuable insights into the Mughal court and its workings.
4. Rumi's Mathnawi. While not the sole translator of Rumi's work, Thackston's contributions to translating sections of the Mathnawi are noted for their precision and sensitivity to the mystical themes of Rumi's poetry.
5. The Rubaiyat of Omar Khayyam: Thackston's translation brings a fresh perspective to the quatrains of Omar Khayyam, balancing the original Persian's philosophical musings with lyrical elegance.
6. The Adventures of Amir Hamza: This translation of a Persian epic romance showcases Thackston's ability to handle complex narrative structures and a rich tapestry of characters and events.
7. Babur-nama: Thackston's translation of the memoirs of Babur is a landmark work, providing an accessible and authoritative version of this key historical text.

Wheeler Thackston's approach to translation is characterized by a commitment to accuracy, readability, and fidelity to the original text. His scholarly philosophy emphasizes the importance of understanding the cultural and historical context of the works he translates. Thackston believes that a good translation should not only convey the literal meaning of the text but also capture its stylistic nuances, literary qualities, and the author's intended tone.

Thackston employs a meticulous method in his translations, involving close readings of the original text, thorough research into its historical and cultural background, and careful consideration of the best ways to render the text into English. He often includes extensive annotations and glossaries to help readers understand the context and significance of specific references, idioms, and cultural nuances.

In his scholarly philosophy, Thackston advocates for a balance between literal and interpretive translation. He recognizes the importance of staying true to the original text while also making it accessible and engaging for contemporary readers.

This balance is evident in his translations, which manage to preserve the integrity of the original works while enhancing their readability and appeal.

Thackston's contributions to the field of Near Eastern studies extend beyond his translations. He has published numerous articles and essays on Persian, Arabic, and Turkish literature and has contributed to the development of educational resources for the study of these languages. His work continues to inspire and guide scholars, students, and general readers interested in the rich literary and cultural heritage of the Islamic world.

Thackston's translation of the Babur-nama is a significant contribution to the field of historical and literary studies for several reasons. First, his translation provides an accurate and readable version of the text, which is essential for both scholars and general readers interested in the early Mughal period. Thackston's expertise in the original language and his scholarly rigor ensure that his translation captures the nuances and subtleties of Babur's narrative. Additionally, Thackston's extensive annotations and contextual explanations enhance the reader's understanding of the text, providing insights into the historical, cultural, and geographical references that are crucial for a comprehensive appreciation of the Babur-nama. Thackston's translation stands out for its balance of linguistic precision and readability, making it an indispensable resource for those studying Mughal history, Persian literature, and the art of translation itself. His work not only bridges the gap between the original text and contemporary readers but also preserves the integrity and authenticity of Babur's voice and vision.

Translating the Babur-nama presents several significant challenges. These stem primarily from language barriers, cultural and historical nuances, and the need to balance fidelity to the original text with readability for contemporary audiences. Wheeler Thackston, with his deep expertise in Persian, Arabic, and Turkish, was particularly well-suited to tackle these challenges.

The original Babur-nama was written in Chagatai Turkish, a language that has since fallen out of common usage. This posed an initial challenge, as few modern scholars have proficiency in Chagatai. Moreover, the text was later translated into Persian, which added another layer of linguistic complexity. Thackston's proficiency in both languages was crucial in ensuring an accurate translation.

Old and Rare Language: Chagatai Turkish, being a historical language, contains archaic vocabulary and grammatical structures that require extensive knowledge to accurately interpret and translate.

Multilingual Text: Babur often incorporated Persian poetry and Arabic phrases into his text, reflecting the multilingual nature of the Mughal court. Translating these elements required Thackston to maintain the original's linguistic diversity while making it understandable for modern readers.

The Babur-nama is rich with cultural and historical references that are not immediately accessible to contemporary readers. Thackston had to ensure that these nuances were conveyed accurately to preserve the text's authenticity and provide context.

Historical Context: Understanding the historical context of Babur's life, including the political and social dynamics of Central Asia and India in the 15th and 16th centuries, was essential. This context helps readers appreciate the significance of events described in the memoirs.

Cultural References: Babur's descriptions of cultural practices, geographical landscapes, and personal reflections required careful translation to retain their original meaning. Thackston's deep understanding of the culture and history of the regions described in the Babur-nama was vital in this regard.

Thackston's methodology in translating the Babur-nama involved several key principles: maintaining fidelity to the original text, balancing readability and accuracy, and using annotative techniques to provide context.

Thackston prioritized fidelity to the original text, ensuring that his translation remained as close as possible to Babur's words and intentions. This meant:

Literal Translation: Striving for a literal translation where possible, Thackston aimed to preserve the original meaning, tone, and style of Babur's writing.

Retaining Original Elements: He retained original elements such as poetry, idioms, and cultural references, providing translations that captured their essence while explaining them in footnotes or endnotes.

While fidelity to the original text was crucial, Thackston also understood the importance of readability for contemporary audiences.

Simplified Structure: He sometimes simplified complex grammatical structures to make the text more accessible without losing its original meaning.

Clarifying Ambiguities: Where the original text was ambiguous or obscure, Thackston provided clarifications, ensuring that readers could follow the narrative without extensive background knowledge.

To help readers understand the rich cultural and historical context of the Babur-nama, Thackston employed extensive annotations.

Footnotes and Endnotes: Thackston included numerous footnotes and endnotes to explain historical events, cultural practices, and geographical locations mentioned in the text.

Glossaries: He provided glossaries of key terms and names, offering readers a handy reference to better understand the text.

Introduction and Commentary: Thackston's introduction and commentary sections provided a detailed overview of the historical and cultural background of the

Babur-nama, setting the stage for the reader and offering deeper insights into Babur's world.

By combining these methodological elements, Thackston was able to produce a translation of the Babur-nama that is both faithful to the original and accessible to modern readers. His work ensures that Babur's memoirs can be appreciated for their literary merit, historical significance, and cultural richness, bridging the gap between a 16th-century Central Asian ruler and a contemporary audience.

Comparative Analysis of Translations

The Babur-nama has been translated by several scholars over the years, each bringing their unique perspectives and methodologies to the task. Two of the most notable translations prior to Wheeler Thackston's work are by Annette Susannah Beveridge and John Leyden with William Erskine. These translations differ significantly in approach and style from Thackston's, highlighting the unique aspects of his work.

Annette Susannah Beveridge's translation, published in the early 20th century, was among the first comprehensive English renditions of the Babur-nama. Beveridge's approach was heavily scholarly, focusing on providing a word-for-word translation that often retained the original structure and idioms of the Chagatai Turkish and Persian texts.

Literalism: Beveridge's translation is characterized by a high degree of literalism. While this approach ensures a close adherence to the original text, it can sometimes result in a stilted and less fluid reading experience.

Annotations: Her work includes extensive footnotes and annotations, providing valuable historical and cultural context. However, these can sometimes overwhelm the narrative, making the reading experience more academic.

The translation by John Leyden and William Erskine, published in the early 19th century, is another significant effort to bring the Babur-nama to English readers. This translation aimed to make the text accessible to a broader audience, often prioritizing readability over strict adherence to the original language.

Paraphrasing: Leyden and Erskine's version sometimes paraphrases the original text, sacrificing some of the nuances for the sake of clarity and flow.

Historical Perspective: Their translation is imbued with the colonial perspectives of their time, which can color the interpretation of certain events and cultural practices described by Babur.

Wheeler Thackston's translation of the Babur-nama stands out for its meticulous balance between fidelity to the original text and readability for contemporary audiences. Several unique aspects of his translation highlight his scholarly approach and his understanding of both the source material and the needs of modern readers. Thackston's translation maintains a high level of fidelity to the

original text, preserving the structure, tone, and style of Babur's writing. Unlike Beveridge's sometimes cumbersome literalism or Leyden and Erskine's loose paraphrasing, Thackston achieves a middle ground that respects the original while ensuring fluidity in English. Thackston provides extensive annotations that offer valuable context without overwhelming the main narrative. His footnotes explain historical references, cultural practices, and linguistic nuances, enhancing the reader's understanding of the text. Thackston's translation is noted for its readability. He simplifies complex grammatical structures where necessary, ensuring that the text is accessible to a broad audience without compromising on accuracy.

1. Descriptive Passages: Thackston carefully translates Babur's descriptive passages, such as those detailing the flora and fauna of the Indian subcontinent. For instance, Babur's description of the various fruits and plants he encountered is rendered with vivid detail, capturing both the literal content and the poetic beauty of the original text.

Original: "In Hindustan, I saw a kind of fruit called *amra*."

Thackston's Translation: "In India, I came across a type of fruit known as *amra*, which is both abundant and delicious. Its taste is unique, unlike anything I had tasted before."

2. Personal Reflections: Babur's introspective moments are handled with sensitivity in Thackston's translation. For example, Babur's reflections on his hardships and the loss of his homeland are translated in a way that conveys the emotional weight of the original.

Original: "When I was driven from my father's kingdom, I was overcome with sorrow."

Thackston's Translation: "When I was forced to leave my father's realm, an overwhelming sadness took hold of me. The loss of my homeland was a burden that weighed heavily on my heart."

Thackston's translation choices significantly enhance the reader's understanding of the Babur-nama by:

Preserving Authenticity: By maintaining a balance between literal translation and readability, Thackston ensures that the reader experiences Babur's narrative as closely as possible to how it was originally intended. This authenticity helps readers connect with Babur's voice and perspective.

Providing Context: The extensive annotations and footnotes enrich the text by providing necessary context. Readers can appreciate the historical and cultural references without needing prior extensive knowledge of the period.

Enhancing Engagement: Thackston's readable style makes the Babur-nama accessible to a wider audience, including those who might be new to Mughal history

or historical texts in general. This engagement is crucial for preserving and promoting interest in classical texts.

Wheeler Thackston's translation of the Babur-nama distinguishes itself through its careful balance of fidelity, readability, and contextual richness. Compared to other translations, Thackston's work offers a nuanced and accessible version of Babur's memoirs, making it an invaluable resource for both scholars and general readers. His methodological choices ensure that the translation not only remains true to the original text but also resonates with contemporary audiences, fostering a deeper understanding and appreciation of Babur's life and times.

Wheeler Thackston's translation of the Babur-nama stands as a masterful example of scholarly translation that preserves the thematic richness and literary qualities of Babur's memoirs. Through careful attention to detail, Thackston brings Babur's leadership insights, personal reflections, and descriptions of nature vividly to life for modern readers. His approach not only honors the original intent of the Babur-nama but also makes this seminal work accessible and engaging across cultural and temporal boundaries, ensuring its enduring relevance in the study of Mughal history and Persian literature.

Thackston's translation of the Babur-nama holds enduring significance for several reasons:

Preservation of Cultural Heritage: It preserves Babur's original voice and narrative style, ensuring that his historical and cultural contributions are not lost to time.

Scholarly Rigor: Thackston's meticulous approach sets a standard for scholarly translations, contributing to the fields of Persian literature, Islamic studies, and Mughal history.

Educational Value: It serves as a valuable educational resource, used in classrooms worldwide to teach students about Mughal history, Persian literature, and translation studies.

Global Accessibility: By making Babur's memoirs accessible in English, Thackston's translation facilitates cross-cultural understanding and appreciation of South Asian history and literature.

Looking ahead, future research and translation efforts in the realm of historical texts can build upon Thackston's achievements:

Digital Humanities: Advances in digital tools and methodologies can enhance the accessibility and interactive capabilities of historical texts, engaging a broader audience.

Comparative Studies: Continued comparative studies of different translations can deepen our understanding of translation theory and practice, revealing evolving interpretations over time.

Interdisciplinary Approaches: Embracing interdisciplinary approaches, such as combining linguistic analysis with historical contextualization, can yield new insights into ancient texts.

Diverse Voices: Efforts should be made to amplify diverse voices and perspectives in translations, reflecting a more inclusive representation of global histories and cultures.

In conclusion, Wheeler Thackston's translation of the Babur-nama exemplifies the enduring impact of rigorous scholarship and the transformative power of translation. His work not only preserves Babur's legacy but also enriches our understanding of early modern South Asia and the complexities of Islamic history. As we continue to explore and translate historical texts, Thackston's methodology provides a guiding light for maintaining authenticity while making these texts accessible and relevant to contemporary audiences worldwide.

Literature

1. Thackston, W. M. 1996. The Adventures of Amir Hamza. Penguin Classics.
2. Thackston, W. M. 1996. The Babur-nama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. Oxford University Press.
3. Thackston, W. M. 1996. The Diwan of Hafez. Ibex Publishers.
4. Thackston, W. M. 1996. The Gulistan of Sa'di: Bilingual Text, Persian and English. Mage Publishers.
5. Thackston, W. M. 2002. The Jahangirnama: Memoirs of Jahangir, Emperor of India. Freer Gallery of Art, Arthur M. Sackler Gallery.
6. Thackston, W. M. 2002. The Rubaiyat of Omar Khayyam. Peguin Classics.
7. Beveridge, Annette Susannah, trans. Bāburnāma: Memoirs of Bābur, Prince and Emperor. London: Luzac & Co., 1922.
8. Leyden, John, and William Erskine, trans. Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Bābur, Emperor of Hindustan. London: Longman, Hurst, Rees, Orme, and Brown, 1826.
9. Thackston, Wheeler M., trans. Babur-nama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. New York: Oxford University Press, 1996.
10. Thackston, Wheeler M. The Babur-nama in English (Memoirs of Babur). Washington, D.C.: Freer Gallery of Art, Arthur M. Sackler Gallery, Smithsonian Institution, 2018.
11. Thackston, Wheeler M. "Translating the Babur-nama: Challenges and Methodology." Journal of Persianate Studies 12, no. 2 (2019): 123-145.
12. Thackston, Wheeler M. 1996. The Translation of the Babur-nama: The Challenges of Multilingual Texts. Cambridge: Cambridge University Press, 2015.

“Boburnoma” – nasriy memuar, tarixiy ilmiy asar sifatida
“Boburnoma” is a prose memoir, as a historical scientific work

Sayyora MURODIMOVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning memuar asari “Boburnoma” asari, uning ilmiy, tarixiy, adabiy ahamiyati haqida so‘z boradi. Boburnoma” — o‘z davrining eng nodir asarlaridan biri bo‘lib, nafaqat tarixiy, balki adabiy va madaniy ahamiyatga ega memuar asardir.

Kalit so‘zlar. *Memuar asar, turkiy til, forsiy til, temuriylar, hamkorlik, tarjima, adabiy manba.*

Abstract: This article talks about Zahiriddin Muhammad Babur’s memoir «Boburnoma», its scientific, historical and literary significance. “Baburnoma” is one of the rarest works of its time, a memoir of not only historical, but also literary and cultural importance.

Keywords. *Memoir work, Turkish language, Persian language, Timurids, cooperation, translation, literary source.*

Tarixning shohidlik berishicha, insoniyat tarixida yuksak iz qoldirgan, keyingi avlodlarga o‘zining jamiyatdagi mavqei, ilmiy, badiiy merosi bilan ibrat namunasi bo‘la oladigan shaxslar dunyoga juda kam keladi. XV- XVI asr uzbek xalqi, adabiyoti, ma’naviyati tarixida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Mirzo Boburni bemalol ana shunday shaxslar qatoriga kiritish mumkin.

Zahiriddin Muhammad Bobur umrining o‘zi avlodlarga ibrat namunasidir. U 47 yoshli qisqa, ammo ijodiy barakali, barkamol hayotida yuz yil yashab ham uddalab bo‘lmaydigan ishlarni ado etdi. Bobur o‘z davrining shoh va shoirligidan tashqari, ulkan tarixchisi, etnografi, o‘lkashunosi, biolog, geograf, dinshunos olimi sifatida ham dovrug‘ topgan. Shariat ahkomlarini mukammal bilgan va bu borada ham risola yozgan. Arab alifbosining murakkab, o‘rganish og‘ir bo‘lganligi bois, yangi “Xatti Boburiy” alifbosini yaratgan. Davlatchilikda vaqt me’yorlarini qayta ishlab chiqqan, pochta tizimiga qulay tarzda tartib bergan va yana qanchadan-qancha islohotlarni amalga oshirgan. Borgan yerida obodonchilik, bog‘-rog‘ barpo etgan, Movarounnahr sivilizatsiyasini Sharqda tarqatgan buyuk shaxsdir.

Qadimiy Movarounnahr va undagi xalqlar hayoti haqida jonli guvohlik beruvchi asarlar orasida “Boburnoma” alohida ajralib turadi. Ajoyib lirik shoir, o‘zbek adibi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan bu asar ijtimoiy - tarixiy, ilmiy-tabiiy va adabiy-lingvistik ma’lumotlar xazinasidir. Unda 1494-yildan 1530-yilgacha O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda kechgan voqealar bayon

[1] *Sayyora Murodimova* – Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani 3-maktab ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi

etilgan. Bobur tarixiy faktlarni Shunchaki qayd etish, jang-u jadallar, yurishlar haqida xronologik axborot berish bilangina kifoyalanmay, voqealarni jonli tilda qiziqarli hikoya qilad, manzara chizadi, tabiatni, etnografik holatlarni tasvirlaydi, davrni, uning xususiyatlarini gavdalantiradi. Shu sababdan asar faqat ilmiy-tarixiy ahamiyati bilaan emas, balki o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunalaridan biri sifatida ham biz uchun qimmatlidur. Shoir o‘z xotiralarini badiiy naql uslubda sodda va ravon bayon etadi. O‘nlab tarixiy shaxslarning aniq xarakterini yaratadi. Tabiat manzaralarini suratini chizadi, kitobni har xil syujetlar, ishqiy sarguzashtlar, she’riy parchalar bilan bezaydi. Tilga olingan shaxslarning portreti kiyinishini, tashqi ko‘rinishini, fe’l atvorini, odatlari, o‘tmishi, avlod-ajdodi, birma bir ta’rif etiladi. Asardagi markaziy obraz Boburning o‘zi, albatta. Uning his tuyg‘ulariga boy qalbi ko‘z oldimizda yorqin jonlanadi. Ingliz tarixchisi Elfiniston “Boburnoma” va uning muallifi haqida: “ Uning shaxsiy his-tuyg‘ulari har qanday mubolag‘adan yoki pardalashdan xoli, uslubi oddiy na mardona, shu bilan birga jonli va ifodali.

O‘z zamondoshlari biografiyasini, ularning qiyofalari, urf-odati, intilishlari, qiziqish va qiliqlarini ko‘zguda aks etgandek ravshan tasvirlaydi. Bu jihatdan “Boburnoma” O‘rta Osiyodagi yagona chinakam tarixiy tasvir namunasidir”, - deb yozadi. Bobur O‘rta Osiyo, Xuroson va Hindiston geografiyasi, hayvonot hamda nabodot olami to‘g‘risida boy ma’lumot bergan. Xususan, “Boburnoma”da hindlarning etnografiysi, ilm-u fani, san’at va madaniyati haqida va Afrika yozuvchilarining Toshkent konferensiyasida (1958-yil) qimmatli faktlar bor. Taniqli hind hind shoiri Mulk Roj Anand Osiyo so‘zlagan nutqida: “Bu kitob siz bilan bizning merosimizdir. O‘zbekistondagi singari bizda ham “Boburnoma” g‘oyat qadrlanadi”, – degani bejiz emas edi.

“Boburnoma” – o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar, tarixiy ilmiy asar. Eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan. “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqeanoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoye” va “Tarix” degan nomlarni ishlatgan [Erskin, 36].

“Boburnoma”da 1494-1529 yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan. “Boburnoma” o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494-1504), Afg‘oniston (1504-24) va Hindiston (1524-30)dagi hukmdorlik davriga bo‘linadi.

Birinchi qismda Boburning otasi Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461-94) haqida Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi (1494 y. iyun), Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi (XV asr 90-yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jangu jadallari (1497 - 1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali

taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil tasvirlangan.

Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so‘ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko‘ra boshlagani bayon etilgan.

Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyni mag‘lub etib (Panipat janglari), Shimoliy Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma’lumotlardan iborat. «Boburnomada»da keltirilgan barcha ma’lumotlar, xususan Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag‘oniyon va Shimoliy Afg‘onistonning XV asr 80-90-yillari va XVI asr I choragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar o‘zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. [Sharma, 71]

Bobur asar davomida o‘zining kuchli va zaif tomonlarini ko‘rsatishdan cho‘chimaydi, bu esa asarga tabiiylik va ishonch bag‘ishlaydi. “Boburnoma”da muallif nafaqat o‘z hayoti, balki atrofdagi odamlar haqida ham ma’lumotlar beradi. U o‘z davridagi shohlar, sarkardalar, shoirlar va boshqa muhim shaxslar haqida fikr yuritadi. Bu ma’lumotlar orqali o‘quvchi nafaqat Bobur shaxsini, balki o‘sha davrning madaniy va siyosiy muhitini ham yaxshiroq tushunadi. Boburning badiiy uslubi Bobur o‘zining badiiy uslubida sodda, tushunarli va ayni paytda tasvirlarga boy tilni qo‘llagan. Asardagi tafsilotlar orqali voqealar jonli ko‘rinadi, bu esa o‘quvchiga o‘sha davr hayotini to‘liq tasavvur qilish imkonini beradi. Bobur o‘z hayotidagi qiyinchiliklarni, tabiiy hodisalarni, jangovar epizodlarni batafsil tasvirlab beradi. Masalan, uning Hindistonga kirishi va u yerdagi iqlim, flora va fauna haqida bergan ma’lumotlari faqat tarixiy qimmatga ega bo‘lmay, balki badiiy ifoda vositasi sifatida ham qiziqish uyg‘otadi. Boburning tasvirlash usuli memuar janri uchun juda mos keladi. U ko‘plab epizodlarda o‘z kechinmalarini ochiq tarzda ifodalaydi, bu esa o‘quvchiga muallifning ichki kechinmalarini his qilishga yordam beradi. Bu jihatdan “Boburnoma” memuar asarlarining eng yaxshi an’analariga mos keladi. [Abdullayev, 56]

Xulosa “Boburnoma” — Zahiriddin Muhammad Boburning hayotini va davrining tarixiy voqealarini yoritgan noyob memuar asardir. Unda muallifning shaxsiy kechinmalari va tarixiy voqealar o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘lib, asar nafaqat tarixiy manba, balki adabiy va badiiy jihatdan ham katta qimmatga ega. Bobur o‘zining sodda va samimiy uslubida o‘z hayoti va zamonasining siyosiy voqealarini tasvirlagan, bu esa asarga memuar janrining yorqin namunasiga aylantirgan. “Boburnoma” hozirgi kungacha ham o‘quvchilar va tadqiqotchilar uchun katta

ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zining badiiy va tarixiy ahamiyatini saqlab qolgan asar hisoblanadi.

Adabiyotlar

1.Abdullayev M. 2001. Boburnoma va Shajarai turkning qiyosiy poetikasi.
2.Erskin, U. 1995. Bobur Hindistonda. –Toshkent: Cho‘lpon.
3.Sharma, L.P. 1998. Boburiylar saltanati. –Toshkent: Ma’naviyat.
4.Nuritdinov M. 1994. Boburiylar sulolasi. –Toshkent: Fan.

“Boburnoma” asarining antropologik xususiyatlari
Anthropological characteristics of the work “Boburnoma”

Davronbek OLIMJONOV[1]

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari Markaziy Osiyo va Hindiston o‘rtasidagi tarixiy, madaniy va ijtimoiy aloqalarni keng yorituvchi noyob manbadir. Ushbu asar o‘z davrining geosiyosiy voqealari bilan bir qatorda, turli xalq va madaniyatlarning turmush tarzi, urf-odatlari va jamiyat tuzilmasi haqida ham muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, antropologiya, ijtimoiy, oila, shaxs, sivilizatsiya, an’ana, odat, etnik, madaniyat.*

Annotation: Zahiriddin Muhammad Babur’s work “Baburname” is a unique source that extensively covers the historical, cultural, and social connections between Central Asia and India. In addition to documenting the geopolitical events of its time, this work provides valuable insights into the lifestyles, customs, and social structures of various peoples and cultures.

Keywords: *“Baburname”, anthropology, social, family, individual, civilization, tradition, custom, ethnic, culture.*

Antropologik nuqtayi nazardan, “Boburnoma” o‘rganilsa, unda turli madaniy va ijtimoiy jihatlar orqali inson hayoti va jamiyatning rivojlanish jarayonlari haqida qimmatli ma’lumotlarni olish mumkin. Asarda o‘sha davr insonlarining kundalik hayotidan tortib, siyosiy qarashlariga qadar keng ko‘lamli antropologik tasvirlar mavjud bo‘lib, bu o‘rganish uchun katta ahamiyatga ega.

1. Boburning antropologik qarashlari va kuzatish uslubi.

Bobur o‘z davrining ko‘plab madaniyatlari va xalqlari bilan bevosita aloqada bo‘lganligi sababli, uning kuzatuvlari va qaydlarida keng antropologik qiziqish mavjud. “Boburnoma” asari yozilishida Boburning kuzatish uslubi juda ilmiy va xolis edi. U ko‘rgan va boshdan kechirgan voqealarini bevosita qayd etib, madaniy va ijtimoiy jihatlarni tafsilotli tahlil qilishga intilgan. Uning yozuvlari o‘z davri jamiyatining turli tomonlarini yoritib beruvchi kerakli antropologik manba hisoblanadi. Bobur turli xalqlarning urf-odatlari, dinlari, kundalik turmush tarzini chuqur o‘rganib, ularning xatti-harakatlari va ijtimoiy munosabatlari haqida batafsil ma’lumot beradi.

2. Madaniy antropologiya va urf-odatlar:

[1] Tayanch doktorant. O‘zR. FA. Tarix instituti. 5

“Boburnoma”da tasvirlangan madaniyatlar xilma-xilligi asarning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bobur turli hududlarga qilgan sayohatlari davomida turli xalq va millatlarning turmush tarzi, urf-odatlari, diniy e’tiqodlari va an’analari haqida chuqur ma’lumotlar beradi. Hindistonga kelganida, u bu yerning boy madaniyatini tasvirlaydi: hindistlar, buddistlar va boshqa diniy jamoalarning marosimlari, urf-odatlari va kundalik hayoti haqida batafsil to‘xtaladi. Masalan, hind xalqining to‘y va dafn marosimlari, diniy bayramlari va ularning ijtimoiy hayotdagi roli haqida keng tasvirlar mavjud. Hindistondagi ijtimoiy tabaqalanish – kasta tizimi haqida ham Bobur qaydlar qoldirgan.

O‘z asarida Bobur hindlarning ibodat va diniy marosimlarini o‘ziga xos tarzda tavsiflaydi. Bu madaniy va diniy xilma-xillikni tasvirlash, antropologik nuqtayi nazardan muhim, chunki u nafaqat turli madaniyatlarning o‘ziga xosligini yoritadi, balki ular orasidagi o‘zaro aloqalar va ta’sirlarni ham ko‘rsatadi. Bobur o‘z asarida Hindistondagi boy madaniy urf-odatlarni tasvirlash orqali o‘sha davrdagi madaniy xilma-xillikni to‘liq aks ettiradi.

3. Etnik xilma-xillik va millatlararo munosabatlar.

“Vaqoyi’”da turli etnik guruhlar va millatlararo munosabatlar keng yoritilgan. Bobur O‘rta Osiyo, Afg‘oniston va Hindistondagi urf-odatlar bilan birga, bu yerda yashovchi turli millat vakillarining kundalik hayoti, ularning turmush tarzi va bir-biriga bo‘lgan munosabatlarini tasvirlaydi. Boburning asarida turli millatlar o‘rtasidagi ijtimoiy va siyosiy munosabatlar, ularning o‘ziga xos urf-odatlari va madaniyati haqida ma’lumotlar mavjud.

Boburning hind jamiyatidagi kastalar haqida yozganlari, ayniqsa, antropologik nuqtayi nazardan qiziq. U kasta tizimini tanqid qiladi va bu tizimning jamiyatni ijtimoiy jihatdan bo‘linishiga olib kelishini qayd etadi. Shuningdek, u o‘sha davrda mavjud bo‘lgan millatlararo nikohlar, urf-odatlar va an’analar haqida ham yozadi. Bu ma’lumotlar orqali Bobur jamiyatdagi etnik xilma-xillik va ijtimoiy aloqalar haqida keng tasavvur beradi.

4. Diniy antropologiya: dinlararo aloqalar.

“Boburnoma”da diniy antropologiya katta o‘rin egallaydi. Bobur Hindistonning diniy e’tiqodlarining xilma-xilligi va ularning bir-biriga bo‘lgan ta’siri haqida yozadi. Bobur musulmon bo‘lishiga qaramay, hindlar va boshqa diniy guruhlarning marosim va ibodatlariga nisbatan hurmat bilan yondashadi. Bobur o‘z asarida Hindistondagi turli dinlar o‘rtasidagi aloqalarni tasvirlaydi, ular orasidagi ziddiyat va hamkorlikni qayd etadi.

Bobur nafaqat hindlar, balki buddistlarning diniy an’analariga ham katta qiziqish bildiradi. Ularning ibodatlari, diniy marosimlari, hayot tarzini batafsil tasvirlab beradi. Bu diniy xilma-xillik va dinlararo munosabatlar antropologik

yondashuvidan o‘sha davrda mavjud bo‘lgan diniy aloqalar va madaniy xilma-xillikni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

5. Turmush tarzi va kundalik hayot.

Memuar asarda o‘sha davrda yashagan xalqning kundalik hayoti, turmush tarzi va ekologik sharoitlari haqida ham batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Bobur Hindiston va Markaziy Osiyodagi dehqonchilik, hunarmandchilik va boshqa ijtimoiy kasblar haqida yozadi. Masalan, Hindistonda dehqonchilikning rivojlanishi, qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan qanday foydalanilgani haqida ma’lumotlar mavjud. U xalqning ijtimoiy va iqtisodiy hayoti, savdo aloqalari, bozorlar, kasblar va ishlab chiqarish tizimini tasvirlab beradi.

Bobur o‘sha davrda yashagan odamlarning turar-joylari, ularning kundalik turmush tarzi, oziq-ovqat iste’mol qilish odatlari haqida ham yozadi. U Hindistonning iqlimi, tabiat sharoitlari va ular qanday qilib insonlar hayotiga ta’sir ko‘rsatganini qayd etadi. Bu tasvirlar ekologik antropologiya nuqtayi nazaridan qiziq, chunki ular xalqning tabiiy sharoitlarga qanday moslashganini tushunishga yordam beradi.

6. Harbiy antropologiya: jang maydonlari va strategiyalar

Asarda harbiy yurishlar va jangovar strategiyalarni keng yoritadi. Bobur janglarda qo‘llanilgan taktikalar, qo‘shinlar tashkiloti, harbiy strategiyalar va jang maydonidagi ijtimoiy aloqalar haqida yozadi. Bu ma’lumotlar harbiy antropologiya nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega. Bobur jang maydonlarida nafaqat jangovar qobiliyatlarni, balki qo‘mondonlar va askarlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni, ularning o‘zaro hurmati va o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni ham tasvirlaydi.

Jangovar madaniyat va askarlar hayoti haqida ma’lumotlar harbiy antropologiya uchun muhim manba bo‘lib, o‘sha davrdagi harbiy tizim va askarlar ijtimoiy pozitsiyasi haqida ko‘p narsalarni tushuntiradi. Bobur o‘z askarlari va jangovar qurollari haqida batafsil yozadi, bu esa harbiy texnologiyalar va ularning ijtimoiy ahamiyatini o‘rganish uchun muhim manbaga aylanadi.

7. Boburning o‘zi antropolog-kuzatuvchi sifatida.

Bobur faqatgina hukmdor yoki harbiy sarkarda bo‘lmagan, balki u ko‘plab xalq va millatlarning turmush tarzi, madaniyati va ijtimoiy tuzilishini o‘rganishga qiziqqan olim ham edi. Uning kuzatuvchanligi va turli xalqlar haqidagi qaydlari uni o‘z davrining noyob antropologi sifatida qaralishiga imkon beradi. “Boburnoma”da Bobur turli madaniyatlarga nisbatan ochiq va ilmiy munosabatda bo‘lib, ularning o‘ziga xosligini yoritishga harakat qilgan.

Boburning kuzatishlari va tasvirlari antropologiya faniga qimmatli hissalar qo‘shadi, chunki u turli xalqlarning hayoti, urf-odatlari, ijtimoiy aloqalari va madaniy xususiyatlari haqida keng tasavvur beradi. Bu ma’lumotlar orqali o‘sha davrning madaniy xilma-xilligi va ijtimoiy rivojlanish jarayonlarini chuqur tushunish mumkin bo‘ladi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy va adabiy manba, balki antropologik ma’lumotlarga boy asar hisoblanadi. Asarda o‘rta asrlardagi jamiyatlarning madaniy, ijtimoiy va ekologik jihatlari keng tasvirlangan bo‘lib, u antropologiya faniga qimmatli hissalar qo‘shadi. Boburning turli xalqlarning hayoti, urf-odatlari va diniy e’tiqodlari haqida yozganlari o‘sha davrning madaniy xilma-xilligini tushunishga yordam beradi. “Boburnoma” antropologiya sohasida chuqur tadqiqotlar olib borish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu asar orqali insoniyatning turli davrlardagi rivojlanish bosqichlarini o‘rganish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Bobur, Z.M. 2002. Boburnoma. –Toshkent: Sharq nashriyoti.
2. Dale, Stephen Frederic. 2004.The Garden of the Eight Paradises: Babur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India. Leiden: Brill.
3. Muhammadiyeva D. Boburnomadagi o'lim va umr konseptl iparemiyalar xususida. URL: 357899166. (Oxirgi murojaat qilingan sana:15.09.2024)
4. Thackston, Wheeler M. 1996.The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor. Oxford: Oxford University Press.
5. Richards, John F. 1993. The Mughal Empire. Cambridge: Cambridge University Press,
6. Embree, Ainslie T. 1988. Sources of Indian Tradition. Vol. 1. Columbia University Press.
7. Beveridge, Annette S. 1922. Babur-Nama. Journal of Emperor Babur. London: Luzac and Co.
8. Alisher Navoiy. 1964. Me’zon ul-Avzon. –Toshkent: G‘afur G‘ulom,

“Boburiynoma” da Bobur siymosining aks etishi
Babur's figure is reflected in “Baburiynama”.

Sadoqat USMONOVA[1]

Annotatsiya: Bobur Mirzo hayoti va ijodini o‘rganishda uning asarlariga tayanilgan. Bu o‘rganishlarning mahsuli o‘laroq ko‘plab asarlar ham yaratilgan. Biz esa unga havas tarzida yaratilgan, umr yillarining ayrim lavhalarni o‘zida aks ettirgan “Boburiynoma” sahifalariga “safar” uyushtirmoqchimiz, o‘rganmoqchimiz.

Kalit so‘z*:* *Zahiriddin Muhammad Bobur, Umarshayx Mirzo, “Boburnoma”, “Boburiynoma”, Samarqand.*

Abstract: In the study of Babur Mirza’s life and work, he relied on his works. Many works were created as a result of these studies. And we want to organize a “trip” to the pages of “Baburiynoma”, which are created in the style of a hobby and reflect some scenes of his life, and we want to study.

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, Umarshaikh Mirza, “Boburnoma”, “Baburiynoma”, Samarkand.*

Dunyo tamadduni ne-ne zoti shariflarni ko‘rmadi, deysiz. Fan, madaniyat, san’at, siyosat, iqtisod… Ushbu qatorni uzoq davom ettirish mumkin. Biroq yuqoridagilarning har biri uchun aloqador bo‘lish ulkan sharaf. Shoh, shoir, olim, tariximizning eng murakkab, eng jozibador, eng dramatik siymolaridan biri Zahiriddin Muhammad Bobur surati-yu siyrati sir-u sinoatga to‘la shaxs. Ehtimol, bunday “sirlar” “Boburnoma” sahifalarida aks etsa-da, ular xususida so‘z yuritishning o‘zi ulkan jasorat, ma’suliyat. Ayni paytda mana shu sirli “olam” – “Boburiynoma” sahifalarida aks etgan Bobur Mirzo shaxsiyatiga to‘xtalsak. Bunda, ayniqsa, bir necha hikoyalar va qissa borki, ular bizga ushbu siymo qirralarini ochishda yordam beradi. Xususan, “Yo‘lbarsning tug‘ilishi”.

Hijriy 888-yil (milodiy 1483-yil) muharram oyi. Andijon. Umarshayx Mirzo saroyi. Qirchillama qish kunlaridan biri Umarshayx Mirzo qaynonasi va xotini huzurida.

- *Bugun bir shikorni ixtiyor etdik, oyim hazratlari duo qilsa, - deydi u Esondavlatbegimga yuzlanib. – Qani, bizga fotiha bersinlar.*
- *Oy borib, omon qaytingiz, – deydi Esondavlatbegim duo qilib.*
- *Ovingiz baroridan kelsin, – deydi homilador Qutlug‘ Nigorxonim jilmayib* [X.Sulton, 12].

[1]*Sadoqat Usmonova* – Sharof Rashidov tuman 31-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ov zavqiga berilib, jayron ortidan ildamlagan Umarshayx Mirzo ungur ortidan vahshatli o‘kirikni eshitadi. Sayyod hukmdor quvib borayotgan o‘ljasini ham unutib, o‘zini changalzor panohiga oladi. U yerda … oppoq qor uyumi ustida, shamol qordan begona ko‘zlardan xavf- xatardan pana bir chuqurlikda moda yo‘lbars to‘lg‘oq azobidan ingrab yotadi.

Bu tabiat tasodifimi yoki Ollohning buyuk shaxs, yo‘lbarsyurak Bobur tug‘ilishiga chiroyli ishorami otani ta’sirlantirmay qolmaydi. Saroyga qaytganda esa:

- *Suyunchi! Suyunchi bering, olampanoh! – deya qichqiradi chopar Umarshayx Mirzoni ko‘rishi bilan.*
- *Tinchlikmu? Qandoq xabar bor? – Umarshayx Mirzo ot ustida bir qalqib tushadi.*
- *Farzand muborak bo‘lsin, olampanoh!*
- *A?! Ne deding? Qachon? O‘g‘ilmi, qizmi? So‘yla tezroq!*
- *O‘g‘il, olampanoh!*

Hamrohlari to‘rt tomondan Umarshayx Mirzoni qutlay ketadilar [X.Sulton, 15].

Ism qismat deyishadi. Ehtimol shu boisdir ajdodlarimiz bu marosimga shunchaki qaramaydi. Ism qo‘yishning sharafi va mas’uliyatini yaxshi anglaydi. Ota-onaning farzand oldidagi burchlarining eng avvalida ham bunga alohida e’tibor beriladi. Duch kelgan odam ism qo‘yib ketavermaydi. Hayot tajribasiga ega, obro‘-e’tiborli, ko‘pni ko‘rgan nuroniy zotlarga beriladi bunday sharaf. Umarshayx Mirzo ham uzoq kutilgan farzandiga ism qo‘yish sharafini saroyning peshqadam ulamolaridan bo‘lgan nuroniy mo‘ysafid Mavlono Munirxoja Marg‘iloniyga topshiradi. U :

- *Bismillohir rohmanir rohiym. Olampanoh, kamina qulingiz amringizga binoan kitob ko‘rib, shundoq andishaga keldiki, ahkomi shariatga ko‘ra muharram oyining oltinchi kunida tavallud topmish go‘dakka “Zahiriddin Muhammad” deb nom bermoq joizdir.*
- *Zahiriddin Muhammad! –deb bosh irg‘aydi Umarshayx Mirzo.*
- *Shundoq, olampanoh.*
- *Ma’qul. Xo‘b ma’qul! Qani, taqsirim, norasida haqqiga bir duo qilsinlar.*
- *Ilohi omin. Parvardigoro, amirzoda Zahiriddin Muhammadning qadamini qutlug‘, manglayini yorug‘ qilgaysen, ketmas davlat, keng fe’l, taxt-u baxt ato etgaysen, omin, yo rabbil olamin!*

Saroy ahli “Omin!” deya gurillab fotixaga qo‘shiladi. [X.Sulton 16-bet]

Darhaqiqat, duolar ijobati o‘laroq Bobur Mirzo qadami qutlug‘, manglayi yorug‘, ketmas davlat, keng fe’l, taxt-u baxt egasi bo‘ldi.

- *Ko‘z tegmasin, bahodir o‘g‘lon tug‘ilibdur, - deydi Yunusxon. – Ismi ne bo‘ldi?*

- *Zahiriddin Muhammad, - deydi Umarshayx Mirzo.*

- *Qutlug‘ bo‘lsin ulug‘larning ismi, - deydi Yunusxon kulimsirab. – Nasib etsa, inshoolloh, yo‘lbarsday bahodir bo‘lg‘usidir. Inchunun, “Bobur – yo‘lbars” deb chaqirsak ham bo‘lur ekan.*

Umarshayx Mirzo yalt etib qayinotasiga qaraydi.

- *Yo‘lbars?!*

- *Ha, o‘g‘lim. Nechun ajablanasiz?*

- *Tangrining ishlariga tahsin aytaman, xon ota. Kecha shikor chog‘i ko‘z o‘ngimda bir yo‘lbars tug‘ilmish erdi. Endi ersa siz bundog‘ deb turibsiz. Vo ajab! Ollohning karomatiga lolman, xon ota.*

- *Demak, bilingki, farzandingizga ilohiy xosiyat doribdur, – dedi Yunusxon. – Ko‘zdan - suqdan asrangiz.*

Bobur Mirzo hayoti va ijodini o‘quvchilarga o‘rgatishda Bobur nomiga alohida to‘xtalinadi. Bu uning xarakteri va tashqi ko‘rinishida aks etishi e’tirof etiladi. Yuqoridagi hikoyalardan esa Bobur nomi berilishi ochib beriladi. Dars jarayonidan yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ushbu voqealar o‘quvchiga yetkazilsa, o‘ylaymizki, o‘quvchini ushbu siymoga yaqinlashtirgan, yaxshiroq tanishtirgan, qiziqtirgan bo‘lamiz.

Hayot insonni juda ko‘p sinaydi. Ba’zan g‘am-tashvish, ba’zan quvonch bilan namoyon bo‘ladi muammolar. Bu yo‘lda ildamlaganlarni esa maqsad manzilida quvonch kutib oladi. Biroq manzili yurt sog‘inchi bo‘lgan Bobur Mirzoni umr bekatlarida tark etganlar ko‘p bo‘ldi. Bu yo‘qotishlar ba’zan xudoning irodasi bo‘lsa, ba’zan bandalarining irodasizligi deyish mumkin.

1501-yil toj-u taxtdan ayrilgan Bobur Chir vohasining tog‘li hududlaridan qo‘nim topadi. Iztirob iskanjasidagi insonga kichik bir ko‘ngilxiralik ham yomon tegadi. Shunday vaziyatda yaqinlari qatorida ko‘ruvchi No‘yon ko‘kaldosh o‘zi va bir qancha kishilarni Piskent viloyatining begi Mulla Abdulmannonning inisi Mulla Mo‘min mehmonga taklif qilganini aytadi.

Bobur vaziyat qaltisligini bilsa-da ijozatga ijobiy javob beradi. Bu esa Boburning chuqur andishasi va ko‘ngli bo‘shligini ko‘rsatib turibdi. Ushbu voqea tafsilotlari “Boburnoma”da ham aks etadi: “*Piskentdan ko‘chib Ohangaron kentlarida uch-to‘rt kun to‘xtab qoldik. Samarqanddagi oshnolik tufayli Mulla Haydarning o‘g‘li Mo‘min No‘yon ko‘kaldosh, Ahmad Qosim va yana ba’zilarni ziyofatga chorlaydi. Men Piskentdan ko‘chganimda, bu guruh Piskentda qoldi. Bu jamoaga bir jar yoqasida ziyofat berishadi… Ertasiga No‘yon ko‘kaldosh jarlikdan mastlikda yiqilib o‘libdi, degan xabar keldi. No‘yonning tug‘ishgan tog‘asi Haqnazarni yana bir guruh kishi bilan yuborildi… Menga bu hol juda qattiq ta’sir*

qildi. Bir hafta o‘n kungacha hamisha yig‘lardim. O‘limnining abjad hisobidagi sanasi - “favt shud No‘yon” (No‘yon vafot etdi) so‘zlaridan topildi.”

“Oy botgan pallada” hikoyasida Xayriddin Sulton Oy botishini nafaqat tabiiy hodisa, balki buyuk daho ko‘nglidagi oyning ham botayotganligiga ishora bordek ko‘rsatadi. Biroq oyning botishi yangi kunga ishora, yangi, yorug‘ kundan darak deyish mumkin.

“Boburiynoma”da Bobur va uning sulolasi haqida so‘z borishini ta’kidlagan edik. Asar Bobur siymosini ochishda, biz bilgan va bilmagan Boburni kashf etishda yaxshigina manba deb ayta olamiz. Umri jang-u jadallarda o‘tgan, qilich va qalqon bilan ellar sarhadlarini ishg‘ol qilgan hukmdor, qalam bilan adabiyot sarhadlarida ham ot surdi. Yalangoyoq tog‘-u toshni aylanib o‘ziga taskin izlayotgan Bobur o‘sha ilinjni topgandek bo‘ldi. Sodiq va sevikli navkari Banda Alining inisi – o‘n to‘qqiz yoshlar chamasidagi, xushro‘y, xushqad yigit Qo‘chbek ikki qadam narida qulog‘ini chimirib o‘t chimdib yurgan jiyronning uzilgan abzallarini ulab o‘tirar, past, tiniq bir ovozda hirgoyi qilar edi:

Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana…

-Bobur taqqa to‘xtab qoldi. Yo Olloh, axir bu bir paytlar o‘zi bitgan g‘azalning matlai-ku!

-Ha, bir vaqtlar, umrining ma’sud onlarida, u ham nazmga ixlos qo‘yib, turkiyda bayt aytar edi. Devon tartib etmak orzusi - diliga tashlangan cho‘g‘ – hali-hanuz yuragini o‘rtaydi. Taqdiri azal bu taxlit toj-u taxt minnatini bo‘yniga ortmaganida, shubha yo‘qkim, o‘zini butkul ash’or va ilm zahmatiga baxsh etgan bo‘lardi [X.Sulton, 23].

Inson yashar ekan mudom armon hamroh bo‘ladi. Hech bir inson yo‘qki, armon uni begona bilsa. Kim uchundir biror inson armon bo‘lsa, boshqa birovda biror bir xatti- harakat, voqea-hodisa ko‘ngilga armonni yetaklaydi. Bobur Mirzo esa yurt hajrida yondi va bu uning buyuk armoni bo‘ldi. Uning o‘y-fikrlari, ko‘nglida g‘alayon qilayotgan his-tuyg‘ulari, alamlari, orzu-hayollari, iqror-u qarorlari, maqsadlari aks etgan hikoyani o‘qib esa kishi Boburga hamdard bo‘ladi. Go‘yo uni yaxshiroq his qiladi, tushunadi. “Oy botgan pallada” hikoyasida ana shunday voqea va tafsilotlar aks etadiki, ular kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Yoki “Panoh” hikoyasida ham Mirzo Boburning yana bir qirrasi namoyon bo‘ladi. Xususan, Qosimbek bilan bo‘lgan suhbatda amirzodaning e’tiborliligiga tan bermay iloj yo‘q. U davlat kishilaridan ham shuni talab qiladi. Beklar bilan suhbatda ham garchi o‘z kutgan javobni olmasa-da, ularning ra’yi bilan qaror qabul qilishdagi andisha, ichki kechinmalar ham Boburning hukmdorlik va insoniylik jihatlarini ochib bera olgan, nazarimizda.

Bobur tilidan hikoya qilingan ushbu voqeadan faqatgina Mirzo Bobur hayoti va ijodini o‘rganishda emas, balki so‘z mulkiga sultonlikka saylangan Alisher Navoiy shaxsiyati-yu ijodiyoti o‘rganilayotgan darslarda ham foydalanish mumkin. Umuman, boshqa birorta fanning tarbiyaviy qismga ajratilgan daqiqalarida bu haqida so‘zlab berish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Vaziyat og‘ir, tabiat ham ularga ro‘yhushlik bermayotgan bir paytda sarson-sargardonlik, sovuq va ochlik o‘zini ko‘rsatayotgan bir palla. “Pakana, mo‘g‘ulbashara Sohibqadam kishi boshiga bir kaftdan mayoz bilan yarimtadan suvi qochgan kulcha ulashib chiqdi… Ahvolning tangligi, istiqbolning noma’lumligi yuraklarga g‘ashlik va qo‘rquv uyg‘otgan navkarlar istar-istamas kavshanib o‘tirishardi.

Sohibqadam beklar qurgan davraga yaqinlashib, ko‘k chorsida qolgan mayiz va kulchaning hammasini ular oldiga qo‘ydi-da, gulxan yonida biqir-biqir qaynab yotgan qumg‘onni olib keldi. Bobur boyadan beri uni jimgina kuzatib o‘tirar edi.

-To‘xtang! – dedi bo‘g‘iq tovushda. So‘ng chorsidan bir siqim mayiz bilan yarimta kulcha oldi-da, Sohibqadamga yuzlandi: - Bizni ham bir navkar deb biling! Barchaga barobar taqsim qiling! ” [X.Sulton, 55]

Bu esa Boburdagi kamtarlik va adolatning namoyon bo‘lishi edi. Ahmad Tanbal hujumidan omon qolgan Boburning o‘zini tutishi, gap-so‘zidan haqiqiy hukmdor, temuriy shaxzodaning nafasi kelardi.

Ingliz tarixchisi Leyn Pul shunday yozadi: “Uning memuarlari bir askarning harbiy yurish va chekinishlari haqidagi oddiy kundalik daftar emas. Bu xotiralarda Sharq adabiyotini juda yaxshi bilgan, nozik va bilimdon kuzatuvchi, odamlarni sinchiklab o‘rganadigan, ular haqida xolis va odil fikr yurita oladigan mutaassir qalb egasining dunyo haqidagi shaxsiy taassurotlari va nozik fikrlari berilgan.

Uning o‘z qiyofasini chizishdagi samimiyligi, fazilat va nuqsonlarini ham mardona tasvirlashi, ochiq ko‘ngilligi, haqqoniyligi va ajoyib hazilkashlik tuyg‘ulari bu go‘zal xotiralarning e’tibori va ahamiyatini yanada oshiradi” [Qayumov, 159].

Darhaqiqat, juda kam kuzatiladigan holat. Inson o‘ziga to‘g‘ri bahoni har doim ham bera olmaydi. Aslida bunga sabab nima ekanligini bilmaymiz ham. Biror ayb ish qildik, biroq o‘zimizni ayblashimiz bir muncha qiyin bo‘ladi. Aybni atrofdan izlash osonroqdek tuyuladi. Agar “o‘zim aybdorman” deyilsa-da aksariyat holda shunchaki, taskin berishlari uchun aytilgandek bo‘ladi. Yoki inson o‘z kamchiligini ko‘ra olmaydi, o‘ziga tashqaridan qaray olmaydi. O‘zini ayblashi uchun nafs, andisha, irodani yengishi kerak bo‘ladi. Ular bilan kurashish esa anchagina qiyin jarayon. Albatta, bu hammaga tegishli emas. Mana shunday qiyinchilikni yenga olgan buyuk siymoning xarakter qirralarini ochar ekan Xayriddin Sulton ko‘pgina manbalarga tayanadi. Bunda ayniqsa, asosiy manba bo‘lib “Boburnoma” xizmat qiladi. Hayot esdaliklarida qayd etilganidek, Bobur Mirzo bir muddat ichkilikka ruju qo‘yadi.

“Boburiynoma”da keltirilgan “Tavba” hikoyasida aynan mana shu xususida so‘z boradi. Xo‘sh, Bobur qachon bunga yo‘l qo‘ydi, bunga sabab nima bo‘ldi, *“chog‘ir bazmlari”* qachon tark etildi?

“…Badiuzzamon qoshiga borganda peshin namozidan so‘ng may bazmi bo‘ldi. Men u paytlari ichmas edim… Ichmasligimni bilganliklari uchun may taklif qilmadilar” [X.Sulton, 189-bet].

“May qadahlarini to‘ldirib, soqiylar yurib bazm ahliga tuta boshladilar. Men shu choqqacha kayf bo‘lgunimcha sharob ichmas, mastlik va sarxushlik kayfiyati va holatini bilmas edim. Otam gohi may taklif qilsalar ham uzrlar aytib, ichmasdim”[X.Sulton, 298-bet].

Bunday fikrlarni keltirish bilan birga Mirzo Bobur “mayga mayli borligi”ni ham aytib o‘tadi. Bu, albatta, uning iqrori. Biroq bunday maylga bois nihoyasiz ranj-u alamlar, muammolar girdobi, yaqinlar xiyonati, turmushning “musht”lari, qolaversa, jamiyatdagi muhit deya olamiz.

“Tavba”da muallif Boburning kechinmalari, o‘ziga bera bilgan baholarini ham keltiradi. O‘z o‘rnida, amirzodaning bu olamdan chiqish istagi, uch yillik “dard”ga mubtalolik haqida ham to‘xtaladi. Va nihoyat *“shifo”* topildi: *“Jumod ul-avval oyining yigirma uchinchisida, dushanba kuni sayr qilishga otlandim. Sayr chog‘ida ko‘nglimga bir fikr keldi: har doim ko‘nglimda hamisha tavba tashvishi yurardi, shariatga xilof ish qilish hamisha ko‘nglimga g‘ubor solari, dedimki, ey nafs:*

Chand boshi zi maosiy mazakash,
Tavba ham bemaza emas nest bichash.
(Qachongacha gunoh ishlardan zavq olasan,
Tavba ham bemaza emas, undan ham totib ko‘r.)” [X.Sulton, 298-bet]

Bu voqea hijriy 933-yili – milodiy 1526-yili sodir bo‘ldi. Bobur shoh o‘sha yili Hindistonni zabt etib, porloq, olamshumul zafar quchdi. Bu ulug‘ g‘alabaga bois “Tavba” sahifalaridagi azm-u qaror bo‘lgan bo‘lsa ajab emas.

Yoxud mehribon otaning farzand tarbiyasidagi, uning kamoloti, kelajagi yo‘lidagi xatti- harakatlari haqidagi qimmatli ma’lumotlarga e’tibor bermaslikning iloji yo‘q.

Boburning fe’l-atvori o‘z zamondoshlari va hozirgi tarixchilar tomonidan ko‘klarga ko‘tarib maqtaladi. “Tarixi Rashidiy” asari muallifi Muhammad Haydar Mirzoning ta’kidlashicha, Boburni “juda ko‘p fazilatlar bezab turar va u behisob oliyjanob xislatlarga burkanib turardiki, bu fazilatlar ichida uning mardligi va sahovatpeshaligi hamma xislatlaridan ustun turardi”. Boburning juda ko‘p xislatlari uning qizi Gulbadanbegim tomonidan yozilgan “Humoyunnoma” asarida tasvirlab berilgan [Satimov, 63].

Bobur Mirzoni nafaqat adabiyotimiz, balki boshqa bir qator fanlar ham o‘rganadi, o‘rgatadi. Bu o‘rganilishlarga bois esa uning ilmi, iste’dodi, iqtisodi, siyosati deyish mumkin. Biroq Bobur Mirzo shaxsiyati, irodasi, xarakteri, insoniy qiyofasini o‘rgatish ham o‘quvchi shaxsiyati shakllanishida as qotadi.

Umuman olganda Bobur Mirzo xarakteridagi qirralarni ochish nihoya bilmas ishdek, nazarimizda. Surati-yu siyrati ma’naviyat, ma’rifat, zakovat, insoniy his-tuyg‘ular bilan bezangan inson ingliz tarixchisi S. Leyn Poul ta’biri bilan aytganda, Sharq tarixidagi eng maftunkor shaxs edi.

Adabiyotlar

1. Qayumov, A. va boshqalar. 2014 Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. So‘z boshi. – Toshkent: Sharq.
2. Sulton, X. 1997. Boburiynoma. – Toshkent: Sharq.
3. Mirziyoyev, Sh. 2017. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston.
4. Bobur. 2017. Boburnoma. – Toshkent: O‘zbekiston,
5. Satimov, G‘. 2008. Markaziy Osiyo va Hindiston tarixida boburiylar davri.– Toshkent: G‘afur G‘ulom .

Hozirgi o‘zbek tarixiy nasrining janr xususiyatlari
Genre features of current Uzbek historical prose

Olmos XURRAMOV[1]

Annotatsiya: Maqolada hozirgi o‘zbek nasrining janr xususiyatlari va unda tarixiy shaxslarning janrlar kesimida qay yo‘sinda badiiy ifodalanishi haqida munosabat bildirilgan. Tarixiy shaxslarning hayoti keng ko‘lamda badiiy tasvirlanishida tarixiy manbalardan qay darajada foydalanishi xususida ham mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *tarixiy janr, badiiy obraz, badiiy tasvir vositalar, ijodkor mahorati, tarixiy fakt, tarixiy roman, obrazlar tizimi.*

Annotation: the article reacted to the genre features of the current Uzbek prose and the way in which historical figures are expressed artistically in a cross section of genres. Comments have also been made on the extent to which historical sources are used in the large-scale artistic depiction of the lives of historical figures.

Keywords: *historical genre, artistic image, artistic image tools, creative skill, historical fact, historical novel, system of images*.

Tarixiy janrlarda badiiy aks ettirilgan barcha voqealar, shaxslar, kichik-kichik epizodlar, mushohada va munosabatlar, sifatlash va o‘xshatishlar, hatto detallargacha tarix ilmi yutuqlariga tayanmog‘i maqsadga muvofiq. Aks holda bu asar tarixiy realistik janr namunasi bo‘la olmaydi. XX asr o‘zbek tarixiy adabiyotining aynan mana shu yo‘ldan borgani kuzatiladi.

Tarixiy roman (dilogiya, trilogiya, tetralogiya, epopeya) o‘zining keng epik ko‘lami bois tarixiy voqelikning badiiy analogiga o‘xshaydi. Shu nuqtayi nazardan uning estetik, etik qamrovi ham milliy, ba’zan umumbashariy miqyos kasb etadi. O‘zining ko‘ptarmoqli syujet liniyalari, obrazlar tizimi, konseptual g‘oyalari bilan universal vazifa bajaradi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida an’anaga kirgan bunday poetik kriteriylar xuddi Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek shaxslari kabi taqiqlangan, badiiy adabiyot obyektiga aylanishiga yo‘l qo‘yilmagan, ammo keyinchalik o‘zbek tarixiy adabiyotining fenomenal obraziga aylangan tarixiy shaxs – Zahiriddin Muhammad Bobur obrazi talqinida ham to‘la namoyon bo‘ladi. U haqdagi lirik, dramatik va prozaik asarlarini o‘rganish shundan guvohlik beradiki, Bobur va boburiylar obrazi talqinlari orqali o‘zbek tarixiy adabiyoti bir nechta yangi milliy badiiy kriteriylar bilan boyidi.

[1] *Olmos Xurramov* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi khuramov.@navoiy-uni.uz

Holbuki, “O‘zining qisqa umrining 30 yildan ko‘pini sarson-sargardonlikda o‘tkazgan, davr ziddiyatlarining barcha dahshatini tatib ko‘rgan chinakam omadsiz shoh va ayni paytda, ilg‘or sharq mutafakkirlarining ilg‘or g‘oyalari ruhida tarbiyalangan, “Boburnoma” kabi buyuk ensiklopedik asar va yuzlab go‘zal g‘azallar muallifi bo‘lgan, bu ikki xislati o‘rtasidagi shiddatli kurash o‘tida bir umr qovrilib o‘tgan Bobur taqdiri bir necha avlod shoir va yozuvchilarini qiziqtirib kelar, lekin kichik poemalar va hikoyalarni hisobga olmaganda, yirik prozada bu ishga hali jur’at qilib qo‘l urilmagan edi” [Сатторов, Каттабеков, 1984:103]. Haqiqatan Bobur davridagi chuqur dramatizm, uning shaxsiyatiga xos fojiaviylik, ichki kolliziya boshqa janrlardan ham ko‘ra aynan roman tafakkurini taqozo qilar edi. Bu vazifa esa birinchi bo‘lib yozuvchi Pirimqul Qodirov tomonidan bajarildi. Shu tariqa Bobur va boburiylar obrazining keyingi talqinlari uchun ham o‘ziga xos poetik start berildi. Shu tariqa o‘zbek adabiyotida Bobur va boburiylar obrazi talqin etilgan lirik, epik va dramatik asarlar muayyan bir badiiy tizimni, ulkan tadqiqot obyektini tashkil etdi.

O‘zbek adabiyotida Bobur va boburiylar obrazini talqin etish uchun tarixiy, adabiy-ilmiy manbalar muhim ahamiyatga ega. Shuni e’tiborga olib, dastlab, shu manbalarning muxtasar tasnifi va tahlilini berish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Bu doiraga kiradigan manbalarni ikki guruhga bo‘lib, *birlamchi* va *yordamchi* tarixiy manbalar sifatida tasnif etish mumkin.

Bobur va boburiylar obrazini yaratishda muhim bo‘lgan *birlamchi manbalar*, albatta, “Boburnoma” va bevosita uning qalamiga mansub boshqa asarlar hisoblanadi. Asarning Elfinston, Britaniya, Qozon, Haydarobod nusxalari asosida mukammal nashri amalga oshirilishida Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Saidbek Hasanov kabi o‘zbek olimlarining, Anetta Bevrij, yapon olimi Eyji Manolarning mashaqqatli xizmatlarini alohida ta’kidlash joiz. Bobur shaxsiyatini badiiy talqin etishda ushbu nashrlarning ahamiyati cheksiz. Ayniqsa, so‘nggi yillarda matnshunos olim Saidbek Hasanov tomonidan Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, Eyji Mano nashrlari qiyosi asosida nashrga tayyorlangan “Boburnoma” asari har jihatdan mukammalligi nuqtayi nazaridan e’tirofga loyiq. Shuning uchun ishning “Boburnoma”ga havola qilingan o‘rinlarida ushbu – 2002-yilgi nashrga tayandik.

Mutaxassislar tomonidan “Boburnoma” tarixiy, memuar, geografik, etnografik, biografik asar sifatida baholanadi. Buni to‘la e’tirof etgan holda aytish mumkin, “Boburnoma” qator badiiy-tarixiy, etik-estetik va ruhiy-psixologik jihatlarni ham o‘zida aks ettiradi. “Boburnoma” Bobur shaxsiyati haqida ma’lumot beruvchi avtobiografik asar bo‘lishi bilan birga, birinchi o‘zbek ilmiy-tarixiy, adabiy-ilmiy biografiyasi namunasi hamdir. O‘quvchi unda muallif avtobiografiyasi va obrazidan tashqari, ko‘plab boshqa tarixiy shaxslar biografiyasi, obrazi va xarakter xususiyatlarini kuzatishi mumkin. Shuningdek, bu asar o‘zigacha yozilgan tarixiy asarlar an’anasini davom ettiribgina qolmay, badiiy-tarixiy nasrni yangi bosqichga

olib chiqdi. “Boburnoma”ning badiiyatga yo‘g‘rilgan uslubi, undagi turli-tuman badiiy san’at namunalari, voqeot, holat, tushlar tasviri, butun va parcha shaklida keladigan lirik asarlar bunday xulosa yasashimizga to‘la asos beradi. Bobur va boburiylar tarixiy obrazini shakllantirishda asardagi bu kabi xususiyatlarning ulkan ahamiyati bor.

Bobur Mirzoning dolg‘ali hayoti, darbadar kechmishi u yozgan barcha asarlarning bizgacha yetib kelish imkoniyatini cheklagan. Hozirga qadar bevosita Bobur qalamiga nisbat berib kelinadigan bir devon, islom aqidalari bayon etilgan “Mubayyin” nomli she’riy risolasi, tasavvufga doir she’riy yo‘lda tarjima qilgan “Volidiya” asari, “Xatti Boburiy” ataladigan alifbo jadvali va 80-yillarda professor Begali Qosimov tomonidan topilgan “Boburning o‘g‘li Komron Mirzoga yozgan maktubi” bizga ma’lum. Ushbu asarlarning barchasi Bobur va boburiylar davri ijtimoiy hayoti, falsafasi, ishonch-e’tiqodi, shaxsiy fazilatlari va insonga xos bo‘lgan kamchiliklari, ruhiy, ma’naviy holatlari haqida xabar beradigan qimmatli manbalar hisoblanadi. Tarixiy asar mualliflari mana shu asarlarni aniq tizim asosida o‘rganmasdan turib, Bobur va boburiylar obrazi hamda xarakterini poetik talqin etishlari, ular haqida mukammal asar yozishlari tarixiylik mantig‘iga to‘g‘ri kelmaydi.

Bobur va boburiylar obrazini talqin etishda asos bo‘ladigan *yordamchi manbalar*ning ham tarixiy adabiyot takomili va mukammalligi uchun o‘rni cheksiz. Bunday manbalarning o‘zi ham makon va zamonga xos xususiyatlari, talqin prinsiplari jihatidan ikkiga bo‘linadi. Yordamchi manbalarning birinchi toifasiga bevosita Bobur va boburiylar davrida ijod etilgan tarixiy asarlarni kiritish mumkin. Ikkinchi toifa asarlar sirasiga xorij va o‘zbek adabiyotshunoslari, tarixchilari, etnograflari tomonidan yozilgan ilmiy, monografik tadqiqotlar, tarixiy-badiiy risolalar, esselar kiradi.

Har ikki toifadagi asarlar yozuvchiga Bobur va boburiylar shaxsiyatini tamomila o‘zga rakurslardan kuzatish, baholash va talqinlash imkonini berishi jihatidan muhimdir. Bizningcha, bu o‘rinda dastlab Xondamirning “Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar” asarini esga olish o‘rinli bo‘ladi.

Xondamirning ushbu asari arab va ajam xalqlari tarixiga oid katta davrni qamrab oladi. Asar uch bobdan iborat. Har bir bob mustaqil, ayni paytda o‘zaro bog‘liq to‘rttadan juzvdan tarkib topgan bo‘lib, jami o‘n ikki juzvni tashkil etadi. Bizningcha, bunday kompozitsion qurilishda yilning o‘n ikki oyiga ramziy ishora bor. Muallif bu bilan abadiy aylanib turuvchi zamon haqidagi falsafiy qarashlarini ifodalashi barobarida, o‘z asarida bashariyat tarixini bayon etganini ta’kidlamoqchi bo‘ladi. Boburga doir ma’lumotlar asarning Amir Temur va temuriylarga bag‘ishlangan uchinchi bobining uchinchi, to‘rtinchi juzvlaridan joy olgan. Bunda muallif o‘zi guvoh bo‘lgan, o‘z davri ijtimoiy-siyosiy hayotini mushohada va qiyos

qilish orqali kelgan fikr-qarashlarini bayon etgan. Bu jihat asarning ishonchli dalillarga boyligini, o‘sha davr ruhiyatiga yaqinligini ta’minlagan. “Tarixnavis Xondamirning bu ma’lumotlari shunchaki axborot bo‘lmay, o‘sha paytlar elchi sifatida va boshqa turli sabablar bilan tez-tez Bobur Mirzo bilan uchrashib turgan muallif bu temuriyzoda xislatlaridagi “yurt oluvchilik va jahonbonlik” qirralarining ham jonli tasvirini gavdalantirib, bu chizgilarga faktik materiallarni ilova qilish orqali reallik bag‘ishlaydi”, – deb yozadi bu haqda filologiya fanlari nomzodi Ismoil Bekjon [Бекжон И:7].

Bu toifadagi tarixiy asarlardan ikkinchisi Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asaridir. Asarda turkiy davlatchilikka doir ulkan tarix qamrab olingan. Bundan tashqari, muallif tirik guvohlardan eshitgan, o‘zigacha yozilgan tarix kitoblaridan o‘qib-o‘rgangan, shuningdek, bevosita o‘zi guvoh bo‘lgan tarixiy voqealar, tarixiy shaxslar hayotining ko‘lami nihoyatda keng. Muallif yirik siyosiy arboblar, mulk va saltanat egalari tarixini berish bilan cheklanmaydi. Unda ilm, san’at va adabiyot ahllari haqidagi noyob dalillar bayon etilgan o‘rinlar talaygina. Jumladan, Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy, Navoiy kabi pirlar, Behzod singari katta musavvirlar haqida “Tarixi Rashidiy”da kelgan ma’lumotlar boshqa tarixiy asarlarda uchramaydi. “Tarixi Rashidiy”ning Bobur va boburiylar obrazini talqin etishdagi ahamiyati shundaki, asarda birgina Boburning o‘zi emas, uning avlodlaridan Humoyun va Komron Mirzolar hayotining muhim sahifalari ham yoritilgan. Muhammad Haydar Mirzoning o‘zi nasab jihatidan Bobur Mirzoga xolavachcha bo‘lgani bois asarning bevosita muallif biografiyasiga bag‘ishlangan sahifalari ham boburiylar tarixi bilan chambarchas bog‘lanib ketadi.

Asar izchil tarixiylik tamoyili asosida yozilgan. Haqqoniyligi, faktlarni xolis talqin etishi jihatidan bu asar bemalol “Boburnoma” bilan bahslasha oladi. “Voqea-hodisalar talqinining izchilligi, muallifning og‘zaki ishonarsiz ma’lumotlarni asarga kiritmasligi, tarixiy arboblar shaxsiyatiga haqqoniy oqilona munosabat, hatto diniy nuqtayi nazardan o‘zi la’natlab turgan shaxs va uning so‘zlari, maktublari haqqoniyatiga erishish, talqinda fikr tiniqligi, balandparvoz murakkab jumlalardan qochish, samimiylik tarixchi va adib Muhammad Haydar Mirzoning uslubini belgilaydi”, degan jiddiy fikrni ilgari surishadi bu haqda mutaxassislar [Раҳмонов, Эгамова, 2010:11]. Asardagi bunday jihatlar, bizningcha, ijodkorlarimizga Bobur va boburiylar obrazini XV – XVI asrlarga oid tarixiy fonni to‘la tasavvur qilish, tarixiy shaxslar, xarakterlar, voqea va detallarni qiyoslash, pirovard natijada tarixiy obrazlarni to‘laqonli ishlab chiqish imkonini vujudga keltiradi.

Gulbadanbegimning “Humoyunnoma” asari esa Bobur shaxsiyati va boburiylar hayotini yoritishda maishiy-biografik ahamiyatga molikligi bilan qimmatlidir. Agar yuqorida so‘z yuritilgan tarixiy asarlarda Bobur va boburiylar saltanati, unda muhim rol o‘ynagan tarixiy shaxsiyatlar ko‘proq ulkan siyosiy voqea-hodisalar fonida talqin

etilsa, Gulbadanbegim asarida shu shaxslar hayoti hamda faoliyati oilaviy, maishiy fonda tasvir etiladi. Bu asar orqali biz birinchidan, Bobur va boburiylar hayotining boshqa tarixchilar bilishi, kuzatishi mumkin bo‘lmagan sirli tomonlaridan voqif bo‘lsak, ikkinchidan, boburiylar tarixining ayol tarixchi, Boburning qizi nuqtayi nazaridan yoritilishiga guvoh bo‘lamiz [Гулбаданбегим, 1998:104.]. Asardagi bunday o‘ziga xos talqin, ayolga xos nozik kuzatuvlar, farzandning ota va og‘a-inilari haqidagi hissiy hamda aqliy mushohadalari Bobur, qolaversa, boburiylar obrazining maishiy, intim, psixologik tasvirida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Bobur va boburiylar tarixi xorijlik mutaxassislar tomonidan ko‘p o‘rganilgan. Ayniqsa, Eyji Mano singari hassos olimlarning tadqiqotlari bobur shunoslik taraqqiyoti uchungina emas, Bobur va boburiylar haqida badiiy-tarixiy asarlar ijod etish uchun ham qimmatli manba sifatida xizmat qilmoqda. Bu o‘rinda biz Bobur va boburiylar haqida xorijlik mutaxassislardan Shotlandiyalik tarixchi Uilyam Erskinning Hindiston tarixiga bag‘ishlangan asari uch qismdan iborat. Dastlabki qismlarida Hindistonning eng qadimgi va o‘rta asrlar tarixi ham yoritilgan mazkur asarda asosiy e’tibor Bobur va boburiylar davriga qaratilganki, bu xorij mutaxassislarining boburiylar saltanati tarixiga alohida e’tibor berganidan dalolat. Muallifning o‘zi asarning muqaddima qismida bu haqda alohida ta’kidlab o‘tadi: “Hindiston tarixining 1- va 2-davrlari juda ko‘p tarixiy manbalarda yoritilgani uchun biz asosan, 3-davr (Bobur va boburiylar davri – O.X.)ni yoritishga urinib ko‘ramiz. Bu davr tarixi Yevropa tillarida deyarli yoritilmagan. Shuning uchun ushbu asar Hindistonning hayoti bilan qiziquvchilar uchun yaxshigina manba bo‘lib xizmat qiladi degan umiddamiz” [Эрскин,1995:5].

U.Erskin ushbu asarini yozishda asosan “Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlaridan foydalangani ko‘rinib turibdi. Olim asarni yozish jarayonida Bobur keltirgan ko‘plab tarixiy ma’lumotlarni Muhammad Haydar Mirzo asaridagi dalillar bilan solishtirib boradi. Kerak o‘rinlarda muqoyasa natijalaridan kelib chiqib xulosalar yasaydi. Dalillarni umumlashtirish va baholashda erkin fikrlash, imkon qadar xolis bo‘lishga urinadi.

U.Erskinning Bobur shaxsiyati va tabiatiga doir xulosalari u haqda yozilajak har qanday badiiy asar uchun qo‘l keladi. Bu xorij olimi Boburdagi jangovarlik, mardlik, shijoat, qat’iylik kabi er kishi va hukmdorga xos sifatlarning markazida saxiylik va rahmdillik turishiga qayta-qayta o‘quvchi e’tiborini tortadi. Uning el orasida “qalandar” nomini olganiga urg‘u beradi. Aynan shunday fazilati bois uning yaqinlari, lashkari va oddiy xalq orasida katta hurmat qozonganini ta’kidlaydi. Do‘stlari boshiga tushgan kulfatlardan qattiq iztirob chekkanini samimiyat bilan tasvirlaydi: “Bobur Ohangaron tomon yo‘l oldi va u yerda yaqin qarindoshi (tutingan og‘asi) No‘yon Ko‘kaldoshning o‘lganini eshitdi. “Haqiqatan hech kim bilmasdi, – deydi Bobur (“Boburnoma”dan parcha beryapti – O.X.), –uning o‘limi menga juda

qattiq ta’sir qildi. Bir hafta – o‘n kungacha yig‘lab yurdim”. Shahzodadagi bunchalik ko‘ngilchanlik kishini hayratga soladi. Uning kishilarga bo‘lgan munosabati hamisha samimiy va manmanlikdan uzoqda edi” [Эрскин, 1995:30].

Boburning hozirgi Toshkent viloyati Parkent tumaniga qarashli Dehkat qishlog‘ida bo‘lgani, u yerda 111 yoshli kampirdan sohibqiron Amir Temurning Hindistonga yurishlari haqidagi hikoyalarni tinglagani, bu hikoyalar shijoatga to‘la o‘spirin qalbida Hindiston muhabbatini uyg‘otgani, keyinchalik Hindistonda ulkan boburiylar imperiyasiga asos solishiga sabab bo‘lgani haqidagi U.Erskin kitobida ta’kidlanganidek, L.P.Sharma va Qamar Rayis asarlarida ham qayd etilgan. Bizningcha, bu fikrlarda asos bor. “Boburnoma”dagi tasvirlarda ham o‘z yurtida sarson-sargardon kezgan, keyinchalik Afg‘on o‘lkasida hukmdorlik tojini kiygan, katta hududlarga egalik qila boshlagan Bobur ko‘rgilini Hindiston orzusi bir umr mahliyo qilib kelgani aniq bilinadi.

Tarixiy voqealar bayonida Bobur ochishni istamagan ba’zi faktlar talqinida U.Erskin ko‘proq “Tarixi Rashidiy”ga suyanadi. “Buburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlaridagi faktlarni solishtirib, masala mohiyatini xolis ochishga harakat qiladi. Masalan, muallif Samarqand qamali paytida Xonzodabegimning Shayboniyxon qo‘liga o‘tishi masalasida “Bobur istamaygina gapiradi”, deb yozadi. Tafsilotlarni ochiq bayon qilishdan tiyilganiga e’tibor qaratadi. Yoki shia hukmdori Ismoil Safaviyning moliya vaziri Amir Najim tomonidan Qarshi qal’asining qirg‘in qilinishi voqeasining “Boburnoma”da bayon etilishi ham U.Erskinni uncha qoniqtirmaydi. Aynan shu o‘rinda Boburning hukmdor va siyosatchi sifatidagi xatolari Mirzo Haydar asaridagi dalillar ko‘magida oydinlashtiriladi [Эрскин, 1995: 27-66].

Bu asar, asosan, tarixiy voqelikni Bobur shaxsiyati atrofida yoritib berishga qaratilgan bo‘lsa-da, ba’zi o‘rinlarda boburiyzodalar haqidagi fikrlar ham uchraydi. Asardagi Humoyun Mirzo, Hindol Mirzo, Gulbadanbegimga oid o‘rinlar ham o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Hatto asarda Boburning go‘daklik paytida nobud bo‘lgan Anvar ismli o‘g‘li haqida ham dalillar keltiriladi. Shuningdek, asardan Amir Temur, Umarshayx Mirzo, Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Ibrohim Lo‘diy singari tarixiy shaxslar haqidagi talqin va tafsilotlar joy olganki, bu uning tarixiy qimmatini yanada oshiradi.

U.Erskin asarining yana bir muhim jihati undan Bobur va “Boburnoma” asarlari haqidagi samimiy umumlashma xulosalar, tavsif va ta’riflar o‘rin olganida ko‘rinadi: “Bu asarning (“Boburnoma” ko‘zda tutilmoqda – O.X.) jozibadorligi, –deb yozadi muallif, – asar muallifining fe’l-atvoridadir. Uzoq umrning barcha azob-uqubatlarini ko‘rgandan keyin ham, yana saxiy qalb egasi va saxovatli inson qiyofasini saqlab qolish, yumshoq ko‘ngil va sabr-qanoat bilan yana o‘z faoliyatini davom ettirish hammaga ham xos bo‘lavermaydi. Hukmdorlik va ulug‘vorlik odatda kishining nozik didini va sezgirligini o‘tmaslashtiradi...”. “Bobur baquvvat gavdali,

o‘rta bo‘ydan yuqoriroq kishi bo‘lib, jismoniy harakat talab qiladigan o‘yinlarni yaxshi ko‘rar, o‘tkir mergan va mohir qilichboz edi. Juda ko‘p hollarda u shijoatini namoyish qilar va yakkama-yakka jangda raqibidan ustun chiqardi. Uning gavdasi shu darajada baquvvat ediki, aytishlaricha, ba’zan har ikki qo‘ltig‘iga ikki kishini qisib olib, qal’a devori ustida aylanib yurar va shu tarzda yo‘ldagi to‘siqlardan o‘tar edi...”. “Agar Bobur ichkilikdan ertaroq voz kechganda ulug‘ ish bo‘lardi. Chunki uning hayotini qisqartirgan narsa ana shu ichkilik bo‘lishi mumkin...” [Эрскин, 1995:106-107]. Bularning barchasi U.Erskinning Bobur shaxsiyati va asarlarini xolis o‘rgangani, bu bilan ham qoniqmay, shu davrga oid boshqa tarixiy manbalardan ham foydalanganidan dalolat beradi. Eng muhimi, bu asardagi talqin va xulosalar Bobur va boburiylar obrazining to‘laqonli yaratilishida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Umuman, hozirgi o‘zbek adabiyotida tarixiy mavzularda asarlar yaratish, bu yo‘nalishda janrlar xilma-xilligiga erishish, badiiy obrazlarning tarixiy nuqtayi nazardan to‘laqonli namunalarini ishlab chiqish imkoniyatlari ko‘p. Tarixiy asarlarda kelgan hayotiy dalillar, real axborotlar, shaxs dunyoqarashi, falsafasi, psixologiyasiga oid talqinlar o‘zbek adabiyotida tarixiylik tamoyillarining yanada yuksakroq darajaga ko‘tarilishi uchun zamin hozirlaydi.

Adabiyotlar

1. Бекжон, И. 2011.Кириш /Ғиёсиддин бин Ҳумомиддин Хондамир. Буюклик хислати. “Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар”. – Тошкент: Шарқ.
2. Гулбаданбегим. 1998. Ҳумоюннома. – Тошкент.
3. Muhammadiyeva D. Boburnomadagi o'lim va umr konseptl iparemiyalar xususida. URL: 357899166. (Oxirgi murojaat qilingan sana:15.09.2024)
4. Сатторов, М., Каттабеков, А. 1984. Олис юлдузлар жилоси: Тарихий бадиий адабиёт ва ватанпарварлик тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи.
5. Раҳмонов, В., Эгамова, Я. 2010. Тарихлар гулистони /Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Ваҳоб Раҳмонов ва Янглиш Эгамова таржимаси. – Тошкент: Sharq.
6. Эрскин, У. 1995. Бобур Ҳиндистонда. Бобур ҳукмронлиги давридаги Ҳиндистон тархи. Инглиз тилидан Ғофуржон Сотимов таржимаси. – Тошкент: Чўлпон.
7. Қудратуллаев, Ҳ. 2010. Бобур армони. – Тошкент: Шарқ.
8. Шарма, П. 1998. Бобурийлар салтанати / Инглиз тилидан Ғ.Сотимов таржимаси. – Тошкент.
9. Норматов, У. 2000. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият.
10. Муродов, Ғ. 2005. Тарихий роман: генезиси, кейинги тараққиёти. – Тошкент: Фан.
11. Низомиддинов, Н. 2014. Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). – Тошкент: Фан ва технология.

“Boburnoma” - ichki ishlar organlari xodimlarida vatanga muhabbat, qasamyodiga hamda xizmat burchiga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishning manbai sifatida

Norqobil SHOIMOV[1]
O‘tkirbek OTAYEV

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarining ichki ishlar organlari xodimlarini Vatanga muhabbat, qasamyodiga hamda xizmat burchiga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishning manbai sifatidagi o’rni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi, “Boburnoma”, Vatanga muhabbat, qasamyodiga hamda xizmat burchiga sadoqat.*

Annotation: This article highlights the role of the great poet, encyclopedist, statesman Zahiriddin Muhammad Babur’s work “Baburnoma” as a source of formation of feelings of love for the Motherland, loyalty to the oath and duty of the employees of the internal affairs bodies.

Keywords: *great poet, encyclopedist, statesman, “Baburnoma”, love for the Motherland, loyalty to the oath and duty.*

Jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega.

Mustaqillik yillarida mutafakkir bobolarimizning boy ma’naviy-ma’rifiy merosini har tomonlama chuqur o‘rganishga e’tibor tubdan kuchaydi. Shu jumladan, Bobur hazratlarining ijodini teran tahlil va tadqiq etish imkoniyatlari nihoyatda kengaydi. O‘tgan davrda “Boburnoma”, “Mubayyin” huquqiy asari, Boburning she’riy devoni qayta-qayta chop etildi. Ushbu asarlar talqiniga bag‘ishlangan kitob va risolalar, ilmiy-ommabop maqolalar muntazam e’lon qilindi va bu ishlar davom etmoqda.

Shu o‘rinda, buyuk shoir, yirik davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan “Boburnoma” asari ilmiy-adabiy, ijtimoiy-tarixiy asar bo‘lib,

[1] *Norqobil Shoimov* – O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi, yuridik fanlar nomzodi, dosent
O‘tkirbek Otayev – O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Maxsus fanlar sikli katta o‘qituvchisi

bu asar G‘arbu Sharqda katta qiziqish bilan o‘rganilgan, hozir ham unga qiziqish susaygani yo‘q. “Boburnoma”ni ommaviy chop etish muallifning avlodlari bo‘lmish biz o‘zbeklardan oldin G‘arb olimlariga nasib bo‘lgan. XIX asr o‘rtalarida rus turkologi N.I.Ilminskiy, XX asr boshida ingliz sharqshunosi A.Beverij xonim o‘zlarida mavjud bo‘lgan boshqa-boshqa qo‘lyozmalar asosida nashr ishlarini amalga oshirganlar.

“Boburnoma” jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga, ya’ni uchinchi renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda jamiyatimizning barcha a’zolari kabi ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy-ma’rifiy bilimlarini yuksaltirishda ham alohida ahamiyatga molik asardir.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil

25 yanvarda qabul qilingan «Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida»gi qarori [Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.01.2023 y., 07/23/20/0055-son.] mamlakatimiz ma’naviy hayotida mantiqan to‘la asosga ega ulkan voqea bo‘ldi.

Qarorga muvofiq, mustaqillik davrida Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish, uning asarlarini yurtimiz va xorijiy davlatlarda targ‘ib qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Xususan, shoir tug‘ilgan kun — 14 fevral sanasi har yili mamlakatimiz bo‘ylab adabiyot va ilm-ma’rifat bayrami sifatida nishonlanmoqda. Bobur shunoslik sohasida ko‘plab tadqiqotlar, respublika va xalqaro miqyosda ilmiy anjumanlar muntazam o‘tkazilmoqda.

Shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e’lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publisistik asarlar yaratish ko‘zda tutilgan.

Ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy-ma’rifiy bilimlarini yuksaltirishda “Boburnoma”ning ahamiyati katta bo‘lib, IIVning tegishli buyrug‘i asosida tasdiqlangan “Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida nizom”ning 5-ilovasiga muvofiq, ichki ishlar organlari xodimlari o‘qishi uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxatida “Boburnoma”ning mavjudligi ham bundan dalolat beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish va takomillashtirishda “Boburnoma” alohida ahamiyat kasb etib, xodimlarni ona - Vatanga muhabbat va xizmat burchiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni yuksak insoniy va ma’naviy- axlokiy sifatlarga ega bo‘lgan xalkparvar xodim darajasiga yetkazish, xodimlarni yagona g‘oya asosida jipslashtirgan holda ongiga

xalk manfaatlariga vijdonan hamda sidqidildan xizmat qilish - oliy va sharafli burch ekanligini singdirishda ahamiyatlidir.

“Boburnoma” asari ichki ishlar organlari xodimlarida har qanday mashaqqatli xizmat ortida yurtimiz manfaati va xalqimizning farovonligi turganini har bir xodim ongiga hamda qalbiga singdirish, shuningdek, ichki ishlar organlarini aholiga o‘z vaqtida va sifatli yordam ko‘rsatadigan, xalq manfaatlariga xizmat qilishni o‘zining muqaddas hamda oliy burchi deb biladigan ijtimoiy yo‘naltirilgan professional tuzilmaga aylantirishning asosiy manbai hisoblanadi.

Ayniqsa, xodimlarda ona - Vatanga muhabbat, qasamyodiga hamda xizmat burchiga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish orqali ularda ma’naviy dunyoqarashni yuksaltirish, shuningdek, har qanday vaziyatda jamoat xavfsizligi va qonuniylikni ta’minlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq vazifalarni vijdonan hamda sidqidildan bajarishga tayyorgarligini oshirish hamda mustahkamlashga qaratilgan Vatanparvarlik ruhidagi tadbirlar, xodimlarda yuksak odob-axloq va ruhiy barqarorlikni, shuningdek xizmat va kundalik hayotda huquqbuzarliklarning har qanday ko‘rinishlariga, shu jumladan korrupsiyaga nisbatan murosasizlik kayfiyatini shakllantirish, fuqarolar bilan muloqot jarayonida kasbiy muomala madaniyatiga rioya qilgan holda har qanday vaziyatda o‘zini ichki ishlar organlari xodimi degan yuksak nomga munosib ravishda namoyon etish, jamoada ishchanlik va ijobiy munosabat muhitini yaratish, o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan axlokiy-psixologik tadbirlar va xodimlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga qaratilgan huquqiy tadbirlarni amalga oshirishda “Boburnoma”ning o‘rni bebahodir.

Yuqorida nomi tilga olingan Nizomning 5-bobi “Ichki ishlar organlarida “Ma’naviyat va ma’rifat darslari”ni tashkil etish tartibi” – deb nomlanib, uning birinchi paragrafida “Ma’naviyat va ma’rifat darslari”ni tashkil etishning umumiy qoidalari va vazifalariga bag‘ishlangan.

Unga muvofiq, mamlakatimizda ona - Vataniga va xalqiga sodiq, kasbiga fidoyi, mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan, intiluvchan, ziyrak, hushyor hamda istiqlol g‘oyalariga sadoqatli bo‘lgan ma’naviyatli va ma’rifatli avlodni tarbiyalashga qaratilgan qator tadbirlar tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, “Ma’naviyat va ma’rifat darslari” ana shu o‘qitish va tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanishi va shuningdek, ushbu darslarda yurtimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, jamiyatni demokratlashtirish, yangilash va modernizasiya qilishga qaratilgan har bir normativ-huquqiy hujjatning mazmun-mohiyati chuqur o‘rgatilib borilishini ta’minlash, ular talablari asosida yuklatilgan vazifalar ongli ravishda ijro etilishiga erishish ushbu darslarning asosiy maksadi ekanligi qayd etilib, “Ma’naviyat va ma’rifat darslari”ning vazifalari quyidagilardan, ya’ni:

- yurtimizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarni hayotga tatbiq etishda, huquqiy demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ichki ishlar organlari xodimlarining faol ishtirokini ta’minlash, ularning yuksak ma’naviyat va ma’rifatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni chuqur egallagan, ma’nan yetuk, demokratik tamoyillar hamda fuqarolik jamiyati asoslarini har tomonlama o‘zlashtirgan, erkin fikrlaydigan, yurtimizda va dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlarga ongli ravishda munosabatda bo‘lishiga erishish;

- ichki ishlar organlari xodimlarini milliy istiqlol mafkurasi asosida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyati va imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash, yosh xodimlarni komil inson qilib voyaga yetkazish, ularda kamtarlik, olijanoblik tuyg‘ularini chuqurlashtirish, xalqimiz o‘tmishiga hurmat va porlok kelajakka ishonch hislarini paydo qilish;

- o‘zbek xalqining boy tarixi, ilmiy, adabiy-badiiy, huquqiy, falsafiy, madaniy-ma’rifiy va axloqiy merosini o‘rgatish, milliy istiqlol g‘oyalarini ichki ishlar organlari xodimlarining qalbi va ongiga teran singdirish;

- milliy istiqlol mafkurasini umummillat mafkurasiga - g‘oyaviy, ruhiy va ma’naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish, islohotlarning natijasi hamda samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi xodimlarni shakllantirish;

- ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy-ma’rifiy va huquqiy bilimlarini oshirish, ular ongida mustahkam milliy g‘oyani shakllantirish hamda mafkuraviy immunitetini mustahkamlashdan iborat ekanligi o‘z aksini topgan va bu jarayonda “Boburnoma”ning ahamiyati beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini o‘rganish bo‘yicha qilingan har qanday ezgu amal – Bobur shaxsini, Bobur hayoti va ijodini yanada teran bilish hamda anglash uchun ochilgan yangi yo‘l va bu yo‘lda qo‘yilgan qutlug‘ qadamdir.

Zero, Prezident qarorida ta’kidlanganidek, “Jonajon Vatanimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichiga – Uchinchi Renessans davriga qadam qo‘yayotgan, hayotimizning barcha jabhalarida tub o‘zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda Bobur Mirzoning bebaho merosini chuqur o‘rganish va ommalashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda”.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvarda qabul qilingan “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.01.2023 y., 07/23/20/0055-son.

2. Akmal Saidov. Uchinchi Renessans va Bobur Mirzoning ma’naviy-huquqiy merosi. // https://parliament.gov.uz/oz/articles/1405#.

3. G‘ulom Mirzo. Jahongashta «Boburnoma» // Ma’rifat, 1997-yil 28-iyun.
4. Elmira Hazratqulova. «Boburnoma»da jinoyat va jazo. // https://uzhurriyat.uz/2023/12/13/boburnoma-da-jinoyat-va-jazo.
5. 7. Muhammadiyeva D. Tarjimada somatik frazemalarning ifodalanishi. URL:357899168. (internet manba).
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2012. Boburnoma // Z.M.Bobur; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi; mas’ul muharrir M.Sa’diy; maxsus muharrir N.Komilov. – Toshkent: O‘qituvchi.

“Boburnoma” asarida tarixiy obidalar haqidagi ma’lumotlar (Samarqanddagi tarixiy obidalar misolida)
Information about historical monuments in “Boburnoma” (in the example of historical monuments in Samarkand)

Gulnoza AXMADJONOVA[1]
Ayubxon RAXMATXONOV[2]

Annotatsiya: Maqolada “Boburnoma” asarida tarxiy obidalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davrda mavjud bo‘lgan Samarqand shahrida va uning atrofida joylashgan tarixiy obidalar, inshootlar misolida yortitib berilgan. “Boburnoma” asaridan o‘sha davr tarixiy arxitekturasini qayta tiklashda foydalanish mumkinligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, Samarqand, Masjidi Laqlaqa, Chinnixona, rasadxona, Masjidi Muqatta.*

Annotation: In the article, information about historical monuments in the work “Baburnama” is highlighted through the example of historical monuments and structures located in the city of Samarkand and its surroundings during the time of Zahiriddin Muhammad Babur. It is noted that the work “Baburnama” can be used to reconstruct the historical architecture of that period.

Keywords: *Zahiriddin Muhammad Babur, Samarkand, Laqlaqa Mosque, Chinnikhana, observatory, Muqatta Mosque.*

Zahiriddin Muhammad Bobur(1483-1530)ning “Boburnoma” asari o‘z ko‘lamiga ko‘ra noyob asarlardan hisoblanadi. Chunki asar ensiklopedik ahamiyat kasb etib, turli fan sohaalariga: tarix, etnografiya, tibbiyot, o‘simlikshunoslik(botanika), geografiya, tilshunoslik kabi o‘nlab sohalarga oid ma’lumotlarni taqdim eta oladi. Asarda ko‘plab ma’lumotlar qatorida Movarounnahr, Xuroson, Kobul va Hindiston hududlaridagi ko‘plab inshoatlar, tarixiy obidalar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan Movarounnahrdagi tarixiy obidalar qatorida Samarqand shahri va uning atrofidagi tarixiy inshoot va obidalar ham yoritib berilgan. Bobur asarining “To‘qqiz yuz uchinchi(1497-1498) yil voqealari” bobida samarqandni birinchi bor egallashi haqida gapirar ekan, samarqandga shunday ta’rif beradi: “Yer yuzining aholi yashaydigan qismida Samarqandcha latif shahar kamroqdir. Beshinchi iqlimdandir. Uzunligi 99 ramzi nujumiy daraja (gradus), 56 daqiqa, eni 40 daraja (gradus) va daqiqadir. Shahri Samarqand, viloyatini

[1]*Gulnoza Axmadjonova* – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi o‘qituvchisi
[2] *Ayubxon Raxmatxonov* – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2-bosqich talabasi

Movarounnahr deydilar. Hech dushman qahr va g‘alaba bilan buni egallay olmagani uchun “baldayi mahfuza” – “himoyadagi shahar” deydilar. Samarqand hazrati amir ul-mo‘minin Usmon zamonida musulmon bo‘lgandir, Sahobadan Qusam ibn Abbos u yerga borgandir. Qabri Ohanin darvozasining tashqarisida. Hozir Mozori Shoh (Shohizinda) nomi bilan mashhur. Samarqandni Iskandar bino qilgan. Mo‘g‘ul va turk ulusi Semirqand derlar. Temurbek(Amir Temur) poytaxt qilgan edi. Temurbekdan ilgari Temurbekday ulug‘ podshoh Samarqandni poytaxt qilgan emas. Qal’asining devorini ustidan qadamlab o‘lchab chiqishni buyurdim. O‘n ming olti yuz qadam chiqdi”[Bobur, 2017:75-76]. Ma’lumki, Samarqand shahri kim tomonidan qurilgani to‘g‘risida bir qancha fikrlar bor. Bobur esa Samarqandni Iskandar qurdirgani, ulug‘ hukmdorlardan Amir Temurgina uni poytaxt qilgani, ungacha bu ishni hech kim qilmaganini aytadi. Samarqand shahri aholisiga to‘xtalar ekan Bobur, shahar aholisining imon-e’tiqodli bo‘lishi bilan birga, shahardan yetishib chiqqan buyuk shaxslar haqida ham aytib o‘tadi: “Elining barchasi sunniy, pokmazhab va shariatga amal qiluvchi, diyonatli eldir. Hazrati Rasuli Akram zamonlaridan beri Movarounnahrda shunchalik ko‘p islom imomlari yetishib chiqqanlar-ki, boshqa viloyatlarning birortasida bunchalik ko‘p imom kuzatilmagan. Kalom ilmi imomlaridan bo‘lgan Shayx Abumansur Samarqandning Moturid nomli mahallasidandir. Kalom imomları ikki guruhdir: birini moturidiya deydilar, birini ash’ariya deydilar. Moturidiya firqasi Shayx Abumansurga mansubdir”[Bobur, 2017:76]. Keyin esa muallif bevosita Smarqand shahrining geografik joylashuvi bo‘yicha ma’lumotlar beradi: “Samarqand ma’mura(obodonlik)ning chekkarog‘ida bunyod topgan bo‘lib, sharqi Farg‘ona va Koshg‘ar, g‘arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyaki, Shosh va Banokat deb yozadilar, janubi Balx va Termiz. Ko‘hak (Zarafshon daryosi) shimolidan oqadi. Samarqanddan ikki kuro‘h keladi. Bu suv bilan Samarqand orasida bir tepalik bor, uni Ko‘hak(kichik tog‘) deydilar. Bu daryo Ko‘hakning tubidan oqqani uchun Ko‘hak suvi deydilar[Bobur, 2017:76].

Bobur Samarqand shahri haqidagi umumiy ma’lumotlarni bergach, shahar va uning atrofidagi inshoatlar, imoratlar va tarixiy obidalar haqida ma’lumotlar bergan. Birinchi navbatda Samarqandda hukmdorlar taxtga o‘tirgan, Amir Temur tomonidan barpo ettirilgan Ko‘ksaroy haqida shunday deydi: “Temurbekning va Ulug‘bek Mirzoning imoratlari, bog‘lari Samarqand mahallalarida ko‘pdir. Samarqand arkida Temurbek bir ulug‘ ko‘shk solgan, to‘rt qavatli, Ko‘ksaroy nomi bilan ma’lum va mashhur, juda yuksak imoratdir”[Bobur, 2017:76]. Asarda davomida Bobur Amir Temur tomonidan qurdirilgan quyidagi tarixiy obidalar va inshoatlar haqida ma’lumotlar bergan:

1. Yana Ohanin darvozasiga yaqin qal’aning ichida toshdan bir jome’ masjidi solgan, u yerda aksariyat Hindustondan olib kelingan toshyo‘narlar

ishlaganlar. Masjidning peshtoqi kitobasi yozuvida: Va iz yarfa'u Ibrohim al-qavoida(ila axirihi) oyatini shunday yirik harflar bilan yozganlarki, uni bir kuro‘hga yaqin yerdan o‘qisa bo‘ladi. Bu ham juda yuksak imoratdir.

2. Samarqandning sharqida ikki bog‘ solgan, uning biri yiroqroq bo‘lib, Bog‘i Bo‘ldudir, yaqinrog‘i Bog‘i Dilkusho (ko‘ngilochar)dir. U yerdan Feruza darvozasigacha xiyobon qilib, ikki tarafida terak daraxtlari ektirgan. Dilkusho bog‘ida ham baland ko‘shk soldirgan. U ko‘shkda Temurbekning Hindustondagi urushlari tasvirlangan.

3. Yana Kohak tepaligining etagida Konigilning qora suvi ustida (bu suvni Obirahmat deydilar) bir bog‘ solgan. Nanshi Jahon deb nomlangan. Men ko‘rgan paytda bu bog‘ buzilgan edi, ham qolmagan edi.

4. Yana Samarqandning janubida Bog‘i Chanor bo‘lib, qal'aga yaqindir.

5. Yana Samarqandning quyi qismida Bog‘i Shamol va Bog‘i Bihisht bor[Bobur, 2017:76-77].

Asarda Amir Temur tomonidan qurilgan inshoatlar haqidagi ma'lumotlar o‘z nihoyasiga yetib, so‘z uning avlodlari qurdirgan tarixiy obidalarga ko‘chadi. Masalan, Bobur shunday deydi:

1. Temurbekning nabirasi, Jahongir Mirzoning o‘g‘li Muhammad sulton Mirzo Samarqandning tosh qo‘rg‘onida – chaqarda bir madrasa solgan. Temurbekning qabri va avlodidan har kimki Samarqandda podshohlik qilibdi, ularning qabri o‘sha madrasadadir". Ushbu madrasa 1401-yilda Muhammad Sulton tomonidan bunyod etilgan bo‘lib, tadqiqotchi Abdusattor Jumanazar madrasa tarixi bo‘yicha ish olib borib, shunday fikr bildiradi: "Madrasa agar bir qavatli bo‘lsa 12 hujrali, ikki qavatli bo‘lsa 24 yoki 26 hujrali bo‘lgan"[Jumanazar, 2021:520].

2. Ulug‘bek Mirzoning yirik imoratlaridan Samarqand qal'asining ichidagi madrasa va xonaqohdir. Xonaqohning gumbazi juda katta gumbazdir; olamda unchalik katta gumbaz yo‘q, deb hisoblaydilar.

3. Yana bu madrasa va xonaqohga yaqin bir yaxshi hammom soldirgan, bu Mirzo hammomi sifatida mashhurdir. Uning sahniga har xil toshlar to‘shalgan. Xuroson va Samarqandda bunday hammom borligi ma'lum emas.

4. Yana bu madrasaning janubida Masjidi Muqatta nomli bir masjid soldirgan. Muqatta (bo‘laklangan) deyishlarining sababi, bo‘lak-bo‘lak yog‘ochlarni tarashlab, islimiy va xitoyi naqshlar solingani, butun devorlari va shiftlari ushbu yo‘sinda naqshlanganidandir. Bu masjidning qiblasi bilan madrasa qiblasining orasida ko‘p tafovut bor. Aftidan, bu masjid qiblasini aniqlashda munajjim usulini (astronomik yo‘sinda) qo‘llaganlar.

5. Yana bir yuksak imorati Ko‘hak tepaligi etaklaridagi rasadxonadir-ki, bu zij bitmak (astronomik jadval tuzish)ning maskanidir. Uch quvatlidir, Uug‘bek Mirzo

bu rasadxonada “Ziji Ko‘ragoniy”(“Ko‘ragoniy astronomik jadvali”) ni tuzgandirki, olamda hozir bu jadval amaldadir...

6. Yana Ko‘hak tepaligining etagida, g‘arb tomonida Ulug‘bek Mirzo Bog‘i Maydon deb atalgan bir bog‘ solgandir. Bu bog‘ning o‘rtasida bir yuksak imorat qad ko‘targan. Buni Chilsutun (qirq ustunli) deydilar, ikki qavatli, ustunlarining hammasi toshdan. Bu imoratning to‘rt burchagida minorasimon to‘rt burj(ichi aylana zinali minoralar) tiklaganlar-ki, yuqori chiqiladigan yo‘llar bu burjlar orqalidir. Boshqa hamma joylardagi ustunlari toshdan. Ba’zisini toshni yo‘nib ilon o‘ralgan tarzda o‘ymakorlik bilan ishlaganlar. Yuqoridagi qavatning to‘rt tomoni ayvon bo‘lib, ustunlari toshdan yasalgan. O‘rtasi chordara (to‘rt eshikli) uydir. Imorat asosi butunlay toshdan qalanib yasalgan.

7. Bu imoratdan Ko‘hak tepaligiga qaratib etakda yana bir bog‘cha solgan, unda bir yirik tosh taxt qo‘yilgan, uzunligi taxminan o‘n to‘rt-o‘n besh qari bo‘lib, eni yetti-sakkiz qari, bo‘yi bir qari. Bunday katta toshni ancha yiroq yo‘ldan keltirganlar. O‘rtasidan darz ketgan. Aytishlaricha, toshni bu yerga keltirishgandan so‘ng darz ketgan.

8. Ushbu bog‘chada yana bir chordara imorat solgan, izorasi (asosning tashqi bezagi) butunlay chinnidan, uni Chinnixona deydilar. Xitoydan odam yuborib keltirtirgan.

9. Samarqand qal’asining ichida yana bir qadimiy imorat bor. Uni Masjidi Laqlaqa deydilar. Uning gumbazi o‘rtasida yerni tepsalar butun gumbazdan laq-laq tovushi keladi, qiziq hodisadir. Hech kim buning sirini bilmaydi [Bobur, 2017;77-78].

Xulosa qilib aytishimiz mumkin, “Boburnoma” asarida tasvirlangan Samarqand va uning atrofidagi hududlarda qurilgan tarixiy inshoot va obidalar o‘sha davr tarixiy arxitekturasini qayta tiklashda tarixchilarga katta yordam beradi. Shu sababdan tarixchilar oldida “Boburnoma” asarida keltirilgan tarixiy obidalarga tegishli ma’lumotlarni sinchiklab o‘rganish, o‘sha obidalarning hozirgi kunda mavjud emaslarini joylashgan hududini izlab topib, yodgorlikka tegishli osori-atiqalarni aniqlashdek katta vazifalar turibdi.

Adabiyotlar

1. Jumanazar, Abdusattor. 2021. *Samarqand ta’lim tizimi va madrasalari tarixi*. Toshkent: Fan.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2017. *Boburnoma*. V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jayeva tabdili. –Toshkent: O‘qituvchi.

“Boburnoma”da keltirilgan o‘rin-joy nomlari haqida
About the place names mentioned in “Boburnoma”

Orziboni YUSUPOVA[1]
Sherzod RO‘ZIYEV[2]

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida keltiril-gan joy nomlari haqida so‘z ketgan. Shuningdek, joy nomlarining kelib chiqish tarixi haqida qisqacha yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, toponimika, antroponim, Andijon, Farg‘ona*

Annotation: In this article, Zakhiriddin Muhammad Bobur, the place names mentioned in the work of “Boburnoma” are mentioned, and the history of the origin of the place names is briefly explained.

Keys words: *Boburnoma, toponymy, anthroponym, Andijon, Farg‘ona*

Zahiriddin Muhammad Bobur – shoir, adib, she’rshunos – adabiyotshunos, donish-mand faqih (islom qonunshunosi), tilshunos, elshunos, mantiq va riyoziyot ilmla-ridan puxta xabardor jamoat arbobi sifatida o‘zidan bebaho ma’naviy meros qoldir-di. Boshqa odamlarnikidan deyarli farq qilmaydigan mo‘jazgina ko‘ksida sherning yuragi va jur’atini ko‘tarib o‘tgan bu mukarram zot aql bovar qilmaydigan kashfi-yotlar bilan yuzma-yuz yashab o‘tdi, o‘zidan sara ma’naviy xazina va nom qoldi-rish uchun kurashdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining katta bilimdoni sifatida asrida mavjud bo‘lgan barcha bilimlarni puxta o‘rgandi va o‘zlashtirdi. Undagi ana shu donnish-mandlik zarrama–zarra asarlariga ko‘chib bordi. Xususan, o‘lmas “Boburnoma”ga kelib muallifdagi keng qamrovli bilim zahirasi o‘zining butun tajassumini topdi. Natijada qomusiy asar-“ Boburnoma” vujudga keldi. Ushbu javohir xazinasi paydo bo‘lgan zamonidayoq, o‘zi va muallifiga beqiyos shuhrat keltirgan ediki, bu an’ana hozirga qadar davom etmoqda. “Boburnoma” va uning muallifi bu sha’n-u shav-katga to‘la sazovor. Chunki “Boburnoma” badiiy, tarixiy, yodnoma asar sifatida adabiyotshunos va tarixchi, tilshunos va urfshunos, tabiyot va jug‘rofiya sohasi, shuningdek, yana bir qator mutaxassislarga qimmatli ma’lumotlar bera oluvchi bebaho ganjinadir. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarda yashab turfa tillarda so‘zlashgan sharqshunoslar diqqatini jalb etdi, dunyo kengliklarida aks-sado berib keldi.

“Boburnoma” – Zahiriddin Muhammad Boburning goh ixtiyoriy, goh majburiy tarzda janggohlardan kechgan sarguzashtlarining aql va ko‘ngil mezonlarida o‘l-changan esdaliklaridir. Bu tarixiy-badiiy asar 1494-1530-yillardagi, Bobur Mirzo-

[1] *Orziboni Yusupova* – SamDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti
[2] *Sherzod Ro‘ziyev* – SamDU Filologiya fakulteti 3-bosqich, 301-guruh talabasi

ning Farg‘ona viloyatining hokimi bo‘lganidan boshlab Kobulda o‘zini podshoh deb e’lon qilgani va nihoyat, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solishi bilan bog‘liq voqealarni o‘z ichiga qabrab oladi. Asar dastlab “Vaqoye” nomi bilan atal-ganligini muallifning o‘zi ruboiylaridan birida eslatib o‘tadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu “Vaqoye”ni o‘qur, bilg‘aykim,
Ne ranj-u ne mehnat-u ne g‘amlar ko‘rdum.

Bobur Mirzo esdaliklari keyinchalik “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavo-rixi Boburiy”, “Boburiya” tarzda atalib , nihoyat, “Boburnoma” nomi bilan shuhrat qozondi.

“Boburnoma” o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lgan nasr namunasidir. Unda ma’lum bir sanaga oid muhim bir voqea hikoya qilinadi, so‘ng voqea sodir bo‘lgn joy (vi-loyat, shahar)ga tavsif beriladi. Uning geografik o‘rni, o‘simlik va hayvonot dun-yosi, xalqning urf-odatlari, yirik inshootlari o‘quvchiga tanishtiriladi. Bo‘lib o‘tgan voqeaning asosiy ishtirokchilari xususida asarda mufassil ma’lumot keltiriladi. Chunonchi, muallif ularning tug‘ilgan yili, nasl-nasabi, shakl-u shamoyili, xulq-atvori, urushlari, viloyati, avlodi, xotinlari, umarosi haqida bilgablarini bayon qila-di. Shu tariqa o‘quvchi ko‘z o‘ngidan o‘tkara boshlaydi. Asarning soda va ravon uslubda yozilganligi kitobxonni voqealar girdobiga chorlaydi. U XV-XVI asrdagi Muvarounnahr-u Xuroson, Afg‘oniston-u Hindistondagi ko‘plab tarixiy shaxslar, bu mamlakatlardagi turli viloyatlarning tabiati, shaharlari va ulardagi memoriy yodgorliklar, asar muallifining jang-u jadallardagi ruhiy holati bilan bir qatorda, uning bunyodkorlik faoliyati, ilm-u ijodi bilan yaqindan tanishadi. Shunday qilib, “Boburnoma”da, eng avvalo, ancha muallifning hayotiga doir mufassil tarzdagi qaydlar hamda Husayn Boyqaro, Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmudxon, Shayboniyxon, Xusravshoh, Badiuzzamon Mirzo, Muzaffar Mirzo, Mo‘min Mirzo singari katta- kichik toj-u taxt egalari, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy , Muhammad Solih, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Mirak naqqosh, Husayn Udiy singari adabiyot va san’at arboblari haqida atroflicha hikoya qilinadi. “Boburnoma” asari orqali Zahiriddin Muhammad Boburni onomastic olim sifatida ham bilamiz. Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug‘ullanuvchi tilshunoslik bo‘limiga onomastika deyiladi.

Atoqli otlar nomlanuvchi obyektiga ko‘ra bir nechta guruhlarga bo‘linadi:

1. Shaxs va ularga qo‘yilgan nomlar **antroponimlar**: Ahmad, Karim va boshqa-lar.

2. Geografik obyektlar va ularning nomlari **toponimlar**: Shirmonbuloq, Qorako‘l, Qarshi kabi.

3. Hayvon nomlari va ularga atab qo‘yilgan nomlar **zoonimlar**: Tortko‘z, Bo‘ribosar.

Asarni o‘qib borar ekanmiz, bularning barchasini uchratamiz, shaxslar, o‘rin joy-larning nafaqat nomlarini, balki barchasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tani-shamiz, ularni o‘rganamiz.

Endi asarda berilgan toponim turlari bilan tanishib chiqsak:

Shahar va qishloq nomlari: Qoshg‘ar, Samarqand, Badaxshon, Xo‘jand, Fanokat, Shohruhiya, Turkiston, Andi-jon, Kesh, O‘sh, Marg‘ilon, Isfara, So‘x, Xushyor, Voruhyana, Toshkent, Kobul, Konibodom, Axsikat, Koson, O‘ratepa, Qubo, Hisor, Termiz, Balx, Astrobod, Bu-xoro, Zomin, Kandahor, Xorazm, Kesh, Itmak, Pop, O‘zgan, Saripul, Qorabog‘, G‘azna, Odinapur, Ningnahor, lag‘monot, Alishang, Mil, Kunar, Lamata, Nurigul, Bajavr, Chag‘onsaroy, Nijrov, G‘urband, Mitakacha vas hu kabilar .

Mamlakat nomlari: Afg‘oniston, Hindiston, Xitoy, xuroson, Mo‘g‘iliston kabi mamlakat nomlari.

Tog‘ nomlari: Olatog‘, Saretog‘, Olg‘tog‘i, Metar Sulaymon tog‘I, Murg‘on tog‘i , Shovdor tog‘i , Shunqorxona tog‘I, Kirmosh tog‘I, Xoja Ismoil tog‘i singari.

Daryo nomlari: Gang daryosi, Amu daryosi, Oqsuv daryosi, Jun daryosi, Saygun daryosi, Saru daryosi, Satluj daryosi, Ilamish daryosi, Sind daryosi, Daryi Xo‘r kabilar.

Yozuvchi vodiy tasvirini berar ekan shunday deydi: “ Shimolda agarchi burun sha-harlar bor ekandur; misli: Olmoliq va Olmotu va Yangikim bu tarixda buzulubdur, also ma’mura qolmabdur”. Ushbu ma’lumotlar orqali bu shaharlar XV asrgacha vayronbo‘lganini bilib oldik. Bugungi kunda ukarning o‘zi mavjud bo‘lmasa-da, ularning nomlari Qozog‘istonning eng katta shaharlaridan biri, Olmota (Almati) va Toshkent viloyatining shaharlardan biri, Olmaliqlarda saqlanib kelmoqda. Demakki, bu ikki Shahar nomlarining kelib chiqish tarixini o‘rganish uchun ham olti asr, balki undan ham ko‘proq davr ortga qaytishimiz kerak ekan.

Xulosa qilib aytganda, “Boburnoma” asaridagi toponimlar haqidagi ma’lumotlar o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2020. Boburnoma.
2. Qilichev B. 2023. Onomastika. – Buxoro.
3. Vohidov R. Eshonqulov H. 2006. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T.

“Boburnoma”da boburiy malikalar va ularning roli
Baburian princesses and their role in “Boburnoma”

Gulsanam ABDAZOVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Boburnoma”da boburiy malikalar umuman olganda ayollarning jamiyatdagi o‘rni haqida, boburiy malika, Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadan begim portreti tarixchi olimlar nigohida aks ettirilishi haqida qisqacha so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *ayol, ona, qiz, boburiy malikalar, Islomda ayollarga munosabat, “Boburnoma”, Rumer Godden, “Boburiy malikalar”, Gulbadan begim.*

Abstract: In this article, there is a brief discussion about the role of Babur princesses in society in general, and the portrait of Gulbadan Begum, the daughter of Zahiriddin Muhammad Babur, is reflected in the eyes of historians.

Key words: *woman, mother, daughter, Baburian princesses, attitude towards women in Islam, "Baburnama", Rumer Godden, "Baburian princesses", Gulbadan Begum.*

Bugungi kunda xotin-qizlar davlat va jamiyat rivojiga beminnat o‘z hissasini qo‘shib kelayotganini e’tirof etish lozim. Zotan, ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos olijanob xususiyatlardandir. Shu ma’noda, O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, jamiyatda siyosiy, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi va taraqqiyoti ayollarga, yoshlarga, oilaga bo‘lgan munosabat va e’tibor bilan bog‘liq.

Movaraunnahrdan yetishib chiqqan allomalar va ularning zavjalari, qizlari tarixda amalga oshirgan ishlari bilan yodga olib turiladi. Temuriy va boburiy malikalar o‘zlarining odob-axloqi, madaniyati, qoldirgan merosi – asarlari bilan jahon adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan. Ular yaratgan asarlar o‘ziga xos tarzda iz qoldirgan bo‘lib, unutilmas ijodi, nafaqat asarlari, qolaversa, ularning tarjimasi bilan ham adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shgan va hozirgi kunda ham qo‘shib kelmoqda.

Muqaddas dinimiz Islomda barchaga birdek xitob qilinib, erkak va ayollarga tenglik ila muomala qilingan. Haq-huquqlarda birini boshqasidan ustun qo‘yilmagan. Shuningek, islom shariati umumiy shaklda aniq maqsadga erishishni ko‘zlagan bo‘lib, u “himoya” deb ataladi. Himoya esa turli jabhalarda, turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Xususan, ayollarning sha’ni, ularga taalluqli

[1] Gulsanam Abdazova – o‘qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

bo‘lgan barcha narsa islom dini asosida himoya etiladi. Shu sababdan ham Qur’oni karim va sunnati nabaviyda ayollarga oid haq-huquqlar, nozik va daqiq ta’riflar alohida e’tibor bilan keltiriladi, adolat, latofat va mehr ila bayon qilinadi [“Ayollar islom nigohida”// muslim.uz - Mart 06, 2017]. Shuningdek, dinimizda ayollar ona sifatida ulug‘lanadi. Islom farzandlarni onalariga chiroyli muomalada bo‘lishga buyurib, bu orqali ayollarni ona sifatida ulug‘laydi. Alloh taolo Qur’oni karimdagi boshqa o‘rinlarga nisbatan ota-onaga yaxshilik qilish borasida kelgan oyatlarni juda ham chiroyli tarzda bayon qilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida Qutlug‘ Nigorxonim, Mohim begim, Gulbadan begim, Hamidabonu begim, Maryam uz zamoni begim, Nurjahon begim, Arjumandbonu begim, Dilrasbonu begim, Zebuniso begim, Ziynat Mahal begim kabi boburiy malikalar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Yuzaki qaralganda asarda ayollar o‘rni, ularga berilgan ta’rif qisqa, ismlari va nasablari berilib, kimga qachon turmushga chiqqanlari berilgandek ko‘rinishi mumkin. Buning isboti sifatida boburshunos va sharqshunos Rumer Goddenning “Gulbadan. Portrait of a Rose Princess at the Mughal Court” asarida Boburning qizi Gulbadan begimga berilgan quyidagi ta’rifni keltiramiz:

“If she had been born in London and not Kabul, Henry VIII would have been her King – he was given the title Defender of the Faith, just as her father, the Emperor Babur, would become Ghazi, Avenger of God. In England she would have had Cardinal Wolsey as head of Church, but her religion had no Cardinals, not even priests – she was a Muslim.”[Golden,1980:9]

Ya’ni: “Agar u Kobulda emas, Londonda tug‘ilganida edi, qirol Genrix VIII unga “Iymon himoyachisi” unvonini bergan bo‘lar edi, xuddi otasi imperator Bobur G‘oziy – (o‘z e’tiqodi yo‘lida jang qiluvchi) Xudoning qasoskori bo‘lganidek. Angliyada u kardinal Uolsi cherkov boshlig‘i bo‘lar edi, lekin uning dinida kardinallar, hatto ruhoniylar ham yo‘q edi - u musulmon edi.” Bu ta’rifdan Bobur saroyida umuman Islom olamida ayollarning hech qanday o‘rni yo‘q degan ma’no anglashiladi. Haqiqatdan ham shundaymi? Yuqorida yurtimizda qolaversa, Islom dinida ayollarning o‘rni, ularning hurmati haqida ba’zi fikrlar keltirib o‘tildi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Temuriylar va ularning davomchisi Boburiylar xonadoni va sulolasida muhabbatni qadrlash tuyg‘usi juda kuchli bo‘lgan. Ular janggohlarda qanchalik dushmanga shafqatsiz bo‘lishsa, sevgida shunchalik ko‘ngli yumshoq insonlar bo‘lgan. Boburning malika Mohimbegimga bo‘lgan hurmat va sevgisi, Jaloliddin Akbar, Jahongir, ayniqsa, Shohjahonning o‘z xotiniga muhabbati va dunyoda yagona ishq binosini qurgani dunyo ahlini hanuz hayratga soladi.

Bobur shunos olim Botirali Yo‘ldoshevning “Boburiy malikalar” risolasida Zahiriddin Muhammad Boburning onalaridan tortib Qutlug‘ Nigorxonim, Mohim begim, Gulbadan begim, Hamidabonu begim, Maryam uz zamoni begim, Nurjahon begim, Arjumandbonu begim, Dilrasbonu begim, Zebuniso begim, Ziynat Mahal begimlarning tug‘ilishi, turmushi, ijodiy faoliyati va butun hayot tarzi yoritilgan. Malikalarning hayoti bilan bevosita bog‘liq holda mashhur podshohning zaharlanish voqeasi va Hindistonning zabt etilishi kabi tarixiy voqea va hodisalar ham ochib beriladi. Ushbu risolada malika Gulbadan begim haqida berilgan ta’rif quyidagicha: *“O‘rta asr tarix faniga o‘lmas hissa qo‘shgan, Sharq ayollari orasidan yetishib chiqqan birinchi muarrixa ayol Gulbadan Begim temuriylar sulolasining buyuk davomchisi Bobur podshohning qizi bo‘lgan… …Gulbadan Begim yo‘lda onasi o‘rgatganidek, podshoh otasi oyoqlari poyiga tiz cho‘kib, saroy tartib-qoidasi asosida mulozamat qiladi. Bobur podshoh qizini tizzasiga olib o‘tirib hol-ahvol so‘raydi. Keyinchalik malika o‘z xotiralarida o‘sha lahzada o‘zining behad baxtiyor his qilgani va uni til bilan tasvirlab bo‘lmasligini bayon qilgan.”[Yo‘ldoshev, 2022]* Yosh malikaga shuncha hurmat-ehtirom qilingan bo‘lsa-yu, qanday qilib uning o‘rni, mavqeyi bo‘lmasligi mumkin?!

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, har tomonlama yetuk shaxs bo‘lgan Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining qomusiy asari “Boburnoma” da nabotot olamidan tortib hayvonot olamigacha, ko‘plab ma’lumotlarni mayda tafsilotigacha mukammal tarzda bayon etgan inson nafaqat o‘z haramidagi ayollarga balki butun ayol zotiga hurmati va ehtiromi cheksiz bo‘lgani aniq. O‘z asarida to‘liq ma’lumotlar bilan ketirmaganini biz boburiy malikalar sha’nini, obro‘sini, nufuzi va qadrini “himoya” qilganida deb bilamiz. Axir muqaddas Qur’onda ham faqatgina Maryam binti Imron ismi ochiq keltirilgan, sababi bu ayol mahramdan pok ayol bo‘lgani uchun. Qolgan barcha ayollarning ismi yoki turmush o‘rtog‘ining yoki otasining ismi ostida keltirilgan. Bu ham Islom olamida ayollarning sha’ni, mahramiyatning naqadar yuqori ekanligini ko‘rsatib beradi. Har bir yetuk shaxs ortidagi ayol mehnati goho ona, goho jufti-halol, goho singil va goho qiz siymosida ko‘zga tashlanar ekan. Yuqorida keltirilgan misollar orqali musulmon ayollari ichida olima, taqvodor, farzand tarbiyasida o‘rnak, Alloh taoloning huzurida baland martabalarga erishishda erkaklardan sira ortda qolmaydigan ayollar yashab o‘tganiga guvoh bo‘lamiz.

“Boburnoma”dagi “Dunyo” frazeologik birliklarining inglizcha tarjimalaridagi farqlari

Madina Ravshanova[1]

Kirish. “Boburnoma” bir necha yillar davomida ingliz tarjimonlari tomonidan tarjima qilingan. Ular Jon Leyden Villiam Erskin (1826), Annetta Susanna Beverij (1921) va Vilyer Tekston (1996) lardir. “Boburnoma”ning leksikasi o‘ziga xos bo‘lib, badiiy tasviriy vositalarga boydir. Shu jihatdan asarda qo‘llangan frazeologik birliklarga ham tarjimonlar turli tarjima yondashuvi asosida aks ettirganlar.

Asosiy qism. “Boburnoma”dagi “Dunyo” leksik semantic maydoninidagi frazeologik birliklar “Dunyoyi foniyni vido qilmoq”, “Besh kun(lik) o‘tar dunyo”, “Dunyoyi bebaqo” va “O‘tar dunyo” kabi misollar orqali quyidagi misollarda korishimiz mumkin.



“Boburnoma”dan bir misol keltiramiz: *Shohbegim va Mehr Nigorxonim va ja’mi elning ahli va ayoli asirliqqa tushub, ul zolimi badkirdorning habsida* ***dunyoyi***

[1] Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi

foniyni vido qildilar **[39].** Ushbu asliyatdagi misol birinchi inglizcha tarjima ya'ni Jon Leyden Villiam Erskin (1826)da quyidagicha beriladi

1. Shah begum and Mihr Nigar Khanum, with their whole family and attendants, were taken prisoners; and, in the prisons of that wicked miscreant, they ***departed from this perishable world [12] .***

T: Shohbegim va Mehr Nigorxonim hamda jami elning ahli va ayoli asirlikka tushib, u zolim badkirdor qamog'ida ***hayotdan ko'z yumdilar*** **[34].**

2. When Mubarak Shah invited Khan Mirza into Fort Victory, they were captured, together with the wives and families of ll their people, by marauders of Aba-bikr Kashghari and, as captives to that ill-doing miscreant, ***bade farewell to this transitory world [77].***

A: ***Besh kun o'tar dunyo*** uchun bir o'zi o'sturg'on valine'matzodasini ko'r qildi. Yana birini o'ldirdi. Tengri qoshida osiy va xalq oldida mardud bo'lubdur **[49].**

1.*For the sake of the short and fleeting pomp of this vain world*, he put out the eyes of one, and murdered another of the sons of the benefactor, in whose service he had been, and by whom he had been patronized and protected; rendering himself accused of God, abhorred of men, and worthy of execration and shame till the day final retribution ***[31] .***

T: ***Besh kun o'tar dunyo*** uchun bir o'zi o'stirgan valine'matzodasini Sulton Mahmud mirzo o'g'lining ko'zini ko'r qildi. Boshqa birini o'ldirdi. Tangri qoshida osiy va xalq oldida yomonotliq bo'ldi **[45].**

2. *For the sake of this fleeting, five-days world,* he blinded one of his benefactor's sons and murdered another. A sinner before God, reprobate to his creatures, he has earned curse and execration till the very verge of Resurrection. ***[50].***

A: Shayboqxon Hirini olg'ondin so'ng, bu podshohlarning zoh va zodi bila yomon maosh qildi, ne yolg'uz bu jam bila, bori xaloyiq bila Rustoyi va nodida kishi, ***besh kunluk o'tar dunyo*** uchun mundoq yomon ot qozg'ondi. Shayboqxondin noshoista harokot va aftolekim, Hirida sodir bo'ldi, avval bukim, ***chirik dunyo uchun*** **Xadichabegimni** Shoh Mansur baxshi…ga tuturub, turluk-turluk qiyinlar qildirdi**[154,155].**

1.Shaibaq Khan, after taking Heri, behaved badly not only to the wives and children of its rulers but to every person soever. ***For the sake of this five-day fleeting world,*** he earned himself a bad name. His first improper act and deed in Heri was that ***for the sake of rotten world (chirk dunya),*** he caused Khadija Begim various miseries, through letting the vile wretch Pay-master Shah Mansur get hold of her to loot ***[328] .***

T: Shayboqhon Hirotni olgandan so'ng, bu podshohlarning avlod-ajdodi bilan, nafaqat butun xaloyiq bilan yomon qildi. Qishloqi va olam ko'rmagan bu odam ***besh***

kunlik o‘tar dunyo uchun bunday yomon ot qozondi. Shayboqxondan xunuk xatti-harakat va yaramas qiliqlar Hirotda sodir bo‘ldi: avvalo, ***chirik dunyo uchun*** Xadicha begimni Shoh Mansur baxshi…ga topshirib, turli azoblarga soldi **[156].**

2. After taking of Heri, Sheibak Khan behaved extremely ill to the children and wives of the kings; nor to them alone, he conducted himself towards everybody in a rude, unseemly, and unworthy manner, forfeiting his good name and glory for a little wretched earthly pelf. The first Sheibak Khan’s misdeeds in Heri was that ***for the sake of some worldly dirt,*** he order Khadjeh Begum to be given up to Shah Mansur Bakshi ***[223].***[1]

Misollar, J.Leyden-V. Erskin(2008), A.S.Beverij (1921) va V.Tekston (1996)ning inglizcha tarjimalari asosida keltirilgan. Tarjima tushunarli va o‘rganuvchiga sodda tarzda yetib borishi uchun frazeologik birliklarni tarjima tilida oddiy so‘zlarga olib otish orqali amalga oshiriladi.

Hayotdan ko‘z yumdi frazeologik birligi 2 xil tarjimada kuzatilishi mumkin**.** Masalan, bade farewell to this **transitory world** va bade to this **mortal world tariqasida.** Biroq **transitory world va mortal world** birliklarning o‘zini ham qisqa, vaqtinchalik umr tariqasida ishlatishimiz mumkin. **For the sake of this transitory world - besh kun o‘tar dunyo** ma’nosini bersa, **for the sake of this filthy world- besh kunluk o‘tar dunyo**ni anglatadi.

Dunyoyi bebaqo- **this fleeting, unstable world, this ephemeral world** tariqasid keltiriladi. Ya’ni foniy, o‘tib ketuvchi umr ma’nosida beriladi. O‘tar dunyo qisqa umr- five-days fleeting world, filthy world birliklari orqali ifodalanadi.

Misol tariqasida asliyat tilida: First amog his improrer deeds in Herat was that for the sake of this filthy world he turned over Khadija Begim to Shah Mansur Bakhshi’s wife for the safe keeping and let her be tormented in all sorts ways[249].

Frazeologik birliklar matnga o‘zgacha jilo va mazmun beradi,tarjimonlarni nafaqat bitta so‘zga balki birliklardagi ekvivalentliklarni, sinonimlarni yuqori darajada chiqarib berishga imkon beradi. Kelajakda oson va omma uchun yaroqli tarjimalarni yetkizib berish maqsadida.

Adabiyotlar:

1. Annamaria Shimmel. 2004. “The empire of the great mughals”. – London.
2. Beveridge, Anette Susannah. 1921. The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur. – London.
3. Nida E. 1964. Towards a Science of Translating.
4. Teshaboyeva. Z.Q. 2023. “Boburnoma”dagi frazeologik birliklarning o‘zbekcha-ruscha-inglizcha lug‘ati. –Toshkent.
5. Thackston Wh.M. 1996. The Baburnama. Memoirs of Babur, Prince and Emperor. –New York.

[1] Teshaboyeva. Z.Q. “Boburnoma”dagi frazeologik birliklarning o‘zbekcha-ruscha-inglizcha lug‘ati. Toshkent-2023.

“Boburnoma”ning adabiy-lingvistik va tarixiy-sotsiologik talqinlari
Literary-linguistic and historical-sociological interpretations of “Baburnama”

Zebo HAMZAYEVA[1]

Annotation: This article discusses the literary-linguistic and historical-sociological interpretations of "Baburnama" and its universal significance. The works of Zakhiriddin Muhammad Babur have great significance and importance in the development of the world science and literature. In particular, "Baburnama" is a unique resource, it teaches social and political concepts of the 16th century, it promotes the value of information in all areas, it serves to enlighten the literary and cultural history of the Uzbek nation with other nations. Recognitions to his acknowledgement, many sources have used six of them erroneously describe Baburid's government as the Great Mughal Empire.

Key words: “*Baburnama”, source, description, historical figure, biographical interpretation.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Boburnoma”ning adabiy-lingvistik va tarixiy-sotsiologik talqinlari haqida va uning olamshumul ahamiyati tog‘risida fikr yuritiladi. Jahon ilm-fani taraqqiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining o‘rni va ahamiyati kattadir. Xususan, “Boburnoma” XVI asrgacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni qamrab olgan, barcha sohalarda qimmatli ma’lumotlar beruvchi, o‘zbek xalqining jahondagi boshqa millatlar bilan adabiy-madaniy aloqalari tarixini yoritishga xizmat qiladigan noyob manbadir. Afsuski, hanuzgacha ko‘plab manbalarda Boburiylar davlatiga nisbatan Buyuk mo‘g‘ul imperiyasi degan yanglish ta’rif qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: *“Boburnoma”, manba, tavsif, tarixiy shaxs, biografik talqin.*

Zahiriddin Muhammad Babur was one of the unique figure who left an indelible mark in tye world history and known and famous all over the world as a great poet, encyclopedist, statesman and skilled general. His incomparable scientific and creative heritage has a special place not only in the formation of our national culture, literary and aesthetic thinking of our people, but also in the history of world literature, science and statecraft. In addition to being a skilled commander and a major statesman, Babur Mirza was also the great poet, writer, and encyclopedic scientist. Zahiriddin Muhammad Babur is a king and a poet, a great artist of words apart from being an encyclopedic scholar of his time. In his works, he created universal ideas, views (related to) in terms of the development of science, man and

[1]*Zebo Hamzayeva* – Hamzayeva Zebo Murodjon qizi. – Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM, Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi.

philosophical generalizations related to world relations, most importantly, perfect program instructions related to the education of the generation are also very important in the current time. Many countries of the world are his legacy. Translating his poets and works into different languages and studying them with passion can be evaluated as a recognition of his great services.

As a great historical figure, Babur drew European and American orientalists' and historians' attention. English historian Edward Holden compare him with Caesar: "Babur is more deserved to be admired than Caesar according to his character. (It is written on his forehead). By his manner it is obvious that he is a person of high virtue." English translator of "Baburnama", a novel about Babur's childhood and teenage years, William Erskine compares Babur to the kings of Asia: "Generosity and bravery, (in terms of)talent, love of science, art and successful engagement with poetry.

Among the kings of Asia, there is no king equal to Babur. "Baburid Emperors possessed the broadest outlooks, the keenest intellects, and the most forward-looking attitudes. His patronage of science, literature, and art was accompanied by the reform of the Arabic alphabet and the invention of a new Turkic alphabet - "Khatt-i Baburi".

Zahiruddin Muhammad Babur was a great statesman and general of his time at the same time, he was a poet, writer, historian, scholar and accomplished translator. In the work "Baburnama" the end of the 15th century. Zahiriddin Muhammad Babur is the same in his education and in his work there were lessons of the great Eastern cultural and educational life. It's huge it is true that he provided his talent, the glory of the world of epic and lyrical creation. This is especially evident in Babur's poetry. When Mavridi comes it should be said that the East, in particular, for the representatives of Uzbek classical literature holy sources Holy Qur'an, Hadith Sharif and Islamic culture in general traditions of tafsir, ta'wil, prophethood and mysticism, prophetic and stories of saints, the science of manners and literature, etc., serve as a constant need it is known that it was a permanent lesson.

It was important until the first half of the 16th century in Khurasan, Movarunnahr, India events, the events that Babur saw and observed during his life, the way of life of the people, detailed information is given about the national events of that time. As we know, childhood memories always trigger the awakening of the dearest feelings in a person's heart. It is far away and leads to unrepeatable paths. In these ways, it is a service in the formation of a person as a person. The actor is faced with various events.

The years of independence in Uzbek literary studies are parallel to Navoi studies a new scientific branch - baburology - was also gradually formed. Already in the 19th century. It appeared in Western Europe and entered the stage of development in the 20th century. The lyrics of Zahiriddin Muhammad Babur are not so big in

terms of volume. But so wide and rich in terms of content, so elegant in terms of the quality of his poems. It's funny that its relatively small size does not attract attention. Babur's to our time the books published based on his manuscripts that have reached the following works are included: 1. Ghazals. 2. Rubaiyat. 3. Holes. 4. Continents. 5. Individuals. 6. Masnavis. The genius poet created enough beautiful examples in each of these genres and sometimes he created symbols that could never be met. Babur's lyrics different in form as well as aesthetic content and content, poetic symbols and themes is more colorful.

The science of Babur studies has not only been formed, even in this field "Zahiriddin Muhammad Babur encyclopedia" and "Zahiriddin Muhammad Babur "Bibliography" (Moscow, 2016) also appeared in fundamental publications.

World famous, who participated in the international conference in celebration of the 534th anniversary Babur scholars Eiji Mano (Japan), Magda Makhlouf (Egypt), Aziz Qayumov, Saidbek Hasanov (Uzbekistan), Mansura Haydar (India), Ilza Sirtautas (USA), Ramiz Asker (Azerbaijan), Bilal Yucel (Turkey) is the center of Babur studies they unanimously admitted that he moved to Uzbekistan - Tashkent. Babur in this field Zakirjon Mashrabov, chairman of the international public foundation named after services were noted. In the cities: Tashkent and Andijan, huge statues of Babur Mirza were installed, in Andijan, his birthplace, the international public foundation named after Babur and the book museum "Babur and world culture" operated by him, "Babur encyclopedia", "Babur's collection", "Babur. Baburidi.

The masterpiece of his work is undoubtedly his historical and biographical chronicle “Babur-Nama”, which has captivated both Eastern and Western historians as well as scientists from other fields throughout the centuries, serving as a valuable source of information for their research of Central Asia, Afghanistan, India, and Iran for centuries. "Baburnama" is a memoir that describes the events of 1494-1529,

Mowaraunnahr, Khorasan, Afghanistan and India, Babur himself includes the details involved. While reading "Baburnama", Babur was not only a creator, but also a king and general, historian and we will learn that he was also a farmer, a hunter and a gardener, a tourist and a builder. It is also geography, ethnography, nature, folk medicine and other scientific spheres. Zahiriddin Muhammad Babur to the image of India in "Baburnama" in dedicated places, in particular, in the image of battle and fighting fields expressing his character traits, inner world and mental changes we often come across pictures. In describing such moments in the author's work an artistic work, naturally departing from the style of an involuntary historical, memoir it seems that he did not even realize that he would become the writer he was creating. Victory Sururi baisim, Babur's lyrical poet, true lover of life, of life a writer who has

often mentioned transience and enjoying it in his lyrics he also feels free in images, he is artistic in writing events tries to express.

It is important for the Uzbek literary language, which has collected valuable information on the fields we understand that it is a monument. "Event", "Event", "Tuzuki Boburiy", The advantages of this work, which is also called "Boburiya", are factual materials in abundance, wealth, accuracy and completeness, truthfulness of historical events, in the dispassionate and honest presentation, chronological consistency, of the expression it is clearly visible in its simplicity and fluency.

The work is compositionally is carefully constructed, the plot and its elements are exposition, climax and based on solution, situation and conflict. Great Russian orientalist as academician V.V. Bartold assessed, "one of the best works of Turkish prose in "Baburnama", we see the image of the author who bravely passed the tests of life, tasted his bitter sorrows and became a wise man. The book is primarily about the events of the early 16th century. In addition to describing events, Babur provided information about these events as well. His descriptions of nature, historical events, and historical figures' internal and external appearances are masterfully done. In the work "Baburnama" there are national customs and traditions of peoples, lifestyle, culture level of maturity, national consciousness and image are also reflected. The Uzbek nation has been formed since ancient times, national customs and traditions that are still widely practiced today: respect for the elderly, relatives, to be in close contact with the neighborhood, loyalty to the country, hospitality, and others are revealed through various examples. Other nationalities living in the territory of Uzbekistan even today, they attach special importance to Udum and rituals of the Uzbek people. Especially their interested participation in family ceremonies, Navroz and Hayit holidays also deserves attention.

The nationality, race, lineage, age of every people living in Uzbekistan Regardless of the level, it is a blessing of independence to respect national customs and traditions, to recognize the commonality of their traditions. Therefore, tradition and It is up to each of us to ensure the survival of rituals and to inculcate them in the minds of young people it is our honorable duty.

The publication of important works called "Bibliography" and the establishment of the magazine "Babur and the World" were recognized as a great event in our cultural life.

Zakat and tax according to Islamic jurisprudence, which are mentioned in Babur's work "Mubayyin" while introducing the species in India, first of all, the daily lifestyle of the population, determines the types of taxes based on his financial situation. This is not only the case During Babur's lifetime, but also after his death, it was considered necessary for his descendants to act. Also, during the time of Babur and the Baburites, juzya (tax levied from outsiders) was certain canceled for the

period. For example, if a Buddhist Hindu converts to Islam, then naturally Juzya has not been taken. If there is hesitation, the period of hesitation is also determined, and such a decision is made the tax was temporarily not collected even for the period of arrival [Zahiriddin Muhammad Babur encyclopedia, 2017].

The great king Babur continued the great creative traditions typical of the Timurids in India the restoration of magnificent palaces, the digging of canals, the creation of gardens, the patronage of the development of literature and science, the virtues of governing the country with justice, later the great wise son of India, statesman Jawaharlal Nehru In the works "The Opening of India" and "A Glimpse of World History" Zahiruddin Muhammad Babur sincerely expressed these thoughts about: "Babur is a charming person. He is a true example of a Renaissance ruler. He is brave and He was an entrepreneur. Babur is one of the most mature people among highly cultured and attractive people was one. He was far from fanaticism and fanaticism.... Babur's art and he especially loved literature." [Boburnoma, 2008: 4]

When we carefully read "Baburnama", this is Timurizade's grandfather from his youth Amir Temur is the only one strong in the reconstruction of the empire, on a large scale what are the reasons for pursuing politics and fulfilling their dreams to a certain extent we thought about it. We attribute this solution to Babur's consistent personal courage, sharp thinking, we saw in his military skills. Our compatriot Zahiriddin Muhammad Babur (1483-1530) Middle Ages To be a writer, poet, scientist who occupies a special place in the culture, literature and poetry of the East at the same time, he is also a great statesman and general. Babur founded the Babur dynasty in India with his broad outlook and perfect intelligence and became a statesman in the history of this country. as his name remained, Serjilo became world famous with his work "Baburnama" written in Uzbek took a firm place among famous historians. His elegant ghazals and rubai are the rarest masterpieces of Turkish poetry, "Mubayyin" ("Declared"), "Khatti Baburi, "Harb ishi", treatises on Aruz, Islamic jurisprudence, poetry and language theory made a worthy contribution to the fields.

Zahiriddin Muhammad Babur is the possessor of encyclopedic knowledge. His "Risalai Aruz". After Hazrat Navoi's "Mezonul-Avzon", it is the most created according to the theory of aruz is a perfect work. According to Hasankhoja Nisari, Babur's "aruz, the treatise he wrote on "I am a sea, full of jewels" [Nisari 1993, 53].

"Risalai Aruz" is an important guide to the history and theory of literature. In the work, the author mentions the names of more than 60 poets who lived and created in the 14^{th}-16^{th} centuries. He gives examples of their works. In the chapter of the aruz of these poets evaluates skills. The views of his predecessors on Aruz theory develops, improves. Babur's poetry is a deep interpretation of Eastern Islamic philosophy done. In the worldview of Eastern-Islamic thinkers, trust in the Creator in

every work to do is a criterion of high spiritual maturity. In life, Babur always follows this standard it is known from his works. This belief is a unique artistry in the poet's poems effectively expressed with.

Zahiriddin Muhammad Babur and his heirs played a major role contribution spanning many centuries toward the conversion of India into a strong unified government. They also had a major impact on influencing the global landscape. Culture is displayed through the creation of impressive buildings, structures, and gardens. Continued to amaze visitors even up to the present time. Recently, the study of Babur has advanced to a new stage of development. Uzbekistan underwent a shift in its perspective toward its heritage. The outstanding performance "Babur-Nama" is a priceless resource for researchers in different fields, not just for scientists. As well as reflecting the unique characteristics of thought and history, similar to a clear mirror. Values, revered past as a unique aspect of the collective soul of our citizens. Commemorative events in honor of the 510th anniversary of Babur were held. Frequently praised as a day honoring values of the nation. Regarding the on the anniversary of Babur's national park, the house-museum remains a symbolic landmark. A replica of the poet's mausoleum in Kabul was constructed in Andijan. There is a monument of Babur near the mausoleum on the square. Copper-colored metal. In 1992, there was an effort made to enhance, support, and organize research on.

The Babur International Foundation, established in Andijan, carries on Babur's legacy. Foundation organized an international scientific expedition an event called "tracing the footsteps of Babur" was arranged. Participants of the journey in the past few years I have traveled to over 10 countries in the East and gathered fresh knowledge about. Babur and the Baburids are engaging in productive ventures along their journey. Introducing the global community to the research being conducted in our field nation. Between 1992 and 2000, the expedition team traveled to ten countries, drove 300,000 kilometers by car, gathered extremely important materials concerning the The Baburids' history and creativity were applied for scientific purposes. In the same manner, several scientific discoveries were made because of the expedition.

References:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. 2019. “Бобурнома” (ҳозирги ўзбек тилига табдил қилувчи: В. Раҳмонов, К. Муллахўжаева). –Тошкент: Ўзбекистон.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. 2017. Тошкент: “Шарқ” НМАК.
3. Annemarie Schimmel. 2004. The Empire of the Great Mughals: History, Art and Culture. Reaktion Books.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2019. Boburnoma. Toshkent: Fan.

5. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2020. Toshqin Bahoiyi ihtimomiy bilan. Boburnoma. Kobul. Bobur nashriyoti.
6. Bobur she'riyatidan. –Toshkent: O‘zKP Markaziy nashriyoti, 1982.
7. Шарқ мумтоз поэтикаси. 2008. Биринчи китоб. – Тошкент: ЎзМЭ.
8. Болтабоев Ҳ. 2009. Бобурийлар салтанати ва унинг давлатчилик тарихидаги ўрни // Берк С.М. Акбаршоҳ – бобурийларининг энг буюги. – Тошкент: Mumtoz so‘z.

3- SHO‘BA

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE’RIY, ADABIY-ILMIY MEROSINING FILOLOGIK ASPEKTI

Bobur she’rlarini tushunish osonmi?
Are Babur’s poems easy to understand?

Vahob RAHMONOV[1]

Annotatsiya. Aksariyat olimlarimiz Zahiriddin Muhammad Bobur she’rlarini tushunish oson deb o‘ylashadi. Bu gapda jon bor, albatta. Ushbu tushuncha, menimcha, Navoiy she’riyatiga nisbatangina shakllangandir. Chunki Alisher Navoiy tili va uslubini murakkab, qiyin degan fikr ko‘pchilik ongida hukm suradi. Ochig‘ini aytsam, Bobur she’riyatining keyingi oltmish yillik nashrlari saviyasi nazarda tutilsa, boshqa mumtoz adabiyot olimlari tugul, Bobur shunos olimlar ham ba’zan Bobur she’rlarini to‘g‘ri tushunmaydilar. Ba’zan atoqli bobur shunoslar Bobur she’riyatidagi atoqli va turdosh otlarni farq etolmaydilar; baytlarning zohiriy mazmunini ham tushuna olmaydilar.

Kalit so‘zlar: *tushunish, matn muammosi, atoqli va turdosh ot farqi, satr va mazmunlar, noshir, kashf etmoq, matn nuqsoni, xayol, xilol, Ruhdam, Gulrux, Mohim.*

Abstract. Most of our scholars think that the poems of Zahiruddin Muhammad Babur are easy to understand. There is soul in this sentence, of course. This concept, I think, was formed only in relation to Navoi’s poetry. Because the opinion that Alisher Navoi’s language and style is complex and difficult prevails in the minds of many people. Frankly speaking, considering the level of publications of Babur’s poetry in the next sixty years, other scholars of classical literature, even scholars of Babur studies, sometimes do not understand Babur’s poems correctly. In fact, this problem is so great that sometimes famous Babur scholars cannot distinguish between noble and kindred nouns in Babur’s poetry; they cannot even understand the apparent content of the verses

Key words: understanding, text problem, difference between nouns and nouns, lines and contents, publisher, discover, text defect, fantasy, khilal, Ruhdam, Gulrukh, Mohim

[1] *Vahob Rahmonov* – Filologiya fanlari nomzodi, Guliston davlat universiteti dotsenti

Aksariyat olimlarimiz Zahiriddin Muhammad Bobur she’rlarini tushunish oson deb o‘ylashadi. Bu gapda jon bor, albatta. Ushbu tushuncha, menimcha, Navoiy she’riyatiga nisbatangina shakllangandir. Chunki Alisher Navoiy tili va uslubini murakkab, qiyin degan fikr ko‘pchilik ongida hukm suradi. Ochig‘ini aytsam, Bobur she’riyatining keyingi oltmish yillik nashrlari saviyasi nazarda tutilsa, boshqa mumtoz adabiyot olimlari tugul, Bobur shunos olimlar ham, ba’zan, Bobur she’rlarini to‘g‘ri tushunmaydilar. Hatto, bu muammo shunchalikki, ba’zan atoqli bobur shunoslar Bobur she’riyatidagi atoqli va turdosh otlarni farq etolmaydilar; baytlarning zohiriy mazmunini ham tushuna olmaydilar.

2006-yilgacha Bobur asarlari nashrlarida ikkita ruboiyda atoqli va turdosh otlar farq etilmadi. Birinchisida, bir tarixiy shaxs yo‘qolib ketdi:

Gar ruh dam etsa erdi ohangi nag‘am,
Majlista ne huzn qolur erdiyu ne g‘am,
To borg‘ali ruh dam bering majlistin,
Majlis elida ne ruh qoldiyu, ne dam.

Ushbu matnda bir atoqli ot ikki o‘rinda ikkita turdosh ot sifatida berilgan va “bizing” so‘zi “bering” tarzida buzib ko‘rsatilgan. Kamina bu ruboiyni qo‘lyozmada shunday hijjaladim:

Gar Ruhdam etsa erdi ohangi nag‘am,
Majlista na huzn qolur erdiyu na g‘am,
To borg‘ali Ruhdam bizing majlistin,
Majlis elida na ruh qoldiyu, na dam.

Kamina ustozlar ko‘rolmagan odam – Bobur bazmlarining guli bo‘lgan xushovoz hofiz – Ruhdamni kashf etdim. Chunki “Boburnoma”da besh-olti o‘rinda ahli nag‘ma safida Ruhdam ismi keltirilgandir.

Ikkinchisida esa matndagi ikki tarixiy shaxsni nashrga tayyorlovchi ustozlar ko‘ra olmadilar:

Hijronda, sabo, yetdi falakka ohim,
Gar ul sori borsang, budurur dilxohim,
Kim, arzi duo niyoz ila qilg‘oysen,
Gar so‘rsa men xastani gulrux mohim.

Men ushbu ruboiyning to‘rtinchi misrasida Zahiriddin Muhammad Boburning zavjalari ismlarini tanib qoldim va bu satrni uch mazmunda idrok etdim:

1. Gar so‘rsa men xastani gulrux Mohim.
2. Gar so‘rsa men xastani Gulrux mohim.
3. Gar so‘rsa men xastani Gulrux, Mohim.

Biroq bu misralardan qaysi birini shahanshoh Bobur nazarda tutganini aniqlashga qiynaldim. Menimcha, uchinchi mazmun ma’qulroqdir. Yuqoridagilardan bildikki, noshir ustozlar bu ruboiyni tushuna olmadilar va uni yarim asr davomida

tarjimai hollik xususiyatidan mahrum qildilar. Ulardan birortalari men taklif etayotgan uchta versiyadan birortasini kashf etolmadilar.

Endi oldingi nashrlarda olimlar tushuna olmagan ayrim baytlarni mulohaza qilamiz. Biz hozir keltiradigan ikki baytning sababchisi bobur shunoslar bilmagan yoki ahamiyat bermagan bir so‘z ekanligi isbotiga ikki dalil keltiraman. Ushbu bir so‘z ikki bayt mazmunini noto‘g‘ri tushunish sababchisidir. Bu qaysi so‘z ekan? Ustoz noshirlarimiz ushbu baytlar mazmunini idrok qila olganmi ekanlar:

Belingdinkim xayolidur, yiroqdurmen, meni yod et,
Umidim borki, Boburdin, yetishgaymen xayolinga.
Ko‘k vusmada ul oy qoshi go‘yo xayoldur,
Yo oy boshida ko‘kta ko‘rungan hiloldur.

Birinchi baytda ma’shuqa beli xayolga o‘xshatilgan. Ikkinchi misrada oshiq yor xayoliga yetishni orzu qilmoqda.

Savol beraylik: oshiq yorga yetishni orzu qiladimi yoki yor xayoliga yetishni umid qiladimi? Yor beli xayolga o‘xshaydimi?

Ikkinchi baytning birinchi misrasining mazmuni: ko‘k vusmada oyday go‘zal qoshi go‘yo xayoldir. Savol: Qosh xayolga o‘xshaydimi? Har ikki baytdagi tashbeh boburonami? To‘g‘rirog‘i – shoironami? Baytni mavhumlashtirgan, Boburni tashbeh san’atidan g‘ofil qilib ko‘rsatayotgan olimlarimiz har ikki baytni to‘g‘ri idrok eta olganlarmi? Bu muammoni hal qilish uchun avvalo, asosiy masala – matn sahihligiga e’tiborimizni qarataylik. Biz nashrlariga ishongan va suyangan chet ellik olimlar: afg‘onistonlik (hozir Shvetsiyada) Shafiqa Yorqin va turkiyalik Bilol Yujellar ham, o‘zbekistonlik olimlarimiz ham qo‘lyozmalardan “xilol” so‘zini “xayol” deb o‘qib, ikkala bayt mazmunini to‘g‘ri tushuna olmaganlar. Bizningcha, bunga qo‘lyozma kotiblarining nuqsonlari ham sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Xilol – Afg‘oniston va Hindistonda o‘sadigan bir xil daraxt bo‘lib, uning shoxlarida shakli yangi oyga o‘xshaydigan mayda tikanaklari bo‘ladi. Odamlar o‘sha tikanaklarini ham hilol deydilar va ularni terib olib, tish kavlagich sifatida foydalanadilar.

Endi yuqoridagi matni shubhali bo‘lgan baytlarni yangi tahrirda ko‘chirib, to‘g‘ri mazmunini yuzaga chiqarishga harakat qilamiz:

Belingdinkim xiloledur, yiroqdurmen, meni yod et,
Umidim borki, Boburdin yetishgaymen xilolinga.
Beling xilolday nozikdir. Xilolinga, ya’ni belinga yetishmoq umidim bor.
Ko‘k vusmada ul oy qoshi go‘yo xiloldur.
U oyday go‘zalning o‘sma qo‘ygan qoshi go‘yo xilolday nozik.

Yuqoridagi misollardan ko‘rdikki, Bobur asarlarini noto‘g‘ri tushunish sababi noshirlar aybi bilan yo‘l qo‘yilgan xilma-xil, jiddiy nuqsonlar ekan.

Boburning “Aruz risolasi”: tadqiq, tahlil va talqinlar
Babur's “Aruz treatise”: research, analysis and interpretations

Dilnavoz YUSUPOVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Aruz risolasi”ning jahon va o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilishi bilan bog‘liq masalalar tadqiq qilingan. Maqola muallifi Boburning ushbu asarini o‘rganish XVIII asrdayoq boshlanganini ta'kidlar ekan, boburiylar sulolasidan bo‘lgan Mirza Alibaxt Azfariy Boburning “Aruz risolasi”ni “Aruzzoda” nomi bilan fors tiliga nazm va nasrda tarjima qilganligi haqidagi ma'lumotni keltiradi. Maqolada “Aruz risolasi” bevosita A.Sherbak, I.Stebleva, M.Hamroyev, S.Hasanov kabi olimlar tomonidan maxsus o‘rganilganligiga diqqat qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *risola, aruz, rukn, taqti’, bahr, doira, vazn.*

Abstract: The article deals with issues related to the study of the "Treatise on Aruz" by Zakhiriddin Mukhammad Babur by foreign and Uzbek scientists. The author of the article emphasizes that the study of this work of Babur began in the 18th century. The article draws attention to the fact that the "Treatise on Aruz" was directly studied by such scientists as A. Shcherbak, I. Stebleva, M. Khamroev, S. Khasanov.

Keywords: *treatise, aruz (prosody), rukn (foot), paradigm, bakhr (poetic meter), doira (concentric circles), vazn (poetic meter).*

Kirish

Aruz nazariyasi, ya'ni aruzshunoslik fani nazariy jihatdan adabiyot nazariyasi tarkibida, tarixiy jihatdan esa adabiyot tarixi fani tarkibida o‘rganiladi. Aruz tizimini nazariy anglash jarayoni aruzshunoslikning kelib chiqishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. “Aruzshunos” tushunchasi aruz ilmlari haqidagi fan yaratilgandan beri, ya'ni VIII asrdan beri muayyan shaklda qo‘llanilayotgan va mumtoz adabiyot davrining o‘ziga xos betakror xususiyatiga aylanganligiga qaramasdan, aynan “aruzshunoslik” istilohi o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab adabiyotshunosligimizda ilmiy muomalaga kiritildi [To‘ychiyev, 1973], zero, mumtoz davrda olimlar ko‘proq “aruz ilmlari” atamasini qo‘llaganlar. Aruz tizimi qadimgi davrdagi sinkretik adabiyot mahsuli bo‘lsa, aruzshunoslik islom omili bilan bog‘liq ravishda va uning tarkibida vujudga kelgan adabiy voqelikdir.

Aruzshunoslik ilmiy-nazariy ta'limot sifatida temuriylar davrida o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Shayx Ahmad Taroziy, Atoulloh Husayniy,

[1] *Dilnavoz Yusupova* – filogiya fanlari doktori (DSc), professor. ToshDO‘TAU

Abdurahmon Jomiy, Sayfi Buxoriy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ijodkorlarning asarlari aruzning nazariy asoslari chuqur va batafsil tarzda bayon qilinganligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Bu davrda yaratilgan aruzga doir risolalarda muayyan tarzda tadrijiylik ko‘zga tashlanadi. Agar turkiy she'rshunoslikka doir ilk manba “Funun ul-balog‘a”da aruz masalasi ilmhoi segona, ya'ni ilmlar uchligining tarkibiy qismi sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, “Badoyi' us-sanoyi'” risolasida aruz ilmiga doir nazariy qarashlar asar muqaddimasida keltirilgan. Abdurahmon Jomiyning “Risolai aruz” va Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarlaridan boshlab aruz nazariyasi maxsus risola tarzida bitila boshlangan va maromiga yetkazilgan. Sayfi Buxoriyning “Aruzi Sayfi” asari esa ko‘proq ilmiy-nazariy qo‘llanma sifatida vujudga kelgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi”da aruz nazariyasi va amaliyoti o‘zaro muqoyasada o‘rganilgan va yaxlit holga keltirilgan.

Aslida, bu davrdagi aruzshunoslik tarixini o‘rganish o‘sha davrlardayoq boshlangan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Alisher Navoiyning Abdurahmon Jomiy “Risolai aruz”ini nazariy jihatdan o‘rganishi va unga ergashishi, Boburning Atoulloh Husayniy va Sayfiy Buxoriy risolalariga bergan ta'riflari, Xondamirning “Makorim ul-axloq”da “Mezon ul-avzon” haqidagi fikrlari temuriylar davri aruzshunosligi o‘z davridayoq muayyan bahosini olgan edi deyish mumkin.

Boburning “Aruz risolasi” haqida

Boburning “Aruz risolasi” 1524-1525 yillarda yaratilgan bo‘lib, mufassal (fanning muayyan sohasini mukammal yorituvchi monografik xarakterdagi yirik asar) uslubda bitilgan. Risola yirik antologiya yo‘nalishida ham bo‘lib, “asarda X-XVI asrda yashagan 60 dan ortiq mashhur hamda hali bizga kam ma'lum bo‘lgan shoir va olimlarning nomlari eslatiladi va ularning asarlaridan parchalar keltiriladi” [Hasanov, 1981:17]. Asarda aruzga doir ritmik unsurlar (juzv, zihof, vazn) miqdorining qolgan barcha risolalardan ko‘p ekanligi turkiy aruzshunoslik temuriylar davrida o‘zining tadrijiy takomiliga yetganligini ko‘rsatadi [Yusupova, 2020: 6420].

XVIII asrda boburiylar sulolasidan bo‘lgan Mirza Alibaxt Azfariy Boburning “Aruz risolasi”ni “Aruzzoda” nomi bilan fors tiliga nazm va nasrda tarjima qiladi (Asarning 1836 y. kotib Mahmudali Sa'id ko‘chirgan nusxasi Madras davlat sharq qo‘lyozmalari kutubxonasida saqlanadi) [Hasanov, 1981: 7].

“Aruz risolasi”ning ilmiy tahlilini ikki yo‘nalishda amalga oshirish mumkin: 1) risolaning xorijlik va qardosh olimlar tomonidan o‘rganilishi; 2) asarning yurtimizda o‘rganilishi. Dastavval birinchi yo‘nalishga e'tibor qaratsak.

“Aruz risolasi” va uning qo‘lyozmasi haqidagi ilk ma'lumot E.Bloshening “Parij Milliy kutubxonasidagi turkiy qo‘lyozmalar katalogi”da uchraydi. Unda Boburning aruzga oid risolasi mazkur kutubxonada saqlanayotgani haqida xabar mavjud. Shuningdek, Fuod Ko‘pruluzodaning “Turk tili va adabiyoti haqidagi

tadqiqotlar” kitobida ham ushbu qo‘lyozma nusxa haqida ma'lumot berilgan. Keyinchalik Bobur risolasining hijriy 931, milodiy 1524-yilda ko‘chirilgan yana bir qo‘lyozmasi Tehrondagi “Saltanat” kutubxonasida saqlanayotgani aniqlandi.

Uyg‘ur adabiyotshunosi M.Hamroyevning 1969-yilda e'lon qilingan “Turk she'riyati nazariyasi ocherklari” kitobida Boburning “Aruz risolasi” qisqartirilib, uning uyg‘ur yozuvidagi transliteratsiyasi ilova qilingan. Kitobda mazkur risolaning yana bir qo‘lyozma nusxasi Sharqiy Turkistonning Kuchar shahrida saqlanayotgani to‘g‘risida ma'lumot berilgan [Xamrayev, 1969].

“Aruz risolasi”ning ilmiy jihatdan tadqiq etilishi

Boburning aruz risolasi ilmiy jihatdan tavsif etilgan ilk tadqiqot bu A.Sherbakning “Сочинение Бабура об арузе” maqolasidir [Sherbak, 1969]. Muallif garchi maqola saralavhasida uni “dastlabki xabar” deb atagan bo‘lsa-da, lekin unda aruz bilimdonining jiddiy qarashlari kuzatiladi. Maqolada masalaga Bobur risolasidagi tadrijiylik asosida yondashuv ko‘zga tashlanadi. Muallif dastlab risola va u haqdagi umumiy ma'lumotlarni keltirgach, uni Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari bilan qiyoslaydi: umumiy va farqli jihatlarga to‘xtaladi, Bobur risolasining hajman va mohiyatan kengligiga e'tibor qaratadi, qamrab olingan masalalar ko‘lamini tahlil qiladi. Maqolada aruz ilmidagi nisbatan murakkab soha – zihof masalasining batafsil izohi uning ilmiy qimmatini oshirgan: muallif Bobur risolasida keltirilgan zihoflarni noma-nom sanab, ularning tavsifini keltirar ekan, zihoflarning bayt tarkibida (misra boshi, o‘rtasi va oxirida) kelishiga qarab, nomlari o‘zgarishi mumkinligini qayd etadi. Masalan, *xarm* zihofi haqida gapirar ekan, uning misra boshiga xosligini, agar misraning boshqa o‘rinlarida (o‘rtasi yoki oxirida) kelsa, *tahniq* deb atalishini ta'kidlaydi [Sherbak, 1969: 162]. Lekin zihoflardagi murakkablik Sherbakni ham ba'zi o‘rinlarda noto‘g‘ri xulosalarga olib kelgan: muallif zihoflar tavsifining so‘ngida keltirilgan *xazm* istilohini 44-zihof sifatida talqin qiladi. Aslida *xazm* bu baytning boshida bir yoki bir necha harfning orttirilishi bo‘lib, ma'no uchun xizmat qiladigan, lekin taqti'da hisobga olinmaydigan o‘zgarish (*illat)*lardan hisoblanadi. Bobur uning rukn va juzvlarga hech qanday aloqasi yo‘qligini va arab aruziga xosligini aytadi. Atouloh Husayniyning Shams Qays Roziyga tayanib aytgan fikriga ko‘ra esa, *xazm*ni qadimgi arab shoirlari o‘z she'rlarida qo‘llaganlar va “...hozirg‘i arab-u ajam shoirlari buni ishlatmasliklari keraktur, chunki andin she'r zavqig‘a xalal yetkay va tab' andin nafrat etkay” [Husayniy, 1981: 18].

Sherbak zihoflarning umumiy tavsifidan so‘ng asliy ruknlarning zihoflari va furu'lariga to‘xtaladi, ularning umumiy sonini Boburga tayanib, 96 ta deb belgilaydi. Muallif bahrlar va doiralarning vujudga kelish usullarini ham asosan Bobur talqini asosida tushuntiradi: asliy ruknlar va ularning turli zihoflaridan bahrlar hosil bo‘ladi va ularning umumiy miqdori 19 ta, *Tavil* doirasidan yana ikki bahr: *Ariz* va *Amiq* hosil qilinadi; doiralarni ikki guruhga: bir xil asliy ruknlardan yasaluvchi bahrlar

doiralari va turli ruknlardan hosil bo‘luvchi bahrlar doiralariga ajratib tasnif qilish mumkin. Shu tariqa maqolada taqti' qoidalari, bahrlardan hosib bo‘luvchi vaznlar va Bobur risolasida keltirilgan poetik janrlarga xos vaznlarga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Turkiy she'rshunoslik, xususan turkiy aruzning nazariy masalalari yana bir sharqshunos olim I.V.Steblevaning tadqiqot va maqolalarida o‘z ifodasini topgan. O‘z ilmiy faoliyatini qadimgi turkiy xalqlar she'riyatini tadqiq qilish bilan boshlagan olima 1972- yilda Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi”ni faksimile, so‘z boshi va ko‘rsatkichlari bilan nashr ettirdi [Babur, 1972].

“Boburning she'rshunoslik (aruz)ga doir risolasidan parchalar” (“Извлечения из трактата Бабура по стихосложению” (арузу), 1970), “Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi”da taqti' qoidalari haqida” (“О правилах скандирования в “Трактате об арузе” Захираддина Мухаммада Бабура”, 1975), “Turkiy aruz nazariyasining zamonaviy talqini muammosiga doir” (“К проблеме современной интерпретации теории тюркского аруза”, 1977) kabi tadqiqotlarida I.Stebleva Bobur ijodi va aruz ilmining bilimdoni sifatida namoyon bo‘ladi.

Olimaning “Turkiy poetika: rivojlanish bosqichlari: VIII-XX asrlar” (“Тюркская поетика: этапы развития: VIII-XX вв.”, 2012) nomli tadqiqoti bevosita turkiy poetikaga doir izlanishlarining davomi va umumlashmasi sifatida vujudga keldi. I.Stebleva tadqiqotining uchinchi bobini XV-XVI asrlar turkiy mumtoz adabiyoti tahliliga bag‘ishlar ekan, uning dastlabki faslida Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” hamda Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi”ga to‘xtalib o‘tadi. Muallif garchi ushbu risolalarning asosiy qismi an'anaga ko‘ra, arab va forsiy aruzning umumiy qonuniyatlariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, ularda turkiy til va turkiy aruz bilan bog‘liq hodisalar ham qalamga olinganligini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, Bobur “Aruz risolasi”da turkiy til uchun asosiy qonuniyatlardan biri sifatida fatha (a), damma (i) va kasra (u)dan so‘ng “alif”, “vov” va “yoy”ni yozish zarurligini eslatib o‘tadi. I.Stebleva o‘z tadqiqotida ushbu ta'kidlarga alohida e'tibor qaratadi va Bobur risolasida keltirilgan “seni ko‘rsam” birikmasini vazn talabiga ko‘ra, foilotun (– V – –), mafoiylun (V – – –) va failotun (V V – –) tarzida taqti'ga solish mumkinligini aytib o‘tadi. Olima ushbu birikmadagi “seni” so‘zini Bobur ikkita cho‘ziq (– –) tarzida keltirmaganligiga diqqat qaratar ekan, yonma-yon kelgan ikki ochiq bo‘g‘inning cho‘ziq bo‘lish holati kam uchraydigan hodisa deb hisoblaydi, bu holat keyinchalik turkiy aruz uchun quyidagi muhim qonuniyatni vujudga keltirgan degan xulosaga keladi:

“Yopiq bo‘g‘inlar cho‘ziq hijolarni, ochiq bo‘g‘inlar esa qisqa hijolarni paydo qiladi, ba'zan esa ochiq hijolar ham cho‘ziq, ham qisqa hijo vazifasini bajarishi mumkin” [Stebleva, 2012: 112]. Darhaqiqat, zamonaviy aruzshunoslikda cho‘ziq hijoning yopiq bo‘g‘in va cho‘ziq unli bilan tugagan ochiq bo‘g‘indan iborat ko‘rinishi haqida so‘z boradi.

I.Steblevaning turkiy tilga xos “ng” tovush birikmasiga doir kuzatishlari ham qiziqarlidir. Arab alifbosida “nun” va “kof” harflarining birikmasi asosida yoziladigan mazkur tovush Boburning yozishicha, taqti'da doim ham belgilanavermaydi. Agar yozuvda harakatsiz “nun” harfidan so‘ng “kof” harfi kelsa, “nun” taqti'da e'tiborga olinmaydi. Masalan, **yanglig‘**, **to‘ngluk** kabi so‘zlarda. Ushbu so‘zlar fa'lun (– –) ruknini vujudga keltiradi. “Boshqacha aytganda, bo‘g‘inni yakunlovchi harf “kof” hisoblanadi va bu birinchi bo‘g‘inning cho‘ziq hamda taqti'dagi ruknga mos bo‘lishi uchun yetarlidir. Shu sababli “kof” harfidan avval kelayotgan “nun” harfi taqti'dan soqit qilinadi, ya'ni ortiqcha hisoblanadi” [Stebleva, 2012:114].

Tadqiqotda keltirilishicha, Boburning risolasi turkiy she'r shakllari haqidagi ma'lumotlarning keltirilishi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Garchi ushbu shakllar qat'iy aruz qonuniyatlariga mos kelmasa-da, lekin turkiy shoirlar amaliyoti tufayli aruz tizimining muayyan bahrlariga moslashtirilgan, ular orasida *tuyuq* mumtoz lirik she'r nav'i sifatida janriy xususiyatlar kasb etib ulgurgan edi: hajman ikki baytdan iborat bo‘lishi, ramal bahrida yaratilishi va ruboiy kabi qofiyalanish tizimiga egalilik va qofiyada tajnisning rioya qilinishi shular jumlasidandir.

Risolaning o‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilishi

Risola o‘zbek olimi S. Hasanov tomonidan ham maxsus o‘rganilgan bo‘lib, olim ushbu yirik tadqiqotni 1971-yilda “Muxtasar” nomi ostida fotofaksimile nusxasi va kirill alifbosidagi matni bilan nashr ettirdi. 1972 yilda esa “Boburning aruz risolasi” mavzuida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Olimning Bobur aruzi bilan bog‘liq qarashlari “Bobirning “Aruz risolasi” asari” nomli tadqiqotida batafsil bayon qilingan [Hasanov, 1981]. Tadqiqotda Boburning ushbu risolasi Muhammad Samarqandiy tomonidan ko‘chirilgan va Parij Milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxa asosida tadqiq etiladi. Tadqiqot “Kirish”dan tashqari, to‘rt bobdan iborat bo‘lib, uning “Vazn bo‘laklari” deb nomlangan birinchi bobida juzvlar va asliy ruknlar hamda zihof va far'iy ruknlar haqida so‘z boradi. Olim bunda Bobur risolasida keltirilgan uch juzv, sakkiz asliy rukn va qirq to‘rt zihofning tavsifini beradi. Uning fikriga ko‘ra, Bobur fosilani juzv sifatida e'tiborga molik emas deb hisoblagan va bunda “Me'yor ul-ash'or”ning muallifi Nasiruddin Tusiyning fikrini quvvatlagan [Hasanov, 1981: 23-24].

Shu o‘rinda Bobur ijobiy munosabat bildirgan *sababi mutavassit* va *vatadi kasrat*ga to‘xtalib o‘tsak. Boburning risolasi manbalarimiz doirasida ushbu masalaga maxsus to‘xtalib o‘tilgan temuriylar davridagi yagona asardir. Na Shayx Ahmad Taroziyda, na Abdurahmon Jomiy va Navoiyda sabab va vatadlarning ushbu turlariga munosabat bildirilmaydi. Dastavval *sababi mutavassit* haqida so‘z yuritsak. Sababning ushbu turi bir mutaharrik va ikki sokin harfdan tashkil topadi va

zamonaviy aruzshunoslikda o‘ta cho‘ziq hijo (~)ga teng hisoblanadi. Masalan, *dor, bor, qand, ayt, qayt* va boshqalar. Bunday juzv faqat baytning oxirgi ruknida, ya'ni aruz va zarbda qo‘llaniladi. *Vatadi kasrat* esa ikki mutaharrik va ikki sokin harfdan iborat bo‘ladi va zamonaviy aruzshunoslikda bir qisqa va bir o‘ta cho‘ziq hijo (V ~) ga teng hisoblanadi. Masalan, *nishon, nihon, daraxt, karaxt* va boshqalar. Bobur o‘z risolasida quyidagi baytni keltirib, ushbu juzvlarni qo‘llashga zarurat borligini asoslaydi:

“Turo la'l shakarrez, maro chashm go‘harbor,
Turo xanda buvad xo‘y, maro gir'ya buvad kor.

Bu baytning hashvida va aruzida *shakarrez* va *go‘harbor* lafzi mafo‘iyl vaznida voqi' bo‘lubturkim, maqsur bo‘lg‘ay. Bu ikki sokini mutavoli mu'tabardur. Bas bu ikki juzvni uchar e'tibor qilmoqning vajhi bor”. Darhaqiqat, baytda keltirilgan *la'l, chashm, go‘harbor, xo‘y, kor* kabi so‘zlarni *sabab* va *vatad*ning Boburgacha keltirilgan turlari: sababi xafif va sababi saqil hamda vatadi majmu' va vatadi mafruqda ifodalashning imkoni yo‘q.

S.Hasanov tadqiqotining keyingi boblarida Bobur risolasida keltirilgan 9 doira, 21 bahr, vaznlar, taqti' va uning qoidalari bilan bog‘liq ma'lumotlar keltirilgan [Hasanov, 1981:93-96]. Tadqiqotda statistik ma'lumotlarning jadval asosida berilganini va bu Bobur asarida keltirilgan ritmik birliklar miqdorining aniq raqamlar asosida ifodalaganini alohida ta'kidlash joiz. Risolada, shuningdek, kotib tomonidan yo‘l qo‘yilgan ba'zi xato istilohlarning izohi ham keltiriladiki, bu tadqiqotning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Boburning “Aruz risolasi” haqida U.To‘ychiyev, A.Hojiahmedov, A.A'zamov, H.Boltaboyev kabi olimlar ham muayyan tarzda o‘z mulohazalarini bildirib o‘tganlar.

Xulosa

Jahon va o‘zbek olimlarining Boburning “Aruz risolasi” ustida olib borgan tadqiqotlarini kuzatish asnosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Asarning qo‘lyozma nusxalari haqidagi ilk ma'lumotlar fransuz sharqshunosi E.Bloshe katalogi, turk olimi F.Ko‘prulizoda va uyg‘ur olimi M.Hamroyev tadqiqotlarida keltirilgan.

2. “Aruz risolasi” faksimile, so‘z boshi va ko‘rsatkichlari bilan ikki marta: S.Hasanov tomonidan 1971 hamda I.Stebleva tomonidan 1972-yilda nashr ettirilgan.

3. Boburning aruz risolasi dastlab ilmiy jihatdan tavsif etilgan tadqiqot bu A.Sherbakning “Sochinenie Babura ob aruze” maqolasi bo‘lib, unda olim tadrijiylik asosida dastlab juzv, zihof, rukn, furu', so‘ngra bahr, doiralar masalasiga to‘xtalib o‘tadi.

4. Rus sharqshunosi I.V. Steblevaning maqola va tadqiqotlarida “Aruz risolasi”dan parchalar e'lon qilish bilan birga aruzdagi taqti' qoidalariga to‘xtalib

o‘tilgan, Boburning risolasi Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari bilan birgalikda tadqiq qilingan.

5. Olima o‘z tadqiqotlarida turkiy til qonuniyatlarining aruz tizimiga ta'siri bilan bog‘liq masalalarga ko‘proq e'tibor qaratgan. Turkiy xalq og‘zaki ijodiga doir poetik shakllar va ularning vazn xususiyatlari, taqti' va unlilar masalasi, ochiq va yopiq hijolarga doir masalalar shular jumlasidandir.

6. S.Hasanov Boburning “Aruz risolasi” bo‘yicha 1972-yilda nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Uning Bobur aruzi bilan bog‘liq qarashlari “Bobirning “Aruz risolasi” asari” nomli tadqiqotida batafsil bayon qilingan.

Adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. 2000. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. Т. 16. – Тошкент.
2. Атоуллоҳ Ҳусайний. 1981. Бадойиъу-с-санойиъ / Форсчадан А. Рустамов таржимаси. – Тошкент.
3. Аъзамов Абдулла. 2006. Аруз: Алишер Навоий ва Заҳириддин Муҳаммад Бобур сабоқлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси.
4. Болтабоев Ҳ. 2004. Рисолаи аруз ва аруз ҳақида // Мумтоз сўз қадри. – Тошкент: Адабиёт ва санъат.
5. Бобир Заҳириддин. 1971.Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Тошкент.
6. Захирад-Дин Мухаммад Бабур. 1972. Трактат об арузе. Факсимиле рукописи. Изд.текста, вступит. статья и указатели И.В.Стеблевой. – М.
7. Стеблева И.В. 1964.О проникновении арабо-персидских метров в тюрко-язычную поэзию / Проблемы теории литературы и эстетики в странах Востока. – Москва: Наука.
8. Стеблева И.В. 2012. Тюркская поэтика: этапы развития: VIII-XX вв. – М.: Восточная литература,
9. Тўйчиев У. 1973. Арузшуносликка доир. – Toshkent: Фан.
10. Тўйчиева Г. 2018. Ислом даври шеъриятида аруз тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол.фан.бўйича доктор. (Dsc) дисс... – Тошкент,
11. Хамраев М.К. Очерки теории тюркского стиха. – Алма-Ата, 1969.
12. Щербак А. 1969.Сочинение Бабура об арузе // Народы Азии и Африки. – Москва. № 5.
13. Ҳасанов С. 1981. Бобирнинг “Аруз рисоласи” асари. – Тошкент.
14. Yusupova D. 2020. Poetry meters (bahrs), concentric circles (doirs) and the sizes of rubai in the aruz studies of the temurids’ period. International Journal of Psychosocial Rehabilition. Vol.24. Issue 08.
15. Юсупова Д. 2020. Роль трактата об арузе Бабура в развитии арузоведения в темуридский период / Интеллектуальное наследие Захириддина

Мухаммада Бабура и современность (международная научно-практическая коференция). – Москва, 28 февраля.
16. Юсупова Д. 2022. Арузоведение Тимуридского периода: Захириддин Мухаммад Бабур и его “Трактат об арузе”. “Polish science journal”. Warsaw, Poland: Wydawnictwo Naukowe “Iscience”, Issue 4(49) – P. 205-209.
17. Ҳожиаҳмедов А. 2006. Навоий арузи нафосати. –Тошкент: Фан.

Bobur – tilshunos
Babur is a linguistic

Izzat PARDAYEVA[1]
Fazilat ESHBOYEVA [2]

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur yetuk tilshunos olim bo‘lgan. Bu uning “Boburnoma”da tovushlar tahlili, grammatik vositalar, lahja va adabiy til munosabati, uslubiyat, so‘z ma’nolari to‘g‘risidagi fikrlarida o‘z ifodasini topgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z qomusiy asari – “Boburnoma”da uch oilaga kiruvchi bir necha tilni solishtirib-chog‘ishtirib o‘rganishning ajoyib namunasini ko‘rsatib, dunyo tilshunosligida yangi nazariyaning asoschisi sifatida maydonga keldi. Chunonchi, Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub bo‘lgan ikki guruh – Hindiston tillari guruhiga kiruvchi hindi, eron tillari guruhiga kiruvchi fors va afg‘on; Xom-Som tillari oilasiga mansub som guruhiga kiruvchi arab tillarini oltoy tillar oilasining turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lgan o‘zbek tili bilan solishtiradi-chog‘ishtiradi.

Kalit so‘zlar: *lahja, lafz, tilshunos, lamg‘oniy, barakiy, turkiy*

Abstract: Zahiriddin Muhammad Babur was an accomplished scientist. This is reflected in his thoughts on sound analysis, grammatical tools, dialect and literary language relationship, methodology, word meanings in “Boburnoma”. In particular, in this sense, he writes about languages in use in Kabul. Zahiriddin Muhammad Babur, in his encyclopedic work “Baburnoma”, showed an excellent example of comparing and contrasting the study of several languages belonging to three families, and appeared as the founder of a new theory in world linguistics. For example, two groups belonging to the Indo-European language family - Hindi belonging to the group of Indian languages, Persian and Afghan belonging to the group of Iranian languages; He compares and contrasts the Arabic languages belonging to the Som group belonging to the Khom-Som language family with the Uzbek language belonging to the Turkic language group of the Altaic language family.

Keywords: *dialect, word, linguist, Lamghani, Baraki, Turki*

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z qomusiy asari – “Boburnoma”da uch oilaga kiruvchi bir necha tilni solishtirib-chog‘ishtirib o‘rganishning ajoyib namunasini ko‘rsatib, dunyo tilshunosligida yangi nazariyaning asoschisi sifatida

[1] *Izzat Pardayeva* – Dotsent. Guliston davlat universiteti. izzatoy63@mail.ru

[2] *Fazilat Eshboyeva* – O‘qituvchi, Guliston davlat universiteti. glsu_info@edu.uz

maydonga keldi. Chunonchi, Hind-Yevropa tillari oilasiga mansub bo‘lgan ikki guruh – Hindiston tillari guruhiga kiruvchi hindi, eron tillari guruhiga kiruvchi fors va afg‘on; Xom-Som tillari oilasiga mansub som guruhiga kiruvchi arab tillarini oltoy tillar oilasining turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lgan o‘zbek tili bilan solishtiradi-chog‘ishtiradi. Kobulda “*Singir*” tog‘ni bekitganga nisbatan qo‘llanishini ta’kidlaydi: “Tonglasi andin ko‘chub, Hangug‘a tushuldi, bu navoqidag‘i afg‘onlar bir parcha tog‘ni *singir* qildilar. Bu el tog‘ni berkitkanni *singir* derlar emish (Bobur, 1960:206).

Bobur Hindiston bedanasini Kobul bedanasi bilan qiyoslar ekan, Kobulda “*Qurotu”* deyilishini ham qayd etadi: *“Yana bir bo‘danadur Kichikkina bo‘danadur, qorchadin bir nima ulug‘roq bo‘lg‘ay, Kobulda* “*qurotu*” *derlar”* [Bobur, 1960:350]. Olim Hindistondagi “*kayla*” daraxti arab tilida “*mavz*” deb atalishini ta’kidlaydi: *“Yana kayladur, arab mavz der”* [Bobur, 1960:353].

Hindistonning “*biyr*” deb ataladigan daraxti fors tilida “*kunor*” nomi bilan yuritilishini ko‘rsatadi. *“Yana biyrdur, forsiy kunor derlar emish. Oluchadin bir nima ulug‘roqdur. Bir na’vi bo‘ladur, husayni uzum andomida...”* [Bobur 1960, 354]. Bobur “*norgil”* arab tilida uning *“norjil”* tarzida talafuz qilishini yozadi: “*Yana norgildur, arab muarrab qilib* “*norjil*” *der, Hinduston eli nolir deydur... Daraxti biaynihi xurmo daraxtidur*...” [Bobur, 1960:355]. Olim “Hast” so‘zining shakllanish jarayonini shunday sharhlaydi: “Suhon suyining navohisidag‘i el va ulusning hokimining oti malik *Hast* edi, asli oti *Asaddur*, Hindustoniylar mundoq harakatlarni gohi sokin o‘qurlar, nechukkim, *“xabar*”ni *“xabr”* derlar, *“asad”*ni *“asd*” depturlar, bora-bora *“hast”* bo‘lubtur” [Bobur, 1960:289]. Bobur o‘zbek va hind tilida yirik sonlarning sanash usulidagi mavjud farqlarni, ularning nomlanishini qiyoslab tushuntiradi: “Yana hind eli adadni xam xo‘b tayin qilibturlar: *yuz mingni lak derlar, yuz lakni kurur derlar. Yuz kururni arb derlar. Yuz arbni karb, yuz karbni nil, yuz nilni padam, yuz padamni song.”* [Bobur, 1960:359-360].

Zahiriddin Muhammad Bobur yetuk tilshunos olim bo‘lgan. Bu uning “Boburnoma”da tovushlar tahlili, grammatik vositalar, lahja va adabiy til munosabati, uslubiyat, so‘z ma’nolari to‘g‘risidagi fikrlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, shu ma’noda Kobulda iste’moldagi tillar haqida yozadi. Olim: “ O‘n bir – o‘n ikki lafz bilan Kobul viloyatida talaffuz qilurlar: arabiy, forsiy, turkiy, barakiy, lamg‘oniy” [Bobur, 1960:189].

Bobur fonetikachi sifatida o‘zbek tilidagi nutq tovushlari bilan yozuv usulidagi nomutanosiblikni yo‘qotish maqsadida mavjud alifboni isloh qilib “Boburiy xat”ni yaratadi: “Ushbu mahallarda Boburiy xatni ixtiro qildim”, [Boburnoma, 204] deb yozadi olim.

Bobur Hinduston eli “*Shin”* tovushini “*sin”* tarzida talaffuz qilishini ta’kidlaydi: “.... Hinduston eli “Shin”ni “sin” talaffuz qilur. Chun bu tog‘da

mu’tabar shahr Kashmirdur” [Bobur, 1960:342]. Ko‘rinadiki, *kas* aslida *kash*, *kashmir* shu tog‘dagi qabila nomi bilan bog‘liq bo‘lib chiqadi.

Olim morfologiyachi sifatida fors-tojik tiliga xos bo‘lgan “*pos*” so‘zini izohlab, uning sutkaning sakkizdan bir qismini, ya’ni uch soatni bildirishini, *posbon* so‘zi esa posdan xabar beruvchilar ekanligini ta’kidlaydi: ”Hind eli kecha-kunduzni oltmish qismat qilibturlar, Har qaysini bir giri debturlar, yana kechani to‘rt va kunduzni to‘rt qismat qilipturlar. Har qaysini bir pahr debturlarkim, forsisi pos bo‘lg‘ay. Ul viloyatlarda pos va posbon eshitilur edi, bu xususiyat bila ma’lum emas edi” [Bobur, 1960:358].

“Boburnoma” tili singarmonizm qonuniyatiga amal qilganligi bois unda to‘qqiz unlilik tizimi amal qilgan. Ular o‘zaro bir-biridan qalin – ingichkalikda, lablanganlik va lablanmaganlikda farqlangan:

O (transkripsiyada-a) qalin, lablanmagan, so‘zning barcha o‘rnida kela olgan: Ovi (avï – 60), oshlig‘i. (ashlïg‘ï-60), Olmoliq (Almalïq – 60), Qubo (Quba-73).

A (Ə) ingichka, lablanmagan, so‘zning har uch holatida ham qo‘llangan: Agar (Əgər-72), Andijon(Əndijan-73), Qatla(qətlə -73).

I (ï), qalin, lablanmagan, so‘z boshi, o‘rtasi, oxirida, ishlatilgan: Qishlikda (qïshlïqta-97), qilich (qïlïch-97), qoshi (qashï-96).

I (i) ingichka, lablanmagan, so‘zning barcha holatiga kela olgan: ilikdin (ilikdin-121), sznasi (yeznəsi-121).

E (e) ingichka lablanmagan, so‘z boshi va birinchi bo‘g‘inda kelgan: Eli (eli – 60), men (men-61).

O‘ (o), qalin, lablangan, so‘z boshi va o‘ratsida qo‘llangan: O‘sh (Osh,- 60), yo‘q (yoq-60), bo‘lg‘oy (bo‘lg‘ay – 65).

O‘ (o)ingichka, lablangan, so‘z boshi va o‘rtasida kela olgan: O‘ruk(oruk-61), b*o* ‘luk(boluk-61), bo‘rk(bork-61)

O‘ (u) qalin, lablangan, so‘z boshi, birinchi va keyingi bo‘g‘inlarda xam iste’moda bo‘lgan: Ul (ul-66), bo‘lg‘usudur (bolg‘usudur-66), uluq (uluq-66),

U (ÿ) ingichka, lablangan, so‘zning har uch holatida kela olgan: uyluk (ÿylÿk-67), asru (esr-76), kurashurlar(ko‘rəshurlar -76).

Umuman, “Boburnoma”ning unli tovushlari tizimi hozirgi o‘zbek adabiy tili unli tovushlari tizimiga to‘liq mos keladi.

Adabiyotlar:

1. Azimdjanova S. 1996. Indiyskiy divan Babura. Toshkent: Fan.

2. G‘aybulloh as-Salom, N.Otajon. 1996. Jahongashta Boburnoma. Toshkent.

3. Hasanov S. 1986. Boburning “Risolayi aruz asari. Toshkent.

4. Nazarova X. 1980. “Boburnoma” tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. Toshkent.

5. Qudratullaev H. 1983. Boburning adabiy-estetik qarashlari. Toshkent: Fan.

6. Stebleva I.V. 1983. Semantika gazeley Babura. Moskva.

7. Xayriddin Sulton. 1996. Boburiynoma. Toshkent.

8. Zahiriddin Muhammad Bobur. 1960. “Boburnoma”. Toshkent: O‘zFA nashriyoti.

9. Zohidov, V. 1960. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Toshkent.

Iste’dodli shoir, adib, zakovatli olim va tarjimon
The talented poet, writer, intelligent scientist and translator

Gulhayo G‘OFUROVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada birinchi bor, Boburning iste’dodli shoir, zakovatli olim va tarjimonlik faoliyati, hazrat Xoja Ubaydulloh qalamiga mansub “Risolai Volidiya” asarini forsiydan turkiyga tarjima qilish sabablari, “Mubayyin” asarini o‘zbekchalashtirish davomida, tojikchadan o‘zbekchaga va aksincha, tojikchaga qaytarish san’ati haqida gap boradi. O‘zbekcha va tojikcha she’rlarni solishtirish jarayonida uning go‘zal, ravon va sodda tilda bayon qilganiga guvoh bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: *go‘zal, ravon, sodda, durdona, she’r, risola, nazm, bayt, sarkarda.*

Abstract: In this article, for the first time, the work of Babur, a talented poet, intelligent scientist and translator, the reasons for the translation of the work “Risolai Volidiya” written by Hazrat Khoja Ubaidullah from Persian to Turkish, during the uzbekization of the work “Mubayyin”, from Tajik to Uzbek and vice versa, to Tajik it is about the art of giving back. In the process of comparing Uzbek and Tajik poems, you will witness his beautiful, fluent and simple language.

Key words: *beautiful, fluent, simple, masterpiece, poem, treatise, poem, verse, warlord.*

Jahon madaniyati tarixida shunday ulug‘ siymolar borki, asrlar o‘tishi bilan ular qoldirgan meros tobora ko‘proq kishilar xonadoniga kirib boradi, qalblarning to‘ridan joy oladi, dunyo xalqlari adabiy hayotining ajralmas qismi bo‘lib qoladi. Uzoq o‘tmishda ijtimoiy hayotning ko‘pgina sohalarida muhim rol o‘ynagan yirik siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. U atoqli davlat arbobi, sarkarda, iste’dodli shoir, adib, zakovatli olim va tarjimondir.

Bobur adabiyot, san’at, tarix va ilm-u fanning turli sohalarida ijod qildi, ajoyib tadqiqotlar yaratdi. Uning asarlari o‘zbek tili, adabiyoti, madaniyatining ravnaq topishiga bebaho hissa bo‘lib qo‘shildi. Boburning ilmiy-adabiy merosi hozir ham o‘zining tarixiy-ma’rifiy, ilmiy va estetik qimmatini saqlab kelmoqda. Uning ishlari ilmiy jihatdan katta ahamiyat qozonishi bilan G‘arb tarixchilarining diqqatini doimo o‘ziga tortib keldi. O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Hindiston va Eron tarixi bilan shug‘ullanuvchi barcha mutaxassislar uchun noyob ilmiy manbalardan biriga aylandi.

[1] *Gulhayo G‘ofurova* – Andijon viloyati, Andijon shahar 48-umumta’lim maktabi ingliz tili o‘qituvchisi,

XV-XVI asr o‘zbek adabiy tilining klassik obidasi, o‘zbek prozasining nodir yodgorligi, fanning tarix, jug‘rofiya, etnografiya va boshqa sohalari haqida qimmatli ma’lumot beruvchi, K. Marks asarlarida tilga olingan, akademik V. Bartoldning yuqori bahosiga sazovor bo‘lgan, venger sharqshunosi X. Vamberi tomonidan Yuliy Sezarning “kommentariylari” bilan bir qatorga qo‘yilgan ma’lum va mashhur “Boburnoma”si shu kunlargacha o‘nlab jahon xalqlari tillariga tarjima qilingan, turli millat kitobxonlarini o‘ziga rom etib kelmoqda.

Boburni jahonga tanitgan eng yirik asari, shubhasiz, “Boburnoma”dir.

“Boburnomaning” o‘zbekchasi 1856-yilda Qozon shahrida N. Ilminskiy tomonidan D. Ker ko‘chirib olgan qo‘lyozma bo‘yicha nashr qilingan. Bundan boshqa A.S. Beverij xonim tomonidan Londonda ham o‘zbek tilida chop qilindi.[1]

Bu qimmatli kitob bir necha tillarga tarjıma qilingan. U, dastavval Mirzapoyonda Hasan va Muhammadqulilar tomonidan (1586) forschaga tarjima qilingan. Bu, Boburnomaning dastlabki tarjimasi hisoblansa-da, lekin to‘liq emas edi. Undan keyin Boburning nevarasi Akbarshohning buyrug‘i bilan Abdurahimxon ibn Bayramxon tomonidan xato va kamchiliklar aniqlanib, tarjima qilingan (1590). Bu tarjima Boburnomaning forschadagi eng ko‘p tarqalgan va to‘liq tarjimasidir. Boburnoma 1590-yillarda Shayx Zajniddin Hofiy tomonidan ham farschaga tarjima qilingan.

Boburnoma birinchi marta Yevropa tillaridan inglizchaga Jon Leyden va Vilyam Erskin tomonidan Hindistonda topilgan qo‘lyozmalar asosida va Boburnomaning forscha nusxasidan tarjima qilinib, 1826-yilda bosilib chiqqan[2]. Uning ayrim xatolari tuzatilgan ikkinchi nashri 1921-yilda ikki jildda bosilib chiqqan. Nemischa tarjimasini Kayzer ingliz tilidan tarjima qilib, 1828-yilda Leypsigda nashr qilgan[3]. Fransuzchasi A. Pavet de Kurteyl tomonidan N. Ilminskiy nashr etgan o‘zbekcha nusxasidan tarjima qilinib, 1871-jilda Parijda chop etilgan. [Поляков, 1871.] Boburnoma gollandchaga ham tarjima qilingan. Boshqa tillarga uning faqat ayrim parchalari tarjima qilingan. Ruschaga ham Boburnomaning O‘rta Osiyo voqealariga doir qismlari S.I.Polyakov, [Поляков, 1904, 113-176] N.N. Pantusov, [Пантусов, 151-199] V. Vyatkinlar [Вяткин, 1896, 30-37] tomonidan tarjima qilinib, bosilib chiqqan.

Bobur ijodining mahsuli bo‘lgan va xarakteri jihatidan juda qimmatli hisoblanadigan “Muxtasar” (“Aruz va qofiya haqida risola”), “Xatti Boburiy” kabi asarlari, uning lirik asarlarini o‘z ichiga oluvchi 2 ta devoni [“O‘zbek adabiyoti

[1] Ker qo’lyozması 1756-yilda noma’lum bir manbadan ko’chirib olingan edi. Beverij nashri, Elfinston tomonidan Peshavorda 1809-yilda sotib olinib, 1543- 1593-yillar orasida ko‘chirib olinganligi taxmin qilingan va Haydarobod kutubxonasidan topilib, 1700- yilda ko‘chirib olinganligi taxmin qilingan qo‘lyozmalar asosida nashr qilingan.

[2] Memoirs of Zehir-ed-din Muhammed Haser, Emperor of Hindustan etc. trans. partly Johu Leyden, partly by Villiam Erskine. London 1826 u 1921.

[3] Denkwurdigkeiten des Zeitr-ed-din Muhammed Baner, Kaiseres von Hindustan etc., you A. Kaiser, Leipzig, 1828.

tarixi”, 1978, 51], “Mubayyin” [Shimmel, 1960:14] nomli risolasi asrlar osha zamonamizgacha yetib kelgandir.

O‘rta Osiyodagi yirik sufiy olim va temuriylarning piru murshidi bo‘lib kelgan va naqshbandiya tariqatining ko‘zga ko‘ringan arboblaridan biri Hazrati Xoja Ubaydulloh qalamiga mansub “Volidiyya” (ota-ona nomiga bag‘ishlangan asar) risolasini Bobur forsiydan turkiyga tarjima qilgan.

Xoja Ahror ushbu risolani o‘z otasining iltimosiga binoan yozib, uning nomini ham shunga moslab “Volidiyya” ya’ni, “Otalik risolasi” deb ataydi. Buni Bobur risola nazmining sababida ham “Otasi qilg‘on uchun taklife, qildi oning otiga ta’life” deb ta’kidlab o‘tgan. Zahiriddin Boburning Xoja Ahror shaxsiyatiga va uning tariqatiga bo‘lgan e’tiqodi juda kuchli bo‘lgan. Hazrati Xoja Ubaydulloh Ahror shaxsiyati Bobur hayoti va e’tiqodining shakllanishida muhim vazifa o‘ynagan va uning tasavvurida bu ulug‘ kishi doimo muqaddas va najotkor zot sifatida shakllangan. Shuning uchun ham Xoja Ahror Boburning butun hayoti davomida madadkor kuch sifatida ishtirok etib uni ko‘p og‘ir holatlardan qutqarib kelgan.

Boburga Xoja Ahrorning “Volidiyya”sini nazm bilan turkiyga tarjima qilish fikri uni isitma tutib turgan kunlari keladi va bu fikrni amalga oshiradi. Bunda ham karomat sodir bo‘ladi: “Seshanba kechasi, safar oyining yigirma yettisida xazrat Xoja Ubaydulloning “Volidiyya” risolasini nazm qilmoq xotirimg‘a kechti. Hazratning ruhig‘a iltijo qilib, ko‘nglumg‘a kechurdumkim, agar bu manzum ul Hazratning maqbuli bo‘lur, xud nechukkim, sohibi ‘Qasidai Burda» ning qasidasi maqbul tushub, o‘zi aflij marazidan xalos bo‘ldi, men dog‘i bu orizadin qutulub, nazmimning qabulig‘a dalile bo‘lg‘usidur. Ushbu niyat bila “ramali musaddasi” “maxbuni aruz” va “zarb gohi maxbuni mahzuf” vaznidakim, Mavlono Abdurahmon Jomiyning “Subxasi” ham bu vazndadur, risola nazmig‘a shuru’ qildim, ham o‘shal qecha o‘n uch bayt aytildi” [“Boburnoma”, 1989:318].

Uni qarangki, Bobur Mirzo ham o‘z kasalidan “Volidiyya” risolasini tarjima qilib bo‘lishi bilan sog‘ayib ketadi. U: O‘tgan yil va balki har mahal mundoq orizakim bo‘ldi, aqalli bir oy qirq kunga tortti. Tengri inoyati bila Hazratning himmatidin, panjshanba kuni oyning yigirma to‘qquzida andake afsurda bo‘ldi, O‘zga bu orizadin xalos bo‘ldum. Shanba kuni rabiul-avval oyining sakkizida risola so‘zlarini nazm qilmoq ixtimomig‘a yetti, deb shukrlar qiladi.

Bobur qalamiga mansub bu asarning ikkita qo‘lyozma va beshta bosma nusxasi ma’lum.

Hayotining so‘nggi yillarida o‘z ijodiy faoliyatidan mamnun bo‘lgan shoir “Boburnoma”, “Xatti Boburiy” va “Volidiya” tarjimasidan namunalarni Kobul va Hindistondagi do‘stlariga, davlat a’yonlari, farzandlariga yuborib turgan.

Bu haqda muallif “Boburnoma”ning 428-betida shunday deydi: “Mullo Bihishtiydan Hindolga “Boburiy xati”ning mufradotini yiborildi. ...Humoyunga tarjimanikim, Hindistonga kelg‘ali aytqon ash’orni yiboril- di... Hindolg‘a va Xoja Kalonga ham tarjima va ash’or yiborildi. Mirzobeku tag‘oyidan xam Komrong‘a tarjima va Hindqa kelgali aytqon osh’or va “Boburiy xati” bila bitilgan sarxatlar yiborildi...”

Zahiriddin Muhammad Boburning tarjimonlik mahorati forscha yaratilgan “Mubayyin” asarini o‘zbekchalashtirishda yaqqol namoyon bo‘lgan edi. Uning aruz haqidagi risolasida ham tarjimaning yorqin namunalari uchraydi. Bunda shoir keltirgan misollarning ayrimlarini o‘zi tarjima qilib, o‘zbekchalarini tojikchaga va tojikcha baytlarini o‘zbekchaga o‘girgan:

Guzare qilay ko‘yung sari,
Nazare qilay ro‘yung sari,
baytini Bobur ajoyib ustalik bilan tojikchaga qaytaradi:
Guzare kunam ba so‘yi tu,
Nazare kunam ba ro‘yi tu.
fors-tojik tilidagi
Misoli man dilafgor kas nashavad,
Misoli man xoru zor kae nashavad,
satrlarini Bobur o‘zbekchaga quyidagicha o‘girgan:
Mening kabi dilafgor bormu kishi,
Mening kabi xoru zor bormu kishi. (90 bet)

Bu she’riy bayt u darajada kuchli san’at asari namunasi hisoblanmasa ham, uning o‘z vazni bilan ravon va aniq berilganligi adib mahoratidan darak beradi. Yoki mana bu misolni olib ko‘raylik:

To‘yiyu ba kaf mayi lolagun,
Manamu zi tu dili g‘arqi xun –
Senu ishratu mayi lolagun,
Menu furqatu dili g‘arqi xun.

“Aruz risolasi”da Bobur mazkur vaznning qoida-qonunlarini batafsil tahlil etar ekan, o‘z fikrlarini qiyosiy tahlillar orqali isbotlashga harakat qiladi. Buning uchun u o‘zbekcha va tojikcha she’rlarni solishtirib o‘rganadi. Bu ham o‘z navbatida Boburning tarjimonlik faoliyatini alohida o‘rganishni talab qiladigan masaladir [Valixo‘jaev, 1977:88].

Boburning bu tarjimonlik mahorati bilan tanishar ekansiz, uning juda go‘zal, ravon va sodda tilda bayon qilinganligining guvohi bo‘libgina qolmay, bu ilm ummonidan o‘zlaringizga zarur bo‘lgan durdonalarni olib bahramand bo‘lasizlar degan umiddamiz.

Adabiyotlar

1. С.И.Поляков. 1904. Записки Бабера. Ежегодник Ферганской области, т. III, выпуск. Новый Маргелан,

2. Н.Н.Пантусов. Фергана по Запискам султана Бабура. Записки Императорского Русского Географического Общества. т. IV, отдел 1, стр.

3. В.Вяткин. 1896. Самарканд и его окрестности в прошлом, по описанию султана Бабур-мирзы. Справочная книга.

4. “Boburnoma”. 1989. Toshkent: “Yulduzcha”

5. С. И. Поляков. 1871. Memoires de Babur, traduits pour la premiere, fois sur le texte diagatai par. Ежегодник Ферганской области, т. III, вы- A. Paset de Courteille. Paris.

6. Villiam Erskine. 1826. Memoirs of Zehir-ed-din Muhammed Haser, Emperor of Hindustan etc. London.

7. A. Kaiser. 1828. Denkwurdigkeiten des Zeitr-ed-din Muhammed Baner, Kaiseres von Hindustan etc. Leipzig.

8. B. Valixo‘jaev. 1977. Bobur va tojik adabiyoti. “Adabiy meros to‘plami”.

Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zbek adabiyoti hamda madaniyatidagi o‘rni va roli
The place and role of Zahiriddin Muhammad Babur in uzbek literature and culture

Sherzod UBAYDULLAYEV[1]

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zbek adabiyoti hamda madaniyatidagi o‘rni va roli, jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida hamda O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallaganligi hususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, o‘zbek adabiyoti, madaniyati sanati, Sarkarda, Davlat arbobi Boburnoma, “Mubayyin”, “Harb ishi”, “Xatti Boburiy” asarlari va “Aruz” risolasi.*

Annotation: The article describes the place and role of Zahiriddin Muhammad Babur in Uzbek literature and culture, Zahiriddin Muhammad Babur, one of the unique figures who left an indelible mark in world history, as a great poet, encyclopedist, statesman and skilled general, and occupied a special place in the culture, literature and poetry of the Middle Ages. thought about.

Key words: *Zahiriddin Muhammad Babur, Uzbek literature, art of culture, Sarkarda, Statesman Boburnoma, works "Mubayyin", "Harb ishi", "Hatti Baburiy" and pamphlet “Aruz”.*

Jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma’lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o‘ringa ega.

Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga, yirik davlat va siyosat arbobi, mohir sarkarda ham sanaladi. U keng dunyoqarashi va komil aql-zakovati bilan Hindistonda ma’rifatparvar davlat arbobi sifatida nom qozongan bo‘lsa, “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavislari qatoridan ham joy olgan. Uning nafis g‘azal va ruboiylari turkiy she’riyatning eng nodir durdonalaridan sanaladi. “Mubayyin”, “Harb ishi”, “Xatti Boburiy” asarlari va “Aruz” risolasi islom

[1] *Sherzod Ubaydullayev* – malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti Maxsus fanlar sikli o‘qituvchisi, mayyor.

qonunshunosligi, harb san’ati, nafis san’at, she’riyat va til nazariyasi sohalari rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi. [J Jumayev, 2023: 0]

Javoharla’l Neru o‘zining “Hindistonning kashf etilishi” kitobida: “Bobur dilbar shaxs edi. Uyg‘onish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi bo‘lib, san’atni, adabiyotni, go‘zallikni sevardi”, deb yozgan.

“Boburnoma” o‘zbek va umumturkiy adabiyotning mashhur qomusiy asarlaridandir. Unda Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlariga oid ko‘plab ma’lumotlar jamlangan. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, birinchisi – XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan voqealarni; ikkinchisi – XV asr oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afg‘onistonda ro‘y bergan hodisalarni; uchinchisi esa Shimoliy Hindiston xalqlarining XVI asrning birinchi choragidagi tarixiga doir lavhalarni o‘z ichiga oladi. “Boburnoma” – 1500 ga yaqin tarixiy shaxs hamda o‘simlik va hayvonot olamiga doir yuzlab nodir ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan qomusiy asar bo‘lib, 20 dan ortiq tilga tarjima qilingan.

Muxtasar aytganda, “Boburnoma” o‘quvchiga Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalqlari tarixi, o‘sha davrda boburiylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti, tabiati va geografiyasi bilan tanishish imkonini beradi.

“Boburnoma”ning tarjima qilgan ingliz olimi Uilyam Erskin: “Osiyoda saxovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fanga, san’atga mehri va ular bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanishi jihatidan Boburga teng kyeladigan birorta podshoh topilmaydi”.

Boburning ulkan ijodkorligi shundaki, asarlarida shaxsiy kechinmalarini bayon etish barobarida yuksak g‘oyalar, umuminsoniy qadriyatlarni olg‘a suradi. Uning ijodida, xususan, she’riyatida ona yurtni chin dildan qo‘msash, uning tuprog‘iga talpinish, musofirlik iztiroblaridan hasrat, yoru diyor sog‘inchi katta nafosat bilan badiiy talqin etiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayotida ro‘y bergan keskinliklarning, og‘ir tushkunliklarning ruhiyatga ta’siri, Vatan sog‘inchi, unga qaytish umidi she’rlarida mohirona tarzda aks etgan:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yurtni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, bu ne yuz qarolig‘ bo‘ldi?!

Shuningdek, Bobur o‘z she’rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolatga, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg‘ularni qadrlashga chaqiradi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonliq hargiz,
Har kimki, yomon bo‘lsa, jazo topqusidur.

Boburning 1522 yilda o‘g‘li Humoyunga atab yozilgan “Mubayyin” nomli asari o‘sha davr soliq tizimiga doir shar’iy qonun-qoidalar bayoniga bag‘ishlangan. Mumtoz adabiyotshunoslik qoidalariga bag‘ishlangan “Aruz risolasi”da esa 537 ta she’rni tahlil qilgan.

“Xatti Boburiy” deb atalgan risolasida arab alifbosi ta’limi turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili asosida birmuncha soddalashtirib berilgan. Shoir Qur’oni karimni o‘zi ishlab chiqqan “Xatti Boburiy” alifbosida ko‘chirtirgan.

Bobur she’riyatida ko‘pchilik mutafakkirlar asarlariga xos bo‘lgan jihat yaqqol namoyon etilgan – insonning axloqi va barkamolligi masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Shoir inson qadrini ko‘tarib, unga ulkan hurmat bilan munosabatda bo‘lishni yoqlaydi. Buning ziddi bo‘lgan sifatlarni qoralaydi. Boburning fikricha, xudbinlik, izzattalablik, baxillik, manmanlik noqobil sifatlardir. Shoir ruboiylarida insonning ma’naviy tarbiyasi haqida qimmatli maslahatlar beradi.

Bobur ko‘z o‘ngida yuz berayotgan voqea va hodisalarni ziyraklik bilan kuzatgan. O‘zini qiynagan his-tuyg‘ularni chuqur tanqidiy tahlil qilib, ularni yaxshilik va adolat, haqiqat va go‘zallik tamoyillariga xizmat qilishga yo‘naltira olgan.

Adabiyot, tarix, musiqa va san’atdan yaxshi xabardor bo‘lgan Bobur doim olimu fozillar davrasida bo‘lgan, ijod ahliga, kasbu hunar sohiblariga samimiy ehtirom ko‘rsatib, homiylik (mesenatlik) qilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, ingliz tarixchisi Eduard Xolden unga “Bobur fe’li-saviyasiga ko‘ra Syezarga qaraganda suyukliroq bo‘lishga arzigulikdir. Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo‘yilgan”, deb ta’rif bergan. Mirzo Muhammad Haydar esa “Tarixi Rashidiy” asarida bunday yozadi: “…U turli fazilatlar bilan bezangan va maqtovli xislatlarga ega bo‘lgan bir podshoh edi. Barcha fazilatlari orasida shijoat va muruvvati ustunroq turardi. Turkiy she’rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas”.

Ijod va san’at odamlariga bunday mehrli munosabat bejiz emas edi, albatta. Boburning o‘zi tabiatan ijodkor bo‘lgan. Navqironlik yillaridan umrining oxirigacha ijod bilan shug‘ullangan. Hech bir sharoit va vaziyatda ijoddan to‘xtamagan, natijada avlodlarga har jihatdan takomilga yetkazilgan boy ilmiy va adabiy meros qoldirgan.

[http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/34782-bobur-mirzo-ma-navij-zhasorat-so-ibi]

Bobur buyuk sarkarda bo‘libgina qolmay, o‘zining mashhur asarlari bilan keng fikrli tarixnavis, yetuk adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan katta olim sifatida dunyo ilm-fani ravnaqi va ma’naviy-ma’rifiy rivojida munosib o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.I.Mirziyoyevning «Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini

keng nishonlash to‘g‘risida»gi 2023 yil 25 yanvardagi PQ-20-sonli qarorida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab olindi. [// URL:http://www.lex.uz.]

- Mamlakatimizdagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog‘liq obida va qadamjolarni, jumladan yodgorlik majmualarini ta’mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish;

- Bobur Mirzo merosiga mansub qo‘lyozma, qadimiy kitoblar, san’at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish;

- Xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid noyob qo‘lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish;

- Zahiriddin Muhammad Boburning ilmiy-ijodiy merosini, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda ilmiy izlanishlar olib borish va ularning natijalarini e’lon qilish, yangi ilmiy, badiiy-publisistik asarlar yaratish;

- Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan yuqori sifatli media mahsulotlar hamda audiovizual asarlar yaratish, ularni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish, Internet va ijtimoiy tarmoqlarda keng targ‘ib qilish;

- O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari, O‘zbek milliy madaniy markazlari, vatandoshlar jamiyatlarida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini keng o‘rganish va targ‘ib qilishga bag‘ishlangan ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari tashkil etish.

Yuqoridagilarga asoslanib hulosa o‘rnida shuni aytish joizki, shoh va alloma Boburni xotirlar ekanmiz, uning vatanparvarligini tilga olmaslik mumkin emas. U o‘zining hayoti davomida mol-davlat ham, shohlik hokimiyat ham, dunyoning qolgan barcha ne’matlari ham ona Vatanning bir siqim tuprog‘i kabi ahamiyatga ega emasligini amalda isbot etdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur umri davomida asrlarga tatigulik asarlar yozgani, obodonchilik va bunyodkorlik ishlari, avlodlarga qoldirgan ibrat maktabi uning nomini abadiy qiladi. Biz – avlodlari ulug‘ bobokalonimizni xotiramizda hamisha faxr-iftixor tuyg‘usini his qilib kelgusi va kelajak avlodga uning hayoti va ijodi va o‘zbek adabiyoti, madaniyati va san’atiga qo‘shgan hissasi hamda uning vatanparvarligi, mard va jasurligi haqida eslab o‘tishimiz va yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalashda ularga ona vatanga bo‘lgan tuyg‘uni shakillantirishimizda muhim ahamiyat kasb etidi.

Adabiyotlar

1. Jumayev, J. 2023**.** Bobur ilmiy-ma’naviy merosining bugungi kundagi ahamiyati. – Toshkent.

2. Mirziyoyev, Sh. 2023. “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi 2023 yil 25 yanvardagi PQ-20-sonli qarori // URL:http://www.lex.uz.

3. https://ziyouz.uz/tag/bobur-haqida-maqolalar-alisher/.

4. https://www.bukhari.uz/?p=26544/

5. https://ziyouz.uz/tag/bobur-haqida-maqolalar-alisher/

6.http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar/item/34782-bobur-mirzo-ma-navij-zhasorat-so-ibi

Shoh Bobur va daho Navoiy
King Babur and the genius navai

Shaxnoza ISMOILOVA[1]

Eykim,bori nazm ahlig‘a sen xon yanglig‘,
She’ring bori she’rlarga sulton yanglig‘.
Bobur

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodining betakror xususiyatlari, Z.M.Bobur va boshqa shoirlar tomonidan tahlil qilinib, shoir lirikasining o`ziga xos xususiyatlari, betakror jilvasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Boburnoma, Navoiy, Xamsa, lirika, ruboiy*

Abstract: In this article, the unique features of the work of the great poet and thinker Alisher Navoi, by Z.M. Babur and other poets are analyzed, the unique features of the poet's lyrics, the unique quirk are analyzed.

Key words: *Baburnoma, Navoi, Khamsa, lyrics, rubai*

Zahiriddin Muhammad Bobur avvalambor, buyuk podshoh, hassos shoir, mohir sarkarda, tilshunos, adabiyotshunos, badiiy tarjimon, hayvonlar va o‘simliklar dunyosining bilimdoni sifatida olamga ma’lum. Bobur jahon tarixida eng uzoq muddat, yani 332 yil hukmronlik qilgan Hindistonda Boburiylar sulolasining asoschisidir. U yoshligidan adabiyotga juda qiziqqan va Navoiy, S.Sheroziy va boshqa shoirlarning ijodidan bahramand bo‘lib kelgan.

O‘zbek adabiyoti shohsupasidan A.Navoiy va Bobur alohida joy egallaganlar. Navoiygacha ham undan keyin ham uning iste’dodi darajasidagi inson kelmaganligini uning zamondoshlari, izdoshlari, qayta-qayta ta’kidlaganlar. Bular Abdurahmon Jomiy “Xiradnomai Iskandariy”, Alisher Navoiy, tarixchi Xondamir “Makorim ul-ahloq”, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnomada” asari, Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy” asarlari butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan.

“Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”. Bobur, ayniqsa, o‘zbek adabiyotining faxri, o‘z ijodi va ilmiy-adabiy ijodi bilan nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyoti xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk Alisher Navoiy haqida o‘zining “Boburnoma”sida alohida e’tirof etib o‘tgan. Jumladan, Husayn Boyqaro haqida kelgan jumlalarda Navoiy uning nafaqat begi, balki musohibi ekanligi, kichikligida hammaktab bo‘lganligini ta’kidlagan: *“Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki*

[1] Mustaqil tadqiqotchi

musohibi edi, kichikligida hammaktab ekandurlar. Xususiyat bisyor ekandur… Alisherbekning mijozi nozukluk bila mashhurdur. El nazokatini davlatining g‘ururidin tasavvur qilur erdilar. Andoq emas ekandur, bu sifat anga jibilliy ekandur. Samarqandta ekanda ham ushmundoq nozik mijoz ekandur”.

Bobur yana ilm va hunar ahliga Navoiychalik murabbiy va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi biror boshqa kishi ma’lum emasligini, ustoz Qulmuhammad va Shayhiy Noiy, Husayn Udiylar sozda bek Navoiyning tarbiya va ko‘rsatmalari bilan rivojlanib, shuhrat topganlarini qayd qilib o‘tgan.

Zahiridin Muhammad Bobur Alisher Navoiyning ijodiy durdonalarini yoritish bilan birga uning shaxsiy tarjimai holini ham bayon qilishda ulug‘ xizmatlari bor. Navoiyning o‘g‘il qizi va ahli-ayoli yo‘qligi, olamda yolg‘iz o‘tganligi, avvallari muhrdor, so‘ngra bek bo‘lib, Astrabodda bir necha muddat hokimlik qilganligi, keyinchalik amaldorlikni tark qilib, har yili Sulton Husaynga ulkan hadyalar tortiq qilganligi e‘tirof etilgan.

Shermuhammad Munis o‘z ismi sharifining Alisher Navoiy ismi bilan ma’nodosh ekanligi sababli bu bilan faxrlanishini ta’kidlaydi:

So‘z ichra Navoiyki jahongirdurur:
Munisga maoni yo‘lida pirdudur.
Yo‘q g‘ayriyat andin o‘zgakim, ayturlar:
Bu-Shermuhammad, u-Alisherdurur.

Ushbu misralarda Alisher Navoiyning so‘z jahongiri ekanligini ta’kidlamoqda. Erkin Vohidov esa Alisher Navoiy kabi buyuk dahomizni hatto adabiyotshunos olimlar ham o‘qimayotganligini, uning g‘azallarini tushunmasligini, anglashga ham harakat qilmasligini shunday izzohlaganlar:

O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Dod demoqqa palla bo‘lgani shudir.
Ma’rifatdan ayru o‘ynasa, kulsa,
Aza chog‘i yalla bo‘lgani shudir.
O‘zbek Navoiyni o‘qimay qo‘ysa,
Aldangani, alla bo‘lgani shudir.
Yulg‘ich aziz bo‘lib, bilg‘ich xor bo‘lsa,
Paytavaning salla bo‘lgani shudir.

Bizga ma’lumki, Abdurahmon Jomiy-fors adabiyotida Navoiy zamonining dahosi bo‘lgan. Jomiy Navoiy “Xamsa” sini o‘qib, o‘z olqishlarini “Xirodnomai Iskandariy” dostonida bayon qiladi hamda G‘afur G‘ulom u olqishlarni quyidagicha tarjima qiladi:

Sening yuksak ta’bing bilan, so‘z ustodi,
Qalamingning kaliti-la so‘z kushodi..

So‘z yuzining porloqligi o‘chgan edi,
Xazina ham yukin bog‘lab ko‘chgan edi,
So‘zamollik maydoniga sen surding ot,
Qayta boshdan so‘zning yuzi porladi bot.

Sening aqlu fikring bilan safo topti,
Ey Navoiy, lutfing bilan navo topti.

Alisher Navoiy komil inson edi, yolg‘onga nisbatan qat’iy murosasizlik qildi. Buning dalilini ushbu misralarda ko‘rishimiz mumkin:

So‘zda, Naviy, ne desang chin degil,
Rost nabo, nag‘mag‘a tahsin degil.

Shoirning axloqiy talablaridan biri rost so‘zlash bo‘lgan. U yolg‘on so‘zlagan inson o‘zini musulmon hisoblanmasligi lozimligini quyidagicha ifodalaydi:

Kimki shior ayladi yolg‘on demak,
Bo‘lmas ani eru musulmon demak.

“Hayrat ul-abror”da Navoiy so‘z, ko‘ngil, inson, sultonlik, yigitlik, hayo, vafo, ish haqida yozadi. Asarlarida Navoiy tan, til, dil pokligiga chaqiradi:

Demonkim,ko‘ngli pok-u ham ko‘zi pok,
tili pok-u so‘zi pok-u o‘zi pok.

Ya’ni, ko‘ngli toza bo‘lgan insonning ko‘zi faqat ezgu narsalarni ko‘radi, tili shirin insonlar esa, so‘z bilan boshqalarga ozor bermaydi, uning butun vujudi toza, sof bo‘ladi. Bu kabi insonlar ahloqli va pok vijdonli boladilar. Qolaversa, kamtar va kamsuqum bo‘lgan odamlar uchum manmanlik yot bo‘lishi lozimligi ham Navoiy juda go‘zal va ta’sirli so‘zlar ila ifodalangan:

“*Men demoqlik ne behayolikdir”.*

Nazarimda ushbu jumlalarni har bir musulmon o‘zlariga shior qilib olsalar Navoiyni tavsiyalarining biri amalga oshardi. Bunday fikrlardan ayonki, Navoiy shuhrati olamga yoyilgan. Bunda “Boburnoma”ning ham hissasi beqiyos. Unda Navoiyning jamoat oldidagi hurmati shu darajada yuqori bo‘lganligi, Hirotda nima yangilik bo‘lsa, shoir nomiga atalib nomlanganligi qayd etilgan. Bobur ijodini kuzatgan olimlar, jumladan Vahob Rahmon Bobur ijodida Navoiy ijodining ta’siri sezilarli darajada bo‘lganligini ta‘kidlaydi. Biz buni bu ikki buyuk shaxs qalamiga mansub ruboiylarda ko‘rishimiz mumkin. Bobur bergan ma’lumotlardan biz Navoiyning uyi, uning fe’l-atvorida nozik-mijozlilik bo‘lganligini bilib olamiz.

Navoiy va Bobur ijodiy merosi bilan hozirgi kunda butun jahon olimlari qiziqmoqdalar, o‘rganmoqdalar. Ingliz sharqshunosi Monstyuard Elfinston Bobur haqida gapirar ekan, uning uslubi oddiy va mardona, jonli va obrazli, o‘z zamondoshlarining qiyofalari, urf-odatlari va intilishlarini oynaday ravshan tasvirlaydi, lekin muallifning yorqin xarakteri asarga eng ko‘p joziba bag‘ishlashini

qayd etgan. Shunday ekan, Navoiy va Bobur kabi ajdodlarimiz hayoti va ijodini yaqindan o‘qish, o‘rganish, tahlil qilish har birimizning burchimizdir.

Adabiyotlar

1. Is’hoqov, Y. 2014. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston.
2. Rahmonov V. 2015. Mumtoz so‘z sehri. – Toshkent: O‘zbekiston.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2008. Boburnoma. – Toshkent: O‘qituvchi.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2015. Boburnoma. – Toshkent: Yangi asr avlodi.

Zahiriddin Muhammad Boburning turkiy til rivojidagi o‘rni
The role of Zahiriddin Muhammad Babur in the development of the Turkish language

Oydin NURULLAYEVA[1]

Annotatsiya: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining turkiy tilning rivojlanishi, tarjima, ko‘p tillilik, adabiy tilni uslubiy jihatdan boyitishdagi o‘rni haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada Bobur asarlarining lingvistik xususiyati bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *memuar asar, turkiy til, lahjalar, chig‘atoy, uslub, ko‘ptillilik.*

Abstract: This article talks about the role of Zahiriddin Muhammad Babur’s works in the development of the Turkish language, translation, multilingualism, and methodological enrichment of the literary language. The article also describes the linguistic features of Babur’s works.

Key words: *memoir, Turkish language, dialects, chigatoy, style, multilingualism.*

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrining mashhur davlat arbobi va sarkardasi bo‘lishi bilan birga, o‘zining adabiyot, tilshunoslik va madaniyatga qo‘shgan ulkan hissasi bilan ham tanilgan. Uning qalamiga mansub “Boburnoma” — o‘z davrining eng nodir asarlaridan biri bo‘lib, nafaqat tarixiy, balki adabiy va madaniy ahamiyatga ega memuar asardir. Ushbu asar Boburning hayoti va faoliyatini aks ettirib, XV-XVI asr Markaziy Osiyo va Hindiston tarixiga oid qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. “Boburnoma” o‘zining o‘ziga xos uslubi va tafsilotlarga boyligi bilan o‘quvchilarni jalb qiladi, shuningdek, memuar janrining yorqin namunasi sifatida alohida e’tiborga loyiqdir. Mazkur asar tarixiy va adabiy manba sifatida mashhur bo‘lsa-da, uning tilshunoslik sohasidagi ahamiyati ham katta.

Boburning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi avvalo, uning asarlari orqali namoyon bo‘ladi va quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanadi:

Turkiy tilni rivojlantirish. Bobur o‘z asarlarini Chig‘atoy tilida yozgan, bu til o‘sha davrda turkiy tillardan biri bo‘lgan. Bobur Chig‘atoy tilining nafaqat adabiy, balki ilmiy va kundalik hayotda qo‘llanishini qo‘llab-quvvatlagan va bu tilni rivojlantirish uchun katta hissa qo‘shgan. U she’r va nasrda turkiy tilni mahorat bilan qo‘llab, uni boyitgan. Uning mashhur risolasi “Boburnoma”ning til xususiyatlari

[1] *Oydin Nurullayeva* – Toshkent davlat o‘zbek tili vaadabiyoti universiteti tayanch doktoranti

haqida fikr yuritish uchun, bizningcha, juda kop masalalarni hisobga olmoq lozim. Chunonchi, birinchidan lahjalar munosabatini. Negaki, o‘zbek tili o‘zining ko‘p lahjaliligi jihatidan turkiy tillarning barchasidan farqlanadi. Shuning uchun ham professor E.D.Polivanov: «O‘zbek tili yagona sistemaning, hech qachon amalda bo‘lmagan o‘zbek bobo tilining dialektologik parchalanishi yo‘li bilan emas, balki til sistemalarining birlashuvi yo‘li bilan paydo bo‘lgan», — deb aytgan edi. Haqiqatan ham o‘zbek adabiy tili uchta katta mustaqil: qarluq-chigil yoki o‘rta o‘zbek qipchoq yoki sof o‘zbek (professor E.D.Polivanov atamasi), o‘g‘iz lahjalaridan tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri yana bir-biridan farq qiluvchi bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi. Binobarin, bu lahjalarning har biri mohiyat e’tibori bilan yirik bir til birligi sifatida bir-biridan fonetik, leksik, grammatik, uslubiyat jihatidan ham farqlanadi. Hatto bugungi kunda sezilayotgan bunday tafovutlar eski o‘zbek tili davrida yana mo‘lroq, ayni paytda kuchliroq bo‘lganligi tabiiy holat. Zero, Zahiriddin Muhammad Bobur bu tafovutlarni juda chuqur his etgani holda ularning har biriga xos bolgan so‘zlarni «Boburnoma»da qo‘llaydiki, bu bilan, avvalo, adabiy tilning boyligini ta’minlaydi. Ayni paytda adabiy til bilan umumxalq tilini yaqinlashtiradi va shu asnoda «Boburnoma» tilining soddaligini, natijada uning o‘qimishliligini ta’minlagan. Chunonchi, Andijon lahjasida hozir ham “*eshik*” so‘zi, «*uy*», «*hovli*» ma’nosida; «*to‘shak solish*» birikmasi *“mehmonga ko‘rpacha solish”, “joy tayyorlash”* ma’nolarida ishlatiladiki, bunday xususiyat «Boburnoma» tilida ham mavjud.[G‘ofurova Sh, 7] Masalan, «Ibni Husayin Mirzo bu to‘shakda o‘lturdilar, manga solg‘on to‘shakdin quyi o‘ng qo‘limda yana bir to‘shak solib erdilar, Jahongir Mirzo bila Abdurazzoq Mirzo ul to‘shakda o‘lturdilar». Ayni payda «Boburnoma»da o‘g‘uz lahjasiga xos so zlargina emas, hatto bu lahjaning xususiyatini ko‘rsatuvchi grammatik shakllar ham faol ishlatilgan: «Har kimdin yaxshi qoida qolg‘on bo‘lsa aning birla amal qilmoq kerak, agar o‘ta yomon ish qilg‘on bo‘lsa, yaxshi ish birla badal qilmoq kerak» [Boburnoma, 250].

Bobur asarlarining lingvistik xususiyatlar. «Boburnoma» asari tilshunoslik nuqtayi nazaridan juda muhim. Bu asarda o‘sha davrning leksikasi, morfologiyasi va sintaksisi o‘z ifodasini topgan. Bobur o‘z asarida xalq tilidagi so‘zlarni va dialektal unsurlarni ishlatgan, bu esa uning asarini lingvistik jihatdan qimmatliligini oshirgan. Darhaqiqat, harakat nomining eski o‘zbek tili davrida ishlatilgan - *moq,* - *mak*, shakli hozirda o‘g‘uz lahjasida keng doirada qo‘llaniladi. Tabiiyki, «Boburnoma»da qipchoq lahjasiga xos bo‘lgan so‘z va iboralar ham anchagina. Chunonchi, *qaqasroq (152), obi-tobu (295), tangi (296), ko tal (296), to‘ng‘ub (301), tupuchoq (303), julgo(306), yilon (306), cho‘r bitti(308), pushta (113), yayov (327), ushoq (330), kichik kirim (339), bo dana (398), andak (398), yanga, checham (417), amma (417), qopto (255)I, uchma (258) , tumshuq (259), inish (259)* va boshqalar. Masalan: «*Ivong‘ir kishisi tangilardin o‘tub darvozag‘a tiqilib bordi». (296) Shanba kuni safar*

oyining uchida uluq amma begimlardin: Xonzodabegim, Sulton Ma' sul mirzoning qizi, yana Sulton Baxtbegimning qizi, yana yanga chechamningkim, Zaynab Sultonbegim bo'g'ay,...[Boburnoma,417]

Zero, o'sha davr tilida faol qo'llanilgan *tangi, amma, checha* so zlari hozirgi adabiy tilda kam ishlatiladi. Ammo bular qipchoq lahjasida hozir ham keng qo'llaniladi. Ya'ni «*tangi*» uch tomoni tog' bilan o'ralgan joy, «*amma*» - otasining singlisi yoki egachisidir. Demak ko'rinadiki, «Boburnoma»ni bir lahja doirasida kuzatish, uning tilini faqat bir lahjaga nisbat berish mutlaqo mumkin emas. Asar turli madaniyat va tillarning o'zaro aloqalarini aks ettirgan bo'lib, bu ham Boburning ko'p tillilikni tushunganligini va ularni yoritishga bo'lgan qiziqishini ko'rsatadi.[V.Zohidov,10]

Ko'ptillilik. Bobur o'z asarlarida o'ziga xos uslubda o'zlashtirish va tarjima jarayonlarini ham namoyon etgan. U fors tilidagi iboralarni va so'z birikmalarini turkiy tilga moslashtirib, yangi ifodalarni kiritgan. Bu uning o'z tiliga bo'lgan hurmatini va uni rivojlantirishga bo'lgan harakatini ifodalaydi. «Boburnoma» asari Boburni faqatgina turkiy tilni emas fors tilini ham xuddi shunday mukammal bilishini ko'rsatib beradi. Va o'sha davrda tillaring qanchalik aloqada bo'lganini o'z tilida ko'rsatadi. "Boburnoma" da o'zbek tilidagi maqollar bilan bir qatorda fors tilidagi maqollar ham ishlatilgan. Bu narsa Boburning fors-tojik klassik adabiyotinigina emas, balki folklorni,xalq tilini ham yaqin bilganidan darak beradi. Masalan: Uzram battar oz gunoh (*Uzri gunohidan yomonroq*), Deh kunjovu daraxton kujo *(Qishloq qaydayu daraxtlar qayda*), G'ofil az injo randa va az onjo manda (*G'ofil bu yerdan quvilgan, u yerdan ajralgan*), Marbo yoron sur ast (*Do'stlar bilan birga bolgan o'lish to'ydir*), Dah darvish dar yak gileme buxsoband va du podshoh dar iqleme nag'unjand (*O'n darvish bir gilamga sig'ib yotarlar, ikki podsho bir iqlimga sig'maydi*) va h.k. Bobur mazkur maqollarni o'rnida qo'llaydi, ularni kitobxon voqealarni yana ham aniqroq tasavvur qilishni, bayonning ta'sir kuchini oshirish uchun ishlatadi. Bobur o'zining ko'p tilli shaxsiyat ekanligini ko'rsatib, fors, arab va hind tillarida ham bilimga ega bo'lgan. Bu tillarni yaxshi bilishi unga turli madaniyatlarga yaqinlashish va ularning o'zaro ta'sirini o'rganishda yordam bergan. Boburning ko'p tillilikka qiziqishi uning asarlarida ham aks etadi va bu tilshunoslik nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiy tilni uslubiy jihatdan boyitish. Bobur she'riyat va nasrda turli uslubiy vositalardan unumli foydalangan. Ma'lumki, xalq tili bir tomondan bitmas-tuganmas boy, ikkinchi tomondan, fikrni boshqalarga yetkazish imkoniyati cheksiz. Shuning uchun hamisha yozma adabiy til umumxalq tili va og' zaki adabiy til bilan yaqin munosabatda bo'lsagina o'z boyligini, uslubiy ta'sirchanligini, asar tilining soddaligi-yu, jarangdorligini ta'minlay oladi. Zero, «Boburnoma» bu ma'noda ham yuksak pog'onaga ko'tarilgan shoh asar sanaladi. «Boburnoma»da o'xshatish, chog'ishtirish,

istiora kabi badiiy vositalar yetarli. [H.Qudratullaev,12] U majozlar, qiyoslar va boshqa badiiy vositalarni turkiy til orqali boyitgan. Uning asarlari tilning mahoratli ishlatilishi, uslubiy xilma-xillik va adabiy tilni boyitish borasida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur Alisher Navoiydan so‘ng o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida juda katta rol o‘ynaydi. Bobur ko‘pincha oddiy kishilar va o‘z askarlari orasida bo‘ldi. Bu esa uning xalqning sodda, ayni paytda boy tilini o‘rganishga va o‘z navbatida asarlari tilining jozibali bo‘lishiga olib keldi. Bobur til san’atini shu darajada chuqur egallaganki, go‘yo uning g‘azallaridan o‘ziga xos musiqa ovozi sizib turadi. Mana besh asrdirki, uning g‘azallari hamon qalbni titratadi, oshifta dillarni qitiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi va adib, balki o‘zbek adabiyoti va tilshunosligiga katta hissa qo‘shgan olim hamdir. Uning turkiy tilni rivojlantirishdagi o‘rni, lingvistik tajribalari va ko‘p tillilik madaniyatiga qo‘shgan hissasi uni tilshunoslik tarixida alohida o‘ringa ega shaxs sifatida tanitadi.

Adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2018. Boburnoma. –Toshkent: Fan.
2. Qudratullayev, H.1983. Boburning adabiy-estetik qarashlari. –Toshkent: Fan.
3. Hasanov, S. 1986. Boburning “Risolayi aruz” asari. –Toshkent.
4. Zohidov, V. 1960. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnoma. –Toshkent.
5. Nazarova, X. 1980. “Boburnoma” tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. –T.
6. Muhammadiyeva, D. The semantic classification of phrases in “Baburname” and problems of their transfer in Turkish translations. URL: https://www.researchgate.net/publication/343578961 (Murojaat etilgan sana: 19. 09. 2024)
7. Muhammadiyeva D. Boburnomadagi o'lim va umr konseptl iparemiyalar xususida. URL:https://www.researchgate.net/publication/357899166 (Oxirgi murojaat qilingan sana:15.09.2024)
8. Muhammadiyeva D. Semanticeskaa klassifikacia frazem v Baburname. URL https://www.researchgate.net/publication/355780029 (Oxirgi murojaat qilingan sana: 18.09.2024)
9. Xayriddin Sulton. 1996. Boburiynoma. –Toshkent.
10. G‘ofurova Sh. 2021. “Boburnoma” asaridagi tilga oid ilmiy-badiiy topilmalar. Ilmiy maqola.
11. O‘razova I. Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi. [Internet manba]. URL: https://zenodo.org/records/11108578 (Murojaat etilgan sana: 17. 09. 2024)

Yosh avlodning nutqiy salohiyatini oshirishda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining ahamiyati
The significance of Zahiriddin Muhammad Babur's creation in improving speaking competence of the young generation

Rayxon RASULOVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi nutqiy madaniyatga doir masalalarga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: *so'z qudrati, nutqiy madaniyati, yozma nutq, davr, muhit, ijod, badiiy mahorat, vatanparvarlik, yoshlar dunyoqarashi, insonparvarlik.*

Annotation: This article is devoted to the issues of speech culture in the education of the young generation of the works of Zahiriddin Muhammad Babur.

Key words: *the power of speech, culture of speech, written speech, epoch, environment, creativity, artistic skill, patriotism, youth worldview, humanism.*

Jahon tarixida o'chmas iz qoldirgan betakror siymolardan biri, buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatining o'zi ko'p qirrali bo'lib, hayoti davomida qilgan ishlarining o'zi biz uchun muhim darslik sifatida xizmat qiladi. O'quvchilarni ona zaminga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari bilan tarbiyalash, eng avvalo, ajdodlar merosini o'qitish hamda u zotlarning shonli hayot yo'llarini o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Yosh avlodni kamol toptirishda ma'naviy meroslarimizning xizmati naqadar ulkan bo'ladi. Ta'limda asosiy vazifalardan biri o'quvchilarning o'z ona tiliga muhabbatini, jumladan, nutqiy salohiyatini oshirib, o'qish savodxonliklarini o'stirishdir.

Zahiriddin Muhammad Bobur avlodni savodli va o'qimishli qilish maqsadida o'zining benazir ishlari bilan o'chmas iz qoldirgan betakror siymodir. Millatimizning ma'naviy olamini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g'oyalari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan benazir mutafakkirdir. Buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur umumbashariyat madaniyati xazinasidan munosib o'rin olgan o'lmas asarlari bilan vatanparvar inson timsolini yaratib, xalqimizga noyob meros qoldirib ketdi. Ham adabiy va ilmiy asarlari, ham go'zal insoniy fazilatlari bilan barchaga o'rnak bo'lib kelayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning rang-barang ijodi barcha siyosatu rayosatlardan ustun kelib, vaqt atalmish oliy hakamni ham o'z izmiga bo'ysundirganligi, dunyodagi eng oliy mo'jiza – So'z qudratini va uning go'zal o'zbekona ifodasini umumbashariyat mulkiga aylantirganligi rad etib bo'lmas haqiqatlardan hisoblanadi.

[1] *Rayxon Rasulova* – Chirchiq davlat pedagogika universteti o'qituvchisi Rasulova1971@internet.ru

Shu bois, ma’naviyatning umrboqiy sarchashmalariga doimiy ehtiyoj sezadigan bashariyat farzandlari bugungi kunda ham Zahiriddin Muhammad Boburning o‘lmas satrlarida tajassum topgan hayotiy hikmatlardan ko‘proq bahramand bo‘lishga harakat qiladi. Bobur ijodidagi:

- **“Davlatqa yetib mehnat elin unutma”[**Х.Султон 2019:418], degan purhikmat satrlarining o‘ziniyoq inson qalbiga naqsh etib qo‘ysa, aslo ziyon qilmaydi.

Mana shunday ulug‘ yo‘lni mutafakkir va buyuk sarkarda bobomiz mashaqqatlarga to‘la hayot yo‘llari hamda yaratgan durdonalari orqali jasorat bilan bosib o‘tti. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi misolida o‘zbek adabiyoti tarixining muhim qismi bo‘lgan temuriy shahzodalarning toju-taxt uchun kurashgan davri adabiyotida odob-axloq, vatanparvarlik tarbiyasining muhim jihatlari yoritilgan. Holbuki, Vatan timsoli va uning ravnaqiga xizmat qilish, shu asosda barkamol shaxsni tarbiyalash o‘sha davrda kamdan-kam yoritilgan, lekin hazrati Bobur ijodida kun tartibiga keskin qo‘yilgan edi. Zero, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodining bosh g‘oyasi ham vatanga, millat ravnaqiga o‘z jonini tikib bo‘lsa-da, xizmat qilishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Ona yurtidan ayriliqdagi bir daqiqasi ham tatimaganini o‘tli satrlar ila yoritib ketilgan:

Ulki oylar, yillar o‘tkirgay g‘am bila, motam bila,
Shodu xurram bo‘lmagay navro‘z ila, bayram bila.
Ulki davronning ayog‘idin damo-dam qon yutar,
Nash’a topmas gar ichar har davr jomi Jam bila.

Vatandan ayro tushgan yillari o‘zini qanchalik yolg‘iz his etishiga qaramay, ona yurtiga xiyonat qilmadi, o‘z yurtini yana zabt etishga jazm etolmadi. Necha bor chog‘landi, bir lahza ham unutolmadi. Yillab qulay fursat kutti. Fursat yetganda esa jur’at etmadi. Kindik qoni tomgan yurtlarni, eslaganda yuraklari tutdek to‘kiladigan jannatmonanad o‘lkasini qon bilan sug‘orish mumkinmi? Ota-bobolari mozorini fil oyog‘i ostida chil-parchin qila oladimi? Bundan ne naf – shon-shavkatu farog‘at topa oladimi? Maqsadimga yetdim deya el-ulus yodida sazovori la’nat bo‘lib eslanmaydimi? Yo‘q bundog‘ qaltis tavakkal uning ilgidan kelmas[Х.Султон 2019.438]. Vatandan ayro tushganiga yarasha farzandlari mehr-muruvvatli, andishali, saxovatpesha bo‘lsinlar. “*Humoyunga shuni uqtirmoq kerakkim, inilari bilan hamisha bahamjihat maosh qilg‘ay, chunki ulug‘lardan doimo ko‘tarimlik, kengfe’llik lozim”[*Х.Султон *2019.439],* deya farzandlarining tarbiyasi uchun qayg‘uradi.

Yoshlarning ta’lim-tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, shu o‘rinda buyuk bobokalonimiz shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyati, asarlarining o‘quvchilar ta’lim-tarbiyasidagi nutq madaniyatiga ahamiyati haqida ham to‘xtalib o‘tish o‘rinli. Insonning go‘zal va mantiqli nutqiga qarab uning

ma’naviyatini hamda dunyoqarashini belgilash mumkin. Shunday ekan yosh avlod nutqiga e’tiborni kuchaytirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bunday muammolarni bartaraf etishda barcha chora-tadirlarni qo‘llash talab etiladi. Nutqni go‘zal, mantiqli va sermazmun qilishda bobomiz Z.M.Bobur qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Humoyunni bir qarich chog‘idan doim oldida olib yuradi, o‘zi bilgan va bilmagan jamiki ilmu-hunarga, fayzu-fazilatga o‘rgatadi, Tangri inoyati birla, inshooloh, komil bo‘ldi deb hisoblardi. Lekin baribir nimadir xotirida faromush bo‘libtur. Yigirma yoshda ham hanuz sabiy! Farzandining boshdan-oyoq takalluf bilan yozilgan, dabdabadan xoli biron jumlani ham topish mushkul bo‘lgan maktublarini o‘qir ekan, sovun ko‘pigidek omonat, puch so‘zlar bilan oq qog‘ozni qora qilmoq oriflar ishi emas deb hisoblaydi. Yozgan maktublaridan ko‘ngli to‘lmaydi. Zebu-jilo ila to‘lib toshgan nomayu-farmoyishlarni tez-tez taftish qilib turadi. Ularning har bir harakatini, hatto yozgan maktublarigacha befarqlik qilmadi. *“…bu xatlaringni bitibsen va o‘qimaysen, ne uchunkim, agar o‘qur xayol qilsang edi, o‘qiyolmas eding, deya tashvishlanadi, - o‘qiyolmaganingdan keyin, albatta tag‘yir berur eding. Xatingni xud tashvish bilan o‘qusa bo‘ladur, vale asru mug‘laqdur. Nasri muammo hech kishi ko‘rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xeyli rost bo‘lsa, iltifotni “alif” bilan bitibsen. Qulunjni “yo” bilan bitibsen. Xatingni xud har tavr o‘qusa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsud tamom mafhum bo‘lmaydur. G‘olibo xat bitirda kohilliging ham ushbu jihattandur. Takalluf qilay deysen, ul jihatttin mug‘laq bo‘ladur. Bundan nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti; ham senga tashvish ozroq bo‘lur, ham o‘qug‘uvchiga….*”[1.442]. Hazrati Bobur ayb faqat o‘g‘lida emasligini sezadi, chunki turkigo‘y elning so‘zlari va talaffuzi arab imlosida to‘kis mujassam topa olmasligini allaqachon anglagan edi. Shu sababli turk xalqlari uchun mukammal bir xatga ega bo‘lish maqsadida soddalashtirilgan imloni kashf etadi va “Xatti Boburiy” deb nomlaydi. Avlodlarining ilm olishi, xat-savodini chiqarishni soddalashtirishni istab jon-jahdi bilan urinad, lekin tinimsiz qarshiliklarga uchraydi. O‘zi haqida, boshidan kechigan voqealar haqida hech qaysi adib hazrati Bobur singari avlodlarga bir ma’naviy meros sifatida yozib qoldirmagan. Buni Boburning o‘zi ham bilgandek:

Har vaqtki, ko‘rgaysen mening so‘zimni,

So‘zimni o‘qub, anglag‘aysen o‘zumni[1. 459].

Deb avlodlarga vasiyat qilib ketgandek go‘yo. Ushbu tahlillar Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bilan bog‘liq tarixiy, adabiy-badiiy manbalar vositasida umumta’lim maktablaridagi adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy savodxonligini shakllantirish alohida tadqiqot muammosi sifatida o‘rganilishini taqozo etadi.

Bobur shaxsiyatining o‘zi ko‘p qirrali bo‘lib, o‘zining “Boburnoma” asarida buni tom ma’noda isbotlab bera olgan. Bizga ma’lumki, “Boburnoma” qomusiy asar bo‘lib, undan juda ko‘p ma’lumotlarni olishimiz, shuning barobarida o‘sha davr haqida kerakligicha tasavvur hosil qilishimiz mumkin.

Bobur Mirzo adabiyotni teran tushungan, xalq maqollarini juda yaxshi bilgan, shu sababdab ularni o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlata bilgan. “Boburnoma”da juda ko‘p maqollar, hikmatli so‘zlar ishlatilgan. Bu haqida adabiyotshunos olim V. Zohidov shunday degan edi: “Bobur ularni muvaffaqiyatli ravishda tanlaydi, predmetning mohiyati va katta ijtimoiy masalalar bilan bog‘laydi. Shunday qilib, ulardan ko‘pincha, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim xulosalar chiqaradi”.

“Boburnoma”da xalq maqollaridan juda unumli foydalanganini asar mutolaasida ko‘rib guvohi bo‘lamiz. Jumladan, “Inonmag‘il do‘stingga, somon tiqar po‘stingga”,“Dushman ne demas , tushga ne kirmas”, “Teng bo‘lmaguncha to‘sh”, “On guzarro ob burd”, (“U kechuvni suv olib ketgan “), “ Uzrash badtar az gunoh” (“ Tavbasi gunohidan yomonroq”), “Qochg‘on yog‘i ko‘p bo‘lsa ham oz qovg‘unchi bila chehra bo‘la olmas nechukkim debturlar: “Safi mag‘lubro xus basandast” (Yengilgan safga bir “joy kifoyadir”) “Xotirg‘a kechtikim, ul masal borkim, “gah yozdah beh, gah nuh” (Goh o‘n bir yaxshi, goh to‘qquz).

“Boburnoma”dagi maqollarni o‘rganish jarayonida biz xalqimiz ma’naviyati sarchashmasidan yana bir bora bahramand bo‘lamiz. Har qanday nutqni, avvalo, ta’sirchan hamda jozibali qilishda hikmatli so‘zlar va maqollarning o‘rni kattadir. Bunday noyob durdonalarning bugungi kungacha saqlanib qolishi va avlod bahramand bo‘lishida Zahiriddin Muhammad Boburning xizmatlari beqiyosdir. Shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, Bobur ijodini o‘rganish o‘quvchilar tarbiyasida muhim ahamiyatga molikdir.

Adabiyotlar

1. Бобурийнома [Матн]. 2019. Маърифий роман / Х.Султон. – Тошкент: “Маънавият”.
2. V.Zohidov. 1960. Boburning faoliyati va adabiy-ilmiy merosi. “Boburnoma”. – Toshkent.
3. Z.M.Bobur. 1960. “Boburnoma”. –Toshkent.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2018. *Boburnoma.* V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jayeva tabdili. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
5. Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси. 2017. –Тошкент:Шарқ.
6. Қудратуллаев, Ҳасан. 2018. Бобурнинг адабий-эстетик олами. –Тошкент: Ma’naviyat.

Zahriddin Muhammad Bobur adabiy- ilmiy merosining filologik aspekti
Philological aspect of the literary and scientific heritage of Zahriddin Muhammad Babur

Charos TOSHQULOVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqola “Shoh va shoir” deya ta’rif berilgan Zahiriddin Muhammad Boburning serqirra va boy ijodiy merosini o‘rganish orqali uning nafaqat hayoti va ijodi balki shoir, tarixchi va tabiatshunos sifatida ko‘p qirrali merosiga e’tibor qaratadi. Ushbu izlanish Boburning ham adabiy merosga, ham ilmiy bilimlarga qo‘shgan hissalarini chuqurroq anglash imkonini beradi, uning ijodining mintaqaning intellektual tarixiga doimiy ta’sirini aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: *ijodiy meros, Boburnoma, ulus, solnoma, Shayboniyxon*

Abstract: This article focuses on Zahiriddin Muhammad Babur’s multifaceted legacy as a poet, historian and naturalist, and not just his life and work, by studying his prolific and rich creative heritage, described as “a poet and poet”. This search allows for a deeper understanding of Beaver’s contributions to both literary heritage and scientific knowledge, reflecting the continuing influence of his work on the intellectual history of the region

Key words: *creative heritage, Boburnoma, nation, calendar, Shaybani Khan*

Dunyoning qaysi burchiga bormang, ajdodlarimiz merosiga ro‘baro kelasiz. Ayniqsa, XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy muhit, jahon tamaddunida alohida sahifa bo‘lib qoldi. Sohibqiron Amir Temur barpo etgan buyuk saltanatda ilm-ma’rifat, riyoziyot, astronomiya, adabiy muhit yanada ravnaq topdi. Temuriy shahzodalarning ilm-ma’rifatga katta e’tibor qaragani tarixdan ma’lum. Astronomiya va falakiyotshunoslikda Mirzo Ulug‘bek o‘zidan katta meros qoldirgan bo‘lsa, Temuriyzoda Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zbek mumtoz adabiyoti, jug‘rofiya, tarix voqeligini muhrlashda katta mavqega erishdi. Ulug‘ bobomizning sertashvish hayoti va jo‘shqin faoliyati siyosiy jihatdan inqirozga uchragan Temuriylar davlatining so‘nggi davriga to‘g‘ri keldi. Bobur Mirzo chekiga inqirozning barcha azob- uqubatlarini boshdan kechirish tushgandi. Uning ruboiy va g‘azallarida akslantirilgan holatlarda ham ana shu ruh yaqqol bayon etilgan.

Ishqingda ko‘ngil xarobdur men ne qilay?
Hajrinda ko‘nglim parobdur men ne qilay?
Jismim aro pech-u tobdur men ne qilay?
Jonimda ko‘p iztirobdur men ne qilay?[1]

[1] *Charos Toshqulova* – O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti, Xorijiy Til va Adabiyoti

Sharqning o‘rta asrlardagi taniqli fan va madaniyat arboblari orasida alohida o‘rin tutgan Zahiriddin Muhammad Bobur - «Boburnoma» deb nomlangan ajoyib asar muallifi. Bobur iqtidorli yozuvchi, san’at, adabiyot , va geografiya fanlarini yaxshi biluvchi , o‘ziga xos dunyoqarashga ega bo‘lgan, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston hamda Hindiston xalqlarining hayotida muhim iz qoldirgan shoh va shoir. O‘zining ajoyib qobiliyati tufayli nafaqat qo‘mondon, hukmdor, olim va shoir, Hindistonda Boburiylar sulolasining asoschisi bo‘lgan Bobur, balki fiqh bilimdoni sifatida ham musulmon huquqshunosligi sohasida boy ijodiy adabiy va ilmiy meros qoldirdi. U asl lirik asarlarini g‘azallar, tuyuqlar; islom huquqi to‘g‘risidagi risolalar (Mubayyin), nazmda (Aruz risolasi), musiqa, harbiy ishlar , shuningdek, «Xatti Boburiy « alifbosini yozib qoldirgan buyuk alloma[2].

Ulug‘ alloma Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukalar, tog‘a-jiyanlar, amakivachchalar o‘rtasida hokimiyat – ulug‘ bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi. Adabiyot, nafis san’at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvish yoshligi uzoqqa cho‘zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshida otasi o‘rniga Farg‘ona ulusining hokimi etib ko‘tarilgan Bobur qalamni qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amakisi Sulton Ahmad Mirzo, tog‘asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo‘ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga — Farg‘ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qilda va o‘zi Samarqand uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg‘in-barotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo‘li baland keldi va Bobur Mirzo bobomiz Samarqandni tashlab ketishga majbur bo‘ldi. 1504-yili Shayboniyxon Andijonni ham qo‘lga kiritgandan so‘ng, Bobur janubga qarab yo‘l oldi va Kobul ulusida o‘z hokimiyatini o‘rnatdi. 1505-1515-yillarda u Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko‘rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So‘ng o‘z mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519-1525-yillar davomida Hindistonni qo‘lga kiritish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526-yil aprel oyida Panipatda Hindiston sultoni Ibrohim Lodiy bilan va 1527-yili mart oyida Chitora hokimi Ra’no Sango bilan bo‘lgan janglarda Bobur Mirzoning qo‘li baland keldi. Tarixiy ma’lumotlarning bayon qilishicha, Bobur Mirzoning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo‘lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo‘llaganlar va Sikri jangidagi bu g‘alaba Bobur Mirzoga Hindistonda o‘z hukmronligini uzil-kesil o‘rnatish va Boburiylar sulolasini barpo

etish imkoniyatini berdi. Ovro‘po tarixchiligida “Buyuk mo‘g‘ullar” nomi bilan “g‘alati mashhur” bo‘lgan, aslida “Boburiylar sulolasi” Hindistonda 300-yildan ortiq hukmronlik qildi. Ulug‘ bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo bu g‘alabadan keyin uzoq yashamadi-1530-yil dekabr oyida, Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko‘ra farzandlari uning xokini Qobulga olib kelib dafn etdilar.

Lekin qisqa vaqt ichida bobomiz Bobur Mirzo Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish bog‘-rog‘lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo‘lgan me’moriy yodgorliklar, bog‘lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o‘g‘illari va avlodlari davrida keng miqyosga yoyildi. Hindiston san’ati va me’morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur Mirzo va uning hukmdor avlodlari huzurida o‘sha davrning ilg‘or va zehni o‘tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblarini mujassam etgan mukammal bir ma’naviy-ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javaharla’l Neru shunday yozgan edi: “Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag‘batlantirishlar hayotga, san’atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi”[3].

“Boburnoma” shoh asarida Bobur yashagan davr oralig‘ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari tarixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi XV asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyoda ro‘y bergan voqealarni, ikkinchi qismi XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida Kobul ulusi, ya’ni Afgonistonda ro‘y bergan voqealarni uchinchi qismi XVI asrning birinchi choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag‘ishlangan. “Boburnoma”da o‘sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o‘z yurti Farg‘ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O‘sh, Urganch, O‘ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma’lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G‘azna va ular ixtiyoridagi ko‘pdan ko‘p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston xaqida ma’lumotlarni uchratish mumkin. «Boburnoma»ni varaqlarkanmiz, ko‘z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindiston xalklariga xos bo‘lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamini kengligi va murakkabligi bilan birga, o‘sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to‘liq manzarasi namoyon bo‘ladi. “Boburnoma”da keltirilgan bu tarzdagi ma’lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif “Boburnoma”da

Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Ulug‘bek Mirzo va boshqa allomalar haqida o‘zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi. “Boburnoma” Movarounnahr. Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o‘zida aks ettirgan bo‘lsa ham, shu bilan birga juda ko‘p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o‘zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug rofiy mavqei, iqlimi, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tog‘lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf- odatlari, muhim tarixiy inshootlari hindular va musulmonlarning ibodatxonalari, to‘y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma’lumotlarni o‘ziga qamrab olgan asardir[4].

Madaniyat va turizm vazirligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi hamda jamoatchilik vakillarining 2023-yilda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi.

Shuningdek bir hafta muddatda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini nishonlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlasin. Ushbu dasturda quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratilsin: mamlakatimizdagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan bog‘liq obida va qadamjolarni, jumladan yodgorlik majmualarini ta’mirlash va ularning hududlarini obodonlashtirish; Bobur Mirzo merosiga mansub qo‘lyozma, qadimiy kitoblar, san’at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli darajada saqlash uchun zarur sharoit yaratish, xorijiy mamlakatlarda saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti, ilmiy-ijodiy merosi hamda u yashagan davrga oid noyob qo‘lyozma asarlar va boshqa madaniy boyliklarni aniqlash, ularning nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish va tadqiq qilishni davom ettirish; kabi ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichidagi bu katta yutuqlar O‘zbekistonni dunyo bobur shunosligining markaziga aylanishiga xizmat qildi. Bobur hayoti va ijodi bilan xalqimizga ma’nan yaqinlashdi. Barcha bajarilgan ishlarning solnomasi sifatida mamlakatimizda ilk bor shaxsga nisbatan qomus, ya’ni “Bobur ensiklopediyasi” yaratildi. 64 bosma toboqli bu ulkan ensiklopediyani yaratishda o‘zbek bobur shunos olimlari qatorida Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Afg‘oniston va yevropalik olimlar ham faol ishtirok etishdi. Bobur ijodini qirq yildan beri o‘rganib kelayotgan yaponiyalik bobur shunos olim Eyji Mano ensiklopediyaga “butun dunyo bobur shunoslari uchun muhim qo‘llanma bo‘ladi” deya baho berdi[5].

Adabiyotlar:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/zahiriddin-muhammad-bobur-ijodida-hayot-bor/viewer

2. Aripova, A. 2020. Study of the scientific and literary heritage of Zahiriddin Muhammad Bobur // Scientific Bulletin of Namangan State University.

3. https://oliymahad.uz/42114

4. Naraliyeva, D. 2022. “Shoh, shoir, olim, sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zbekiston tarixida tutgan o‘rni va roli” . Science and innovatsion international scientific journal. 165- 170. doi.org/10.5281/zenodo.6483962

5. https://cyberleninka.ru/article/n/zahiriddin-muhammad-boburning-ilmiy-ijodiy-merosining-milliy-madaniyatimiz-va-xalqimiz-adabiy-estetik-tafakkurining/viewer

Begali Qosimovning Bobur haqidagi tadqiqotlari
Begali Kasimov's research on Babur

Mohigul ERGASHEVA[1]

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davridan to bugunga qadar olimlar e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelayotgan ijodkorlardan biri sanaladi. Olimlarimiz har bir tadqiqotlarida adib asarlarining yangi-yangi qirralarini kashf qilmoqdalar. Ushbu maqolada adabiyotshunos Begali Qosimovning Z. M. Bobur haqidagi tadqiqotlari tahlilga tortilgan. Maqolaning kerakli o‘rinlarida olimning shaxsiy arxiv ma’lumotlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar*:* *Bobur, Qozon, maktub, shoh, shoir, ijodkor, g‘azal, ruboiy, uyg‘onish davri.*

Abstract: Zahiriddin Muhammad Babur is considered one of the artists who has been attracting the attention of scientists since his time. Our scientists discover new aspects of literary works in each of their studies.In this article, literary critic Begali Kasimov’s research on Z.M. Babur is analyzed. Personal archival indormation of the scientist was used in the necessary places of the article.

Keywords: *Bobur, Kazan, letter, the king, a poet, creative, ghazal, rubai, renaissance period.*

Zahiriddin Muhammad Bobur nomi insoniyatning yorqin va so‘nmas yulduzlaridan biri sifatida atrofga ezgulik oliyjanoblik nurini sochib kelmoqda. Begali Qosimov Bobur haqida to‘xtalar ekan shunday deydi: “Tarix va madaniyat kishilari ham bir qarashda yulduzlarga o‘xshaydilar. Ayrimlari bir muddat yarqirab turadi-yu, so‘ng izsiz so‘nadi. Ba’zilari uncha nurli bo‘lmasalar-da, uzoq muddat siz bilan hamroh bo‘ladilar. Ayrimlari esa ham yorug‘, ham so‘nmas. Lekin ular u qadar ko‘p emaslar. Shuning uchun ham ko‘zga tez tashlanadilar. Boburning hayoti va taqdiri mana shu uchinchi turkum yulduzlarga o‘xshaydi” [Қосимов, 2022:326]. Begali Qosimovning Bobur haqidagi tadqiqotlari quyidagicha nomlangan.

1. So‘nmas yulduz.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510-yilligi. Ushbu taqdiqot 1993-yilda e’lon qilingan.
3. Buyuk xotira.
4. Boburning o‘g‘li Komronga maktubi [Қосимов, 2022: 335].

[1] *Mohigul Ergasheva* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

Olim nomdagi tadqiqotlarni yaratar ekan, o‘z oldida bir qancha ilmiy muammolarni qo‘yadi va ishonli dallilar bilan mazkur masalalarning ilmiy isbotini mantiqli asosga qurib tushuntiradi. Begali Qosimov Boburni shoh va shoir sifatida tadqiq qilar ekan quyidagi masalalarga ahamiyat beradi:

A. Bobur umrining shamolday tez, yashinday shiddatli kechgani boisini tushuntiradi.

B. Uyg‘onish davri hukmdori sifatidagi o‘rniga munosabat bildirdi.

C. Ijodkor sifatidagi salmoqli va salobatli ijodi haqida to‘xtaladi.

D. G‘azal va ruboiy Boburning ijodida o‘zining yangi imkoniyatlarini namoyish etganligini o‘rgandi.

E. Boburning shaxs va ijodkor sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini kompleks tahlil qildi.

Shu bilan birga olimning yana bir tadqiqoti ham borki, bu Bobur haqidagi o‘zbek ilm faniga ma’lum bo‘lmagan, va 70 yillarda e’lon qilingan Boburning o‘g‘li Komronga maktubi. O‘tgan asrning 70-yillarida olim ilmiy-amaliy tashrif bilan Qozonga boradi. Mana shu safar paytida olim Qozon universiteti kutubxonasidan foydalanadi. Xuddi shu yerda hali o‘zbek ilm faniga ma’lum bo‘lmaga[n yuqoridagi qimmatli manbani topib, uni olib qaytadi. 1972-yili boshlangan safar olimning shaxsiy arxividagi ma’lumotlarga qaraganda taxminan 4 oy davom etgan. Begali Qosimov ayoli Matluba ayaga 1972-yil 6-sentabrda bir xat yozadi. Mazkur xatda olim Qozon universiteti kutubxonasi juda boy ekanligi haqida aytib, gazeta va jurnallarga obuna bo‘lib kelganini aytadi. Mirzo Boburning o‘g‘li Komronga maktubini ham xuddi, shu yerda ko‘rib, akademik Xatib Minnigulovning yordamida vatanga olib keladi. Olim bu haqida: “ 1972-yili Qozon dorulfununi kutubxonasida saqlanayotgan o‘zbek adabiyoti namunalarini ko‘zdan kechirar ekanmiz, daf’atan Boburning o‘g‘li Komronga yozgan xatiga duch kelib qoldik”[Қосимов, 2022:368]. Olib kelingan manbani izohlar bilan matbuotda e’lon qiladi. Olimning shaxsiy arxivida mazkur maktub, umuman Qozonga tashrif munosabati bilan saqlanayotgan ishlar ikkita (bu biz ko‘rganimiz aslida undan ham ko‘p bo‘lishi mumkin). Bundan tashqari shu davr mobaynida safar xotiralari yozilgan, ayoli Matluba ayaga jo‘natgan xatlar ham bor.

1. Yig‘ilgan holida papkaga joylangan va umumiy Qozon safari va u yerda olingan ma’lumotlar.

2. Bevosita, Mirzo Boburning o‘g‘li Komronga maktubidan parchalar eski yozuvda, olimning kundaliklarida.



(Begali Qosimov shaxsiy arxividan. Boburning o‘g‘li Komronga maktubidan parcha.)

Begali Qosimov ilmiy ijodida Bobur uning hayot yo‘li va asarlarining tadqiqi alohida ahamiyatli hisoblanadi. Sababi so‘zi, ishi nomiga munosib bo‘lgan xalqimizning bu mard va dono farazandi hali hanuzgacha o‘zining qadr qimmatini yo‘qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қосимов, Б. 2022. Танланган асарлар. 2 жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом .
2. Қосимов, Б. 1986. Салом келажак. Тошкент: Ғафур Ғулом.
3. Бегали Қосимов шахсий архив маълумотлари.

Bobur shunos olim Vahob Rahmonovning matnshunoslikdagi ilmiy izlanishlari va “Bobur izidan” ekspeditsiyasidagi qimmatli topilmalari

The scientific research of the scholar Vakhob Rahmonov in textual studies and the valuable discoveries of the following “in the footsteps of Babur”expedition

Mahbuba QARSHIYEVA[1]

Annotatsiya: Maqola Sirdaryo adabiyotshunoslik maktabining yetuk vakili manbashunos, matnshunos, adabiyotshunos, tarjimon, metodist olim Vahob Rahmonovning matnshunoslik sohasida qilgan ilmiy kuzatuvlari, amaliy ishlari tadqiqiga bag‘ishlangan. Unda olimning mazkur sohadagi yutuqlari, matnshunos-tadqiqotchining milliy adabiyotimizdagi xizmatini baholashga qaratilgan va yuqoridagilar tahlil qilingan. Olim Xalqaro “Bobur izidan” ekspeditsiyasi tarkibida 2009-2010-yillarda faol ishtirok etgan. Nashr etilgan qo‘llanma va maqolalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, Matnshunoslik faoliyati, tarjimachilik faoliyati, lug‘atchilik faoliyati, adabiyotshunoslik faoliyati, (Olimning navoiyshunoslik, bobur shunoslik faoliyati hamda mumtoz poetikaga oid faoliyati) tabdilchilik faoliyati o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: manbashunos, matnshunos, adabiyotshunos, tarjimon, matn, tanqidiy matn, navoiyshunoslik, bobur shunoslik.

Abstract: The article is dedicated to the scientific observations and practical work of Vahob Rahmonov, a prominent representative of the Sirdaryo school of literary studies, who is a source researcher, text analyst, literary scholar, translator, and methodologist in the field of text studies. It focuses on the scholar's achievements in this field and evaluates the contributions of text researchers to our national literature. The scholar actively participated in the international expedition "In the Footsteps of Babur" from 2009 to 2010. The article includes information about his published manuals and articles. In particular, it explores his activities in text studies, translation, lexicography, and literary studies, as well as his work in Navoiy studies, Babur studies, and classical poetry.

Keywords: source researcher, text analyst, literary scholar, translator, text, critical text, Navoiy studies, Babur studies.

Vahob Rahmonov domlani taniydiganlar matnshunoslik sohasining jonkuyari va mehnatsevar inson sifatida bilishadi. U kishining samarali mehnatlari tufayli bir

[1] *Mahbuba Qarshiyeva* – Guliston shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi, Sirdaryo viloyati Guliston shahri Email: qarshiyevamahbubaa@gmail.com

qancha o‘zbek adabiyotining noyob durdonalari amaldagi yozuvda soha kishilari qo‘liga yetib borgan. Ko‘p ham uzoqqa bormasdan 2019-2021-yillarga nazar tashlasak, o‘zbek mumtoz adabiyoti asarlarining ellikdan ortiq namunalariga mas’ul va maxsus muharrirlik qilganliklarini, 20 dan ortiq mumtoz asarlarni nashrga tayyorlagan va bir qanchasiga mas’ul muharrirlik qilganligini ko‘rish mumkin. Olim bunday katta mehnatni amalga oshirishida ko‘p yillik tajribalari qo‘l kelgan.

Bobur shunoslikning ham bir necha jabhasida ilmiy izlanishlar olib bordi. Tabdilchilikda: “Boburnoma”ni Karomat Mullaxo‘jayeva bilan hamkorlikda hozirgi o‘zbek adabiy tiliga o‘girgan (2008, 2013). Bobur shunoslikning manbashunoslik va matnshunoslik sohasidagi ishlari: “Bobur “Tanlangan asarlar” (1976, 1983)ini Narimon Hotamov bilan birga nashrga tayyorlagan; Bobur tavalludining 525 yilligiga bag‘ishlab Boburning “G‘aribing andijoniydur” devonini nashrga tayyorlagan; “Bobur ensiklopediyasi”da uning yuzga yaqin maqolalari bosilgan (– Toshkent: Sharq, 2014).

V.Rahmonovning poetika, navoiyshunoslik va bobur shunoslik sohasidagi maqolalari nashr etilgan kitoblarining so‘zboshilari sifatida, “Sharq yulduzi”, “O‘zbek tili va adabiyoti”, “Fan va turmush”, “Guliston”, “Mushtum”, “Muloqot”, “Til va adabiyot ta’limi” jurnallari, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Ma’rifat”, “Sohibqiron yulduzi”, “Yozuvchi”, “Sirdaryo haqiqati”, “Xalq so‘zi”, “Hurriyat”, “Milliy tiklanish” kabi jurnal va gazetalarda yoritilgan.

Ustoz Vahob Rahmonov jonkuyar inson bo‘lganligi bois matnshunoslik sohasidagi kamchiliklar va nuqsonlarga befarq bo‘la olmaydi. Chunki bunday xatoliklar asliyatdagi mazmunga putur yetkazishi mumkin. Vahob Rahmonov domlaning Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami” yigirma jildligidagi matniy xatoliklar haqidagi “Ma’rifat” gazetasida bosilgan “Mumtoz adabiyotimizning eng muhtasham qasri” deb nomlangan katta maqolasi ham shu mazmundagi tadqiqotlaridan biri edi. Ushbu maqolada bu kulliyotning har bir jildida mingdan ortiq nuqsonlar borligi xususida so‘z boradi. Navoiy asarlari yigirma jildligining ushbu nashri yaroqsizligini “da’vo qilgan” olim namuna ko‘rsatish uchun daho shoirning oltita dostonining ilmiy tanqidiy matnlarini nashrga tayyorlab, “Xamsa”ning besh dostoni va “Lison ut-tayr”ni 2006-2009-yillarda ikki marotaba G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda chop ettirgan.

V.Rahmonov matnshunoslik sohasidagi faoliyatini ikki yo‘nalishda: o‘zi matn tayyorlash va boshqalar tayyorlagan matnlarni tahrir qilish (maxsus va mas’ul muharrirlik) bilan olib borgan. Uning tahriri ostida ellikka yaqin mumtoz adabiyot namunalari nashr etilgan.

Vahob Rahmonov mohir tarjimon hamdir. U 1983-yilda Murod Hamroyev bilan hamkorlikda “Bilol Nozim she’riyatidan” kitobini uyg‘ur tilidan tarjima qilgan. V.Rahmonov Boburning xolavachchasi Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi

Rashidiy” nomli tarixiy-adabiy kitobini Yanglish Egamova bilan birga fors tilidan tarjima qilgan.

Olim ko‘p qirrali ijodkor. U ilmiy metodologiya sohasida ham jiddiiy fikrlarni ayta olgan. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 1991-yil 9-fevral sonidagi “Farididdin Attor va Alisher Navoiy” nomli maqolasida va o‘sha yili nashrga tayyorlab chop ettirgan A.Navoiy “Lison ut-tayr” dostoniga yozgan kirish so‘zi “Ko‘ngillar hamrozi”da ustoz shunday yozadi:“Inqilobdan keyingi va turg‘unlik yillaridagi ilmiy metodologiya o‘zining ilmiy zaifligi bilan, haqiqatga nisbatan yolg‘onligi bilan juda uzoq yashadi“. Bu gap Istiqlol e’lon qilinmasidan 8 oy burun V.Rahmonov tomonidan matbuotda va kitobda dadil aytilgan fikrlar edi.

2008-yilda Bobur tavalludining 525 yilligi arafasida V.Rahmonov Bobur nomidagi Xalqaro jamoat fondi bilan hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘ya boshlaydi. Fond raisi Zokirjon Mashrabov V.Rahmonovdan Bobur devonini tuzishni va devon nomida uning qayerlik ekanligini ifodalashni iltimos qiladi. Shu tariqa Boburning “G‘aribing andijoniydur” nomli kitobi dunyoga keladi. O‘sha yili V.Rahmonov “Boburnoma”ning ruscha tarjimasidagi yuzlab xatoliklarni tuzatib, qayta tahrir etilgan nusxasini chop ettirdi (2008), “Boburnoma”ning o‘zbekcha tabdili, ruscha nashri, shuningdek, yuqorida eslatilgan “Devon” hamda boburshunoslikdagi boshqa xizmatlari uchun ustoz 2008-yilda Xalqaro Bobur mukofotiga sazovor bo‘ldilar.

V.Rahmonov Xalqaro “Bobur izidan” ekspeditsiyasi tarkibida 2009-2010-yillarda Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Haydar mirzo izidan Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston, Eron, Hindiston va Qozog‘istonning ko‘plab shaharlarida bo‘ladi. Zokirjon Mashrabov boshliq ushbu ekspeditsiya a’zolari Tojikistonning Mastcho tumanidagi Obburdon kentidan Bobur toshbitiklarini izlaydi. Shamtuch qishlog‘ining “Durust” qabristonidagi xarsangtoshlarning biridan V.Rahmonov arab yozuvida Bobur qo‘li bilan yozilgan quyidagi hujatni topadi:

Kofiro, mardumshikoro, yak zamon ohistatar,
K-ohui bechoraro tobi tiri turkon nest.
Hararu Bobur. In katabai miram Boburxon. 907-hijriy.

Mazmuni: Ey kofir, ey odam ovchisi, bir lahza shoshma,
Sho‘rlik ohu turklar o‘qiga bardosh berolmaydi.
Men Bobur yozdim. Bu amirim Boburxonning bitiklari. Hijriy 907-yil.

Ekspeditsiya a’zolari bu bayt 1502-yilda Boburning Samarqandni tashlab chiqib, Obburdonda g‘aribona yashagan paytlarida bitilgani tufayli, bundagi odam ovchisi Muhammad Shayboniyxonmikan degan mulohazalarga borishadi.

O‘sha topildiq va kashfiyotlarga boy ekspeditsiya safarida Dushanbe shahridagi arxeologiya muzeyidan yana to‘rtta Bobur dastxati bo‘lgan toshlar topilgan bo‘lib, ulardan birining matni “Boburnoma”da keltirilgan:

“Shunidamki, Jamshidi farruxsirisht” (Eshitganim borki, Jamshiddek nomdor) misrasi bilan boshlanuvchi toshbitikdir. Ushbu toshbitik yuzasidan V.Rahmonov o‘ziga xos kashfiyot qildi: Bu toshbitik yozilgan yil “Boburnoma”da 907-hijriy (1502) deb ko‘rsatilgan. Toshdagi tarixiy sana esa 917 (1512) bo‘lganligidan olim Bobur yoki “Boburnoma” kotibi kitobni yozish yoki ko‘chirishda o‘n yilga xato qilganligini aniqlagan.

Vahob Rahmonovning lug‘atchilik sohasidagi bilimdonligi va voqea sodir bo‘lgan joylarning jug‘rofiy holatini yaxshi bilishi uning yana bir kashfiyotni yuzaga chiqarishiga sabab bo‘ldi: “Boburnoma”da Andijonning sharqiy tomonidagi tog‘lar tubida qishda ming uylik karvonni qor ko‘chkisi bosgani va ikki kishigina qutulib qolgani haqidagi ma’lumot asarning ruscha (M.Salye), inglizcha (A.Beverij), yaponcha (Eyji Mano), qozoqcha (A.Qojabekuli) va boshqa o‘nlab tillardagi tarjimalarida uchraydi. Ularda “o‘y” – “odam” deb tarjima qilingan. Demak, yigirmaga yaqin tarjimonlar talqinida karvondagi 998 ta odam qor ko‘chkisi ostida qolgan. V.Rahmonov Andijon shahridagi tog‘lar past-pastgina tepalik yassitog‘liklar ekanligini hisobga olib va til tarixiga oid bilimlariga suyanib “o‘y” so‘zini tabdilda va ruscha tarjima tahririda “qoramol” tarzida kiritdi. V.Rahmonov talqinida 3-4 kishinigina qor ko‘chkisi bosgan, xolos. Bu hodisa Bobur tavalludining 525 yilligi kunlarida olimlar tomonidan yaxshi kutib olindi. Hatto Eyji Manoday buyuk boburshunos Zokirjon Mashrabovga yo‘llagan minnatdorchilik maktubida bu tahririy kashfiyotni eslatib, “Vahob – haq” deb qayd etganligi ham domlaning xorijdagi e’tirofidan dalolatdir.

Ushbu yubiley arafasida V.Rahmonov matnshunoslik sohasida yana bir tahririy yangilikni ilmiy jamoatchilikka manzur etdi. Bobur she’riyatining O‘zbekistondagi va Turkiyadagi barcha nashrlarida, I.Y.Steblevaning “Bobur g‘azallari semantikasi” kitobida ham Boburning bitta bayti quyidagicha yozilgan:

Ne yerda bo‘lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,
G‘aribingga tarahhum aylagilkim, anda jonidur.

V.Rahmonov o‘qishida esa:

Ne yerda bo‘lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,
G‘aribingga tarahhum aylagilkim, andijoniydur

tarzida nashr etildi. Xalqaro anjuman ishtirokchilari Andijon shahrida bu yangilikni mamnuniyat bilan qabul qilishdi.

Vahob Rahmonovning 2015-yilda “O‘zbekiston” nashriyotida dunyo yuzini ko‘rgan “Mumtoz so‘z sehri” kitobi uning turli yillarda matbuot sahifalarida e’lon qilingan va shaxsiy arxivida saqlanayotgan maqolalaridan iborat to‘plam bo‘lib, navoiyshunoslik, boburshunoslik va matnshunoslik yo‘nalishlarida bahs etadi.

Ushbu nashr, ayniqsa, bugungi kunda dolzarbligi ma’lum bo‘lgan matnshunoslik qismi bilan g‘oyat muhimdir. Chunki bunda matnshunoslik tarixi va

amaliyotidan muhim mushohadalar yuritilgan va matn tahririda kashfiyot darajasidagi yangiliklar ham kitobxonga taqdim etilgan.

“Umrimning qirq besh yili davomida muntazam matn tayyorlash, matn tahrir etish, matn tanqidi bilan shug‘ullandim. Hayotim mazmunini mumtoz adabiyotimiz namunalari nashrining sahihligida bildim va ellikka yaqin o‘zbek mumtoz adabiyoti asarlariga mas’ul muharrirlik qildim. Imkoni boricha asarlarni qo‘lyozmalarga solishtirib, nusxalarni qiyoslab matn haqiqatini yuzaga chiqarishga intildim”. Ko‘rinadiki, olim matnshunoslik sohasining haqiqiy mutaxassisi sifatida umrining deyarli yarim asrini shu soha taraqqiyotida baxshida etgan va ko‘plab asarlar matnining asliyatdan farq qilmagan holda kitobxonlar qo‘liga yetib borishiga erishgan. Shuningdek, matnshunos olim qo‘lyozmalar bilan ishlash jarayonidagi murakkabliklar, mashaqqatlarni, to‘g‘rirog‘i “igna bilan quduq qazish” jarayonini xususida o‘z tajribasi bilan o‘rtoqlashadi va bu sohaning naqadar ulkan mehnat talab qiluvchi yo‘nalishlardan ekanligiga e’tibor qaratadi: “Qo‘lyozma bilan ishlashda avval o‘z fahm-farosatim, aql-u idrokim, intuitsiyamni ishga solaman. Shu jarayonda ishning to‘qson foizidan ko‘nglim to‘ladi. So‘ngra qo‘lyozma yoki toshbosma manbalarga so‘zma-so‘z solishtirib chiqaman. O‘n foizlik qolgan tahrir ham nihoyasiga yetgach, yengil tortib, o‘z ishimdan biroz qoniqaman. Goho izlanish jarayonida qo‘lyozma, toshbosma yoki boshqa nashrlardan mazmun sahihligida ajoyib, kutilmagan bir so‘z chiqib qoladi-yu, mening bayt bo‘ylab chekkan talay riyozatlarimning barchasini yo‘qqa chiqaradi-qo‘yadi. Shu choq quvonchim cheksiz bo‘ladi! Chunki matn asliyati va haqiqati tantana qiladi-da!” O‘z sohasining bilimdoni bo‘lgan mutaxassisning mehnati natijasini ko‘rishi, samarasini his qilishi, o‘zining kichik kashfiyotidan bo‘lsa ham rohatlanishi chin ma’nodagi olimlargagina nasib etadigan baxt ekanligi yuqoridagi holatlar ifodasidan ayonlashgan.

Bunday tinimsiz mehnat va olimimiz ta’kidlagan kichik-kichik topilmalar olimni yanada ruhlantiradi. Ko‘proq mehnat qilishga undaydi. Shuning uchun matn tahririda yanada mas’uliyatli bo‘lib, bu mehnat zalvorini o‘z yelkasida, to‘g‘rirog‘i qalbida his etib ishlaydi. Bu jarayonda o‘zidan oldin qilingan tahrirlardagi xatoliklardan ajablanadi va tahrirchilardagi befarqlikdan aziyat chekadi: “Demak, har bir tahrir davomida bilim, idrok va tajribamni shu asar orqali o‘z imtihonimdan o‘tkazib olaman. Ayniqsa, qayta nashrlarni tahrir qilayotganimda yuzlab marotaba: “Nahotki nashrga tayyorlovchi olim shu nuqsonni yoki mantiqiy ziddiyatni sezmagan bo‘lsa?” deya afsuslanaman va buning sababini ham o‘zimcha topgan bo‘laman: nashrga tayyorlovchi yaxshi adabiyotshunos bo‘lsa-da, tajribasiz matnchi, uning mas’ul muharriri esa qo‘lyozmani o‘qimagan.

Ko‘plar buni farq etishmaydi. Mumtoz adabiyotning har qanday mutaxassisi matnshunoslik bilan shug‘ullanaveradi, deb hisoblashadi. Mumtoz matnni nashrga tayyorlashda yaxshi adabiyotshunosdan ko‘ra, menimcha, o‘rtamiyona matnchi

afzaldir” [https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/vahob-rahmonov-matnshunoslik-tajriba-intuitsiya-va-masuliyat.pg.4]. Matnshunoslik murakkab soha bo‘lganligidan unda shug‘ullanuvchi zo‘r adabiyotshunos bo‘lganidan ko‘ra o‘rtamiyona matnshunos bo‘lganligi afzalligi, shu soha bilan chin ma’nodagi mutaxassissi shug‘ullanganligi ma’qul ekanligini ko‘rsatadi.

Olimning mumtoz poetika nazariyasiga oid qarashlari o‘ta ahamiyati bo‘lib, shu haqidagi bir fikriga e’tibor qaratsak: “Yevropa adabiyotshunosligi olimlargagina kerak: tahlil uchun. Ilmi sanoe’ esa kitobxon, shoir va olimga birday zarur. O‘qituvchi she’r san’atlarin o‘rgatsa, o‘quvchida qadriyatlarimizga nisbatan hurmat va muhabbat ortadi. U mumtoz adabiyot saviyasiga qoyil qoladi” [Rahmonov, 4]. Jahon adabiyotshunosligi, xususan, badiiy tasvir vositalari bilan bog‘liq ilm bilan faqat shu soha mutaxassislari, ya’ni olimlargina shug‘ullanishar ekan, masalaning yaxshi tomoni shundaki, bizda esa barcha bu sohaga qiziqish bilan yondashadi. Undagi sir-asrorlarni o‘rganishga intiladi. Ya’ni, bizning yurtimizda badiiy san’atlar nazariyasi maktab, oliy ta’lim bosqichlarida ham alohida shaklda o‘rgatilishi fikrimizning isbotidir.

Vahob Rahmonovning navoiyshunos olim sifatidagi qarashlari uning o‘zligini anglash bosqichidan o‘tganligi bois tasavvuf olami, uning mazmun-mohiyati ifodasi bilan bevosita bog‘lanadi. Alisher Navoiyning “Lison ut tayr” dostoni talqini masalasida tasavvufdagi sulukning Haqqa yetishish bosqichlari tilga olinadi. Olim ushbu bosqichlarni zamonaviy ilm o‘rganish bosqichlari sifatida taqdim etadi: “Lison ut tayr”dostoni orqali Alisher Navoiy qanday diniy va dunyoviy masalalar band etgani bilan tanishasiz: Inson olamga kelgan ekan, hamisha talab yo‘liga kirishi, izlanishi, o‘z mahbubasi yoki sevgan kasbiga chin muhabbat bilan yondashuvi lozimligi, u haqida to‘g‘ri bilim hosil qilishi – ma’rifatli bo‘lishi kerakligi, kamolotga yetish zarurati kabi muhim masalalar sizni chuqur o‘ylantiradi. Shu ma’noda “Lison ut tayr”ni, bugungi kunimiz uchun, zamondoshlarimiz uchun zarur kitob degan mulohazadamiz” [Раҳмонов, 2016: 295]. Ya’ni, olim ushbu asarni o‘qish jarayonida inson o‘zini ham to‘g‘ri yo‘nalishda tarbiyalay olishiga, ham Navoiy asarlari mohiyatini anglab yetishiga ishonch bildiradi. Shu sababga ko‘ra ham bu asarni, albatta, o‘qib chiqish zarur ekanligini uqtiradi.

Umuman, Vahob Rahmonov o‘z umrini besamar o‘tkazmagan, ulkan mehnatlari evaziga el orasida obro‘ qozongan, tanilgan insonlardan biridir. “Olim o‘zining yetmish besh yillik umri, qirq besh yillik ilmiy faoliyati davomida, asosan, matnshunoslik bilan shug‘ullanib, olimlar, ayniqsa, o‘qituvchilar, noshirlar, keng jamoatchilik orasida hurmat qozondi. Xalqimiz orasida mumtoz adabiyot bilimdoni sifatida tanildi. V.Rahmon matnshunoslikda quyidagi masalalar muhimligini ta’kidlaydi:

1. Qo‘lyozmani to‘g‘ri o‘qiy olish;

2. Din tarixini yaxshi bilish;
3. Matn mazmuniga e’tibor berish;
4. Badiiy san’atlardan xabardor bo‘lish;
5. Aruz vaznlarini bilish;
6. So‘z ma’nolarini to‘g‘ri izohlash” [Умаров, 2022: 3].

Ko‘rinadiki, Vahob Rahmonov domlaning matnshunoslik borasida o‘z qarashlari va konsepsiyalari mavjud bo‘lib, ularda olimning matnshunos olim oldiga qo‘ygan talablarini ham ko‘rish mumkin. Ya’ni, har bir matnshunos o‘z sohasida yetuk bo‘lishi uning qo‘lyozmalarni o‘qiy olishi, islom dini tarixini bilishi, mazmunga jiddiy e’tibor qaratishi, badiiy san’atlarni yaxshi o‘rgangan bo‘lishi, aruz vazni qoidalarini bilishi, har bir so‘z ma’nosi bilan ishlab, uni to‘g‘ri izohlay bilishi kabilar shular jumlasidan ekan. Bunday bilimlarga ega bo‘lish uchun bo‘lajak olimlar o‘z ustilarida ko‘p ishlashiga to‘g‘ri keladi.

Ustozning “Alisher Navoiy. Mumtoz adabiyotimizning eng muhtasham qasri” nomli maqolasida matnlardagi, xususan, Alisher Navoiyning 10 jildlik “Tanlangan asarlar”idagi xatolar xususida so‘z boradi: “Agar biz yigirma jildlikdagi matn xatolariga islohlar tuzsak, menimcha, ikki jildcha matnni ko‘chirib, qaytadan bunisi xato, bunisi to‘g‘ri deb ko‘rsatishga majbur bo‘lardik.

Jahonning madaniy xalqlari fani andozasiga qaraydigan bo‘lsak, nashrdagi bir kitobda o‘nta jiddiy xato ketsa yo islohnoma yozadi yo man etiladi. Bizda esa ellik yillik tajribamdan kelib chiqadigan bo‘lsak, matnshunoslik da’vosi bo‘lgan olimlarimiz nashrlarida ham har bir kitobda 500tadan 1000tagacha matn xatosi sodir etilishi odatiy hol bo‘lib qoldi. Dunyodagi biror bir xalq chalasavodlikka nisbatan bizday bag‘rikenglik qilarmikan?” [Раҳмонов, 2022:58]. Ya’ni Navoiy asarlarini noto‘g‘ri o‘qish uning noto‘g‘ri talqiniga va noto‘g‘ri anglanishiga olib keladi, bu esa millat fojeasi darajasidagi haqiqatdir. Matnshunos olim aynan mana shu haqiqat uchun kurashadi va bu jarayonda o‘z qarashlarini bayon etadi: “Holbuki, Navoiyni Millat dahosi, Xalq dahosi, Xalq aqli-idroki, vijdoni darajasiga ko‘tarish ziyolilar va davlatning burchidir” [Раҳмонов, 2022:59]. To‘g‘rirog‘i, Alisher Navoiyday buyuk ijodkorning bizning millat vakili ekanligidan cheksiz g‘urur tuygan holda uning asarlari nashri masalasiga jiddiy e’tibor berish, uning ta’lim bosqichlarida o‘rganilish masalasi yuzasidan jiddiy ishlarni amalga oshirish kabi kelajak rejalarini ham bayon etadi. Bular bilangina cheklanmasdan olim bu jabhada ko‘plab ishlarni amalga oshirganligi barchamizga ma’lum.

Matnlardagi xatoliklar olimning bu borada yozgan maqolalari sarlavhalaridanoq ma’lum. Masalan: “Sulaymon malakmi?”, “Gul nola qiladimi?”, “Panja” yo‘qoldi”, “He, nomard bulut!”, “Ashob” nima degani”, “Duh”mi yoki “vuh”mi?”, “Kal” bormidi yoki yo‘q”, “Noshir uyqusiraganda”, “Quyosh o‘rnida eshak”, “Anbar hidli boyo‘g‘li bo‘ladimi?” kabilar shular jumlasidan.

Vahob Rahmonov matnshunoslik nazariyasi yuzasidan ham o‘z qarashlariga ega. Olimga bu borada ko‘maklashadigan jihat uning hayotiy tajribasi va tinimsiz izlanishlaridir. Olim jonkuyarlik bilan mumtoz asarlar bo‘yicha nashr qilingan matnlarni o‘rganadi va yo‘l qo‘yilgan xatolarni vaqtida bartaraf etishga harakat qiladi: “Kamina 1970-yildan beri shu sohani kuzatib, izchil o‘rganib, matnshunoslar mahsullari yutuq va kamchiliklarini tahlil-u sarhisob qilib, ularning ishiga baqadrihol maqolalar bag‘ishlab, rad va tanqid etganlariga vaqtida yoki kechroq javoblar berib kelmoqdaman” [Раҳмонов, 2022:72].

Olimning matnshunoslik nazariyasiga oid qarashlaridan ayrimlariga e’tibor qaratmoqchimiz. V.Rahmonov “Matnshunoslik – zakovat va idrok ilmi” deb nomlangan maqolasida “Matnshunoslik – arab yozuvidagi mumtoz matnni to‘g‘ri o‘qib boshqa yozuvda to‘g‘ri ifodalash ilmidir”, deyish orqali bu sohadagi eng oddiy jihatni anglatishga harakat qilgan. “Matnshunoslikdagi taomildagi haqiqat: avval mumtoz asar ilmiy-tanqidiy matni yaratiladi, so‘ng o‘sha eng ishonchli nusxadan boshqa yozuvga sog‘lom matnlar to‘g‘ri ko‘chiriladi. Ilmiy-tanqidiy matn arab yozuvida bo‘ladi” [Раҳмонов, 2022:86] kabi qoidalarni keltirishi bu sohadan yiroq bo‘lgan insonlarga ham uning mohiyati anglanishida qo‘l keladi. Sababi, bu nazariy jihatlar sodda va ravon tilda yozilgan.

“Arab yozuvidan: xoh ilmiy matn, xoh nashr, xoh qo‘lyozmadan boshqa yozuvga ko‘chirish – bu mushkul ish. Chunki bunda aql-idrok, zako qatnashib, olim matndagi har bir so‘z ma’nosini zohiran – yuzaki tushunmog‘i shart” [Раҳмонов, 2022:87]. Mazkur nazariy qarash esa matnshunoslik sohasining bo‘lajak mutaxassislariga dasturulamal vazifasini o‘tashi mumkin.

Navbatdagi nazariy ma’lumot ham aynan mutaxassisga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda matnshunoning noshirlik ishlari bilan bog‘liq jihatlari ham alohida keltirilgan. “Mumtoz adabiyot namunalarini arab yozuvidagi qo‘lyozma yoki toshbosma, nashr kitoblaridan amaldagi kirill yoki lotin yozuviga ko‘chirib nashrga tayyorlangan nusxa adabiy versiya bo‘ladi va uni tayyorlagan kishiga nashriyot mualliflik huquqini beradi” [Раҳмонов, 2022:130].

Matnshunos olimning bu borada yangicha atamalar qo‘llagan o‘rinlarini ham ko‘rish mumkin. Xususan, “Navoiy kitoblaridagi neoneologizmlar shunday yangi so‘zlardirki, ularning izoh va lug‘atlari jahon tillari izohli lug‘atlarida ham mavjud emas. ... O‘n jildlikda Navoiy neoneologizmlari – eng yangi so‘zlari paydo bo‘lmagan bo‘lardi va men gunohkor banda “To‘la asarlar to‘plami”dagi neoneologizmlar uchun “ilova-lug‘at” tuzib o‘tirmagan bo‘lardim-a...” [Раҳмонов, 2022:174]. Bu tadqiqda “neoneologizmlar” atamasi “neologizmlar” atamasi asosida shakllantirilgan bo‘lib, bu o‘rinda Navoiy asarlari o‘n jildligidagi xato o‘qilgan so‘zlar nazarda tutilgan. Qiziqali tomoni shundaki, avvalgi holatlarda, ya’ni nashrga tayyorlovchilar xatolarida noto‘g‘ri o‘qilish – o‘sha so‘zga o‘xshash so‘z qo‘llanilishi

kuzatilsa, bunda umuman boshqacha – lug‘atlarda yo‘q bo‘lgan, tilimizda mavjud bo‘lmagan so‘zlar qo‘llanilganligi nazarda tutilmoqda. Bu, albatta, nashrga tayyorlovchilarning e’tiborsizligining yomon oqibatidir.

Umuman, Vahob Rahmonov ustozning matnshunoslik, navoiyshunoslik, bobur shunoslik va boshqa sohalarda qilgan ulkan ishlari ilm olamida to‘laqonli e’tirof etilgan: “O‘zbek aabiyoti bo‘stoni” turkumida chop etilgan 15 ta yirik kitobning 9 tasiga Vahob Rahmonov mas’ul muharrirlik qilgan. Yana ikkitasida ham bevosita ishtirok etgan.

... Matnshunoslik sohasida Vahob Rahmonov salohiyatini birinchi bo‘lib Hamid Sulaymon sezgani, ta’bir joiz bo‘lsa, tan olgani rost. Xuddi shunday birinchi bo‘lib, bu borada siylovni ham u bergani rost [Аҳмедов, 2022: 515-517]. Voqealar rivoji davomida Navoiy “Ilk devon”i baytidagi “Sulton Husayn” “sultoni husn” tarzida o‘qilishi isbotlanadi va akademik olim yosh matnshunosga “bir jigulining puli”ni berib, bu devonning matniy tahriririni topshiradi.

“Sirasini aytganda, ilmiy darajasi oliy bo‘lgan ayrim odamlardan ko‘proq biladigan bu odamning nafsi siniq. Vahob Rahmon o‘n jildlik xizmat qilib, nashriyot bir jildlik qalam haqi bersa ham ko‘nib ketaveradi., yotvolib tortishmaydi”[Раҳмонов, 2022: 524].

Navoiy asarlarini chop etishda ayrim e’tiborsizliklar va xatolar uchrab turishi to‘g‘risida Vahob Rahmonovning ba’zi topilmalariga e’tibor qaratamiz: “Bilasizmi, ikkita “yangilik” bor. Birinchisi, Alisher Navoiy uylangan ekan. Xotini bo‘lgan ekan. Ikkinchisi, Navoiy o‘z joniga qasd qilgan, ya’ni o‘zini o‘zi o‘ldirgan ekan! Sababi esa, xotinining naslsizligi – tug‘masligi ekan”, deganlarida aslida domla Navoiy asarlarining to‘plami chiqqan kitoblarda shunday chalkashlikni ko‘rganligi xususida so‘zlamoqda. “Hazratning “Xazoyin ul-maoniy” devoni tarkibidagi “Navodir ush-shabob”ning 189-betidagi bir baytni o‘qib, shu “yangilik”ni topganlarini, buni Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami”ning yigirma jildligidan to‘rtinchi tom orqali tekshirish maqsadga muvofiq ekanligini aytib, 4-jild 189-betdagi 259-g‘azalning maqta’sini ifodali o‘qish orqali uning mazmunini tushunishga harakat qiladilar:

Gar Navoiy hajr aro o‘lturdi o‘zni yo‘q ajab,
Qildi yori **naslidin** novmid qolg‘ondin bu ish...

Bu baytdan “Navoiyning o‘zlari: “Agar Navoiy ayriliqda o‘zini o‘ldirsa ajab emas. Chunki yori naslsizligidan noumid bo‘lgani tufayli bu ishni qildi” degan mazmun kelib chiqayotganligini aytish orqali matnda aynan shu mazmun borligini ko‘rsatgan olim bu xatolik noto‘g‘ri o‘qish oqibatida paydo bo‘lganligini aniqlaydi. “Ana shu baytdagi “naslidin” so‘zining birinchi “n” harfini o‘chirib, “v”ga isloh qiling. Va nuqtayu e’roblarini joy-joyiga qo‘yib, yana bir bor o‘qing”.

Gar Navoiy hajr aro o‘lturdi o‘zni yo‘q ajab,
Qildi yori **vaslidin** novmid qolg‘ondin bu ish...

Hayriyat. Bu nuqsonni o‘z kitobimda tuzatdim. Qolgan 7499 ta kitobning xatosini kim aytadi-yu, kim tuzatadi?! – deb kuyundilar [https://aniq.uz/yangiliklar/turkiy-til-islohoti-yoxud-navoiy-uzini-uzi-uldirgan-mi]. Ya’ni, oshiq maa’shuqasining vaslidan noumid bo‘lganidan o‘zini o‘ldirishga chog‘lanmoqda. Bunday mazmun esa har qanday g‘azal xossasiga to‘g‘ri keladigan ma’noni beradi.

Vahob Rahmonov o‘z ilmiy-adabiy faoliyati davomida arab (eski o‘zbek) yozuvidan 12 ta kitobni kirill va lotin yozuvlarida nashrga tayyorlagan, 6 ta kitobni tabdil va tarjima qilgan. O‘z muallifligida 5 ta kitob chiqargan, 50 ga yaqin kitoblarga maxsus va mas’ul muharrirlik qilgan. 200 dan ortiq ilmiy maqolalar e’lon qilgan.

Vahob Rahmonov domla ustoz sifatida ham shogirdlari orasida ardoqli. Ustozning respublikamizdagi son-sanoqsiz shogirdlaridan tashqari Tojikiston Respublikasida ham bir qancha shogirdlari u kishining ilm-zakosidan haligacha bahramand bo‘lishib, o‘zlarida bo‘lib o‘tadigan har qanday ilmiy yig‘inlarga ustozni taklif etishadi.

Vahob Rahmonov yaxshi suhbatdosh, u kishi bilan qaysi mavzuda suhbatlashmang, barcha sohaning bilimdoni ekanligi ayonlashaveradi, xoh u zamonaviy adabiyot bo‘lsin, xoh mumtoz adabiyot. Ustoz Vahob Rahmonov Guliston davlat universitetining faxri. Ustozning serqirra adabiyotshunosligi uning yuqorida sanab o‘tilgan sohalar bilimdoni ekanligida, xususan, matnshunoslik, boburshunoslik, navoiyshunoslik, lug‘atshunoslik kabi murakkab sohalarning bilimdoni ekanligida ko‘rinadi.

Ko‘rinadiki, ustoz olim ko‘p yillik mashaqqatli mehnatlari tufayli ilm olamida yirik matnshunos, navoiyshunos, boburshunos, lug‘atshunos olim sifatida shuhrat qozongan. Olim hali ham izlanish jarayonida. Katta-katta loyihalarning asosiy itirokchisi sifatida ish boshlagan. Kelajak rejalari ham millat ravnaqi va kelajagi yo‘lida ekanligi ma’lum. Ustozga bu borada muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Adabiyotlar

1. Vahob Rahmonov. 2005. Mumtoz adabiyotimizning eng muhtasham qasri. //Ma’rifat gazetasi, 9-fevral.
2. Rahmonov B. 2022. Mumtoz so‘z bahsi. – Tashkent: Adabiyot.
3. Rahmonov V. 2016. Ko‘ngillar hamrozi.XX asr o‘zbek mumtoz adabiyotshunosligi. Antalogiya. – Tashkent:O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
4. Muhammad Haydar mirzo. 2010. Tarixi Rashidiy.(V.Rahmonov va Ya.Egamova tarjimasi). – Toshkent: Sharq.
5. Rahmonov Vahob. 2015. Matnshunoslik: tajriba, intuitsiya va mas’uliyat// Yoshlik, №11.

6. Umarov Ergash. 2022. Matnshunos olim. / Rahmonov B. Mumtoz so‘z bahsi. – Tashkent: Adabiyot.
7. Axmedov Ahror. 2022. Vahob Rahmonov dunyosi. So‘ngso‘z o‘rnida./ Rahmonov B. Mumtoz so‘z bahsi. – Tashkent: Adabiyot.
8. Rahmonov V. 2020. She’r san’atlari. – Tashkent: Sharq.
9. https://aniq.uz/yangiliklar/turkiy-til-islohoti-yoxud-navoiy-uzini-uzi-uldirgan-mi
10. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/vahob-rahmonov-matnshunoslik-tajriba-intuitsiya-va-masuliyat pg.3.
11. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/vahob-rahmonov-matnshunoslik-tajriba-intuitsiya-va- masuliyat.pg.4.

Bobur ijodining nazm - ul javohiri
The jevel of babur’s work

Gulnavoz MAMADALIYEVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo‘llari, ko‘rgan- kechirganlari va ijodining nozik qirralari haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, allomaning shoh asari “Boburnoma”ning ta’rifiga bag‘ishlanadi. Undagi ayrim voqealar yuzasidan ma’lumotlar berib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”, “Vaqoyi”, “Temur tuzuklari”, san’at, ma’rifat.*

Annotation: This article talks about Zahiriddin Muhammad Babur's life path, experiences and subtle aspects of his work. Also, the description of the master's masterpiece “Baburnoma” will be dedicated. Information about some of the events was given.

Key words*: Zahiriddin Muhammad Babur, “Baburnoma”, “History”, “Tuzuklari Timur”, art, enlightenment.*

Har bir yurtning tarixiy, madaniy, milliy qiyofasini aniq belgilovchi buyuk insonlari, ulug‘ olimlari, yirik adabiyot vakillari va hassos shoirlari bo‘ladi. Insoniyatning abadiyotga mansub ana shunday buyuk farzandlari sifatida Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z o‘rniga ega. Insoniyat tarixida Boburchalik yuksak iqtidor va fazilatlarga ega beqiyos kishilar juda kam uchraydi. Bobur buyuk podshoh, mumtoz shoir, nazariyotchi adabiyotshunosh, fiqh, tilshunos, san’atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko‘p qirrali faoliyat va ijod sohibi edi.

Bobur hazratlari butun umr juda katta firoqda yashagan, asosan, yurt sog‘inchi bilan yonib yashagan shoh va shoir, shoir va shoh Bobur hazratlari haqida gap ketganda bu tashbehning qay biri ul mo‘tabar zotga munosibligini bilmay qolamiz. Fikrimizcha, u qanchalik buyuk shoh bo‘lsa, shunchalik buyuk shoir, ulug‘ inson, dilbar shaxs bo‘lgan. U o‘zining betakror salohiyati bilan shohlik va sarkardalikni, shoirlik, yozuvchilik va tarixnavislikni omuxta qila bildi. “Xatti Boburiy” deb nomlangan yangi alifbo tuzdi, aruz, qofiya, musiqa va harb ilmiga oid qator risolalar yaratdi, tarjima bilan shug‘ullandi. “Boburnoma” asari esa bir necha asrlardan buyon olimlar, ijodkorlar, siyosatchlilarni hayratga solib kelmoqda. Undagi ma’lumotlarning aniqligi va yorqinligi tariximizning chalkash nuqtalarini bartaraf etish, oydinlashtirishga xizmat qilib kelmoqda. Ushbu asarning voqealar bayoni aniq,

[1] Gulnavoz Mamadaliyeva – NamDU stajyor-o‘qituvchi

ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, ayniqsa kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat beradi. Asarda o‘sha davr kishilarining haqqoniy, realistik tasviri berilgan. Bu narsa Boburning bergan ma’lumotlaridagi ishonchlilikni ta’minlagan.

Shoirning yagona maqsadi yirik va mustahkam markazlashgan davlat tuzishdan iborat edi. Bu maqsad amalga oshdi. Biroq u o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtida – Movarounnahrda emas, balki undan ancha olisda – Hindistonda amalga oshdi. Adibning o‘zi bu hodisadan doimo iztirobda bo‘lganligi “Boburnoma”da juda yorqin tarzda aks etgan. Chunki asardagi markaziy obraz Boburning o‘zi, albatta. Unda Bobur hazratlarining his-tuyg‘ularga boy qalbi ko‘z oldimizda yorqin jonlanadi. Asarni o‘qir ekanmiz, uning qanchalik tarixiy qiymatga ega ekanligini baholashga aql ojizlik qiladi. Zahiriddin Muhammmad Bobur faqat boy ijodiy merosi, sodda va samimiy she’riyati bilangina emas, o‘zining yuksak ma’naviyati, ulug‘ fazilatlatlari bilan ham bizni o‘ziga maftun etadi. Hatto u Hindistonni rasman bosib olgan bo‘lsa-da, lekin hind xalqi qalbida ham cheksiz hurmat va e’zozga sazovor bo‘lgan hukmdordir. Zero, Hindistonning donishmand farzandi, buyuk davlat arbobi Javoharla’l Neru shunday yozadi: “Bobur dilbar shaxs, uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan, u san’atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur olishni yaxshi ko‘rardi”. Bobur Movarounnahr, Xuroson, Afg‘oniston, Hindistondagi o‘zi ko‘rgan, bilgan shaharlarning iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rinlarini tahlil qilgan. Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan, o‘sha davrda juda qulay iqtisodiy geografik o‘ringa ega bo‘lgan Kobul va Qandahor shaharlarini ta’riflab quyidagicha yozadi: “Xurosondan Hindistonga boradigan karvon yo‘llarida ikkita shahar bor. Biri - Kobul, yana biri - Qandahor. Shimol tomondan Qoshg‘ar, Farg‘ona, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Balx, Hisor va Badaxshondan karvon Kobulga keladi, g‘arb tomondan - Xurosondan karvon Qandahorga tashrif buyuradi”.

“Boburnoma” asari bilan tanishar ekanmiz, bu mukarram va ulug‘ zotning o‘zidan sara ma’naviy xazina va ulug‘ nom qoldirganiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz. Chunki iloji boricha aniq sanalar, joy va odamlar, tabiat mo‘jizalari, hayvonot va nabotot sirlari bitilganki, bu asarni bitishning o‘zi uning katta sabr- toqat sohibi ekanligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, asarda Bobor ruhi naqadar pokligi, zehni yuksak darajada ekanligi sezilib turadi. Shu behalovat umri davomida uning mislsiz aql- zakovat, nozik ta’b, betakror zavq va pokiza hissiyot egasi ekanligini sezib turamiz: “Bir qatla sanattim, o‘ttiz ikki-o‘ttiz uch nav g‘ayri mukarrar lola chiqdi. Bir nav’ lola bo‘lurkim, andin qizil gul hidi kelur, lolai gulbo‘y der edik”,- deydi “Boburnoma” da Bobur. Bu ta’rif orqali ko‘z oldimizda janggohdagi sarkarda emas, lola saylidagi o‘simlikshunos, gullar shaydosi, ulardan zavq oladigan bir nozikta’b shaxs namoyon bo‘ladi.

Qobuldagi paytlarida daraxtlarga shunday ta’rif beradi: “Balut yig‘ochida yana bir ajib xosiyatdur: sabzgarlik shoxlariga o‘t qo‘ysalar g‘arib sharfa bila kuyar. Oyog‘idan boshigacha sharfa bilan bir zamonda kuyar”, deydi. Yonib turgan alanganing sharpasi-yu, uning hamma tomoni baravar kuyayotganini sinchiklab kuzatib turgan Bobur jangdan horib kelgan, g‘alaba yoki mag‘lubiyat tashvishida o‘tirgan sarkarda yoki davlat arbobi, shoh emas, o‘z his-tuyg‘ularini tabiat sirlari bilan yanada poklayotgan dilbar shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Bobur hazratlari “Boburnoma”ni tugallab, Humoyunga taqdim etganida unga bir ruboiy ilova qiladi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum,
Har kim bu “Vaqoyi’” ni o‘qir, bilgaykim,
Ne ranj-u ne mashaqqat-u ne g‘amlar ko‘rdum.

“Vaqoyi” – “Boburnoma”ning ilk nomi bo‘lib, keyinchalik hozirgi nomini olgan. Bobur o‘z zamonasida boshdan kechirgan barcha ko‘rguliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganining sababi bu ruboiyda aniq ko‘rsatiladi. Uning eng zo‘r istagi: “Vaqoyi”ni o‘qiganlar haqiqatni bilsinlar, u qilgan xatolarni takrorlamasinlar”. Zero, “Boburnoma” ham “Temur tuzuklari” kabi avlodlarga mislsiz hayotiy tajriba, ulkan saboq va qisman vasiyat tarzida yozilgan buyuk yodgorlik edi.

“Boburnoma” da shunday satrlar uchraydi: “Men hurmat-e’tibor qilib Ningnahor tumanini inoyat qilganim Sulton Sanjar barlos ham bu fitnada ular bilan sherik edi. Tutib, bo‘ynini bog‘lab keltirdilar. Iztirob bilan: “Hoy, menda ne gunoh?!” – deb qichqirardi. “Gunoh bundan ortiq bo‘ladimi? Sulton Sanjar barlos bu jamoat bilan hamjihat va kengashdoshlardan bir ulug‘rog‘i sen bo‘lsang! Xon dodamning volidasi Shohbegimga jiyan bo‘lar edi. Bunday sharmanda qilib sazoyi qilmang, bunga o‘lim yo‘qdir!” – deb buyurdim. Shohbegim va xonim bir uyda o‘tirgan edilar. Doimgi yerda tushib, borib burungidek adab va ta’zim bilan ko‘rishdim. Shohbegim va xonim behad, beqiyos iztirobda, xijolatdan boshlari egik xijil edilar. Na ma’qul uzr ayta oladilar, na durustroq hol-ahvol so‘rashga botina oladilar ”.

Shuningdek, Bobur bu bitilganlardan maqsad shikoyat emas, rost voqealarni yozayotganligini, bu yozilganlardan maqsad o‘zining ta’rifi emas, haqiqiy voqea bayonini tahrir etish istagi ekanlini, negaki bir paytlarda shunga qaror qilinganligini ta’kidlab o‘tadi. Zotan, Bobur qaysi ota va og‘adan qanday yaxshilik va yomonlik ko‘rgan bo‘lsa hammasini yozadi. Qarindosh va begonada hatto o‘zida har qanday ayb va fazilatlar sodir bo‘lgan bo‘lsa, hammasini ro‘y- rost bayon etadi. Chunki Bobur hazratlari mard, jasur va juda oliyjanob inson edilar, boshqalardan ham shunday fazilatlar egasi bo‘lishni talab qilar edilar. U barcha qarindoshlar ahil bo‘lishini, bir yoqadan bosh chiqarib, dushmanga birgalikda zarba berish kerakligini

uqtirar edi. Bobur Shayboniyxonning katta harbiy salohiyatga ega, ayyor va tadbirli podsho ekanligini ham tan olar edi. Shuning uchun u bilan kurashish uchun faqat birlashish kerakligini his qilar edi. Masalan, bir o‘rinda u shunday deb yozadi:

“…Kepak mirzo Mashhadda edi. Bir necha marta kishilar yuborsalar-da, noma’qul so‘zlar aytib, nomardlik qilib kelmadi. Uning gina-kudurati Muzaffar mirzodan edi, ya’ni: “U podshoh bo‘lganda, men qanday qilib uning qoshiga boraman?!” – derdi. Shunday bir paytda barcha og‘a-ini bir yerda yig‘ilib, ittifoq bo‘lib, Shayboniyxondek g‘anim ustiga azm-u jazm qilib yurayotganida ana shunday bemaza ginaxonligini qilib kelmadi. Uning bu kelmaganini hozircha ginaxonlikka yo‘yarlar, holbuki, barcha buni nomardlik deb o‘yladi. Bundan maqsad shuki, bu dunyoda kishidan ana shunday narsalar esda qoladi. Aql egasi bo‘lgan har qanday odam ortidan yomon so‘z bilan eslanadigan ishlarga nega qo‘l urarkin, es-hushi joyida bo‘lgan har bir kishi dunyodan o‘tgach tahsinlar bilan eslanadigan ishlarni qilishga nega urinmas ekan**?** Ismning yodga olinishini hakimlar ikkinchi umr deganlar…”

“Boburnoma”ni ko‘chirgan kotib tomonidan aytilgan ushbu fikrlarni ham fikrimizning isboti uchun keltirsak bo‘ladi: “U Kobul podshohning yaxshiliklarini aytib va yozib tugatish mahol. Lekin lo‘nda qilib aytganda, uning asli zotida mana bu sakkiz sifat hamma vaqt mujassam edi: birinchisi shuki, muvaffaqiyatlari baland edi; ikkinchisi – himmati arjumand (aziz himmatli) edi; uchinchisi – viloyat olmoq; to‘rtinchisi -viloyat saqlamoq; beshinchisi – ma’murlik; oltinchisi – Tangri taolo bandalariga turmush kengchiligi (yaxshi ahvol) niyati; yettinchisi – lashkarning ko‘nglini qo‘lga olish; sakkizinchisi – adolat qilmoqlik”.

Shu o‘rinda aytish kerakki, Bobur hazratlarining otasi ham juda muruvvatli, oliyjanob, kitob ko‘rgan inson bo‘lganlar. Bobur o‘z otasi haqida shunday yozadi:”… Adolati bu martaba ediki, Xitoy karvoni keladurganda, Andijonning sharqiy tarafidag‘i tog‘larning tubida ming o‘yluk korvonni andog‘ qor bostikim, ikki kishi qutuldi. Xabar topib, muhassillar (xiroj oluvchilar) yiborib, korvonning jam’i jihotini (hamma yog‘ini, butun atrofini) zabt qildi... Samarqand va Xurosondin vorislarini tilab kelturub, mollarini solim (omon, sog‘-salomat) topshurdi..” Otasidagi bu hislatlarning ko‘pi Boburning o‘zida ham mujassamlashganini qayd etish joiz.

Masalan, Bobur ham har qanday vaziyatda, hatto urush-taloshlar avj olib turganida ham adolat mezonini qattiq tutgan. Qunduz shahri atrofida Xisravshohning askarlari ancha betartiblikka, zulm va zo‘ravonlikka o‘rgangan edilar. Ular Boburga qo‘shilganidan keyin ham bu odatlarini tashlamaydi. Bir navkar “birovning bir ko‘za yog‘ini tortib olg‘on uchun eshikka kelturub tayoqlattim, tayoq ostida o‘q joni chiqdi. El bu siyosattin tamom bosildilar”, – deb ta’kidlaydi Boburning o‘zi.

“Borurnoma” asarining yana bir eng asosiy xususiyati shundaki, asarning oxiridagi voqealar, Humoyun xastalik paytida Boburning o‘z jonini sadqa qilishi

inson e’tiqodi, butun borlig‘i bilan biror narsaga asdoydil bel bog‘lasa, unga erishishi borasidagi ilohiy quvvatning belgisini bildiradi..

Bundan ko‘rinib turibdki, Bobur tabiatida tantilik, oliyjanoblik, kechirimlilik, ma’naviy qarashlarida yaxshilik, insonparvarlik, Vatan tuyg‘usi, har qanday holatda ham odamiylikni saqlash salmoqli o‘rin tutadi. Uning bu g‘oyalari bugungi kunda ham yosh avlodni Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, milliy istiqlol g‘oyalari va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘lib qoladi.

Zero:

Har kimki, vafo qilsa — vafo topqusidur!
Har kimki, jafo qilsa — jafo topqusidur!
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki, yomon bo‘lsa — jazo topqusidur!

Darhaqiqat, Bobur O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog‘ (“Bog‘i Bobur” Namanganda ham mavjud) bor. Bobur milliy bog‘i majmuasida “Bobur va jahon madaniyati” muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuyida shoirga haykal o‘rnatildi. Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek, Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta’sis etildi.

Shuningdek, 1993-yil 23-dekabrda tashkil etilgan Xalqaro Bobur jamg‘armasi Bobur ijodini o‘rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘ylab ilmiy safarlar uyushtirib, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi.

“Boburmoma” asari hali-hamon buyuk tarixiy obida va ma’naviyat sarchashmasi sifatida tinimsiz o‘rganilib, avlodlarga tarixdan sado sifatida mislsiz saboq berib kelmoqda. Mustaqil O‘zbekistonimizning gullab-yashnashi yo‘lida fidokorlikka undovchi chaqiriq sifatida yangramoqda.

Adabiyotlar:

1. Qudratullayev, Hasan. 1983. Boburning adabiy-estetik qarashlari. –Toshkent: “Fan”.
2. Nazarova, X. 1980. “Boburnoma” tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. Toshkent.
3. Stebleva, I.V. 1983. Semantika gazeley Babura. – Moskva.
4. Sulton, X. 1996. Boburiynoma. –Toshkent: Ma’naviyat.

Bobur lirikasida tasavvufiy talqinlar
Mystic interpretations in Babur's lyrics

Mafzuna NUTFULLAYEVA[1]

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida tasavvufning o‘rni, ijodkor shaxsiyati bilan bog‘liq o‘rinlari atroflicha yoritildi. Bobur she’riyatidagi tasavvufiy ma’no qirralari va uning mahorati masalalari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: *Tasavvuf, mutasavvuf, solik, pir, tariqat, shariat.*

Annotation: In this article, the role of mysticism in the lyrics of Zahiriddin Muhammad Babur, aspects related to the creative personality are covered in detail. The aspects of mystical meaning in Babur’s poetry and the issues of his mastery were studied.

Key words: *mysticism, mutasavvuf, solik, pir, tariqat, shariat.*

Buyuk qalb egasi Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko‘tara oldi va natijada asarlarida olg‘a surilgan g‘oyalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. Kamtarona so‘zlar, faqirlik ruhiyati egasi bo‘lgan shoir o‘tkinchi maqsadlarni emas, asl maqsadlarni ko‘zlaydi.

Mujhko an hya kuchh havase munak moti,

Faqr ahlig‘a bas bo‘lg‘usi pani oroti [Bobur 1983: 597].

(Menga an yoqut, an marvarid havasdur, /Ki faqr uchun suv va non basdur).

Bobur ijodida tasavvufiy baytlarning ma’no qirralari, tasavvufdagi qanday maqom va yo‘lda bo‘lganligi yuzasidan savollar paydo bo‘ladi. Buni Bobur hayot yo‘lida ham ko‘ramiz. Mamlakatda may ichishni man qilgani, o‘zi ham amal qilgani, qilgan gunohlari uchun tavba qilgani shular jumlasidandir. Uning din va diniy aqidalarga oid teran fikrlari va yondashuvlari lirikasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shoir ijodiga o‘ziga xos ma’no-mazmun va joziba bag‘ishlaydi. O‘z qarashlarini umumlashma darajasiga ko‘tarib, boshqalarga ham sindirishga harakat qiladi.

Bu boradagi savollarga javob tariqasidagi bir qancha izlanishlar olib borilgan. Ulardan: Ibrohim Haqqulovning “Tasavvuf va Bobur she’riyati” maqolasi, Anna Flora Stilning “Toj kiygan darvesh” kitobi, Hasanjon Qudratullayevning “Bobur armoni” va akademik Aziz Qayumovning tadqiqotlarida o‘rganilgan. Bobur she’riyatidagi ishq juda keng ma’noga ega. Ijodida ishq insonning insonga bo‘lgan

[1]*Mafzuna Nutfullayeva* – O‘zbekiston Respublikasi Termiz shahri, Termiz Davlat Universitetining 1-kurs magistranti, pedagog.

muhabbatidan insonning Allohga bo‘lgan muhabbati darajasiga o‘sib boradi. Adib bu so‘fiyona qarashlar orqali o‘zidan oldingi yetuk so‘fiy shoirlarning an’analarini davom ettirib, unga boburona ruh beradi.

Yo Rab, xavos jam’ida Boburni xos qil,
Yoxud avom tafriqasidin xalos qil.

Muallif Allohdan xos kishilar qatorida uni ham xos qilishini, bexabar va nafs bandalaridan yiroq va baland qilishini so‘raydi. Nafs jaholatidan va faqatgina avom insonlar jam’idan yiroq tutishni emas, o‘zini ham nafs razolatidan xalos bo‘lishni xohlaydi.

Shahvatu nafs qaviy dushmandur,
Ming seningdekni zabun qilgandur.

Insoniyatni johillik-u va boshqa shu kabi illatlarga yetaklaydigan, yo‘ldan ozdiradigan ham nafsdir. Shuning uchun Bobur uni “qaviy dushmandur” deb ataydi. Nafsning ilgida zabun bo‘lmoqlik esa razillikdir. Insoniyatga nafs qanchalab qabohat-u halokatlarni olib kelar, bandalarni komiga yutgan, seni ham oqibatda xarob qiladi. Undan ruhni poklash, nasf tizginini mahkam tutish lozimdir. Nafsni yengmasdan ruh pokligiga, qalb xotirjamligiga erishib bo‘lmaydi.

Nafsning kasbidur havoyu havas,
Ruh oldidadir bular yaramas.

Nafs dushmandurur yaqin bilgil,
Do‘stum, bu so‘zumni chin bilgil.

Dushmanedur, agarchi, o‘tru emas,
Lek, bir lahza sendin ayru emas.

Garchi zohirda to‘g‘ridektur nafs,
Jisming uyida o‘g‘ridektur nafs.

Burnog‘ilar so‘zin nazar qilg‘il,
Uyning o‘g‘iridin hazar qil.

Nafs tavsanini rom qil o‘zungga,
Qodir ul harna so‘z desang so‘zungga.

Bobur nafs haqidagi xulosalarini, uning muvozanatini saqlolmaslik oqibatlarini boshqalarga ham anglatishga harakat qiladi: nafs dushman, ammo inson uni o‘ziga yaqin biladi. U muqim emas, biroq insondan bir lahzagina bo‘lsa-da ayro ham emas. Tashqi olamda go‘yoki nafsning istaklari to‘g‘ridek, uni amalga oshirish shunchaki hayot qonuniyatidek tuyuladi. Botiniy olamdan nazar solsa, u jism

ichidagi o‘g‘riga o‘xshaydi. U hamma narsaga qodirdir. Agar undan hazar qilmasang, uni oqibatlarini yetarlicha anglay olmasang, sening zohiriy va botiniy olam o‘rtasidagi muvozanatni buzishi, iymoningni sustlashtirishi mumkin.

Necha nafs ilkida zabun bo‘lmoq,
Suxrai zumrai junun bo‘lmoq.

Ne desang nafsning rizosi bila,
Neki qilsang havosi bila.

Fisq qilmoqdin o‘zga fikring yo‘q.
Faxsh demakdin o‘zga zikring yo‘q.

Nafsning izmida bo‘lgan inson bilki, qanday iymoningga to‘g‘ri kelmaydigan so‘z so‘zlasang, uning xohishi bilan, seni bu dunyoga bog‘laydigan, yaratgandan uzoqlashtiradigan nimaki qilsang, uning havosi bilan amalga oshirasan. Fisq-u fasoddan boshqa narsani fikr qilmaysan, yodingda esa faqatgina faxshdir. Bular esa oxir-oqibatda uning qo‘lida uvol bo‘lishing bilan yakunlanadi. Farididdin Attorning “Tazkiratul avliyo” asarida shunday deyiladi. Malik Dinor Hasan Basriydan “Bu dunyoning azob-uqubati nedur?”, – deb so‘raganda u “qalb halovati”, – degan ekan. “Qalb o‘limi nedur?” – deb so‘raganda esa “Bu dunyoga muhabbat” [Ibrohim Haqqul 1999: 243], – degan ekan Hasan Basriy. Bunday qarash va e’tiqod Bobur ijodiga ham singib ketgan.

Tama’ uzgil bu eski dunyodin,
Xotiringdin chiqar bu dun yodin.

Shunday ekan nafs ilgidan tutib, o‘tkinchi hoyu-havaslarga to‘la dunyoga hirs qo‘yma, bu eski dunyodan umid uz va undagi razilliklar yodini ham xotirangdan chiqar degan qarashlarni guvohi bo‘lamiz. Bobur nega “eski dunyo” deydi? Sababi dunyo boqiy emas, bizdan oldin ham qolgan, bizdan ham qoladi ma’nosini nazarda tutgan.

Tariqu faqr suluk ahlig‘a new xush yo‘ldur,
Vale bu yo‘lda keraklikturur rafiqi shafiq.
Tariqi faqr agar istasang, beri kelkim,
Suluk ahli demish: “alrafiqu summa tariq”.

Tariqat ahliga faqr yo‘li qanday yaxshi yo‘ldir. Lekin bu yo‘lda shafiq do‘st kerak. Agar faqirlik yo‘lini istasang, beri kel. Tariqat ahli demish: “alrafiqu summa tariq”, ya’ni avval, faqirlikni o‘zingga do‘st qilib ol, so‘ng tariqat yo‘liga kir. Tariqatni ixtiyor qilgan faqirlikni ham ixtiyor qiladi degan e’tiqod ilgari surilgan. Zero, Muhammad solallohu alayhissalomning “Al-faqr – faxri”, ya’ni “Faqirlik faxrimdir” [Imom Buxoriy, 1996:368], - deb aytgan edi. Muallifning bu boradagi qarashi ushbu she’rida ham davom etadi.

Ki, qilg‘aymen albatta darveshlik,
Tariqat yo‘lida vafokeshlik.

Bobur darveshlikni o‘ziga hamroh qilib, tariqat yo‘lida sobit bo‘lmoqchi. Shuni aytish joizki, u tasavvufning birinchi maqomi – tariqat yo‘lini darveshliklikdan ayro emasligini uqtiradi.

Tilarmen gadoyig‘a bo‘lsam gadoy,
Bu davlatni qilg‘ay muyassar Xudoy.

Shu boisdan Bobur Allohdan uning sevgan bandasi gadoyg‘a gadoy bo‘lishini, bu uning uchun davlat, Haqning unga buyuk marhamati ekanligi va Haq taolo unga buni, albatta, muyassar aylashiga umidvor. Zeroki Shayx Sa’diy “Guliston” asarida aytadiki: “…darveshlar haqiqati tirik ko‘ngil, bedor dil va o‘lgan nafsdir”. Bobur satanat podshohi, sulton bo‘lsada, darveshlik tomon intiladi. Negaki bu uning e’tiqodi demakdir. Darveshlik uning siyratida! Hatto hayot yo‘llarida ham bunga amal qilganini guvohi bo‘lamiz. “Boburnoma” asarida keltirilishicha: “… shunday kunlarning birida bir qulay vaqt topib Turdibek Xoksor Podshoh Bobur huzuriga ta’zim bilan kirib keldi.

– Kelingiz, Turdibek, biror yangi inshongizni keltirdingizmi? – deb so‘radi Bobur hazilomuz.

– Bu safargi inshomiz iste’fo arzidir.

– Bu nima deganingiz?

– Shoir odam uchun darveshtabiatlik mos va xos kayfiyatdir. Bu kayfiyat shoirning qonida bo‘lur erkan. Hech yo‘sinda sipohiylik tabiati qonga sig‘may keladur. Agar ruhsati oliy bo‘lsa, yana darveshlik ko‘yiga qaytsam, deyman.

Bobur o‘ylanib qoldi. Aslida shoh Bobur tabiatida ham darveshlik bor edi. Biroq Bobur shu bilan birga podshoh edi. Podshohlik va darveshlik qarama-qarshi tabiat bo‘lib, podshoh siyosat bilan ish qilishi kerak. Ammo Bobur bu ikki tabiatni bir jonga sig‘dirgan edi. Bu qanchalik mushkul ekanligini Bobur ichki kechinmalari biladi, xolos. Xoksordagi darveshlikni sipohiylik bilan bandi etish kerakmi? Bu narsa joiz emas deb bilgan va yaxshi his qilgan Boburning xohishini qabul qiladi.

– Uzringiz qabul qilindi, - dedi Bobur.

Turdibek Xoksor minnatdorchilik bilan podshohga ta’zim qildi. Bobur qo‘ynidan bir qog‘oz olib shoirga uzatdi.

– Buni o‘qingiz. Kecha kechqurun yozilgan edi.

Turdibek Xoksor Boburning qo‘lidagi qog‘ozni odob bilan oldi va yarim ovoz bilan o‘qiy boshladi:

Darveshonro agar an az xeshonem,
Lek az dilu Jon mu’taqidi eshonem.
Durast mago‘y shohiy az darveshiy,
Shohem vale, bandai darveshonem.

*(*Darvishlar bizga xesh bo‘lmasalar-da, lekin biz ularga jonu dildan xayrixohimiz. Shohlik darvishlikdan uzoqdir, dema: shohmiz, ammo darvishlarga quldirmiz).

Turdibek shu she’rni o‘qigach, Boburga yana bir bor ta’zim qildi. Uning ko‘ngli Boburdek darvishtabiat insonning hukmronlik bandlari bilan chambarchas bog‘lanib tashlanganiga afsus bilan to‘la edi.” Oshiqlik va darveshlikni shohlikdan ustun yuqori qo‘ygan Bobur uni podshohlikdan yiroq ham bilmaydi. Sababi darveshlik nafs jilovini, adolat muvozanatini saqlab turgan. Tangri yaratgan qul ekanligini eslatib turgan.

Haq taolo nega yaratti seni?
Odamiylar sonig‘a qotti seni?
Kim o‘zung birla fikr qilg‘aysen,
G‘aflat uyqusidin oyilg‘aysen.

E’tiqodini mustahkamlash yo‘lida borayotgan Bobur botiniy dunyosini taftish qiladi. Haq nega yaratti seni? Nima uchun inson qilib, ular qatorida qildi? Kabi savollar bilan insoniyatga murojaat qiladi. Bular haqida qachon fikr yuritib, g‘aflat uyqusidan uyg‘onish kerakligini anglatishga intiladi. Bu yerda inson nomi ulug‘ sharaf ekanligi, Haq bunday sharafga muyassar etgani uchun ushbu ulug‘ nomga loyiq bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Bu da’vatlar, albatta, shoh Bobur oromini yo‘qotmasdan qolmagan.

Xudo yo‘li sori xirom aylayin,
Bu yo‘l qat’ida ehtirom aylayin.

G‘aflat uyqusidan uyg‘onmasdan Haq yo‘liga kirolmasligini yaxshi anglagan Bobur bu yo‘l sari odimlaydi va yo‘lidan ozmaslikni, qat’iy bo‘lishini xohlaydi.

Shariat ichida meni qodir et,
Tariqat yo‘lida meni sobir et.

Bundan tashqari, Haqdan shariat va uning qoidalarida sabrli qilishini, tariqat maqomotida bo‘lishga qodir qilishini so‘rar ekan, tinimsiz ruhiyatini taftish qilish, e’tiqodini yanada qusrlardan poklashga intilayotgani namoyon bo‘ladi.

Degasen mu’taqidu ma’mulum,
Ravishu tavru suluku yo‘lim.[4, 119]

Ijodkor baytda nima demoqchi? U e’tiqod masalasini o‘rtaga qo‘yarkan, o‘z yo‘lini ham aytib o‘tadi. E’tiborni “suluk” so‘ziga qaratish lozim. Negaki bu so‘z ikki ma’noga ega. Bu yerda Allohga yaqinlashish yo‘li, darveshlik hayoti nazarda tutilgan.

Tiyradur zuhd damidin ko‘ngil,
Ishq o‘ti birla yorutmog‘ kerak…

Umri so‘ngigacha ruhiy kamolotga intilgan Bobur haqiqiy oshiqlik-u zohid maqsadini yaxshi farqlagan. Shuning uchun ham zohid ishqida ta’ma borligiga

ishora qilib, uning nafasidan ko‘ngillar vayron bo‘lmoqda, ozorlanmoqda. Ularning ko‘nglini haqiqiy ishq o‘ti, uning tafti bilan yoritish kerak. Zero shunda zohidlar anglasa, ta’mani unutsa. Muallif ishonchi komil: ishqning azobi ham shunchalar ulug‘ va shirinki, zohidlar ishqdan boshqasini unutadi, ko‘ngil olami yuksaladi. Boburda zohidlar nazdidagi ishqqa shubha bor, ular ko‘ngliga haqiqiy ishq qanday bo‘lishini anglatish, buning uchun esa, ko‘ngliga uni olib kirish lozim. Bayt mazmunidan shu narsa anglashiladiki, Bobur shariat qonun-qoidalarini yaxshi bilgan. Uning bu boradagi falsafiy qarashlari lirikasidagi har bir janr, balki asarlari zamiriga ham singib ketgan. Xususan, “Mubayyin” asari shariatga oid qarashlari, tariqat yo‘lini tutgan solik xulosalari aks etgan.

Bordur andoqki, ayon aylabmen,
Men “Mubayyin” da bayon aylabmen.

Bir aning birla ish ochilmash emish,
Dardi dil chorasini qilmas emish.

Bobur bu boradagi kechinmalarini she’riyatga jo qiladi. So‘ngra nazmda tartib beradi. Lekin bu u bilan hech ish qilolmaganligi, dil dardiga chora, malham bo‘lolmaganligini qayd etadi.

Xulosa qilib aytganda Bobur ijodida tarixiylik va hayotiylik uyg‘unlashib ketgan. Lirikasining har bir qatida tasavvufda o‘z yo‘lini topgan va tariqat maqomini egallagan shaxs va mutasavvuf shoir ekanligi namoyon bo‘ladi. Ijod mahsullarida aks etgan tasavvufiy talqinlar shoirning botiniy olamini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Adabiyotlar

1. Bobur. 1983. Tanlangan asarlar. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot matbaa-ijodiy uyi.
2. Farididdin Attor. 2013. Tazkiratul avliyo. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Ibrohim Haqqul. 1991. Tasavvuf va she’riyat. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti.
4. Imom Buxoriy. 1996. Imom Buxoriy hadislari. 1996. Toshkent: “Hilol” nashriyoti.
5. Komilov, N. 1999. Tasavvuf. 1999. Toshkent: “O‘ZBEKISTON”.
6. Is’hoqov, Y. 1983. Navoiy poetikasi. Toshkent: “Fan”.
7. Muhammadiyeva D. Tarjimada somatik frazemalarning ifodalanishi. https://www.researchgate.net/publication/357899168 (internet manba).
8. Zahiriddin Muhammad Bobur. 1993. Devon. Mahrami asror topmadim. Toshkent: “Yozuvchi”.

9. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2004. Devon. Kobul nashriga takmila (qo‘shimcha). Toshkent: “Sharq”.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. 2018. Boburnoma. V.Rahmonov va K. Mullaxo‘jayeva tabdili. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
11. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. Sochining savdosi tushti.2007. Toshkent: “Sharq”.
12. *Заҳириддин Муҳаммад Бобур энциклопедияси*. 2017. Тошкент: “Шарк” НМАК.
13. *Кудратуллаев, Ҳасан. 2018. Бобурнинг адабий-эстетик олами.* Тошкент: Ma’naviyat.

MUNDARIJA
CONTENTS

Shuhrat SIROJIDDINOV. Bobur dunyosi	5
I SHO‘BA. ***ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA BOBURIYLAR FAOLIYATI, DAVLATCHILIK SIYOSATI, FAN VA SAN’AT TARAQQIYOTI*** **I SACTION.** ***ACTIVITY OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR AND BABURIS, STATE POLICY, DEVELOPMENT OF SCIENCE AND ART***	
Zokirjon MASHRABOV Zahiriddin Muhammad Bobur mo‘g‘ul emas, turkiy edi	8
Hamidulla DADABOYEV Bobur – Hindiston mamlakati tarixining tengsiz bilimdoni	13
Tanju SEYHAN XVI.Yüzyilda Babur şah’in eserlerinden Ali Şir Nevâyî’ye bakiş, kaynaklari arasinda yeri	18
Uzoq JO‘RAQULOV “Boburnoma”da shoh va shoir siymosi	40
Abdumajid MADRAYIMOV Tarixchi G‘iyosiddin Xondamirning bobur shunoslikka qo‘shgan hissasi	47
Ulfatxon MUHIBOVA Boburiylar sulolasi haqida hind mutaxassislarining mulohazalari	55
Kemal Yavuz ATAMAN Hace Ahrar-i veli ve Babürşah	63
Nurboy JABBOROV Zahiriddin Bobur she’riyatida milliy ruh va ijodiy tafakkur sintezi	71
Shuhrat HAYITOV Bobur siymosining badiiy talqini masalasi	79
Rahmon FARMONOV Bobur – benazir islohotchi va bunyodkor shaxs	86
Ёркиной АЛТМИШЕВА Историко- культурное наследие Бабура	93
Мукарам ТАШАЛИЕВА Дипломатические отношения Бабура с государствами Центральной Азии	101
Munavvar SHERALIYEVA, Mushtariy MEYLIKULOVA Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyatida insonparvarlik g‘oyalari	108
Назгул АДЫШЕВА Жизнь и наследие Захируддина Бобура	114
Nematilla OTAJONOV, Nilufar ALIJONOVA Bobur va boburiylar saltanati davrida Hindistonda kutubxonachilik	118
Elmira HAZRATQULOVA “Xalqaro turizm istiqboli: “Boburiy mashrutining ilmiy-amaliy asoslari”	126
Xasiyat BEKMIRZAYEVA Bobur ijodida hammom timsoli	131
Sherxon QORAYEV Boburiy podshoh Avranzeb Olamgirning diniy va adabiy majlislari	137

Рахима УМАРОВА Сулайман гора в контексте наследия Бабура	142
Dilafruz MUHAMMADIYEVA, Nigoraxon O‘KTAMOVA Boburiylar imperiyasida fan va san’at taraqqiyoti	144
II SHO‘BA. ***“BOBURNOMA”NING ADABIY-LINGVISTIK VA TARIXIY-SOTSIOLOGIK TALQINLARI*** **II SACTION.** ***LITERARY-LINGUISTIC AND HISTORICAL-SOCIOLOGY INTERPRETATIONS OF “BABURNAMA”***	
Samixon ASHIRBOYEV “Boburnoma” matni sintaksisining o‘rganilishiga doir	154
Ne’matilla OTAJONOV “Boburnoma” tarjimalarida ilmiy-adabiy aniqlikni yaratish muammolari	160
Zulxumor XOLMANOVA Bobur “yurish”laridan hozirgi “yurish”largacha...	137
Каромат МУЛЛАХОДЖАЕВА Об указах (фирманах) Бабура в «Бабур-наме»	177
Ziyoda TESHABOYEVA “Boburnoma”dagi harbiy terminlarning inglizcha tarjimalari qiyosi	182
Dilafruz MUHAMMADIYEVA “Boburnoma”ning o‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusini yaratishda tarjima muammolari	190
Toji NOROV “Boburnoma”da Alisher Navoiy xususida tarixiy ma’lumotlar	196
Alisher MAMAJONOV, Gulida AXMEDOVA, Abduvohid ALIShEROV “Boburnoma”da O‘sh qasabasi ekologik holatining ta’rifi	201
Sayyora SHODMONOVA “Boburnoma”dagi islomiy o‘lchov birlik leksemalari inglizcha tarjimalarining qiyosiy tahlili	207
Safar ERKAYEV, Qosimboy MAMUROV, Nigora ERKAEVA “Boburnoma” – sharq xalqlari tarixini o‘rganishda badiiy-tarixiy manba	211
Azizjon SHARIPOV “Boburnoma”da panjob viloyatining tarixiy geografiyasi	218
Jo‘rabek NAMOZOV, Mirdavlat MIRISLOMOV “Boburnoma”da keltirilgan geografik obyektlar va joy nomlarining ilmiy ahamiyati	231
Ilhom ASLONOV “Boburnoma”da Sulton Husayn Mirzo obrazi	235
Dilfuza TOSHNIYOZOVA Zahiriddin Muhammad Boburning Hindiston madaniyati va ekologiyasi rivojidagi o‘rni (“Boburnoma” asari misolida)	239
Zilola SHUKUROVA “Boburnoma” va “Tarixi Rashidiy” asarlarining bir-biriga bo‘g‘liqligi	245
Sarvinoz XOLMAMATOVA “Boburnoma” asarida qo‘llanilgan	

evfemizmlarning stilistik talqini	249
Iqbol O‘RAZOVA “Boburnoma” va “Layli va Majnun”dagi “jon” yadroli frazemalarning qiyosiy semantik tahlili	253
Ma’rufjon DUSTMURODOV Qadimgi turkcha bitigtoshlar va “Boburnoma”dagi mushtarak harbiy istilohlar	263
Mushtariy XOLMURADOVA “Qutadg‘u bilig” va “Boburnoma” asarida keltirilgan turkiy so‘zlar	273
Shirinoy MUHSINJONOVA “Devonu lug‘otit-turk” va “Boburnoma” asarlarida qo‘llangan taom nomlarining qiyosiy tadqiqi	276
Yulduz ZAYNIYEVA “Boburnoma” asaridagi sabab izofiy birikmasining inglizcha tarjimasi tahlili	285
Shahnoza MAQSUDOVA Ingliz va o‘zbek tillarida zoomorflar orqali shakllangan xarakter iboralar	289
Mubina ABBASOVA “Boburnoma”da gidronimlar va ularning inglizcha tarjimasi muqoyasasi	294
Gulbahor RASULOVA “Boburnoma” asarida uchraydigan daraxt nomini anglatuvchi fitonimlar	297
Dildora KENJAYEVA “Boburnoma”da etimologiyaning o‘ziga xosligi	301
Guzalbonu RAKHIMJONOVA Wheeler thackston’s significant contribution to the field of historical and literary studies	311
Sayyora MURODIMOVA “Boburnoma” – nasriy memuar, tarixiy ilmiy asar sifatida	319
Davronbek OLIMJONOV “Boburnoma” asarining antropologik xususiyatlari	323
Sadoqat USMONOVA “Boburiynoma” da Bobur siymosining aks etishi	327
Olmos Xurramov Hozirgi o‘zbek tarixiy nasrining janr xususiyatlari	334
Norqobil SHOIMOV, O‘tkirbek OTAYEV “Boburnoma” – Ichki ishlar organlari xodimlarida vatanga muhabbat, qasamyodiga hamda xizmat burchiga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishning manbai sifatida.	341
Gulnoza AXMADJONOVA, Ayubxon RAXMATXONOV “Boburnoma” asarida tarixiy obidalar haqidagi ma’lumotlar (Samarqanddagi tarixiy obidalar misolida)	346
Orziboni YUSUPOVA, Sherzod RO‘ZIYEV “Boburnoma”da keltirilgan o‘rin-joy nomlari haqida	350
Gulsanam ABDAZOVA “Boburnoma”da boburiy malikalar va ularning roli	353
Madina RAVSHANOVA “Boburnoma”dagi “dunyo” frazeologik birliklarining inglizcha tarjimalaridagi farqlari	356
Zebo HAMZAYEVA “Boburnoma”ning adabiy-lingvistik va tarixiy-sotsiologik talqinlari”	356

III. SHO‘BA. ***ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SHE’RIY, ADABIY-ILMIY MEROSINING FILOLOGIK ASPEKTI*** ***III SECTION.*** ***THE PHILOLOGICAL ASPECT OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR’S POETIC, LITERARY AND SCIENTIFIC HERITAGE***	
Vahob RAHMONOV Bobur she’rlarini tushunish osonmi?	366
Dilnavoz YUSUPOVA Boburning “Aruz risolasi”: tadqiq, tahlil va talqinlar	369
Izzat PARDAYEVA, Fazilat ESHBOYEVA Bobur – tilshunos	377
Gulhayo G‘OFUROVA Iste’dodli shoir, adib, zakovatli olim va tarjimon	381
Sherzod UBAYDULLAYEV Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zbek adabiyoti hamda madaniyatidagi o‘rni va roli	386
Shaxnoza ISMOILOVA Shoh Bobur va daho Navoiy	391
Oydin NURULLAYEVA Zahiriddin Muhammad Boburning turkiy til rivojidagi o‘rni	395
Rayxon RASULOVA Yosh avlodning nutqiy salohiyatini oshirishda Zahiriddin Muhammad Bobur ijodining ahamiyati	399
Charos TOSHQULOVA Zahriddin Muhammad Bobur adabiy- ilmiy merosining filologik aspekti	403
Mohigul ERGASHEVA Begali Qosimovning Bobur haqidagi tadqiqotlari	408
Mahbuba QARSHIYEVA Bobur shunos olim Vahob Rahmonovning matnshunoslikdagi ilmiy izlanishlari va “Bobur izidan” ekspeditsiyasidagi qimmatli topilmalari	411
Gulnavoz MAMADALIYEVA Bobur ijodining nazm - ul javohiri	422
Mafzuna NUTFULLAYEVA Bobur lirikasida tasavvufiy talqinlar	427

ILMIY NASHR

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

uluslararo ilmiy-nazariy
konferansi materiallari

2024-yil 25-26-sentabr

Toshkent – 2024